

# **1-mavzu: SOTSILOGIYANING FAN SIFATIDA VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOTINI ASOSIY BOSQICHLARI**

## **Reja:**

1. Antik davrning qomusiy olimlari va sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari
2. Sotsiologiya tushunchasi
3. Sotsiologiya fanini vujudga kelishining tarixiy sharoitlari
4. Sotsiologiya fanini shakllanishining ilk asosiy bosqichlari

Sotsiologiya (lotincha *societas* – jamiyat va yunoncha *Logos* – ta'limot) – so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. YAxlit tizim sifatidagi jamiyat va alohida institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan ijtimoiy jara, n'larni o'rganuvchi fan. Jamiyatni tushunish, anglash, unga nisbatan so'z munosabatini bildirishga teng bo'lib insoniyatning hamma tarixi uchun xos bo'lgan. «Sotsiologiya» haqidagi tushuncha birinchi marotaba XIX asrning 30 - yillarida frantsuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan ilmiy qo'llanishga kiritilgan.

Uning tushunishicha sotsiologiya jamiyatga taalluqli bo'lgan hamma narsalarni o'z ichiga olgan jamiyatshunoslik bilan bir qatorda turgan. Sotsiologiya – insoniyatning bir necha yillik tarixiy taraqqi,t davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir.

XVIII asrda kishilik jamiyati uning qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida tarix falsafasida shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvchi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafasidan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi. XIX asrgacha sotsiologiya falsafaning tarkibiy bir qismi bo'lib keldi.

Aslida falsafiy bilimlar doirasi juda keng bo'lib, ularning tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

- 1) Ontologiya – borliq haqidagi qarashlar.
- 2) Sotsiologiya – jamiyat haqidagi qarashlar.
- 3) Gnoseologiya – borliqni bilish muammolari.
- 4) Logika – inson tafakkuri qonunlari haqidagi qarashlar tizimlaridir.
- 5) Etika – axloqiylik haqidagi qarashlar.
- 6) Estetika – go'zallik haqidagi qarashlar.

Demak, biz falsafiy bilimlar doirasidan kelib chiqib, sotsiologiya fani va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganamiz. XIX asr boshlaridan esa o'ziga xos ilmiy metodlarga ega bo'lib, falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo'la boshladi. Sotsial sistemaning taraqqi,ti va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari haqidagi mustaqil fan sifatida XIX asr 30-yillarida ilmiy muomalaga «Sotsiologiya» atamasi kiritilgandan so'ng Shakllandi. Jamiyat haqidagi «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi.

Sotsiologiyaning asoschisi frantsuz mutafakkiri O.Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi. E. Dyurkgeym sotsiologiyaning

predmetini sotsial dalillar haqidagi fan deb ataydi. Marksizmda sotsiologiya predmeti ijtimoiy tizim sifatida jamiyatda va uning tuzilmaviy elementlarini tashkil etgan Shaxslar, ijtimoiy birliklar, ijtimoiy institutlarni ilmiy asosda o'rganish hisoblanadi.

Hozirgi bizning adabiyatlarda sotsiologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: Sotsiologiya - yaxlit ijtimoiy tuzum sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari (shaxslar, ijtimoiy birliklar, institutlar) orqali bu tuzumning amal qilishi va rivojlanishi to'g'risida fanidir. Sotsiologiya ob'ekti jamiyat hisoblansada, sotsiologiya predmetining dastlabki bosqichi sifatida jamiyat tushunchasini ajratib ko'rsatish etarli emas. Sotsiologiyaning ilmiy maqomini asoslashning mohiyati uning ob'ekti va predmeti o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Ob'ektni bilish – tadqiqot ob'ekti nimaga yo'naltirilganligini, ob'ektiv voqelik sifatida unga nima qarama-qarshi turganligini anglatadi. Har qanday voqelik, jara,n ,ki ob'ektiv voqelikning munosabati turli fanlarning (fizika, ximiya, biologiya, psixologiya, iqtisodiy, sotsiologiya va hokazolar) ob'ekti bo'lishi mumkin. Predmet ob'ekt kabi ob'ektiv voqelikning bir qismi ,ki uning elementlari yig'indisi bo'lib, umumiy yo,ki o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir fan o'z navbatida predmeti nuqtai nazaridan farq qiladi. Ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishilararo aloqalar, o'zaro bog'liqliklar majmuasi - sotsiologiya fanining ob'ekti vazifasini o'taydi. Ob'ekt va predmet hamma vaqt bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki, ob'ekt mohiyatni to'g'ri tushunish,ilmiy tadqiqot yo'nalishini xolis belgilay olish imkonini beradi. Demak, sotsiologiyaning ob'ekti jamiyatning boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalaridir.

Sotsiologiya jamiyat haqidagi umumiy fan bo'libgina qolmay, balki maxsus sohalararo fan hamdir. U boshqa fanlar o'rganmaydigan o'z ob'ektiga ega. Uning o'ziga xos sohasi sotsial reallik bo'lib, u inson va jamiyat munosabatining ijtimoiy-madaniy muayyanligidir. Shu boisdan ham jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy hamkorliklar, ijtimoiy munosabatlar va ularning o'zaro tashkil etilish usullari sotsiologiyaning ob'ekti bo'ladi. Insonlarning o'zaro aloqalarga, hamkorlik munosabatlariga kirishishlari orqaligina muayyan ijtimoiy xususiyatlarni namo,n etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Sotsiologiya ijtimoiy muhitni tadqiq etganda umummilliy tushuncha va kategoriyalardan kelib chiqadi. Xususan, ob'ektiv va sub'ektiv, erkinlik va zaruriyat, borliq va ong kabi falsafiy kategoriyalardan foydalanib sotsiologik ob'ekt mohiyatni talqin etadi. Sotsiologiya sotsial ob'ektni sotsial sub'ektlar orqali( Shaxs, guruh, jamiyat, sotsial sohalar, munosabatlar, odamlarning sotsial faoliyati va tafakkur tarzi) tahlil qiladi. Sotsiologiya turli sotsial sohalarni tadqiq etish asosida ularning o'ziga xos ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalarini aniqlaydi. Muayyan sotsial guruhlar tahlili va tasnifi orqali u jamiyat va inson to'g'risidagi umuuiy qarashlar, qonunlar va tendentsiyalarni yaratadi, rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Sotsiologiya o'z ob'ekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham Shug'ullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyalar. Sotsiologiya bu sohalarda o'z ob'ekti

inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi o'rnini va rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Sotsiologiya o'zining maxsus obekti asosida yakka shaxs faoliyati konkret namoyon bo'lishini empirik darajada o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

O.Kont fikricha, ob'ekt va predmet qarama-qarshiliklardan iborat. Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini 3 bosqichda o'rganadi:

1. Aniq- empirik
2. Xususiy (maxsus)
3. Umumiy.

Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umum-sotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Sotsial degan tushuncha, sotsial aloqalar, hamda munosabatlar va ularni tashkil etish usullari, sotsiologiya bilish ob'ektining o'ziga xosligini ochib bersa, sotsial qonuniyatlar esa sotsiologiya fani predmetini aniqlash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Sotsiologiyaning predmeti:

Agar fanning obekti uning nimani o'rganish kerak degan savolga javob bersa, predmet esa o' Sha ob'ektning qaysi jihatlarini o'rganadi? degan savolga javob beradi.

Sotsiologiya – insonlarning sotsial jamoalar va sotsial jarayonlarda tutgan o'rnini, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fandır. Sotsiologiya – ayni vaqtda jamiyat va shaxsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy hayotdagi faoliyati va ijtimoiy mazmunini o'rganadigan fan hamdir. Sotsiologiya – jamiyat tuzilishini, uning elementlari va ularning yashash Sharoitlarini va shu tuzumda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni o'rganadigan fandır. Sotsiologiya – Shaxsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko'nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko'maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilot-larning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishdagi jismoniy, emotsional-psixologik va ma'naviy imkoniyat-larini ishga soladi. Sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini taminlaydigan eng qulay variantlarini, ijtimoiy-madaniy modellarini topishdan iboratdir. Bular jamiyat va insonning o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir. Sotsiologiyaning vazifasi murakkab sotsial dunyoni tashkil etuvchi o'zaro birikuvchi va harakat qiluvchi tuzilma va mexanizmlar mohiyatini aniqlashdan hamda ularning rivojlanish tendentsiyalarini belgilashdan iboratdir.

Bugungi kunda sotsiologiya predmetining mazmun doirasidan:

1. Falsafiy germenevtika – yangicha tus berilayotgan naturalizmdan foydalanib, ularni yangicha talqin qilish (tendentsiyasi) hamda,
2. Gumanistik oqimni rivojlantirish tendentsiyasi tobora zalvarroq mavqe kasb eta boshladi.

Shunday qilib, sotsiologiya tarixiy aniq ijtimoiy tizimlar amal qilishining sotsial umumiy qonun va qonuniyatlari haqidagi, ushbu qonun va qonuniyatlarning Shaxslar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatida namoyon bo'lishi va ta'sir ko'rsatish dastagi haqidagi fandır. Sotsiologiya uchun sotsial degan tushuncha asosiy hisoblanadi. «Cotsial» tushunchasi birinchi marta Karl Marks

tomonidan foydalanilgan. Ular odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, hayot tarzi sharoitlari va dalillarini va insonning jamiyatda tutgan roli va holatini tahlil etganlarida «Sotsial» munosabatlar tushunchasini qo'llagan. Sotsial u yoyoki bu xususiyatning va sotsial munosabatlarning o'ziga xos yig'indisidir. Har qanday sotsial munosabatlar tizimi (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) odamlarning bir-biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatiga taalluqli. Sotsial degan tushunchaning o'ziga xosligini xarakterlovchi quyidagi asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, bu xususiyat turli guruh, individlar uchun taalluqli va ular tomonidan sotsial munosabatlarning u yoki bu xususiyatini integratsiyalash natijasi hisoblanadi. Ikkinchidan, hozirgi sotsial munosabatlar (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) bilan bog'langan individlarning va ularning guruhlari o'rtasidagi turli munosabatlarning mazmuni va xarakterini anglatadi. Uchinchidan, sotsial jihat turli individ va guruh individlarining bir-biriga, jamiyatdagi tutgan o'rniga, ijtimoiy hayot voqelik va jarayonlariga munosabatida nomoyon bo'ladi. To'rtinchidan, individlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirning namoyon bo'lishi birgalikdagi faoliyat natijasi demakdir. Sotsiologiya ijtimoiy hayotni u yoyoki bu formada va sohada o'rganar ekan, u avvalo sotsial voqelik haqidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tasvirlash, tushuntirish, sotsiologiyaning asosiy metodologiyasini va sotsiologik tadqiqot metodlarini ishlab chiqish kabi ilmiy muammolarni hal etadi. Sotsiologiyaning jamiyat hayoti bilan xilma-xil aloqasi, uning ijtimoiy burchi birinchi navbatda u bajarayotgan funktsiyalar bilan aniqlanadi. Har qanday fanlar kabi sotsiologiyaning eng asosiy funktsiyalaridan biri nazariya va amaliyotning birligidir.

Sotsiologik tadqiqotlarning ko'pchilik qismi amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Sotsiologiyaning amaliy yo'naltirilganligi shunda namoyon bo'ladi-ki, u ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish mayllari haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotni ishlab chiqishga qodir. Mana shunda sotsiologiyaning oldindan aytib berish funktsiyasi namoyon bo'ladi. Jamiyat hayotida sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rejalashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Sotsial rejalashtirish ijtimoiy tizim qanday bo'lishidan qat'iy nazar hamma mamlakatlarda rivojlangan.

Sotsiologiya mafkuraviy funktsiyani ham bajaradi. U birinchidan, tabiiy-tarixiy jarayonlarni anglash, jamiyat taraqqiyotining yaqin oradagi maqsadlarini va istiqbollarni ishlab chiqishga qaratilgan. Ikkinchidan, ilmiy va mafkuraviy munozarani boshqa qarashlar tizimi orqali olib borish. Uchinchidan, aholi o'rtasida ilmiy va milliy mafkurani tarqatish. To'rtinchidan, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ular tomonidan ilmiy mafkurani har tomonlama o'zlashtirish. Sotsiologiya odamlar o'rtasida munosabatlarni shakllantirishga, uyg'un hissiyotlarni ijtimoiy munosabatlarga xizmat qildirib yaxshilashga ham yoyordam berishi mumkin. Shu tufayli sotsiologiya insonparvarlik funktsiyasini ham bajaradi.

Sotsiologiya ob'ektini turlicha tushunish natijasida metodologiyaning 3 asosiy turi shakllangan:

1. Tushuntiruvchi (umumiy qonuniyatlarning, ob'ekt xislatini belgilaydi, aloqa, munosabat o'rnatishni nazarda tutadi).

2. Ta'riflovchi (ya'ni, tavsiflash, klassifikatsiyalash, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirish).

3. Tushunuvchi (ya'ni, inson faoliyatini o'rganishda tabiiy hamda ijtimoiy fanlar qonuniyatlaridan uyg'unlashtirib foydalanishni taqozo etuvchi) metodologiya.

### 1.2. Sotsial qonunlar va odamlarning sotsial faoliyati

Qonun deganda, odatda, aniq vaziyatda umumiy, zaruriy va takrorlanishga xos bo'lgan jiddiy aloqa yoyoki munosabatlar tushuniladi. Sotsial qonuniyat – sotsial voqealik va jarayonlarning jiddiy zaruriy aloqasini aks ettiradi. Sotsial qonunlar munosabatlarni aks ettiradi. Bu xalqlar, millatlar, sinflar, sotsial-kasbkorlik guruhlari, shahar va qishloq, shuningdek, jamiyat va oila, jamiyat bilan Shaxs o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Sotsial qonunlarga asoslangan holda odamlar, o'z hayotiy faoliyatlari uchun zaruriy bo'lgan Sharoit ta'siri ostida uni qo'llaydilar. Tabiat qonunlari kabi sotsial qonunlar voqealarning tabiiy harakati davomida paydo bo'ladi. Ular ko'pchilik individlarning ijtimoiy vaziyatda va ob'ektiv aloqalarda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishi natijasi hisoblanadi, ya'ni odamlar yashaydilar, moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishda qatnashadilar. Mahsulotni ayirboshlaydilar, taqsimlaydilar va iste'mol qiladilar, bolalarni dunyoga keltiradilar va tarbiyalaydilar, ularning irodasi va ongi bilan bog'liq bo'lmagan holda qonuniy voqealar zanjiri yuzaga keladi. Sotsial qonun va qonuniyatlarni tadqiq etish, demak sotsial soha turli elementlari o'rtasidagi zaruriy aloqalarni o'rnatishdir.

Sotsiologik qonunlar sotsial sistemaning turli bosqichlarida namoyon bo'luvchi turli xil sotsial birliklar, tashkilotlar va institutlarga birlashgan odamlar o'rtasidagi mavjud o'ziga xos, muhim takrorlanib turuvchi aloqalaridir.

Sotsiologik qonunlar 2 turga bo'linadi: umumiy va xususiy qonunlar.

#### Umumiy sotsiologik qonunlar:

a) barcha sotsial sistemalarning rivojlanishi davomida amal qiladi.

b) sotsial tizimlarning sotsial muhitda amal qiluvchi boshqa qonunlarining mohiyatini aniqlab berib, fundamental asoslarini aks ettiradi. Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish usullariga tobeligini ifodalovchisi ham umumsotsiologik qonunlardir. Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish iqtisodiy munosabatlariga nisbatan faol roli ham muhim sotsial qonuniyatdir. Masalan, sotsial birliklarda odamlar munosabatlarining yaxlitlanishi, jamoada shunga mos muhitning yaratilishi ishlab chiqarish rivojiga, umumiy holda jamiyatga ham bevosita ta'sir qiladi. Ehtiyoj va qiziqishlarning sotsial Shartlanganligi ham umum-sotsiologik qonuniyatga kiradi. Shaxs Shakllanishi sotsial mohiyatining rolini ham umumsotsiologik qonunlar orqali o'rganiladi.

Umumiy qonunlar hamma ijtimoiy tizimlarda amal qiladi. Masalan, qiymat qonuni va tovar pul munosabatlari. O'ziga xos qonunlarning amal qilishi bitta yoki bir nechta sotsial tizimlar bilan cheklangan, masalan, bir jamiyat turidan ikkinchisiga o'tish).

2. Xususiy (maxsus) qonunlar. Sotsial tizimning alohida tuzilish sohalarida amal qiladi. Masalan, sotsial birliklar o'ziga xos hayot va faoliyat tarziga ega: sinfiy, milliy, oilaviy-kundalik va boshqalar. Sotsial rivojlanish

qonunlari ob'ektiv bo'lib inson ongi, irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amal qiladi. Lekin ijtimoiy hayotda hech narsa insonsiz amal qilmaydi. Shuning uchun sotsial qonunlar inson faoliyati qonunlaridir, ularning xatti-harakatlari mexanizmi esa - omma va insonlarning, sotsial sub'ektlarning determinatsion mexanizmidir. Bu jihatdan qaraganda sotsiologiyaning umumiy qonuniyatlari: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida amal qiladi. Qonunlarni ularning namoyon bo'lishiga qarab dinamikaga oid (jo' Shqin) va statikaga (turg'un) oid deb ajratib o'rganish mumkin. Dinamikaga oid qonunlar ijtimoiy o'zgarishlarning omillari va formalari, yo'nalishlarini belgilaydi hamda aniq vaziyatda voqealarning davomiyligini anglatadi. Statikaga doir qonunlar dinamik qonunlardan farq qilib, ijtimoiy voqelik bog'lanishini qat'iy belgilamasdan o'zgarishlarning yo'nalishini aks ettiradi. Sotsiologik tadqiqot amaliyotida guruhlariga bo'lish katta ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida sotsiologik qonunlar aloqa formalariga qarab ajratiladi.

Sotsial qonunlar umumiylik darajasi nuqtai nazaridan farq qiladi. Sotsial sohani yaxlit holda rivojlantirishni xarakterlovchi qonunlar mavjud. Bu qonunlar sotsial sohaning alohida bo'laklarining rivojlanishini belgilaydi (sinflar, guruhlar, millatlar). Sotsial qonunlarning beshta kategoriyasini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi, o'zgarmas xarakter kasb etuvchi, yoki unga bog'liq bo'lgan qonunlar. Bu qonunga binoan «A» voqelik mavjud bo'lsa u holda, albatta «B» voqelik ham bo'lishi shart. Ikkinchi, rivojlanish tendentsiyasini aks ettiruvchi qonunlar. Unda ijtimoiy ob'ektning tuzilish dinamikasi bir turdagi o'zaro munosabatlardan ikkinchisiga o'tishi bilan bog'liq. Uchinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi funktsiyaga oid bog'langanlikni qaror toptiruvchi qonunlar. Bu qonunlar u yoyoki bu ijtimoiy tizimni barqaror holatda saqlab turishlikni ta'minlaydi. To'rtinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aks ettiruvchi qonunlar. Masalan, sotsial integratsiyaning eng muhim va zaruriy Sharti bu ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni oqilona birga qo'shib olib borish hisoblanadi.

Beshinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish mumkinligini anglatuvchi qonunlar. Sotsial qonunlar odamlar aniq faoliyati davomida ro'yobga chiqariladi.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya alohida o'rinni egallaydi. Bu bir nechta holatlar bilan belgilanadi:

1. U jamiyat haqidagi, uning hodisalari va jarayonlari haqidagi fan hisoblanadi.

2. U o'z ichiga umumiy sotsiologik nazariyalarni yoyoki hamma ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariya va metodologiyasi hisoblangan jamiyat nazariyasini oladi.

3. U jamiyat va inson hayotiy faoliyatining turli tomonlarini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar va sotsial sohani o'z ichiga oladi. YA'ni, sotsiologiya - hayotning u yoki bu sohasini tadqiq etuvchi qonuniyatlardir.

4. Inson va uning faoliyati, texnik va uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan sotsiologik tadqiqotlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar tomonidan zaruriy jihatdan o'rganiladi va hisobga olinadi.

Falsafa, iqtisodiyot, tarix, siyosat Shunoslik, psixologiya fanlari sotsiologiyaning Shakllanishiga sayoarali ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologiyaning falsafa bilan uzviy aloqasi shunda ko'rinadi-ki, umumsotsiologik nazariyalar va amaliy sotsiologik tadqiqotlar ma'lum metodologik asosga tayanadilar. Shunday asosni esa falsafa fani yaratadi. Sotsiologiya falsafaga nisbatan mustaqillikni shunga asoslanib e'lon qiladi-ki, u o'z oldiga ijtimoiy muammolarni, voqelikni ilmiy, anglash usuli asosida hal etish vazifasini qo'yadi. Sotsiologiya statistika fani bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi. Bu ikki fanning o'zaro aloqalari shu qadar yaqinki, sotsiologiyaning rivojlanishini statistik yondashuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Sotsiologiya shuningdek, iqtisodiy nazariya, boshqaruv nazariyasi, tarix, pedagogika, huquq Shunoslik, siyosat Shunoslik kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi.

Eng avvalo Shuni unutmashimiz kerakki, sotsiologiya bu jamiyat haqidagi fan.

Sotsiologiyani fan sifatida tasavvur etish uchun eng avvalo, uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy hayot qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan ta'limotlar, qarashlar, miloddan avvalgi 4 asrdayoq yunon faylasuflari suqrot, Aflotun, Arastu asarlarida keng yoritilgan.

Antik dunyo sotsiologiyasini yuzaga kelishi hamda taraqqiyot tendentsiyalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. *Eng qadimgi grek sotsiologiya maktab.* Bu guruhga eramizdan oldingi XII asrda yashab ijod etgan Gomerdan boshlab eramizdan oldingi VI asrgacha amal qilgan Milet (kichik Osiyoda eng yirik Shahar) maktabi vakillarri (Fales, Anaksimandr, Anaksimn) hamda Gretsiyaning turli shaharlarida yashab faoliyat yuritgan Ksenofan Pifagorning sotsiologik qarashlarini kiritish mumkin.

Eng qadimgi grek sotsiologiyasii mustaqil ijtimoiy-nazariy tadqiqot predmeti sifatida emas, balki aniq tabiiy fanlar, ya'ni matematika va tabiat Shunoslik bergan ilk tadqiqot natijalari bilan ijtimoiy fanlar, xususan mifologiya va san'at borasida erishilgan dastlabki tafakkur mahsullarining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan.

Milet filosoflarning to'ng'ich vakili Falesning fikricha, jamiyat va tabiatning asosini dastlabki tarkibiy modda hisoblangan suv omili tashkil etadi. Uning ta'kidlashicha, tabiatdagi ja'mi o'zgarishlar suv va suyuqliklar tufayli ro'y beradi. Suv tufayli tarkib topgan hamma narsada joy mavjuddir. Tabiatdagi ja'miki narsalar esa suv ishtirokida yuzaga kelganligi sababli ularning hammasida jon bor. Fales fikrining isboti uchun yantar toshini misol qilib keltiradi. Fales xamma narsada jon borligini g'oyasi tabiat va jamiyatga insoniy yondoshuvning ilk kurtaklari shakllan Shiga turtki bo'ldi.

Milet maktabining yana bir yirik namoyondasi Anaksimn olamning asosini tashkil etuvchi dastlabki modda sifatida havoni ilohiylashtiradi, havoning tabiatda yig'ilishi va siqilishi natijasida suv, tuproq, tosh va olovdan iborat zaruriy qismlar yuzaga keladi. havo Anaksimn nazarida dunyoni o'rab turgan nafas bo'lib, bu narsa tabiatda ja'miki narsalarga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Havo insonning amal

qilish makoni hisoblanadi va havosiz qolgan paytda har qanday jism tarkibiy va mazmuniy o'zgarishga yuz tutadi.

Qadimgi grek sotsiologlari orasida samon Shahrida tug'ilib faoliyat yuritgan Pifagor alohida o'rin tutadi. Pifagor yashagan davrda turli-tuman primitiv arxaik diniy mutaassiblik o'rniga nisbatan umimiyroq mohiyat kasb etuvchi xudolarga sig'inish taomilga kira boshladi. Pifagor nuqtai nazariga kura, olam abadiy bo'lib, insondagi ruh ma'lum muddatdan so'ng boshqa narsalarga ko'chadi. Pifagor ana shu ta'limot asosida olamdagi hamma narsaning jisman va ruhan qarindosh ekanligini isbotlashga uringan. Pifagorning tabiat va jamiyatdagi "jon" ning ko'chib yurishi g'oyasi hamda atrof-muhitdagi ja'miki narsaning birligi va qarindoshligi dunyoni o'zaro murosa muvozanatida saqlashga dav'at etuvchi sotsiologik qarashlar sifatida insoniyat tarixida muayyan rol o'ynaydi.

2. *Grek demokratiyasi ravnaqi davri sotsiologiyasi.* Bu bosqich jamiyat Shunolar safiga Geraklit, Parmenit, Zenon, Empedokl, Anaksagor, Protagor, Gorgiy va boshqalarni kiritish mumkin. Atoqli grek mutafakkiri Geraklit fikriga ko'ra, hamma narsalar tabiatda faqat bir narsadan yaralgan va shu birlamchi narsaga albatta qaytadi. Bu birlamchi asos esa "olov"dir. Zero, olov tabiatdagi eng faol o'zgaruvchan xodisadir. Geraklit tabiatda va jamiyatda qarama-qarshiliklar Shunchalik o'zaro raqobat xolida bir-biriga aylanib turadi. Ular mohiyattan yagona asos (olov) dan iborat bo'lganligi sababli, bu modda va xodisalar o'rtasida qarama-qarshiliklar o'zgaruvchandir va doimiy xususiyatga ega emasdir. Geraklit ilk daf'a donishmandlik va aqlni va bilimdan farqlay bildi. Ko'p bilimlilik kishini aqlli, donishmand qilavermaydi. Agar ko'p bilim olish kishini oqil qilganida Gesiod va Pifagor ham aqlli, donishmand bo'lishar"<sup>1</sup>, deb yozadi. Geraklitning ijtimoiy qaralari Parmenid va uning Shogirti Zenon tomonidan tanqid ostiga olinib, dunyo o'zgaruvchan emas, aksincha, o'zgarmas mohiyatga ega ekanligini asoslashga urindilar. Grek madaniyatining yirik namoyondasi Empedokl ilm va ma'rifatning ijtimoiy foydalilik funktsiyasini asoslab berdi. U ilm qilish bu befoyda mohiyatlar xususida bahs yuritish emas, balki uni inson ongiga xizmat qildirishdan iborat, deb bildi.

Empedokl fikriga ko'ra, jamiyat xodisalarini o'zaro bilashtiruvchi va ajratib yuboruvchi ikki kuch boshqarib turadi. Kishilarni o'zao birlashtiruvchi, ularni eng insoniy faoliga boshlovchi kuch-muhabbat (Empedokl bu kuchni ayni vaqtda mehr, hurmat, garmoniya va hatto Afrodita ham deb atagan) bo'lib, odamlarni ajratib yuboruvchi kuch bu- nafrat, hasad, johillikdir.

Empedokldan farq qilib, Anaksagor insonning ilm-ma'rifatga intilishidan ko'zlangan bosh maqsad-atrof muhitni o'rab turgan borliq hamda kosmos mohiyatini anglashdan iborat, deb bildi. U "ilm ilm uchun" degan aqida asosida ish tutdi.

3. *Antik dunyo olamining "oltin davri"*. Bu davrdagi sotsiologik qarashlarni ilgari surgan mutafakkirlar qatoriga insoniyatning buyuk daholari sokrat, Levkip, Demokrit, Platon, Aristotel va boshqalarni kiritish mumkin. Sokrat (Suqrot) ning sotsiologik qarashlarida tabiat va jamiyat jarayonlarida shunchalik ishtirok etish emas, balki unda qanday qilib yaxshi yashash, kamolotga erishish uchun san'at

<sup>1</sup> G.F.Asmus. Agntichnaya filosofiya. M., Visshaya shkola, 1999.Str.22.



sirlarini bilish zarurligi g'oyasi etakchidir. Bilim muayyan turdagi predmetlar va hodisalarning umumiylik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Bilim predmet haqidagi tushuncha bo'lib, bilish tushunchani aniqlashdan boshlanadi.

Sokratning nuqtai nazaiga ko'ra, inson faoliyati uning yaxshilik, savob, oriyat, insof haqidagi tushunchalari mazmunidan iborat bo'lib, bu tushunchalirni shaxs qanday tushunishi katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, inson faoliyatini yaxshilash uchun uning fe'l-atvori va tarbiya to'g'risidagi qarashlari, tushunchalarini tartibga solish zarurdir.

Sokratning bo'yuk Shogirdi Platon ijtimoiy taraqqiyot va inson mavqei xususida bebaho fikrlar bayon etgan. Platon o'zining "Fileb" deb nomlangan asarida insonning ezgulikdan iborat faoliyat quyidagi talablarni bajarish asnosida ro'y berishi aytiladi: 1) ilohiy g'oya mohiyatini anglash; 2) ilohiy g'oya talablarini hayotga sindirish; 3) tafakku va bilimlarga ega bo'lish; 4) ilm va san'atning biror turini egallash, to'g'ri fikr qilish masalasiga ega bo'lish; 5) toza, halol hissiyot vositalardan, masalan, musiqa tovushi, tasviriy san'atdan zavq-rohat ola bilish. Platonning o'qitirishiga ko'ra, to'g'ri fikr qilish malakasiga ega bo'lish deganda biror bir hayotiy voqea tahlili Chog'ida masalaning avval yaxshilik tomonida ro'y berganligini tushuntirishga intilish, agar bunday tushunishga imkon bo'lmasa, mazkur hodisaning yuz berganligi mohiyatini anglashga intilish, demakdir.

Platon ezgulikni anglash-xudoni anglash, ezgulik tabiatiga ega bo'lish esa xudo mohiyatiga tegishli bo'lish, uning uzviy bir qismiga aylanish, deb o'rgatadi.

Platon insonning ijtimoiy urnini belgilashda har bir kishi dastavval o'z davlatining fuqarosi bo'lishi lozim, deb ta'kidlaydi.

Platon murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitda yashaganligi sababli ideal davlat qurilishi orzusida yashagan. Uning ezgulik asosiga qurilgan ideal davlat tuzumi quyidagi fazilatlarga ega bo'lish lozim: 1) donishmandlik; 2) jasorat; 3) har ishni oqilona me'yorni saqlay bilish; 4) adolat.

Davlat tizimi uch xil strata-ijtimoiy tabaqa hukmdorlar, harbiylar va ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatkashlar donishmand boshqaruvchi guruh rahbarligida gormonik tuzumni tashkil etadilar. Platon akademiyasining etuk tolibi, jahon ijtimoiy tafakkur olamiga hissa qo'shgan mutafakkir Aristotel hisoblanadi.

Aristotel o'z davridagi mavjud stratifikatsion, ya'ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini qo'llab-quvvatlaydi. Aristotel komil inson, komil fuqaro, adolat davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o'z davlatiga bo'lgan yuksak vatanparvarligini, o'z ijtimoiy-siyosiy tuzumi sadaqatni shakllantirishdan boshlanadi. Komil fuqaro tarbiyasiga esa har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi.

Demak, komillik tizimidagi "davlat-fuqaro-inson" tartiboti Aristotelning davlat va jamiyatni mukammalashdan iborat sotsiologik kontseptsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida umumdavlat nuqtai nazaridan turdi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi xususiy Shaxslar yoki alohida guruhlar qo'liga top Shirib qo'yilmasligi lozim. Aristotel davlat va jamiyatning ideal maqsadlari mu Shtarak, umumiy bo'lganligi sababli ham mazmuniy asosi bir xil bo'lgan tarbiyaviy tizim ishga tushmog'i zarur, deb hisoblaydi.

Ijtimoiy jarayon, Aristotel ta'biriga ko'ra imkoniyatlardan natijalarga o'tishga bo'lgan intilishdir. Odamlar ijtimoiy jarayonda qancha ko'p ishtirok etsalar davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy asoslari shunchalik mustahkamlanib boradi.

Kishilarning ijtimoiy jarayonlarda yakdil va ommaviy ishtiroki adolat, insof, sadoqat singari tushunchalarga ega bo'lgan umumiy qarashlarni tarkib toptiradi. Davlat tuzumi hamda jamiyatning barqarorligini saqlash uchun kishilarga mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan tug'ilishi mumkin bo'lgan siyosiy-axloqiy va iqtisodiy ma'naviy havflar xususida ma'lumotlar berib borish hamda ularda xavotirlik kayfiyatini shakllantirib bormoq zarur. Shundagina ular davlat va jamiyat mustahkamligi ustida qayg'ura boshlaydilar. Davlat boshqaruvida ishtirok etishga ishtiyoqmand va amaldorlik da'vosida bo'lganlar quyidagi sifatlarga ega bo'lishlari lozim: "Mavjud davlat tuzumini Chin dildan sevmog'i, katta kuch va energiyaga ega bo'mog'i, ..., odamlarga xayrixoh va adolatli bo'lmog'i, asosiy faoiyat mezon deb odamlar manfaatini davlat mafatlari bilan uyg'un xolda xal etish malakasiga ega bo'lmog'i lozim"<sup>1</sup>

Har qanday mamlakatdagi ijtimoiy tartibsizliklar, inqirozlar va davlat to'ntarishlari ijtimoiy tenglikning buzilishidan kelib chiqadi. Ammo tenglik tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra ham miqdor jihatdan, ham mavqe-martabaga ko'ra farqlanadi. Mavqega ko'ra tenglik jamiyatdagi o'nta obro'li shaxs mavqei 100-200ta oddiy fuqarolarning mavqeiga mos bo'lishi mumkin. Shu boisdan mavqeni hisobga olib ijtimoiy tenglikni amalga oshirish jamiyatda barqaror muhitni saqlash inkonini beradi. Miqdoriy tenglikni ta'minlash uchun esa davlat boshqaruvini amalga oshirishda u yoki bu xudud vakillaridan teng miqdordagi amaldorlarni vazifalarga tayinlashni to'g'ri yo'lga qo'yish zarurdir. Demokratik asoslardagi davlatlarda hokimiyatni egallash uchun qilinadigan to'ntarishlar odatda demagoglar tomonidan amalga oshiriladi.<sup>2</sup> Aristotel jamiyatni ijtimoiy stratifikatsiya tizimida barqarorlik, turg'unlik mezoniga amal qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Har bir Shaxs nafaqat mavjud davlat tuzumiga, balki o'z ijtimoiy tabaqasiga ham sodiq qolishi hamda o'z kasbi-kori, xizmat sohasi doirasida kamolotga intilish lozim. Kishilarning bir sohadan boshqa sohalarga, bir ijtimoiy mavqe doirasidan boshqasiga o'tishi davlat tartibotlariga umumiy ishonchi pasaytiradi.

Aristotel davlat tuzumini olti xil ko'rinishga tasniflab, ulardan uchasi (monarxiya, aristokrat va politiya) to'g'ri va uchasi (traniya, oligarxiya va demokratiya) noto'g'ri davlat tuzumlari, deb hisoblaydi.

Aristotel traniya, oligarxiya va demokratiya asosidagi davlat tuzumlarini noto'g'ri deb tasniflanishiga asosiy sabab, bunday davlat tuzumlarida hokimiyat tepasiga zolim Shaxslar (tiraniya), boylikka hirs qo'ygan nomunosib Shaxslar (oligarxiya) va demokratiya tuzumida garchi ko'pchilik ozchilik ustidan xukmron bo'lsa-da, ba'zan ijtimoiy-genetik kelib chiqishi betayin bo'lgan ayrim fuqarolar ham kelib qolishi mumkin, deb xavotirlanadi. Natijada uzoq davr mobaynida umumiy erishilgan jamiyat farovonligi ham tanazzulga yuz tutadi.

---

<sup>1</sup> Aristotel sochinenie, T.4, S.53.

<sup>2</sup> Aristotel, Soch. T.4,S.5

Xullas, Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo'lmish grek sotsiologiya maktabiga mantiqiy yakun yasagan. Uning sotsiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimning sotsiologiya maktabi namoyondalari (Tsitseron, Lukretsiy, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy) ga hayotbax Sh ilxom bag'ishladi, so'ngra esa o'rta asrlar Sharqining buyuk Mutafakkirlar Farobiy, Beruniy, Ibn sino, Ibn Ru Shdlar dunyoqarashlar o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari o' Sha davr allomalari ijtimoiy hayotning turli sohalarini ilmiy asosda tadqiq qilganlar va o'zlarining ijtimoiy qarashlarini o'z asarlarida yozib qoldirganlar. 1.) Milod. av 6-asrdan to milodning 3-asrigacha bo'lgan dualistik dunyoqarash . Zaratushtra (Zardo'sht markazida zardo' Shtiylik ta'limoti yotadi. Zardu Shtlik faqat din bo'lib qolmay, balki o' Sha davrning hukmron mafkurasi, ijtimoiy-siyo,siy, axloqiy-falsafiy qarashlari ifodasi hamdir. Zardo' Shtiylikning nazariy asosi «Avesto» adabiy yodgorligi hisoblanadi. Zardo' Shtiylikning asosi bo'lgan «Avesto» mil.av. VII asrda qadimgi Xorazmada yaratilgan bo'lib, uning ma'nosi qonun- qoidalar demakdir. Unda asosan yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlar aks ettirilgan Bu kuchlar o'rtasidagi kurash, ijtimoiy jarayonlarni yondashuv orqali hal etish uuchun turli oqimlar vujudga kelgan. Xususan: mitraizm oqimidir. Mitrizm xudo Mitraga sajda qilish bilan bog'liq din. Bu oqim Yevropa va Rim imperiyasidan tortib ahamoniylar, kushonlar amal qilgan davrlarda ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. «Avesto»da qadimgi kishilarning tabiat va uni bilish yo'llari haqidagi tasavvurlari umumiy tarzda ifoda etilgan. «Avesto»da afsonaviy tasavvurlar bilan birga kishilarning hayotiy tajribalari ham o'z ifodasini topgan. Kitobda inson va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. «Avesto»da inson, mehnat dehqonchilik kabi ezgu ishlar ulug'lanadi. Zardo' Shtiylikning asosi bo'lgan «Avesto» mil.av. VII asrda qadimgi Xorazmada yaratilgan bo'lib, uning ma'nosi qonun- qoidalar demakdir. Unda asosan yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlar aks ettirilgan. «Avesto»da afsonaviy tasavvurlar bilan birga kishilarning hayotiy tajribalari ham o'z ifodasini topgan. Kitobda inson va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

2. Sotsial qarashlar taraqqiyotida qadimgi Xitoy sotsial g'oyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi 6. Konfutsiylik (551–479) - millodan av. V-III asrlarda vujudga kelgan ta'limotdir. U qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga katta hissa qo'shgan. Bu ta'limot Xitoy, Bobil, Misr mamlakatlarida keng tarqalgan. Konfutsiyning falsafiy va sotsiologik qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o'rinda turadi. «Hamma odamlar bir-birlaridan farqlanadilar» -, yangini bilish uchun - eskini o'rganish kerak», «mulohazasiz ta'limot foydasizdir, ta'limotsiz mulohaza bo'lmaydi» - degan fikrlar Shular jumlasidandir.

Konfutsiy kishilar o'rtasidagi munosabatlarni besh tizimga ajratadi:

1. Ota va farzand;
2. Er va xotin;
3. Aka va ukalar ;
4. Turli oilalar;
5. Hukmdor va fuqarolararo munosabatlar

Nima xayoliga kelsa shuni qilish emas, balki jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan, ijtimoiy tabaqa mohiyatidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishga ma'suldir. U juda kup davlat boshqaruvi yuzasidan nazariyalar yaratgan. Afsuski, o'sha davrda hech bir hukmdor uning xizmatidan foydalanmagan. 4. Budda (buddizm) - jahon dinlaridan biri bo'lib, asosan Hindiston, Nepal, Birma, Yaponiyada keng tarqalgan. Er.av 6-asrda shimoliy Hindistonda rivojlangan. Budda ta'limotida sotsiologik g'oyalarga ko'ra, inson hayoti – yovuzlik va azob-uqubatdan iborat, azob-uqubat Chekishning sabablari esa istak va ehtirosdadir, ana shulardan qutilmoq kerak. Budda taklif qilgan «qutilish» yo'li dindor kishi uchun «taqvodorlikka intilish» va «yaxshilik bilan hayot kechirish»ga borib taqaladi.

Movarounnahr hududida yashagan mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlari ham e'tiborga molikdir.

1. Ayniqa Abu Mansur al Moturidiyning xizmatlari beqiyos. Keyinchalik Moturudiya maktabining asoschisi Abu Mansur al Moturidiy o'z asarlarida din, jamiyat, jamoa, ijtimoiy munosabatlar va shaxs haqida ta'limotlar yaratgan. Inson, shaxsi va mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy siyosiy, diniy taz'yiqlardan himoya qiluvchi kontseptsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kontseptsiya murosaviy muvozanat kontseptsiyasi atalib, unda islomni anglash, ijtimoiy siyosiy muhit, xalq turmushi, mentalitet, va insoniy yondashuvlar sintezi deb baholashimiz mumkin. U jamiyat va jamoani mohiyatan asoslab berishga harakat qiladi. Al Moturidiy ahloqiy tanlov, ixtiyor erkinligi haqida fikr yuritib, ularni jamoaga, guruhga qarshi bo'lmasligi va shaxs davlatning va aksincha shaxs oldidagi ma'suliyatni alohida e'tirof etadi. U jamoatchilik fikri bilan jiddiy Shug'ullangan. Umumiy fikrga kishilarni ongli ravishda yondashishlarini da'vat etadi. Jamoatchilik fikri yuzasidan fikr bildirib, islomiy e'tiqodi ham, hayoti axloqiy sohalarda ham, mafkuraviy siyosatda ham insonlarning yakdillikka erishlarida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. U murosaviy muvozanat kontseptsiyasini ishlab chiqqan. Bu kontseptsiyada asosan jamiyatdagi ijtimoiy fikr barqarorligi ham tazyiq va kuch vositasida emas, balki o'zaro hamjihatlik, hamkorlik negizida amal qilish g'oyasi ilgari surgan. Ana shu kontseptsiya Al Moturidiyning sunniylik mazxabining Movarounnahrda keng yoyilishiga hissa qo'shdi.

2. Abu Nasr Forobiy (873–950). U o'zining ko'plab ijtimoiy fikrlari bilan sotsiologik bilimlar rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning «Fozil Shahar aholisi qarashlari haqida kitob», «Siyosat al-Madaniya» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bayon qilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan. Forobiy sotsiologiyaga doir quyidagi o'gitlarni yozib qoldirgan:

1) Turli masalalar xususida fikr yuritish, ularning tarkibi, farqi, ehtimolli va mutloq mulohazalarni tiniq, puxta tahlil etish.

2) Keskin va mutlaq (ya'ni e'tirozga o'rin qoldirmaydigan) mulohaza xususida fikr yuritish.

3) Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan va bo'lmagan farqli mulohazalar xususida fikrlash ularning qanday holatlarda qarama-qarshi kuchga aylanib qolishini o'rganish.

4) Bir-biriga qarama-qarshi bulgan fikrlar, mulohazalarning qanday ko'rinishlarga ega ekanligini qayd etish.

5) Haqiqiy mezon asosida har bir mulohazaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tek Shirib ko'rish va ularning qanday ahvoldaligini o'ylab ko'rish.

6) O'zgaruvchan, o'zgarmas va o'zgaruvchi mulohozalarning o'zgarish ma'no va sabablarini bilib olish.

7) Ma'lum bo'lgan umumiy fikrdan kelib chiqmaydigan mulohaza ko'rinishlari xususida fikrga ega bo'lish.

8) Fikr-qarashlar ta'rifi, ularning nimalar asosida turishi, tarkib topganligini, ehtimolli va mutlaq fikr-qarashlar haqida ilmiy tasavvurlarga ega bo'lish lozim.

Demak, har qanday sotsiolog

a) ijtimoiy fikr va

b) har bir individ fikrini tahlil va sintezdan o'tkazishi kerak.

3) Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Beruniy Markaziy Osiyodagina emas, balki umuman Sharqda, jahon fani va madaniyati tarixida ham eng ulug' va buyuk mutafakkirlardan hisoblanadi. U o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar», «Minerologiya», «Hindiston» kabi asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. «Minerologiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, erdagi burchi, olijanoblighi, jamiyat hayoti, ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni ba'n etgan. Beruniy tom ma'noda o'z davri etnosotsiologi ham edi. «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yo,dgorliklar» asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian - molikiylar va xristian – nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yo,zib qoldirgan. «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki tuzilishi to'g'risida, bu xalqlarning urf-odatlar, yil, oy va tarixiy sanalari, oilaviy munosabatlar, marosimlar, nikoh masalalarini o'rgangan.

Beruniy tabiat, unda cheksiz ravishda ro'y berib turadigan tabiiy hodisalar, jarayonlar xususida muhim ilmiy-falsafiy g'oyalarni ilgari suradi va isbotlab berdi. Olamda bo'lib turadigan o'zgarishlar, ya'ni tuzilish va buzilishlarning paydo bo'lish va yo'qolishlarning o'ziga xos sabablari borligi haqida tabiiy-ilmiy va sotsiologik mulohazalarini o'rta tashlaydi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov 1998 yili tarixchi olimlar bilan uchrashuvdashunday degan edi: «Abu Rayhon Beruniy bobomizning bundan o'n asr burun aytgan fikrlarini eslatib o'tmoqchiman: «Ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'ladi»<sup>1</sup>.

4. Ibn sino (980-1037) - Uyg'onish davri madaniyatining yirik arboblardan biri. U 400 dan ortiq asar muallifi edi. Uning yozgan asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taalluqlidir. Shundan 242 tasi bizga etib kelgan. Alloma asarlaridan 80 tasi falsafa, ilohiyot, tasavvuf, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruhShunoslikka bag'ishlangan. U Sharqda « Shayxur-rais» - «Olimlar boshlig'i» deb nom olgan. «Kitob ash Shifo» («Davolash kitobi»), «Donishnoma», «Najoat», «Kitob ul insof» («Adolat kitobi»), «Kitob al-qonun fit tib» («Tib qonunlari kitobi») va boshqa asarlari bor. Ibn sino o'zining tabiatga doir kitobida harakat sabablarining 3 asosiy turini eslatib o'tadi:

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 150-bet.

1) «Tabiiy harakatlar. Bu jismlarning o'z tabiiy o'rinlariga intilishidir. Masalan, qizigan gazlarning yuqoriga ko'tarilishi va sovigach tushishi.

2) Majburiy harakat. Bu o'z-o'zidan emas, balki tashqi kuch ta'sirida vujudga keladigan harakatlar.

3) Nisbiy aksidensiyali harakat. Bu bir jismning ikkinchi bir harakat qilib turgan jism ichidagi o'ziga bog'liq bo'lmagan harakatini ko'zda tutadi<sup>2</sup>«.

5. Ibn Xoldun (Ibn Xoldun Abdurahmon Abu Zayd: 1332-1406) arab tarixchisi va mutafakkiri. U o'zining «Sotsiologiya» (arab. ilm al-ijtimo') faniga oid dadil fikrlarni o'rta tashlagan va sharqda haqli ravishdashu fan asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning «Kitob ul-Ibar» (1370)ning muqaddima qismida uning tarixiy sotsiologik nazariyasi ba'n etilgan. Ibn Xaldun bashariyat tarixida ilk bor asotir tafakkuri bilan emas, balki ilmiy, ob'ektiv nazar bilan qaragan eng zabardast tarixchidir<sup>3</sup>. Insoniyat ijtimoiy fikri tarixida birinchi bo'lib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qonuniyatlari va taraqqi,t an'analari haqidagi fanni yaratdi. Sharqning yetuk sotsiologi bo'lgan Ibn Xaldun «Muqaddima» (1381) asarining «Kirish» qismidagi dastlabki bo'limni «Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida» deb nomlangan. Ibn Xaldun sotsiologik ta'limotining qarashlari quyidagilaridan iborat:

1) «Insoniyat jamiyati vujudga kelishining mohiyati sabablari, mavjudligi va mazmunli hayot kechirishning asosiy Shart-Sharoitlari, avvalo ularning o'zaro munosabatlaridan ibora bo'ladi.

2) Tabiiy fizik-jug'rofiy muhitning hayotga ta'siri jismoniy qiyofa va kishilarning ruhiyatida ko'rinib, bu jara,nda ikki - tabiiy jug'rofik va ijtimoiy muhit bir-biri bilan bevosita munosabat va ta'sirda bo'ladi.

3) Tabiiylikdan, yuqori bo'lgan kuchning jamiyat hayotiga ta'siri va bu ta'sirdan qutilish imkoniyatlari.

4) Insoniyat jamiyati kishilarning ana shu birikmasi birlashmasining natijasidir<sup>4</sup>.

5) Bunday insoniyat uyushmalarini boshliqlar boshqaradi va uning tanlanishi Alloh tomonidan emas, balki insonning hayot vositalariga bo'lgan intilish va tabiiy ehtiyojlari tufayli sodir bo'ladi.

Ibn Xaldunning bu qarashining yunon faylasuflaridan Arastu va boshqalarning «inson siyosiy majudotdir» degan g'oyasidan farqi ham Shundadir.

6) Insonning ijtimoiy mavjudligi uning faqat ma'naviy tabiati-dan emas, balki tabiiy ehtiyojlari keltirib chiqaradi.

Kishilar mavjud ekan, ularning ehtiyo,j va intilishlari o'rtasida farq bo'lishi tabiiy va ayrim aholi guruhlari va shaxslar o'rtasida kelishmovchilik, qarama-qarashliklar sodir bo'ladi. Bu esa tartib o'rnatish va tashkil qilish ishlarini o'rtaga qo'yadiki, buni «hokimiyat» amalga oshiradi. Bu g'oya ham Ibn Xaldun qarashlarining muhim xulosalaridandir. Ibn Xaldun mulkni va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi kuch esa davlatdir, deb ,zadi.

<sup>2</sup> "Sirli olam". 1947, №3, 13-bet "Muloqot". 1998. №3, 10-bet.

<sup>3</sup> Karimov S. Temurning nazari tushgan muarrix (Ibn Xaldun haqida). "Sirli olam". 1997, №2, 9-bet.

<sup>4</sup> Xalq so'zi. 1996 yil 17 may.

Noroziliklarning bosh sababchisi hukmron sinf vakillarining adolatsizlik va zo'rvonlikka asoslangan siyosati natijasidir. Uning nazarida shoh 2 toifaga: adolatli va adolatsiz Shohga bo'linadi. Yaxshi hukmdor Shunday hukmdorki, uning siyosati kuchini xalqi zo'r-bazo'r sezadi va u o'z fuqarolari bilan yumshoq, adolatli muomalada bo'ladi. Chunki o'z siyosatini adolat asosiga qurgan Shohning fuqarolari kuchli va erkin bo'ladi, buning oqibatida ular qudratli yaratuvchi kuchga aylanadilar.

Shu bois mutafakkir Shohlarga maslahat berib, xalq erkinligini haddan ortiq bo'g'maslikka va erkinlik berishga chaqiradi: «Agar tarbiya kuch ishlatish, qo'rqitish yo'li bilan bo'lar ekan, u xoh o'quvchi, xoh qul, xoh xizmatkor bo'lsin, ularga qo'rqinch tahdid qilib turadi, natijada fuqaro ruhining o'sishiga xalaqit beradi, harakatchanlikni so'ndiradi va uning o'rniga yalqovlik, aldash, yolg'onchilikni kuchaytiradi. Bu sifatlar aynan Shu zo'rvonlik ta'sirida sodir bo'ladi. Ular qalbi befarqlik bilan to'ladi, yaxshi va fazilatli sifatlar o'rnini ahmoqona, yoyomon sifatlarni qabul qilib, pastlarning eng pastiga aylanadi».

6. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1529) temuriylar sulolasining eng buyuk vakillaridan biri, turkiy, arab-musulmon, fors-tojik, hind madaniyati, badiiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va diniy-tasavvufiy fikriga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir. Bobur o'zining «Boburnoma» asarida o'z davri ijtimoiy hayoti voqeligini, inson Shaxsi xususiyatlarining yaxshi va yomon tomonlari Andijondan - Hindistonga qadar bo'lgan ulkan hududda yashagan xalqlarning ijtimoiy jihatlarini shaxsiy kuzatishlar, ilmiy tadqiqotlari asosida o'rgangan va yoyozib qoldirgan.

Xullas, temuriylar davri madaniyat, san'at, adabiyot singari ijtimoiy, siyosiy, falsafiy fikrlar taraqqiyotida ham o'ziga xos bir bosqich bo'ldi. Bu davrda ko'plab qomusiy olimlar, shoirlar va sagn'atkorlar etishib chiqdi. Ular orasida ulug' o'zbek Shoiri Alisher Navoiy alohida ajralib turadi. Navoiy o'z asarlarida inson qadr qimmatini, nomus, oriyat, insoniy g'urur tushunchalari, inson erki, tafakkur tarzi kabildarga ahamiyat berib o'tadi. Shuningdek, jamiyatdagi ziyolilarga juda ko'p narsalar bog'liq ekanligini, uning "Agar mamlakat xarob bo'lsa, shoxdan xafa bo'lma, bu ziyolilarning, ilm ahlining gunohidir" degan fikri ahamiyatlidir. U asarlarida adolat, ijtimoiy adolat printsiplari haqida to'xtalib, adolat mezonlarining buzilishi, jamiyat ijtimoiy hayotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishini uqtirib o'tadi. Navoiy ijtimoiy guruh va tabaqalarga tasnif beradi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zarar ekanligini bayon etadi. Ulug' mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimdagi o'rnini va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Bu sotsiologik tavsiflashdan maqsad, ularning ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligini sezib olish qiyin emas. Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan bo'linganligini ijobiy hodisa ekanligini asoslab beradi.

Sotsiologiyani «kuzatishga asoslangan fan darajasiga» kutarish talabini frantsuz utopisti sen-Simon, sharl Fure va Robert Ouenlar ilgari surgan. Ular XVIII asr 2-yarmida va XIX asr birinchi yarmida bu fanning ba'zi masalalari xususida o'z fikr-mulohozalarini bildirganlar.

Sotsiologiyaning fan sifatidagi asosiy rivojlanish bosqichlari: klassik, noklassik, marksistik va XX asr Amerika sotsiologiyasi kabi sohalarga bo'linadi. quyida ana shu sohalarga qisqacha to'xtalamiz:

1) Klassik sotsiologik, falsafiy qarashlar:

Nemis klassik falsafasida ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi ilgari surildi. Nemis klassik falsafasining asoschilaridan biri sifatida tan olingan I. Kant (1724–1804) dialektika g'oyalarini qayta tiklagan mutafakkir. Kant o'zining tabiiy-ilmiy qarashlari bilan tabiatni metafizik tarzda tushunishga chek kuydi. Falsafaning borliq, axloq va din kabi muammolari bilan Shug'ulanishdan avval insonning bilish imkoniyatlarini aniqlab olish lozim, deydi. Kant kishini o'rab turgan tashqi dunyodagi narsalarni 2 ga buladi: a) o'z-o'zida mavjud bo'lgan narsalar dunyosi; b) sezgilarimiz aks ettirgan narsalar, hodisalardir. Inson bilish jarayonida hodisalar dunyosiga tartib kiritadi, uni ma'lum vaqt makon bilan bog'lab o'rganadi.

2) G.F.Gegel (1770–1831). Nemis klassik falsafaning vakili, uning ta'limoticha, barcha mavjud narsalarniig asosida «mutloq g'oya» (ruh)ning rivoji yotadi. Oldin mutloq g'oya «sof borliq» sifatida mavjud bo'ladi. Keyinchalik u rivojlanib mazmun jihatdan biridan biri boy bo'lgan tushunchalarni vujudga keltiradi. Inson ongi rivojlangan sari g'oya moddiylikdan qutilib boradi. Oxiri mutloq g'oya oldingi holatiga qaytadi.

3) L.Feyerbax (1804-1872). Nemis klassik falsafasining so'nggi vakili bo'lib, falsafada materialistik yo'nalishga mansubdir. U Gegelning mutloq g'oyasiga qarshi Chiqadi. Feyerbax fikricha tafakkur insondan tashqarida, unga bog'lik bulmagan holda mavjud bo'lishi mumkin. Feyerbax: tafakkur, ong ikkilamchidir, materiyaning, tabiatning mahsulidir, deydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi. XIX asrgacha sotsiologiya falsafaning tarkibiy qismi bo'lib keldi. Jamiyat haqida «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi. XIX asr boshlarida esa sotsiologiya o'ziga xos ilmiy metodlarga ega bo'lib, falsafadan to'la ajralib chiqa boshladi. Lekin u mustaqil fan sifatida XIX asr 30-yillarida ilmiy muomalaga «sotsiologiya» atamasi, so'zi kiritilgandan so'ng Shakllandi. Yangi fanga frantsuz faylasufi Ogyust Kont nom berdi.

4) Ogyust Kont (1798-1857). Frantsuz faylasufi, yangi fanga «sotsiologiya» deb nom berdi. Kont nuqtai nazariga ko'ra, sotsiologiya pozitiv mohiyatga ega fandır. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to'plangan empirik ma'lymotlapni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi.

O.Kont tomonidan 1839 yilda «Pozitiv falsafa kursi» asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida birinchi marotaba u jamiyatni ilmiy asosda o'rganish sifatida sotsiologiya terminini qo'lladi va bu sotsiologiyaning Shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Keyinchalik sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy analiz qilishni sotsial faktlarni empirik tadqiq qilish bilan qo'shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi. O.Kont sotsiologiyani 2 qismga ajratadi: a) sotsial statika va b) sotsial dinamika. Sotsial statikada ijtimoiy tizimlarning Shart-Sharoiti va funktsional qonuniyatlari o'rganilishini ko'rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din



kabilar tadqiq etiladi. Sotsial dinamikada esa O.Kont ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma'naviy va aqliy rivoji insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili deb qaraydi. Bu tamoyil hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O.Kont: «Har qanday bilim tafakkur mahsulidir va u insoniyat manfaatlariga xizmat qilishi kerak, aks holda bu bilimlardan g'arazli maqsadlarda foydalanilsa, jamiyatga katta zarar keltiriladi», degan edi.

O.Kontning ta'biricha, sotsiologiya inson aqlini va psixikasini ijtimoiy hayot ta'sirida takomillashib borishini o'rganib boradigan yagona fandır. Bu fikrni Kont butun bir ta'limotga aylantiradi va unga muvofiq individ abstraktsiyadir, jamiyat esa voqelik bo'lib u tabiiy qonunlarga bo'ysunadi. Umuman, sotsiologiyada O.Kont yana quyidagi metodlarni asoslab berdi: a) kuzatish metodi; b) eksperimental qiyosiy; v) tarixiy metod; g) qiyosiy metod - bu metodlar sotsiologiyada pozitiv fanlarning metodlari ham deyiladi. Kontning fikricha, tarixiylik metodi yordamida olingan har bir induktiv xulosalar insonni biologik nazariya tushunchalari yordamida qiyoslanib tekshirilishi lozim.

O.Kont tomonidan ta'riflangan insonning intellektual rivojlanishining uchta izchillik bosqichi: teologiyaga oid, metafizik va pozitivik haqidagi qonuni ushbu savolga javob berish uchun imkon beradi.

Birinchi, teologik bosqichda insonning g'ayritabiiy tushunchasi diniy tasavvurlar asosiga qurilgan.

Ikkinchi, metafizik bosqichda inson g'ayritabiiy kuchdan voz kechib, mavhum mohiyat, sabab va boshqa falsafiy me'yorlar yordamida voqelikni tushuntirishga harakat qiladi. Ikkinchi bosqichning vazifasi - tanqidiy, avvalgi tasavvurlarni vayron etib, u uchinchi - pozitiv yoki ilmiy bosqichni tayyorlaydi. Bu bosqichda inson mavhumiy mohiyatni ifodalashdan voz kechib, ular ustidan kuzatish bilan kifoyalanadi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish hamma fanlarda bir vaqtlarda bo'lmasada izchillik bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon oddiydan murakkabga (yuqoridan quyiga) tamoyili asosida yuzaga chiqariladi.

O'rganilayotgan ob'ekt qanchalar oddiy bo'lsa, u erda pozitiv bilimlar Shuncha tez qaror topadi. Shuning uchun pozitiv bilimlar, avvalo matematika, fizika, astronomiya, ximiyada, so'ng esa biologiyada tarqaladi.

Sotsiologiya esa bu pozitiv bilimlar Cho'qqisidir. U o'z tadqiqotlarida pozitiv uslubga suyanadi. Pozitiv uslub kuzatishlardan to'plangan tajriba va tadqiqotlarni taqqoslash, ishonchli, tekshirilgan, e'tirozni tug'dirmaydigan empirik ma'lumotlar majmuini nazariy tahlil etishga suyanan. O.Kont tomonidan jamiyat haqidagi fanni shakllantirishda mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashning zarurligi haqidagi qonunning ochib berilishi navbatdagi muhim yakun bo'ldi. Bu omillar jamiyat tarixida judda katta ijobiy ahamiyatga ega. Shu tufayli sotsial va kasbkorlik guruhlari yuzaga keladi, jamiyatning xilma-xilligi o'sadi va odamlarning moddiy farovonligi ko'tariladi.

O.Kont o'z qarashlaridan kelib chiqib, sotsiologiyani ikki qismga: sotsial turg'unlik va sotsial jo'shqinlikka bo'ladi.

Sotsial turg'unlik ijtimoiy tuzumlarning amal qilish Sharoitlari va qonuniyatlarini o'rgatadi. O.Kont sotsiologiyasining ushbu bo'limida asosiy ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din, ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy funksiyalari va

ularning birdamlik va hamkorlikni o'rnatishdagi rollari ko'rib chiqilgan. Sotsial jo' Shqinlikda O.Kont insonni ma'naviy, aqliy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini rivojlantiradi.

O.Kontning ko'pgina g'oyalari, avvalo tabiat va jamiyat haqidagi fanlarning ijobiy ko'rsatmalaridan sotsiologiyada foydalanish, shuningdek yaxlit sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi tasavvurlarini qabul qilib, uni rivojlantirgan mutafakkirlardan biri Gerbert spenserdir.

5) G.Spenser (1820-1903) ham O.Kont kabi ham keng ma'lumotga ega bo'lgan olim, o'z davrining buyuk aql egalaridan biri hisoblanadi. U falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlar bo'yicha qator ilmiy asarlar muallifidir. G.Spenserning asosiy asari «Sintetik falsafa tizimi» bo'lib, unda tabiiy va sotsial voqealarning tarixiy rivojlanishi haqidagi Chuqur qarashlarini bayon etgan. G.Spenser sotsiologiyadagi organizmga oid maktabning asoschisi hisoblanadi. U o'zining organizmga oid nazariyasini va sotsial evolyutsiya tushunchasini «Ilmiy siyosiy va falsafiy tajribalar» asarida atroflicha bayon etgan.

G.Spenser jamiyatni tabiiy, eng avvalo biologik qonunlar asosida rivojlanuvchi organizm sifatida qaragan. U jamiyatni jonli biologik organizmga o'xshatadi. Ushbu fikrni asoslash maqsadida u quyidagi dalillarni keltiradi:

1. Jonli organizm sifatida har qanday jamiyat ham o'sish va rivojlanish jarayonida o'z massasida ortib boradi.
2. U va boshqalari murakkablashadi.
3. Uning qismlarining tobora bir - biriga bog'liqligi kuchayib boradi.
4. Uni tashkil etgan birliklar goho paydo bo'lib va yo'q bo'lib turishiga qaramay, bir butun holda yashashni davom ettiradi.

G.Spenserning sotsial, shuningdek evolyutsiya nazariyasi katta qiziqish uyg'otadi. Evolyutsiyada u quyidagi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatadi: Oddiydan murakkabga o'tish (integratsiya); bir turdan xilma-xillikka o'tish (differentsiatsiya, noaniqlikdan aniqlikka o'tish tartibining o'sishi). Sotsial evolyutsiya bu - jamiyatning murakkablashuvi yo'lidagi progressiv rivojlanish va sotsial, avvalo, siyosiy institutlarni takomillashtirish sohasidagi faoliyatdir. U sotsial evolyutsiyaning odamlar ehtiyojlari bilan ob'ektiv bog'langanligini ko'rsatadi.

«Davlat evolyutsiyasi sotsial ehtiyojlar natijasi hisoblanadi», - deb ta'kidlaydi spenser.

G.Spenserning nuqtai nazaricha sotsial evolyutsiya jarayonida odamlarning va turli sotsial institutlar jamoaviy faoliyatining ahamiyati ortadi. Turli avlod odamlarning birgalikdagi intilishlari orqali amalga oshirilayotgan sotsial evolyutsiya davomida jamiyatning ko'p funktsiyalari o'zgaradi.

Spenser jamiyatning parchalanish muammosini - muvozanat, uyg'unlik va barqaror qarama - qarshi bo'lgan jarayon deb hisoblab, o'z qarashlarini bayon etgan. Jamiyatning parchalanishi uning fikricha inqirozga uchrashi orqali yuz beradi. Bu jarayon ichki, shuningdek tashqi sabablar ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Jamiyatning parchalanishi siyosiy hokimiyatni, armiya, o'tmishda progressiv bo'lgan tashkilotlarni o'z ichiga olgan davlat institutlarining samarali faoliyat ko'rsatishining kuchsizlanishi natijasida boshlanadi. Jamiyatning parchalanishi jarayonida deb davom etadi spenser, integratsiyalashgan harakatlarning kamayishi

va markazdan qochuvchi harakatlarning kuchayishi yuz beradi. Tartibsizlik kuchayadi, hukumat o'zining qobiliyatsizligini namoyish etadi. Spenser aytgan ushbu fikrlar dolzarb, mazmunan chuqur va aniq ekanligi nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, spenserning fikr va qarashlari bizning zamondoshlarimizga hozirgi hayotning mazmunini Chuqur tushunib olishlariga yordam beradi.

6) XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi sotsiologik pozitivizmning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, bu frantsuz sotsiologi Emil Dyurkgeymdir (1858-1917). U bir necha marotaba O.Kont va G.Spenserlar sotsiologik qarashining ahamiyatini ta'kidlagan, ularni tanqidiy anglagan va yanada rivojlantirgan. U bir butun sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi nazariyani ishlab chiqib, rivojlantirgan. U sotsial realizm nazariyasida sotsial voqelik tabiatini sotsial voqealar orqali tushuntirish lozimligi, odamlarning fe'l-atvorini tahlil etishning boshlang'ichi bo'lib individlar, ijtimoiy guruhlar va tegishli sotsial institutlarning o'zaro munosabat tizimini tashkil etgan jamiyat hisoblanishini yoritadi.

Dyurkgeym «Sotsiologiya uslubi» nomli asarida sotsiologiya sohasidagi jamiyat rivojlanishi nazariyalarini ishlab chiqishga e'tiborini qaratib, sotsial omillarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan tavsilotlarni yaratish ustida shug'ullangan.

Sotsiologiya,- deb yozadi u, – sotsial dalillar haqidagi fan bo'lib, uning ostida siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va boshqa g'oyalar, qoida va qadriyatlar yotadi. Dyurkgeym fikricha, sotsial voqelikning yakuniy sabablari bo'lib, amaliyotda ro'yobga oshiriladigan odamlarning g'oya va madaniy qadriyatlari hisoblanadi. Aynan ana shunda, u har qanday sotsial evolyutsiyaning manbai mavjudligini ko'radi. Bunda so'z jamoaviy ongning nomoyon bo'lishi sifatidagi g'oyalar va ma'naviy qadriyatlar ustida boradi.

Ayrim Shaxslarda nisbatan sotsial qoidalar, qadriyatlar va boshqa ijtimoiy ongning nomoyon bo'lishi ob'ektiv amal qiladi. Sotsial nazariya va uslub muammolarini ishlab chiqishda, Dyurkgeym sotsiologiya va falsafaning o'zaro ta'siri muammolariga ham e'tiborni qaratgan.

U sotsiologiya buyuk falsafiy ta'limotlardan yuzaga kelganligini e'tirof etadi va doimo qandaydir falsafiy yondashuvlarga suyanganligini ta'kidlaydi. Sotsiologiya -deb yozadi Dyurkgeym, - allaqachon mustaqil fan bo'lib Shakllangan, o'z predmetiga ega va shu tufayli o'z ishi bilan Shug'ullanishi kerak. Dyurkgeym asarlari sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida qaror topishida muhim rolni o'ynaydi.

## 2. Noklassik sotsiologik qarashlar tipi:

Sotsiologiyaning noklassik tipi nemis faylasuf, sotsiologi G.Zimmel (1858-1918) va M.Veber (1864-1920)lar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metodologiya asosida jamiyat va tabiat qonunlarining butunlay qarama-qarshi ekanligi tushunchasi yotadi.

1) G.Zimmel (1858-1918) - nemis faylsufi va sotsiologining hozirgi kunda 14 tomlik asari Chop etilgan. Asosiy asarlaridan «Darvinizm va bilish nazariyasi», «Sotsial differentsiatsiya:

sotsiologik va psixologik tadqiqotlar» asarlari bor. U Marks g'oyalariga ta'sir o'tkazdi. Zimmel fikricha, sotsial fanlar uchun a'anaviy xususiyat - boshqa fanlar Shug'ullanadigan fanlar predmetini tanlash uchun emas, balki metod sifatida kerak. Zimmel qarashicha: a) umumiy sotsiologiya - turli ijtimoiy fanlarda a'anaviy predmetlar doirasini, qonuniyatlarini aniqlaydi; b) sotsiatsiya (muloqot)ning Shakllarini tasvirlash; v) sistemalashtirish - toza haqiqiy yoki formal sotsiologiyadir. Asl sotsiologiya jamiyat haqidagi turli fanlarning tadqiqotchilariga o'z predmetlariga sotsiologik yondashishlarini ta'minlash uchun kerakli yo'nalishlarni ishlab chiqish lozim. Asl sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologiya bo'lib xizmat qilsa, xususiy sotsial fanlar uchun nazariya bo'lib xizmat qiladi. Sotsial bilish sistemasi o'zida 2 ta falsafiy fanlarni birlashtiradi: 1) Bilishning sotsiologik nazariyasi va 2) Sotsial metofizika.

Sotsial bilimning uch darajali kontseptsiyasi - umumiy - formal - falsafiy sotsiologiya vujudga keladi. Zimmel fikricha, «Sotsiologiya xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasidir». U jamiyatning umumsotsiologik qonuniyatlarini rad etib, shunday fikrlarni yozadi: «Ijtimoiy rivojlanish qonunlari to'g'risida so'z bo'lishi mumkin emas. Albatta, har kanday ijtimoiy unsur harakati tabiiy qonunlarga bo'sunadi; ammo umumiy jamiyat qonuni yo'q: bunda barcha tabiatdagidek, qonunlar ustidan hukmronlik qiladigan qonun yuq. Shuning uchun, biz har qanday ikki bir xil ijtimoiy Sharoitda mutlaqo boshqa-boshqa hodisalarni keltirib chiqaradigan kuchni bila olmaymiz»<sup>5</sup>.

2) Maks Veber (1864-1920). Buyuk nemis sotsiologi. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va nazariy pozitsiyalari ko'p jihatdan XIX asrning oxirgi Choragida Germaniyadagi ijtimoiy-siyosiy holat va vaziyatlar bilan bevosita bog'liq. Uning asarlari: «O'rta asrlardagi savdo jamiyatlari tarixiga oid» (1989), «Rim agrar tarixi va uni davlat xususiy xuquq uchun ahamiyati» (1891), «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» (1905), «Dunyo dinlarining xo'jalik etikasi» (1919), «Xo'jalik va jamiyat» (1920) kabi asarlarida sotsiologik ta'limotlarga bag'ishlangan. M.Veber Dilteyning antinaturalizmni yoqlaydi. U insonning ongli mavjudod ekanligini» hech bir tarixchi yo sotsiolog, iqtisodchi inkor eta olmasligini ta'killaydi.

M.Veber fikricha madaniyat, jamiyat va tarix haqidagi fanlar xuddi tabiiy fanlarga o'xshab baholash fikrlaridan xoli bo'lishi kerak. Lekin bu olimni o'z baho berish va qiziqishlaridan voz kechishi kerak degan fikrni tug'dirmasligi kerak. Faqatgina bu qiziqish va baho berish olimning ilmiy xulosalar doirasiga bostirib kirishi joiz emas. Bu doiradan tashqarida u qanchalik o'z mulohazalarini bayon qilishini o'zi belgilaydi, lekin endi olim sifatida emas, balki xususiy Shaxs sifatida. M.Veber qadriyatni u yoki bu tarixiy davrning kursatmasi davrga xos bo'lgan manfaatning yo'nalishi deb talqin qiladi. Shunday qilib, qadriyatlar tarixdan yuqori xolilikdan tarixiylikka o'tadilar. M.Veber qadriyatli hukmlar doim Shaxsiy va sub'ektiv xususiyatga ega deb bilgan. Ular axloqiy, siyosiy yoki boshqa qarashlar bilan bog'liq, deb hisoblaydi.

M.Veberda sotsial bilishning asosiy quroli «ideal tip» hisoblanadi. Ideal tiplar - bu sotsial tarixiy reallikni taqqoslash orqali bilish to'g'risidagi tushuncha. Uningcha, barcha sotsial-ma'lumot sotsial tip bilan tushuntirilmog'i lozim. Veber

<sup>5</sup> Zimmel G. Sotsialnaya differentsiatsiya. Moskva. 1909, 3-bet.

davlat tiplari va ratsionallik tiplari kabi sotsial faoliyat tipologiyasini ilgari suradi. «Kapitalizm», «byurokratizm», «din» va shu kabi ideal tiplarga asoslanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ideal tip tushunchasi yordamida Veber tarix va sotsiologiyaning o'rtasidagi masofani qat'iy qisqartirib, ularning ikkovining rolini aniq belgilab beradi<sup>6</sup>.

Umuman G.Zimmel va M.Veberlar sotsiologik bilimlar predmeti sifatidagi «jamiyat», «xalq», «insoniyat», «jamoatchilik» kabi tushunchalarni rad etadilar. Ular sotsiologik tadqiqot predmeti faqat individ bo'lmog'i kerak, deb hisoblaydilar.

3. Marksistik sotsiologiya ta'limoti: K.Marks (1818-1883) va F.Engels (1820-1895). K.Marks va F.Engelsning jamiyat tug'risidagi materialistik ta'limoti sotsiologiyaning klassik va noklassik tiplarning o'ziga xos sintezi sifatida vujudga keldi. Marksizmda sotsiologiya predmeti jamiyatning asosiy rivojlanish qonuniyatlarini, uning ijtimoiy birliklari va institutlarini o'z ichiga oladi. Jamiyat taraqqiyotini materialistik tushunishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1) Tarixiy materializmning asosiy tamoyillaridan biri ijtimoiy rivojlanish qonuniyatini e'tirof etish. Haqiqatan ham K.Marks jamiyat tarixi rivojlanishining umumiy qonuniyatini kashf etdi

2) K.Marks va F.Engels jamiyat hayotida amal qiladigan xilma-xil, ko'plab ijtimoiy munosabatlarni, boshqalarning belgilovchisini aniqlash zarur deb bildilar. Bu ijtimoiy munosabatlar - moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish usuli bo'lib, bu ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlaridai iborat. «Kishilar o'z turmushini ijtimoiy ishlab chiqarishda ularning irodalariga bog'lik, bo'lmagan, muayyan, zarur munosabatlarga ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadilar, bu munosabatlar ularning moddiy ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojining muayyan bosqichiga muvofiq bo'ladi.

Moddiy hayotni ishlab chiqarish usuli umuman sotsial, siyosiy va ma'naviy hayot jarayonlarini belgilaydi. Kishilarning ongi ularning borlig'ini belgilamaydi, balki aksincha, ularning ijtimoiy borlig'i ularning ongini belgilaydi.

3) Jamiyat to'g'risidagi materialistik ta'limotning yana bir muhim tamoyili jamiyat hayotining progressiv rivojlanib borishi xarakteriga ega ekanligi. Shu tamoyil asosida Marks va Engels ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to'g'risidagi qonuniyatni ochdilar.

4) Tabiiy-tarixiy jarayonlar tabiatda ro'y beradigan jarayonlar singari qonuniyatli, zaruriyat orqali sodir bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektiv xarakterga ega. Ammo tabiat hodisalaridan farq qilib, jamiyat hodisalari stixiyali tarzda emas, balki unda yashovchi kishilarning ongli faoliyati natijasidan iboratdir. Jamiyat hayotida hech bir hodisa kishilar ongida aks etmay sodir bo'lmaydi.

5) G.Zimmel va M.Veber sotsiologik qarashlaridan farq qilib, K.Marks va F.Engels sotsiologik qarashlarida empirik sotsiologik ma'lumotlar va nazariy xulosalar «tarixiy davr manfaatlari»ga - proletariat manfaatlari qaratilgan edi. V.I.Leninda bu yondashuv partiyaviylik tomoyili sifatida yanada rivojlantirildi. Bu esa, jamiyat tarakqiyoti to'g'risidagi barcha «burjua» sotsiologik ta'limotlar

---

<sup>6</sup> Sotsiologiya tarixi. Toshkent: ToshDU, 1999. 29-33-betlar.

noilmiy deb, inkor etilishiga olib keldi. Umuminsoniy qadriyatlar o'rnini sinfiy, partiyaviy qadriyatlar egalladi.

Marksizm klassiklari empirik xarakterdagi ochiq sotsial tadqiqotlarni burjua ilmi ko'rinishi deb qayd etadi K.Marksning «Kapital», F.Engelsning «Angliyada ishchilar sinfining ahvoli», «Turmush (turar-joy) masalasiga doir», V.I Leninning «Rossiyada - kapitalizmning taraqqiyoti», "Buyuk pochini» singari asarlari, nazariy tadqiqotlari ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish asosida sinfiylik printsiplari bilan yozilgan. Bu borada K.Marks va F.Engels tomonidan 1848 yili «Kommunistik partiya manifesta» asarida ana shu sinfiylik va partiyaviylik tomoyilining nazariy cho'qqisi bo'ldi.

K.Marks va F.Engels sotsiologik qarashlarining ayrim tomonlarini G.V.Plexanov, A.Bebel, R.Lyuksemburg va boshqalar ham rivojlantirib, konkretlashtirganlar. Shuningdek, ularni fikrlarini, ya'ni marksistik sotsiologiya qarashlarini V.J.Kelle, s.A.Kugel, P.Tamasha, K.Myuller, I.T.Frolov, V.A.Engelgardt kabi sotsiologlar fanning ishlab chiqarish va jamiyatning boshqa sohalari bilan aloqasini yanada takomillashtirish, fan axloqi kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Nomarksistik sotsiologiya rivojlanishida AQSH sotsiologlaridan T.Parsons, R.Merton, P.Sorokin, F.Znanetskiy, A.Chayld, Ch.R.Mills, V.Stark, P.Berger, T.Lukmansar, g'arb sotsiologlaridan s.Latur, T.Kun, s.Chepin, P.Forman, E.M.Malkey, M.Polani, E. Shilz, M. Sheler, K.Manxeymlarning roli katta bo'ldi.

Empirik sotsiologiyaning vujudga kelishi «sotsial obrazlar» yoki «dalillarni tadqiq qilish» deb atalgan narsalarni e'lon qilishdan boshlangan edi. Bu o'rinda gap muayyan sotsial dalil va hodisalarni batafsil bayon qilish va ishlab chiqarish to'g'risida boradi. Sotsiologik muammolarni hal qilishning bunday usuli tez orada birinchi bo'lib AQSHda, ayniqsa, keng tarqaldi. Empirik sotsiologiya shakllanishining markazi Chikago universiteti bo'ldi (uni Chikago «hayot markazi» deb ham atashgan). Bu erda 20–30-yillarda empirik sotsiologiyaning yaqqol rivojlanishini ifodalovchi ko'p qirrali amaliy tadqiqotlar keng sur'atda amalga oshirildi. Bu yo'nalishlar aniq holatlarda kishilar hayot faoliyatlarini mukammal tadqiq etishga qaratilgan edi. Masalan, empirik sotsiologiyaning asoschilari deb hisoblanuvchi U.Tomas va F.Znanetskiy besh tomli «Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada» (1918-1920) degan asarida AQSHga ko'chib kelgan polyak dehqonlarining hayotini batafsil tahlil qildilar. Bunda ular ash-yoviy dalillardan, shaxsiy hujjatlardan 28 polyak oilasining Shaxsiy yozishmasi, ayrim kishilarning tarjimai holi, anketalar va shu kabi bir qancha materiallardan keng foydalandilar.

Bu sotsiologiyada tadqiqotlar o'tkazishning yangi turi bo'lib, unda zamon va makon bilan cheklangan juda ko'p dalillar o'rganilar, ammo, odatda jamiyat hayotining muhim tomonlari qonuniyatlariga oid umumlashtiruvchi xulosalar Chiqarilmas edi. Shunga ko'ra, tadqiqotlar o'tkazishda tek Shirishning maxsus tartibi va texnikasi ham qo'llanila boshlandi: kuzatish, intervyu anketa tarqatish, hujjatlarni o'rganib chiqish, tajriba o'tkazish va modellashtirish, to'plangan materiallarni statistik jihatdan ishlash, diagramma, grafiklar tuzish kabilar.

Ommoviy so'rovlar usuli va texnikasi rivojiga J.G.Gellapning «Jamoatchilik fikrini o'rganish Amerika instituti» faoliyati katta rol o'ynaydi. U XX asr 30-yillarida 10 kunlab davom etadigan umummilliy so'rovlarni o'tkazdi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Amerika Qo'shma shtatlari jahon sotsiologiyasi rivojida etakchi mavqeni egalladi. AQSHda sotsiologiyaning fan sifatida jadal rivolanishida quyidagi omil muhim rol o'ynaydi. Kapitalizmning yuqori bosqichga ko'tarilishi, Yevropada sinfiy kurashning kuchayishi natijasida majud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan empirik tadqiqotlarning katta hajmda to'planganligi AQSHda sotsiologiyaning fan sifatida jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu erda sotsiologiya dastlab universitet fani sifatida shakllandi. 1892 yilda jahonda birinchi marta chikago universitetida sotsiologiya kafedra va fakulteti ochildi. 1901 yilda sotsiologiya 169 universitet va kollejlarda fan sifatida o'qitilgan bo'lsa, XX asr 80-yillarining oxirlariga kelib bu raqam 250 ni tashkil qildi.

AQSHda sotsiologiya o'zining ilk davridayoq amaliy-empirik fan sifatida shakllandi. 1910 yilda mamlakatda 3000 dan oshiq empirik tadqiqotlar o'tkazilgan edi. Hozir bu ko'rsatkich 2 baravardan oshib ketgan. Sotsiologik tadqiqotlar o'zining juda katta moliyaviy asosiga ega. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish uchun yiliga 2 milliard dollar ajratiladi. Bu xarajatlarning yarmini AQSH hukumati, qolgan yarmini xususiy biznes o'z zimmasiga olgan. AQSHda hozirga kelib 100 ming sotsiolog mutaxassislar faoliyat ko'rsatmoqda. Hukumat va mulk egalari sotsiologiyaga sotsial ziddiyatlarni hal etish quroli sifatida, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi, ijtimoiy nazorat va boshqaruv omili, mehnat unumdorligini oshiruvchi kishilarning moddiy va ma'naviy munosabatlarini tartibga solib turishning ilmiy asosi sifatida jiddiy e'tibor berib kelmoqdalar. Empirik tadqiqotlar muntazam ravishda olib borilishi fundamental metodologik va nazariy asosning ishlab chiqarilganligi, uning matematik statistik, kompyuter texnologiyasi yuqori darajadali, modellashtirish va sotsial eksperimentlarning yuqori saviyada olib borilishi oqibatida hozirga kelib AQSHda sotsiologiya aniq prognozlar beruvchi fanga aylangan.

XX asrning 20-yillaridan boshlab, AQSH sotsiologiyasida mehnat munosabatlari, insoniy munosabatlarni o'rganish yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o'tish jarayonlarini tezlashtirdi. Masalan, 1927 -1932 yillarda E.Meyo rahbarligida mehnat va boshqaruv munosabatlarini o'rganishga qaratilgan va Xotom eksperimentlari nomi bilan mashhur bo'lgan sotsiologik tadqiqotlar (bu tadqiqotlar g'arbiy Yevropani larzaga solgan kuchli iqtisodiy tanazzul davrida o'tkazilgan bo'lib, uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi - ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning qo'shimcha omillarini qidirib topishdan iborat edi.). Shu asosda 1943 yilda Abraxam Maslou tomonidan ishlab chiqarilgan «iste'molning ierarxik nazariyasi» yaratildi va amaliyotda qo'llanildi. Keyinchalik, shu nazariya asosida, 1950 yili F.Xertsberg tomonidan «motivatsiya nazariyasi» (mehnat Sharoitlarining ichki va tashqi omillari haqidagi nazariya) va 1957-yili D.Makgregor tomonidan «boshqaruv usullari nazariyasi» yaratildi (Bunda boshqarishning 3 asosiy usullari – avtoritar, demokratik va aralash tip haqida fikr yuritiladi). F.Xersberg nazariyasiga ko'ra, faqat ichki omillar mehnat mazmunini,

mehnatdan qoniqishni oshiradi. Mehnat Sharoitlari: ish haqi, shaxslararo munosabatlar, korxonah rahbariyatining tutgan siyosati, boshqaruv usuli va boshqa shu kabilarga u tashqi omillar sifatida qaraydi.

Bu omillar mehnatdan qoniqmaslik darajasini pasaytirib, kadrlarni, mutaxasislarning korxonaga bog'lanishini mustahkamlaydi. Ammo, bu omillar mehnat unumdorligining oshishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi, bu bilan F.Xertsberg quyidagi o'zaro bog'liqlikni asoslaydi: mehnatdan qoniqish hosil qilish mehnat mazmunining funktsiyasidir. qoniqmaslik esa mehnat Sharoitining funktsiyasidir.

XX asr 60 yillarda AQSH nazariy sotsiologiyasi fenomenologik yo'nalishning kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Fenomenologik sotsiologiyaning Shakllanishi A.Shnetts nomi bilan bog'liq. O'z mohiyatiga ko'ra, fenomenologik sotsiologiya antipozitiv yo'nalishda bo'ldi. AQSHda yana bir antipozitiv sotsiologik yo'nalish - simvolik interaksionizm bo'lib, unga G.Blumer asos solgan. «Yangi sotsiologiya» nomi bilan atalgan uchinchi antipozitiv sotsiologik yo'nalish Ch.R.Mills nomi bilan bog'liq. Simvolik interaksionizm, fenomenologik sotsiologiya, «yangi sotsiologiya», konflikt sotsiologiyasi, ijtimoiy ayirboshlash nazariyasi, neofunksionalizm va boshqa shu kabi nazariyalar – hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Amerika sotsiologiyasida XX asr 60-yillarga qadar marksistik g'oyalar ta'siri yo'q edi. 60-yillardan boshlab AQSHda marksistik sotsiologiyaga qiziqish orta bordi. 70-yillarda R.Fridriks kabi sotsiologlar «dialektik sotsiologik» dasturini ishlab chiqish g'oyasi bilan chiqdilar unga ko'ra, marksistik va nomarksistik sotsiologik nazariyalar, kontseptsiyalar o'rtasidagi ziddiyatli ajralishni bartaraf qilish masalasi ilgari surilgan.

AQSH sotsiologiyasida uzoq vaqt bixeviorizm metodologiya sifatida hukmron bo'ldi. Bixeviorizm inglizcha so'zdan kelib chiqib, xulq ma'nosini anglatadi. Bunga ko'ra sotsiologiya inson xulqi to'g'risidagi fandır. Bixeviorizm asoschilari E.Torndayk, D.Uotson, B.Skinnerlar edi. Ularning fikriga ko'ra, inson xulqi ko'p jihatdan boshqariladigan ruhiy jarayondir. Shuning uchun, bixeviorizm nomoyondalari sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya kabi fanlarning asosiy vazifasi inson xulqini boshqarishdan iborat bo'lmog'i lozim, deb hisoblaydilar.

Bixeviorizm sotsiologiyaning noempirik usullariga katta ahamiyat beradi. Bu metodologiya asoschilari sotsiologiyada, ayniqsa kuzatish va eksperiment usullari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlashda esa miqdoriy, matematik va statistik usullar ko'proq ahamiyatli ekanligini ko'rsatadilar. Sotsiologiya fani rivojida bu yo'nalish katta ahamiyat kasb etib, u inson xulqining Chuqur ichki yashirin, botiniy duyosini o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

AQSH sotsiologiyasida bixeviorizm metodologiyasidan tashqari yana Parsons va Mertonlarning tarkibiy-funksional tahlil maktabi metodo-logiyasi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

XX asr sotsiologiyasi rivojida «industrial jamiyat», konvergentsiya, sotsial stratifikatsiya nazariyalari, «ommaviy jamiyat» doktrinasi, strukturali-funksional



yo'nalish, tanqidiy sotsiologiya kabi g'oyalar ham sezilarli ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning ayrimlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Yagona industrial jamiyat - bu jamiyatning asosiy printsiplari quyidagilardir:

1. Xususiy mulkchilik, iqtisodiy o'sish, shaxs erkinligi va sotsial tartibni himoya qilish asosidir.
2. Biznes sotsial taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi (ishbilarmonlik markaziy figura).
3. Menejerlik boshqarish Shakli sifatida (ma'lumotli administrator markaziy figura).
4. Siyosiy yakdillikka olib boruvchi demokratiyaning xilma-xilligi.
5. Sotsial ziddiyatlar qarama-qarshiligini bartaraf etuvchi ijtimoiy hayotning hukmron g'oyadan xoli bo'lishi.
6. Korporatsiyaning rivojlanishi (masalan transnatsional korporatsiya yoki «umumYevropa bozori» kabilar).
7. Industrial jamiyat inson faoliyati, ishlab chiqarishni tashkil etish, muomalani yo'lga qo'yish (masalan bozor xo'jaligi bo'yicha), siyosiy, demokratiya, davlatchilik, sotsial struktura, iste'mol, xalqlar va madaniyatlar munosabatlari sohalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Sotsial stratifikatsiya - Sotsiologlar sotsial harakatchanlikni stratalarga (qatlamlarga) bo'lingan jamiyatning o'ziga xos xususiyati deb biladilar va uni gorizontaal hamda vertikal harakatchanlikka ajratadilar. Kishilarning aynan bir tabaqa ichida harakati, masalan, ish joyini yoki turar joyini o'zgartirish gorizontaal harakatchanlikni anglatadi. Vertikal harakatchanlik esa quyi tabaqalardan yuqori tabaqalar tomon va aksincha qilingan harakatni bildiradi. Amerikalik sotsiolog seymur Lipsetning fikricha, jamiyatda stratifikatsiya tizim sotsial zinaning quyi pog'onasida turganlarga norozilik manbai sifatida ta'sir qiladi, shuning uchun ham stratifikatsiya tizimi ajralishning manbaidir, ammo Shu bilan birga u kishilarni turli lavozimlarga tayinlashning va ularni o'z vazifalarini ado etishga rag'batlantirishning asosiy mexanizmidir. Amerka sotsiologiyasida U.Uortner Amerika jamiyatining sotsial tabaqalanish modelini ishlab chiqdi. Bu modelga oltita sotsial sinfnig tabaqalanish tartibi berilgan. Uortnerga ergashgan holda K.Deyvs, U.Mur, V.Koleman, L.Reyuoter, E.Shoyx, T.Gayger, R.Darendorf kabi olimlar o'zlarining stratifikatsiya sxemalarini ishlab chiqdilar.

Elita nazariyasi - g'arbiy Yevropa va Amerika sotsiologlari orasida elitalar nazariyasi va jamiyatdagi elita munosabatlari nazariyasi keng tarqalgan. Bu sotsiologlar biron bir sohada - siyosiy, ma'muriy, harbiy, ilmiy, texnik, xo'jalik va madaniyat sohalarida yuksak vazifalarni ado etayotgan kishilarni ijtimoiy elitaga kiritadilar. Shundan kelib chiqqan holda, ular siyosiy, harbiy, ilmiy va boshqa shunga o'xshash elitalar haqida gapiradilar hamda elitani «jamiyatning qaymog'i» deb ataydilar.

Xulosa qilib aytganda Amerika qo'shma shtatlari va g'arbiy Yevropadagi turli sotsiologik nazariyalar, ta'limotlar sotsiologiyani yuqori darajada taraqqiy etgan industrial jamiyat Sharoitida rivojlantirib, uni jahon miqyosida keng tarqalishida katta rol o'ynaydi.

Rossiyada sotsiologik g'oyalar umumjahon sotsiologik fanining bir qismi sifatida rivojlangan. Tadqiqotchilar Rossiyada sotsiologik g'oyalar rivojlanishining 3 bosqichini ajratib ko'rsatadilar. Birinchi bosqich - XIX asr o'rtalaridan to 1918 yilgacha, ikkinchi bosqich XX asr 20-yillari boshidan to 50- yillar oxirigacha;

uchinchi bosqich esa XX asr 60-yillar boshidan to bizning kunimizgacha bo'lgan davr.

Birinchi bosqich, avvalo P.Lavrov (1828-1900) va N.M.Mixaylovskiy (1822 - 1904)lar kabi yirik sotsial mutafakkirlar faoliyati bilan bog'liq. Ular tomonidan rivojlantirilgan sotsial g'oyalar «sub'ektiv sotsiologiya» nomini olgan. Bunday yo'nalishdagi g'oya P.Lavrovning 1870 yildagi mashhur tarixiy xatida birinchi marta ta'riflab berilgan. «Sub'ektiv sotsiologiya» nomoyondalari ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini ishlab chiqishga e'tibor berdilar.

Lavrovning fikricha, ijtimoiy taraqqiyotning mohiyati - madaniyatni qayta tashkil etish: Shaxsan an'anaviy tur, qotib qolgan ijtimoiy formalarni o'zgaruvchan, jo'shqinlikni ifodalovchi tuzumlar va munosabatlar bilan almashtirish zarur. Sub'ektiv sotsiologlar andozalarida shaxs, asosan harakatga keltiruvchi kuch sifatidagina emas, shuningdek ijtimoiy hayotning o'lchovi hamdir.

Ijtimoiy taraqqiyotning oliy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiladigan munosabatlarni yaratishdan iborat.

Sub'ektiv sotsiologiya bilan bir qatorda, o'sha davr sotsial fanida sezilarli rolni M.M.Kovalevskiy (1857-1916) ning asarlari o'ynadi. Kovalevskiy sotsiologik nazariyasining mohiyati sotsial guruhlar, sinflar va xalqlar o'rtasidagi birdamlikdir.

Rossiyada sotsial fikrni rivojlantirishda sezilarli rolni YU.YAson-ning «Rossiya va g'arbiy Yevropa davlatlarining siyosiy statistikasi» asari o'ynadi. Sotsiologiyani tavsiflash, sinflar haqida nazariyalarga bag'ishlab Rossiya sotsiologlari A. Bogdanov, V. Shumyatnikov, P. Sorokin, K. Taxraev asarlari yuzaga keldi.

1918-1919 yillarda Peterburg va Yaroslavl universitetlarida sotsiologiya kafedralari tashkil etildi.

P.A.Sorokin (1889-1969) yirik olim va jamoat arbobi bo'lib, Rossiya sotsiologiyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Ikkinchi bosqichda nazariy sotsiologiyaning rivojlanishi davom etdi. 1920-yillarda P.A.Sorokin «Cotsiologiya asoslari», 1922 yilda M.S.Solinskiyning «Odamlarning cotsial hayoti», 1922 yilda M.M.Xvostovning «Sotsiologiya asoslari» asarlari, 1928 yilda N.A. Buxarinning «Tarixiy materializm nazariyasi» asarlari chop etildi. 1974 yildan boshlab ixtisoslashgan maxsus «Cotsiologik tadqiqotlar» jurnali Chiqa boshladi. 1988 yildan boshlab Moskva, Leningrad, sverdlovsk, Kiev universitetlarida sotsiologiya fakultetlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Shunday qilib, o'sha davr ijtimoiy fanlari uchun metadologik asos qilib olingan tarixni materialistik tushunishdan chetlashildi. Ijtimoiy ong ijtimoiy hayotni emas, balki ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni belgilaydi, degan materialistik mohiyatga ega bo'lgan umumsotsiologik qonuniyatga xilof ravishda ish yuritildi.

Sovet Ittifoqi davrida sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanishi uchun to'la imkoniyat bo'lmadi. Buning asosiy sababi demokratiyaning yo'qligi, ijtimoiy munosabatlarga faqat sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan qaralganligi bo'ldi. Sotsiologiya esa faqat to'laqonli demokratiya bo'lgandagina fan darajasida amal

qiladi. Chunki, sotsiologiya mohiyat e'tibori bilan jamiyat hayotining o'zaro bog'liq bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy turmush sohalari rivojlanishi va funktsional qonunlarini ob'ektiv jihatdan umumiy tahlil qiladi.

Binobarin, empirik tadqiqot darajasida olingan ma'lumotlar o'rganilganda ob'ektning salbiy jihatlarini ham ifodalash mumkin.

Kishilarning davlat siyosatiga, mavjud siyosiy rejimga munosabatini, moddiy turmush darajasini, kayfiyati, intilishlari va shu kabi munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish orqali majud ijtimoiy siyosiy holat yuzaga chiqariladi. Faqat to'la qonli demokratik tuzumdagina mavjud siyosiy kuchlarning fikrlar xilma-xilligiga yo'l qo'yiladi.

Sotsiologiyada tadqiqot natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ilmiy asoslangan va ob'ektiv xarakterda bo'lishi talab qilinadi. Agar davlat demokratik asosda boshqarilmasa hokimiyat tepasidagi siyosiy kuchlar manfaatiga xizmat qilmaydigan har qanday ilmiy sotsiologik tadqiqotdan voz kechiladi va u taqiqlanadi. Siyosiy ideologiyaga bo'ysundirilgan sotsiologiya o'zining ilmiyligini yo'qotib sub'ektiv, sun'iy va soxta xususiyatga ega bo'lib qoladi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bag'rida bo'lishiga qaramasdan O'zbekistonda XX asr 60-90-yillarda sotsiologiya fanining bir qancha sohalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, sotsial sinfiy struktura (S.Tursunmuhamedov, A.Valiev). Boshqarish sotsiologiyasi (A.S.Tamkin) oila sotsiologiyasi (U.Toshtemirov, G.Hamidova, B.Umarov, M.Sangilov) sohalarda e'tiborga molik ishlab amalga oshirildi.

1989 yilda Moskvada tashkil qilingan Jamoatchilik fikrini o'rganish Butunittifoq markazining O'zbekiston bo'limi ish boshladi. Bo'lim sotsiologlari respublikamiz viloyatlari va tumanlarida xilma-xil mavzular bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib, ular asosida kishilarning ruhiyati va kayfiyatidagi o'zgarishlarni aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Ma'lum ma'noda, bu holat respublikamizda milliy ongning o'sishiga va shuning natijasida milliy mustaqillikka erishishning tezlashuviga turtki bo'ldi.

O'zbekistonda dastlab 1989 yilda Toshkent Davlat universiteti falsafa fakulteti tarkibida sotsiologiya bo'limi va kafedrasini tashkil qilindi. Shu yildan boshlab sotsiologlar tayyorlana boshlandi

## **2-mavzu. SOTSILOGIYANING OB'EKTI VA PREDMETI**

### **1. Fanning ob'ekti va predmeti tushunchasi**

### **2. Sotsiologiya klassiklari tomonidan ob'ekti va predmetining ta'riflanishi**

### **3. Sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti tushunchalarining XX asrda dinamikasi**

### **4. Sotsiologiyaning ob'ekti va predmetining zamonaviy ta'riflari**

1. Har bir fan o'z ob'ekti va predmetiga ega. Fanning ob'ekti va predmetini ta'riflash uning o'ziga xosligini aniqlash, o'rganilayotgan sohaning chegarasi, muammolari doirasi va o'rganish usullarini qat'iy belgilash deganidir. Zero, fan ob'ekti va predmetini belgilash uning tarixiy rivojlanishi davomida ma'lum bilim doirasining Shakllanishi natijasida, o'zini o'zi anglash harakati sifatida yuz beradi.

Sotsiologiya ham bundan mustasno emas. O.Kont asarining nashr etilishidan boshlab, sotsiologiyaning ob'ekti va predmetini ta'riflash borasida munozaralar davom etib kelmoqda. Xususan, g'arbiy Yevropa sotsiologiyasining klassik vakili E.Dyurkgeym fikricha «fan faqat uning mazmuni boshqa fanlar tomonidan o'rganilmaydigan dalillar bo'lgandagina mavjudlikka haqli bo'ladi». Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida tarixi unchalik uzoq emas, shu bois uning ob'ekti va predmetini belgilash muammosi zamonaviy sotsiologiya ravnaqida bahsli fundamental muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Sotsiologiyaning rivojlanishi davomida fanning ob'ekti va predmeti tushunchasi o'zgarib bordi. Sotsiologiya fan sifatida, o'z rivojlanishida yangi ijtimoiy fanning tuzilishi dasturini e'lon qilishdan uning zamonaviy darajasigacha katta yo'lni bosib o'tdi. Hozirgi paytda u turli tarzda tizimlashtirilgan bilimlar majmuasi, nihoyatda ko'p nazariy kontseptsiyalar va metodologik tamoyillar, amaliy sohalari va sotsiologik tadqiqotlarning etuk rivojlangan amaliyotidan iborat. Rivojlanishining har bir bosqichida sotsiologiya fanning yutuqlarini o'ziga singdirib, uning jamiyatni tushunish va rivojlantirishdagi o'rni va rolini qayta anglab borib, o'z ob'ekti va predmeti tushunchasini aniqlaydi, rivojlantiradi.

Fanda differentsiallashtirish jarayoni davom etayotgan Sharoida sotsiologiyaning faoliyat ko'rsatish sohalariga yanada aniqlik kiritish zarurati oshmoqda. Demak, uning ob'ekti va predmetini belgilashda yakuniy xulosaga kelish talab etiladi. Xususan, hozirgi paytda ba'zi tadqiqotchilar sotsiologiyaning predmeti borasida yuzlab ta'riflar qayd etilgan. Sotsiologiya fani tuzilmasining murakkabligi, jumladan, sotsiologik bilimning turli darajalari, nazariy-metodologik tamoyillar, tadqiqot olib borish yo'nalishlari va empirik usullar xilma-xilligi fanning predmetini belgilashdagi asosli Chigalliklarga sabab bo'lmoqda. Fan ob'ekti va predmetini ta'riflash masalasini hal etish sotsiologiya fani va uning tuzilishining boshqa xususiyatlarini ham istisno etmaydi. Bunda, klassik olimlarning asarlariga tayanish, fanning hozirgi holati va uning rivojlanish tendentsiyalari hisobga olinishi lozim. Qolaversa, sotsiolog olimlarning bu boradagi ta'riflarini keltirishdan avval, fan ob'ekti va predmetining umumilmiy

tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Chunki ushbu tushunchalar aksariyat holatlarda adashtiriladi.

***Istalgan fanning ob'ekti – o'ziga xos voqelik, hodisa bo'lib, undagi o'zaro bog'liqlik, munosabatlar yoki holatlarni tadqiq etish jarayonini qamrab oladi.*** Tabiiy fanlarda ob'ektni belgilash masalasi birmuncha oson kechasa-da, voqea, hodisalar turfa xilligi, o'zaro munosabatlarning ijtimoiy-ma'naviy omillarini o'rganadigan ijtimoiy fanlarda bu masala ancha murakkabdir. Sotsiologiya ijtimoiy borliqning boshqa fanlar tomonidan o'rganilmaydigan qismini ajratishi lozim. Vaholanki, sotsiologiyada huquq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi kabi tarmoq yo'nalishlari rivojlanayotgan zamonaviy Sharoidda yuqoridagi masala qanday hal etiladi? Tadqiqotchilar o'rtasida ommalashgan fikrga binoan, ob'ektiv voqelikning aynan o'xshash sohalari, masalan, mehnat, maishiy jihatlar, oila va hokazolar turli ijtimoiy fanlarning ob'ekti bo'lishi mumkin. Bunda fan predmeti vaziyatga oydinlik kiritadi. Demak, ob'ekt – real borliqning bir qismi bo'lsa, ***fan predmeti esa – bu ob'ektning turli jihatlarini qamrab olib fanning umumiy ma'no mazmunidan kelib chiquvchi bosh nazariy asosni tashkil etuvchi tub masala yoki fundamental muammodir.*** Ob'ekt va predmet kontseptual tarzda o'ta yaqin, uzviy bog'liq bo'ladi, Chunki ob'ektning mohiyatini tushunish fanning tub muammosi qo'yilishini belgilab beradi. Aynan Shuning uchun sotsiologiya predmeti muammosining hal etilishi ob'ekt muammosi bilan bog'liqdir. Predmet ob'ektga aynan o'xshash narsa emas. Har qanday fanning predmeti – ob'ektiv borliqning oddiygina holati yoki jarayoni emas, «o'rganilayotgan ob'ekt rivojlanishi va faoliyat yuritishining faqat ushbu fanga xos bo'lgan va boshqa hech qanday fanga tegishli bo'lmagan qonuniyatlarini»<sup>1</sup> ajratib ko'rsatishga imkon beruvchi mavhum nazariy fikr yuritish hosilasidir. Aynan Shuning uchun fanlarning o'ziga xos, alohida xususiyatlari faqat predmetga qarab belgilanadi.

Shu bilan birgilikda ob'ektga umumiy mavhum holat sifatida yondashishdan cheklanish maqsadga muvofiq. Real borliqning ayrim qismlari, masalan, mehnat, maishiy jihatlar, oila kabi tushunchalar tom ma'noda birgina iqtisodiyot, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning ob'ekti bo'lmaydi. Masalan, psixologiyaning ob'ekti mehnat, maishiy jihatlar, oilaning aynan o'zi emas, ushbu ijtimoiy institutlar doirasida faoliyat yuritayotgan Shaxsning ruhiy kechinmalari, his-tuyg'u va sezgilari, umuman hissiy olam yoki ularda sodir bo'layotgan ruhiy jarayonlar bo'lsa, iqtisodiyot nuqtai nazaridan ob'ekt – oilaning moddiy darajasi, turmush farovonligi, ya'ni maishiy va oilaviy munosabatlarning iqtisodiy jihatlarini hisoblanadi. Demak, fanlarni ajratuvchi Chegara nafaqat predmet, balki ob'ekt doirasida ham yotadi. Bu tub tamoyil masalasi bo'lib, fan maqomi, uning boshqa fanlar bilan munosabati masalalarining hal etilishiga bog'liq bo'ladi.

**2.** Sotsiologiya fanining klassik namoyondalarining yutug'i - uni falsafa, psixologiya va tabiiy fanlardan ajratib berganligidadir. O.Kont sotsiologiyani yuqori darajada umumiy bo'lgan qonunlarni o'rganadigan falsafadan ajratgan. Bu qonunlar tabiatda ham, jamiyatda ham, inson tafakkurida ham amal qiladi. Ularda ijtimoiy real borliqning o'ziga xosligi aks etadi. Lekin jamiyat haqida bilim olish

<sup>1</sup> Barulin V.S. Ijtimoiy hayot sohalalarining dialektikasi. – M.: MGU, 1982. – S. 56.

uchun bular etarli bo'lmaydi, Chunki jamiyatga o'ziga xos, spetsifik bog'lanishlar va munosabatlar, xususiyatlar xos bo'lib, ular falsafa bilan qamrab olinmaydigan qonunlar va tushunchalar bilan aks ettiriladi.

XIX asrda fanning amaliy yo'naltirilishi asosiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar allomalarni qoniqtirmay qo'ydi. Aynan Shuning uchun sotsiologiyaning asoschisi O.Kont o'z ijodiy faoliyatini falsafani tanqid etishdan boshladi va voqea-hodislarni nazariy ta'riflash va amaliy tadqiqot usullarini o'zida mujassamlashtirgan yangi fanga bo'lan ehtiyojni asoslashdan boshladi. Bunda asosiy e'tiborni tabiiy fanlar yutuqlariga qaratdi. Chunki, XIX asrda tabiiy fanlar katta muvaffaqiyatlarga ega bo'ldi. Aynan Shu davrda olimlar kimyoviy elementlarning tuzilishi, tirik organizmlar rivojlanishining fizik qonuniyatlariga doir nazariyalarni yaratdilar. Bu kashfiyotlar ulkan empirik baza va empirik usullar: kuzatishlar, tajribalarga tayanib amalga oshirildi. Shu bois, sotsiologiyaning asoschilari O.Kont va G.Spenserning nazariy faoliyati tabiiy fanlarga xos yangi ijtimoiy fanni yaratishga qaratildi. Bunda naturalizmning ta'siri katta bo'ldi.

Ammo, sotsiologiya jamiyatning va inson faoliyatining ilmiy tadqiqoti sifatida tabiiy fanlardan ham ajralib turadi. Tabiiy fanlar: biologiya, geologiya, kimyo, fizika, - nazariy va akademik fanlar bo'lib, tabiiy muhitning voqealar va jarayonlarini tushunish, izohlash va prognoz qilishni maqsad qilib qo'yadi. Tabiatning bir qismi sifatida insonning muammolarini ijtimoiy antropologiya, homo sapience (ongli inson) kelib chiqishi to'g'risidagi fan sifatida o'rganadi. Shu bois, sotsiologiyada naturalizm adolatli tarzda tanqid qilingan. Jamiyatning tabiiy jarayonlardan farqli jihatlari marksizm tomonidan batafsil ochib berilgan. Unga muvofiq – maqsadga yo'naltirilgan faoliyat, mehnat, nutq va nihoyat, ong insonni hayvonot olamidani farqlab turadi.

Sotsiobiologlar hayvonlar va insonning ijtimoiy hulqi shakllari haqida qator kontseptsiyalarni ishlab chiqqan, bular: altruizm, o'z naslini davom ettirish, o'zini o'zi tiklash, agressiya va boshqalardir. Xususan, agressivlik - sotsiobiologlarning fikricha, insonni hayvonga yaqinlashtiruvchi jihat bo'lib, u biologik nuqtai nazardan zaruriy va «adaptiv bo'lgan hamda evolyutsiya davomida maxsus tanlab olingan reaksiya (aks ta'sirlanish)larning namunalaridan iborat».

Sotsiobiologiya zamirida etnosotsiologiya yo'nalishi shakllandi. Uning tadqiqot sohasi xalqlarning etnosotsiologik xususiyatlari, madaniyati (tili, turmush tarzi, maishiy Sharoitlari, an'analari), milliy o'ziga xosligini belgilab beruvchi ijtimoiy omillar hisoblanadi. Etnosotsiologiya u yoki bu milliy holatlarning o'zini o'zi tiklashi mexanizmi, ular qanday ishlashini aniqlashga yo'naltirilgan. Etnik o'ziga xos jihatlar bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni tadqiq etgan holda, etnosotsiologiya millatlar mobilligini tartibga solisha, millatlararo munosabatlar barqarorligini ta'minlash yo'llari aniqlashga o'z hissasini kiritadi. Shu bois, ularni tadqiq etish ham biologiya, ham sotsiologiya uchun qiziqish uyg'otadigan umumiy sohalarning yuzaga keltiradi.

Dyurkgeym bo'yicha sotsiologiya – mustaqil, umumiy fan sifatida boshqa fanlarning yutuqlaridan samarali foydalanadi. U falsafadan ajralishi va o'z sohasini belgilab olishi lozim edi. Bu ajralish ijtimoiy muammolar, ijtimoiy voqelik bilan

alohida mustaqil Shug'ullanish va mavhumlikdan qochish uchun zarur bo'ladi. Biroq bu sotsiologiyaning falsafadan mutlaq uzilishi lozimligini anglatmaydi. Sotsiologiyaning mustaqil bo'lishi falsafa uchun ham muhim bo'ldi. Chunki sotsiologiya yangi dalillar va g'oyalarga ega bo'ldi. Fanni boyitadigan qator ixtisoslashgan yo'nalishlar ishlab chiqilishiga olib keldi.

Sotsiologiya, falsafani to'liq inkor etishdan to uning muhim ahamiyatini tan olishgacha murakkab yo'lni bosib o'tib, hozirgi paytda ushbu o'zaro ta'sir etish jarayonini Chuqurlashtirmoqda. U turli-tuman falsafiy g'oyalardan foydalanib, K. Marks, M. Veber kabi qator olimlarning g'oyalari qayta ko'rib chiqib, yangi nazariy asoslarni ishlab chiqishga intilmoqda.

Sotsiologiyani psixologiyadan ajratish eng qiyin bo'gan, Chunki ijtimoiy o'zaro ta'sir doimo ruhiy o'zaro ta'sirni o'z ichiga oladi, har qanday ijtimoiy jarayon Shaxsning motivi, e'tiqodi, tuyg'ulari va kayfiyati bilan belgilab beriladi. Sotsiologiya va psixologiya kesishuvida ijtimoiy psixologiya fani yuzaga kelgan. Agar umumiy psixologiya alohida shaxsning ruxiyatini o'rgansa, ijtimoiy psixologiya kishi hulqining ijtimoiy mezonlarini ochib beradi. Bu borada tadqiqot olib borgan A.N.Leontev Shunday yozadi: «Inson faoliyati har qanday Sharoitda va istalgan Shaklda amalga oshsa-da, uni ijtimoiy munosabatlar tizimidan ayricha holda ko'rib chiqish mumkin emas»<sup>2</sup>. G.M. Andreevaning fikriga ko'ra ijtimoiy psixologiyaning predmeti «Kishilarning ijtimoiy guruhdagi hulq-atvori va faoliyatining qonuniyatlari hamda ushbu guruhlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish»dir. Bu olimlar psixologiya va sotsiologiyani farqlay turib, inson hulqining ijtimoiy me'yorlarini psixologiya predmeti sifatida ko'rsatadi.

Shunday qilib, sotsiologiya ob'ekti va predmeti muammosini hal etishning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat.

Birinchidan, fanning mustaqil soha sifatida ajralishi jarayoni hali yakunlanmaganligi bois, o'zini o'zi ta'riflashga intilishlarni yakuniy deb bo'lmaydi. Sotsiologiya tuzilmasining murakkabligi bu muammoni bilimning zamonaviy holati, uning ko'p darajaliligi, nazariy kontseptsiyalarning o'zaro ziddiyati, empirik tadqiqotlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda hal etishni talab qiladi. Sotsiologiyaning ob'ekti va predmetining ta'rifi fanning zamonaviy tuzilishini yaxlit aks ettirishi lozim. Siyosat sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi kabi umumlashgan tarmoqlarning rivojlanishi jamiyat hayotining ma'lum sohalarini tadqiq etishda ob'ekt va predmetning o'ziga xos jihatlari alohida ajratib ko'rsatishni talab qiladi. Bu ma'noda sotsiologik yondashuvning boshqa ijtimoiy fanlardan farqli tomonlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Kontning uch bosqichli qonuniyatiga binoan, sotsiologiya inson tabiatining o'zgarmas, tabiiy ijtimoiy tuyg'ulari va intellektual taraqqiyotda ifodalanuvchi qonuniyatlarni o'rganadi. Ijtimoiy hayotning turfa xilligi jismoniy, aqliy, ma'naviy va siyosiy jihatlarning o'zaro ta'sir etishi hosilasi sifatida namoyon bo'lishidir. Kont g'oyalari asosida sotsiologiyaning ob'ekti va predmetini pozitiv-naturalistik jihatdan, evolyutsiyaning tirik qolish va o'z-o'zini saqlab qolish biologik qonunlari sifatida talqin etuvchi bir qator yo'nalishlar yuzaga kelgan.

<sup>2</sup> Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost M.: 1975. S.82.

Pozitivizm tomonidan belgilangan chegaradan tashqariga chiqishga uringanlar ichida E. Dyurkgeym sorbonna universitetida sotsiologiya kafedrasini barpo etdi. U tabiiy-biologik va psixologik jihatlardan farq qiluvchi o'ziga xos ijtimoiy holatlarni tahlil qilishga tayangan holda sotsiologiyani barpo etishga intildi. E. Dyurkgeym «Ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan har qanday ijtimoiy jarayon negizi ichki ijtimoiy muhitning tuzilishida yotadi», - deb yozadi<sup>3</sup>. Uning fikricha, ijtimoiy hodisalarni o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan dalillar tashkil etadi. Bular individdan tashqarida bo'lgan va majburiy xarakterdagi fikrlash, harakatlar va tuyg'ularning obrazlari bo'lib, shu sababli individ ularga majburan undaladi. Ijtimoiy sifat - umumiylik, bir butunlik sifatidir, u individlar uchun ob'ektiv xususiyatga ega bo'ladi. U individuallikni yo'q qilmaydi, balki uni belgilab beradi. Aynan Shunday, ma'lum bir umumiy tashqi belgilariga ega bo'lgan holatlarning guruhi sotsiologiyaning ob'ekti sanaladi. Ushbu holatlarni Dyurkgeym jamoaviy tasavvurlar deb ta'riflaydi va ular umumiy hayot natijasi, individual ong o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro ta'sir va aks ta'sirlanishning mahsuli bo'lib, jamoaviylikdan kelib chiqadi. Uning predmeti - jamoaviy tasavvurlarning kelib chiqishi, ishlashi va rivojlanishi qonuniyatlaridir. E. Dyurkgeym pozitiv ruhda qolsa-da, ijtimoiylik mohiyatini ta'riflashga katta hissa qo'shdi.

M. Veber esa sotsiologiya fanini jamoaviy yaxlitlikdan emas, alohida individdan kelib chiqib barpo etmoqchi bo'ldi va Yevropa gumanistik an'alarini davom ettirdi. Zero, ong gumanistik yo'nalishning diqqati markazida turadi. O'zining fan kontseptsiyasida M. Veber mantiqiy xulosani sof empirik tarzda dalillar yordamida aniqlash va amaliy baholashni farqlaydi. Bu muhim metodologik ahamiyatga ega bo'ldi. Sotsiologiyaning ob'ekti hayotiy voqea-hodisalar, kuzatiladigan holatlar emas, ularning mohiyatini tashkil etuvchi jihatlar, ya'ni: sabab, aloqa, munosabat, fikrlash va harakatlanish tarzidir. U imo-ishora, so'z, til va hokazolar orqali ifodalanadi. Sub'ektiv mazmuni uning ramzlari orqali ilg'ab olish sotsiologiyaning vazifasi hisoblanadi.

Sotsiologiya rivojlanib borishi bilan uning ob'ekti va predmeti tushunchalari o'zgarib bordi. Neopozitiv yo'nalishlar sotsiologiyaning o'zini o'zi belgilash jarayoniga o'z hissasini qo'shdi. Avvalgi yo'nalishlaridan farqli ravishda, neopozitiv ruhdagi ta'limotlar sotsiologiya fanini empirik tadqiqotlar zahirida qurishga intiladi. Sotsiologiya inson hulqi haqidagi empirik fan sifatida qabul qilindi. Sotsiolog esa nafaqat olim balki, ijtimoiy muhandis, jamiyat quruvchisiga aylandi. Shu nuqtai nazardan fanning ob'ekti - turli vaziyatlarda insonning hulq atvori bo'lsa, uning predmeti - jamiyatning mehnat, siyosiy, iqtisodiy va hokazo sohalarining ijtimoiy mexanizmlaridir. Sotsiologiya haqidagi bunday tasavvur bixeviorizm, simbolik interaksionallik, empirik yo'nalishlarida ustuvor hisoblanadi.

**3. XX asrning 30-yillarigacha AQSHda empirik tadqiqotlar amaliyotining kengayishi sababli, sotsiologiyaning predmetsizlashuvi yuzaga keladi. Boshqarish sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, ijtimoiy fikr sotsiologiyasi, jinoyatchilik sotsiologiyasi va hokazolar kabi yo'nalishlarning paydo bo'lishi sotsiologiyaning yagona ob'ekti yo'qolishiga, uning ijtimoiy hayotning ayrim sohalariga**

<sup>3</sup>Dyurkgeym E. Metod sotsiologii. Per. SPb., 1898.



bo'linishiga olib keldi. Bu yo'nalishlar 1927 yilda F. Znanetskiy va U. Tomaslarning «Polsha dehqoni Yevropada va Amerikada» hammualliflik asari nashrdan chiqqanligi sababli yuzaga kelgan. Lekin bu asarning mualliflaridan biri F. Znanetskiy sotsiologiya va uning predmetini boshqacha tushunish tarafdori bo'lgan. U «predmetsiz» nazariyachilikka ham, «tartiblanmagan» empirizmga ham botib qolmaslikka intiladi va sotsiologiya ob'ektining mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. U fizikaviy va ijtimoiy borliqni farqlaydi, buning uchun u «inson koeffitsienti» tushunchasidan foydalanadi. Uning fikricha, bu tushuncha sotsiologiyani o'ziga xosligini ifodalaydi. Farqi shundan iboratki, tabiiy tizimlar insonning tajribasi va faolligidan qat'i nazar mavjud bo'ladi. Madaniyat esa o'ziga xos, tabiiy ildizli epifenomen bo'lmagan real borliqni yaratadi, Chunki uning paydo bo'lishida inson ishtirok etadi. Sotsiologiya maxsus fan sifatida, uning fikricha, 4 ta asosiy bo'limni o'z ichiga olishi lozim: ijtimoiy harakat va ta'sir nazariyasi; ijtimoiy munosabatlar nazariyasi; ijtimoiy Shaxslar nazariyasi va ijtimoiy guruhlar nazariyasi.

Sotsiologiya jamiyatda yuz beradigan barcha jihatlar emas, balki faqat harakat va ta'sir tizimini yaratuvchi ongli individlarning o'zaro ta'siri yuzasidan fikr yuritadi. Znanetskiy tomonidan ajratilgan yo'nalishlar sotsiologiyani maxsus sohalarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan, va rivojlanib borgan. Sotsiologiya ob'ekti va predmetining ushbu ta'riflarining yutug'i shu bo'lganki, inson sub'ektivligi ijtimoiy olamning mohiyatini bilish tarkibiga kiritilgan.

XX asrning 60-yillarda sobiq sovet matbuotida sotsiologiyani predmeti yuzasidan munozara boshlangan. Bu munozaraning yakuni o'sha davr tadqiqotchilari V.P.Rojin, G.M.Andreeva, V.A.Yadov va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan pozitsiya bo'lib, u eng oxirgi vaqtgacha umume'tirof qilingan nazariya deb hisoblangan. Lekin jamiyatning bir butun holda umumnazariy o'rganilishi bilan bir qatorda, alohida ijtimoiy sohalarni: siyosiy, ma'naviy, institutsional sohalarni tadqiq etish, shuningdek ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos munosabatlarini, ularning fikrlash tarzini, o'zini tutish tuzilishini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lgan, Chunki umumsotsiologik qonunlar boshqarish, ishlab chiqarish, shaxsning Shakllanishi, ijtimoiy tuzilmaning takomillashuvi va boshqa muayyan masalalarga javob bera olmaydi.

Hozirgi paytda sotsiologiya turli tarzda tizimlashtirilgan bilimlar majmuasi, nihoyatda ko'p nazariy kontseptsiyalar va metodologik tamoyillar, amaliy sohalari va mukammal sotsiologik tadqiqotlar amaliyotidan iborat. Rivojlanishining har bir bosqichida sotsiologiya fanning yutuqlarini o'ziga singdirib, uning jamiyatni tushunish va rivojlantirishdagi o'rni va rolini qayta anglab borib, o'z ob'ekti va predmeti tushunchasini aniqlaydi, rivojlantiradi. Bu talqinlarning hammasini uchta katta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi yondashuvga muvofiq, sotsiologiyani ob'ekti sifatida umuman jamiyatning o'zi, predmeti esa - jamiyatning butun tizim kabi rivojlanishi qonuniyatlari tasavvur qilingan. Sotsiologiyani bunday tushunish asoschilari klassik olimlar O.Kont, G.Spenser, E. Dyurkgeym va boshqalar bo'lgan. Hozir u qator xorijiy olimlar tomonidan takrorlanmoqda. N. Smelzer yozishicha: «sotsiologiya - bu jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni ilmiy

o'rganish»<sup>4</sup>. S.S. Frolov esa "Sotsiologiya – jamiyatning tuzilmalarini, ularning elementlari va mavjud bo'lish Sharoitlarini, shuningdek bu tuzilmalarda sodir bo'ladigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganadigan fan, deb xulosa qiladi"<sup>5</sup>. Dj.Markovich esa, sotsiologiyani predmeti jamiyat rivojlanishining ijtimoiy qonuniyatlari va iqtisodiy muammolarni hal etishning ijtimoiy samaradorligidir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, globallashtirish milliy va madaniy o'ziga xoslik hamda davlatlarning suvereniteti saqlanishi muammosini ko'ndalang qilib qo'ygan. Shuning uchun sotsiologiya predmeti - madaniy o'ziga xoslik hamda davlatlarning suvereniteti saqlanishiga ko'maklashadigan global muammolarning echimi bo'lishi kerak<sup>6</sup>.

4. Zamonaviy sotsiologlar fan ob'ekti va predmetining umumiy ta'riflarini ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy muammolariga moslashtirib aniqlashga urinadi. Buning uchun ular ijtimoiy tizimning eng oddiy, jamiyatni hosil qiluvchi elementni izlaydi. Luman fikricha, bunday «eng oddiy element» kommunikatsiya, muloqot hisoblanadi. O'tmishdagi olimlarning ko'pchiligi ijtimoiy harakatni bunday element deb hisoblagan, u tufayli ijtimoiy tizim va ijtimoiy ta'sirlar qayta tiklanadi. Luman fikricha, bunday «bo'linmas» (elementar) ijtimoiy operatsiya - to'liq yopiq kommunikativ tizim bo'lib, uning komponentlari tizimning o'zi tomonidan qayta tiklanadi. Bu yondashuvni yaxshiroq tushunish uchun jamiyatni bir-biri bilan tasodifiy ta'sir etuvchi individlarning oddiy to'plami emas, ma'lum tarzda joylashgan va tartibga solingan, o'zaro ta'sir etuvchi ma'lum qismlardan iborat bo'lgan bir butunlik sifatida tasavvur qilish lozim. Jamiyatni tarkibiy tartibga solingan tizimlari kabi o'rganish Shuni ko'rsatadiki, bunday o'rganishda asosiysi – tuzilmaning ayrim qismlari o'rtasida bog'lanishlar tizimini aniqlashdir<sup>7</sup>. Bu esa o'z o'rnida sotsiologiyani predmeti hisoblanadi. Ushbu ta'rif hozirgi paytda keng tarqalgan strukturalizm ta'sirida paydo bo'lgan. Unga binoan, etnografik, psixologik, madaniyat tuzilmalari o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchi elementlarning yig'indisi sifatida ularning o'z ichidagi mazmuni yoki tashqi aloqalari bilan emas, ijtimoiy tizimdagi o'rnini bilan belgilanadi. Ushbu yondashuvdan foydalanib, jamiyatni ma'lum pozitsiyalarni, ijtimoiy maqomlarni egallaydigan hamda guruhlarni, qatlamlarni, jamoalarni hosil qiladigan individlarning ijtimoiy bog'lanishlari va munosabatlari yig'indisi sifatida tahlil qilish mumkin.

Birinchi yondashuvning vakillari ijtimoiy tuzilmani diqqat markazida tutgan bo'lsa, ikkinchi yondashuvning vakillari ijtimoiy munosabatlar sohasini sotsiologiyani predmeti deb hisoblaydi. Ushbu munosabatlar amalga oshishi va rivojlanishi qonuniyatlarining o'ziga xosligi, ularning qayta tiklanishi va o'zgarishi sotsiologiyani predmetidir. Bunda «ijtimoiy munosabatlar» tushunchasiga: insonlarning barcha o'zaro munosabatlari; jamiyatning katta guruhlari – sinflar, millatlar orasida munosabatlar; fuqarolik jamiyati deb nomlanuvchi, ya'ni davlat va biznes tomonidan tartibga solinmaydigan jamiyat sohasini tashkil etuvchi

<sup>4</sup> Smelzer N Sotsiologiya ekonomicheskoy jizni. //Amerikanskaya sotsiologiya. – M.: Progress, 1972. – S. 188-203.

<sup>5</sup> Frolov S.S. Sotsiologiya: Uchebnik dlya vuzov. – M.,1996. – S.20.

<sup>6</sup> Markovich D. J. Obshaya sotsiologiya. – M. 1998. - S.13, 35.

<sup>7</sup> Luman N. Obshestvo kak sotsialnaya sistema. – M.: Logos, 2004.

kishilar va guruhlarning o'zaro munosabatlari, ta'siri va boshqalar kiradi. G.V.Osipov jamiyatda turli holatni egalab turgan jamoalarning vakillari sifatida insonlarning o'zaro munosabati va ta'sirini tavsiflaydigan ijtimoiy aloqalar va munosabatlar yig'indisini sotsiologiya ob'ekti deb hisoblaydi.

Bunday mazmunda avval tarkib topgan kishilar va ularning guruhleri ijtimoiy notengligini qayta tiklaydigan yoki o'zgartiradigan kishilarning aloqalari va munosabatlari amalga oshirishi hamda o'zgarishining qonuniyatlari sotsiologiya predmeti deb tan olinadi<sup>8</sup>. J.T.Toshenko fikricha, sotsiologiya ob'ekti sifatida fuqarolik jamiyati yuzaga chiqadi, uning predmeti esa – uning Shakllanishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishining qonuniyatlari<sup>9</sup>. Yana bir rossiyalik olim V.G.Xarcheva sotsiologiya ob'ekti shaxsning munosabatlari tizimi kabi anglab etiladigan ijtimoiy hayot, uning predmeti esa shaxsning ijtimoiy hayot sub'ekti sifatida qayta tiklanishi va evolyutsiyasi qonuniyatlaridan kelib chiqadi<sup>10</sup>. V.G.Xarchevaning tutgan pozitsiyasi amerikalik tadqiqotchilarning sotsiologiya ob'ektini tushunishiga yaqin bo'lib, ular bunday hayot tushunchasiga individlarning odatdagi vaziyatda (jismoniy, psixik) holatlari;shaxslararo munosabatlari va o'zini tutishining butun ko'lamini kiritadi. Bunda «hayot» kategoriyasi - nihoyatda mavhum tushunchadir. Vitalizm ijtimoiy falsafaning yo'nalishi sifatida hayotni alohida, nomoddiy («yaratuvchi kuch») va hokazo omillarning ta'siri ostida yuzaga keladigan holat sifatida talqin etadi. Sotsiologiyada vitalizm oxirgi yarim asr davomida sotsiologiyaning jamiyatning barcha sohalariga va jihatlariga kirib borishi natijasida keng tarqalgan. Bu ta'riflarning kamchiligi «hayot» tushunchasining noaniqligi, hamda uning fiziologiya va biologiya bilan bog'liqligidan iborat.

Mashhur amerikalik sotsiolog E.Giddens fikricha, sotsiologiya individlardan boshlab, kishilarnig katta guruhlarigacha ijtimoiy hayot sub'ektlarining ijtimoiy tajribasini, ushbu tajribaning makonda va zamonda tartibga solinganligini o'rganadi. Sotsiologiya ob'ekti va predmetining zamonaviy ta'riflarini bayon etishni yanada davom ettirish xususiyati oshkora ko'riib turibdi. Oldinroq rivojlangan fanlarning vakillari ko'pincha sotsiologlarni o'zi bilmagan narsani o'rganayotganligida ayblaydi. Bu ayblovga javoban nima deyish mumkin? Sotsiologiya - yosh fan, shuning uchun ham uning o'zini bilishga va o'zini tushunishga intilishi yuqori ekanligi tushunarli. Ikkinchidan, sotsiologiya biologiya, kimyo, fizika fanlaridan ancha murakabroq. U Shu fanlardan kishilarda ongning rivojlanishni ob'ektiv va sub'ektiv omillarining o'ziga xos dialektikasi bilan ajralib turadi. Uchinchidan, XXI asrda ijtimoiy jarayonlar jo' Shqinligining ortishini, barcha davlatlarning ijtimoiy hayotida yangi ijtimoiy holatlarning paydo bo'lishini qayd etish lozim, sotsiologiya ularni inobatga olmasligi mumkin emas. Dolzarb ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganish, ularning sabablari va oqibatlarini aniqlash fan ob'ekti va predmeti haqidagi tasavvurlarga tuzatish kiritadi. Bundan tashqari, sotsiologiya ob'ekti va predmeti yuzasidan munozaralar ijobiy natijalar

<sup>8</sup> Sotsiologiya. Osnovi obshey teorii: Uchebnoe posobie. //Pod. red. G.V. Osipova, L.N. Moskvicheva. – M.,1996. - S.80-84.

<sup>9</sup> Toshenko J.T. Sotsiologiya: Uchebnoe posobie. – M.,1994. - S.11-15.

<sup>10</sup> Xarcheva V.G. Osnovi sotsiologii: Uchebник. – M., 1997. - S.8-12.

beradi, yangi rivojlanish vektorini belgilaydi. Butun XX asr mobaynida davom etgan munozaralarning asosiy yakuni uchinchi yondashuvning Shaklanishi bo'lgan edi. Bu yondashuv bir tomondan, birinchi ikkitasiga qarshi turadi, boshqa tomondan, ularni jamlab oladi.

Shunday qilib, sotsiologiya ob'ekti va predmeti muammosini hal etishning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat. Fanning mustaqil soha sifatida ajralishi jarayoni hali yakunlanmagan, shuning uchun har qanday ta'riflashni yakuniy deb bo'lmaydi. Sotsiologiya tuzilmasining murakkabligi bu muammoni bilimning zamonaviy holatini, uning ko'p darajaliligini, nazariy kontseptsiyalarning o'zaro zidligini, empirik tadqiqotlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda hal etishni talab qiladi. Sotsiologiyaning ob'ekti va predmetini ta'riflash fanning zamona-viy tuzilishini butunligicha aks ettirishi lozim. Siyosat sotsiologiyasi, huquq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi va boshqalar kabi umumlashgan sohalarning rivojlanishi jamiyat hayotining ma'lum sohalarni tadqiq etishda ob'ekti va predmetining o'ziga xosligini ajratib ko'rsatishni talab qiladi. Bu darajada sotsiologik yondashuvning boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan o'ziga xosligi eng aniq namoyon bo'ladi.

YUqorida bayon etilganlarni xulosa qilib va sotsiologiyaning eng muhim ta'riflariga tayanib, uning ob'ekti va predmetining ta'rifini berishga urinib ko'ramiz. Sotsiologiya umumiy fan emas, xususiy, fanlararo fandır. U boshqa fanlar tomonidan o'rganilmaydigan o'z ob'ektiga ega. Uning o'ziga xos sohasi - ijtimoiy borliq, uning inson va jamiyatning o'zaro munosabati va ta'sirining ijtimoiy-madaniy belgilab berilgan holatida. Bu fan ijtimoiy munosabatlarni ham; jamiyat va guruhlarning hayotiy faoliyatini ham o'rganadi, ular ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy va boshqa sohalarning o'zaro munosabati va ta'siri kabi tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlar bu sohalarni qamrab oladi va ularning tizimli bir butunlik Shaklida o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Ushbu ob'ekt faqat sotsiologiya tomonidan o'rganiladi, va boshqa hech qanday fanga tegishli bo'lmaydi.

Xususiy darajada sotsiologiya o'z sohasini shaxs, guruh, jamiyatning ijtimoiy harakatlarini; ijtimoiy institutlar, ijtimoiy munosabatlar, kishilarning ijtimoiy harakatlarini va ularning fikrlash tarzini tahlil qilish yo'li bilan ajratib oladi. Sotsiologiya, ijtimoiy hayotning eng ahamiyatli jihatlarini ajratib ko'rsatib, boshqa fanlar uchun nazariy-metodologik bazisni yaratadi. U fanlar uchun jamiyatga va insonga, qonunlar va ularning rivojlanishi moyiliklariga umumiy qarash imkoniyatini beradi. Sotsiologiya o'zining spetsifik ob'ektini empirik darajada ham tadqiq etadi.

Bizning fikrimizcha, sotsiologiyaning predmeti jamiyatda inson mohiyatining rivojlanayotgan umumiy xususiyatlari amalga oshirishining qonunlari hisoblanadi. Agar ob'ekt – fan o'rganadigan jihatlar bo'lsa, predmet – fan buni qanday tarzda va nima uchun qilishidir. Ma'lumki, inson va jamiyat o'z qonunlariga muvofiq rivojlanadi. YUzaga kelayotgan ijtimoiy tuzilmalar nafaqat inson manfaatlariga zid kelishi, balki insonga qarshi yo'naltirilgan xususiyatlarga ega bo'lishi ham mumkin. Inson va jamiyatning o'zaro ta'sirini tadqiq etgan holda, sotsiologiya jamiyatning rivojlanishi va hayotining ushbu darajasida optimal bo'lgan, insonning

jismoniy, emotsional-psixologik va ma'naviy salohiyatini maksimal ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi ijtimoiy tashkil etish usullarini o'rganadi. Bu vazifani sotsiologiya umumiy bir butunlik darajasida ham, alohidagi sohalari darajasida ham hal etadi.

### 3-mavzu: SOTSILOGIYA STRUKTURASI

#### REJA

1. Sotsiologiya fani strukturasi tarkibiy qismlari
2. Fundamental va amaliy sotsiologiya. Nazariy va empirik tadqiqotlar.
3. Maxsus va tarmoq yo'nalishlar
4. Makrosotsiologiya, o'rta darajadagi sotsiologiya va mikrosotsiologiya

1. Sotsiologiya fani boshqa fanlar kabi o'zining struktura<sup>1</sup>siga, ya'ni ichki tuzilishiga ega. Fanning strukturasi deyilganida, fandagi asosiy elementlarning o'zaro aloqadorlikda joylashishi, munosabati va tartibi tushuniladi. Fanning rivojlanganlik darajasi uning strukturasi holatini hamda mukammalligini belgilab beradi. Fan o'zining umumiy asoslari, kategoriya va tushunchalari, bilishning turli darajalari va shakllarini ishlab chiqib, ularning o'rtasida qat'iy mantiqiy bog'lanish va muvofiqlikka erishsa, bir yaxlit sistema<sup>2</sup> sifatida qaror topgan va o'z strukturasi ega bo'lgan hisoblanadi.

Sotsiologiya fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan kech yuzaga kelgani uchun bugungi kunda xali o'zining tugal va mukammal strukturasi ega emas. U yosh fan sifatida turli xil rivojlanish yo'nalishlari va ilmiy tizimlarning to'plami sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda sotsiologiyaning fanining o'rganish predmeti va mazkur predmet asoslangan ilmiy kontseptsiyalar sotsiologik bilimning strukturasi belgilab bermoqda. Shuning asosida sotsiologiya o'zining bilim darajasiga ko'ra, nazariy va empirik sotsiologiya; tashkil etuvchi sotsiologik bilim vazifalariga ko'ra, fundamental va amaliy sotsiologiya; tadqiqot ob'ekti (butun jamiyat yoki uning ma'lum qismi)ga ko'ra, umumiy va tarmoq sotsiologiyasi (makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya); tuzilish sohasiga ko'ra, mahsus va tarmoq yo'nalishlar sotsiologiyasiga bo'linadi. Sotsiologiya fanining mazkur tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lib, ayrim hollarda bir-birlariga qo'shib ketadi, boshqa hollarda esa bir-birlarini inkor qiladi.

Sotsiologiya strukturasi bilim olish darajasiga ko'ra fundamental va amaliy sotsiologiyaga ajratiladi.

**2. Fundamental sotsiologiya** o'z doirasida o'rganayotgan muammolarning ko'lamini kengligi bilan ajralib turadi. U sotsial olamning mavjudligi va tarqqiyoti uchun zarur bo'lgan umumiy sotsial qonun va qonuniyatlarni izlash asosida shakllangan.

Fundamental va amaliy sotsiologiya nazariy va empirik sotsiologik bilimlarni qabul qilish va jamiyatni tahlil qilish darajasi bilan bir – biridan farq qiladi.

---

<sup>1</sup> *struktura* (lot. structura — tuzilish, joylashuv, tartib) ob'ekt tarkibiy elementlarining o'zaro joylashuvi va aloqalarining yig'indisidan tashkil topgan. Ob'ektning strukturasi uning elementlari o'zaro aloqadorligining mustahkaligini tashqi yoki ichki o'zgarishlariga qaramay ob'ektning asosiy mohiyatini saqlab qoladi.

<sup>2</sup> *sistema* – o'zaro aloqada bo'lgan elementlarning yig'indisi.

Amerikalik sotsiolog DJ.Terner fundamental sotsiologiyadagi nisbatan Shunday fikr bildirgan: “nazariyashtirish orqali fan o'zining uchta asosiy maqsadini amalga oshiradi: olamda shakllanayotgan voqea va hodisalarni o'rganish natijasida ularni tasniflash orqali ularning istiqbolidagi holatini bashorat qila bilish; bo'lib o'tgan voqealarning sabablarini aniqlash va tushuntirish orqali kelajakda bo'ladigan voqealarni oldindan ko'ra bilish; voqealarning nima uchun va qay tarzda bo'lib o'tishini intuitiv ravishda taklif qilish.

P.Sorokinining fikricha, fundamental sotsiologiya mavjud holat yuzasidan insonlarning o'zaro harakatini o'rganadi. U sotsial borliq borasidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tushunish va tushuntirish, sotsiologiyaning konseptual apparatini ishlab chiqish kabi ilmiy-nazariy vazifalarni hal etadi. U “nima o'rganilayapti?” va “qanday o'rganiladi?” savollariga javob beradi.

Fundamental sotsiologiya o'z ichiga sotsiologiya fanining asosini ijodiy izlash bilan band bo'lgan ko'plab sotsial maktablar va yo'nalishlarni qamrab oladi. U sotsiologiyaning asosini tashkil etuvchi bilimlarni yaratishda uchta aspektga tayanadi.

Ontologik aspekt orqali sotsiologiya fanining ob'ektini, uning faoliyat ko'rsatish shakllarini tahlil qilib o'rganish davomida sotsial voqe'likning mohiyatini ochib beruvchi qonun va qonuniyatlarni yaratadi. Sotsial olamning dinamik xarakteri, doimiy o'zgaruvchanligi va turli qatlamlardan tashkil topgani sotsiologiyada ikkinchi jahon uru Shidan so'ng ontologiya muammosining ko'tarilishiga sabab bo'ldi. So'nggi o'n yilliklarda esa mazkur muammo yanada keng ko'lamda o'rganildi. Chunki mazkur davrda “pozitivistik” inqiroz jarayoni, ya'ni an'anaviy sotsiologik metodlarning, jumladan, statistik ma'lumotlarga tayangan sotsiologiyaning kutilgan ilmiy natijalarni bermagani olimlar tomonidan yangi yo'llarni va yondashuvlarni qidirishga sabab bo'ldi.

Natijada sotsiologiya fani doirasida bilishning shakl va metodlarini qayta ko'rib chiqish ehtiyoji paydo bo'ldi. Shu bilan birga sotsiologiya ob'ektining mohiyati, bilishning darajalari va mezonlarini qayta ko'rib chiqish talabi paydo bo'ldi.

Ontologik muammo masalarini sotsiologiyadagi barcha yo'nalish vakillari o'z qarashlaridan kelib chiqqan holda hal qilishga intilgan. Ular orasida ekzistensial, fenomenologik va realistik maktab vakillarining ontologik izlanishlari e'tiborga loyiq.

Fundamental sotsiologiya fanning nazariy asoslarini ishlab chiqish barobarida bilishning umumsotsiologik fundamental tamoyillarini ham keng ma'noda ishlab chiqadi. Shuning uchun sotsiologik bilishning mohiyati va vazifalari, bilimlarning ob'ektivligi, u yoki bu tamoyilni vaziyatdan kelib chiqqan holda qo'llash kabilar fundamental sotsiologiyaning ob'ekti sanaladi.

Sotsiologiya fanida turli nazariya va kontseptsiyalar asosida “sistemalilik”, “funktional yondashuv”, “sababiyat”, “tushunuvchi” yo'nalish kabi fundamental tamoyillar ishlab chiqildi.

Sotsiologiya yildan-yilga rivojlanib, mukammallashib bormoqda. Uning doirasida turli sotsial muammolar zamon va makon o'zgarishi sharoitida o'rganib

kelinmoqda. Garchi insoniyat jamiyati yildan-yilga o'zgarib, taraqqiy etayotgan bo'lsada, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat kundan-kunga o'zining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilayotgan bo'lsada, fundamental sotsiologiya o'z ichiga olgan asosiy qonun va qonuniyatlar, umumiy tamoyillar (sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti, sotsial reallikning mohiyati, uning rivojlanish qonunlari, sotsial olamda inson o'rni, shaxs ongi va tafakkuri kabilar) o'z qiymatini yo'qotmagan. Ular sotsiologiya faning rivoji va faoliyatida asosiy bazani tashkil etadi.

Fudamental sotsiologiyaning maqsadi – sotsial olamning to'liq tasvirini yaratish, mazkur sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlash.

Fundamental nazariyalar o'zining Shakllanishini boshlagan davrda tabiiy fanlar, jumladan, biologiya va fizika yutuqlaridan keng foydalangan. XIX asrning ikkinchi yarmidagi yo'nalishlar – po'zitivizm, naturalizm va psixologizm sotsial hayotning doimiy harakatlantiruvchi mexanizmini kashf etish, sotsiologiyada empirik metodni yaratish uchun o'z kuchlarini birlashtirdilar. Buning natijasida ular tabiiy fanlarning tushunchalarini, umumilmiy metod va yo'nalishlardan foydalanadilar. Ammo XX asrning boshlariga kelib sotsiologiya tabiiy fanlar tizimidan ajralib chiqa boshlaydi.

Po'zitivizmning o'rniga kelgan struktur-funksionalizm yo'nalishi sotsiologiyaning empirik ko'rinishda shakllanishida katta hissa qo'shdi.

Ammo empirizm fundamental nazariya ahamiyatini va mazkur nazariyaning o'zini inkor qila boshladi. Natijada sotsiologiyaning nazariy va amaliy bilim qismlari o'zining yaxlitligini yo'qota boshladi. Mazkur holat XX asrning ikkinchi yarmiga qadar davom etib, jamiyatdagi sotsial muammolarni o'rganish faqatgina empirik metodlar vositasida tugal amalga oshirilmasligi, bashorat qilish paytida nazariy bazaning muhim ekanligining namoyon bo'lishi sotsiologiyadagi nazariy va amaliy bilimlarning integratsiyalashuviga olib keldi. Fanda metodologik tadqiqotlarning ahamiyati ortib bordi. Sotsiologlar orasida nazariy bilimlarni boyitish maqsadida falsafaga yuzlanish holati sotsiologiyada ekzestensial va fenomenologik yo'nalishlarni paydo qildi. Ular sotsiologiyaning metanazariyasini, ya'ni asosini yaratishga harakat qilishgan. Ho'zirgi kunda mazkur yo'nalishdagi harakatlar kuchaymoqda.

Shunday qilib, fundamental sotsiologiya – bu nazariya, u fanning strukturasi, mazmuni, kategoriya va tushunchalari, metodlarini o'rganadigan umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. Shuning uchun fundamental sotsiologiya tadqiqotlarining roli beqiyos, bajaruvchi funktsiyalari esa xilma-xil. Uning quyidagi funktsiyalarini alohida ko'rsatish mumkin: *dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik* va h.k.

Fundamental sotsiologiya *dunyoqarash funktsiyasi* orqali bevosita borliq va ong, insonning mohiyati kabi dolzarb muammolarning echimini topishga harakat qiladi. Chunki bu muammolar sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti mohiyatini ochib beradi. Bu muammolarni hal etish barobarida sotsiologiya falsafa bilan uzviy aloqada ish olib borib, sotsial olam haqida ilmiy tasavvur yaratiladi. Umumsotsiologik nazariya negizida sotsiologiyaning umumiy metodologiyasi ishlab chiqiladi.



*Integratsiyalashtiruvchi funktsiya* fundamental sotsiologiya nazariyasini boshqa fanlar bilan bog'laydi. Mazkur yaxlit yondashuv natijasida yangi sotsial muammolarni hal qilish, ijtimoiy hayotning xali yaxshi o'rganilmagan tomonlarini Chuqur ilmiy tahlil qilishga imkon yaratadi.

**Amaliy sotsiologiya** fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni, maqsadi va metodlari bilan farqlanadi. U nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini qanday qilib tahlil qilish, qanday uslub va vositalar orqali ularni tushuntirish yo'llarini ishlab chiqadi.

Amaliy sotsiologiya jamiyat hayotida bevosita sodir bo'layotgan dolzarb sotsial muammolarni tadqiq etuvchi metodlar, metodologiyalar va metodikalarni o'z ichiga oladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'ladi. U XX asr boshlarida empirik tadqiqotlar asosida shakllandi. Bu davrda empirik tadqiqotlar sotsial amaliyotga olib chiqadigan vosita hisoblangan. Ammo amaliy sotsiologiyani bu yo'sinda tushunish u qadar to'g'ri emas. Empirik tadqiqotlar jonli faoliyatning bevosita shakllanishini o'rgansada, u o'zgartiruvchanlik faoliyati emas.

Amaliy sotsiologiya tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy hayotning turli sohalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida amaliy tadqiqotlarning natijalari asosida amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqadi. Boshqaruv tizimining elementi sifatida amaliy tadqiqotlar fanning ijtimoiy funktsiyalarini bajarib, uning natija va yutuqlarini amaliy faoliyatga aylantiradi. O'zining amaliy yo'nalishiga qarab ayrim hollarda amaliy tadqiqotlar ilmiy tadqiqotlar bilan qarama-qarshilikka boradi.

Mashhur sotsiolog olim M.Veber fanda ilmiylik va foydalilik bir-biri bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun tadqiqotchi olimlar haqiqatni ochishga intilishi zarur, ya'ni ilmiy bilimlardan to'g'ri foydalanish uchun jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy elementlarning tizimi mavjud bo'lishi lo'zim.

Amaliy sotsiologiya "nima uchun o'rganilayapti?", degan savolga javob beradi. M.Veber tomonidan amaliy sotsiologiyaning vazifalari aniq ko'rsatib berilgan. Uning fikricha, amaliy sotsiologiya quyidagi holatlarni aniq ochib, ko'rsatib berishi kerak:

- Amaliyot uchun zarur bo'lgan vositalarni;
- Amalga oshirilgan harakatlarning aniq salbiy oqibatlarini;
- Tahlil natijasida o'rganilayotgan hodisa yuzasidan uning bir necha xil rivojlanish variantini ko'rsatib, ularga mos ravishda takliflar ishlab chiqish.

P.Sorokin amaliy tadqiqotlarni amaliy meditsina faoliyatiga qiyoslagan. Uning fikricha, sotsiologiyaning mazkur qismida "sotsial kasalliklarni engish bo'yicha aniq Chora-tadbirlarni ko'rsatuvchi yo'llar" ishlab chiqiladi. Olim ko'rsatkichlar, statistik ma'lumotlar, anketa javoblari va so'rov natijalari amaliy hamda empirik sotsiologiyaning vositalari bo'lib, ular asosidagina o'rganilayotgan muammo borasida fikr bildirish noto'g'ri, deb hisoblaydi. Tadqiqot tugal bo'lishi uchun nazariy asosga ega bo'lishi lo'zim. Shu o'rinda fundamental va amaliy sotsiologiyaning o'zaro aloqadorligi va ko'magi sotsiologiya fanining rivojlanish istiqbo'lini belgilaydi.

Shunday qilib amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy, metodologik bilimlarni shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya fundamental sotsiologiyaning amaliy samaradorligi masalalarini hal qilish, yangi muammolarni o'rtaga qo'yish orqali fundamental tadqiqotlarning rivojiga turki beradi. Amaliy sotsiologiya doirasida nazariy va metodologik muammolar bilan birgalikda, protsedura va metodik muammolar o'rganiladi. Bugungi kunda metodologiya va metodika muammolari orasida koneptualizatsiya, formalizatsiya va operatsionalizatsiya masalalari dolzarb sanaladi. Bu muammolar sotsial qurilish va sotsial muhandislikning muammolarini hal etishda muhim o'rin tutadi.

*Sotsial muhandislik* amaliy tadqiqotlarning negizida shakllangan faoliyatning bir turi. U sotsial strukturani (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy) ma'lum maqsadga yo'naltirish yoki tubdan o'zgartirish vositasida eng samarador holatga keltirishni nazarda tutadi.

Amaliy sotsiologiyaning sotsial muhandislikdan tashqari *sotsial texnologiya* qismi ham mavjud. U maqsadga erishishni ta'minlaydigan metodlar va vositalarning yig'indisidan iborat.

Amaliy sotsiologiyaning taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omil jamiyatdagi *ijtimoiy-siyosiy holat*. Chunki amaliy sotsiologiyaning muammolarini aniqlab, ularni o'rganish va hal etish yo'llarini ishlab chiqish uchun buyurtmani zamon va makon belgilab beradi. Turli mamlakatlarda turli tarixiy davrlarda ijtimoiy-siyosiy holatning xususiyatidan kelib chiqqan holda har xil muammolarni o'rganish ehtiyojini shakllantiradi. Ilk bor ishlab chiqarishni tashkil etish, shaxsning ijtimoiylashuvi, deviant xulq-atvor, urbanizatsiya va jamiyatni barqarorlashtirish muammolarini echish uchun *sotsial buyurtmalar* (jamiyat talabi) kerak.

### ***Nazariy va empirik tadqiqotlar***

Sotsiologiyada sotsiologik tadqiqotlar Shartli ravishda nazariy va amaliy turlarga ajratiladi. Chunki ular o'rtasida qat'iy chegarani o'tkazish mu Shkul. Zero har qanday fundamental sotsiologiya nazariydir, empirik tadqiqotlar esa nazariya bilan jiplashgan holda amalga oshiriladi. Ammo ular o'rtasida farq mavjud.

Sotsiologiyada nazariy tadqiqotlar natijasida nazariya<sup>3</sup> ning turli darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: *umumsotsiologik nazariyalar, mahsus nazariyalar, xususiy nazariyalar*.

Umumsotsiologik nazariyalar jamiyatni yaxlit qamrab oladigan muammolarni hal etadi. Masalan, jamiyatning rivojlanish davlari va strukturasi, uning faoliyat qonunlari va bq.

Maxsus nazariyalar sotsiologiya ob'ektining muhim tomonlarini o'rganadi. Sotsial struktura nazariyasi, institutar nazariyasi sotsiologiyada maxsus sohalar sifatida shakllandi. Maxsus nazariyalar mavhum tushunchalardan foydalanadilar, ammo ular ko'pincha faktlarga asoslanadilar

---

<sup>3</sup> Nazariya – kategoriya, tushunchalar, holatlar va tamoyillarning kontseptualbirligi bo'lib, u hodisalarning xossalari, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini ochib beradi. Nazariyalarda markaziy o'rinni tushunchalar egallaydi. Ularda fanning iotiq va tajribalari to'planadi va ular nazariyaning mazmunini belgilaydi. Nazariyani yaratish vositasi mavhumlashtirishdir, ya'ni aniq holatlar va hodisalarni umumiyashtirishdir.

Xususiy nazariyalar ko'proq empirik tadqiqotlarga tayangan holda quyi darajadagi sotsial jarayonlarni o'rganadi. Misol uchun referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va hk. Bu nazariyalar inson fe'l atvorining mustahkam mexanizmlarining har xil Sharoit va holatlardagi ko'rinishini aniqlashga harakat qiladi.

*Empirik tadqiqotlar.* Dastlabki empirik tadqiqotlar XVII asrdayoq o'tkazilgan bo'lsada, XX asrning birinchi yarmida AQSHda ommalashdi. Empirik tadqiqotlar deyilganida, bilimlarni tajriba orqali olish tushuniladi. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning ob'ekti – ijtimoiy hayotning mikrojaaryonlari, insonlarning harakatlari, tafakkur tarzi, fikri va munosabatlari. Ularning asosiy maqsadi sotsial guruhlar, individlar, tashkilotlar muammolarini, ya'ni jonli sotsial muammolarni bevosita o'rganishdan iborat.

Empirik tadqiqotlarni sotsiologiyaning muhim qismi sifatida empirizm kontseptsiyasi bilan solishtirish mumkin emas, Chunki empirizm kontseptsiya sifatida nazariy bilimlarni butkul inkor qiladi. Hissiy idrokning bevositaligi empirizm kontseptsiyasida fanning asosini tashkiil etadi.

Empirik tadqiqotlarning ob'ekti mikrojarayonlar, predmeti esa individlar, sotsial guruhlar, sotsial tashkilotlar, mehnat faoliyatining sermahsulligi, shaxs xususiyatlari va hk. Ularning vazifasi kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish va so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar borasida faktlar va ma'lumotlar yig'ishdan iborat. Empirik tadqiqotlar natijalarini ham amaliy, ham nazariy maqsadlarda ishlatish mumkin.

Tarixiy rivojlanishga nazar tashlasak, empirik tadqiqotlarni o'tkazish Chog'ida ko'plab metodologik xarakterga ega bo'lgan muammolar: sotsial faktning mohiyati, nazariy bilimning empirik ma'lumotlar bilan o'zaro munosabatlari, so'rov, kuzatish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida sub'ektiv omilning roli kabilar paydo bo'ldi.

Empirik tadqiqot usullari amaliy sotsiologiya doirasida shakllanib, mukammallashdi. Bular: so'rov, kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish va eksperiment usullari. Amaliy sotsiologiya doirasida qaysi metod qay tarzda va qay vaziyatda qo'llanilishi kerakligi, metodlarning yutuq va kamchiliklari o'rganib, ishlab chiqilgan. Misol uchun eng keng tarqalgan so'rov metodi insonlarning ichki dunyosini, sub'ektiv fikrini o'rganishga yo'naltirilgan.

Amaliy sotsiologiyaning oldida bugungi kunda sotsiologik tadqiqotlar davomida olinayotgan empirik axborotlarning haqqoniyligini va ob'ektivligini ta'minlashga xizmat qiluvchi optimal tamoyillarni ishlab chiqish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Amaliy sotsiologiya tarkibiga empirik metodlar bilan bir qatorda metodologiya, ma'lumotlar tizimi va empirik ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi kiradi. Shuning uchun odatda empirik tadqiqotlar turli xil mutaxassislar tmonidan ham olib borilishi mumkin.

Empirik tadqiqotlar asosan statistka ma'lumotlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda axborot ta'minoti empirik tadqiqotning muhim manbasi hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarni amalga oshirishda texnikaning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Chunki empirik ma'lumotlar qayta

ishlanishi zarur. So'rov, kuzatish, eksperiment metodlari vositasida empirik tadqiqotlar o'tkazilganida ma'lum ma'noda moddiy va texnik vositalar talab qilinadi. Shuning uchun empirik tadqiqotlar anchagina qimmat tadbir sanaladi.

### **3. Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar**

Sotsiologiya faning tarixiy rivojlanishi davomida unda *maxsus va tarmoq* yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Sotsiologiyada bugungi kunda maxsus yo'nalishlar qatoriga kiruvchi ayrim nazariyalar sotsiologiya asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, maxsus yo'nalishlar XX asrning birinchi yarmida neopo'zitivizm asosida shakllandi va keyinchalik bir qancha nazariy yo'nalishlar tufayli rivojlandi.

Sotsiologiya hodisalarni yaxlit ijtimoiy struktura elementi sifatida qabul qiladi. Jamiyat taraqqiyotiga taalluqli bo'lgan sotsial institutlar, boshqaruv Shakllari, sotsial munosabatlar va sotsial harakatlar, guruh xarakteri va tafakkuri kabi masalalarni Chuqurroq o'rganish ehtiyoji oqibatida sotsiologiyada maxsus yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularning qatoriga bugungi kunda institutsional sotsiologiya, shaxs sotsiologiyasi, sotsial harakat va sotsial munosabatlar sotsiologiyasi, taraqqiyot sotsiologiyasi, o'zaro harakat sotsiologiyasi, sotsial struktura sotsiologiyasi.

O'z navbatida yuqoridagi masalalarni o'rganish davomida sotsiologiya boshqa fanlarning yutuqlariga tayanishi kerak. Misol uchun siyosiy sotsiologiya va siyosat Shunoslik.

Maxsus yo'nalishlardan tashqari sotsiologiyada *tarmoq yo'nalishlari* mavjud. Tarmoq yo'nalishlarning eng rivojlanganlari qatoriga sanoat sotsiologiyasi, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va jamoatchilik fikri sotsiologiyasi kabilar kiradi. Bu yo'nalishlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan.

Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun asos hisoblanadi. Ular ijtimoiy hayotning turli tomonlarini tadqiq qilish orqali xususiy va maxsus nazariyalarning rivojiga yordam beradi, fundamental sotsiologiya rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishlar asosida ayirboshlash nazariyasi, referent guruh nazariyasi, etakchilik nazariyasi kabilar yaratildi. Tarmoq yo'nalishlarining Shakllanishi natijasida fundamental sotsiologiya oldiga jamiyatning yaxlit strukturasida turli xil ijtimoiy tizimchalarning roli va ularning o'zaro harakat turlari, taraqqiyoti asoslari kabi muammolarni qo'ydi.

Tarmoq sotsiologiyasining maqsadi ijtimoiy strukturadagi moddiylik va ma'naviylik holati, mehnatning sermahsulligini oshirish tamoyillari, ishlab chiqarish va oilaviy munosabatlar kabilarning o'zaro faoliyat ko'rsatishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini yaratishdan iborat.

### **4. Makrosotsiologiya, o'rta darajadagi sotsiologiya va mikrosotsiologiya**

Sotsiologiya fani jamiyat istiqbo'li xususida sotsial utopiyaga asoslangan nazariyaga suyanmasdan, balki jamiyat taraqqiyotining bugungi ijtimoiy-iqtisodiy holatini atroflicha o'rganish asosida yaqin kelajakda bu taraqqiyot tarkibi va mazmunidagi tadrijiy o'zgarishlar manzarasini ilmiy asoslab beradi.

Ogyust Kontning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini uch bosqichda o'rganadi: aniq-empirik, xususiy(mahsus), umumiy. Shunga muvoffiq

bugungi kunda ham sotsiologiya empirik, mahsus va umumsotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

- Umumsotsiologik nazariyalarni bevosita tadqiq etishga mo'ljallangan yo'nalish - *makrosotsiologiya*.

- Maxsus (xususiy) sotsiologik nazariyalar asosiga quriluvchi tadqiqot yo'nalishi – *o'rta darajadagi sotsiologiya*.

- Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar bilan Shug'ullanuvchi *mikrosotsiologiya*.

*Makrosotsiologiya* jamiyatni yaxlit tixzim sifatida tushunishga ko'maklashuvchi xulq-atvor modellariga e'tibor qaratadi. Mazkur modellar yoki strukturalar deyilganida, oila, ta'lim va din kabi ijtimoiy institutlarni tushunishimiz mumkin. Inosn tug'ilishidan boshlab jamiyatdagi mazkur sotsial strukturalarning tarkibida bo'ladi va sotsial institutlarning ta'sirini sezadi. Makrosotsiologiyaning asosiy vazifasi jamiyatdagi turli elementlarning o'zaro munosabatlarini va mazkur munosabatlarning o'zgarish tendensiyalarini tadqiq etishdir. Makrosotsiologik darajada tadqiqotlarini olib boruvchi olimlar mavjud bo'lgan ikki raqobatdosh nazariyalar: funksionalizm va konflikt nazariyasidan biriga asoslanib o'z sotsiologik bilimlarini shakllantiradi. Funksionalizm nazariyasining tarafdorlari sifatida Gerbert spenser, Emil Dyurkgeym, Talkott Parsons, Robert Mertonni ko'rsatish mumkin. Konflikt nazariyasi esa Karl Marks, Ralf Darendorf kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan, qo'llangan.

Sotsiologiya strukturasining tarixiy rivojlanishiga nazar tashlasak, avvalboshdan makro – va mikrosotsiologiya o'rtasida aniq Chegara bo'lmagan.

P.Lazarfeld mikrosotsiologik tadqiqot deganda, “zamonaviy Sharoida shaxsning bevosita hulq-atvorini miqdoriy metodlar va sifatiy protseduralarning keng qo'llanilishi asosida o'rganuvchi tadqiqotlar<sup>4</sup>”ni tushungan. Makrosotsiologik tadqiqotlar esa “ Shunday umumiy qonunlarni ochib berishga qaratilganki, ular ijtimoiy rivojlanishning o'tmish va kelajakdagi trendensiyalarini belgilab beradi<sup>5</sup>”.

R.Merton mikrosotsiologik muammolar sifatida “kichik guruhlarini o'rganish davomida ochib beriladigan muammolar”ni, makrosotsiologik muammolar deyilganida esa “sotsial mobillik, formal tashkilotlarning qiyosiy tadqiq etish va sotsial institutlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi muammolari”ni ko'rstagan<sup>6</sup>

Barcha olimlar uchun bu ikki bilim sohasini bir-biridan ajratuvchi shart sifatida mikrosotsiologik darajada empirik tadqiqotlarning o'tkazilishi, makrosotsiologik darajada esa umumiy nazariya sohasiga tegishli tadqiqotlarning o'tkazilishi namoyon bo'ldi.

Kont tomonidan sotsiologiyaga asos solingan davrdan boshlab XX asrning 20yillariga qadar sotsiologiyada makrosotsiologik tadqiqotlar ustuvor bo'lgan. Bu davrda yaratilgan barcha sotsiologik bilim umumnazariy bilimlardan iborat bo'lgan. Mikrosotsiologik yo'nalishning Shakllanishi tahminan XX asrning 30

---

<sup>4</sup> Novikova S.S. Sotsiologiya: istoriya, osnovi, institutsionalizatsiya v Rossii. - M.: Moskovskiy psixologo-sotsialniy institut; Voronej: Izdatelstvo NPO «MODEK», 2000. - S.22.

<sup>5</sup> Novikova S.S. Sotsiologiya: istoriya, osnovi, institutsionalizatsiya v Rossii. - M.: Moskovskiy psixologo-sotsialniy institut; Voronej: Izdatelstvo NPO «MODEK», 2000. - S.28.

<sup>6</sup> Novikova S.S. Sotsiologiya: istoriya, osnovi, institutsionalizatsiya v Rossii. - M.: Moskovskiy psixologo-sotsialniy institut; Voronej: Izdatelstvo NPO «MODEK», 2000. - S.30.

yillaridan boshlangan. Bu Shartli ravishda mazkur asrning 20-30yillarida AQSHda boshlangan ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq edi. Iqtisodiy inqiroz, buyuk depressiya, yirik Shaharlarda gettoning paydo bo'lishi, ko'p sonli sotsial anomaliyalarning paydo bo'lishi (alkogolizm, tilamchilik, jinoyatchilik) kabilar mikrosotsiologik tadqiqotlar, ya'ni empirik tadqiqotlarning rivojiga sabab bo'ldi. Mikrosotsiologiyaning paydo bo'lishidan so'ng sotsiologlarning aksariyati jamiyatda kuzatilayotgan sotsial muammolarni o'rganish davomida ularni makro darajadagi bilimlar, ya'ni umumiy nazariyalar nuqtai nazaridan birgalikda o'rganmay qo'ydi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar asosan mikro darajada amalga oshirilib, pragmatik yo'nalishda, ya'ni tor doiradagi aniq sotsial muammoni echishga qaratilgan bo'lgan.

Ammo makrosotsiologiya ham avvalgi shijoati bilan bo'lmasada o'zining rivojlanishida davom etgan. P.Sorokin va T. Parsonsning ijod namunalari bunga misol bo'ladi.

XX asrning 60 yillari so'ngida strukturaviy – funksionalizmning makro va mikro darajadagi sotsiologik bilimlarni bir yaxlit tizimga birlashtira olmaganligi ularning qat'iy ravishda bir-biridan ajralishiga olib keldi. Fanda yuzaga kelgan mazkur holat butun dunyo olimlarining makro- va mikrosotsiologiyaning integratsiyasi masalasida izlanishlar olib borishga rag'batlantirdi.

R.Mertonning mazkur yo'nalishda olib borgan izlanishlari taxsinga sazovor. U o'zining ustozlaridan (P.Sorokin, T.Parsons) farqli ravishda Yevropa nazariy sotsiologiyasining AQSHda tarqalishiga o'z hissasini qo'shgan. Uning fikricha, Yevropaning nazariy sotsiologiyasi va AQSHning amaliy tadqiqotlari birlashishi sotsiologiyaning mukammallashuviga olib keladi. U nazariya va amaliyotning integratsiyasi tarafdori bo'lgan. Shu maqsadda Merton “o'rta daraja nazariyasi”ni yaratgan. Olimning “o'rta daraja nazariyasi” kundalik hayotdagi sotsial muammolarni tadqiq etish davomida yuzaga keluvchi kichik ishchi gipotezalar bilan umumsotsiologik nazariyalar o'rtasidagi oraliq bo'g'inni tashkil etishi kerak bo'lgan. Shunday qilib, Merton “o'rta darajadagi sotsiologiya”ni yaratdi hamda makro va mikrosotsiologiyani o'zaro uzviy bog'ladi.

Bugungi kunda mahsus sotsiologik nazariyalar yoki *o'rta darajadagi nazariyalar* amaliy tadqiqotlar asosida shakllantirilib, umumsotsiologik nazariyalarni to'ldirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda reallik bilan uzviy bog'liq bo'lgan empirik sotsiologiyani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

*Mikrosotsiologiya* insonlarning kundalik hayotidagi o'zaro sotsial muloqotlarini (interaksiya, o'zaro munosabatlar) o'rganadi. Mazkur yo'nalish tarafdorlari sotsial hodisalarning mazmunini mazkur hodisalarga insonlarning o'zaro munosabatlarga kirishganidan so'ng bergan ma'nolarini o'rganib tushunish mumkin, deb hisoblashadi. Ularning asosiy e'tibori individlarning xulq-atvori, qilmishlari va motivlariga qaratilgan. Chunki insonlarning xulq-atvori, motiv va xatti-harakatlari jamiyatdagi shaxslararo o'zaro harakatga ta'sir ko'rsatib, jamiyatning barqarorligi va unda kechuvchi o'zgarishlarda o'z aksini topadi.

Sotsiologiyada ayirboshlash nazariyasi (Dj.Xomans), etno-metodologiya nazariyasi (G.Garfinkel), belgili interaksionizm nazariyasi (G.Blyumer) namoyondalari mikrosotsiologik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashgan.

A.M.Rumyantsev va G.V.Osipov 60-yillar so'ngida sotsiologiya strukturasi tahlil qilish natijasida sotsiologik bilimlarni *umumsotsiologik nazariya; jamiyat sotsial strukturasi nazariyasi; turli sotsial tizimlar nazariyalari; empirik darajalarga* ajratgan<sup>7</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, XXasr 70yillari oxiri - 80yillar boshlaridan boshlab butun dunyo olimlari orasida sotsiologiyaning *uch darajali strukturasi kontsepsiyasi* (makro, mikro va o'rta darajadagi sotsiologiya) keng tarqaldi.

**Tayanch tushunchalar:** fundamental va amaliy sotsiologiya, dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik

---

<sup>7</sup> Rumyantsev A.M, Osipov G.V. Marksistskaya sotsiologiya i konkretnie sotsialnie issledovaniya // Voprosi filosofii. — 1968. — №6. — S.3-13.

## 4-mavzu. SOTSILOGIYA FANLAR TIZIMIDA

### REJA

1. Sotsiologiya va falsafa
2. Sotsiologiya va tabiiy fanlar
3. Sotsiologiya va ijtimoiy fanlar
4. Sotsiologiya fanlararo fan sifatida

1. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi boshqa fanlar asosida va ular bilan o'zaro Chambarchas bog'liqlikda sodir bo'ldi. Sotsiologiyaning Shakllanish jarayonida alohida o'rin tutgan falsafa bilan nisbatini o'rganishdan boshlaymiz. Sotsiologiyaning fanni zamonaviy tushunish tizimida vujudga kelishini O.Kontning nomi va XIX asr bilan bog'laydilar, biroq ko'plab muammolar nisbatan avvalroq, eramizdan avvalgi VI asrda ilmiy bilim, falsafaning paydo bo'lish davrida qo'yilgan va hal etilgan.

Geraklit ta'limotida tabiat qonunlarini jamiyat qonunlaridan ajratilishi, uning hodisaning doimiy harakati, o'zgarishlari, qarama-qarshi holatga o'tishi haqidagi dialektik fikrlari ijtimoiy fikr Shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Platon va Arastuning falsafasida jamiyat va hukumat haqidagi ta'limot muhim o'rin tutadi. Ular jamiyatni, uning tuzilmasini tahlil qiladilar Davlat, uning turlari haqida sermahsul fikrlarni bayon qiladilar. Arastu uru Sh haqida xo'jalik faoliyati sifatidagi fikrlarni bildiradi, pul paydo bo'lgunga qadar ehtiyojlarni qondirishning tabiiy usuli bo'lgan, biroq pul paydo bo'lgandan so'ng Cheksiz boylik manbaiga aylangan iqtisodiy almashinuv munosabatlarini tadqiq qiladi. Arastu boylikdan foydalanish va unga egalik qilish odobini yaratadi. Arastuning iqtisodiyot, shaxsiy mulk, ijtimoiy almashinuv, mukammal inson va davlat mohiyati haqidagi fikrlari, oila, fuqaro, ma'naviyat, inson va jamiyatning o'zaro munosabati haqidagi fikrlari nazariy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo tsivilizatsiyaning qadimiy o'choqlaridan biri sifatida. O'rta Osiyo xalqlarining arab xalifaligi hukmronligidan ozod bo'lishi natijasida feodal davlatlar paydo bo'la boshlaydi. IX-X asrlarda buyuk taraqqiyparvar mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048, Abu Ali Ibn sinolar (980-1037)<sup>2</sup> axloqiy-ijtimoiy ta'limotlar yaratadilar.

O'zining Shaharning saxovatli kishilari qarashlari haqidagi asarida Al-Forobiy uyushmalarning tashkil topish sabablari, ularning tuzilmalari va xususiyatlarini ochib beradi. U Yaqin Sharq mamlakatlarining o'z tizimini ijtimoiy hayot masalalarini o'rganishga qadar olib borgan va yangi guruhga oid sotsiologiyaga asos solgan birinchi faylasufi hisoblanadi<sup>3</sup>.

Beruniy xalqlar turlarini, ularning ijtimoiy tuzilmasini, etnos va tillarning kelib chiqishini o'rganadi. U ijtimoiy qatlamlarning vujudga kelishi va jamiyat rivojlanishining iqtisodiy va geografik Sharoitlari rolini belgilab beradi. Beruniy nafaqat guruhga oid sotsiologiyani rivojlantiradi, balki sotsiologiyaga ham

<sup>1</sup> Aristotel Etika. Per. E. Radlova. SPb., 1908.

<sup>2</sup> Ibn Sina Izbrannie filosofskie proizvedeniya. Moskva: Nauka, 1980.

<sup>3</sup> Al – Farabi Sotsialno-eticheskie traktati. Alma-Ata, 1973.



asos soladi<sup>4</sup>. Ibn sino, yirik olim amaliyotchi bo'lgani bilan birga astrologiyani yolg'on fan sifatida tanqid qiladi, ijtimoiy fikrda esa uning taqdirga ishonish, qismat, iroda erkinligining teologik-kalamistik nazariyasining tanqidi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ibn sinoning jamiyatni rivojlantirish, boshqarish, iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillari haqidagi fikrlari bugungi kunga kelib ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

Tiklanish davri deb atalgan insonparvarlik madaniyatining vujudga kelish davrida inson va uning tabiat hamda jamiyatdagi o'rnini haqidagi muammolar qo'yilgan. T.Morning "Utopiya" (1516 y.) asarida haqiqat, teng huquqlilik haqidagi ijtimoiy fikrlar aytiladi, shaxsiy mulk esa ijtimoiy falokatlarning sababi sifatida o'rganiladi. U ishlab chiqarish mablag'lari hisobiga jamoaviy mulkka asoslangan ijtimoiy tuzumni ta'riflab beradi. Utopik sotsializmning bu kabi g'oyalari Tomazo Kampanellaning (1568-1639) ijtimoiy tuzumning ideal loyihasi yaratilgan "Quyosh Shahri" asarida davom ettirilgan<sup>5</sup>.

Sotsiologiyaning paydo bo'lishiga tajribaga oid anglash va fanlarning: XV – XVI asrdagi yangi davr vaqtidagi matematika, mexanika va tabiat Shunoslikning rivojlanishi ahamiyatli darajada ta'sir ko'rsatdi. Aynan Shu davrda T.Gobbsning ijtimoiy organizm sifatidagi jamiyat haqidagi ta'limoti vujudga keldi. U ijtimoiy evolyutsiya, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy tuzilma haqida organizmik fikrlarni ilgari suradi. A.Smit va T.Gobbs ijtimoiy Shartnoma va tabiiy xuquqlar nazariyasini yaratadilar hamda ijtimoiy guruhlarning paydo bo'lish asoslari, A.Smitning ta'limotidagi erkinlik va shaxsiy mulkka egalik qilish xuquqi haqidagi ta'limoti to'g'risida chuqur fikrlar bildiradilar.

XVIII asrda Frantsiyadagi ma'rifatparvarlik harakati sotsiologiyaning paydo bo'lishining bevosita g'oyaviy-nazariy asosi bo'lib xizmat qildi. XVIII asr – ma'rifat asri. Ma'rifatning asosiy Shiori – g'oyalar dunyoni boshqaradi, demak, ular ilmiy, yuqori ma'naviyatli va go'zal bo'lishi lozim. Ma'rifatparvarlarning ilmiy va amaliy faoliyati aynan Shu yo'nalishlarni amalga oshirishga qaratilgan. Sh.de Monteskening (1689-1755) davlat tuzumi turlarini ajratib ko'rsatishi, erkinlik haqidagi ta'limoti, ijtimoiy-siyosiy qarashlari ijtimoiy fikrga ahamitli hissa qo'shdi. "Fanlar entsiklopediyasi"ning yaratilishi, J.J.Russoning quyidagi "Odamlar orasida tengsizlikning kelib chiqishi haqida", "Ijtimoiy Shartnoma" asarlari sotsiologiyaning nazariy asosi bo'lib xizmat qildi. Russoning sotsiologik g'oyalari, sen-Simonning ma'naviy faoliyat va uning ahamiyati haqidagi, tengsizlikning kelib chiqishi haqidagi, fuqarolik jamiyatining paydo bo'lishida xususiy erga egalikning roli haqidagi fikrlari sotsiologiyaning asoschisi O.Kontning "Ijobiy falsafa ruhi" asariga nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Biroq, ijtimoiy muammolarni falsafiy qurilmasi XIX asr o'rtalaridagi jamiyati, ya'ni ijtimoiy ag'dar – to'ntarlarni: inqirozlarni, inqiloblarni, uru Shlarni boshdan kechirayotgan jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini qondirmagan. Sanoat, tashkilot va korxonalarining gullab-yashnashi uchun ijtimoiy rivojlanishning aniq, konstruktiv yo'llarini bilish talab etilgan. Falsafiy ta'limotlar barqarorlikni saqlash,

<sup>4</sup> Izbrannie proizvedeniya mislitley stran Blijnego i Srednego Vostoka IX – XIV vv. Per.A.V.Sagadeeva i dr. M.,1961.

<sup>5</sup> Utopicheskiy sotsializm Xrestomatiya. Pod red. A.I. Volodina. M.: Polit. I-ra, 1982.

aholi guruhlari manfaatlarining uyg'unligiga erishish, muayyan jamiyatda, u sodir bo'layotgan muayyan tarixiy davrda ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat samaradorligini oshirish yo'llarini topish kabi muhim savollarga javob berish imkoniga ega bo'lmagan. O' Sha davrning muhim savoollariga javob topish uchun mavhum xulosalarga asoslangan bilim emas, balki empirik kuzatuv usullari, tajriba yordamida olingan real ijtimoiy jarayonlar haqidagi ob'ektiv ma'lumotlar asosida bilimlarni qurish imkoniga ega bo'lgan fan talab etilgan. Shu sababli yangi fanning – sotsiologiyani yaratilishini O.Kont falsafani mahsulsiz metafizika sifatida inkor qilishdan boshlaydi. Bu esa o'z navbatida sotsiologiyani kelgusidagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. XX asrning birinchi Choragida, sotsiologiya fanining rivojlanish markazi Amerikaga ko'chgan davrda sotsiologiya tadbqiqiy fan sifatida rivojlanadi. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyotining kengayib borishi bilan sotsiologiya empirik fan deb e'lon qilinadi va nafaqat falsafa, balki har qanday nazariya inkor qilinadi. Biroq Dyurkgeym, sotsiologiya mustaqil fan bo'lishiga va falsafadan ajralib chiqishi lozim bo'lishiga qaramasdan, u falsafa bilan barcha aloqalarni uzib yubormasligi zarur, deb hisoblagan<sup>6</sup>. Sotsiologiyani ajratib olinishi sotsiologiya kabi, falsafa uchun ham muhim ahamiyatga ega, Chunki sotsiologiya yangi dalillarni o'rgangan va ularni umumlashtirgan holda inson va jamiyat falsafasini boyitib boradi.

XX asrning o'rtalariga kelib sotsiologiya o'z rivojlanishining umumnazariy asoslarini izlash maqsadida yana falsafaga murojaat qiladi. Amerikalik sotsiolog Edvard Tirikyan falsafa va sotsiologiyani ajratilishining salbiy oqibatlarini ta'kidlab o'tgan. Falsafa va sotsiologiyani rivojlanish yo'llarini ifodalari ekan u, falsafa umumlashtirishning yuqori darajasidagi umumiy bilimni yaratishga intiladi, deb yozadi<sup>7</sup>. Sotsiologiya ijtimoiy dalillarni o'rganadi. Tirikyanning fikriga ko'ra falsafa va sotsiologiya o'rtasidagi aloqalarning tiklanishi nazariy va amaliy bilimni yaratishning yangi istiqbollari ochib beradi. Sotsiologiya falsafani to'liq inkor qilishdan uning muhim ahamiyatga ega ekanligini tan olishga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tar ekan, globallashuv va yangi turdagi tsivilizatsiyaning tug'ilishi maqsadida falsafa va sotsiologiyani o'zaro munosabatlarining Chuqurlashishini talab etadi, degan xulosaga keldi.

**2.** Sotsiologiyani fan sifatida shakllanishida tabiiy fanlar alohida o'rin tutadi. XIX asrda tabiat Shunoslik ulkan muvaffaqiyatlarga erishadi. Olimlar kimyoviy elementlarning tuzilishi, tirik organizmlar rivojlanishining fizik qonuniyatlari haqidagi nazariyalarni yaratadilar. Ushbu kashfiyotlar kuchli empirik asos va empirik usullarga: kuzatishlarga, tajribaga tayanadi.

Sotsiologiyani klassik vakillari bo'lgan O.Kont va G.Spenserlarning jamiki nazariy faoliyati tabiiy fanlarning analogi (o'xshashi) bo'lgan yangi ijtimoiy fanni yaratishga qaratilgan. XIX asr oxirlarining ustuvor yo'nalishi naturalizm bo'lgan. Naturalizm – sotsiologiyani jamiyat rivojlanishini tabiat qonunlari: iqlim, odamlarning biologik yoki irqiy xususiyatlari yordamida ta'riflovchi yo'nalishidir. Aynan Shu davrda jamiyatni muayyan vazifalarga: o'sish, differentsiatsiya,

---

<sup>6</sup> E. Dyurkgeym Metod sotsiologii SPb, 1898.

<sup>7</sup> Tirykian E.A. Sociologism and Existentialism. Two perspectives on the individual and society. Prentice Hall, N-Y. 1962.

kasallik, o'lim, regeneratsiya kabilarga ega bo'lgan biologik organizm sifatida o'rganuvchi, ijtimoiy qonunlarni esa Darvin tomonidan kashf qilingan biologik evolyutsiya qonunlariga: tabiiy tanlov va yashash uchun kurash, ayovsiz kurash va hukmronlikka intilish sifatida talqin qilinuvchi o'xshash ravishda o'rganuvchi qator yo'nalishlar vujudga keladi.

Naturalizm sotsiologiyada adolatli ravishda tanqidga uchradi. Jamiyatning o'ziga xosligi tabiiy jarayonlar bilan qiyoslanishi marksizm tomonidan ochib berilgan. Ushbu maqsadga muvofiq faoliyat, mehnat, nutq, va nihoyat, tafakkur insonni hayvonot dunyosidan ajratib turadi. Biroq masala yopilmadi, Chunki 1970 yilga kelib sotsiobiologiya yo'nalishi paydo bo'ldi, uning asoschisi entomolog Uilson ijtimoiy hayotning tabiiy asoslarini o'rgangan. Sotsiobiologlar hayvonlar va insonning ijtimoiy xulqi shakllarining bir nechta kontseptsiyalarini ishlab chiqdilar: altruizm, qayta tiklash, tajovuzkorlikning roli va h.k. Tajovuzkorlik – sotsiobiologlarning fikriga ko'ra, insonni hayvonlar bilan yaqinlashtiruvchi jihat, zarur hisoblanadi va “evolyutsiya jarayonida moslashuvchan va maxsus tanlangan ta'sirlar namunalarini aks ettiradi”<sup>8</sup>.

Sotsiobiologiya asosida o'rganish sohasi xalqlarning tuzilmasini, uning madaniyatini (til, turmush, an'analar), milliy o'zligini belgilab beruvchi ijtimoiy omillari bo'lgan etnosotsiologiya kabi yo'nalish shakllanib boradi. Etnosotsiologiya u yoki bu milliy hodisalarni ishlab chiqarish mexanizmini, ya'ni ular qayday faoliyat olib boruvchi va o'zini qayta tiklovchi ekanligini aniqlashga yo'naltirilgan. Etnik o'ziga xos xususiyatlar, milliy rivojlanish va milliy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolarni o'rganar ekan, etnosotsiologiya millatlarning mobilligiga, millatlararo munosabatlar madaniyatini oshirish yo'llarini aniqlashga o'z hissasini qo'shadi.

Shunday qilib, o'rganilishi biologiya kabi sotsiologiyaga ham qiziqarli bo'lgan integral sohalarning vujudga kelishi haqida gapirish mumkin. Shunday qilib, sotsiologiya – bu tabiiy tabiat haqidagi fan emas, balki insonning ijtimoiy tabiati (mohiyati) haqidagi fandır. U o'z o'rganish predmetiga ega – inson va jamiyat rivojlanishi va faoliyatining ijtimoiy qonunlari.

Endi sotsiologiya va aniq fanlarning nisbatini o'rganib chiqamiz. Ma'lumki, O.Kont sotsiologik fanni ijtimoiy fizika deb nomlagan. Bu fizikada ishlab chiqilgan usullar kabi usullarni yaratishga yo'naltirilgan.

XIX asrda energetizm kontseptsiyasi vujudga keldi. Uning vakili Ostvald quvvatning saqlanish va o'zgarish fizik qonunini ijtimoiy jarayonlarni ta'riflashga qo'llashga harakat qilgan. Yana avvalroq, XVII asrda qonunlari nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy hodisalarni ham ta'riflovchi universal sifatida o'rganiluvchi klassik mexanikaning yutuqlari bilan bog'liq bo'lgan. Fanning keyingi rivojlanishi ushbu kontseptsiyalarning to'liq emasligi va cheklanganligini ko'rsatadi. Biroq ushbu yondashuvlarning ayrimlari XX asrga ham etib kelgan.

Neopozivitizm, sotsiologiyadagi empirik usullarni ishlab chiqar ekan, matematik usullarning qo'llanilishi, fan tushunchalari va fizik atamalarning roli masalasini qo'yadi. Shu davrda, empirik tadqiqotlar keng tarqalgan vaqtda, qo'llanilishi tadqiqotning ilmiylikini ko'rsatuvchi matematikaga, statistikaga

<sup>8</sup> Wilson E.O. Genes, mind and culture. The coevolutionary process. Cambridge, 1981.

bo'lgan qiziqishning ortishi kuzatiladi. Bugungi kunda nomatematik fanlar mavjud emasligini anglab etdilar, Chunki har qanday fanning rivojlanishi axborot-dasturiy ta'minot, yangi axborot texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq ekanligi aniq namoyon bo'lmoqda. Matematik usullar – bu ijtimoiy muammolarni hal etish vositasidir. Hodisaning tarqalish darajasi, uning jihatlari, rivojlanish yo'nalishlarining o'rtacha statistik xususiyatlarini aniqlash uchun tipologik tahlil qo'llaniladi. Matematika yordamida hal etiluvchi vazifalarning ikkinchi turi, bu hodisa sabablarini, bilvosita va asosiy aloqalarni, yondosh aloqalarni, omillarning jarayonga ta'sir ko'rsatish tabiatini tahlilidir. Sotsiologida matematikaning qo'llanilishidagi asosiy narsa – bu ijtimoiy hodisalarni modellashtirishdir. Bunda etarli darajadagi tajriba mavjud. Tadqiqotchilar modellarning turli ko'rinishlarini ajratib ko'rsatadilar:

a) alohida jihatlar differentsiatsiyasi xususiyatlarini umumlashtirish uchun qo'llaniladigan taqsimlash modellari;

b) ular yordamida hodisalarning o'zaro aloqalari aniqlanuvchi korrelyatsion, dispersion, omilli va boshqa modellar;

v) alohida ijtimoiy hodisalarni shakllantirishning statistik modellari (masalan, oila daromadini shakllantirish modeli);

g) adolatli ravishda sotsiologik tadqiqotlarda tobora kengroq qo'llanilayotgan aniqlash namunalarning statistik modellari.

Modellashtirishning eng yangi texnologiyalari – ma'lumotlarni kompyuter dasturlari ko'rinishida amalga oshirilgan sun'iy neyron tarmoqlari bazasida intellektual tahlil qilish, shaxslararo kommunikatsiya jarayonida qanday qilib intersub'ektivlikka erishiladi va inson faoliyatining ob'ektiv-ideal, ma'noviy, invarint tuzilmalari shakllanishini o'rganishning qudratli vositasini aks ettiradi<sup>9</sup>.

**3.** Sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy fanlar: iqtisodiyot, psixologiya, xuquq, demografiya kabi fanlar bilan o'zaro munosabati masalasi eng murakkab masala hisoblanadi. Murakkablik Shundan iboratki, ko'plab ijtimoiy fanlar umumiy tushunchalardan foydalanadilar: “ijtimoiy institut”, “ijtimoiy munosabatlar”, “Shaxs” tadqiqotlarda sotsiologik usullardan foydalanadilar. Boshqa bir murakkablik Shundan iboratki, ko'pturli integral sohalar Shakllangan va muvaffaqiyatli tarzda rivojlanmoqda: huquq sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya, siyosat, madaniyat sotsiologiyasi, ijtimoiy psixologiya va h.k. Shu sababli mumtoz sotsiologlar Kont, spenserlar sotsiologiya maxsus ijtimoiy fan emas, balki umumiy fandır, deb hisoblaganlar. Biroq XX asrning boshlaridayoq sotsiologik tadqiqotlar amaliyotining kengayib borishi asosida ijtimoiy fanlarning differentsiatsiyasi (chegaralanishi) boshlandi, sotsiologiyaning ixtisoslashtirilishi Chuqurlashib bordi.

E.Dyurkgeym birinchilardan bo'lib sotsiologiyaning yaxlit kontseptsiyasini na biologiyaga, na psixologiyaga bog'liq bo'lmagan mustaqil fan sifatida ishlab chiqishga harakat qiladi. U ijtimoiy hodisalarning sifatga oid o'ziga xosligi g'oyasini himoya qilgan. E.Dyurkgeymning ta'kidlashicha, sotsiologiyaning o'ziga xosligi shundaki, u barcha ijtimoiy fanlar orasida markaziy o'ringa ega. U turli

---

<sup>9</sup>Ignatev N.A. Vichislenie obobshennix pokazateley i intellektualniy analiz dannix // Avtomatika i telexanika. 2011. № 5. S. 183-190.

ko'rinishdagi hodisalarni qamrab oladi, mazkur hodisalarga xos bo'lgan yaxlitlikni, ularning jamoaga oid, ijtimoiy tabiatini qamrab oladi<sup>10</sup>.

F.Znanetskiy sotsiologiyani maxsus fan sifatida tushunilishini Chuqurlashtiradi. U sotsiologiya maxsus fan sifatida o'z o'rganish predmetiga, o'zining boshqa fanlardan farq qiluvchi toifaga oid ilmiy apparatiga ega ekanligini yozgan. Sotsiologiyani boshqa fanlardan ajratish uchun Znanetskiy tarixiy sub'ektlarda, ularning tajribasida, qadriyatga oid-me'yoriy ichki dunyosida mavjud bo'lgan madaniy voqelikni anglatuvchi "inson koeffitsienti" tushunchasidan foydalanadi. U "Agar inson koeffitsienti e'tiborga olinmasa va tadqiqotchi madaniyat tizimini tabiiy, ya'ni inson tajribasi va faoliyatidan alohida o'rgansa, u holda tizim yo'qoladi va uning o'rniga u o'zi o'rganayotgan voqelikka bog'liq bo'lmagan jarayonlarning o'zaro betartib joylashgan ommasiga duch keladi", - deb yozadi<sup>11</sup>.

Shunday qilib u sotsiologik voqelikni jismoniy kabi psixologik voqelikdan ham ajratib oladi. XX asrning 60-70 yillarida, ijtimoiy fanlarning o'ziga xos xususiyatlari faqatgina uning predmetiga ko'ra belgilanadi, ob'ektini esa umumiy sifatida o'rganish mumkin, degan qarash keng tarqaldi. Barcha ijtimoiy fanlar mehnatni, ishni, oilani, guruhlardagi munosabatlarni o'zining ixtisoslik sohasidan kelib chiqib o'rganadi. Xususan, psixologiya – mazkur sohalarida yuz berayotgan psixologik jarayonlarni, iqtisodiyot – moddiy farovonlikni, moddiy munosabatlarni, mehnat faoliyatida manbalarning etarligini va boshqalarni o'rgansa, sotsiologiya bu sohalarini yaxlitligicha, ijtimoiy sifat, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining o'zaro ijtimoiy-madaniy munosabati sifatida o'rganadi.

**4.** Sotsiologiyani sohasi faoliyatning o'z mohiyatiga ko'ra kompleks turlari, ijtimoiy hayotning Shu kabi hodisalari va jarayonlari hisoblanadi. Buning natijasida sotsiologiya – bu ijtimoiy hayotning alohida tomonlarini (iqtisodiyotni, san'atni, huquqni) o'rganuvchi fan emas, balki sharoitlarda, munosabatlarda, individlarning, ijtimoiy guruhlar va jamiyatning tafakkur tarzi va faoliyatida namoyon bo'luvchi iqtisodiy, ijtimoiy va boshqalarning o'zaro bog'liqliklarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning diqqat markazida tarix sub'ekti sifatida inson, uning yaxlit o'zaro munosabatlari turadi. Aynan yaxlit yondashuv sotsiologiyaga jamiyat hayotining barcha jabhalarida faoliyatni boshqarish va tashkillashtirish bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish, kelajakni avvaldan aytib berish va ijtimoiy loyihalarni tayyorlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, turli integral yo'nalishlar vujudga keldi va rivojlanmoqda: sotsiolingvistika, huquq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya va boshqalar. Sotsiologiya yordamida jamiyatning o'z sohasini o'rganuvchi har bir ijtimoiy fan, real ijtimoiy jarayonlarni o'rganish asosida o'z faoliyatini takomillashtiradi, ijtimoiy hayot sohalaridagi bilimlarini Chuqurlashtiradi.

Sotsiologiya ijtimoiy psixologiya bilan chuqur aloqalarga ega. Biroq ijtimoiyni psixik hodisaga tenglashtirilishi tanqidga uchradi. O.Kontning o'zi

<sup>10</sup> Diorkgeym E. Metod sotsiologii. Kiev: Южно-русское книгоизд-во. 1899. – S. 40-41.

<sup>11</sup> Znaniecki On humanistic sociology. Selected papers. Chicago London 1969. P.137.

ijtimoiy hissiyotlarni va ijtimoiy tafakkurni Chegaralagan. Mazkur muammoni E.Dyurkgeym va P.A.Sorokinlar Chuqur o'rganishgan, biroq psixologizmni engib o'ta olishmagan.

M.Veber esa quyidagicha yozadi: sotsiologiya shaxs xulqini faqatgina shaxs o'z harakatlariga muayyan ma'no joylashtirgani uchungina o'rganadi. Faqat Shu kabi xulq sotsiologni qiziqtirishi mumkin; psixologiyaga keladigan bo'lsak, uning uchun bu holat belgilovchi emas. Biroq sotsiologiya va ijtimoiy psixologiyaning nisbati masalasi etarli darajada murakkab masala, Chunki insonlar hayot faoliyatida hissiy qaerda tugashi va oqillik qaerda boshlanishi tushunarsizdir.

Sotsiologiya va ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishi ayrim farqlarni izohlash imkonini beradi. Ijtimoiy psixologiya individlarning, guruhlarning, bevosita shaklda namoyon bo'luvchi (simpatiya, antipatiya, bir birini qabul qilish) tafakkurining dastlabki bosqichini o'rganadi, sotsiologiya esa nisbatan kengroq ko'lamda, jamiyatda mavjud ijtimoiy qonunlar, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy omillar va sharoitlar nuqtai nazaridan yondashadi.

Sotsiologik yondashuv nisbatan bilvosita tabiatga ega, ya'ni tafakkurning hayot faoliyatining yo'naltiruvchi asosini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan nisbatan yuqori qadriyatga oid-me'yoriy darajasini o'rganadi. Psixologiya muhitni o'ziga xos Shaklda (hissiyotlar, kechinmalar, g'azab, shodlik, norozilik hissi) bevosita aks ettirish jarayonlarini o'rganadi. U Shaxslarning, guruhlarning, jamiyatning psixik holatini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya aynan Shu ob'ektga ega bo'lgan holda uning muloqot muammolari, shaxslararo munosabatlar va xalqlar, etnoslar va millatlarning ruhiy qurilmalari bilan bog'lagan holda o'rganadi.

YUqorida keltirilganlar sotsiologik fan va uning fanlar tizimidagi o'rni haqida ayrim xulosalar qilish imkonini beradi: bu – maxsus, fanlararo fan. Ijtimoiy psixologikka teng emas. Sotsiologiya odamlarning ongli faoliyati bilan Shug'ullansa-da, psixologik omillarni e'tibordan chetda qoldira olmaydi, shu bilan birga u o'z tadqiqot predmetini yo'qotmasligi zarur. Sotsiologiya predmeti – bu Shaxslarning, ijtimoiy tizimlardagi guruhlar faoliyatining qonuniyatlaridir.

## 5-mavzu. ASOSIY SOTSIOLOGIK TUSHUNCHALAR

### Reja:

1. Sotsiologiyada tushunchalarning vujudga kelishi
2. Sotsiologiyada predmet tushunchasi
3. Zamonaviy sotsiologiyaning murakkab tuzulishga egaligi
4. Sotsiologiyada metodologik tushunchalar

1. Insoniyat tarixi ming yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, shu davr mobaynida jamiyatda insonlarning o'zaro munosabatlari juda serqirra va o'z navbatida ancha murakkab shaklga kirib, bu munosabatlar insonlar o'rtasida, jamiyatning turli tizimlari o'rtasida har tomonlama aloqalarni vujudga keltiradi, natijada bu munosabatlar asosida turli-tuman oqibatlar namoyon bo'ladi. Buning natijasida yuzaga keladigan holatlar, ya'ni jamiyat va shaxs o'rtasidagi, shaxslararo va ijtimoiy hayotning turli jabhalari o'rtasidagi munosabatlariga o'z ifodasini topadiki, bu o'z navbatida kishilarning turli - tuman munosabatlariga, ishlab chiqarishdagi natijalariga, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga, ijtimoiy hayotning turli sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, oqibatda ijobiy yoki salbiy munosabatlarini yuzaga kelishiga olib keladi. Bu esa jamiyatning umumiy rivojlanishiga, ijtimoiy munosabatlarning takomillashuviga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ijtimoiy munosabatlarning bu va boshqa tomonlarini sotsiologiya fani o'rganadi.

Sotsiologiya jamiyatdagi turli hodisalar va ularning o'zaro aloqasini, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirini hamda kishilarning ijtimoiy hatti-harakati umumiy qonuniyatlari va elementlarini o'rganadi.

Sotsiologiya fan sifatida XIX asrda shakllanib, bu tushuncha fanga frantsuz faylasufi Ogniyust Kont tomonidan kiritilgan. Ammo bu fan aslida ancha qadimiy bo'lib, uning ayrim elementlari qadimgi ko'p falsafiy ta'limotlarda mavjud bo'lgan. Xususan, qadimgi yunon faylasuflari ijtimoiy hayot, tarixiy taraqqiyot to'g'risida turli g'oyalarni ilgari surganlar. Shuningdek, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar: Farobiy, Ibn sino, Beruniylarning asarlarida ham jamiyat, uning yashashi va rivojlanishi haqida muhim fikrlar bildirganlar.

Umuman ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishi muqarrar qilib qo'ydi va natijada sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy tahlil qilishni ijtimoiy ma'lumotlarni empirik tadqiq qilish bilish ku Shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi.

2. Sotsiologiya fani predmeti tadqiqot o'tkazish faoliyati natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, sotsiologiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari davomida uning predmeti to'g'risidagi tushuncha ham o'zgarib borgan.

Turli sotsiologik ta'limot va yo'nalishlar vakillari sotsiologiya fani predmeti to'g'risida turlicha fikrlar bildirganlar. Jumladan, sotsiologiya fani asoschisi O.Kont sotsiologiyani jamiyat to'g'risidagi pozitiv fan deb hisoblagan. Amerikalik sotsiolog Dj. Smelzer o'zining "Sotsiologiya" darsligida sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi fan ekanligini ta'kidlaydi. E. Dyurkeym esa sotsiologiya predmetini

ijtimoiy ma'lumotlardan iborat deb bilgan. Nemis sotsiologi G. Zimmelning ta'rificha, sotsiologiya - xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasidir. YA'na bir nemis sotsiologi M. Veberning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy xulq to'g'risidagi fandır. Ijtimoiy xulqni M. Veber insoniy munosabatlardan iborat deb bilgan. Ijtimoiy xulq esa o'z navbatida ijtimoiy mohiyatga egadir.

Mashhur rus sotsiologi P. A. Sorokinning sotsiologiya fani predmeti to'g'risidagi fikri umumiy ma'noga ega bo'lib, u "jamiyat yoki ijtimoiy hodisalardan iborat", deb hisoblagan. Jamiyat esa ruhiy aloqadorlikka ega bo'lgan birliklar majmuidan iborat. Sotsiologiya xuddi shunday o'zaro aloqadorlikliklardan iborat jamiyat hayotini o'rganadi.

Yana bir rus sotsiologi V. A. Yadovning fikricha, "sotsiologiya - jamiyatning bir butun organizm ekanligi, ijtimoiy munosabatlarning bir butunligi to'g'risidagi fandır". Mashhur sotsiolog G.B.Osipov o'zining "Sotsiologiya" o'quv qo'llanmasida sotsiologiya - ijtimoiy tizimlarning funktsionallashuvi va rivojlanishi to'g'risidagi, umumiy va o'ziga xos ijtimoiy qonun va qonuniyatlari, bu qonun va qonuniyatlarning Shaxs, ijtimoiy birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatidagi yuzaga kelish va amal qilish Shakllari to'g'risidagi fan deb, - ta'riflagan.

YUqorida keltirilgan fanlardan xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi, funktsionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Shu bilan birga jamiyatning rivojlanib borishi bilan sotsiologiyaning mazmuni ham yanada boyib, rivojlanib boradi, uning o'rganish ob'ekti qamrovi kengayadi, tadqiqot usullari ham yanada mukammallashib boradi.

**3.** Hozirgi zamon sotsiologiyasi murakkab tarkibiy tuzilishga ega. Jamiyat hayoti sotsiologiya fani doirasida umumsotsiologik, maxsus sotsiologik tadqiqotlar asosida o'rganiladi. Sotsiologiya tadqiqot predmeti bo'yicha umumiy va maxsus sotsiologiya sohalariga bo'linadi.

Umumiy sotsiologiya - turli ijtimoiy tizimlarda tez-tez uchrab turadigan ijtimoiy hayotga oid hodisalarni, bu tizimlarning yashashi va taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Maxsus sotsiologiya - ijtimoiy faoliyatning eng alohida sohalarini ko'p faktorli tizim sifatida tadqiq etadi. Hozirda sotsiologiyada maxsus sotsiologik nazariyalar sifatida iqtisod sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi, turmush tarzi, shahar va qishloq, boshqarish va tashkil qilish, siyosat, madaniyat, ilm - fan, ta'lim, shaxs, oila, yoshlar, bo' Sh vaqt, tibbiyot, etnosotsiologiya, qiziqishlar, ijtimoiy o'zgarishlar, ommaviy axborot, jamoatchilik fikri va boshqa sotsiologik sohalarini ko'rsatish mumkin.

Umumiy va maxsus sotsiologiya sohaları o'rtasida umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda, ular o'rtasida o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud. Umumiy sotsiologiyaga oid ta'limotlar umumijtimoiy amaliyotda tek Shiriladi, sinaladi va tasdiqlanadi. Maxsus sotsiologiyaga oid xulosalar va ularning tasdigi empirik tadqiqotlar, ijtimoiy eksperimentlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

O'z navbatida umumiy sotsiologiya maxsus sotsiologik nazariyalar uchun ham nazariy, ham metodologik asos bo'ladi.



Xulosalar Chiqarish darajalariga ko'ra sotsiologiya nazariy va empirik sotsiologiyaga, yo'nalishga ko'ra "sof" va "amaliy" sotsiologiya turlariga ajratiladi. Nazariy sotsiologiya jamiyat ijtimoiy hayotining umumsotsiologik, hamda umumilmiy darajalardagi funktsional va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Amaliy sotsiologiya inson faoliyatini, jamiyat hayotining turli sohalarini, jarayonlarini bevosita amaliy asosda o'rganadi. Amaliy sotsiologiyada empirik tadqiqotlar olingan ilmiy ma'lumotlar nazariy jihatdan umumlashtirildi. Amaliy sotsiologiya o'z mohiyatiga ko'ra nazariy sotsiologiya bilan uzviy bog'liq.

Sotsiologiyada konkret ilmiy ma'lumotlarni olish katta ahamiyatga ega. Bunday ilmiy ma'lumotlarni olish katta ahamiyatga ega. Bunday ilmiy ma'lumotlarni to'plash empirik tadqiqot usullari, ya'ni statistik tadqiqot, sistemali kuzatuv, taqqoslash, ma'lumot surash, intervyu olish, anketa uzatish yordamida amalga oshirilib, olingan ilmiy ma'lumotlar maxsus sotsiologik nazariya va usullari yordamida tadqiq va tahlil qilinadi, ilmiy xulosalar Chiqariladi.

Har bir fan muayyan tushunchalar (kategoriyalar) bilan ish ko'radi, ularda fan tomonidan jamg'arilayotgan bilimlar jamlanadi. O'z navbatida har bir fan rivojlanishi jarayonida shu fanga oid yangi - yangi tushunchalar muomalaga kiritiladi. Natijada fan ham rivojlanadi, tushunchalar hajmi ham kengayib boradi.

Sotsiologiyaning asosiy o'rganish sohasi - bu ijtimoiyotdir, ya'ni ijtimoiy hodisalar va munosabatlardir. Shunga ko'ra sotsiologiya fani ham Shu fanga oid tushunchalar (kategoriya) yordamida ish ko'radi. Sotsiologiyadagi tushunchalarni metodologik va kundalik bajariladigan ishlarda qo'llaniladigan (protsedurniy) turlarga bo'lish mumkin.

#### 4. Metodologik tushunchalar 4 ga bo'linadi:

1). Ijtimoiy aloqalarni ochib beruvchi kategoriyalar: ijtimoiy haqiqat (fakt), ijtimoiy harakat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy institutlar va boshqalar;

2). Ijtimoiy birliklarni ochib beruvchi kategoriyalar: ijtimoiy birlik, ijtimoiy sinf, ijtimoiy qatlam, ijtimoiy guruh, shaxs va boshqalar;

3). Ijtimoiy jarayonlarni aks ettiruvchi kategoriyalar: ijtimoiy holatlar va ularning turlari, ijtimoiy faollik, ta'lim, musobaqa va boshqalar;

4). Ijtimoiy taraqqiyotni ochib beruvchi kategoriyalar: ijtimoiy o'zgarishlar, o'sish, harakat, tanazzul va boshqalar.

Kundalik bajariladigan ishlarda qo'llaniladigan (protsedurniy) tushunchalar: bu asosan dala kuzatishlari (ishdari) jarayonida qo'llaniladigan tushunchalar bo'lib, bular tadqiqot texnikasi turlari, sotsiologik o'lchovlar, anketa qilish, intervyu olish, so'rov, mantiqiy dastur va boshqalar. Shu bilan birga sotsiologiya fani maxsus tushunchalar bilan birgalikda umumfalsafiy tushunchalardan, shuningdek boshqa fanlardan qo'llaniladigan tushunchalardan ham foydalanib ish ko'radi.

Hozirgi davrda jamiyat bilan sotsiologiya fanining ijtimoiy mohiyati ham ortib bormoqda, ijtimoiy fanlar ichida nufuzi oshmoqda. Bu esa bizdan sotsiologiyaning ijtimoiy vazifalarini mukammalroq bilishni taqazo etadi.

Sotsiologiya fan sifatida quyidagi ijtimoiy vazifalarni amalga oshiradi: nazariy, tavsiflash, aniqlash, axborot, oldindan aytib berish, g'oyaviy kabilar.

a). Nazariy vazifasi - bu mavjud bilimlarni boyitish va to'ldirish, tushuntirish va jamlash, ijtimoiy borliqni tadqiq qilish asosida shu fanga oid tushuncha (kategoriya) va qonunlarni ishlab chiqish;

b). Tavsiflash vazifasi - bu to'plangan tadqiqot materiallarini tartibga solish (sistemalashtirish), tavsiflash va ularni analitik yozishma, turli xildagi yozma hisobotlar va kitob Shaklida tayyorlash;

v). Axborot vazifasi - bu sotsiologik tadqiqot o'tkazish natijasida olingan materiallarni to'plash, yig'ish, tartibga solib berish, Chunki sotsiologik axborot bu eng operativ axborotdir;

g). Oldindan aytib berish (prognoz), bashorat qilish vazifasi - sotsiologik prognoz berish. Sotsiologik tadqiqot natijasi qisqa muddatli va uzoq muddatli prognoz berish bilan yakunlanadi;

d). G'oyaviy vazifasi - bu tadqiqotlar natijalari albatta jamiyat g'oyaviy hayotida qo'llaniladi, o'z tadqiqotlari bilan yangi jamiyat qurilishda ishtirok etadi va kishilarni bu jarayonda ishtirok etishga undaydi.

Bu vazifalar sotsiologik jamiyat davomida o'zaro dialektik birlik asosida amal qiladi va bir - birini taqozo etadi va to'ldirib boradi.

Ijtimoiy hayot masalalarini o'rganish doirasi kengayib borishi bilan sotsiologiya fani ham, uning o'rganish ob'ekti ham borgan sari kengayib va chuqurlashib boradi. O'z navbatida sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy - gumanitar fanlar bilan dialektik aloqadorligi ham kuchayib bormoqda. Sotsiologiyaning iqtisodiyot, falsafa, tarix, huquq fanlari, etika, psixologiya, pedagogika, ekologiya kabi fanlar bilan aloqadorligi bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida yanada ortmoqda. Keyingi yillarda uning texnika fanlari bilan ham o'ziga xos aloqadorligi kuchaymoqda, ayniqsa matematika fani va usulining ahamiyati tobora ortmoqda.

Iqtisodiyot sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi kabi sotsiologiyaning maxsus sohalari iqtisodiyotga bog'liq masalalarni o'rganadi va muammolarni o'rganishga va hal etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sotsiologiya iqtisod fanlari bilan, ularning o'rganish ob'ekti bilan uzviy bog'liqdir.

Sotsiologiya falsafa fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Sotsial falsafa qonun va kategoriyalari bevosita umumsotsiologik nazariya va kontseptsiyalarni o'z ichiga oladi. Maxsus sotsiologik nazariyalar uchun esa nazariy va metodologik asos bo'ladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi o'z navbatida mazkur davr ijtimoiy fikrini shakllantiradi, unga nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiologiya fani huquq fanlari bilan ham Chambarchas bog'langan. Ayniqsa, jamiyatda demoqratik jarayonlarning takomillashib borishi, huquqiy davlat asoslarini yaratilishi, kishilarning huquqiy madaniyatini yuksalib borishi bu boradagi sotsiologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi, natijada sotsiologiya va huquq fanlari o'rtasidagi aloqadorlik yanada mustahkamlanib, uning ham amaliy va ham nazariy ahamiyati ortadi.

Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarning tiklanishi, milliy ongning rivojlanib borishi, o'sishi davrida kishilar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ma'naviy munosabatlar, tamoyil va me'yorlarning ichki mohiyati takomillasha borishi,

ularning xususiyatlarini o'rganishda sotsiologiya bilan axloq Shunoslik o'rtasida dialektik aloqadorlik yanada ko'proq namoyon bo'ladiki, bunda sotsiologik tadqiqot asosida axloq fani jamiyat hayotidagi o'z mavqeini yanada oshiradi.

Sotsiologiya fani pedagogika, madaniyat Shunoslik, ruh Shunoslik (psixologiya), tarix, estetika, demografiya, ekologiya, matematika, kibernetika va boshqa fanlar bilan uzviy aloqada faoliyat ko'rsatadi.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanishi, eng avvalo o'z fanlarga oid ma'lumotlardan u yoki bu tarzda foydalanishi bilan izohlansa, o'z navbatida sotsiologiyaga oid xulosalardan foydalanib boshqa fanlar ham rivojlanadi.

Sotsiologiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy fandır. Jamiyatning rivojlanishi, kishilar o'rtasidagi munosabatlar yangidan - yangi sifatlar bilan boyib borishi, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalarining yanada takomillashib borishi va boshqa ko'pgina faktorlar bugunki kunda sotsiologiyani mavqeini yanada oshirmoqda, ijtimoiy fanlar ichida etakchi o'rin egallashiga imkon bermoqda. O'z navbatida sotsiologiya fani jamiyat taraqqiyotiga amaliy xulosalari bilan ta'sir etadi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham bilish mumkin. Bu mamlakatlarda sotsiologiya fani ham nazariy, ham amaliy jihatdan yuksak darajada rivojlanib, sotsiologik tadqiqotlar markazlari, mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi alohida e'tibor, ishlab chiqarishdagi sotsiologik xizmat zaruratini yanada oshirdi.

Sotsiologiya fanining ana shu nazariy va amaliy mohiyati sobiq sovet tizimida kamsitilib kelindi, uni o'rganishga deyarli e'tibor qilinmadi. Ayrim hollarda sotsiologik tadqiqotlar natijasi tor doiradagi maqsadlarda qo'llanildi.

## **Mavzu № 6. SOSIOLOGIYANING METODOLOGIYASI**

### **Reja:**

- 1. Metodologiya tushunchasi**
- 2. Sosiologiya metodologiyasi**
- 3. Tushuntiruvchi, ta'riflovchi metodologiyalar**
- 4. Tushunuvchi sotsiologiya**

1. Ma'lumki, fan o'zining "asbob-uskanlari"siz (shakl, tamoyil, uslub va h.z) sira faoliyat ko'rsata olmaydi. Fannin taraqqiyot vositasi bo'lib metod xizmat qiladi. Bilimning metodi, strukturasi va mezonni muammolari bilan esa metodologiya shug'ullanadi. Amerikalik sosiolog P. Lazerfeldning fikricha sosiologlar insonlar faoliyatini o'rganadilar, metodologlar esa sosiologning ish ustidagi faoliyatini o'rganadilar.

Metodologiya fanning alohida bir bo'limi bo'lib, u bilish jarayonining murakabligi va turli-tumanligini tadqiq qila borib, bilimning tamoyillari, shakllari va metodlari ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Barcha fanlarda metodologiya masalalari doimo dolzarb vazifa bo'lib kelgan. Metodologiyaning shakllanish jarayoni empirik tadqiqotlar amaliyoti rivoji bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida metodologiya ayrim hollarda tadqiqotlarning empirik vositasi va metodi deb sharxlanadi. Metodologiyani bunday sharxlanishi tor ma'noga ega. Chunki u anfaqat empirik, balki nazariy bilim olish, fanning fundamental tamoyillari va asoslarini ishlab chiqish bilan ham jiddiy shug'ullanadi.

Tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodologiyaning asosiy turlarini tahlil qilib chiqish muhim ahamiyatga ega. Metodologiya turlarga ajratish turli mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bularning orasida eng keng tarqalgan mezon bu – tahlil qilish va tadbiiq etish mezonidir. Bu mezon asosida fanning umumiy, maxsus va empirik metodologiyasini ajratib olish mumkin bo'ladi.

Umumiy metodologiya fundamental tadqiqotlar negizida shakllanadi. U voqelikni bilishning yalpi tamoyillari va shakllarini ishlab chiqish, nazariy va empirik bilimlar mog'iyati, umummetodologik muammolarni hal qilish, bilishning turli shakllari va metodlarining ahamiyatini aniqlaga intiladi. Umummetodologik tushunchalar va tamoyillar tadqiqotlarning barcha darajalarida ishlatiladi. Ya'ni, ham yalpi yaxlitlik tahlili darajasida, ham uning alohida sohalarida.

Umumiy metodologiya bilan bir qatorda maxsus metodologiya ham mavjud. Bu metodologiya ob'ekt tadqiqotining ma'lum bir sohasiga tadbiiq etish uchun ishlab chiqilgan maxsus metodologiya bo'lib, u sosiologiyada hali to'liq rivojlanmagan hasiblanadi.

Empirik tadqiqotlar ham o'zlari uchun alohida bir metodologiyaga ega bo'lishga erishdilar. Fanda metodologiyalarni umumiy, maxsus va empirik darajalarga ajratish ma'lum bir ma'noda shartlidir. Chunki, ko'pgina xususiy yo'nalishlar umumiylikka da'vogarlik qilsalar, fundamental tamoyillar esa empirik tadqiqotlarga aylanadilar.

2. Sosiologiya klassiklari bo'lmish O.Kont, G. Spenser, E. Dyurkgeym va M. Veber ta'limotlarida metodologiya muammolari muhim o'rin egallaydi. Lekin, sosiologiya fanining muhim bir bo'limi sifatida uning metodologiyasi XX asrning boshida shakllanadi.

Sosiologiya metodologiyasi fundamental, maxsus va empirik tadqiqotlar asosida vujudga keldi. Bu metodologiya an'anaviy fanlar va ular metodologiyasi bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqilgan. Bunda falsafaning bilish nazariyasining o'rni beqiyosdir. Sosiologiya metodologiyasining bosh vazifasi – bu sosial jarayonlar tadqiqot tamoyillari, shakllari va metodlarini ishlab chiqishdir.

Sosiologiya rivoji davomida bir qator metodologik yo'nalishlar vujudga keldi: pozitivizm, psixologizm, empirizm, neopozitivizm, fenomenologiya, struktur funksionalizm va h.z. lar. Ularning har biri o'z davrida umumqamrovli metodologiya bo'lishga da'vogarlik qildi.

Sosiologiyada umumiy metodologiya sosial voqelik mohiyati, inson mavjudligi va madaniyat muammolari tadqiqoti ta'sirida shakllandi. Hozirgi davrda AQShda yetakchi metodologiya sifatida funksionalizm o'z o'rnini saqlab kelmoqda.

Sosiologiyadagi jamoatchilik fikri, mehnat munosabatlari, guruh, sosial struktura kabi tarmoq yo'nalishlari maxsus metodologiya asosida keng tadqiq etilyapti. Shuningdek, rolilik yondoshuv, statusli tahlil, akseologik yondoshuv, sosiometriya ham shular jumlasidandir.

Sosiometriya asoschisi Dj. Moreno o'zining ta'limotini umumsosiologik deb ta'kidlagan bo'lsada, ammo sosiologiya taraqqiyoti davrlarida sosiometriya shaxslararo munosabatni tadqiq qiladigan metod sifatida tan olindi.

Empirik tadqiqotlar ham o'zlari uchun alohida bir metodologiyaga erishdilar. XX asrning birinchi choragida amerikalik olimlar: Dodd, Landberg va Lazersfel'd tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondoshuvlar empirik tadqiqotlarning predmeti va tushunchalari muammolarining yechimini harakati edi.

Xulosa qilib aytganda sosiologiya metodologiyasin umumiy, xususiy va empirik xususiyatlarga ajratib ko'rsatish ma'lum bir ma'noda shartlidir. Chunki, ko'pgina xususiy yo'nalishlar umumiylikka da'vogarlik qilsalar, fundamental tamoyillar esa empirik tadqiqotlarga aylanadilar.

3. Tushuntiruvchi metodologiya umumiy qonunlarni yoki bo'lmasa qonun shakliga ega bo'lgan ob'ektning hislatlarini belgilaydigan mustahkam aloqa va munosabatlarni o'rnatilishini nazarda tutadi. Bu metodologiya ijtimoiy jarayonlarni qonuniyati muvofiqligini, sosial guruh va individlarning faoliyatini tan oluvchi yo'nalish vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu yo'nalishlar tomonidan ishlab chiqiladigan metodologiyaning umumiy ko'rinishi bo'lib ob'ektivizm, ya'ni voqealarni aniqlovchi ma'lum bir omilni ob'ektiv deb ajratish namoyon bo'ladi. Pozitivistik-naturalistik metodologiya shunday omil sifatida jamiyatning tabiiy asoslarini, psixologik metodologiya psixologik mexanizmlarni, struktur funksionalizm yaxlit sistemaning funksiyalarini ajratib ko'rsatadi.

Tasvirllovchi metodologiya sosiologiyadagi bilishning boshqa asoslaridan kelib chiqadi. Shunday asos deb, u tasvirlashga beriladigan empirik faktlarni

hisoblaydi. Bilishning mezoni bo‘lib ishonchli sezgilar, ma'lumotlarning to‘liq qamrovi, qo‘llaniladigan empirik metodlarning xilma-xilligi xizmat qiladi.

Ushbu metodologiyaning shakllanish davri G.Spenser faoliyatidan boshlanadi deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. U o‘zining “Sosiologiya asoslari” asarida ushbu masalani keng va chuqur tahlil qiladi. Tasvirlovchi metodologiyaning asosiy metodlari: klassifikasiyalash, guruhlash, taqqoslash, turlash va sistematashtirishdir.

**4.** Tushunuvchi sosiologiya asoslarini G. Zimmel, M. Veber va fenomenologik sosiologiya vakillari ishlab chiqishgan. Ular inson faoliyatini o‘rganishda tabiiy fanlar tadqiqotchilari foydalanadigan metodologik tamoyillardan umuman foydalanmaslik zarurligini uqtiradilar. Chunki inson ongli mavjudotdir. Veberning fikricha sosiologiya individlarning anglanadigan harakatlarini o‘rganadi. Shuning uchun u “tushunuvchi” bo‘lishi lozim. Tadqiqotchining diqqat markazida kuzatilayotgan tashqi faktlar emas, balki sub'ektning ichki motivlari, maqsadi va harakatlarining ma'nosi turishi kerak. Bunday sharoitda sosiologiya madaniyat va insonning ruhi haqidagi haqiqiy fan hisoblanadi.

## **7-mavzu. SOTSILOGIYA PARADIGMALARI**

### **REJA**

- 1. Sotsiologiyada paradigma va nazariya tushunchalari**
- 2. Metanazariya va metasotsiologiya**
- 3. Sotsiologik paradigma va sotsiologik nazariya**
- 4. Sotsiologiyadagi paradigmalarning ko'p variantli mavqei**

1. Zamonaviy fanshunoslik tasdiqlashicha har qanday fan etuklikka erishadi, ya'ni mustaqillikka erishadi, bunda u paradigmalar mavqega o'tadi. Fanning rivojlanish kontsepsiyasiga ko'ra, ushbu rivojlanishning u yoki bu sifatga oid rivojlanishi – evolyutsiyaning emas, balki inqilobning natijasidir. Mazkur kontsepsiyaning negizida paradigma tushunchasi yotadi.

“Paradigma” tushunchasi ko'p ma'noli bo'lib, shu bois, olimlarning ushbu tushunchaga bo'lgan munosabati ham turlicha. T.Kunning “Ilmiy inqiloblar tuzilmasi” (1975 y) kitobida paradigma tushunchasining yigirma bitta ta'rifi mavjud. Biroq uning urinishlarining mohiyati –“paradigma” tushunchasining turlicha ta'riflanishida emas, balki u bugungi kundagi paradigma tomonidan belgilanuvchi, ya'ni har qanday fanning predmeti borasida mohiyatan turlicha bo'lgan tasavvurlarni qamrab oluvchi tuzilma, tadqiqotning o'ziga xos usullari sifatida o'rganishidan iborat.

Fanning rivojlanishini T.Kun to'rt bosqichni ajratib ko'rsatadi: uning me'yoriy va anomal holati, inqirozi va inqilob.

Fan rivojlanishidagi me'yoriy holat – mavjud paradigma doirasidagi mavjud bilimlarni jamlash davri. Mazkur davr muqarrar ravishda anomal holatga o'tish bilan yakunlanadi. Bunda olingan ilmiy bilimlar majmui mavjud paradigma nuqtai nazaridan izohlanishi mumkin. Inqiroz davri inqilobga olib keladi. Eski paradigma olib tashlanadi va uning o'rniga ilmiy faktlar, nazariyalar va usullarning yangi tizimini izohlash imkoniyatiga ega bo'lgan yangi paradigma keladi.

Fanning paradigmalar mavqei bir yoki bir nechta aniq va tushunarli tarzda ifodalangan paradigmalarining mavjudligi bilan ifodalanadi. Bizning ta'rifimizda biz paradigmanni fanning, bizning holatimizda sotsiologiyaning falsafiy, umumilmiy va metanazariy asoslari majmui sifatida tushunilishidan kelib chiqamiz. Ko'rsatilgan asoslar sifatida turli ko'rinishdagi kontsepsiyalar, tamoyil va yondashuvlar, masalan, determinizm kontsepsiyasi, tizimli yondashuv, tarixiylik printsiplari namoyon bo'ladi. Olimlarning u yoki bu paradigmaga sodiqligi bir ilmiy yo'nalishni ikkinchisidan ajratish imkonini beradi.

Odatda fan sotsiologiyasida paradigmaning uchta turi ajratib ko'rsatiladi: birinchidan, u yoki bu fanning mustaqil mavqeini asoslovchi, bir ilmiy bilimni boshqasidan sifatga oid darajada chegaralovchi (falsafani sotsiologiyadan, sotsiologiyani iqtisodiyotdan va boshqa) paradigmalar; ikkinchidan, fan rivojlanishining tarixiy bosqichlari o'rtasidagi ahamiyatli darajadagi farqlarni amalga oshiruvchi paradigmalar (masalan, sotsiologiyada pozivitizm, neopozivitizm, postpozivitizm); uchinchidan, rivojlanishning aynan bir bosqichida,

aynan bir fan doirasida ilmiy uyushmalarga birlashtiruvchi paradigmalari (zamonaviy G'arbiy Yevropa sotsiologik paradigmasi).

Agar fan paradigmal mavqega ega bo'lmasa, bu uning hali o'z predmetini boshqa ilmiy fanlardan ajratib olmaganligi va shu sababli u mustaqil fan bo'la olmasligini anglatadi. Fan mazkur ilmiy uyushma tomonidan tan olingan paradigмага ega bo'lsa, paradigmal mavqega ega bo'ladi. Bu fanning monoparadigmal mavqeidir. Ilmiy inqilobdan so'ng odatda paradigmal dualizm vaziyati vujudga keladi: yangi paradigma tan olinishga erishdi, biroq eskisi ham qo'llanilib kelinmoqda. Shu qatorida, ko'p variantli paradigmal mavjud bo'lgan fanlar ham mavjud. Qator holatlarda fanning paradigmal mavqei uning rivojlanishining tarixiy qonuniyati bilan mos kelishi mumkin.

"Paradigma" tushunchasi "nazariya" tushunchasiga nisbatan kengroq hodisa hisoblanadi. Har qanday paradigma o'z tuzilmasiga ega. Avval ko'rsatib o'tilgan elementlardan tashqari mazkur fan ob'ektining birinchidan, ushbu paradigmani boshqasidan ajratib turuvchi, ikkinchidan, mazkur paradigma doirasida nazariyalarning turli ko'rinishlarini qurish uchun asos bo'lib xizmat qilish tabiatini aks ettiruvchi asosiy ilmiy toifalarni qamrab oladi. Sotsiologiyada bu kabi toifalarga "jamiyat", "madaniyat", "Shaxs", "ijtimoiy xulq", "ijtimoiy guruhlar", "ijtimoiy institutlar", "ijtimoiy tashkilotlar", "ijtimoiy faktlar" va boshqalar kiradi.

Nazariya – bu paradigmaning asosi sifatida qabul qilingan asosiy ilmiy ko'rsatkichlarni qamrab oluvchi muayyan fan ob'ekti tuzilmasining mavhum modelidir. Shuningdek, u yoki bu darajadagi aniq va mantiqan o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, ular orasidagi dastlabki toifalar, aloqalar va munosabatlarning mohiyatini ochib beruvchi fikrlar (qonunlar, tamoyillar yoki umumiy nazariyalar Shaklida ifodalanuvchi) majmuidir.

Shunday qilib, nazariyada quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: birinchidan, mazkur fan predmeti strukturasi tashkil etuvchi asosiy ilmiy toifalar, aloqa va munosabatlar; ikkinchidan, ushbu toifalarni ta'riflash uchun qabul qilingan tushunchalar tizimi, vositasida tushunchalar orasidagi aloqa va munosabatlar ifodalanuvchi fundamental qonun va tamoyilla; uchinchidan, nazariyaning fundamental qonunlari va tamoyillaridan kelib chiquvchi mantiqiy oqibatlar majmui.

Sotsiologik paradigmada sotsiologiyaning ob'ekti ijtimoiy voqelik va uning asosiy elementlari hisoblanadi. Sotsiologik nazariya – bu vositasida ijtimoiy voqelikning u yoki bu elementlarini va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tabiati (tuzilmasi va genezisi) tushuncha va tamoyillarning mantiqan o'zaro bog'langan tizimidir.

Sotsiologiya paradigmalari chegaralash me'zonlari (ko'p variantli paradigmal mavqe) sifatida bir-biridan mohiyatiga ko'ra farq qiluvchi asosiy sotsiologik toifalar va ijtimoiy voqelikning ularga mos keluvchi tuzilmaga oid elementlari namoyon bo'ladi.

2. U yoki bu fanning paradigmal maqomini falsafiy va umumilmiy asoslashning boshqa darajasi – metanazariya sanaladi. Metanazariya jamlab ulgurilgan bilimlarning qandaydir majmuining belgilab beruvchi printsiplarini tanqidiy jihatdan o'rganish demakdir. Mazkur darajada mavjud ma'lumot, usul va



nazariyalarning atrof muhit voqeliklariga muvofiqligi (muvofiq emasligi) darajasi aniqlanadi. Agar bu kabi muvofiqlik aniqlanmasa yoki o'ta ahamiyatsiz darajada aniqlansa, u holda bu mazkur fan hali etuklikka erishmaganligini, paradigmal mavqe darajasiga ko'tarilmaganligini ko'rsatadi.

Odatda metanazariyaning sotsiologik nazariya ishlanmalari uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi va uning kelgusidagi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ikki asosiy turi ajratib ko'rsatiladi. Har ikki metanazariyaning o'zaro tengligini tan olgan holda turli olimlar odatda ulardan birini ustun qo'yadilar. J.Terner fikriga ko'ra, metanazariy tahlil nazariy tahlil tugagan joyda boshlanadi. Nazariya qurilishi yakunlanishi bilan metanazariya boshlanadi, ya'ni ushbu nazariyaning farazi, strategiya va hokazolari tahlili boshlanadi. Ayni vaqtda, "fundamental", epistemologik va metafizik masalalarni hal etmasdan turib yakunlangan nazariyani qurishga kirishish mumkin emasligini ta'kidlovchi olimlarning dalil-isbotlarni e'tiborga olmaslik mumkin emas.

J.Ternet metanazariyaning mazkur turini keskin tanqid qiladi, biroq uni inkor qilmaydi. U quyidagicha yozadi: "...metanazariyalashtirish odatda ahamiyatli falsafiy muammolarga bog'liq bo'ladi va ushbu nazariyalarni qurishga safarbar qiladi... u nazariyalarni ichki jihatdan hal etish mumkin bo'lmagan va odatda muhokama qilinadigan ziddiyatlarini qamrab oladi".

**3. Sotsiologiyadagi metanazariya va metatahlilning turli ko'rinishlarini "metasotsiologiya" degan umumiy tushunchaga birlashtirish mumkin.**

Metasotsiologiya – bu sotsiologiyaning turli tarkibiy qismlari – kontseptsiyalar, nazariyalar, andozalar, usullar va hokazolar kabi, umuman sotsiologiyaning mavjud epistemologik va metodologik tuzilmalarini tahlil qilishdir. Metasotsiologiyaning sotsiologiyadan farqi shundaki, sotsiologiyaning o'rganish ob'ekti ijtimoiy voqelik bo'lsa, metasotsiologiyaning ob'ekti – sotsiologiyaning o'zidir. Shu sababli "metasotsiologiya" tushunchasi bilan bir qatorda "sotsiologiya sotsiologiyasi" va "refleksiv sotsiologiya" tushunchalarini qo'llash to'g'ri hisoblanadi. Birinchi tushuncha ilmiy doiraga R.Fridriks tomonidan kiritilgan.

Metasotsiologiya sotsiologiyani ichkaridan va tashqaridan tahlil qiladi. Tashqi nuqtai nazardan sotsiologiya – o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, uni boshqa hodisalar kabi sotsiologik tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu mazkur sotsiologik nazariyaning ijtimoiy rolini o'rganish, uning muayyan siyosiy tizimga nisbatan (xizmatga oid yoki tanqidiy) vazifalarini, tor ixtisoslikdagi muhitdan tashqarida jamiyatga ta'sir ko'rsatishini o'rganish bo'lishi mumkin. Ichki nuqtai nazardan sotsiologiya alohida ilmiy fan, muayyan muammolar, tushunchalar, nazariya va usullar majmui sifatida ijtimoiy kontekstdan ajratgan holda o'rganiladi.

Metasotsiologiya – bu sotsiologiya kabi fandır. Biroq sotsiologiyadan farqli ravishda u sotsiologiya tomonidan yaratilganlarni tahlil qilish printsiplarini ishlab chiqish bilan bog'liq. U o'rganish ob'ekti sifatida sotsiologiyaga murojaat qiladi. Sotsiologik bilimning mohiyati va aniqligini o'rganish sotsiologiyaning – uning nazariyasi va metodologiyasini takomillashtirish va rivojlanish, uning ilmiy mavqeini mustahkamlashning zarur Sharti hisoblanadi.

4. Sotsiologiyadagi paradigmalarning ko'p variantli mavqei. Boshqa fanlar (falsafa, antropologiya, iqtisodiyot va boshqa) qa'rida dunyoga kelgan sotsiologik bilim rivojlanishning paradigmaga qadar bo'lgan davrdan paradigmalar mavqega erishishga qadar bo'lgan tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Uning o'ziga xosligiga madaniy an'analar va turli mamlakatlardagi ijtimoiy va gumanitar rivojlanishining notekisligi ta'sir ko'rsatdi. Ushbu yo'lning ibtidosi K.Marks (Germaniya), G.Spenser (Buyuk Britaniya), O.Kont, F.Le Ple (Frantsiya), F.Tennis, G.Zimmel (Germaniya), U.Samner, L.Uord (AQSH), N.Ya.Danilevskiylarning asarlarida keltirilgan. So'ngra, bir variantli, ko'p paradigmalar mavqega erishmagan holda, paradigmalar dualizm maqomini, shuningdek ko'plab maktab va yo'nalishlarning tezkor sur'atlarda shakllanishi va yo'qolib borishining murakkab tarixiy davrini Chetlab o'tgan holda sotsiologiya ko'p variantli, poliparadigmalar mavqega o'tdi. To'rtta ijtimoiy paradigma shakllandi va tan olindi: ijtimoiy faktlar, ijtimoiy ta'riflar, ijtimoiy xulq, ijtimoiy-tarixiy determinizm.

“Ijtimoiy faktlar” paradigmasi ijtimoiy voqelikni ijtimoiy faktlarning ikki guruhiga – ijtimoiy tuzilmalarga va ijtimoiy institutlarga bog'laydi, e'tiborini ularning tabiati va o'zaro munosabatlariga qaratadi. Ijtimoiy tuzilmalar va ijtimoiy institutlar ushbu paradigmasida haqiqiy narsalar tushunchasi bilan tenglashtiriladi.

Ijtimoiy voqelik haqidagi boshqa bir tasavvur “ijtimoiy definitsiya(ta'riflar)” paradigmasida qamrab olingan. Uning asosiy elementlari ijtimoiy faktlarning o'zi emas, balki ularni asoslovchi usullardir. Agar insonlar faktlarni haqiqiy deb hisoblasalar, ular haqiqatga aylanadi va ularning oqibati hisoblanadi. O'rganishning muhim ob'ekti sifatida sub'ekt ichi va sub'ektlararoлик va ularning natijasi sifatida – harakat namoyon bo'ladi. “Rag'bat-ta'sir” bixevioristik kontseptsiyasidan farqli ravishda odamlarning ijtimoiy xulqi ularning ijtimoiy voqelikni baholashi yoki tushunishiga muvofiq ravishda quriladi. Mazkur paradigmasida ijtimoiy voqelikda harakatlanayotgan Shaxslar o'z atrof-muhitlarini baholovchi bu kabi omillarning (qiymatlar, ramzlar va h.k.) majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu turli ramz va qiymatlardan tashkillashtirilgan mazkur voqelik ularning ijtimoiy harakatlarini determinatsiya qiladi.

“Ijtimoiy xulq” paradigmasining ildizlari amerika sotsiologiyasining psixologik an'anasiga borib taqaladi. Ijtimoiy bixevioristlar “ijtimoiy fakt” va “ijtimoiy definitsiya” paradigmalarni metafizik, deb hisoblaydilar, Chunki ular yagona ijtimoiy voqelikni aks ettiruvchi “inson xulqini” e'tiborga olmaydi. Bunda istalganni taqdirlash va ta'qiqlanganni jazolash muammosiga, ya'ni nomaqbul ijtimoiy xulqqa e'tibor qaratiladi.

“Ijtimoiy-tarixiy determinizm” paradigmasining asosiy elementlari ijtimoiy voqelikning tuzilmaga oid va shaxsga oid elementlari hisoblanadi. Ularning ichki va tashqi aloqa va munosabatlari o'zaro birgalikda ijtimoiy voqelikni tashkil qiladi. Mazkur paradigma tizimidagi harakatlanuvchi shaxslar ijtimoiy voqelikning ob'ekti va sub'ekti sifatida namoyon bo'ladilar.

Paradigmalarning ushbu turlarining tarixiy ildizlari Dyurkgeym, M.Veber, B.Skinner, K.Marksning asarlariga borib taqaladi. Ijtimoiy voqelikning mazkur paradigma tomonidan asosiy sifatida o'rganiluvchi elementlari o'rtasidagi munosabatlarni izohlovchi tushunchalarning o'ziga xos va qonuniy tarzda

tashkillashtirilgan komplekslari ularning o'zaro munosabatlarining nazariy anglanishining yoki sotsiologik nazariyalarning turli ko'rinishlarini tashkil etadi.

Sotsiologiyadagi nazariy vaziyat eng umumiy ko'rinishda nazariy plyuralizm, nazariy yo'nalishlarning turlari, sotsiologik tafakkurdagi ikki – divergentsiya va integratsiya – qarama-qarshi yo'nalishlar bilan ifodalanadi. YAgona to'g'ri nazariy yo'nalishini izlash bilan bir qatorda ilmiy jamiyatda sotsiologiya kabi fan predmetining bir turli emasligi juda ko'plab turli nazariyalar ko'pligiga hayot bax Shida qiladi, degan fikr tobora keng tarqalmoqda. Aytib o'tilgan qarashlarning oxirgisini odatda “tanqidiy plyuralizm” deb ataydilar.

Asosiy sotsiologik (ijtimoiy faktlar, ijtimoiy definitsiyalar, ijtimoiy xulq) paradigmalarga ijtimoiy nazariyalarning muayyan turlari muvofiq keladi.

“Ijtimoiy faktlar” paradigmasi tuzilmaga oid-funksional, tizimli va nizoli nazariyalar nuqtai nazaridan izohlanadi. (Tizimli nazariyalar g'arb sotsiologiyasida odatda tuzilmaga oid funksional nazariyalarning tarkibiy qismi yoki turlari sifatida o'rganiladi). “Ijtimoiy definitsiya” paradigmasi ijtimoiy harakat, ramziy interaksionizm, fenomenologik sotsiologiya, etnometodologiya nazariyalaridan kelib chiqadi. “Ijtimoiy xulq” paradigmasi ijtimoiy voqelikni bixeviorizm, bixevioristik sotsiologiya va ijtimoiy almashinuv nazariyasi nuqtai nazaridan ta'riflaydi.

Biroq sotsiologiya boshqa har qanday ilmiy fan kabi o'zi uchun xos bo'lgan o'zaro bog'liq muammolarning ahamiyatli darajadagi ko'pligining mustaqilligiga nisbatan o'z tadqiqot yo'nalishini belgilab oladi. Ular nazariy tafakkur predmetiga aylanadilar. Ushbu fan muammolari o'rtasida muayyan aloqalar mavjud. Boshqalari qiyoslanishi mumkin bo'lgan bir yoki bir nechta markaziy muammolarni ajratib olish imkoniyati mavjud. Sotsiologiyaning bu kabi markaziy muammolari sifatida ikkita muammo ilgari surildi. Ulardan birinchisi J.Terner tadqiqotlarida asoslangan bo'lib – bu ijtimoiy tartibdagi muammodir. Ijtimoiy voqelik darajasidagi ikkinchi muammo D.Rittserning asarlarida rivojlantirilgan. Muvofiq ravishda yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari yana ikki paradigma – “ijtimoiy tartibdagi” va “interfaol ijtimoiy paradigma”larning Shakllanishiga asos solingan.

Ilmiy bilimning markaziy muammolari tuzilmasini shakllantirish g'oyasi noto'g'ri emas. Shakllanayotgan va shakllanib ulgurgan sotsiologik paradigma va nazariyalarning sotsiologiyani rivojlanishidagi o'rnini etarli darajada baholash zarur. Ijtimoiy paradigmalarda ijtimoiy voqelikning turli asosiy elementlarining mavjudligi va ularning ahamiyatini asoslab beradi. Sotsiologik nazariyalar ushbu elementlarning turli kombinatsiyalarining o'zaro munosabatlariga izoh beradilar va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini ochib beradi.

## **Mavzu № 8. SOSIAL QONUNLAR VA SOSIAL MEXANIZM**

### **Reja**

- 1. Qonun tushunchasi**
- 2. Sotsial qonunlar**
- 3. Sotsial qonunlar kategoriyasi**
- 4. Sotsial mexanizm**

1. Fanning rivojlanish jarayonida qonun degan tushuncha shakllana boshlandi. Dastlab bu holat antik davr falsafasida kuzatila boshlandi. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit ta'kidlaganidek, tabiat va jamiyatda universal logos faoliyat ko'rsatadi. Ayni shu davrdan boshlab qonunning turli tushunchalari paydo bo'la boshladi: naturalistik, idealistik va dialektik. Shuningdek, tabiat va jamiyat qonunlari bir-biridan ajrala bordi. Sosial falsafada qonun masalasida turli yo'nalishlar qujudga keldi. Jumladan, fatalizm, ob'ektivizm va sub'ektivizm kabilar.

Fatalizm o'rta asrlarda taraqqiy etib, uning mazmuniga muvofiq tarixiy jarayonlar ilgaridan qonun ko'rinishida ilohiylik tomonidan belgilab qo'yilgan.

Ob'ektivizm sosial jarayonlarni ob'ektiv omillar (sharoitlar, munosabatlar, me'yorlar va h.z.) dominantligida shakllantiradi degan iddaoni ilgari suradi.

Sub'ektivizm esa bunga qarshi yo'nalish sifatida sosial voqealarni sub'ektning ongli faoliyati, uning qadriyatlarini, loyihaoari va g'oyalari deb tasavvur qiladi.

Yangi davrda qonun tushunchasida moddiylik va ma'naviylik omillarini birlashtirishga harakat qilish avj oldi. Ingliz faylasufi D.Lokk fikricha, barcha hodisalar bo'ysinadigan umumiy tabiiy qonun mavjud. Bu davrdan qonun hodisasiga turlicha ta'riflar keltirila boshlandi. Ulardan eng ommaviylashgan ta'rif: qonun – bu falsafiy kategoriya bo'lib, u hodisa va voqelar orasidagi ob'ektiv, mohiyatli, zaruriy, takrorlanuvchi va mustahkam aloqalarni ifodalaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan tabiat va jamiyat qonunlarini birini biridan farqlash harakatlari jadallashdi. Jumladan, F.Engel's fikricha tabiatda ko'r-ko'rona, pala-partish va ongsiz darajada faoliyat ko'rsatadigan umumiy sodda qonunlar mavjud. Jamiyatda esa barcha jarayonlar ongli tarzda, ma'lum bir maqsadga qarab xarakterlanayotgan kishilar faoliyatining maxsulidir.

Ilm-fanning keyingi taraqqiyoti F.Engel'sning yuqoridagi fikrlari batamom noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy astronomiya, fizika, biologiya kabi tabiiy fanlarning olamshumul yutuqlari tabiatda kechayotgan barcha jarayonlar o'zaro mantiqiy bog'liqlikka ekanligini namoyish qildi.

2. Demak, qonun deganda, odatda, aniq vaziyatda umumiy, zaruriy va takrorlanishga xos bo'lgan jiddiy aloqa yoki munosabatlar tushuniladi. Sosial qonuniyat - sosial voqelik va jarayonlarning jiddiy zaruriy aloqasini aks ettiradi.

Sosial qonunlar munosabatlarni aks ettiradi. Bu xalqlar, millatlar, sinflar, sosial - kasbkorlik guruhlari, shahar va qishloq, shuningdek jamiyat va oila, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Sosial qonunlarga asoslangan holda odamlar, o'z xayotiy faoliyatlarini uchun zaruriy bo'lgan sharoit

ta'siri ostida uni qo'llaydilar. Tabiat qonunlari kabi sosial qonunlar voqealarning tabiiy xarakati davomida paydo bo'ladi.

Ular ko'pchilik individlarning ijtimoiy vaziyatda va ob'ektiv aloqalarda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishi natijasi hisoblanadi, ya'ni odamlar yashaydilar, moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishda qatnashadilar. Maxsulotni ayirboshlaydilar, taqsimlaydilar va iste'mol qiladilar, bolalarni dunyoga keltiradilar va tarbiyalaydilar, ularning irodasi va ongi bilan bog'liq bo'lmagan holda qonuniy voqealar zanjiri yuzaga keladi.

Sosial qonun va qonuniyatlarni tadqiq etish, demak sosial soha turli elementlari o'rtasidagi zaruriy aloqalarni o'rnatishdir. Umumiy qonunlar hamma ijtimoiy tizimlarda amal qiladi. (Masalan, qiymat qonuni va tovar pul munosabatlari). O'ziga xos qonunlarning amal qilishi bitta yoki bir nechta sosial tizimlar bilan cheklangan (masalan, bitta jamiyat turidan ikkinchisiga o'tish).

Sosial qonunlar umumiylik darajasi nuqtai nazaridan farq qiladi. Sosial sohani yaxlit holda rivojlantirishni xarakterlovchi qonunlar mavjud. Bu qonunlar sosial sohaning alohida bo'laklarini rivojlanishini belgilaydi (sinflar, guruhlar, millatlar).

**3.** Sotsial qonunlarning beshta kategoriyasini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi, o'zgaras xarakterni kasb etuvchi, yoki unga bog'liq bo'lgan qonunlar. Bu qonunga binoan "A" voqelik mavjud bo'lsa u xolda albatta "B" voqelik ham bo'lishi shart.

Ikkinchi, rivojlanish tendensiyasini aks ettiruvchi qonunlar. Unda ijtimoiy ob'ektning tuzilishi dinamikasi bir turdagi o'zaro munosabatlardan ikkinchisiga o'tishi bilan bog'liq.

Uchinchi, sosial voqelik o'rtasidagi funksiyaga oid bog'langanlikni qaror toptiruvchi qonunlar. Bu qonunlar u yoki bu ijtimoiy tizimni barqaror holatda saqlab turishlikni ta'minlaydi.

To'rtinchi, sosial voqelik o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aks ettiruvchi qonunlar. Masalan, sosial integratsiyaning eng muhim va zaruriy sharti bu ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni oqilona birga qo'shib olib borish hisoblanadi.

Beshinchi, sosial voqelik o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish mumkinligini anglatuvchi qonunlar. Sosial qonunlar odamlar aniq faoliyati davomida ro'yobga chiqariladi.

**4.** XX asrning birinchi choragidan boshlab, sosial qonun tushunchasi sosial mexanizm termini bilan almasha boshladi. Sosiologiya endilikda insonning hulq-atvori haqidagi fan sifatida talqin qilinib, uning asosida turli sosial mexanizmlar mujassamlashdi: psixologik, madaniy, tizimli, struktur-funksional va h.z.lar. Shu holat nazarda tutiladiki, jamiyatda hulq-atvorning ramzlari va qolip-andozalari mavjud bo'lib, ular ma'lum bir strukturalar bilan quvvatlanadi.

Tadqiqotchilar turli-tuman sosial mexanzmlarni ajratib ko'rsatishadi. Masalan, T. Parsons jamiyatni sosial tizim sifatida talqin etadi. Tizim bu - o'zaro munosabatlar jarayonidir. U jamiyat struktur tashkilotiini 4 darajada belgilaydi:

1. Dastlabki, yoki texnik
2. Menejral, ya'ni boshqaruv
3. Institusional

#### 4. Sotsietal

Nemis sosiologi E. Fromm sosial mexanizmni boshqacha ma'noda tasavvur qiladi. U insonlarning hulq-atvorini sosial-psixologik jihatlarini ochib beradi. Uning millatdoshi M. Veber ham mazkur muammoni chetlab o'tmagan. Sosiologiyani madaniyat haqidani fan sifatida ta'riflab, unga biologik va psixologik qonunlar xususiyatidan kelib chiqib, yondoshishni tanqid qiladi. Sosiologik qonunlarning asosiy vazifasi: individlar o'rtasidagi doimiy aloqalarni ta'minlashdir. Sosiologiyaning keyingi taraqqiyotida sosial mexanizm kategoriyasi izchil rivojlanib bordi.

## 9-mavzu. SOTSIAL STATUS VA ROLLAR

### Reja:

1. Status (maqom) tushunchasini olimlar tomonidan tavsiflanishi
2. Maqomning klassik ta'rifi
3. Shaxs haqidagi nazariyalarda belgilangan va ortirilgan mavqeylar tushunchalarining ahamiyati
4. Ijtimoiy rol tushunchasi

1. Maqom – sotsiologiyada keng iste'molda bo'lgan tushuncha bo'lsada uning tabiati, mazmun-mohiyati borasida yaxlit ta'rifi ishlab chiqilmagan. XIX asrda ingliz tarixchisi va huquqshunos G.D.S.Meyn ushbu tushunchaga ilk bor sotsiologik mazmuni taqdim etdi.

Ayrim sotsiologlar uchun maqom bu – belgilab qo'yilgan me'yorlar bo'lsa, ayrimlari uchun – institutsional tizimda madaniy me'yorlar tomonidan belgilangan o'rin, joydir. M.Veber sotsial maqomni nufuz kesimida tahlil qilgan va uni individning jamiyat egallagan yuqori o'rni sifatida taqin qilgan.

Oksford sotsiologik lug'atida G.Marshall yozishicha sotsiologiyada ushbu tushunchani ta'riflashda ikki yondashuv shakllangan<sup>1</sup>. Keng ma'noda maqom individ tomonidan sotsial strukturada egallangan joy o'rin anglansa, tor ma'noda guruhlar yoki stratalar siyosiy-huquqiy va madaniy mezonlar asosida tartiblangan sotsial stratifikatsiya shakli tushuniladi. Status uni egallab turgan individlarning turmush tarzi bilan begilanadi va uni egallash uchun rasmiy tayyorgarlik talab etadi. Jamiyatning maqomlar tizimini muqimligini ta'minlashda maxsus mexanizmlar va tajriba talab etiladi. Aynan bir xil maqomli o'rinni egllab turgan kishilar yig'indisi maqomli guruhlarini tashkil etadi. Statusli guruhlar bir-biri bilan monopol imtiyozlarga egalik qilishda raqobatga kirishadi va hayotiy zahiralarni boshqarishda yot kishilarni ishtirokiga to'sqinlik qiladi. Sotsial strukturada guruhlarining qaysi turi hukmronlik qilishi M.veber ta'rifiga ko'ra jamiyat ikki turga bo'linadi: stastuli va sinfiy.

Xo'sh, kishining ijtimoiy mavqei deganda nima anglanadi? Mazkur savolni izohlash jamiyatning chigal ijtimoiy voqeligidan o'rin olgan ijtimoiy maqom, ijtimoiy me'yor, ijtimoiy funktsiya, ijtimoiy rollar, xulq-atvor modellari kabi tushunchalarni jinsiy nisbiylikda anglash imkonini beradi.

T. Parsonsning fikricha inson bir vaqtning o'zida bir qator ijtimoiy mavqelarni egallaydi. Ushbu ijtimoiy mavqelarga doir huquq va majburiyatlar yig'indisidan – maqom (status) hosil bo'ladi.

A.Radkliff-Braun o'zining «Struktura i funktsiya v primitivnom obshestve» asarida «maqom» ning etnogenezisini primitiv madaniyatlardagi avlodlararo vorisiylik bilan bog'laydi. Uningcha, «maqom» erkak yoki ayol urug'i ustuvorligi sharoitida individning o'zi mansub bo'lgan jamao ijtimoiy me'yorlari tomonidan tan olingan huquq va majburiyatlar yig'indisidir. Maqom atamasining etimologiyasiga murojaat etgan Radkliff-Braun fikricha, «status (ingl. maqom),

<sup>1</sup> Oxford Dictionary of Sociology / Ed. by G. Marshall. Oxford; N.Y, 1998. P. 638-639.

estate (ingl. tabaqa, jamiyatdagi o'rin, maqom) va state (ingl. davlat\*) atamaları lotinchadagi estatus (lot. maqom) so'zining Shakllari (bu ma'noda sinonimi) dir»<sup>2</sup>. Ushbu atamalarni muallif Afrika qabilalari ijtimoiy-jinsiy tafovutlarini talqin etishda qo'llaydi.

2. Maqomning klassik ta'rifini 1930 yilda amerikalij antropol va sotsiolog R. Linton ishlab chiqdi. Linton status deganda kishining sotsiat tizimda egallagan pozitsiyasi (o'rnini) anglaydi. Rol esa ushbu pozitsiya bilan uzviy bog'liq hulq atvor kutilmalaridir. U bu ikki tushunchani bir-biridan aniq-ravshan jaratib oldi. Uningcha maqom bu – strukturaning unsuri sifatida statik holat va kishi ma'lum yachaykali yoki modelidir<sup>5</sup>.

2013 yilda nashr etilgan «Dictionary of sociology» da «status» ning fanlararo kengaytirilgan ta'rifiga ko'ra - ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, fuqarolik holati, (xizmat) o'rni, maqom tarzida ta'riflangan. «Sotsiologiya entsiklopediyasi»da xalqaro atamashunoslik, xususan, rus tilida tez-tez qo'llaniluvchi «pozitsiya (ingl.-position)» atamasi individ yoki ijtimoiy guruhning ijtimoiy tuzilmada egallagan o'rni, holati yoki maqomi ekanligi keltirilgan<sup>3</sup>. YA'ni, ushbu tushunchalar sinonim sifatida taklif etilgan.

Soddalashtirilgan ta'rifga ko'ra «maqom» - shaxsning sotsial stratifikatsiyada egallagan o'rni, holatidir. Sotsial stratifikatsiyannig shakli sifatida maqomli guruhlar yoki stratalar huquqiy, siyosiy va madaniy mezonlar asosida yaxlit qolipga tushirilgan va tashkillangan. M.Veber individ mavqeini ta'riflashda maqomli o'rin («status positions») jumlasini qo'llab, uni iqtisodiy va ijtimoiy hayotning «me'yorlashgan qat'iy o'lchovi» sifatida ta'riflaydi. Bu o'rinda «status positions» jumlasini maqomli (yoki nufuzli) mavqe ma'nosida qo'llaniladi. O'zbekiston milliy entsiklopediyasida esa arab tilidan olingan - «maqom» - joy, makon, o'rin degan ma'nolarni anglab, uning yuridik ta'rifiga ko'ra «saylab qo'yiladigan shaxslar, fuqarolar, davlat idoralari, tashkilot, muassasa, xalqaro tashkilotlarning normativ akt bilan rasmiylashtirilgan huquqiy holati, ular huquq va majburiyatlarining yig'indisidir<sup>4</sup>.

Bizningcha jamiyat sotsial strukturasi negizida yotuvchi maqom tushunchasini quyidagicha muhim nazariy xuloslash mumkin: «Mavqe – individning ijtimoiy tuzilma komponenti sifatida jamiyatda rasmiy tan olingan nufuzli o'rni, maqomidir. Ilmiy-ommabop iste'molda qo'llaniladigan maqom, mavqe, martaba, o'rin, holat, nufuz tushunchalari bir ijtimoiy hodisani izohlovchi sinonim so'zlardir. Odatda insonning kasbiy professionalizmi nuqtai nazaridan Shaxsga nisbat berilishida qo'llaniladigan nufuzli maqomi uning oilasi ijtimoiy mavqeini ham anglatadi. Maqom statik tushunchadir. Demak, uni harakatga keltiruvchi dinamik kategoriya bu – roldir».

N.Smelzer sotsial stratifikatsiyadan kelib chiqib kishilarning egallagan maqomlari turfa xilligini ta'kidlar ekan ularning ichida albatta «bosh» «asosiy

\* «Bolshoy anglo-russkiy - russko-angliyskiy slovar» da ushbu atamalar aynan shu mazmunda ta'riflangan.

<sup>2</sup> A. R. Radklyff-Braun. Struktura i funktsiya v primitivnom obshestve. Ocherki i lektsii. Per. s angl. — M.: Izdatelskaya firma «Vostochnaya literatura» RAN, 2001. — S. 50.

<sup>3</sup> Entsiklopediya sotsiologii 2009.

<sup>4</sup> O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent: davlat ilmiy nashrieti, 342 b. www.ziyouz.com kutubxonasi



maqom» borligi, ushbu maqom o'z o'rnida kishi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh xususiyatlar mushtarakligidan hosil bo'lishini bildiradi.

Maqom tushunchasi bilan chambarcham bog'liq «rol» T. Parsons ta'rificha «bu aktor<sup>4</sup>ning o'zaro munosabatlar jarayonida ishtirokini tashkillangan holda ta'minlaydi<sup>5</sup>. Shu ta'kidlash lozimki, rollar institutsionallashgan va ular ma'lum jamiyat, jamoa, guruhda o'rnatilgan madaniy me'yor, ahloqiy andaza qoliplariga tom ma'noda mos tushganda uning aktori ijtimoiy me'yorlarga nisbatan konformlashgan bo'ladi.

V.Radaev va I. Shkaratanlarning «Sotsialnaya stratifikatsiya» asarida yozishicha «Ijtimoiy rol – bu kishining Shaxslararo munosabatlar tizimidagi ijtimoiy mavqe orqali belgilangan hulq-atvor modelidir<sup>6</sup>. Ijtimoiy rollar hulq-atvorning turg'un stereotiplariga mutanosiblikni saqlash maqsadida uzoq vaqt davomida sekinlik bilan ixtiyoriy o'zlashtiriladi yoki ijtimoiy muhit tomonidan majburan singdiriladi. Bu ma'noda rollar hulq-atvor yaxlitligini hosil etuvchi komponent, tarkibiy elementdir.

**3. Shaxs haqidagi nazariyalarda maqom va rol tushunchalarining ahamiyati.**

1.Asosiy ijtimoiy shaxs nazariyalari: Ch.Kulining «Ko'zgudagi men» nazariyasi, Dj.Midning «Boshqalar tomonidan umumlashtirilgan» nazariyasi.

2.Ijtimoiy rollar.

3. Rolli bajarish va rolli kutish.

Sosiologiyada Amerikalik D.J.Mid va G.Mintonlar tomonidan asos solingan shaxsning roli nazariyasi ham diqqatga sazovordir. Keyinchalik bu nazariya G.Merton va T.Parsons, g'arbiy Olmoniya sosiologi G.Darendorflar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Bu nazariya ikki asosiy tushunchalar: shaxsning ijtimoiy mavqei va ijtimoiy roli orqali tushuntiriladi. Unga ko'ra, har bir inson muayyan ijtimoiy tizimida bir necha o'rinni egallashi mumkin. Har bir egallangan o'rin ijtimoiy mavqe deb ataladi. Shaxs o'z xayoti davomida bir necha ijtimoiy mavqega ega bo'lishi mumkin. Binobarin, bu o'rinlardan qaysi biridir uning asosiy ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Bosh mavqe shaxsning egallab turgan mansabi (masalan, direktor, rais, professor, kabi) bilan belgilanadi.

Shaxs ijtimoiy mavqei uning tashqi xulqida ham, tashqi qiyofasida, yurish turishida va xatto muomalasida ham o'z ifodasini topadi. Shaxsning ijtimoiy roli nazariyasida belgilangan va erishilgan ijtimoiy mavqelari o'zaro farqlanadi. Belgilangan mavqe - bu shaxs xizmati va xatti-harakatidan qat'iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, zoti va boshqalar shular jumlasidandir. Erishilgan mavqe deganda, shaxsning o'z xatti-harakati, qobiliyati bilan erishgan mavqei tushuniladi. Masalan: yozuvchi, firma boshlig'i, direktor, professor va shu kabilar. Bulardan tashqari, yana shaxsning tabiiy va kasbiy lavozim mavqei ham o'rganiladi. Shaxsning erkak va ayoli, bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa, kasbiy

---

<sup>4</sup> Aktor — individ ёki jamoa. Boshqacha aytganda «sotsial ob'ekt». Parsons T. O strukture sotsialnogo deystviya. — M.: Akademicheskii Proekt, 2000. — 195 s.

<sup>5</sup> Parsons T. O strukture sotsialnogo deystviya. — M.: Akademicheskii Proekt, 2000. — 195 s

<sup>6</sup> Radaev V.SHakaratan I. Sotsialnaya stratifikatsiya.- M.: Nauka 1995. – S. 8-14

lavozim mavqei shaxsning ijtimoiy - iqtisodiy va ishlab chiqarish - texnik holatini (muhandis, temirchi, xaydovchi va boshqalar.) bildiradi.

4. Ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o'rnini ifodalaydi. Ijtimoiy rol' esa shaxsning ijtimoiy tizimida egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi. Masalan, ma'muriy - buyruqbozlikka asoslangan. Sovet tizimi buyruqboz shaxslar tipini shakillantirib qo'ydi. Bunday shaxs tipiga "yuqori" ko'r- ko'rona, so'zsiz bo'ysunish, dunyoqarashi tor, bir tomonlama, o'z mansabini saqlab qolish va yuqori mansablarga erishish yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, munofiqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lganlar kiritildi. Bunday kishilarning shaxs xususiyatlari ular bajaradigan vazifasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Shaxs tipining bunday ko'rinishi hozirda ham jamiyat hayotini yangi sharoitda erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shaxs faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda nomoyon bo'lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik insonning shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Shaxs faolligi deb uning xayotini boshqarish bilan, qadriyatlarini nomoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik insonning shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko'rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sosiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

XIX asrning 20 yillarida sosiologiyada ilmiy yo'nalish strukturaviy yo'nalish (yoki oddiy aytganda funksionalizm) paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning asoschilari bo'lib, E.Dyurkgeym, A.R.Redkliff-Braun (1881-1995) va boshqa tadqiqotchilar bo'lishgan. Bu ilmiy maktab turli holatlarda kishi o'zini qanday tutishi to'g'risidagi normalarni tadqiq qilishni boshladi. Funksionalizm rol deb ataladigan institusional normalar muammosiga asosiy e'tiborni qaratdi. Funksionalistlar fikricha, sosiologiyada sosial taxlilning birligi harakat qilayotgan individ emas, balki roldir. Turli guruhlardagi har bir kishi qandaydir ma'lum maqomga ega bo'ladi. Bu maqomlarda xatti-harakat namunalari ko'rsatilgan bo'ladi. Bunda individ a'zo bo'lgan guruh individdan ushbu namunalarga mos keladigan hatti-harakatni kutadi. Shu asosda biz otaning, onaning, do'stning roli to'g'risida gapirishimiz mumkin.

Shunday qilib, sosial rolni guruh o'z a'zolaridan kutayotgan qat'iy ko'rsatilgan namunalarga muvofiq chiqadigan, hatti-harakatlarning nisbatan doimiy va ichki aloqali tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

Agar biz mazkur tushunishdan kelib chiqadigan bo'lsak, individning hatti-harakat rolini insonning turli sosial birliklarda bajarayotgan funksiyasidan kelib chiqib tahlil qilish mumkin. Shuning uchun amerikalik olimlar Don Moreno (1892-1974) va Robert Merton (1910t) shaxsni individ jamiyatda bajaradigan sosial rollar majmuining funksiyasi sifatida ta'rifladilar.

Rollarni amalga oshirish jarayoni ko'pgina omillarga bog'liq.

-insonning biopsixologik imkoniyatlari. Ular u yoki bu sosial rollarni bajarishga imkon berishi yoki imkon bermasligi mumkin.

-ideal xususiyatlar kompleksini belgilaydigan shaxs oʻrnlari. Individ bu oʻrnlarni rollarni bajarish chogʻida, hamda individdan guruh kutayotgan hatti-harakatning ideal usullarni namoyon etishi kerak.

-guruh tomonidan qabul qilingan rollar va sosial nazorat xarakteri.

-guruh strukturasi, uning mustahkamligi va individning oʻsha guruh bilan mos kelish darajasi.

Garchi sosial rol sosiologik tahlilning yagona birligi deb hisoblanmasada, (chunki u individdarning oʻzaro harakatidan kelib chiqadi) lekin rol jamiyatdagi institusional munosabatlarni oʻrganishda juda foydali hisoblanadi.

## 10-mavzu. SOTSIAL HARAKAT VA SOTSIAL O'ZARO-HARAKATLAR

### Reja:

1. Sotsial aloqalar
2. Sotsial harakat tushunchasi va uning mohiyati
3. Sotsial o'zaro harakat tushunchasi
4. Sotsial o'zaro harakat tipologiyasi

1. Jamiyat faoliyati uni tashkil etuvchi elementlarining o'zaro aloqalari bilan belgilanadi. Sotsial aloqalar – bu sotsial sub'ektlarning o'zaro bajargan anglangan yoki anglanmagan, rejalashtirilgan yoki tasodifiy, takroriy yoki bir marotabali aloqadorligidir<sup>1</sup>. Qator omillar yig'indisi ta'sirida sotsial aloqalar individlarning sotsial birliklardagi o'zaro faoliyatini ta'minlab, ularning birgalikdagi harakatlarining davomiyligini ta'minlaydi va rivojlantiradi.

Insonlar orasida turli xil aloqalar mavjud. Ular sotsial harakat, sotsial o'zaro harakat, sotsial munosabatlar, sotsial nazorat, sotsial tashkilot va sotsial institutlar. Ular bir tomondan sotsial aloqalarning tarkibiy komponentlari sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan sotsial aloqalarning rivojlanish bosqichlari sanaladi.

Umuman olganda jamiyatdagi aloqalar quyidagi turlarga ajratiladi: hayotiy kenglikdagi, psixologik va sotsial aloqalar.

Hayotiy kenglikdagi aloqalar deyilganida, insonlarning o'zaro aloqalarga kirishishdan oldin bir-birini vositali yoki vositasiz tarzda kuzatishi, o'rganishi va o'rganilayotgan sub'ekt unga qay darajada yoqishi (xususiyatlarining muvoffiqligi) to'g'risida xulosaga kelishi holati tushuniladi. Hayotiy kenglikdagi vositasiz aloqalarda ikki individ bevosita bir-birini kuzatadi va o'rganadi. Vositali aloqalarda esa individ biror vosita orqali ob'ekt yoki sub'ektga baho beradi. Misol uchun ish qidirayotgan inson gazetadagi e'lon orqali yangi ishi to'g'risida xulosaga keladi. Insonlar har kuni avtobus, metro, magazin kabi jamoat joylarida bir-biriga duch keladi. Bu holat individlarni bir-birini kuzatish va o'rganish imkonini yaratadi. Hayotiy kenglikdagi mana shunday aloqalar natijasida ijobiy xulosaga kelingan paytda individlar o'rtasida sotsial aloqalar va uning keyingi bosqichi sanalgan sotsial munosabatlar paydo bo'ladi. Ammo har doim ham emas.

Psixologik aloqalarning birinchi elementi qiziqish va manfaatdorlikdir. Mazkur qiziqish va manfaatdorlik kuzatayotgan insonda avvalboshdan mavjud bo'ladi, u kuzatish jarayonida qay darajada kuzatilayotgan ob'ekt ularga muvoffiq ekanligini baholaydi, xolos. Individ o'zining biologik, iqtisodiy, madaniy yoki boshqa turdagi ehtiyojlarini kuzatilayotgan ob'ekt tomonidan qondirilish imkoniyatining mavjudligini his etsa, aloqaga kirishishga shaylanadi. Shu o'rinda manfaatdorlik ikki tomonlama yoki bir tomonlama bo'lishi mumkin. Misol uchun bir yigit metroda o'zining barcha talablariga javob beruvchi qizni ko'rib qoldi, qiz ham yigit uning talablariga javob berishini anglasa, ular o'rtasidagi o'zaro qiziqish hissi psixologik aloqa uchun asos bo'lishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Sotsiologicheskiy slovar / [Sost.: A.N.Elsukov, K.V.SHulga; Nauch.red. G.N.Sokolova, I.YA.Pisarenko; Redkol.: G.P.Davidok (otv.red.) i dr.]. — 2-e izd., pererab. i dop. — Minsk: Universitetskoe, 1991.S.327.

Psixologik aloqaning o'zi xali o'z xolicha sotsial aloqa sanalmaydi. U sotsial aloqa va munosabatlarning Shakllanishidagi bosqichlardan biridir.

Sotsial aloqa – bu o'ziga xos tizim bo'lib, u eng kamida ikki kishi, aloqaning asosini tashkil etuvchi qandaydir bir qadriyat va mazkur qadriyat yuzasidan amalga oshirilgan o'zaro harakatlardan tashkil topgan.

Agar ikki individ uchrashib, ikkalasi uchun ham qadrli bo'lgan qadriyat tufayli o'zaro harakatlarga kirishib, o'zaro fikr almasha, bu sotsial aloqaga misol bo'la oladi. Sotsial aloqaning eng sodda ko'rinishi do'konda kitob, gazeta yoki jurnal sotib olishdir. Avvaliga hayotiy kenglikdagi aloqa sodir bo'ladi, ya'ni siz do'konga kirib sizni qiziqtirayotgan gazeta, jurnal yoki kitobning borligiga ishonch xosil qilasiz, so'ng psixologik aloqaga kirishasiz, ya'ni bu gazeta, jurnal yoki kitobning sotuvchi tomonidan sotilishini aniqlaysiz (sotuvchi qay darajada sizni xaridor sifatida qabul qilishini kuzatasiz), shular asosida siz sotuvchi bilan sotsial aloqaga kirishib gazeta, jurnal yoki kitobni sotib olasiz.

Aloqalarning davomiyligi va miqdoriga ko'ra, vaqtinchalik (tasodifiy, bir martali) va doimiy aloqalarga ajratish mumkin. Aloqaga kirishayotgan tomonlarning statusiga ko'ra, aloqalar formal va noformal turlarga ajraladi. Agar aloqaga sabab bo'lgan manfaatlar guruhga tegishli bo'lib, intitutlashtirilgan qiziqishlarni amalga oshirish davomida vujudga kelgan bo'lsa, formal (rasimy) hisoblanadi. Noformal aloqalar esa yakka shaxslarning qiziqishlari asosida vujudga keladi.

Aloqalarni shaxsiy va predmetli aloqa turlariga ajratish mumkin. Shaxsiy aloqalar individdagi shaxsiy xususiyatlarga qiziqish asosida paydo bo'ladi. Predmetli aloqalar esa individ yoki guruhga tegishli bo'lgan biror buyumga qiziqish bo'lganida vujudga keladi.

Sotsial aloqalar ularda ishtirok etuvchi tomonlarning aloqa shakliga ko'ra, bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Bevosita sotsial aloqalar to'g'ridan-to'g'ri va yuzma-yuz amalga oshiriladi. Bunda tomonlar bir – birini ko'rib turishlari kerak. Bilvosita sotsial aloqalar esa turli kommunikatsiya aloqalari asosida amalga oshadi. Misol uchun xat yoki radio.

YUqorida keltirilgan aloqa turlari birgalikda turli shakllarda amalga oshishi mumkin. Misol uchun bevosita predmetli doimiy aloqa sifatida har kuni gazetani bitta sotuvchidan sotib olish holati namoyon bo'ladi.

Aytib o'tish kerakki, shaxsiy aloqalar jamiyat hayotining muhim omili sanaladi. Agarda bevosita doimiy Shaxsiy aloqalar sodir bo'lmasa, bu holat Shaxsni yo'lg'izlikka va jamiyatdan begonalashuviga olib keladi. Yo'lg'izlik va sotsial aloqalarning faqat predmetli ko'rinishining zamonaviy jamiyatda ko'p uchrashi shaxs psixikasidagi salbiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

**2.** Sotsial harakat – bu individ yoki guruhning boshqa individ yoki guruh harakatlarini, qarashlarini, fikrlarini o'zgartirishga qaratilgan xatti-harakat, metod va vositalar tizimi.

Sotsial harakatning asosini sotsial aloqalar tashkil etadi. Chunki sotsial aloqalar davomida individ yoki guruhda boshqa individ yoki guruhning harakatlarini, fikrini va qarashlarini o'zgartirish mayli paydo bo'ladi.

Shunday qilib, sotsial harakat harakatning Shunday turiki, ularning maqsadi biror individ yoki guruhning xatti-harakati, qarashlari va fikrini o'zgartirishdir. Mashhur sotsiolog M.Veber ham inson tomonidan bajarilgan ayrim harakatlarga sotsial harakat maqomini olishi mumkin, degan fikrni bildirgan. Chunki inson tomonidan amalga oshirilgan barcha harakatlarning ham maqsadi biror guruh yoki individdagi holatni o'zgartirishga qaratilgan bo'lmaydi. Shuning uchun olim o'zining "Asosiy sotsiologik tushunchalar" asarida shunday yozgan: "sotsial harakat "boshqalar"ning o'tmish, ho'zir va kelajakdagi xatti-harakatiga yo'naltirilgan bo'ladi. U o'tmishdagi adovat uchun qasos, ho'zirda mavjud bo'lgan tahdiddan himoyalaniish yoki kutilayotgan tahdiddan himoyalaniish Chora-tadbirlari sifatida namoyon bo'lishi mumkin. "Boshqalar" sifatida ma'lum bir inson, tanishlar yoki umuman noma'lum bo'lgan notanish insonlar namoyon bo'lishi mumkin<sup>2</sup>. Demak, Veberning nazariyasiga ko'ra, sotsial harakat ikki muhim holatni o'zida mujassamlashtirishi lo'zim: guruh yoki individ harakatlarining sub'ektiv motivatsiyasi; o'tish, ho'zir yoki kelajakdagi harakatga yo'naltirilganlik.

– Har qanday sotsial harakat tizim sifatida quyidagi elementlardan tashkil topadi:

– Harakat sub'ekti – harakatni amalga oshiruvchi ta'sir etuvchi individ yoki guruh

– Harakat ob'ekti – harakat yo'naltirilgan individ yoki guruh

– Harakat vositalari va metodlari. Ular vositasida o'zgartirishlar amalga oshiriladi

– Harakat natijasi – harakat yo'naltirilgan guruh yoki individning javob reaksiyasi.

Shu o'rinda harakat va xulq-atvor tushunchalarini farqlash lo'zim. Xulq-atvor organizmning ichki yoki atrof muhitga tegishli bo'lgan omillariga nisbatan javob reaksiyasi bo'lib, u refleksli, anglanmagan yoki rejali, anglangan bo'lishi mumkin.

Sotsial harakat har doim aniq tanlangan vositalar va anglangan, oldindan rejalashtirilgan harakatlar to'plami sifatida ma'lum maqsadga etishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Veberning fikricha, sotsial harakat sotsiologiya fanining markaziy muammolaridan biri sanaladi. "Sotsiologiya – yozadi Veber – bu sotsial harakatlarni tushunishga harakat qiluvchi fan bo'lib, u sotsial harakat jarayonini va o'zaro ta'sirini kauzal<sup>3</sup> tushuntirishga intiladi<sup>4</sup>". Olim sotsial harakatning anglanganlik va ratsionallik darajasiga ko'ra ularni maqsadli-ratsional, qadriyatli-ratsional, affektiv va an'anaviy harakatlarga ajratgan<sup>5</sup>.

Maqsadli-ratsional harakatda harakatni amalga oshirayotgan Shaxs tomonidan uning har bir harakati aniq anglangan bo'ladi, uning maqsadi aniq qo'yilgan, maqsadiga etishtiruvchi eng samarali vositalar tanlangan bo'ladi. "Xulq-atvori maqsad, vositalar va harakatining mumkin bo'lgan salbiy oqibatlariga

---

<sup>2</sup> Veber M. Osnovnie sotsiologicheskie ponyatiya // Izbrannie proizvedeniya: Per. s nem. / Sost., obsh. red. i poslesl. IO.N.Davidova; Predisl. P.P.Gaydenko. — M.: Progress, 1990. — S.602-643. — (Sotsiologich. misl Zapada).S.625.

<sup>3</sup> kauzal – (lot. causalis) sababiy. Sabablar asosida ma'nosida qo'llanilgan.

<sup>4</sup> Veber M. Osnovnie sotsiologicheskie ponyatiya // Izbrannie proizvedeniya: Per. s nem. / Sost., obsh. red. i poslesl. IO.N.Davidova; Predisl. P.P.Gaydenko. — M.: Progress, 1990. — S.602-643. — (Sotsiologich. misl Zapada).S.602.

<sup>5</sup> Veber M. Osnovnie sotsiologicheskie ponyatiya // Izbrannie proizvedeniya: Per. s nem. / Sost., obsh. red. i poslesl. IO.N.Davidova; Predisl. P.P.Gaydenko. — M.: Progress, 1990. — S.602-643. — (Sotsiologich. misl Zapada).S.628.

yo'naltirilgan, vositalarning maqsadga va uning oqibatlariga bo'lgan munosabatlarini ratsional baholaydigan individning harakati maqsadli-ratsional sanaladi<sup>6</sup>". Boshqacha qilib aytpanda, individning harakati an'ana yoki o'rganish asosida vujudga kelmagan bo'lishi kerak.

Jamiyatda odatda qadriyatli-ratsional harakatlar ko'p uchraydi. Bunday harakatlar davomida harakat yo'naltirilgan ob'ekt o'zining qadriyatlaridan kelib chiqqan holda xulq-atvorini o'zgartiradi, ya'ni burch tufayli harakat qiladi. Misol uchun ota-onalar oldidagi burch, vatan oldidagi burch, farzand oldidagi ota-onalik burchi va h.k. Veberning fikricha, qadriyatli-ratsional harakatlarning "majburiyatlar"ga bo'ysunadi. Bunda individ jamiyatda o'rnatilgan qadriyatlar tizimiga butkul ishonadi va ularga amal qilishga intiladi. Ba'zan bu harakatlar individning o'zi uchun salbiy oqibatlarga yoki noqulayliklarga olib kelsa ham o'rnatilgan normalardan tashqariga chiqa olmaydi.

An'anaviy harakat – individning o'rganib qolgan, ko'nikmaga aylanib qolgan odatiy harakatlari to'plami. Ushbu harakatlar insonning jamiyatda qabul qilgan va o'zlashtirgan norma hamda qadriyatlari asosida shakllangan bo'lib, an'ana sifatida idrok etiladi.

Affektiv harakat – affekt holatida sodir etilgan harakat, qisqa muddatli jadal emotsional holat oqibatida unga ta'sir etgan tomonga nisbatan qilingan harakatlar to'plamidan iborat. Misol uchun g'azab yoki qattiq qo'rquv paytida affekt harakat sodir bo'lishi mumkin. Bunday harakatning asosini individning zudlik bilan qondirilishi kerak bo'lgan qasos, ehtiros yoki intilish kabi tuyg'ulari yotadi.

Veberning fikricha, an'anaviy va affektiv harakatlar odatda anglanmagan holatda individ tomonidan amalga oshiriladi. Chunki ularda anglanganlik elementlari va ratsional qarorlar xos bo'lmaydi. Shuning uchun bunday harakatlarni to'la ravishda sotsial harakat toifasiga kiritib bo'lmaydi.

Harakat o'zining tarkibiga ko'ra uch toifaga ajratiladi: reproduktiv harakat, sotsial inkor etish va sotsial ijodkorlik<sup>7</sup>.

Reproduktiv harakatlar – ma'lum sotsial institutning faoliyatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar. Misol uchun sotsial nazorat, an'analarga amal qilish, mehnat intizomini mustahkamlash va h.k. Sotsial inkor etish – jamiyat hayotining ma'lum elementlarini soddalashirishga, mo'tadillashtirishga qaratilgan harakatlar. Misol uchun mavjud bo'lgan kamchiliklarni tanqid qilish, deviant xulq-atvorning turli shakllariga qarshi kurash va h.k. Sotsial ijodkorlik – sotsial munosabatlarning yangi shakllarini yaratish va shu orqali jamiyat tafakkurini rivojlantirishni maqsad qilgan harakatlar. Misol uchun ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyati, mehnat guruhlaridagi ahloqiy-psixologik holatni yaxshilash va h.k.

Ko'zlangan maqsadiga etishish yo'liga ko'ra, barcha sotsial harakatlarni salbiy majburlov va ijobiy ishontirish turlariga ajratish mumkin. Salbiy majburlov – odatda buyruq va ta'qiqqlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ijobiy ishontirish esa

<sup>6</sup> Veber M. Osnovnie sotsiologicheskie ponyatiya // Izbrannie proizvedeniya: Per. s nem. / Sost., obsh. red. i poslesl. IO.N.Davidova; Predisl. P.P.Gaydenko. — M.: Progress, 1990. — S.602-643. — (Sotsiologich. misl Zapada).S.629.

<sup>7</sup> Sotsialnoe deystvie / [IO.A.Xarin, G.S.Filchi-kov, N.V.Ryabon i dr.]; Pod red. IO.A.Xarina. — Minsk: Nauka i texnika, 1990.S.24-25.

guruh yoki individning ma'lum harakatlarni o'z xohishiga ko'ra amalga oshishini ta'minlovchi ishontirish, iltimos, tushuntirish kabi vositalar asosida amalga oshirilib, tahdid va repressiyalarsiz bo'ladi.

Sotsial harakatlarning boshqa turdagi tasniflari ham mavjud. Misol uchun F.Znanetskiy<sup>8</sup>

Barcha sotsial harakatlarni ikki guruhga ajratgan: moslashish va opozitsiya (qarshilik). Birinchi guruhga olim tahdid va tazyiqlarsiz individ tomonidan kutilgan harakatlarning bajarilishi holatlarini kiritadi. Ikkinchi guruhga esa, aksincha, tahdid va tazyiqlar oqibatida amalga oshadigan harakatlarni kiritadi. Olimning fikricha, mazkur ikki turga ham taalluqli bo'lgan ayrim kam sonli sotsial harakatlar mavjud. Birinchi holatda individning harakati iltimos, taklif, qadriyatga yo'naltirilganlik hamda bo'ysundirish kabilar orqali amalga oshiriladi. Bu barcha jamiyatlarda kuzatiladigan va qo'llaniladigan holatlar sanaladi.

Tahdid asosida individ yoki guruhning harakatini o'zgartirish uchun F.Znanetskiy quyidagi holatlar qo'llanilishini ta'kidlagan: o'zini boshqalarga nisbatan taqqoslash; repressiya va qo'zg'olon; turli shakllarda namoyon bo'luvchi du Shmanlik; hamkorlik qilishni istamaslik hissidan qarshilikkacha. Olimning fikricha, akkomodatsiya (moslashish, ko'nish, tolerant bo'lish) va oppo'zitsiya oralig'ida jamiyatda individlar tomonidan egoistik kompromiss holati vujudga keladi.

Sotsial harakatlarni tadqiq qilish sotsiologiyaning asosiy vazifalaridan biri. Shu bilan birgalikda sotsial harakat va sotsial o'zaro harakatlarni bir – biridan farqlash lo'zim.

**3. Sotsial o'zaro harakat** – bir insonning boshqa insonga nisbatan amalga oshiriladigan harakatlar tizimi bo'lib, uning natijasida harakat amalga oshirilgan inson harakatning egasiga nisbatan o'z harakatini amalga oshirib, undan ham biror harakatni amalga oshirilishini kutadi. Buni individlarning ikki tomonlama bir-biriga qaratilgan va o'zaro kutilgan harakatlar natijasi sifatida baholash mumkin. Sxema tarzida buni quyidagicha tasqirlash mumkin: A tomonidan Bga nisbatan biror harakat amalga oshiriladi, B kutilgan harakatni Aga nisbatan bajargach, A ham Bga nisbatan kutilgan harakat javobini amalga oshiradi. Sotsial haraktda kamitda ikki indivi, ikki guruh yoki bir individ va bir guruh ishtirok etishi kerak. O'zaro harakatni harakatlar almashinuvi sifatida atash ham mumkin.

“Sotsial o'zaro harakatlar” tushunchasi “ Shaxslararo aloqalar<sup>9</sup>” yoki “muloqot qilish” tushunchalaridan kengroqdir. Chunki sotsial o'zaro harakatlarda shaxs jamiyatda mavjud bo'lgan sotsial norma va qadriyatlarni anglab etib, ular asosida real harakatni amalga oshiradi. Chiroqni o'chirishni so'rash kabi shaxslararo munosabatlar esa axborot almashish va unga nisbatan javob reaksiyasi sifatida baholanishi mumkin. Unda hech qanday sotsial kontekst yo'q.

Sotsial o'zaro harakat ob'ektiv va sub'ektiv tomonlariga ega. Ob'ektiv jihatdan bu o'zaro harakatlar insonlarga tegishli bo'lsada, ma'lum jihatdan ulardan

<sup>8</sup> SHubkin V.N. Vozrojdaroshayasya sotsiologiya i ofitsioznaya ideologiya // Rossiyskaya sotsiologiya shestidesyatix godov: V vospominaniyax i dokumenta. — SPb.: Russkiy xristianskiy gumanitarniy in-t, 1999. S.96-97.

<sup>9</sup> SHaxslararo aloqalar (munosabatlar) – bevosita iuzma-iuz munosabatga kirishuvchi yaxshi tanish insonlar o'rtasidagi munosabatlar yirindisi. Bunday munosabatlar faqat shaxsiy simpatiya va antipatiya, harakat e'ki axborotning kam miqdordagi almashinuvi asosida mavjud bo'ladi.



mustaqil bo'ladi va tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunadi. Sub'ektiv jihatdan esa sotsial o'zaro harakat individlarning o'zaro kutishlari oqibatida amalga oshirilganligi uchun ular tomonidan anglangan va ma'lum ma'noda rejalashtirilgan bo'ladi.

Shunday qilib, sotsial o'zaro harakat qo'yidagi elementlardan tashkil topadi:

- Ma'lum harakatlarni amalga oshiruvchi individ yoki sotsial guruhlar;
- Mazkur harakatlar natijasida jamiyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar;
- Jamiyat a'zolariga mazkur o'zgarishlarning ta'siri;
- Jamiyat a'zolari tomonidan javob reaksiyasining bildirilishi.

Sotsial o'zaro harakatlar sotsial aloqalarga o'xshab bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Undan tashqari sub'ektiv xohish asosidagi (bir tomonning Shaxsiy ehtiyoji tufayli) hamda murakkab tizimlardagi birgalikdagi hamkorlik natijasida (iqtisodiy, siyosiy tizimlarda) yuzaga kelgan sotsial o'zaro harakatlar mavjud. Ikkinchi holatda har ikki tomon o'z xohishi asosida emas, balki tizimdagi vazifasi nuqtai nazaridan o'z burchlarini bajaradi va o'zaro harakat amalga oshiriladi. Bunda o'zaro harakatning amalga oshirilishi majburiy va rejalashtirilgan xarakterga ega. Shu bilan bigalikda bunday holatda sotsial o'zaro harakat amalga oshirilsada, ularni amalga oshiruvchi tomonlar buni anglamasliklari ham mumkin. Misol uchun mudofaa vaziri harbiy harakatlarning boshlanishi to'g'risida e'lon qildi. U o'zi bilgan va bilimagan barcha harbiylarga nisbatan ta'sir ko'rsatdi.

Individ tomonidan anglanganlik yoki anglanmaganlik holatga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatda qadriyatlar asosida shakllanuvchi sotsial o'zaro harakatlar mavjud.

Insonlar o'rtasida vujudga keluvchi sotsial o'zaro bog'liqlik struktur-funksional va intensional bo'lishi mumkin<sup>10</sup>.

Struktur-funksional bog'liqlik A va B individ bitta struktura doirasid amal qilsa, sodir bo'ladi. Bunda A va Bning harakatlari o'zaro muvoffiq bo'lishi lo'zim, aks s'holda strukturadagi buzilishlarga sabab bo'ladi.

Intensional bog'liqlik – B o'z xohishiga ko'ra, Aning harakatlarini oldindan belgilab berishi tushuniladi. Bunda tashqi tomondan A birinchi bo'lib harakatni boshlagan bo'lsada, tagida Bning xohishi yotadi. Chunki Ada B uchun qadrlil bo'lgan biror qadriyat yoki xususiyat mavjud bo'ladi. Intensional bog'liqlik odatda jamiyatdagi ahloqiy normalar, an'analar va qadriyatlar tufayli vujudga keladi.

Sotsial harakat va sotsial o'zaro harakat bir qarashda o'xshash hodisalar bo'lsada, sodir bo'lishiga ko'ra farqlanadi. Sotsial harakatda bitta individ ishtirok etsa, sotsial o'zaro harakatda kamida ikkita individ ishtirok etishi lo'zim. Demak, sotsial o'zaro harakat ikki tomonlama yo'nalgan harakatlar almashinuvi jarayoni bo'lib, ikki va undan ortiq individ o'rtasida amalga oshadi. Sotsial o'zaro harakatda harakatga javob harakatning borligi namoyon bo'ladi. Sotsial harakatda esa individning harakati biror bir individga nisbatan yo'nalgan yoki yo'nalmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun sotsial o'zaro harakatda harakatning biror bir individga (narsa-buyumga emas) yo'nalganligi va javob reaksiyasi shartlari bajarilishi lo'zim.

---

<sup>10</sup> SHubkin V.N. Vozrojdaroshayasya sotsiologiya i ofitsioznaya ideologiya // Rossiyskaya sotsiologiya shestide-syatix godov: V vospominaniyax i dokumenta. — SPb.: Russkiy xristianskiy gumanitarniy in-t, 1999. S.102.

Biz kundalik hayotimizda ko'plab sotsial o'zaro harakatlarni amalga oshiramiz. Misol uchun uchrashganimizda bir-birimiz bilan salomlashib, qo'l siqishamiz, jamoat transportida yoshi keksalar, bo'lalar va ayollarga yo'l beramiz. Bularning bari sotsial o'zaro harakatning aktlari sanaladi. Ular alohida sotsial harakatlardan tarkib topadi. Ammo atrofdagi insonlar bilan birgalikda amalga oshirgan har qanday harakatimizni sotsial o'zaro harakat deb atayo'lmaymiz. Avtomobil yo'lovchini urib yuborish holati yo'l hodisasi sanaladi. Ammo haydovchi va yo'lovchi ikki yirik sotsial guruhlar vakillari sifatida mazkur hodisani o'z manfaati va nuqtai nazari orqali izohlab, tortishishni boshlagach, u sotsial o'zaro harakatga aylanadi. Haydovchining fikricha, yo'llar avtomobil qatnovi uchun qurilgan va yo'lovchilar uni istagan joyida kesib o'tishlari mumkin emas. Yo'lovchi esa o'zini shaharning asosiy vakili sifatida bilib, shaharlar avtomobillar uchun emas, inson uchun qurilganini isbotlashga urinadi. Mazkur holatda haydovchi va yo'lovchi o'zlarining sotsial statuslarini namoyon qilishmoqda. Ma'lumki, har bir statusning o'z huquq va burchlari doirasi mavjud. Haydovchi va yo'lovchining rolini bajarayotgan bu ikki inson yoqtirish yoki yoqtirmaslik asosidagi shaxsiy munosabatlarga kirishayotgani yo'q. Ular jamiyat tomonidan belgilangan o'zlariga tegishli sotsial statuslar doirasidan chiqmagan holda sotsial munosabatlarga kirishishmoqda.

Demak, sotsial o'zaro harakatlar sotsial harakat nomini olgan alohida aktlardan tashkil topib, status, rol, sotsial munosabatlar va belgilardan iborat.

Inson sotsial o'zaro munosabatlarga ma'lum maqsadni ko'zlab kirishadi. Misol uchun aldash, uru Shtirib qo'yish, kimningdir nafsoniyatigategish, o'ziga hayrixoh qilib olish va h.k. Mazkur maqsad sotsial aktning bajarilish strategiyasini belgilab beradi va u ma'lum ssenariy asosida bajarilganday tuyuladi. Masalan, boshliq, raqib, qo'shni, turmush o'rtog'i bilan turli maqsadlar va ularga mos bo'lgan sotsial o'zaro harakatlarni bajaramiz. Ammo inson har bir aniq sotsial o'zaro harakti uchun ssenariy yarata olmaydi. Chunki bunday harakatlar hayotimizda juda ko'p bajariladi. Shunchaki, inson hamisha o'z manfaatini ko'zlaydi va o'zi uchun qulay bo'lgan yo'lni tanlaydi.

**4. Sotsial o'zaro harakat tipologiyasi uni tashkil etuvchi sotsial harakatlar asosida uch turga ajratiladi:**

- Jismoniy harakat. Tarsaki tu Shirish, kitobni uzatish, qog'ozga yozish va h.k.
- Verbal yoki so'z orqali harakat. Assalomu alaykum, deb salomlashish, haqorat qilish, so'zda tashakkur bildirish va h.k.
- Ishoralar harakat turi sifatida. Jilmayish, tabassum qilish, ko'zni qisish, qo'l bilan zo'r qilib ko'rsatish va h.k.

YUqorida keltirilgan harakatlarning barchasiga inson tomonidan anglanganlik, ma'lum motivlarga asoslanganligi va o'zga shaxsga yo'naltirilganligi xususiyatlari xos bo'ladi. Mazkur harakatlarning uchtasi tashqi, ya'ni tashqi olamda namoyon bo'luvchi sotsial o'zaro harakatlarga aylanishi va misol bo'lishi mumkin.

Sotsial o'zaro harakatlar natijasida sub'ektlar o'rtasida sotsial munosabatlar vujudga keladi.

# 11-mavzu. SOTSIALIZATSIYA JARAYONLARI

## REJA

1. Sotsializatsiya tushunchasi
2. Sotsializatsiya jarayonlari
3. Shaxs sotsializatsiyalashuvi
4. Shaxs sotsializatsiyalashuvining ikki fazasi

1. “Sotsializatsiya” so’zi ijtimoiylashuv ma’nosini anglatadi. Sotsializatsiya jarayoni insonning jamiyatga qo’shilishi uchun jamiyatda mavjud bo’lgan va shakllangan hatti-xarakterlar, me’yorlar, qadriyatlar, madaniyat, din, tarbiya, bilim va malakalarni, urf-odatlarini o’ziga singdirib borishi va o’zlashtirishiga aytiladi.

Sotsializatsiya tushunchasi XIX asrning oxirida amerikalik sotsiolog F.Giddings va frantsuz mutafakkiri G.Tardlar tomonidan fanga kiritilgan edi. Buning zamirida ular «ijtimoiy muhit ta’sirida shaxsning Shakllanishi, insonning ijtimoiy tabiatning rivojlanish jarayonini» tushunishgan.

Sotsializatsiya murakkab jarayon hisoblanadi va insonning butun umri davomida sodir bo’ladi. Bu jarayon 2 davrga bo’linadi:

1. Adaptatsiya – Shaxsning jamiyatda mavjud bo’lgan voqelikka ko’nikishi yoki moslashishi;

2. Interiorizatsiya – Shaxsning o’z hoxishi, intilishi va irodasi orqali jamiyatga qo’shilishi.

Sotsiologiyada sotsializatsiya davrlariga yana 2 yondoshuv mavjud:

1-yondashuv – sotsializatsiya jarayoni 3 davrga bo’linadi:

1. Mehnatgacha bo’lgan davr.

2. Mehnat davri.

3. Mehnatdan keyingi davr.

2-yondashuv – sotsializatsiya jarayoni quyidagi davrlarga bo’linadi:

1-davr-go’daklik davri(1 yoshdan 4 yoshgacha)

2-davr-bolalik davri(4 yoshdan 10 yoshgacha)

3-davr-o’spirinlik davri(10 yoshdan 13 yoshgacha)

4-davr-o’smirlik davri(13 yoshdan 18 yoshgacha)

5-davr-mehnat davri

6-davr-mehnatdan keyingi-nafaqa davri<sup>1</sup>.

Umuman ijtimoiy muhit ta’siri ostida shaxsning Shakllanish jarayonini tasvirlash uchun «sotsializatsiya» tushunchasi XIX asr oxirida - paydo bo’ldi. Sotsializatsiya, deganda shaxsning o’z hayot mobaynida o’zi mansub bo’lgan jamiyatning ijtimoiy me’yorlari va madaniy qadriyatlarini o’zlashtirish jarayonini tushuniladi. «Sotsializatsiya» tushunchasi « Shaxsni tarbiyalash», « Shaxsni shakllantirish» tushunchalari bilan chambas bog’liq, biroq u kengpoq tushuncha bo’lib, insonga barcha mumkin bo’lgan ta’sirlarni qamrab olishga imkon beradi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Nikolaeva E.M. Sotsializatsiya lichnosti v sovremennom obshestve kak sinergeticheskiy fenomen/ E.M.Nikolaeva // Vest. Kazansk. texn. un-ta. -2013. -№1. S. 63-66.

Sotsializatsiyalashtirish bu — aniq bir bilimlar, qadriyatlar va me'yorlarni qabul qilish jarayoni, o'tgan avlodning tajribasi va ko'nikmalarini egallab, uni keyingi avlod Shaxsiga jamiyatning hayotida to'liq ishtirok etish uchun bera olish qobiliyatlari, shuningdek murakkab ijtimoiy jarayonda to'g'ri yo'l tanlab, siyosatda ongli tanlashni amalga oshirishdir.

M.Veber ta'kidlaganidek, ijtimoiy faollik uchun uch sifat muhim hisoblanadi: Shijoat, mas'uliyat va oldinni ko'ra bilish.

Sotsializatsiyalashtirishning bir necha izohiy jarayonlari mavjud. Ulardan eng ko'p tarqalgan sotsializatsiyalashtirish Shaxsning nazoratini rivojlantirish jarayoni sifatidagi qarashlardir. Bu talqin Z.Freyd<sup>3</sup> tomonidan ishlab chiqilgan va psixoanalizmning klassik g'oyalari bilan bog'liq. Bu nazariya asosida individ doimo jamiyat bilan ixtilof holatida bo'ladi. Chunki, jamiyat individning dunyoga kelgandagi xohish-istaklari, biologik (jinsiy) hissiyotlarni bug'ib keladi. Sotsializatsiyalashtirish jarayoni bundan buzg'unchi his va istaklarini jilovlash uchun xizmat qiladi. Biroq ularning ustidan jamiyatning nazorati shaxsning erkin faoliyatiga noqulaylik va ziddiyatlik olib kiradi. Bunda ular fikr erkinligini yo'qotadilar. Buning natijasida shaxs qo'rquv va asabiylik holatidan qochish maqsadida o'z-o'zini nazorat qilishiga to'g'ri keladi.

Bu talqin ch.Kuli<sup>4</sup> va J.Midning<sup>5</sup> ramziy interaksionizm nazariyasiga asoslangan. Ular inson bilan atrof muhitning turli xil o'zaro ta'siri asosida shaxs Shakllanadi deb hisoblashgan. Ch.Kulining fikricha, shaxs uni o'rab olgan dunyodagi kishilarning muloqoti asosida shakllanadi. YA'ni o'zining «Meni»ni tevarak atrofdagi ko'zgu orqali anglaydi.

Insonlar bunday o'zaro ta'sirlar natijasida shaxsiy «men»ni shakllantiradilar. O'zaro ta'sir jarayonida insonlar rag'batlarga emas, aksincha ularga ta'sir qiluvchi rag'batlar mohiyatiga o'z munosabatlarini bildiradilar. Boshqa insonlarning fikrni bayon qilishi, imo-ishoralari, hissiyotlari muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan bu qarash tarafdorlari shaxsga guruhiy ta'sir qilishga e'tiborlarini qaratishadi. Bu ularga shaxsni sotsializatsiyalashtirish maqsadida ijtimoiy tartib mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Bundan kelib chiqqan holda, tizimning maqsad va qoidalariga shaxsning ixtiyoriy ravishda bo'ysunishi, shuningdek mavjud ijtimoiy tizim bilan kelishuvga kelgan individ etuk hisoblanadi.

## **2. Sotsializatsiya jarayonlari**

Sotsializatsiyalashtirish jarayonlari avvalo ijtimoiy va siyosiy kuch, siyosiy tizim, aniq sinfiy, g'oyaviy, estetik va etik yo'nalishiga ega bo'lishini izohlash mumkin. Sotsializatsiyalashtirish mazmuni va mohiyati ko'p jihatlariga bog'liq. Bular: makromuhit (davr xarakteri, xalqaro munosabat, davlat, millat, sinf va boshqa ijtimoiy guruhlar, jamiyatning siyosiy madaniyati xarakteri); mikromuhit (institutsonal va nofarmal jamoa, maktablar, oilalar, alohida shaxslar); ichki genetik jihatdan bo'ladigan faktorlar; o'z-o'zini tarbiyalash.

<sup>2</sup> Romm M.V. Adaptatsiya lichnosti v sotsiume: Teoretiko-metodologicheskiy aspekt / M.V.Romm. Novosibirsk: Nauka. Sibirskaya izdat. firma RAN, 2012. - 275 s.

<sup>3</sup> Zigmund Freyd (1856-1939), avstriyalik psixolog. «Vvedeniya v psixoanaliz»

<sup>4</sup> Charlz Xorton Kuli (1864-1929) amerikalik sotsiolog. «Moya zerkalnaya teoriya».

<sup>5</sup> Djordj Gerbert Mid (1863-1931) - amerikalik sotsiolog, psixolog va faylasuf. «Razum, YA i obshestvo» (1934) va «Filosofiya dvijeniya» (1938).

To'g'ri, sotsializatsiyalashtirishni siyosiy va nosiyosiy omillarga bo'lish mumkin. Siyosiy omillarga: davlat tuzulmasining tili va xarakteri, partiyalar, harakatlar kiradi, nosiyosiy omillarga: oila, tengdoshlar guruhlari, o'quv yurtlari, ish xona, madaniyat, san'at va milliy urf-odatlar, ommaviy axborot vositalari kiradi. Real hayotda bu ikki omil bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, odamlarga ko'p tarafli va omilli murakkab ta'sir o'tkazadi.

Sotsializatsiyalashtirish jarayoni quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi<sup>6</sup>:

<b>Muassasalar</b>	<b>Muloqot guruhlari</b>	<b>Bosqichlar</b>	<b>OAV</b>
Oila	Qarindoshlar	Bolalik	Nutq
Maktab	Tanishlar	O'smirlik	Nashr
OTM	Qiziqishlar	YOshlik	Televidenie
Korxonalar	Hamkasblar	Etuklik	Internet

Ilk sotsializatsiyalashtirish bosqichida, ya'ni bolalikda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

Birinchi holat, siyosatlashtirish, ya'ni bolalar tashqi hokimiyat (oila ustidan) mavjudligi haqida anglashi.

Ikkinchi holat, shaxs sifatida shakllantirish, ya'ni bolalar tomonidan siyosiy hokimiyatni shaxslar timsolida ko'rilishi.

Uchinchi holat, mutloqlashtirish, ya'ni siyosiy arboblardan faqatgina ijobiy xislatlarni bog'lash.

To'rtinchidan, institutlashtirish, bolalar ongiga hokimiyat tasavvuri shaxssiz, qiyofasiz namoyon bo'lishida burilish.

Sotsializatsiyalashtirishning keyingi bosqichi 16-30 yoshga to'g'ri keladi. Rivojlanishning bu davrida ega bo'ladi. Bu narsa ularning siyosatga munosabatini o'zgartiradi. Shu bilan birga siyosat sohasida chuqur bilimlarni institutda, keyinchalik kasbiy faoliyatlarida oladilar.

Sotsializatsiyalashtirish katta yoshda ham davom etadi. Ularning ijtimoiy-siyosiy, ahloqlariga asosiy omillardan tashqari ko'proq ularning hayotiy tajribalari, farzandlari, va saqlanib qolgan siyosiy qarashlari ta'sir qiladi. Ularning jamiyat hayotidagi o'zgaruvchanlik va ziddiyatlilikni chuqur tahlil qila bilib, o'zlarining siyosiy qarashlari va xulqlariga kerakli o'zgartirishlar kirata oladi<sup>7</sup>.

Ijtimoiy omillar nafaqa yoshidagi insonlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'pgina nafaqaxo'rlar jamiyat hayotidagi minimal darajada qatnashganlaridan qoniqish hosil qiladilar. Bunda ular siyosiy hayot tajribalarini yoshlarga ulashadilar. Ya'ni, jamiyatda doimiy ravishda tabiiy almashinuv jarayoni ketaveradi. Ushbu jarayon doimiy ravishda o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida mamlakatning taraqqiyotini belgilovchi yo'llarni axtaradi.

Umuman olganda, kasb faoliyati va ta'lim tizimi shaxsning sotsializatsiyalashuvi jarayonining ikki asosiy sohasi bo'lib, shaxsning kattalar dunyosiga muttasil kirib borishlarini, jamiyatdagi ustuvor qadriyatlarini egallashlarini belgilaydi. Boshqacha aytganda oila, davlat va jamiyat shaxsning kasb-hunar egallashi va bilim olishidan doimiy manfaatdordir. Zotan, bu

<sup>6</sup> Petrasok O. «F.Giddings. «Lichnost i politika» – Donetskii ekonomiko-gumanitarniy institut, 2013.

<sup>7</sup> Philips L. Human adaptation and his failures. New York, 1998.

masalalarda shaxs qanchalik ushbu ijtimoiy institutlar ko'magiga zoriqsa, uning xatti-harakatlari shunchalik kutilmagan bo'ladi.

Sotsializatsiyalashtirishning bunday tushunilishining nazariy fundamenti T.Parsonsn<sup>8</sup> strukturaviy funksionalizmi hisoblanadi. Unga ko'ra, har qanday fundamental g'oyaning tagida funksional reallik va tashkiliy maqsad yotadi. Jamiyatning rivoji ijtimoiy dinamikaga, madaniyatning rivoji esa jamiyatning muqim rivojlanishiga bog'liq. Jamiyat undagi ijtimoiy institutlarning doimiy muvozanati saqlangan holdagina taraqqiy etishi mumkin. Bunda shaxsning, ya'ni individning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Individ boshqa insonlar bilan o'zi o'zlashtirgan ijtimoiy rollar asosida o'zaro munosabatda bo'ladi (o'qituvchi roli, farzand roli, yo'lovchi roli, er roli v. b). Ijtimoiy rol individdan Shu rolga mos keluvchi xulq-atvorni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, individ ijtimoiy tizimga rolni egallash bilan kirish nazarda tutiladi. Bunday izohga ko'ra sotsializatsiyalashtirish individning jamiyatda mavjud hukmron qadr-qimmat va xulq-atvor me'yorlari bilan moslashish jarayoni bo'lib xizmat qiladi.

Bixeviorizm<sup>9</sup>, ya'ni hulq-atvor psixologiyasi an'analarda, ya'ni ijtimoiy o'rganish sifatida sotsializatsiyalashtirish yo'nalishlarining keng aspektlarida ko'riladi. Sotsializatsiyalashtirish masalasi hulq-atvor terminlarida ta'riflanib, unda mukofot va jazo yordamida inson hulq-atvorini doimiy modifikatsiya qilish mumkinligi talqin qilinadi (formula «rag'bat-reaktsiya»), ya'ni, insonlarning har xil shaklda - pul, maqtov, havas, sevgi va boshqa rag'batlantiradigan hulq-atvorga moyilligi inobatga olinadi.

**3. Shaxsning sotsializatsiyalashuvi, ya'ni ijtimoiy Shakllan Shi va rivojlanishi** bu juda murakkab, ko'p qirrali jarayondir, u ob'ektiv muhit ta'siri ostida ham, maxsus tashkil etilgan va ongli yo'naltirilgan tarbiya ishlari ta'siri ostida ham yuzaga keladi. Sotsiologiya fani sotsializatsiyalashuvni:

birinchidan, shaxsning insoniyat tomonidan yaratilgan madaniyatni o'zlashtirish mexanizmi sifatida qaraydi. Sotsializatsiyalashuv Shaxsni tarbiyalashga nisbatan kengroq ma'no kasb etadi. Tarbiyalash tashkil etilgan, maqsadli yo'naltirilgan, oldindan programmalashtirilgan sotsial faoliyatdir. Sotsializatsiyalashuv esa bu faoliyat bilan bir qatorda yana iqtisodiy, siyosiy, kundalik turmush va boshqa shu kabi shaxsga stixiyali ta'sir ko'rsatuvchi ob'ekt faktorlarning sotsializatsiyalovchi ta'sirini ham o'z ichiga oladi<sup>10</sup>.

Sotsializatsiyalashuvning jamiyatni «tashkil etuvchi mexanizmi» sifatidagi mohiyatini shaxsni bir vaqtning o'zida ham sotsial ta'sirining ob'ekti, ham sotsial faoliyat sub'ekti sifatida qaralganda ochish mumkin. Bu birinchi navbatda shaxsning muhit bilan o'zaro aktiv faoliyati jarayonidir. Bu o'zaro faoliyat bir tomondan, muhit tomonidan Shaxsga uning rivojlanish jarayoni yo'nalishiga hal

<sup>8</sup> Talkiott Parsons (1902-1978) amerikalik sotsiolog, «Huquq va ijtimoiy fan to'g'risida» (1947), «Ijtimoiy fan va etikaning o'zaro munosabatlarining ayrim aspektlari» (1946), «Psixanaliz va ijtimoiy fanlar», (1950), «Ijtimoiy inson haqidagi fanga hissa», «Psixologiya va sotsiologiya» (1954), «Ijtimoiy tizim va shaxs» (1964) ilmiy to'plamlari muallifi.

<sup>9</sup> Bandura A., Walters R. Social Learning and Personality Development. - N.Y., 1994; Jon Uotson „Psixologiya s tochki zreniya bixeviorista» va «Povedenie kak predmet psixologii» – M-1998.

<sup>10</sup> SHitov S.B. Sotsializatsiya individa v protsesse distantsionnogo obucheniya // Vestnik Universiteta Rossiyskoy akademii obrazovaniya. -2013.-№2.-S. 89-93.

qiluvchi ta'sir ko'rsatilishida, namoyon bo'lsa, ikkinchi tomonidan Shaxsning muhitga aktiv kirib borishi va bu jarayonda mukammallashib, o'z hayotiy pozitsiyasini, qadriyatli yo'nalishini belgilab olishida namoyon bo'ladi.

Shaxsning sotsial muhit bilan o'zaro faoliyati bir necha etapda o'tadi: individlarning birlamchi sotsializatsiyalashuvi (individual tajriba orttirish, sotsial-shartlangan reaksiyalarni ishlab chiqish).

Individning sotsial jamoa bilan o'zaro faoliyati (guruh ichidagi o'zaro hattiharakat va b.), va nihoyat, individning butun jamiyat bilan o'zaro faoliyati (sotsial adaptatsiya, individual hulq-atvor motivatsiyasida sotsial ko'nikmalar va b.).

«Sotsial muhitning» shaxsga ta'siri jarayoni ko'p qirralidir, chunki, u sotsial sistemaning barcha tomonlari, jarayonlarining majmuasini ifodalaydi: moddiy elementlar, individni o'rab turgan, o'z konkret sotsial roli, pozitsiyasi, qarashlari va o'rganishlariga ega bo'lgan odamlar, individ tomonidan o'zlashtiriladigan, qabul qilmaydigan (yoki individ tan olmaydigan, qabul qilmaydigan) sotsial hulq-atvor normalar, shuningdek, jamiyatda obektiv mavjud bo'lgan sotsial imkoniyatlar, sotsial «ko'nikmalar», talablar strukturasi.

Individlarni tarbiyalash va ularning kundalik turmushining sotsial Shart-sharoitlarni yaxshilash shaxsning sotsial muhit bilan o'zaro faoliyati jarayonining maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvini bildiradi. Bu o'zaro faoliyatning muhim tarkibiy qismi qilib shaxs va uni o'rab turgan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni olish tizimi.

Sotsializatsiyalashuvda mafkura uni o'qitish tizim muhim o'rin tutadi. U bir tomondan, g'oyalar, qarashlar, kontseptsiyalarni ommalashtirish va «ist'emol qilish» o'z ichiga oladi, bular asosan ommaviy axborot vositalari, maktablar va boshqa mafkuraviy institutlar tomonidan amalga oshiriladi.

Sotsializatsiyalashuvda ijtimoiy etalonlar tizimi ham o'ziga xos o'ringa ega. Ularga sotsial normalar, baholovchi mezonlar, urf-odatlar, an'analar va boshqalar kiradi. Ular shaxsning jamiyatga, sinfga, kollektivga oila va boshqalarga nisbatan majburiyatlarini belgilaydi, uning hulq-atvorini boshqaradi. Bunda hulq-atvorning majburiy va mumkin bo'lgan tipik variantlarini aks ettiruvchi sotsial normalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy etalonlar tizimida baholovchi kriteriyalar – siyosiy, huquqiy, estetik, pedagogik va bu o'ziga xos ahamiyatga ega. Ular individual emas, balki umumiy xarakterga ega normalardan farqli o'laroq ular majburiy hulq-atvorni belgilamaydi, balki amalga oshirilgan yoki mumkin bo'lgan hulq-atvorning umumiy xarakteristikasini tashkil etadi. Masalan, san'atning baholovchi kriterialari tipik Shaxsning badiiy obrazi orqali ko'rinadi va shu obraz orqali shaxsga real ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning sotsial mavqei, roli va funktsiyalari tizimi haqida gapiradigan bo'lsak, ular Shaxsning sotsial aloqalar va munosabatlar sistemasida tutgan o'rnining ko'rsatkichlari sifatida shunga mos sotsial pozitsiyalarni shakllantiradi, sotsial sistemaning turli sohalardagi o'z hayotiy faoliyati jarayonida hulq-atvor tajribasini o'zlashtirish usuli va xarakteriga katta ta'sir ko'rsatadi.

Insonning ijtimoiylashuv va tarbiya asosidagi shaxsga xos xususiyatlarining shakllanish jarayonini qator ob'ektiv va sub'ektiv faktorlar bilan asoslash mumkin:

1) sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar; 2) sotsial yo'nalishlar va pozitsiyalar; 3) hulq-atvorni strategik tashkil etish; 4) sotsial aktivlik;

Sotsial ehtiyojlar va qiziqishlar tizimi, ilgari aytib o'tganimizdek, shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi asosini tashkil etadi. Ehtiyojlar inson faoliyatining va hulq-atvorining birlamchi, asosidir, ularni yuzaga keltiruvchi kuchdir. Sotsializatsiyalashuv jarayoni jamiyatning hamda shaxsning o'zining ob'ektiv va qiziqishlarini anglab etishda, ularni ijtimoiy ahamiyatga ega hulq-atvor motiviga aylantirishda, ularga nafaqat tashqi zarurat yuzasidan, balki ichki ishonch yuzasidan ham rioya qilishda o'z aksini topadi<sup>11</sup>.

Shaxsning sotsial yo'nalishi va dunyoqarashi sistemasiga programmalar, maqsadlar, ishonch-e'tiqodlar va baholovchi kriteriyalar yig'indisi kiritiladi. Ular Shaxsning afzalroq va majburiy fe'l-atvorini belgilaydi. Dunyoqarash shaxsning mavqeidan kelib chiqadi va uning tashqi dunyoga ichki dunyoga ichki sub'ektiv munosabatini bildiradi. U tanlash xususiyatiga ega va shaxsning u uchun tabiiy bo'lgan masalalarga ustunroq turuvchi munosabatini boshqarishga, fe'l-atvorini baholashga va ob'ektiv sotsial voqelik bilan aktiv munosabat o'rnatishga ega.

Fe'l-atvorni ichki strategik tashkil etish tizimini (ya'ni maqsadlarga erishish, umumiy g'oyalar va dunyoqarash printsiplarga ergashish) ijtimoiylashuvining asoslovchi mexanizmlarini harakatga keltirish «vositasi» sifatida qarash mumkin. U bir tomondan shaxsning ehtiyojlari qiziqishlari orientatsiyalari /yo'nalish/ va pozitsiyalari /dunyoqarash/ va ikkinchi tomonda uning aktivligi o'rtasida «ko'prik» sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim tufayli ma'lum bir ehtiyojlar, talablar va ob'ektiv Shart-sharoitlarga mos keluvchi hatti-harakatga o'tiladi<sup>12</sup>.

Ijtimoiylashuvning Shaxsga xos tizimlari konkret – tarixiy xarakterga ega va shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni mohiyatini ochib beruvchi ijtimoiy munosabatlar tipi va xarakteriga bog'liq. Agarda jamiyatda uning a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, orientatsiyalari va fe'l-atvorining merkantil yo'nalishi hukmron bo'lsa, u holda odamlarning hohish va intilishlarida shaxs ijtimoiylashuvining asosiy mohiyati sifatida qaraluvchi qadriyatli–ehtiyojli orientatsiyasi, individualizm «qadriyat»lari ustunroq turadi.

Bozor munosabatlariga o'tish yo'lidagi mulkchilikning turli ko'rinishlarida, tadbirkorlikning rivojlanishida, shuningdek, xalq ma'naviyatining tiklanishida insonga o'z sotsial tabiatining ko'rsatishga, jamiyatning aktiv a'zosi sifatida sotsial funktsiyalarini bajarishga yordam beruvchi mutlaqo yangi ijtimoiylashuv tipi uchun ob'ektiv asoslar yuzaga kelmoqda.

Demak, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon ijtimoiylashuv deb ataladi. Individning sotsial tashkilot elementlar bo'lishi qay tarzda ro'y berishidan, bir tomondan, sotsial tashkilotning Shaxsga ta'sir etishi orqali qobiliyatini shakllanishi, ikkinchi tomondan, shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi qobiliyatining Shakllanishiga bog'liqdir.

<sup>11</sup> . Rozum S. I. Psixologiya sotsializatsii i sotsialnoy adaptatsii cheloveka. M.: Rech, 2014. - 365 s.

<sup>12</sup> Ozerov A.E. Sotsializatsiya cheloveka i bazovie potrebnosti lichnosti // Sotsialno-gumanitarnie znaniya. 2010. - № 3. - S. 327-334.



Shaxsning sotsializatsiyalashuvi jarayonini ikki bosqichga, ya'ni sotsial adaptatsiya va sotsial interiorizatsiya bosqichlariga ajratish mumkin.

Sotsial adaptatsiya individning sotsial Sharoitlarga, funktsiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlarga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishi bosqichidir. Sotsial adaptatsiya jarayoni asosan oiladan boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida o'z aksini topadi. Shu sababli individning Shaxs sifatida shakllanishida oila muhim rol o'ynaydi.

Sotsial interiorizatsiya sotsial norma va qadriyatlarning individning ichki dunyosiga kirishishi jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi. Ko'pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi tashqi ta'sir ob'ekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va ungi beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi. Ijtimoiylashuv shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyatchi sifatida o'zining ham, ijtimoiy hayotning ham Sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs – sotsial ta'sirlanishning ob'ekti va sub'ektidir. Sotsializatsiyalashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sotsial faoliyati ko'rsatishi uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Individ faoliyat qiluvchi mavjudotdir, u tashqi muhitga shunchaki, javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham tashqi muhitning ob'ektiv qonuniyatlarni, ham inson sifatidagi o'zining taraqqiyot va faoliyati qonuniyatlarini anglaydi va bu anglash asosida o'zining faoliyatini boshqarish faqat ob'ektiv va sub'ektiv qonuniyatlarni bilishini emas, balki shu qonuniyatlar elementlarining ma'lum Sharotidagi shakl va xususiyatlarini ham bilishni taqazo qiladi.

Shaxslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlang'ich nuqtasi ma'lum ehtiyoj va manfaatlarni yuzaga keltiruvchi ob'ektiv hayot Sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko'pginadir, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsni moddiy va ma'naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar Shaxsning tashqi muhitga ob'ektiv bog'liqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyati ehtiyojlarni qondirish Shakli sifatida qaralishi, ob'ektiv Sharoitlarning in'ikosi va ularni qondirishning real imkoniyatlarni anglash sifatida qaralishi mumkin, ehtiyojlarning ikki ko'rinishi farqlanadi: tabiiy va jamiyat tomonidan paydo bo'lingan ehtiyojlar, ya'ni sotsial ehtiyojlar.

Jamiyat va shaxs maqsadlari orasidagi bog'lovchi u yoki bu sotsial tizim bo'lishi mumkin. Demak:

Shaxsning sotsializatsiyalashuvi deb, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli, tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayonga aytiladi.

Shaxsning (individning) sotsial tashkilot elementi bo'lishi 2 muhim jihatga bog'liq: 1) sotsial tashkilotning shaxsga ta'sir etishi bilan qobiliyatining shakllanishiga va 2) shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi bilan qobiliyatining shakllanishiga bog'liq.

#### 4. Shaxs sotsializatsiyalashuvning 2 fazasi mavjud<sup>13</sup>:

1. Sotsial adaptatsiya (moslashish). Bunda individning sotsial Sharoitlarga, funktsiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlarga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishdir. Sotsial adaptatsiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar Shaxsning sotsializatsiyalashuvida o'z aksini topadi. Shu boisdan individning Shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi.

2. Sotsial interiorizatsiya, ya'ni sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi, Ko'pgina nazariyalarda shaxsning sotsializatsiyalashuvi, tashqi ta'sir ob'ekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina sotsializatsiyalashuv yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; Shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Sotsializatsiyalashuv Shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyatchi sifatida o'zi va ham ijtimoiy hayotining, hamda sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs sotsial ta'sirlanishning ob'ekti va sub'ektidir. Sotsializatsiyalashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sotsial faoliyat kursatish uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Individ faoliyat qiluvchi mavjuloqdir. U tashqi muhitga shunchaki javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham inson sifatidagi o'zining taraqqiyot va faoliyati qonuniyatlarni angalaydi va anglash asosida o'zining sotsial faoliyatini belgilaydi. Shaxs tomonidan o'z faoliyatini boshqarish faqat ob'ektiv va sub'ektiv qonuniyatlarni bilishgina emas, balki shu qonuniyatlarni, uning elementlarini, xususiyatlarini ham bilishni taqozo etadi.

Shaxslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlang'ich nuqtasi ma'lum ehtiyoj va manfaatlarni yuzaga keltiruvchi ob'ektiv hayot Sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko'p, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsning moddiy va ma'naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar Shaxsning tashqi muhitga ob'ektiv bog'liqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyat ehtiyojlarni qondirish Shakli sifatida qaralishi ob'ektiv Sharoitlarning in'ikosi va ularni qondirishning real imkoniyatlarini anglash sifatida qaralishi mumkin<sup>14</sup>.

Ehtiyojlarining 2 ko'rinishi mavjud: 1) tabiiy va 2) jamiyat tomonidan paydo qilingan ehtiyojlar.

1) Tabiiy ehtiyojlar sifatida kishilarning kundalik ehtiyojlari: ovqat, kiyim, turar-joy va boshqalar tushuniladi.

2) Sotsial ehtiyojlar esa odamning mehnat qilish ehtiyoji, sotsial aktivligi, ruhiy madaniyati, ya'ni nima ijtimoiy hayot mahsuli shunga bo'lgan ehtiyojdir. Tabiiy ehtiyojlar asos bo'lib, ularda sotsial ehtiyojlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va qoniqtiriladi.

<sup>13</sup> Roshka A. Svoboda, sotsializatsiya i bezopasnost lichnosti // Obshestvo i ekonomika. 2010. - № 7-8. - S. 19-41.

<sup>14</sup> Wentworth W.M. Context & understanding: an inquiry into socialization theory.-N.Y., 1980.

Shaxsning ijtimoiylashuv davri: quyidagilar asosida kechadi:

1) Bolalik:

- agentlar va ijtimoiylashuv turlari.

2) Ota-onalik:

- otalar va bolalar: ikki dunyo;

- «otalar va bolalar» munosabatlarining mutanosibligi.

3) O'spirinlik:

- qadriyatlar parallel tizimi.

4) Balog'at yoshi:

- voyaga etgan inson maqomining asosiy mezoilari;

- voyaga etganlar - Shaxs ijtimoiylashuvining faol payti.

5) Keksalik:

- ijtimoiylashuv ushbu davri maqomi va muammolar.

Ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy fe'l-atvor mexanizmlari:

1) Faoliyat turlari.

2) Ehtiyojlar:

- tabiiy ehtiyojlar;

- biologik ehtiyojlar;

- ijtimoiy ehtiyojlar.

3) Ijtimoiy faoliyatni asoslovchi mexanizmlar:

- ehtiyojlar;

- qadriyatlar;

- manfaatlar va ularning o'zaro ta'siri;

4) Ijtimoiy nazorat.

5) Sanktsiyalar.

6) Ijtimoiy buyruq.

7) O'z-o'zini nazorat.

8) Tashqi nazorat.

9) Jamoatchilik fikri.

10) Deviant (jinoiy bo'lmagan) fe'l-atvor.

11) Delinkvent (jinoiy) fe'l-atvor.

12) Shaxsning muhim ijtimoiy-psixologik xislati - o'z-o'zini anglash kabilardir.

Shaxsning siyosatni tushunishi va unda mustaqil ishtiroki, unda bir qator siyosiy, malaka, ko'nikma va madaniyati mavjudligini namoyon qiladi. Bular unga siyosiy sub'ekt sifatida, turli siyosiy kuchlarning o'yiniga tushib qolmasdan, o'zining siyosiy rollari va vazifalarini effektiv bajarishga yordam beradi. Insonlar siyosiy va madaniyat bilan dunyoga kelmaydilar, buni ular hayotlari mobaynida egallaydilar. Xuddi shuni siyosiy sub'ekt sifatida guruhlarga nisbatan ham aytish mumkin. Aniq bir jamiyatga xos va siyosiy rol hamda vazifalarni bajarishga yordam beruvchi, shu jamiyat, hamda siyosiy sistemaning barqarorligini ta'minlovchi siyosiy madaniyatning norma va boyliklarini alohida shaxs yoki guruh tomonidan o'rganish jarayoni siyosiy sotsializatsiya,<sup>15</sup> deyiladi.

<sup>15</sup> SHestopal E.B. Lichnost i politika. Kriticheskiy ocherk sovremennix zapadnix kontseptsiy politicheskoy sotsializatsii / E.B.SHestopal. M.: Misl, 2011. - 203 s.

Siyosiy sotsializatsiya tushunchasi XX asrning 50-60 yillarida shakllandi. Siyosiy tizimning asosiy amaliy vazifalaridan biri bu siyosiy taraqqiyotning qulayligini ta'minlashga va avlodlar almashinuvi jarayonida jamiyatning barqarorligini saqlashga qodir muvaffaqiyatga siyosiy sotsializatsiyaning mexanizmlarini yaratishdir. Buning echimi sifatida, individning siyosiy maqsad va boyliklarni o'ziga yig'ishi va shaxsiyatida namoyon bo'lishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: jamiyatdagi hukmron doiralarning stereotiplarini sust qabul qiladi yoki ular bilan birgalikda faol ish yuritadi. Siyosiy sotsializatsiya taraqqiyotining mohiyati aniq bir jamiyat hokimiyati va individning o'zaro munosabatlari tabiatiga bog'liq. Xuddi shundan siyosat Shunoslikda mavjud kontseptsiyalar doirasidagi izohlar mazmuni kelib chiqadi.

Siyosiy sotsializatsiya individ tomonidan o'zining siyosatga qo'shiluvini ta'minlovchi siyosiy bilimlarni, qadriyatlarni, me'yorlarni, qoidalarni, xatti-harakat odobini o'zlashtirish jarayonidan iboratdir.

XX asr 90-yillarning boshlarida siyosiy sotsializatsiya jarayoniga hokimiyat muassasalariga ishonchning yo'qolishi, ularni siyosatida shaxsan qatnashishni istamaslik, buzg'unchilik, siyosiy norozilikning qaporuvchilik usullari katta ta'sir ko'rsatib keldi. Rasmiy siyosat ko'pincha ko'pchilik kishilar uchun ma'naviy tayanch bo'lmay qolgan edi.

Turmush tarzidagi, ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar Shaxs mavqeini ancha murakkablashtirdi. Iqtisodiy jarayon xarakterida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangi texnologiyalarning joriy qilinishi jiddiy o'zgarishlarga olib kela boshladi. O'tmishda siyosiy sotsializatsiya ikki tamoyil qarama-qarshiligi asosida kechdi:

1) Shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga, uning siyosatda faol qatnashishiga jiddiy ijtimoiy ehtiyoj borligi ma'lum bo'ldi.

2) Ikkinchi tomondan inson hokimiyatdan, uning tashkilotlaridan siyosiy begonalashuvga olib kelgan edi<sup>16</sup>.

Siyosiy sotsializatsiyalashtirish g'oyasi «sotsializatsiya» tushunchasi analogi sifatida vujudga kelgan. Natijada sotsializatsiyalashtirish aniq bir jamiyatning yangi avlodi tomonidan ilm, imon, tartib va qoidalarni o'zlashtirish jarayoni deb qarala boshladi. Bu qarashlar ularning ijtimoiy o'rinlariga mos kelgan holda jamiyatning saqlanishi va rivojlanishini ta'minlar edi. Ammo turli ilmiy maktab va yo'nalishlar sotsializatsiyalashtirish mexanizmlari har xil xususiyat va mohiyatlariga o'z diqqat e'tiborini qaratdi. Oila, maktablar, madaniyat, ommaviy axborot vositalari shular jumlasidandir. Bu sotsializatsiyalashtirishni mantiqan va jarayon sifatida tushunishga ta'sir ko'rsatdi.

Jamiyatning serqirra rivojlanishi, dunyodagi globallasuv jarayoni undagi konflikt holatlar, uni ijtimoiy o'zgarishiga sabab bo'ladi. R.Darrendorf<sup>17</sup> va L.Kozer<sup>18</sup> empirik tahlillar orqali serqirra jamiyatda yoshlarni klassifikatsiya qilish ham murakkab, undagi yoshlar sotsializatsiyalashuvi muammolari jamiyatdagi raqobat va kurashlarga bog'liq degan falsafiy metodologik xulosani berishadi.

<sup>16</sup> Wentworth W.M. Context & understanding: an inquiry into socialization theory.-N.Y., 1980.

<sup>17</sup> Ralf Darrendorf Homo Sociologicus // Tropi iz utopii. M.: Praxis, 2002

<sup>18</sup> Lois Alfred Kozer, (Coser, Lewis Alfred) (1913-2003), Funktsii sotsialnogo konflikta M.: Ideya-Press, Dom intellektual. knigi, 2000.

Yoshlar bugungi siyosiy sotsializatsiyalashuvning nafaqat sub'ekti, balki uning muhim qismi hisoblanadi. «Jamiyat taraqqiyotida ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari ijtimoiy munosabatlarni bog'lovchi asosiy kuch hisoblanadi. Munosabatlardagi har qanday yangilanishlar (inson, harakat, ishlab chiqarish) uning tizmiy o'zgarishiga ta'sir etadi. Bu ijtimoiy jarayonni bog'lovchi qismi yangi kuch va yangicha munosabatdir», deydi J.Sartr,<sup>19</sup> - Shu bilan bir qatorda «yoshlar» tushunchasining ma'nosi uning individ sifatida ijtimoiy voqeilik Sharoitida o'zgaruvchanligida, ya'ni yoshlar ekzistentsiyasidadir<sup>20</sup>, bunda ijtimoiy darajaga chiqarilgan inqilobiy tajribaning siyosiy jarayonga ulanishiga bog'liq.»

G'arbiy bo'lmagan taraqqiyot jamiyati siyosiy sotsializatsiyalashtirishning ixtilofli turida namoyon bo'ladi. Ko'pchilik aholining juda kambag'alligi, nasl, avlod-ajdod, qalbida boyliklariga individning ergashishi turli xil madaniyat egalari va hukumat orasidagi kelishuvni qiyinlashtiradi. Bunday jamiyatlarda madaniyatning har xilligi siyosiy zo'ravonlikni ko'chaytiradi. Individ tomonidan joylardagi siyosiy hayot boyliklari va me'yorlarini o'rganish boshqa siyosiy submadaniyat egalari bilan bo'ladigan kurashda amalga oshirilgan va oshirilmoqda. G'arb mualliflari yana siyosiy sotsializatsiyalashtirishning gegemon turini ko'rsatadilar. Bu turda insonning siyosatga kirib kelishi biror-bir sinf boyliklarini (masalan: burjuaziya yoki proletariat), aniq bir dinni (masalan: islom) yoki siyosiy g'oyani (masalan: kommunizm, fashizm yoki liberalizm) tan olishi bilan ro'yobga chiqadi. Siyosiy sotsializatsiyalashtirishning bu turi boshqa boyliklarni tan olmaydigan berk siyosiy tizimga xosdir. Siyosiy sotsializatsiyalashtirish xuddi shunday tarzda sobiq sovet davrida Rossiyada, sotsialistik tizim mamlakatlarida va ba'zi Osiyo, Afrika mamlakatlarida amalga oshirilgan.

Alohida qiziqishni o'tish davridagi jamiyatlarda shaxsning siyosiy hayotga kirib kelishi uyg'otadi. Bunday jamiyatlarga misol qilib, Rossiyani olish mumkin. Bu erda siyosiy me'yor va qadr-qimmatlarning me'yorsizligi bilan xarakterlanadi, ya'ni anomiya<sup>21</sup>.

### **Nazorat savollari:**

1. Sotsializatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Sotsializatsiya tushunchasini kim birinchi bo'lib o'rgangan?
3. Shaxs sotsializatsiyasi fazalari nimalardan iborat?
4. Siyosiy sotsializatsiya nima?
5. Sotsializatsiya jarayonlari nimalardan iborat?
6. Sotsial interiorizatsiya nima?

<sup>19</sup> Jan-Pol SHarl Emar Sartr (1905 - 1980) — frantsuz faylasuf-ekzistentsialisti, ëzuvchi, dramaturg va esseist. J.P.Sartr «Ekzistentsializm — eto gumanizm.» M.: Izd-vo inostr. lit., 1953

<sup>20</sup> Ekzistentsializm - (lot. exsistentia - yashamoq) ëki yashash falsafasi, XX asrning boshlarida vujudga kelgan falsafiy oqim. Bosh maqsadi – inson borligiga ëtibor qaratish. Uning yashashi, qayrurish, qo'rquv, qat'iyatlik, vijdon, kurash, o'lim kabi holatlarning bir biriga chambarchas borliqligini ko'rsata bilish. Namoëndalari K.YAspers, G. Marsel, N. A. Berdyaev, L. SHestov, M. Xaydegger, J. P. Sartr, A. Kamyu.

<sup>21</sup>Robert Merton 1938 yilda chop etgan «Sotsialnaya struktura i anomiya» maqolasida anomiya, bu — «madaniyat» bilan «ijtimoiy tizimlar» o'rtasidagi kurash deb izoh beradi.

7. Siyosiy sotsializatsiya nechta tamoyil qarama-qarshiligi asosida kechdi?

## 12-mavzu. SOTSIAL GURUHLAR

### REJA

1. «Sotsial guruh» tushunchasining mazmun-mohiyati
2. Sotsial guruhlarga xos asosiy xususiyatlar
3. Sotsial guruhlarning hajmiga ko'ra turlari
4. Rasmiy va norasmiy guruhlar
5. Birlamchi va ikkilamchi guruhlar
6. Ichki guruh (inguruh) va tashqi guruh (autguruh)
7. Referent guruhlar
8. Sotsial dilemma va guruhiy tafakkur
9. Kvaziguruh va uning asosiy ko'rinislari

«Sotsial guruh» tushunchasi sotsiologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Bizni o'rab turgan jamiyat ko'plab sotsial guruhlarning majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Inson butun umri davomida bir necha sotsial guruhlar a'zosi sifatida yashab o'tadi: oila, maktab, mahalla, qarindosh-urug', do'stlar davrasi va h.k. Hech qanday guruhga a'zo bo'lmay turib yashash yoki jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishni tasavvur etish mumkin emas. Sotsial guruh jamiyat va inson o'rtasida bog'lovchi ko'priq sifatida xizmat qiladi. Demak, « Shaxs-guruh-jamiyat» tamoyili asosida inson ma'lum bir guruh a'zosi sifatida jamiyat hayotida ishtirok etadi va shu jamiyat a'zosi ekanligini anglaydi. Insonning turli guruhlariga a'zoliigi uning jamiyatdagi maqomini belgilaydi.

Sotsial guruh jamiyatning poydevori hisoblanadi. Inson sotsial guruhning muhimligini o'zi ko'nikkan birlikni, masalan, o'z oilasini tark etganda, o'quv yurtini tamomlaganda anglaydi, shu guruhni, u bilan uzilgan aloqalarni qo'msay boshlaydi. Sotsial guruhlar insonlar o'zaro ta'sirlashuvi asosida birlashadigan ijtimoiy yacheykalar asosida tashkil topadi: oila, jamoa, millat, irq, klub, korporatsiya va h.k.

Ilk marotaba «sotsial guruh» termini shaxs (individ) va jamiyat tushunchalari kabi mustaqil tushuncha sifatida Arastu tomonidan ishlatilgan. T.Gobbs birinchilardan bo'lib guruhni «umumiy manfaat yoki umumiy ish bilan birlashgan insonlarning ma'lum miqdori» deb ta'riflaydi<sup>1</sup>. U guruhlarini tartibli va tartibsiz turlarga ajratadi. Tartibli guruhlarini, o'z navbatida, absolyut, mustaqil (faqatgina davlat), qaram (tobe) guruhlariga ajratadi. Qaram guruhlarini siyosiy va xususiy, xususiylarini esa qonuniy va noqonuniy turlarga ajratadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida E.Dyurkgeym, G.Tard, G.Zimmel, L.Gumplovich, Ch.Kuli, F.Tyonnis kabilar sotsial guruh nazariyasini yaratishga urindilar. XIX asrning oxirgi 30 yilligida sotsial jamoa va guruhlarini o'rganish bo'yicha sotsial tadqiqotlar amalga oshiriladi. XX asrga kelib tadqiqotlar muntazam olib boriladigan bo'ldi va fundamental ahamiyat kasb etib bordi. Sotsial guruhlarini o'rganishda E.Dyurkgeymning hissasi katta.

---

<sup>1</sup> Gobbs T. Leviefan, ili Materiya, forma i vlast gosudarstva tserkovnogo i grajdanskogo // Izbr. proizv.: V 2 t. T.2. – M.: Misl, 1964. – S. 747.

Umuman olganda, sotsiologiyada sotsial guruh muammosini o'rganishda 3 xil nuqtai nazardan yondashuvni kuzatish mumkin: funktsionalistik, konfliktli va interaksionistik. Birinchi yondoshuvda (strukturaviy-funktsionalizm) tadqiqotchilar asosan guruhlarning umumiy maqsadga erishish yo'lidagi rollar va vazifalar taqsimotiga (makrodaraja), keyingi yondoshuvda (konflikt) asosan guruhlarning manfaatlari o'rtasidagi tafovutlarga, oxirgi yondoshuvda (interaksionizm) esa ular o'rtasidagi kundalik o'zaro munosabatlarga e'tibor ko'proq qaratganligini ko'rishimiz mumkin (mikrodaraja)<sup>2</sup>.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, sotsial guruh tushunchasiga ijtimoiy fanlarda turlicha ta'rif beriladi. Xususan, sotsial psixologiya va sotsiologiya fanlari ham sotsial guruhga turlicha yondoshadi. Sotsiologiyada hozirgi davrgacha sotsial guruhga berilgan ta'riflar, ularga xos xususiyatlar borasida xilma-xil qarashlar mavjud. Shunday bo'lsada, ko'pchilik sotsiologlar nisbatan turg'un sotsial o'zaro munosabat modellarida bir-biriga bog'langan va umumiy qarashga ega ikki yoki undan ortiq individlar yig'indisini guruh deb yuritadilar. Rollar insonlarni sotsial munosabatlar doirasida birlashtiradi. Bu munosabatlar uzoq muddat davom etsa, ularga guruh xususiyati beriladi. Bu jarayon natijasida quyidagilarni kuzatishimiz mumkin bo'ladi: birinchidan, biz munosabatlarga ma'lum bir chegara doirasida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar sifatida qaray boshlaymiz. Shunday qilib, insonlar guruhning «ichida» yoki «tashqarisida» bo'lib qoladilar; ikkinchidan, biz ularni voqelik sifatida qabul qilamiz; uchinchidan, guruh biz uchun o'ziga xos submadaniyat yoki kontrmadaniyat tashuvchisi, ya'ni o'ziga xos me'yor va qadriyatlar yig'indisi hisoblanadi; to'rtinchidan, bizda guruhga nisbatan sodiqlik tuyg'usi paydo bo'ladiki, biz o'zimizni boshqalardan farq qiluvchi yaxlit birlik sifatida tasavvur qilamiz.

Sotsial guruh – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy xususiyatga ega insonlar yig'indisidir. Buni umumiy maqsadlar, umumiy manfaatlar, umumiy faoliyat bilan birlashuv sifatida tushunish lozim.

Insonlarning umumiy ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatga ega har qanday yig'indisi sotsial guruh sifatida tushuniladi. Sotsial guruh – alohida inson bilan jamiyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'taydi. Insonning ko'plab xususiyatlari – tafakkur, nutq, til, o'zini o'zi nazorat qilish va ahloqiy qadriyat kabilar guruhiy faoliyat natijasi hisoblanadi. Inson doimo guruhga ehtiyoj sezadi, chunki kishilar yakka holda o'z hayotini saqlay olmaydi. Ibtidoiy jamiyat davridayoq insonlar sotsial guruh bo'lib faoliyat yuritgan va yashaganlar. Sotsial guruh – insonlarning sotsial tashkillashgan umumiy manfaat, maqsad va faoliyat bilan yig'ilgan birlashmasidir.

Sotsial ijobiy guruh individning sotsial-psixologik rivojlanishiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Tug'ilganidan boshlab bu guruhlariga kirgan bola sotsial malaka va mavjud madaniyatning o'zi uchun kerakli jihatlarini o'zlashtiradi. Sotsial guruh ichida individ o'zining qobiliyatlarini namoyon eta oladi. Unda individning qadri, kuchli va zaif tomonlarni anglab boradi.

---

<sup>2</sup> Introduction to Sociology. OpenStax College. Rice University Houston, 2013. – R. 121-130. <http://openstaxcollege.org>.



Shuningdek, sotsial guruh individning nafaqat mavjud imkoniyatlarini namoyon qilishga, balki ularning cheklanishiga ham sababchi bo'lishi mumkin (guruhiy bosim ta'siri "ingibitsiya" deb ataladi). Asotsial bo'lgan birlik shaxsning ijtimoiylashuv jarayonini salbiy tomonga burib, uning taqdirini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Asosan endi shakllanayotgan Shaxsga tasodifiy, vaziyatga qarab Shakllanib qoladigan asotsial birliklar xavfli hisoblanadi. Bunday birlikda inson o'z individualligini, o'zligini yo'qotadi.

Sotsial guruhlar asosiy ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan turlicha munosabatda bo'lishi mumkin. Ularning faoliyati sotsial yo'naltirilgan (ishlab chiqarish, o'quv, sotsio-madaniy va b.), asotsial – faqatgina shu guruh a'zolarining manfaatlarini qondirishga yo'naltirilgan (xippi, rokerlar va b.) va antisotsial – jinoiy guruhlariga farqlanadi.

Antisotsial guruhning faoliyati esa o'ta qat'iy qonunlarga, xususan jismoniy kuchga tayangan holda amalga oshiriladi. Kriminal, antisotsial guruhlar sotsial ijobiy yo'naltirilgan guruhlariga nisbatan tubdan farq qiladigan tashkilotga ega bo'ladi.

Guruhning asosiy xususiyati – uning hajmida namoyon bo'ladi. Chunki aynan guruhga a'zo bo'lgan kishilarning soni undagi me'yor va qadriyatlar, faoliyat mazmuni, rollar taqsimoti va boshqalarga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Guruhning ahamiyati va kuchi uning turg'unligida emas, balki dinamik xususiyatida aks etadi. Guruh hajmi uning tuzilmaviy komponenti sifatida o'zaro munosabatlarga ta'sir o'tkazadi. Guruh qanchalik kichik bo'lsa, individga uning a'zolarini yanada chuqurroq bilish va ular bilan qalin munosabatlarga kirishish imkoniyati beriladi. «Ikki kishi – kompaniya, uch kishi – olomon» degan mashhur ibora ikki va uch kishidan iborat guruhlar o'rtasidagi muhim tafovutni ko'rsatadi. Sotsiologiyada diada va triadalar masalasini ilk marotaba G.Zimmel o'rgangan<sup>3</sup>. Ikki kishidan iborat guruhlar – diadalar ota-ona va farzand, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar kabi nisbatan chuqur va qalin munosabatlarga sharoit yaratadi.

Haqiqatan ham, aksariyat o'zaro aloqalarimiz «yuzma-yuz» munosabatlari asosiga quriladi. Sotsiolog Jon Jeyms rahbarligidagi bir nechta talaba 7405 nafar piyoda, sport maydonidagi o'yinchi, suzuvchi va xaridorlar o'rtasidagi norasmiy o'zaro harakatlarni kuzatadilar. Kuzatish natijalari norasmiy aloqalarning 71% ini ikki kishidan iborat, 21% – uch kishi, 6% – to'rt kishi va 2% igina – besh va undan ortiq kishilardan iborat aloqalarga asoslanganligini ko'rsatdi. Diadalarda katta guruhlardan farqli ravishda hissiyot va emotsiyalar muhim o'rin tutadi<sup>4</sup>.

Ushbu omil diadalarda munosabatlarning nisbatan nozik Shaklda bo'lishini namoyon qiladi. Unga ko'ra tomonlar o'rtasida beqaror muvozanat mavjud bo'lib, guruh a'zolaridan birortasining boshqasidan ko'ngli qolsa, ular o'rtasidagi munosabatlar tamoman buziladi. Shuningdek, ikki kishidan iborat guruhlardagi mavjud aloqalarda nisbatan kuchli zo'riqish va ba'zida ochiq adovat paydo bo'ladi. Guruhga uchinchi a'zoning qo'shilishi, ya'ni triadaning paydo bo'lishi tom ma'noda ijtimoiy vaziyatni o'zgartirib yuboradi. Bunda guruhning ikki a'zosi uchinchisiga qarshi birlashishi, ya'ni "koalitsiya" ehtimolidagi holatni yaratishi

<sup>3</sup> Introduction to Sociology. OpenStax College. Rice University Houston, 2013. – R. 127. <http://openstaxcollege.org>.

<sup>4</sup> Qarang: Sotsiologiya / pod red. prof. IO.G.Volkova. – M.: Gardariki, 2003. – S. 131.

mumkin. O'z navbatida, guruhning bir a'zosi «begonalashuv» holatiga tu Shib qolishi mumkin. Lekin, ayrim holatlarda uchinchi kishi vositachi yoki tinchlik o'rnatuvchi shaxs rolini bajarishi mumkin. "Muammolarni hal qilishda guruhning optimal hajmi qanday bo'lishi kerak?", degan savol tug'iladi. Kichik guruhlar tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, bunday vaziyatda besh kishidan iborat guruh maqsadga muvofiq. Toq sondagi a'zolar soni qiyin ilojsiz vaziyatlarning oldini oladi. Shuningdek, bunday guruhlarda ko'pchilik uch kishi va kamchilik ikki kishiga ajralib ketishi tendentsiyasi vujudga keladi va oqibatda, kamchilik ichida yakkalanib qolish ehtimolining oldini oladi. Besh kishidan iborat guruh o'zaro munosabatlarga kirishganda, uning a'zolari uchun rollar almashinuvi yuqori hisoblanadi. Va nihoyat, besh kishidan iborat guruh o'z emotsiyalarini bildirish va bir-birlari bilan ziddiyatga kirishib qolsa, etarli darajada yuqori, bir-birlarining hissiyot va ehtiyojlariga hurmatsizlik qilishda esa o'ta darajada kichik hisoblanadi. Guruhning hajmi ortgani sayin unda «murosasozlik» kamayib boradi. Bunday guruhlarda insonlar bir-birlariga rasmiy murojaat qila boshlaydilar.

Guruh o'z a'zolari soniga qat'iy cheklovlar ham qo'yishi mumkin. Bu belgiga ko'ra guruhlar yopiq, ochiq, Chegaralangan turlarga bo'linadi. YOpiq guruhlarda a'zolar soni ular mavjud bo'lishining asosiy sharti hisoblanadi va a'zolikka qabul qilishda qat'iy mezonlar qo'yadi. Masalan, ko'plab sport turlari jamoalari, intellektual o'yin jamoasi va h.k. Bunday guruhlarda a'zolar soni o'zgarmas bo'lib, birorta yangi a'zoni qabul qilish zarurati tug'ilsa, guruhning qaysidir eski a'zosidan voz kechishga majbur bo'linadi. Ochiq guruhlar o'z faoliyatida a'zolar soniga muhim jihat sifatida qaramaydi. Unda a'zolikka qabul qilish aniq va qat'iy talablar qo'ymaydi, desa ham bo'ladi. Bunday guruhlarga a'zo bo'lish, yoki ulardan chiqib ketish hammavaqt oson kechadi. Chegaralangan guruhlar a'zolikka qabul qilishda nisbatan qat'iy talablar qo'ysada, faoliyati davomida a'zolari sonini birmuncha o'zgartirishi, vaziyatga qarab ko'payib yoki kamayib turishi mumkin. Bunday guruhlar: ishlab chiqarish korxonalarini, talabalar guruhi va h.k.lar kiradi.

Sotsial guruhlar hajmiga ko'ra **katta**, **o'rta** va **kichik** turlarga bo'linadi. Katta sotsial guruh – demografik, sinfiy, milliy, partiyaviy kabi sotsial belgilari bilan ajralib turuvchi miqdori Cheklanmagan insonlar yig'indisini tashkil etadi. Katta guruhlarda madaniy qadriyatlar Shakllanadi, an'analar, mafkura yaratiladi. Katta sotsial guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- a'zolar sonining ko'pligi;
- hududiy cheklanishning yo'qligi;
- a'zolar o'rtasidagi aloqalarning asosan ommaviy aloqa vositalari orqali o'rnatilishi;
- guruh tuzilishining murakkabligi, aniqroq qilib aytganda, bu guruhlar ko'p rasmiy va norasmiy, uyu Shgan va uyushmagan guruhlarini o'z ichiga oladi<sup>5</sup>.

Katta guruhlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Madaniy-tarixiy o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan farqlanuvchi guruhlar (ellat, xalq, millat).

<sup>5</sup> Qarang: Umumiy sotsiologiya. / prof. N.S.Aliqoriev, dots. R.T.Ubaydullaeva tahriri ostida. – Toshkent: ToshDU, 1999. – B. 53.

2. Mulkiy munosabatlar va mehnat taqsimoti asosida farqlanuvchi (turli xil sinflar, qatlamlar).

3. Tarixan shakllangan va jamiyat sotsial munosabatlari tizimida ma'lum o'ringa ega bo'lgan guruhlar (Shahar, qishloq, kasbiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar).

4. YAgona maqsadga erishish yo'lida umumiy faoliyat yurituvchi guruhlar (partiya, diniy guruhlar).

O'rta sotsial guruhlar katta sotsial guruhlariga xos ayrim xususiyatlarga ega bo'lib, hududiy cheklanish bo'yicha ulardan farq qiladi. Bu guruhlarda bevosita aloqaga kirishish imkoniyati yuqori bo'ladi (katta zavod, institut, maktab, harbiy bo'lim jamoasi).

Kichik sotsial guruhlar – bevosita aloqalarga kirishuvchi, umumiy manfaatlar, maqsadlar, shuningdek, guruhli xulq-atvor me'yorlari bilan birlashgan insonlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Kichik guruh a'zolari aniq bir miqdoriy tarkibda strukturaviy tashkillashgan, hayotiy faoliyatning sotsial-psixologik mexanizmlariga, guruhiy dinamikaga ega bo'ladi.

Kichik sotsial guruhda boshqaruvchi zveno, ya'ni umumiy manfaatlarni amalga oshiruvchi, faoliyat maqsadlarini yo'lga qo'yuvchi va guruh a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkillashtiruvchi rahbar mavjud bo'ladi. Rasmiy rahbarlar yoki umumiy tan olingan liderlar, shuningdek, subliderlar, guruhning «aqliy markazini» tashkil etadi; guruhning asosiy qismi esa turlicha guruhiy maqomga ega bo'lgan ijrochilardir. Shuningdek, o'z o'rnini topa olmagan quyi mavqega ega a'zolar ham mavjud bo'lishi mumkin. Kichik guruhlarda shaxslararo munosabatlar, bevosita shaxslaro aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik guruhning eng jipslashgan yadrosi birlamchi guruhni shakllantiradi.

Insonni bevosita o'rab turuvchi sotsial muhit – mikromuhit sanalib, uning asosi turli xil kichik guruhlardan tashkil topadi. Ular insonning ijtimoiy moslashgan, shuningdek, sotsial me'yorlardan chetga og'uvchi – deviant xulq-atvorni ham Shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'ladi.

Korxonani rahbarsiz, universitetni rektorsiz, orkestrni dirijyorsiz tasavvur qilish mumkin emas. Umuman olganda boshqaruvsiz insonlar o'z faoliyatlarini yo'naltirishga qiynaladilar. Shunday qilib, guruh doirasida ayrimlar boshqalariga nisbatan ko'proq obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Bunday individlarni liderlar deyiladi. Kichik guruhlar lidersiz mavjud bo'la oladi, lekin katta guruhlarda boshqaruvning yo'qligi xaosga olib kelishi mumkin.

Kichik guruhlarga ikki turdagi liderlar xos:

Birinchisi – «mutaxassis-ishlab chiqaruvchi» – mavjud muammolarni baholash va ularni hal qilish ishlarini tashkil etish bilan Shug'ullanadi.

Ikkinchisi – «mutaxassis-psixolog» dan tashkil topib, u Shaxslararo muammolarni yaxshi hal qila oladigan, insonlar o'rtasidagi ziddiyatlarni yum Shatib, guruhda birdamlik ruhining oshishiga imkon yaratadigan faoliyatni shakllantiradi.

Boshqaruvning birinchi turi guruhiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan – instrumental; ikkinchisi esa guruhda uyg'unlik va birdamlik hissini shakllantirishga yo'naltirilgan – ekspressiv jarayonlardan iborat bo'ladi. Ayrim

holatlarda bir inson ushbu ikki rolning ham bajarishi mumkin, aksariyat holatlarda esa bu rollarning har biri alohida rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi. Rollarning hech biri boshqasidan ustun bo'la olmaydi, ayrim vaziyatlarda u yoki bu rolning ahamiyati oshishi mumkin. Liderlar insonlarga ta'sir o'tkazishning turlicha usullaridan foydalanadilar.

Sotsial guruhlar **rasmiy** va **norasmiy** turlarga bo'linadi. Bu turlanish amerikalik sotsiolog E.Meyo tomonidan taklif qilingan<sup>6</sup>. Rasmiy guruhlar me'yoriy maqsadlarga ega bo'lib, unga erishish uchun zarur qat'iy tarkibiy tuzilishga ega bo'lishi lozim. Rasmiy guruh – mavjud sotsial institut va sotsial tashkilotlardagi mehnat taqsimoti doirasida aniq natijalarga erishishni maqsad qilib olgan, huquqiy maqomga ega bo'lgan sotsial guruhlardan tashkil topadi. Rasmiy guruhlarga quyidagi belgilar xos: aniq va izchil maqsad, ierarxiyaga asoslangan aniq funktsiyalar, ma'lum qoidalarga muvofiq keladigan huquq va burchlar, a'zolar o'rtasidagi rasmiy munosabatlar, guruh faoliyatini nazorat qiladigan rasmiy institutning mavjud bo'lishi va boshqalar.

Rasmiy guruhlarda guruh maqsadlari, funktsiyalari xatti-harakat qoidalari, hatto a'zolik Shartlari maxsus hujjatlarda (dastur, yo'riqnoma, qonun va boshqalar) qayd etilgan bo'ladi. Rasmiy guruhlarga siyosiy partiyalar, davlat, diniy va boshqa tashkilotlar kiradi. Shuningdek, unga ishlab chiqarish jamoasi, maktab sinfi, sport jamoasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Rasmiy guruh – bu, jamiyat sotsial tuzilmasining elementi sanaladi. Uning strukturasi va xatti-harakat Shakllari keng miqyosdagi guruh yoki jamiyat tomonidan belgilanadi. Individ rasmiy guruhga a'zo bo'lar ekan, o'zining Shaxsiy sifatlarini yo'qotadi va sotsial guruh doirasidagi u yoki bu rollarni bajaruvchi kishiga aylanadi.

Rasmiy o'rta va kichik guruhlarning aksariyatini ishlab chiqarish guruhlari, mehnat jamoalari tashkil etadi. Bu guruhlarda faoliyat turi ochiq bo'lib, sotsial aloqalarga to'g'ridan-to'g'ri, doimiy ravishda kiritadi va yangi a'zolar bilan takomillashib, kasaba uyushmalariga birlashib boradi. Bu guruhlarning faoliyat tartibga solingan bo'ladi: ularning faoliyati tartibi aniqlangan, ish natijasini baholash me'zonlari belgilangan bo'ladi. Kasaba guruhlarini shakllantirish bilan tegishli sotsial tashkilotlar Shug'ullanadi.

Sotsium asosan kasbiy mahoratga ega guruhlar vositasida o'zini qayta shakllantiradi. Lekin jamiyatning ehtiyojlari kasbiy faoliyat doirasidan chiqib ketadi. Shuning uchun kasbiy va rasmiy guruhlar doirasida yangi ehtiyojlarga yo'naltirilgan mustaqil faoliyat olib boruvchi guruhlar tashkil topib turadi.

Norasmiy guruhlar rasman belgilangan qat'iy tartibdagi tarkibiy tuzilishga ega bo'lmaydi. Norasmiy guruh a'zolarining o'zaro ta'sirlashuvi tasodifiy bo'lib, shaxsiy munosabatlar, qadriyatlar tizimining umumiyliigi bilan belgilanadi. Lekin unda ham ichki guruhiy ierarxiya mavjud bo'ladi. Ayrim sotsiologlar tomonidan bunday guruhlar «sotsial psixologik guruhlar» deb yuritiladi.

Norasmiy guruhlarning paydo bo'lishida vaziyat va umumiy manfaatlar majmui muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu guruhlarni ba'zan, manfaat

---

<sup>6</sup> Qarang: Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnik dlya visshix uchebnix zavedeniy. – M.: Aspekt Press, 1996. – S. 197.

yuzasidan tuzilgan guruhlar, deb ham yuritiladi. Odamlar ehtiyojlari turli-tuman bo'lganligi sababli norasmiy guruhlar yuzaga keladi.

Norasmiy guruhning rasmiy guruhga nisbatan tarkibi boshqacha tuzilishga ega bo'ladi. Agar rasmiy vaziyatda guruh sotsial strukturaning yuqori organlari yoki jamiyat tomonidan tuzilsa, norasmiy guruhlar esa shaxsiy asosda, ya'ni uni tashkil etadigan individlar tashabbusi bilan tuziladi. Tashabbuskor kishilar bu guruhda faol rol o'ynaydilar va o'z-o'zidan guruhda a'zolarining ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat beradigan xatti-harakat tizimi rivojlanadi.

Sotsial guruh a'zolarining o'zaro munosabatlari faoliyat turiga ko'ra **birlamchi** va **ikkilamchi** shakllarga bo'linadi. Ilk marotaba birlamchi va ikkilamchi guruh muammosini ishlab chiqish va atamalarini fanga kiritish amerikalik sotsiolog Ch.X.Kuli nomi bilan bog'liq<sup>7</sup>. Birlamchi guruh – bu bevosita, shaxsiy, yaqin o'zaro munosabatlarga kirishadigan ikki yoki undan ortiq kishilar yig'indisidan tashkil topadi. Birlamchi guruhlarda ekspressiv aloqalar ustun turadi: biz o'z do'stlarimiz, oila a'zolarimiz, sevgan insonlarimizni borligicha qabul qilamiz. Ikkilamchi guruhda ikki yoki undan ortiq kishilar aniq bir amaliy maqsadga erishish yo'lida birlashadilar. Ikkilamchi guruhlarda aloqalarning instrumental turi ustun turadi, ya'ni individlar maqsadga erishish vositasi sifatida qabul qilinadi<sup>8</sup>.

Misol sifatida sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlarni keltirish mumkin. Ayrim holatlarda ikkilamchi guruhlardan birlamchi guruhlar kelib chiqishi mumkin. Masalan, hamkasblar o'rtasida o'ta yaqin munosabatlar Shakllanishi natijasida ular umumiy muammolar, yutuqlar, hazillar, mish-mishlar bilan bir-biriga bog'lanib qoladi.

Birlamchi guruhlarining paydo bo'lishida bir qator talablar mavjud bo'ladi. Birinchidan, guruh hajmi muhim ahamiyatga ega bo'lib, katta guruhda uning har bir a'zosi bilan yaqin munosabatlarga kirishish ehtimoli past, kichik guruhlarda esa ehtimol oshadi. Ikkinchidan, yaqin aloqalar kishilarning fazilatlariga ko'ra baholash imkonini beradi. Har kuni bir-biri bilan munosabatda bo'ladigan insonlar o'rtasida o'zaro ishonch, g'oyalar almashinuvi va hissiyot paydo bo'ladi. Uchinchidan, bir-biri bilan tez-tez va muntazam ko'rishib turadigan insonlar o'rtasida birlamchi guruh paydo bo'lishi ehtimoli oshadi.

Ko'pincha bizning boshqalar bilan o'zaro aloqalarimiz ma'lum bir vaqt o'tib yaqinlashadi, bu esa o'z navbatida munosabatlarda muntazam muloqot, umumiy ko'nikma va qiziqishlar paydo bo'lishiga olib keladi. Sotsial guruhlarda «birlamchi» atamasi o'ta muhim va echilishi zarur bo'lgan muammo va masalalarni belgilash uchun qo'llaniladi. Haqiqatan ham, bu tushuncha aynan birlamchi guruhlariga xos, Chunki ular jamiyatda insonlarning o'zaro munosabatlari asosini tashkil etadi.

Birlamchi guruhlar Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim o'rin tutib, aynan uning doirasida go'dak va yosh bolalar o'zlari tug'ilgan, yashayotgan

<sup>7</sup> Qarang: Kuli CH. Pervichnie gruppi // Amerikanskaya sotsiologicheskaya misl: R.Merton, Dj.Mid, T.Parsons, A.SHiots: Teksti / Sost. E.I.Kravchenko: Pod red. V.I.Dobrenkova. – M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 1994. – S. 330-335; [http://en.wikibooks.org/wiki/Introduction\\_to\\_Sociology](http://en.wikibooks.org/wiki/Introduction_to_Sociology) – R. 62-72.

<sup>8</sup> Qarang: Sociology: A Global Perspective, Ninth Edition. Joan Ferrante. Cengage. 2015. – P. 95-96.

jamiyat asoslarini anglaydilar. Bunday guruhlar keyinchalik sotsial hayot uchun zarur bo'lgan me'yor va tamoyillarni qabul qilishimizda o'ziga xos "o'yin maydoni", desak bo'ladi. Sotsiologlar birlamchi guruhlarini alohida olingan insonlarni jamiyat bilan bog'lovchi ko'priksifatida olib qaraydilar. Chunki, aynan ularning yordamida individda umumiylik hissi rivojlantiriladi.

Shuningdek, birlamchi guruhlar fundamental ahamiyat kasb etib, ular insondagi asosiy Shaxsiy manfaatlarni aksariyat qismi qondiriladigan muhitni ta'minlaydi. Bu guruhlar doirasida biz hamfikrlilik, sevgi-muhabbat, bexatarlik, umumiy farovonlik va baxt-saodatni his qilamiz. Tabiiyki, birlamchi guruhlardagi o'zaro aloqalarning mustahkamligi guruhning funktsionallashuviga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Birlamchi guruhlar jamiyatda sotsial nazoratning kuchli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu guruh a'zolari sotsiumda hayotimiz uchun zarur bo'lgan ne'matlarni taqsimlaydi. Agar individ sotsiumdagi ishonchni oqlamasa, ma'lum bir qat'iy harakatlar bilan guruh a'zolari uni umumiy qabul qilingan me'yorlarga bo'ysundiradi. Masalan, ayrim diniy jamoalarda itoatsizlarga nisbatan «boykot» e'lon qilinadi (tartibbuzar jamoadan haydalmagan holda u bilan muloqotga kirishish taqiqlanadi). Yana bir muhim jihat borki, birlamchi guruhlar sotsial voqelikni belgilaydi. Turli xil vaziyatlarni o'ziga xos tarzda talqin qilib, guruh a'zolaridan Shu guruhda ishlab chiqilgan tasavvurlarga mos xulq-atvorga erishadi. Demak, birlamchi guruhlar sotsial me'yorlarning tashuvchisi bo'lish bilan bir qatorda ularni tarqatuvchisi rolini ham bajaradi.

Bizga nafaqat o'zimiz mansub bo'lgan guruhlar, balki biz a'zo bo'lmagan guruhlar ham kuchli ta'sir o'tkazadi. Shundan kelib chiqib, sotsiologlar **ichki guruh (inguruh)** va **tashqi guruh (autguruh)** o'rtasiga chegara qo'yishni lozim topdilar. Bu tashabbus sotsiolog U.Samnerga nomi bilan bog'liq<sup>9</sup>. Ichki guruh – bu, individ o'zini mansub deb bilgan va a'zo bo'lgan guruh tushuniladi. Tashqi guruh esa buning aksi bo'lib, unda individ a'zo bo'lmagan guruh Shakli tushuniladi. Bu ikki guruh o'rtasidagi tafovutni «biz» va «ular» olmoshlari bilan belgilash mumkin. Demak, ichki guruhlarini «bizning guruh», tashqi guruhlarini «ularning guruhi» sifatida tavsiflash mumkin bo'ladi. Ichki va tashqi guruh tushunchasi ular Chegaralarining muhimligini ko'rsatib, bunda o'zaro ta'sir qaerdan boshlanadi va qaerda tugaydi?, - degan savolga javob izlanadi. Guruh Chegaralari jismoniy to'siq bo'lmay, sotsial o'zaro munosabatlar oqimidagi uzilishlar hisoblanadi. Ayrim Chegaralar hududiy tamoyillarga asoslanadi, masalan, kvartal, tuman, mamlakat. Boshqa chegaralar sotsial tafovutlar bilan bog'liq, masalan, etnik, diniy, siyosiy, kasbiy, tilga oid, urug'-aymoq, sinflar. Chegaralar «begonalarning» guruh muhitiga kirishini oldini oladi va bir vaqtning o'zida guruh a'zolarini boshqa raqobatchi guruhlar bilan o'zaro harakatga kirishishi ehtimolini oldini olish maqsadida bu muhitda u Shlab turadi.

Amerikalik psixolog M. Sherif va uning yordamchilari tomonidan o'tkazilgan tajriba (1961) shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir guruhga mansublik hissi ortgani sayin raqobatchilik elementlari mavjud bo'ladigan vaziyatlarda tashqi

---

<sup>9</sup> Qarang: Introduction to Sociology. OpenStax College. Rice University Houston, 2013. – R. 124. <http://openstaxcollege.org>

guruhlarga nisbatan ziddiyat kuchayadi<sup>10</sup>. M. Sherif olib borgan tadqiqot ob'ektlari o'rta sinfga mansub osoyishta oilalardan bo'lgan ijtimoiy moslashgan, sog'lom 11-12 yoshli bolalar bo'lgan. Tajriba yozgi lagerda olib borilgan bo'lib, u erda o'g'il bolalarni ikki guruhga ajratilgan. Lagerdagi hayotning birinchi haftasida bolalar bir-birlari bilan tanishdilar, guruhning yozilmagan qonunlarini ishlab chiqdilar, majburiyatlar va rollarni taqsimladilar. Ikkinchi haftada tajriba o'tkazayotganlar ikki guruhni raqobatga asoslangan turli tadbirlarda to'qnashtirdilar: beysbol, qo'l to'pi turniri, harbiy o'yin, xazinani qidirish va h.k. Musobaqalar sportga xos do'stona kayfiyatda boshlangan bo'lsada, bu uzoqqa cho'zilmadi. Uchinchi hafta integratsiya fazasi bo'lib, unda M. Sherif ikkala guruh o'smirlarini birgalikdagi ovqat tanovuli, kinofilmlarni tomosha qilish va hazil-mutoyibada bir-biri bilan muntazam birlashtirdi. Lekin, bu vaziyat ikki guruh o'rtasidagi tanglikni yum Shatish o'rniga raqobatchilik hissini namoyon qilish, bir-birining ustidan kulish va janjal uchun bahona bo'ldi. Shunda tajriba o'tkazayotganlar ikki guruhni bir maqsadga erishish uchun o'zaro kelishib ish tutishga majbur qiladigan kutilmagan va tabiiy vaziyatlarga (avariya holatidagi lager vodoprovodini remont qilish) qo'ydilar. Musobaqalar bolalarda guruhiy chegaralar to'g'risidagi tasavvurlarini yanada kuchaytirgan bo'lsa, umumiy maqsadga erishish yo'lidagi ish adovat hissini va guruhlararo to'siqlarni yum Shatdi, hamkorlik ehtimolini oshirdi.

M. Sherif, shuningdek, sotsiologiya fanida sotsial guruhlarining **a'zoli** (bevosita a'zo bo'lgan) va **referent** (individ a'zo bo'lmagan, lekin o'z xatti-harakatlarini ushbu guruh me'yor va qadriyatlarini bilan tartibga soladigan) guruhlariga turlanishini asoslab bergan.

Referent guruh (lot. referentis – mansub bo'lish, xabar beruvchi) yoki etalon guruhi inson tomonidan me'yorlari nisbatan qadrliroq tan olinadigan guruhdir. Masalan, mutaxassis hurmatga sazovor hamkasblari guruhiga tayanadi, sportchi – o'zi tanigan taniqli rekordsmenlarning me'yorlariga va h.k.. Referent guruhlar – individ o'z qarashlari, hissiyoti va harakatlarini baholash va shakllantirishda asoslanadigan ijtimoiy birlikni tashkil etadi. Individlar o'z ustanovkalari, e'tiqodini shakllantirish va xatti-harakatlarini amalga oshirishda o'zlarining ustanovka, e'tiqod va xatti-harakatda taqlid qilishga loyiq deb bilgan boshqa bir insonlar yoki guruhlar bilan taqqoslaydilar.

«Referent guruh» tushunchasi to'rt xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Individ xatti-harakati uchun namuna, etalon bo'lib xizmat qiladigan guruh.
2. Individ o'z xatti-harakatlarini yo'naltirgan guruh.
3. Individ a'zo bo'lishga intilayotgan guruh.
4. A'zolarining qadriyat va fikrlari bevosita shu guruh a'zosi bo'lmagan kishi uchun o'ziga xos taqqoslash o'lchovi, sotsial «o'lchov doirasi» sifatida xizmat qiladigan guruh<sup>11</sup>.

Real hayotda «referent guruh» nazariyasi shaxsning turli sotsial muhitlarga moslashuv jarayonida, sotsial harakatlarni o'rganishda qo'llaniladi.

<sup>10</sup> Qarang: Sotsiologiya / pod red. prof. IO.G.Volkova. – M.: Gardariki, 2003. – S. 129.

<sup>11</sup> Qarang: Umumiy sotsiologiya. / prof. N.S.Aliqoriev, dots. R.T.Ubaydullaeva tahriri ostida. – Toshkent: ToshDU, 1999. – B. 58.

Referent guruhlar o'z mavjudligi va tabiatiga ko'ra: real va ideal; funksionallashuviga ko'ra: normativ va qiyosiy; guruh me'yorlarining Shaxs tomonidan qo'llab-quvvatlanishi yoki rad etilishiga ko'ra: ijobiy va salbiy turlarga bo'linadi.

Real referent guruh – Shaxsga qulay sotsial me'yor va qadriyatlarni egallashi uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan kishilar birligi hisoblanadi. Ideal referent guruh – bu, ma'lum bir guruh qadriyatli va me'yoriy yo'l-yo'riqlarining inson ongida aks etishidir. Shaxs bu guruhga o'z tasavvurlari va harakatlari bilan moslashishga harakat qiladi. Demak, real referent guruh sotsial voqelikdagi hodisa bo'lsa, ideal referent guruh individ ongining mahsuli hisoblanadi.

Referent guruhlar ham me'yoriy, ham qiyosiy funktsiyalarni bajaradi. Biz o'zimizni ma'lum bir guruhning to'la huquqli a'zosi sifatida ko'rish istagida (yoki biror guruhga a'zolikka intilishda), guruhiy standartlar va tamoyillarni qabul qilamiz. Masalan, bir maktabdan boshqa bir maktabga qabul qilingan o'quvchi boshqalardan ajralib qolmaslik uchun bu muhitdagi barcha me'yor, qoida va standartlarni tezroq o'zlashtirishga harakat qiladi. Individning xulq-atvori uning aniq bir guruhga mansubligini ko'rsatadi.

Shuningdek, biz o'z referent guruhimiz standartlaridan o'zimizni tashqi ko'rinishimiz, intellekt, sog'lik, jamiyatlardagi o'rnimiz va hayotiy darajamizni etalon tarzda baholashda foydalanamiz. Biz mansub bo'lgan guruh referent guruhga mos kelmasa, bizda nisbiy deprivatsiya – biz egalik qilayotgan narsalar (aniq bir guruhga mansubligimizni ko'rsatuvchi shart-sharoitlar) bilan egalik qilishni xohlagan narsalar (referent guruhga xos holat) o'rtasidagi keskin tafovutdan qoniqmaslik hissi paydo bo'lishi mumkin. Masalan, ofis xizmatchisi o'zini xizmat lavozimi ko'tarilgan hamkasblari bilan solishtirganda buni his qiladi. Nisbiy deprivatsiya hissi ko'pincha sotsial begonalashuvga olib keladi va jamoaviy chiqishlar, inqilobiy sotsial kayfiyatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Barcha referent guruhlar ham ijobiy bo'lavermasligini unutmashimiz lozim. Ijtimoiy hayotda salbiy referent guruhlar ham mavjudki, biz o'zimizni boshqalar bilan taqqoslaganimizda ulardan foydalanamiz, ya'ni bu guruhga mansub emasligimizni ko'rsatishga harakat qilish maqsadida a'zolarining harakatlari bilan o'z harakatlarimizni taqqoslaymiz. Salbiy referent guruh tomonidan biz o'z xatti-harakatlarimizni rad etilishi va qoralanishini istaymiz. Biz ilgari a'zo bo'lgan, keyinchalik esa boshqasiga o'tib ketgan guruhimiz ko'pincha salbiy referent guruhni tashkil etadi.

Sotsial guruhlar haqida gapirganimizda bu guruhlarda uchraydigan sotsial dilemmalarga ham murojaat qilishimiz lozim bo'ladi. Sotsial dilemma – bu guruh a'zolarining o'z Shaxsiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish bilan jamoa farovonligining maksimal darajada oshishi o'rtasida ziddiyatga duch keladigan vaziyat tushuniladi. Sotsial dilemmalar ko'pgina hayotiy vaziyatlarda uchraydi. Uru Shning hal qiluvchi bosqichida handa qda turib qolgan askarning oldida qanday tanlov borligini ko'rib chiqamiz. Har bir askar handa qda qolib, hayotini saqlab qolishni ma'qul ko'radi, lekin askarlarning hammasi shunday xulosaga kelsa, jangda yutqazadilar va halok bo'ladilar.



Aksariyat sotsial dilemmalarda guruhning umumiy manfaati uchun harakat qilishni istaydigan bir a'zosi bo'ladi. Qanday sotsial mexanizmlar individda egoistik qarashlardan qochib, jamoaviylik ruhida harakat qilish istagini uyg'otadi? Birinchi navbatda, bu – nazorat mexanizmi bo'lib, individning umumiy farovonlikka salbiy ta'sir o'tkazadigan harakatlardan cheklaydi. Ko'pincha bu vazifani davlat bajaradi. Guruhiy me'yorlar ham ko'pincha bu maqsadga norasmiy sanksiyalar orqali erishadi, shuningdek, insonlarni kelishib harakat qilishga yo'naltiradigan boshqa bir vositalar ham bor. Bular ichida guruh chegaralarini qat'iy belgilash orqali kuchli guruhiy mansublik hissini rivojlantiruvchi mexanizmlar ham bor. Bundan tashqari, agarda individlar boshqalar bilan hamkorligi rag'batlantirilishini (masalan, foydani teng taqsimlash va b.) his qilsalar, egoistik kayfiyatga unchalik berilmaydilar. Guruhiy tafakkur ham yana bir strategiya hisoblanadi, lekin u halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Guruhiy tafakkur guruh doirasiga xos va guruh a'zolarining qarashlariga ta'sir o'tkazuvchi kuchli sotsial bosimning mavjudligini ko'rsatadi. Bu bosim xulq-atvorimizga ta'sir o'tkazsada, biz uni har doim ham his qilmaymiz. M. Sherif ilk marotaba bu holatni optik yolg'on (ko'z aldanishi) misolida namoyish etdi<sup>12</sup>. Qorong'u xonadagi kichkina yorug' dog'ni ko'rgan insonlarga u piri-pirab turgandek tuyuladi.

Lekin, bu borada fikrlar farqlanadi. M. Sherif bu dog'ni har bir odamga alohida ko'rsatib, uning javoblarini yozib oladi. Keyin turlicha javob bergan odamlarni bir guruhga birlashtirib yana shu dog'ni ko'rsatadi, javoblarini og'zaki bildirishlarini so'raydi. Bu vaziyatda odamlarning javoblari guruh standartlariga mos ravishda o'zgarib boradi. Keyinchalik, sherif yana bu odamlar bilan alohida-alohida gaplashganda, ular guruh standartiga muvofiq javoblarni berib, o'z fikrlariga qaytmadilar. Shuni qayd etib o'tish lozimki, ishtirokchilarning ko'pchiligi bu fikrga mustaqil holda kelganliklarini va guruh bahosi ularga hech qanday ta'sir o'tkazmaganligini ta'kidlaydilar.

Yana bir misol: Solomon E Sh o'z tadqiqotida xona markazida joylashgan ikki dasta o'yin xartasidan terilgan bir xil uzunlikdagi to'g'ri Chiziqni taqqoslashni so'raydi. U to'qqizta a'zodan iborat guruhning bir necha a'zolaridan og'zaki javob berishlarini so'raydi. E Sh tajribaning bir nechta ishtirokchilari bilan oldindan kelishib olgan edi, va ularning hammasi bir necha testlarga noto'g'ri javob berdilar. To'g'ri javob ko'rinib turgan bo'lishiga qaramay, ishtirokchilarning uchdan bir qismi ko'pchilikning noto'g'ri fikrini yoqlab javob berdilar. Har bir tajribada barcha ishtirokchilarning to'rt dan uch qismining fikri bir-biriga mos keldi. Shunday qilib, E Sh ayrim individlarning ko'zlari yaqqol ko'rib turgan haqiqatga zid bo'lsada, guruh fikrini qo'llab-quvvatlashini namoyish etdi. Individlar guruhga to'liq tobe bo'lib qolganlarida, o'z mustaqilligidan voz kechishga ham tayyor bo'lib qoladilar. Bularning barchasi guruhlarining, asosan bizning Shaxsimiz Shakllanadigan va biz har kuni faoliyat yuritadigan guruhlarining hayotimizdagi hal qiluvchi rolini namoyon etadi. Bunday guruhlar totalitar institutlar sifatida funktsionallashishi mumkin<sup>13</sup>.

<sup>12</sup> Qarang: Sotsiologiya / pod red. prof. IO.G.Volkova. – M.: Gardariki, 2003. – S. 135.

<sup>13</sup> Introduction to Sociology. – R. 64. [http://en.wikibooks.org/wiki/Introduction\\_to\\_Sociology](http://en.wikibooks.org/wiki/Introduction_to_Sociology).

9. Sotsiologiya fanida sotsial birliklarning «kvaziguruh» termini bilan ifodalanadigan bir ko'rinishi borki, ayrim sotsiologlar ularni guruhlarining yana bir turi sifatida ifodalaydi. Bunday guruhlariga xos xususiyatlar quyidagilar:

1. kutilmaganda, stixiyali tarzda shakllanadi;
2. o'zaro aloqalar beqaror bo'ladi;
3. o'zaro munosabatlarda xilma-xillikning yo'qligi (ma'lumotni olish yoki uzatish, qarshi Chiqish yoki qo'llab-quvvatlash);
4. umumiy harakatlarning qisqa muddat davom etishi<sup>14</sup>.

Kvaziguruhlar qisqa muddat mavjud bo'ladi, keyin yoki tarqalib ketadi, yoki turg'un (barqaror) sotsial guruhga aylanadi.

Kvaziguruhlarining bir necha ko'rinishlari farqlanadi: auditoriya, olomon, sotsial doiralari.

Auditoriya – kommunikator, ya'ni axborotni etkazib beruvchi individ yoki guruh bilan o'zaro bog'langan kishilar yig'indisi. Auditoriya kommunikator bilan bevosita va bilvosita o'zaro aloqaga kirishishi mumkin. Auditoriyaning o'ziga xosligi shundaki, o'zaro ta'sir aksariyat hollarda bir tomonlama amalga oshiriladi, shuningdek, berilayotgan axborotni individlar o'z Shaxsiy xususiyatlari, madaniy me'yor va qadriyatlaridan kelib chiqib turlicha qabul qiladilar. Auditoriyaning bir qismi axborotni o'z madaniy stereotiplariga mos kelmasligiga ko'ra qabul qilmasa, boshqa bir qismi bemalol qabul qiladi. Shunga ko'ra, har qanday auditoriya alohida birliklarga ajralib ketishi ehtimoli bor. Kundalik hayotda turli xildagi auditoriyalar bilan to'qnashamiz. Masalan, ma'ruza tinglashda, gazeta o'qiganda, radio tinglaganda u yoki bu auditoriya a'zosiga aylanamiz.

Olomon – umumiy manfaatlar yuzasidan cheklangan muhitda vaqtinchalik to'plangan kishilar birligi. Xususiyatlari: ta'sirchanlik, anonimlik, kutilmaganda o'z-o'zidan paydo bo'lish, mustahkamlik. Turlari: tasodifiy olomon (avariya yoki taniqli shaxs atrofida odamlarning to'planishi); Shartli olomon (teatr, stadion kabilarda oldindan rejalashtirilgan tomoshani ko'rishga yig'ilganlar); ekspressiv olomon (diskotekada raqs tu Shayotganlar va h.k.); harakatdagi olomon (ekstremal xulq-atvor egalarining bir joyda to'planishi).

Sotsial doiralari kvaziguruhlarining birmuncha barqaror turi hisoblanadi. YA. Shepanskiyning fikriga ko'ra, sotsial doiralari deganda, a'zolari unchalik kuchli bo'lmagan, aloqalar orqali beqaror munosabatlarga kirishadigan mustaqil ittifoqlarni tushunishimiz lozim<sup>15</sup>. Boshqa bir sotsiologlarning fikriga ko'ra, sotsial doiralari – a'zolari o'rtasida axborot almashinuviga asoslanib tarkib topgan birlikdir.

Turlari: kontakt doiralari (transport, navbat, sport musobaqalarida muntazam ko'rishib turadigan kishilar), kasbiy doiralari (ishchilar, olimlar, san'atkorlar), o'rtoqlar doirasi (vaqti-vaqti bilan muammolarni muhokama qilish uchun yig'ilib turadiganlar, keyinchalik do'stlar guruhiga aylanib ketishi ehtimoli mavjud bo'ladi), statusli sotsial doiralari (aristokratlar, pensionerlar, ayollar, erkaklar).

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, kvaziguruhlarini barqaror sotsial guruhlar shakllanishi yo'lida tarkib topadigan birliklar sifatida olib qarash lozim.

<sup>14</sup> Qarang: Frolov S.S. Sotsiologiya. – M.: Nauka, 1994.

<sup>15</sup> Qarang: SHepanskiy YA. Elementarnie ponyatiya sotsiologii. – M., 1969. – S. 78.

### **Tayanch iboralar:**

Sotsial guruh, asotsial guruh, antisotsial guruh, ochiq guruh, yopiq guruh, Chegaralangan guruh, katta guruh, kichik guruh, o'rta guruh, rasmiy guruh, norasmiy guruh, birlamchi guruh, ikkilamchi guruh, inguruh, autguruh, sotsial dilemma, guruhiy tafakkur, referent guruh, a'zoli guruh, kvaziguruh.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. «Sotsial guruh» tushunchasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
2. Sotsial guruhning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Sotsial guruhlarning hajmiga ko'ra qanday turlarga farqlanadi?
4. Rasmiy va norasmiy guruh turlarini kim ishlab chiqqan va ularga xos asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?
5. Sotsiologiyada birlamchi va ikkilamchi guruhlarning farqlanishi kimning nomi bilan bog'liq va ularning asosiy belgilari nimalardan iborat?
6. Sotsiologiyada ichki va tashqi guruhlar muammosining ishlab chiqilishi kimning nomi bilan bog'liq?
7. Referent guruhlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Sotsial dilemmaga misol keltiring.
9. M. Sherif guruhiy tafakkurni o'rganishda qanday tadqiqot olib borgan?
10. Solomon E Sh guruhlarni tadqiq etishda qanday tajribalar o'tkazgan?
11. Kvaziguruh nima va uning asosiy turlarini sanab o'ting.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Introduction to sociology. OpenStax College. Rice University Houston, 2013. <http://openstaxcollege.org>.
2. Introduction to sociology. [http://en.wikibooks.org/wiki/Introduction\\_to\\_Sociology](http://en.wikibooks.org/wiki/Introduction_to_Sociology).
3. Sociology: A Global Perspective, Ninth Edition. Joan Ferrante. Cengage. 2015.
4. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnik dlya vis Shix uchebnix zavedeniy. – M.: Aspekt Press, 1996.
5. Gobbs T. Levafan, ili Materiya, forma i vlast gosudarstva tserkovnogo i grajdanskogo // Izbr. proizv.: V 2 t. T.2. – M.: Misl, 1964.
6. Kuli Ch. Pervichnie gruppi // Amerikanskaya sotsiologicheskaya misl: R.Merton, Dj.Mid, T.Parsons, A. Shyuts: Teksti / Sost. E.I.Kravchenko: Pod red. V.I.Dobrenkova. – M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 1994.
7. Sotsiologiya / pod red. prof. YU.G.Volkova. – M.: Gardariki, 2003.
8. Umumiy sotsiologiya. / prof. N.S.Aliqoriev, dots. R.T.Ubaydullaeva tahriri ostida. – Toshkent: ToshDU, 1999.
9. Frolov S.S. Sotsiologiya. – M.: Nauka, 1994.
10. SHepanskiy YA. Elementarnie ponyatiya sotsiologii

## 13-mavzu. SOTSIAL INSTITUTLAR

### REJA

1. **Institut tushunchasi va uning mohiyati.**
2. **Institutlarning funktsiyasi va disfunktsiyasi.**
3. **Institutlarning asosiy turlari.**
4. **Oila instituti**
5. **Din instituti**

Sotsial institut mavzusi sotsiologiyada dolzarb masalalarni qamrab oladi. Institut tushunchasi aslida sotsiologiya faniga huquqshunoslikdan o'tgan bo'lib, u lotincha «institutum» so'zidan olingan va sotsiologik adabiyotlarda muassasa, o'rnatish, belgilash hamda tartiblash kabi ma'nolarini ifodalaydi<sup>1</sup>. Tor ma'noda institut tushunchasi konkret muassasa, tashkilotning nomini belgilaydi. Masalan, Toshkent davlat Sharq Shunoslik instituti, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining tarix instituti va hokazolar. Keng ma'noda sotsial institut jamiyat a'zolarining Shaxsiy va ijtimoiy hayotlarini muvofiqlashtiradi va tartiblaydi.

Aynan sotsial institutlar faoliyati tufayli kishilar, jamoalar, sotsial guruhlar va sotsial qatlamlar a'zolari o'zaro aloqalarining barqaror va asosli munosabatlari amalga oshadi. Chunki jamiyat yaxlit sotsial tizim sifatida mavjud ekan, uning barcha tarkibiy elementlari sotsial institutlar faoliyati asosida o'zaro hamkorlikka kirishadi. Buning natijasida esa sotsial tizim faoliyatining barqaror holati ta'minlanadi.

Sotsiologik adabiyotlarda sotsial institutlarning turli-tuman kontseptsiyalari ishlab chiqilgan. Ularda sotsial institut tushunchasi, uning mazmun va ahamiyati hamda vazifalari har xil pozitsiyalardan kelib chiqib, talqin qilinadi. Mavzuning tahlilini olib borishda dastlab antik davr mutafakkirlarining tarixiy-ilmiy merosiga murojaat qilish lozim.

Ma'lumki, insoniyat o'z tarixi davomida hamisha farovon va namunali davlat tuzumini qurish g'oyasi bilan yashab keldi. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar ishlab chiqilgan va ularda markaziy o'rinni sotsial institutlar masalalari egallaydi. Jumladan, yunon faylasufi Platonning dunyoqarashlarida davlat instituti haqidagi fikrlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu muammolarni aks ettirgan uning «Davlat» va «Qonunlar» asarlari bizgacha etib kelgan. O'zining bu asarlarida Platon davlat institutini ikki xil sifatga ajratadi: ideal (mukammal, ijobiy) va salbiy (nomukmmal) Bu ikki sifatni u bir-birlariga qarama-qarshi qo'yadi. Platonning fikricha hamma faoliyat ko'rsatayotgan davlatlar salbiy turga tegishlidir. Bunday jamiyatda insonlarning harakatlantiruvchi bosh omil bo'lib moddiy extiyojlar va rag'batlar xizmat qiladilar. O'z navbatida salbiy turdagi davlat to'rt shaklda namoyon bo'lishi mumkin: timokratiya, oligarxiya, demokratiya va tiraniya.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya (slovar). –Moskva.: «Politizdat».1990. -S.116-118.

<sup>2</sup> Platon. Sochineniya v chetirex tomax. Tom 3. CHast1. //Gosudarstvo. -Cankt-Peterburg. Izd-vo S.-Peterb. un-ta; Izd-vo Olega Abishko. 2007. –S.387.

Ushbu salbiy shakllarning birlamchi ko'rinishi bo'lib, Platonning fikricha, timokratiya faoliyat ko'rsatadi. Bu o'ziga bino qo'yganlarning hukmronligiga asoslangan hokimiyatdir. Timokratiyaning ilk bosqichi davrida mukammal tuzumning ko'rinishlari saqlanib qolingani, bunda hokimlar hurmatga sazovordirlar, askarlar esa dehqonchilik, hunarmandchilik kabi ishlaridan ozodlar. Shuning uchun ular mukammal ravishda harbiy mahoratlarini oshiradilar, doimiy ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar. Ammo, vaqt o'tishi bilan qimmatbaho metallar shaydolari maxfiy ravishda oltin-kumush yig'ish va saqlashni boshlaydilar, ayniqsa bu ishda ayollarning faol ishtiroki va ta'siri turmush tarzini hashamatli shaklga aylantirib yuboradi. Xuddi shu sabablar tufayli timokratiyadan oligarxiyaga o'tish boshlanadi.

Oligarxik jamiyatda esa jamiyat a'zolarining ma'lum bir qismi har xil ishlar bilan shug'ullanadilar – dehqonchilik bilan ham, hunarmandchilik bilan ham va xatto uru Shlar bilan ham. Oligarxiyaning bunday rivojlanishi Platonning fikricha davlat instituti boshqaruvini yanada ham yomon shakliga o'tishiga sabab bo'ladi. Bunday davlat ko'pchilikning hokimiyati va boshqaruvidir.

Lekin boylar va kambag'allar o'rtasidagi ziddiyatlar oligarxik jamiyatdagidan ham keskinlashadi. Kambag'allarning boylarga nisbatan nafratining oshishi qo'zg'olonlarga olib keladi. Agarda qo'zg'olon kambag'allarning g'alabalari bilan yakunlansa, unda ular boylarning bir qismini yakson qiladilar, qolganlarini haydab yuboradilar. Davlat hokimiyati va boshqaruv funksiyalarini jamiyatning qolgan a'zolari orasida taqsimlaydilar. Bunday davlatning boshqaruv shaklini Platon demokratiya, deb ataydi.

Ideal davlatdan og'ib ketishning eng yomon shakli, deb Platon tiraniyani tan oladi. Bu bir odamning jamiyatdagi hamma a'zolarining ustidan o'rnatgan hokimiyatidir. Tiraniya o'zining kelib chiqishini demokratiya bilan bog'laydi. Platonning fikricha, oliy darajadagi erkinlikdan kuchli va shavqatsiz qullik paydo bo'ladi, dastlabki davrlarda tiran faqat jilmayadi, hammani quchadi, o'zini tiran, deb atamaydi. Juda ko'p narsalarni va'da qiladi, kishilarni qarzlardan ozod qiladi, aholiga, o'zining yaqinlariga erlar ulashadi va o'zini mehribon qilib ko'rsatadi. Tiran uchun uzlukli ravishda uru Sh qilib turish zarurdir, chunki oddiy xalq dohiyga extiyojni doim his qilib turishi kerak. Lekin doimiy uru Shlar tiranga nisbatan fuqarolarning norozilik va g'azablarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Tiranning hokimiyatga kelishiga sababchi bo'lgan fuqaro endi uni keskin qoralashga kirishadi. Tiran esa o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun o'zining tanqidchilarini birin-ketin yakson qilishga kirishadi, toki hech bir foyda keltirmaydigan na do'stlari va na zarar keltira oladigan du Shmanlari qolmaguncha.<sup>3</sup>

Platonning eng iqtidorli, mashhur shogirdlaridan biri Aristoteldir. Bizgacha uning asosiy asarlari etib kelgan. Bu asarlarda u turli mavzularda fikr yuritgan. Xususan, uning jamiyat qurilishi, faoliyat ko'rsatish mexanizmlari haqidagi ta'limotlari shular jumlasidandir. Ayniqsa, «Siyosat» asarida Aristotel o'z sotsiologik qarashlarini keng ta'riflab beradi. Uning fikricha, davlat institut sifatida juda murakkabdir va u ikki xil, ya'ni demokratiya va oligarxiya shaklida

<sup>3</sup> O'sha erda. –S.393-415.

boshqarilishi mumkin. Demokratiyada oliy hokimyat ko'pchilikning qo'lida bo'lsa, oligarxiyada esa hokimyat kamchilikka tegishlidir. Oligarxiya va demokratiyaga tegishlikni ajratib beradigan haqiqiy ko'rinish bo'lib boylik va kambag'allik xizmat qiladilar. Qaerda hokimyat boylar qo'lida bo'lsa, o' Sha erda oligarxiya, qaerda kambag'allar hukmronlik qilsalar o'sha erda demokratiya mavjud bo'ladi.

Lekin eng yaxshi tuzum, deb Aristotel boylarning ko'pligi, kambag'allar kamligi yoki aksincha, deb hisoblamaydi. Uning fikricha, qaysi jamiyatda «o'rta element», ya'ni o'rta hol kishilar soni salmoqlik bo'lsa, o' Sha davlat eng farovon, yaxshi tuzum hisoblanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'rta hollik hamma farovonliklardan afzaldir. Aristotel shunday xulosaga keladiki, o'rta hol fuqarolardan tashkil topgan davlat eng yaxshi tuzumdur, uning fuqarolari esa ko'proq behavotirlikda bo'ladilar. Ular kambag'allarga o'xshab boshqalarning mol-mulkiga ko'z olaytirmaydilar, boshqalar esa o'rta holga tegishli bo'lgan mulkka tajovuz qilmaydilar.

Aristotelning ushbu masala bo'yicha bu qimmatli fikrlari hozirgi davr uchun ham juda dolzarb muammodir. Chunki qaysi davlatda o'rta hol fuqaro jamiyatda axolining asosiy qismini tashkil etsa, o' Sha davlat farovon davlatdir. Zamonaviy O'zbekistonda ham jamiyatning yangi sotsial strukturasi shakllanayotgan ekan, unda aholining ko'pchiligini o'rta sinf tashkil etilishi lozimligi strategik maqsad qilib belgilangan.

O'zining yunonistonlik ustozlariga o'xshab, bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham o'z ideal jamiyatining sotsial strukturasi ishlab chiqadi. Uningcha, boshqarish va buysinish tamoyillari ideal jamiyatning tabiiy hamda tarkibiy qismidir. Forobiy boshqaruv va buysinish institutining bir necha ko'rinishlarini ajratib ko'rsatadi. Forobiy quldorlik institutini keskin ravishda qoralaydi va u uchun insonning qadr-qimmatini kamsitish aql bovar qilib bo'lmaydigan og'ir holatdir. Doimiy uru Shlar asosiga qurilgan farovonlik, boshqa mamlakatlarga tajovuz qilishlar, ularning fuqarolarini qulga aylantirishni Forobiy adolatsizlik va johillik, deb ataydi.

Davlat instituti haqidagi ta'limotida Forobiy bu institutning ichki va tashqi vazifalari haqida fikr yuritadi. Ichki funktsiyaning mohiyati shundaki, davlatning fuqarolarni haqiqiy baxtga erishishi uchun o'tkazadigan tadbirlari asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirlar quyidagilardir: adolatning o'rnatilishi, xalqning savodini Chiqarish, uni borliq haqidagi asosiy bilimlar bilan tanishtirish, aholini axloqiy va intellektual sohada samarali tarbiyalash, yaxshi va namunali ishlarni keng tarqatish. Iqtisodiy va siyosiy muammolar asosiy maqsadga – insonlarni ma'naviy kamolatga erishishlariga bo'ysinislari lozim. Faqat iqtisodiy muammolar bilan chegaralanib qolish, siyosatni esa asosiy maqsadga aylantirib qo'ygan davlatni Forobiy johil davlat, deb ataydi.

Tashqi funktsiyaning mohiyati esa avvalambor, ushbu Shahar yoki mamlakatni tashqi dushmanlardan muhofaza qilish, ya'ni mudofaa masalalarida namoyon bo'ladi. Johil davlat uchun boshqa davlatlar bilan doimiy urushlar odib borish, fuqarolarini esa asir olish, o'zgalar mulkini tortib olish amali xosdir. Ideal

davlat esa urushlarni faqat mudofaa maqsadida, fuqarolarning farovonligini saqlash uchun olib boradi.

Forobiy boshqaruv instituti shakllariga ham o'zining katta e'tiborini qaratdi. Bunda bu muammo ikkilamchi xisoblanib, asosiysi esa kishilarni baxtu-saodatga erishishlarida namoyon bo'ladi. Boshqaruv instituti bu asosiy maqsadni amalga oshirishning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv instituti funktsiyalari bevosita davlat boshlig'iga qo'yiladigan talablaridan kelib chiqadi. Forobiy ideal davlat boshlig'iga 12 talab qo'yadi: salomatlik, farosatlilik, kuchli xotira, zukkolik, notiqlik, ma'rifatga intilish, nafsni jilovlash, haqiqatga muhabbat, oriyatlilik, mol-dunyo ketidan quvmaslik, adolatparvarlik, qat'iylik va jasurlik.<sup>4</sup> Shahar boshlig'ining boshqaruv faoliyatini sermaxsul darajasi unda mujassamlashgan ushbu sifatlarning salmog'i bilan o'lchanadi. Shuning uchun bu sifatlarning muhimligi tufayli rahbar bir odam, ikki, bir necha, yoki xalq tomonidan saylanadigan shaxs bo'lishi mumkin.

Ideal davlat institutining ideal rahbarini tasvirlab berar ekan, Forobiy bir odamning Shuncha sifatga ega bo'lishini juda murakkab, deb hisoblaydi. Chunki tabiatan Shunday xususiyatga ega bo'lgan insonlar juda kam uchraydi. Shuning uchun Forobiy rahbarlikka bir odamni emas, balki ikki va undan ko'proq insonlarni taklif qiladi, Lekin baribir u bir odamning, kuchli shaxsning rahbarligiga o'z moyilligini bildiradi.<sup>5</sup>

Albatta, Platon, Aristotel va Forobiy o'z ta'limotlariga sotsial institut tushunchasini bevosita qo'llamaganlar. Lekin ular tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-siyosiy nazariyalarda sotsial institut muammolari o'z davri xususiyatlarida tadqiq etilgan. Masalan, Platon o'z qarashlarida siyosiy institut – davlatning funktsiyalariga asosiy e'tiborini qaratgan bo'lsa, Aristotel ta'limotida iqtisodiy institut, ya'ni hozirgi kundagi eng dolzarb hodisa – o'rta sinf instituti ideal jamiyatning asosiy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Forobiyning asarlarida esa boshqaruv instituti markaziy o'rinni egallaydi.

XX asrda sotsial institut haqidagi keng miqyosli, zamonaviy ilk tasavvurlarni taniqli amerikalik sotsiolog T.Veblen ishlab chiqdi. O'z asarlarida u jamiyat evolyutsiyasini sotsial institutlarning tabiiy tanlovi, deb e'tirof etadi. Bu fikrlar yuqorida ta'limotlari tahlil qilingan mutafakkirlarning ilmiy-tarixiy merosiga to'la mos keladi. O'z mohiyatiga ko'ra sotsial institutlar tashqi o'zgarishlar tomonidan vujudga keltiriladigan, rag'batlarga javob qaytaruvchi dastlabki vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'z navbatida yana bir amerikalik olim R.Mills institut tushunchasini sotsial rollarning yig'indisini tashkil etuvchi hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, sotsial institutlar bajarayotgan vazifalariga (diniy, harbiy, ma'rifiy, huquqiy va hokozolar.) mos tarzda institutsional tartibni belgilab beradi.

Nemis sotsiologi A.Gelen mazkur masala tahliliga optimal tarzda yondashgan. Uning fikricha, institut bu – huddi jonvorlarning fe'l-atvorini boshqaradigan instinktlar kabi kishilarning ma'lum bir oqimga yo'naltirilgan xatti-

<sup>4</sup> Xolbekov A. Boshqaruv sotsiologiyasi. -Toshkent.: «Akademiya», 2007. B.49-51

<sup>5</sup> Iskandarov B. O'rta Osiëda falsafiy va ijtimoiy-siësiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. - Toshkent.: «O'zbekiston», 1993, B.31

harakatlarni muvofiqlashtiruvchi muassasa bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, institutlar kishilarning hulq-atvorlarini tartiblaydigan qoidalarni ta'minlaydi va ularni jamiyat to'g'ri, deb hisoblaydigan yo'ldan yurishga undaydi.

Polyak olimi YA.Shepanskiy shunday fikrni ilgari suradiki, unga muvofiq sotsial institutlar muassasalar tizimi bo'lib, ularda sotsial guruhlar a'zolaridan saylangan kishilar ma'lum bir ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun vakolatga ega bo'ladilar. Mazkur vakolat doirasida esa kishilarning individual va guruhiy ehtiyojlarini qondirish hamda guruhning boshqa a'zolarining hulq-atvorini muvofiqlashtirish maqsadida faoliyat olib boriladi.

Shuningdek, ushbu olim sotsial institutlar ijtimoiy hayotda quyidagi funksiyalarni bajaradi, deb hisoblaydi:

- kishilarga turli ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini yaratish;
- kishilarning sotsial munosabatlar doirasida xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi, ya'ni ko'ngil istagan harakatni bajarilishini ta'minlaydi, yoki istalmagan harakatni amalga oshirishni jazolaydi;
- o'zining sotsial muvofiqlashtiruvchi tizimi orqali ijtimoiy tuzumni qo'llab-quvvatlab turadi va boshqa sotsial funktsiyalarning takror ishlab chiqarishini amalga oshiradi;
- kishilarning intilishlari, harakatlari va munosabatlarining integratsiyasini amalga oshiradi va ularning ushbu hamkorligi asosida jamiyatdagi ichki jipslikni ta'minlaydi.

Rossiyalik sotsiolog S.S.Frolov horijiy adabiyotlarni tanqidiy ruhda tahlil etib, sotsial institut tushunchasiga o'zining quyidagi ta'rifini berishga harakat qiladi: «Sotsial institut bu – jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ahamiyatli ijtimoiy qadriyatlar va tartiblarni o'zida mujassamlashtirgan sotsial aloqalar va me'yorlarning uyushgan tizimidir».<sup>6</sup>

YUqorida keltirilgan turli xil yondashuvlarni umumlashtirib, A.I.Kravchenko sotsial institutlar o'zida quyidagilarni namoyon qiladi, deb hisoblaydi:

- me'yorlar va maqomlarni mujassamlashtirgan rollik tizimini;
- udumlar, an'analar va hulq-atvor qoidalarning yig'indisini;
- formal va noformal tashkilotlarni;
- ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini muvofiqlashtiruvchi me'yor va muassasalar yig'indisini;
- sotsial harakatlarning alohida majmuasini.

Demak, sotsial institutlarni ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini (oila, ishlab chiqarish, davlat, ta'lim, din va hokazolar.) muvofiqlashtiruvchi me'yor va mexanizmlar yig'indisi sifatida talqin qila turib, sotsiologiya bizni ushbu mexanizmi jamiyatning fundamenti yoki bazoviy elementi sifatida tushunishimizga asos topib berdi, desak sira mubolag'a bo'lmaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, sotsial institutlar muammosining tahlili sotsiologiyadagi evolyutsionistik maktab, aniqrog'i, ingliz sotsiologi Gerbert Spenserning tabiat va jamiyat hodisalarini aynanlashtiruvchi yondashuvi xususiyatiga o'xshab ketadi.

---

<sup>6</sup> Frolov S.S. Sotsiologiya. – Moskva.: «Prospekt». 2012. -S.158.



Ma'lumki, G.Spenser o'zining asosiy asarlaridan bo'lgan «Sotsiologiya asoslari»dagi boblaridan birida to'g'ridan-to'g'ri «jamiyat bu – organizmdir», deb ta'kidlaydi, biologik va sotsial organizmlarga (jamiyat) xos bir turkum o'xshashliklarni sanab o'tadi:

- agarda biologik organizm ho'jayralardan tashkil topgan bo'lsa, sotsial organizm (jamiyat) esa konkret kishilardan tashkil bo'ladi

- jamiyat ham biologik organizmga o'xshab hajm jihatidan o'sish xususiyatiga egadir. Masalan, kichik davlatlar asta-sekinlik bilan imperiyaga aylanib boradi;

- jamiyatning o'sish darajasiga muvofiq uning strukturasi ham biologik evolyutsiya jarayoniga o'xshab murakkablashib boradi;

- biologik organizmda ham sotsial organizmda ham struktura differentsatsiyasi funktsiya differentsatsiyasiga xos bo'ladi;

- agarda biologik organizmning biror-bir a'zosi xastalansa, organizmning boshqa a'zolari faoliyat ko'rsatib turadi (albatta faqat ma'lum bir muddat davomida), jamiyatning biror-bir sohasi zaiflashsa, boshqa sohalar ham bir muddat faoliyat ko'rsatib turishi mumkin. Lekin keyin biologik organizm uchun ham, sotsial organizm uchun ham jiddiy xavf-xatar vujudga keladi.

Yuqoridagi sotsiologik an'anaga tayanib, shunday fikrga kelish mumkinki, jamiyatda sotsial institutlarning roli huddi tabiatdagi biologik instinktlar bajarayotgan vazifaga mos keladi. Masalan, jonvorlar atrof muhitga o'zlarining instinktlari orqali moslashadilar. Instinktlar ularga shavqatsiz hayvonot olamida tirik qolish va o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Kishilik jamiyatida bu funktsiyani asrlar davomida kechgan madaniy evolyutsiya negizida shakllangan sotsial institutlar bajaradi. Ular ham kishilarga, albatta alohida kishiga emas, balki jamiyatni hamma a'zolariga ijtimoiy hayotda mavjud bo'lish va faoliyat olib borish uchun kurashda yordam beradi.

Ijtimoiy hayotni tashkil etuvchi barcha sotsial institutlar asosiy va asosiy bo'lmagan kategoriyalarga bo'linadi. Shuningdek, tashkil topish davri va mavjud bo'lish holati ham sotsial institutlarni tasniflash mezonini bo'lib xizmat qiladi. Amrikalik sotsiolog R. Mills zamonaviy jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan beshta asosiy institutlar turini alohida ajratib ko'rsatadi:

- iqtisodiy institutlar (ho'jalik faoliyatini tashkil etuvchilar);
- siyosiy institutlar (hokimiyat faoliyatini muvofiqlashtiruvchi);
- oila institut (jinslar o'rtasidagi munosabatlar, bolalarni tug'ilishi va ularning ijtimoiylashuv jarayonini tashkil etuvchi);
- harbiy institutlar (jamiyat xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ulanuvchilar);
- diniy institutlar (jamoaviy tarzda ilohiyotni ulug'lashni muvofiqlashtiruvchi).

A.I.Kravchenko ijtimoiy hayotni tashkil etuvchi fundamental institutlar quyidagi maqsadga erishish mexanizmi bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tadi<sup>7</sup>:

- avlodni davom ettirishga bo'lgan ehtiyoj (oilalar va nikoh institutlari);

<sup>7</sup> Kravchenko A.I. Sotsiologiya. –Moskva.: «Prospekt». 2006. -S.193.

- ijtimoiy xavfsizlik va tartibga bo'lgan ehtiyoj (siyosiy, huquqiy va davlat institutlari);
- yashash uchun vositalarga ega bo'lishga ehtiyoj (iqtisodiy institutlar, ishlab chiqarish);
- bilimlarni uzatish, voyaga etayotgan avlodning ijtimoiylashuvi, mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj (keng ma'nodagi ta'lim instituti, shuningdek, fan va madaniyat institutlari);
- ma'naviy va hayot mazmuni muammolar echimiga mos ehtiyoj (din instituti).

Sotsial institutlar ma'lum bir funktsiyalarni, ya'ni vazifalarni bajaradilar. Funktsiya tushunchasi lotincha «functio» so'zidan olingan bo'lib, bajarish, amalga oshirish ma'nolarini bildiradi. Kundalik hayot terminida gapirilsa, sotsial institutlarning funktsiyasi bu – jamiyatga foyda keltirish, ya'ni hal qilinayotgan vazifalar, maqsadlarga erishish va ko'rsatilayotgan xizmatlarning yig'indisidir.

Sotsiologiyadagi institutsional maktab vakillari: S.Lipset, D.Landberg va boshqalar sotsial institutlarning quyidagi funktsiyalariga asosiy e'tiborlarini qaratadilar:

- jamiyat a'zolarini ko'paytirish. Bu vazifani bajaruvchi asosiy institut - oiladir;
- ijtimoiylashuv – kishilar tomonidan mazkur jamiyatda o'rnatilgan hulq-atvor namunalari va faoliyat vositalarini boshqa kishilarga uzatish. Oila, ta'lim, tarbiya, din, madaniyat va boshqa sotsial institutlar bu jarayonni sodir etilishining asosiy omillari bo'lib xizmat qilishadi;
- moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash. Iqtisodiy institutlar ushbu vazifalarni bajaruvchi asosiy institutlardan hisoblanadi;
- ma'naviy-ma'rifiy muammolarni hal qilish. Bunda asosan ta'lim, tarbiya, din va boshqa institutlar faoliyati muhim ma'no kasb etadi.

Rossiyalik sotsiologlar – A.A.Radugin va K.A.Radugin sotsial institutlar bir-birlaridan o'zlarining funktsional sifatleri bilan farq qilishlarini ta'kidlab, ularni quyidagicha tasavvur qilishlarini bayon etishadi:

- iqtisodiy-ijtimoiy institutlar – mulkchilik, ayirbosh, pul, banklar, turli turdagi ho'jalik birlashmalari. Ular barcha ijtimoiy boylikni ishlab chiqarish va taqsimoti bilan Shug'ullanib, bunda jamiyat iqtisodiy hayotini boshqa sohalar bilan bog'lanishini ta'minlaydilar;
- siyosiy institutlar – davlat, partiyalar, kasaba uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlari. Ular ma'lum bir siyosiy manfaatni ko'zlash maqsadida konkret siyosiy hokimiyatni o'rnatish va uni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Ularning yig'indisi mazkur jamiyatning siyosiy tizimini tashkil etadi. Siyosiy institutlar mafkuraviy qadriyatlarni takror ishlab chiqarish va ularni saqlanishini ta'minlaydi va jamiyatdagi mavjud ijtimoiy strukturaning barqarorligini saqlaydi;
- ijtimoiy-madaniy va tarbiya institutlari. Madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish va takror ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lib, kishilarning ijtimoiylashuv jarayonini amalga oshirishga asos bo'ladi.<sup>8</sup>

<sup>8</sup> Radugin.A.A., K.A.Rudugin. Sotsiologiya. –Moskva.: «TSentr». 1999. -S.99.

2. Sotsial institutlar ijtimoiy hayotda ma'lum bir funktsiyani bajarar ekan, bu funktsiyalar asosan ikkita: oshkora va yashirin (latent) shaklga egadir. Ushbu muammo tahlili XX asrning taniqli olimi, amerikalik sotsiolog R.Merton tomonidan struktur-funksional metodologiya asosida olib borilgan. Uning fikricha, oshkor – sotsial jarayonlarning anglangan va erkin, yashirin esa aksincha, anglanmagan va bexosdan amalga oshgan funktsiyadir.

Oshkor funktsiya deganda shuni tushuniladiki, uning faoliyatini natijalari maqsadli xususiyatga ega va bu natijalar kishilar tomonidan anglangan holatda bo'ladi. Odatda u rasmiy ravishda namoyon bo'ladi va jamiyat tomonidan nazoratda bo'ladi. Agarda institut o'zining oshkor funktsiyalarini uddalay olmayotgan bo'lsa, unda uni tartibsizliklar va keskin o'zgarishlar kutadi.

Yashirin (latent) funktsiya, deb uning faoliyati oqibatlarini kishilar anglab etmaydigan va bu harakatlar maqsadga yo'naltirilmaganligi namoyon bo'ladi. Aksariyat hollarda ayrim institutlar nafaqat o'z funktsiyalarini bajarmaydilar, balki ularga to'siq ham qo'yishlari mumkin. Bu Shundan dalolat beradiki, mazkur institutda yashirin funktsiya kechmoqda va u ma'lum bir sotsial guruhlar ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda, holos. Bunday holatlarni ko'pincha siyosiy institutlar faoliyatida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Chunki ularda yashirin funktsiyalar yuqori darajada rivojlangandir.

Binobarin, yashirin funktsiyalarni payqash juda murakkabdir, lekin aynan ular sotsiolog uchun juda ahamiyatlidir. R.Merton shuni alohida ta'kidlaydiki, agarda sotsiolog sotsial institutlarning faqat oshkora funktsiyalari orqali ma'lum bir maqsadlarda tashkil qilingan tashkilot yoki muassasa o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishi muammosini tahlili bilan chegaralanib qolsa, unda bu mutaxassis hulq-atvorning ilgari ma'lum bo'lgan tizimini oddiy qayd qiluvchisiga aylanib qoladi. Bunday vaziyatga tu Shmaslik uchun sotsiolog sotsial institutlarning yashirin funktsiya xususiyatlarini yaxshi o'zlashtirib, o'z faoliyatini olib borishi taqozo etiladi. Muxtasar qilib aytganda, sotsiologning intellektual salohiyati avvalambor institutlarning yashirin funktsiyalarini tizimli tarzda o'rganishida namoyon bo'ladi. Huddi shu sifati bilan sotsiolog jamiyatni tadqiq qilishga o'zining asosiy, maxsus ulu Shini qo'shadi.

R.Mertonning fikricha, institutlarning yashirin funktsiyalarini o'rganish sohasidagi kashfiyotlar oshkora funktsiyalarning tadqiqoti natijalariga nisbatan ko'proq foyda keltiradi va ular sotsiologik bilimning boyishiga salmoqli hissani qo'shadi. Shu bilan birgalikda masalaning boshqa murakkab tomoni ham mavjud. Chunki institutlarning yashirin funktsiyalarini tahlil qilish ko'pgina hollarda paradoksal (umum tomonidan qabul qilingan, ilmiy qoidalarga mos kelmaydigan fikrlarga) xulosalarga olib keladi. Masalan, T.Veblen, o'zining «Bekorchi sinf nazariyasi» asarida harid qilish, jamg'arish va iste'mol qilishning yashirin funktsiyalarini o'rgana turib, shunday paradoksal fikrga keladiki, insonlar qimmatbaho buyumlarni sifat jihatidan arzonlaridan ustun turgani uchun emas, aksincha, bu tovarlar qimmatligi tufayli o'zlarida «moliyaviy qudrat» va «yuksak sotsial» maqomni mujassamlashtirgani tafayli harid qiladilar. Uning fikrlarini konkret tahlil qilsak, shunday xulosaga kelish mumkinki, iqtisodiy institutlar iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishda yashirin funktsiyani ham bajaradi, ya'ni

kishilarning o'z sotsial maqomlarini yuksaltirishga qaratilgan ehtiyojlarini qondiradi.

U shunday yozadi: «Qimmatbaho tovarlarni, shuningdek, tannarhidan sezilarli darajada yuqori baholanayotgan buyumlarni iste'mol qilish maqtovga sazovordir. Chunki qimmatbaholik tovarlardan jismoniy maqsadda serunum foydalanishga omil bo'ladi. Tovarlardagi ortiqcha qimmatlilik alomati qadr-qimat bilan ham bog'liq bo'lib, undan egri va hasadgo'ylik maqsadida ham foydalanish mumkin». Shunday qilib, oliy turdagi tovarlarni namoyishkorona iste'mol qilish kishining yuqori sotsial mavqesining tasdig'i bo'lib xizmat qilishi mumkin.

T.Veblen tomonidan olib borilgan iste'mol tahlili ijtimoiy ongda bugungi kunda ham keng tarqalgan hodisadir va u aniqlagan yashirin funktsiyalar hammaga ayondir. Sotsial institutlarning yashirin funktsiyalarini o'rganish ijtimoiy hayot haqida ishonchli tasavvurni uyg'otibgina qolmasdan, sotsial aloqalar, sotsial ob'ektlar rivoji ustidan nazoratni amalga oshirish va ularda kechayotgan jarayonlarni boshqarish imkoniyatlarini ham beradi.

Sotsial institutlar ijtimoiy hayotni tashkil etishda ma'lum bir funktsiyalarni bajarar ekan, bu jarayonlarning buzilishi disfunktsiya holatini keltirib chiqaradi. A.A.Radugin va K.A. Raduginlarning ta'kidlashicha, agarda sotsial institutlarning bosh funktsiyasi sifatida u yoki bu ijtimoiy ehtiyojni qondirishni e'tirof etilsa, lekin vaqt o'tishi bilan jamiyatda kechayotgan ayrim jarayonlar alohida kishining ham, butun bir sotsial guruhlarning ham ehtiyojlarini o'zgartiradi. Bu hol esa sotsial institutlarning sotsial muhit bilan aloqalari xususiyatlarini o'zgarishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida ayrimlari kamroq ahamiyatga ega bo'lishi, boshqalari esa umuman iste'moldan chiqishi mumkin. Natijada bu ehtiyojlarni amalga oshirayotgan sotsial institutlar davr talabiga javob bera olmasligi va keyingi faoliyati biror bir ma'noga ega bo'lmasligi tufayli ular ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'lishi mumkin. Jamiyatda kechayotgan intensiv o'zgarishlar tufayli ma'lum bir ijtimoiy ehtiyojlar mavjud sotsial institutlar strukturasi va funktsiyalarida o'ziga muvofiq ahamiyatini topa olmaydi.

Bunday nomuvofiqlik disfunktsiya holatini keltirib chiqaradi. Disfunktsiya o'z aksini tashqi, (moddiy) strukturada (moddiy resurslarning taqchilligi, tayyorlanayotgan mutahassislar etishmovchiligi va hokazolar.) va ichki mazmunli faoliyatida (masalan, institut faoliyati maqsadining aniq emasligi, funktsiyalarni mujmalligi, institut nufuzi va obrusini tu Shib borishi va hokazolar.)da topadi.

Shuningdek, disfunktsiya sotsial institut o'zining jiddiy sifati – depersonalizatsiya faoliyatini yo'qotganda ham vujudga keladi. Ma'lumki, sotsial institut ob'ektiv tarzda faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy mexanizm bo'lib, unda inson joriy etilgan me'yor va namunalar asosida o'z mavqesiga mos bo'lgan ma'lum bir ijtimoiy rolni bajaradi. Depersonalizatsiya tamoyilining mohiyati shundaki, unga muvofiq institutning funktsiyalarini bajarilishi sotsial rolarni aniq taqsimlanganligi va yaxlit mexanizmning sermaxsul faoliyatiga taalluqlidir. Ya'ni, bu funktsiyalarning talab darajasida bajarilishi kishilarning biror-bir shaxsiy moyillik xususiyatiga, manfaatlari va boshqa sub'ektiv holatlarga bog'liq bo'lmasligi lozim.

Institutning personalizatsiyasi (depersonalizatsiyaning yo'qolishi) Shunday jarayonki, unda institut ob'ektiv ehtiyojlar va ob'ektiv o'rnatilgan maqsadalarga

muvofiq kelmay qoladi, uning ob'ektiv funksiyalari ikkinchi darajali holatga tu Shib qoladi.

Birinchi darajaga esa konkret harakat qilayotgan kishilarning Shaxsiy va korporativ manfaatlari va shuningdek, ularning personal sifatlari va xususiyatlari ko'tariladi. Bu holat esa o'z navbatida sotsial institutni o'zining mavjudligini ta'minlaydigan asosiy maqsad – u yoki bu sotsial ehtiyojni ta'minlashga qaratilgan faoliyatini susayishiga olib keladi.

Sotsial institutlar tizimi bir ijtimoiy tuzumdan boshqasiga o'tish davrida o'zgarishlarga ko'proq moyil bo'ladi. Aksariyat an'anaviy institutlar oldida ikki holatdan biri: yoki o'z faoliyatni butkul to'xtashini, yoki yangi vazifalarni bajarishga moslashishini tanlash muammosi gavdalanadi. Sotsial institutlarning boshqa sotsial me'yorlar, qadriyatlar va munosabatlar asosida qayta shakllanishi yoki yangilarini vujudga kelishi uzoq muddatni taqozo etadi. Chunki shoshilinch ravishda kishilar hulq-atvorining yangi standartlarini shakllantirish, ularning ongi va psixologiyasini o'zgartirishning sira iloji yo'q.

Agar shunday qilinsa, u holda kishilar yangi sotsial munosabatlarning muammolarini hal qila olmasliklari tufayli hayotiy faoliyatning an'anaviy sohalarida, ijtimoiy tartibni saqlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishlari muqarrardir. E.Dyurkgeym jamiyatning o'tish davrlarida an'anaviy institutlar faoliyatining tartib-qoidalarining buzishilishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisani «anomi»ya tushunchasi bilan izohlagan edi.

Sotsial institutlar o'z funksiyalariga qarab tasniflanar ekan, bunda avvalo oila institutining ahamiyatiga asosiy e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Chunki u boshqa institutlar ichida eng ko'hnaalaridan hisoblanadi. Shuning uchun oila instituti bir qator ijtimoiy fanlarning tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologiyada ushbu institut muammolari ham nazariy, ham amaliy jihatlarda o'rganiladi. Rossiyalik sotsiologlar Nartov N.A, V.YU.Belskiy larning fikricha, oila o'zida sotsial institut va kichik guruh sifatlarini mujassamlashtiradi.<sup>9</sup> Oila sotsial strukturaning mikromodeli bo'lib xizmat qiladi va o'zida kishilarning shaxsiy muloqotlari va munosabatlar kechishini namoyon etadi.

Sotsiologlarni avvalambor oilaviy hulq-atvor namunalari (oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish, unda o'rnatilgan rollar va hokazolar.) qiziqtiradi. Bunday holatda oilaning shakllanish jarayoni yoshlarni bir-birining ko'nglini olish me'yorlari va standartlari, bo'lg'usi umr yo'ldoshini tanlash, jinsiy hulq-atvor va kelin va kuyovlarning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlarning yig'indisi sifatida nazarda tutiladi.

Er va uning ayoli o'rtasidagi munosabatlar nikoh instituti tomonidan maxsus joriy qilingan me'yorlar va sanktsiyalar tizimi orqali muvofiqlashtiriladi. Ayrim me'yorlar, huquq, burch va majburiyatlar yuridik xususiyatga ega va ular qonunlar hamda oila kodeksi tomonidan tartiblanadi. Masalan, er va uning ayolini bir-birlariga, bolalarga nisbatan moddiy majburiyatlari, oilaviy mulkni birgalikda tasarruf etish, nikohni bekor qilishning huquqiy asoslari va hokazolar.

Boshqa me'yorlar esa jamiyatda qabul qilingan axloq, urf-odatlar va an'analarga muvofiq amalga oshiriladi. Masalan, nikohgacha bo'lgan hulq-atvor,

<sup>9</sup> Nartov N.A., Belskiy V.I.O, Sotsiologiya. –Moskva.: «IONITI». 2012. -S.299.

er va uning ayolini oiladagi vazifalari, farzandlar tarbiyasi, oilaviy ko'ngil ochar tadbirlar va hakoza. Demak, nikoh instituti oila institutining ajralmas qismi sifatida o'zining muhim o'rniga ega.

Sotsiologiyada oilaga turli-tuman ta'riflar berilgan. Shularning ichida quyidagi ta'rif o'zining oddiy, konkret va tushunarligi bilan alohida ajralib turadi: oila kundalik turmush va o'zaro ma'suliyat bilan bog'langan kishilarning nikoh va qon-qarindoshlik asosidagi birlashuvidir. Oila bu – kichik guruh sifatida nikoh yoki qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan er va xotin, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tarixiy konkret tizimidir.

Ma'lumki, oilaviy munosabatlarning dastlabki asosini nikoh tashkil etadi. Nikoh erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy o'zgaruvchi shakli bo'lib, uning vositachiligida jamiyat ularning jinsiy hayotlarini tartiblaydi hamda er-xotinning huquq va majburiyatlarini o'rnatadi. Biroq, oila o'zida nikohga nisbatan murakkab munosabatlar tizimini ifodalaydi. Chunki u o'zida nafaqat er va xotinni, balki ularning bolalari hamda boshqa qarindoshlarini ham jamlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila nikoh guruhi emas, aksincha, sotsial institut bo'lib, u nasl qoldirish funksiyasini amalga oshiruvchi, jinslar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi aloqalar va o'zaro faoliyatlarni muvofiqlashtiruvchi tizimdir.

Reproduktivlik oilaning asosiy, birlamchi funksiyasi hisoblanadi, ya'ni u jamiyat uchun aholini biologik ko'paytirish hamda shaxsan o'zi uchun bolalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish jarayonidir. Ushbu asosiy funktsiya bilan birga oila bir qator boshqa muhim ijtimoiy funktsiyalarni ham bajaradi:

- tarbiyaviy – yosh avlodni ijtimoiylashtirish, jamiyatda madaniy takror ishlab chiqarishni saqlab turish;
- xo'jalik-turmush – jamiyat a'zolarining jismoniy salomatligini saqlash, farzandlar va oiladagi qariyalarni parvarish qilish;
- iqtisodiy – oila a'zolarining boshqalar uchun moddiy mablag'larni olishi, jamiyatning voyaga etmagan va mehnatga layoqatsiz a'zolarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- birlamchi sotsial nazorat sohasi – oila a'zolarining xulq-atvorlarini axloqiy jihatdan qat'iy belgilash, shuningdek er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, katta va o'rta avlod vakillari o'rtasidagi munosabatlarda javobgarlik va majburiyatlarni qat'iy belgilash;
- ma'naviy muloqot – oila a'zolarini shaxs sifatida rivojlantirish, o'zaro ma'naviy boyitish;
- ijtimoiy-mavqe – oila a'zolariga muayyan ijtimoiy mavqeni taqdim etish, ijtimoiy tuzilmani takror yaratish;
- bo' Sh vaqtini oqilona tashkil etish, manfaatlarni o'zaro boyitish;
- emotsional-ruhiy himoya, emotsional madadni olish, individlarning emotsional barqarorlashuvi va ularning ruhiy terapiyasi.

Oila va nikoh institut sifatida jamiyat vujudga kelganidan boshlab Shakllandi va rivojlandi. Nikoh Shakliga qarab oilalar monogamik va poligamik turlarga bo'linadi:

1. Poligamiya – bu bir kishini bir nechta umr yo'ldosh bilan nikohidir.

Poligamiya ikki xil turga egadir: 1) poliginiya – bir erkakning bir necha ayol bilan nikohi (patriarxat); 2) poliandriya (andr - erkak) – bir ayolning bir necha erkak bilan nikohi. Patriarxat davridagi nikoh Shaklida urug'dagi hokimiyat ayolning qo'lida bo'lgani tufayli bolalar ota tomonidan emas, balki ona tomonidan tegishli hisoblanar edi. Ekzogamiya – nikohning oraliq Shakli bo'lib, unga muvofiq bir kishi bir nechtasi bilan nikohda bo'ladi, albatta, o'zining qarindosh-urug'ning doirasidan tashqaridagilar bilan. Endogamiya esa bunday nikohini qon-qarindoshlar ichida tashkil etishidir. Hozirda poligamik nikohlar asosan Yaqin Sharq va shimoliy Afrika mamlakatlari hamda Fors ko'rfazi atrofidagi davlatlarda ko'proq uchraydi. Chunki bu mamlakatlarda davlat boshqaruvida dunyoviylik emas, balki diniylik tamoyili hukmronlik qiladi.

2. Monogamiya – bir erkakni bir ayol bilan nikohidir. Zamonaviy dunyoviy jamiyatlarda aksariyat nikohlar Shunday Shaklga ega. Jumladan, bizning mamlakatimiz Sharoitlarida ham Shunday tartib o'rnatilgan.

Ijtimoiy hayotning ilk davrlarida jinslar va avlodlar o'rtasidagi munosabatlar qabila-urug'larning diniy-axloqiy mazmundagi urf-odatlar tomonidan tartibga solingan. Davlat institutining Shakllanishi tufayli oilaviy hayot tartiblari endi huquqiy maqomga ega bo'ldi. Nikohni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish nafaqat er-xotonga, balki nikohni tuzilishiga ruxsat bergan davlat institutiga ham ma'suliyat yukladi.

Zamonaviy jamiyatlarda oila ikki xil ko'rinishga ega: nuklear va kengaygan. Nuklear oila er-xotin va ularning hali oila qurmagan bolalaridan iborat bo'ladi. Kengaygan oila er-xotin va ularning hali oila qurmagan bolalaridan tashqari yana qaynota-qaynona, ularning boshqa farzandlari va xatto ularning o'z oilalaridagi farzandlaridan tashkil topgan bo'ladi. Bu turdagi oilalar asosan Sharq mamlakatlarida mavjud. G'arb mamlakatlariga esa nuklear oilalarga ega bo'lish xosdir.

Albatta, keyingi yillarda G'arb mamlakatlarda an'anaviy oila instituti mavqesi anchagina yo'qolib, u ma'lum bir qiyinchiliklarni boshidan kechirmoqda. Buning natijasida bu mamlakatlarda nikohning g'ayri insoniy Shakli – bir jinsi nikohlarni vujudga kelishi avj olmoqda. Achinarlisi shundaki, ayrim davlatlarda bunday nikohlar tuzilishiga demokratiya niqobi ostida, go'yoki jinsiy kamchilik – gomoseksuallarning manfaatini himoya qilish bahonasida rasman ruxsat berilmoqda. Bu salbiy holat G'arb jamiyati jamoatchiligining ilg'or fikrlaydigan qismida katta tashvish uyg'otmoqda. Chunki an'anaviy oilaning tanazzuli bu turdagi g'ayir-tabiiy nikohlarni shiddat bilan ko'payishiga asos bermoqda. O'z navbatida bunday noxu Sh holat oilaning asosiy funksiyasi – reproduktivlikni yaqin yillar ichida batamom yo'qolishiga asosiy omil bo'ladi.

Mamlakatimizdagi milliy xususiyatimizni ifodalab beradigan ijtimoiy-madaniy muhit bizda oila instituti barqarorligini yuksalib borishiga asosiy ta'sirni ko'rsatayapti.

Davlatimizning oila instituti barqarorligiga berayotgan har tomonlama katta e'tibori tufayli oila o'zining barcha funksiyalarini yuqori saviyada bajarayotgani jamiyatimiz taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

5. Ma'lumki, din va diniy e'tiqod sotsial institut sifatida odamzodning paydo bo'lishi bilan vujudga keldi va uzoq tarixga ega bo'lgan mashaqqatli evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda sotsiologiyada dinni sotsial institut sifatida o'rganadigan bir-biridan keskin farq qiladigan, yoki o'xshash bir qator yo'nalishlar Shakllangan. Ularning har birini asosida u yoki bu sotsiologik voqelik xususiyatini aks ettirgan tasavvurlar yotadi. XVIII asrning oxirigacha dinning integratsiyalashtiruvchi funktsiyasi haqida gapirish juda mu Shkul edi. Yevropa O'rta asrlari va YAngi davrning boshlanishi diniy ko'rinishdagi ko'plab konfliktlarga boy bo'ldi. Reformatsiya diniy asosdagi ziddiyatlarga shunday qaltis holatlarni olib kirdiki, jamiyat osoyishtaligi va tinchligini nisbatan bo'lsada ta'minlash uchun din va davlat ta'sirini ajratish zaruriyati paydo bo'ldi.

Rossiyalik taniqli sotsiolog V.I.Garadjaning ta'kidlashicha, o' Sha davrning mutafakkirlar – T.Gobbs, J.Lokk, D.YUm kabilar din jamiyatga barqarorlik olib keluvchi kuch emas, degan iddaoni ilgari surishdi. Masalan, Gobbs o'z asarlarida xristian dini tarixidan lavhalar keltirib, jamiyat uchun dinda juda xavfli kuchlar mavjud, deb hisoblaydi.

Ma'rifatchilikning mo''tadil yo'nalishi esa din institutining sotsial foydasini ko'proq e'tirof etadi. Buning asosiy sababi sifatida hech bir jamiyat o'zining markaziy institutlari daxlsizligini tan olmasdan mavjud bo'la olmasliklarini ko'rsatib o'tadi. Masalaning jiddiyliigi shundan iborat ediki, Yevropa YAngi davrning konfessional dini aksariyat hollarda barqarorlik va tinchlik emas, aksincha, baxs va sotsial kelishmovchiliklar manbai bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun jamiyatda dinga shunday o'rin ajratish kerakki, unda u jamiyat hayotiga, ayniqsa uning barqarorligiga xavf solmaydigan makomga ega bo'lsin, degan tamoyilni ishlab chiqish harakatlari boshlandi.

Aynan Shu maqsaddan kelib chiqib, J.Lokk din va jamiyat munosabatlarini muvofiqlashtirish varianti sifatida dinni «xususiylashtirish», ya'ni uni davlatdan ajratish g'oyasini yoqlab chiqdi: davlat sotsial institut sifatida fuqarolar va ularning mulkini qo'riqlashi hamda ko'paytirishga yordam berishi lozim. Cherkov esa ixtiyoriy birlashma bo'lib, u hamjihatlik asosida ibodat qiladigan kishilar tomonidan tashkil etiladi.<sup>10</sup>

Muammoning boshqa variantini Jan Jak Russo taklif qildi. O'zining «Ijtimoiy Shartnoma haqida, yohud siyosiy huquqning boshlanishi» (1762 yil) asarida u quyidagilarni yozadi:

«Davlat uchun eng muhimi har bir fuqaroning o'z majburiyatlarini sevishga majbur qiladigan dinga ega bo'lishdir»<sup>11</sup>. Bunda u mavjud dinlarni emas, balki «fuqarolik dini»ni nazarda tutayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu erda so'z bevosita diniy arkonlar haqida emas, aksincha, ijtimoiy burch haqida ketayaptiki, usiz ibratli fuqaro ham, sodiq kishi ham bo'lishi mumkin emas. Ushbu arkonlarni qabul qilmagan kishilar xudoni emas, balki qonunlarni Chin dildan sevmaydigan antisotsial Shaxs sifatida jamiyatdan tashqariga chiqarib yuborilishi lozim.

<sup>10</sup> Garadja V.I. Sotsiologiya religii. –Moskva.: «INFRA-M». 2007. -S.32.

<sup>11</sup> Russo J.J. Grajdanskoe ispovedanie veri: pochemu gosudarstvu vajno, chtobi kajdiy grajdanin imel religio? //Religiya i obshestvo. Xristomatiya po sotsiologii religii. – Moskva.: «Aspkt-Press». 1996.- S.47.



Din va jamiyat mavzusida faoliyat ko'rsatgan sotsiologlar orasida dinga nisbatan eng radikal, tanqidiy munosabat bildirgan mutafakkir bu – Karl Marksdir. Uning fikricha, din sinfiy kurash maxsulidir va u jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni hukmron doiralari foydasiga himoya qilib chiqadi. Uning fikricha, din insonning tabiat hodisalari oldidagi o'zligining hosilidir va bu holat kishilarni jamiyatning dolzarb muammolaridan chalg'itadi. Ijtimoiy hayotning aniq misollari uning bu fikrlari batamom noto'g'ri ekanligini to'liq ko'rsatdi. K.Marks ta'limotini tanqidiy tahlil qilgan boshqa yo'nalishlarning vakillari hech bir jamiyat din va uning ta'sirisiz faoliyat ko'rsatmagani va ko'rsata olmasligini asoslashga harakat qildilar. Ular orasida E.Dyurkgeym va M. Veberni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Agarda E.Dyurkgeym ta'limotida dinning bosh vazifasi – jamiyat hayotini integratsiyalashtirish bo'lsa, Veber tadqiqotlarida din sotsial tizimdagi o'zgarishlar omili sifatida tahlil etiladi.

XVIII-XIX asrlardagi dinning radikal tanqidchilaridan farqi o'laroq, Dyurkgeym dinda «hom-hayollik», «sohta ong»ni emas, aksincha, inson mavjudligi asoslari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim institutni ko'rdi. Dyurkgeym tasavvuricha, din predmet va hodisalarni muqaddaslik va behudalikka ajratib berishi kerak. Dinning o'zi esa muqaddaslikka yo'naltirilgan e'tiqod va harakatlarning birdamlik tizimidir. Ushbu e'tiqod va harakatlar «axloqiy jamoa»ni vujudga keltirishga sabab bo'ladi.

Demak, din bu – insonlarning hulq-atvorini alohida bir tashkil etilgan shaklidir. Din individ mavjudligi uchun emas, aksincha, jamiyat mavjudligi uchun faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun dinning ifodachisi bo'lib individual emas, guruhning «jamiya ongi», ya'ni sotsial ong namoyon bo'ladi. Dyurkgeym tahminicha rituallar (rasm-rusumlar) ham jamiyat hayotining normal faoliyatiga huddi ijtimoiy ta'minot uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat kabi kerakli atributlardir. Rituallar tufayli guruh o'zini qo'llab-quvvatlashga erishadi va bu holat individ uchun o'ta muhimdir. Chunki uning o'zi guruhdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Rituallar esa kollektiv harakatlardir.

Har qanday jamiyat o'zining yaxlitligini saqlashga muhtojdir va bu vazifa din bilan bog'liq jarayonlar yordamida amalga oshiriladi. Aynan shu nuqtai nazardan dinning ushbu sotsial vazifasini hech nima bajarolmaydi. Din huddi huquq va axloq kabi sotsial institut sifatida, real kuch tariqasida jamiyat holatini belgilab beradi. Diniy e'tiqod va rasm-rusumlar tarixiy davrning barcha sharoitlarida o'zgarib borishidan qat'iy nazar jamiyatning integratsiyalashuv jarayoni dinning funksiyasi tasarrufida qoladi. Dyurkgeym uchun din avvalambor jamiyat barqarorligi, yaxlitligi va tartibining asosidir. Aynan shu tufayli din konservativ kuch bo'lib, u o'zgarishlar tomon emas, balki mavjud tartibni saqlashga qaratilgandir va «mudofaa» funksiyasini bajaradi. Dyurkgeymdan keyin dinning funksional tahlili rivoji B. Malinovskiy va A. Redklif-Braun tomonidan amalga oshirildi.

Mazkur an'anaga qarshi tarzda M.Veber dastlab funksionalistik pozitsiyadan turib, dinni sotsial jarayonlarning tarkibiy qismi, deb hisoblaydi. Bunda u dinni ijtimoiy barqarorlik asosi sifatida emas, aksincha, sotsial o'zgarish omili tariqasida

tushunadi. Taniqli amerikalik sotsiolog Talkot Parsons Veberning din institutining sotsial taraqqiyot omili haqidagi kontsepsiyasiga quyidagi bahosini bergan edi:

«Maks Veber hech bir sotsiolog ko'rsatib bera olmagan hodisani aniqladi, ya'ni jamiyatni asosiy turlarga ajralishi, muayyan sotsial o'zgarishlarning muhim rag'batlarini yaratilishi va ayniqsa, zamonaviy industrial jamiyat rivojining omilini belgilab berishda u buyuk diniy harakatlarning ahamiyatini bu jarayonlarga hal qiluvchi hissasini qo'shgan asketik protestantizm timsolida yaqqol isbotlab berdi»<sup>12</sup>. Bu erda so'z M.Veberninig 1904 yilda yozgan va 1905 yilda nashr ettirgan «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» asari haqida ketayapti.

Ma'lumki, zamonaviy Sharoitlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamiyat taraqqiyotining muhim poydevori hisoblanadi. Ushbu barqarorlikni ta'minlashda moddiy omillardan tashqari shunday ma'naviy omillar ham mavjudki, ularning ahamiyati birinchisidan kam emas. Jumladan, din instituti shunday omillar sirasiga taalluqli hisoblanadi. Hozirda har qanday jamiyatda din va uning sotsial ahamiyatini ancha salohiyatli deb e'tirof etish mumkin. Ayniqsa, ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlarda diniy e'tiqod o'ta nozik masalalar turkumiga tegishlidir. Shu jihatdan qaraganda bunday murakkab sotsial tarkibga ega jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash o'ta mu Shkul vazifadir. Lekin diniy omil rolini e'tiborga olmay turib, ushbu barqarorlikni ta'minlab bo'lmaydi.

Keyingi yillarda dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tangliklar hamda ular negizida sodir etilayotgan noho' Sh hodisalar jamiyat hayotida diniy omildan oqilona foydalanmaganlikning natijasidir. Chunki diniy e'tiqod negizdagi sotsial konfliktlar jamiyat uchun o'ta xatarli va talofatli bo'lgan fuqarolar uru Shini keltirib chiqarishi muqarrardir. Bu fikrga misol tariqasida Yevropa hududida shimoliy Irlandiya katoliklari va protestantlari, Bolqon yarim orolida xristianlar va musulmonlar, Misr va Livanda musulmon arablar va xristian arablar, AQSH okkupatsiyasidan keyin Iroqda, qadimgi tsivilizatsiya markazlardan bo'lgan ko'hna suriyada sunnitlar va shialar orasidagi xatarli ziddiyatlar hamda ular keltirib chiqarayotgan keskinliklarni keltirishimiz mumkin.

Albatta, hozirgi dunyoviy davlatlarda din davlatdan ajratilgan. Buning uchun albatta tarixiy zaruriyatlar ham mavjud bo'lgan. Ta'kidlab o'tilganidek, dinni davlatdan ajratish g'oyasini Yevropada birinchilarda bo'lib ko'tarib chiqqan olim bu – ingliz faylasufi J.Lokk. Lekin bu sotsiologik tamoyil bundan ancha ilgari, Movarounnahr hududida allaqachon o'z tatbiqini topib bo'lgan edi. O'tmishdagi davlatchiligimiz dunyoviylik xususiyatga ega bo'lgan deyishimizga to'la asoslar mavjud.

Mamlakatimiz tarixiga VII asrning oxirlarida kirib kelgan islom tez fursatda etakchi dinga aylandi va buyuk vatandosh bobokalonlarimiz faoliyati sababchiligida yanada rivoj topdi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Motrudiy, keyinroq esa Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad YAssaviy, Abdulholiq G'ijduvoniy, Bahouddin NAQSHband, Xo'ja Ahror Valiy kabi ko'plab ajdodlarimiz islom dini taraqqiyotiga butun musulmon olami so'zsiz e'tirof qilgan

---

<sup>12</sup> Parsons T. Obshiy obzor // Amerikanskaya sotsiologiya. Perspektivi, problemi, metodi. – Moskva.: «Progress». 1972. -S.376.

ulkan ulu Shlarini qo'shdilar. Ular qoldirgan tarixiy asarlarda jamiyat a'zolarining o'zaro tinchlik va totuvlikda yashash masalalari atroflicha yoritib berilganki, unda islomda mujassamlashgan bag'rikenglik tamoyili markaziy o'rinni egallaydi.

Bu erda aynan diniylik va dunyoviylikning mustahkam aloqasini kuzatishimiz mumkin. Avlodlarimizning islom tolerantligi haqidagi mazkur ta'limotlari jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy totuvlikni ta'minlashga mustahkam g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilib keldi. Demak, bugun jamiyatimizda xukm surayotgan diniy bag'rikenglik o'zining uzoq o'tmishi va tarixiy ildizlariga ega, degan fikrni bemalol ilgari sursak bo'ladi.

Zamonaviy O'zbekiston ko'p millatli va turli-tuman konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan dunyoviy mamlakat sifatida yuqoridagi tarixiy merosga tayanib kelmoqda. Millatlararo totuvlik, dinlar orasidagi bag'rikenglik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Milliy tarkib bo'yicha rasmiy ma'lumotlarga qaraganda o'zbeklar mamlakat aholisining  $\frac{3}{4}$  qismini tashkil etadi va jamiyatda islom etakchi din hisoblanadi. Mamlakat hududida ko'plab masjidlardan tashqari Cherkovlar va sinegogalar ham qad ko'tarib, ularda erkin diniy e'tiqod faoliyati olib borilmoqda. Tolerantlikning asosiy talablaridan biri esa bu – turli diniy e'tiqod egalari birlarining e'tiqodlarini oyoq osti qilmasliklaridir.

Mamlakatimizdagi turli konfessiyalar orasida totuvlik va bag'rikenglikni yanada mustahkamlanib borishi ko'p jixatdan mamlakat aholisining aksariyatini tashkil qiladigan, islom diniga e'tiqod qiladigan fuqarolarga asosiy ma'suliyatni yuklaydi. O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi tomonidan ruxsat etilib, nashr qilinayotgan diniy adabiyotlardan chuqur tanishib borayotgan ko'plab vatandoshlarimiz dinga birovni zo'rlab kirgizish mumkin emasligi, islomni qabul qilmagan, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilarni ta'qib qilmaslik va ularga azob-uqubat etkazishdan tiyilish zarurligini ushbu adabiyotlarda ilgari surilgan etarli dalil hamda hujjatlar asosida chuqur anglab etmoqdalar.

Shuningdek, televidenie ko'rsatuvlari va radioe Shtirishlarda taniqli diniy ulamolarning islom madaniy merosiga tayanib, bu masala bo'yicha qilayotgan ma'ruzalari ham boshqa dindagilarga nisbatan bag'rikenglik tuyg'usini shakllantirish bo'yicha o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Lekin hozirgi sharoitlarda hotirjamlikka berilish sira mumkin emas. Ayniqsa, diniy asosda konflikt Chiqarishga intilayotganlar ig'volariga uchmaslik kerak. Boshqa mamlakatlar uchun «ibratli namuna» bo'lishga da'vogarlik qilayotgan ayrim G'arb mamlakatlarida «erkin dunyo matbuoti» niqobi ostida e'lon qilingan g'alamis karikaturalar, suratga olinib, internet tarmog'iga joylashtirilgan beburd video lavhalar dunyo musulmonlari va xristianlari orasiga nifoq solishi, uning asosida kelib chiqish ehtimoli bo'lgan konfliktlar esa global miqyosda, jumladan mamlakatimizda ham mavjud ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka o'ta salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Shu jihatdan qaraganda, dinni sotsial institut sifatida bajarayotgan funksiyalari tufayli bunday salbiy ilatlar yo'liga ishonchli to'siqlar qo'yishi mumkinligi bugun barcha jamiyatlarda o'z dolzarbligini saqlab qoladi. Demak, sotsial institut keng qamrovli sotsial hodisa bo'lib, uning asosida jamiyat a'zolari o'z oldilarga qo'ygan maqsadlariga erishish, shaxsiy va jamoaviy ehtiyojlarini

qondirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Shuningdek, bu jarayonda kechadigan ularning hulq-atvorlari ma'lum bir tartib-qoidalarga solinadi. Ijtimoiy hayot sotsial institutlar faoliyatining yig'indisidan tashkil topar ekan, ular s.S.Frolovning fikricha bir-birlariga faol ta'sir ko'rsatadilar va shu nuqtai nazardan o'zaro munosabatlarga kirishadilar<sup>13</sup>.

Jamiyatda yakka holda, boshqa institutlar bilan hamkorlik qilmaydigan institutning o'zi mavjud emas. Masalan, ishlab chiqarish, savdo, iste'mol, ta'lim, oila, madaniyat, din va boshqa sotsial institutlar o'zlari bajarayotgan funktsiyalari orqali ijtimoiy hayotni yaxlit, tizimli mazmunda tashkil qilib berish jarayonida chuqur hamda keng miqyosdagi integratsiyaga kirishadilar. Shuning uchun sotsial institutlar muammosi kishilik jamiyatining fundamental mavzusi bo'lib qolaveradi.

### **Tayanch atamalar**

Sotsial institut, oila, nuklear oila, poligamiya, jamoatchilik fikri, din, mafkura, mentalitet, dunyoviylashish, latent funktsiya, politeizm.

### **Nazorat savollari**

1. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasini izohlang.
2. Sotsial institutning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Sotsial institutlarning asosiy turlarini ko'rsatib bering.
4. Din sotsiomadaniy institut sifatida deganda nimani tushunasiz?
5. Ta'lim sotsial institut sifatida ekanligini asoslab bering.
6. Iqtisodiy institutlar faoliyatiga misollar keltiring.
7. Shaxs hayotida sotsial institutlarning o'rnini misollarda tushuntiring

### **ADABIYOTLAR**

1. Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya (slovar). –Moskva.: «Politizdat».1990.
2. Platon. Sochineniya v Chetirex tomax. Tom 3. Chast1. //Gosudarstvo. - Cankt-Peterburg. Izd-vo s.-Peterb. un-ta; Izd-vo Olega Abi Shko. 2007.
3. Xolbekov A. Boshqaruv sotsiologiyasi. -Toshkent.: «Akademiya», 2007.
4. Iskandarov B. O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrning Shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. -Toshkent.: «O'zbekiston», 1993
5. Frolov S.S. Sotsiologiya. – Moskva.: «Prospekt». 2012
6. Kravchenko A.I. Sotsiologiya. –Moskva.: «Prospekt», 2006
7. Radugin.A.A., K.A.Rudugin. Sotsiologiya. –Moskva.: «TSentr». 1999
8. Russo J.J. Grajdanskoe ispovedanie veri: pochemu gosudarstvu vajno, Chtobi kajdiy grajdanin imel religiyu? //Religiya i obshestvo. Xristomatiya po sotsiologii religii. – Moskva.: «Aspkt-Press». 1996
9. Parsons T. Obshiy obzor // Amerikanskaya sotsiologiya. Perspektivi, problemi, metodi. – Moskva.: «Progress». 1972

<sup>13</sup> Frolov S.S. Obshaya sotsiologiya. –Moskva.: «Prospekt». 2011.-S.160.

## 14-mavzu. SOTSIAL MUNOSABATLAR

### REJA

1. Sotsial munosabatlar tushunchasi.
2. Sotsial munosabatlarning turlari.
3. Begonalashuv va uning asosiy turlari.
4. Begonalashuv va tanazzull.
5. Milliy mafkura – ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi.

Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar mavzusi muhim o'rin kasb etadi. Chunki sotsial munosabatlar orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiyadagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursa-da, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va tizimli ravishda o'rganilmagan hamda ilmiy adabiyotlarda etarli darajada yoritilmagan. Buning asosiy sabablaridan birinchisi, avvalo, sobiq Ittifoq falsafiy-sotsiologik adabiyotlarida bu masalaning bir yoqlama talqin qilingani bo'lsa, ikkinchisi esa ilg'or g'arb ijtimoiy fanlari adabiyotlarining bu mavzu bo'yicha tadqiqot ma'lumotlarining bizda to'liq mavjud bo'lmaganidir.

Darvoqe, sotsial munosabatlar tushunchasining sotsiologiya fanida aniq va bir ilmiy ta'rifi hozircha o'z ifodasini topgani yo'q. Avvalambor, shuni ta'kidlash zarurki, sotsial munosabatlar ko'pincha ijtimoiy munosabatlar tushunchasi bilan tenglashtiriladi yoki sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir xususiy ko'rinishi, deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni Chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asoslar borligini bilsa bo'ladi.

Ko'pgina adabiyotlarda sotsial munosabatlar tushunchasi ikki xil darajada: keng va tor ma'noda talqin qilingan. Sotsial munosabatlarni keng ma'noda tushunish uni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir va ular orasidagi farqlarga ko'p e'tibor bermaslik bilan bog'liqdir. Tor ma'noda sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi, deb talqin qilinadi.<sup>1</sup>

Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rifni berish mumkin, deb hisoblaymiz: sotsial munosabatlar bu – tabiat hodisalaridan farqi o'laroq bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi mujassamlashgandir.

Sotsiologiya fani tarixiga murojaat qilsak Shunga guvoh bo'lamizki, O.Kont o'zining pozitivistik ta'limotida sotsial munosabatlar muammolarini xuddi biologik hodisalar metodi bilan o'rganish tamoyillarini keng targ'ib qiladi. Pozitivistik-naturalistik yo'nalishning ashaddiy raqibi bo'lgan fenomenologik sotsiologiya esa sotsial hayot va sotsial munosabatlarni bunday usulda talqin qilganligi uchun O.Kont va uning izdoshlarini keskin tanqid qiladi. Naturalizmning bunday jiddiy kamchilik va xatoliklarini bartaraf etish uchun fenomenologik sotsiologiya inson ongining faolligi bu muammolar echimining asosiy omilidir,

<sup>1</sup> Sotsiologiya. Pod. red. Lavrenenko V.N. –Moskva.: «IONITI». 2012.-S.140.

deb isbotlashga intiladi. Bu yo'nalish vakillarining fikricha, faqatgina inson va uning tafakkuri tufayli sotsial voqelikni hamda sotsial munosabatlarni konstruksiyalash (yaratish) mumkin bo'ladi. Chunki sotsial reallik va sotsial munosabatlar insonning talqin qilish faoliyati orqali vujudga keladi. Fenomenologik sotsiologiyaning taniqli vakillaridan biri D.Silverman yuqoridagi g'oyalarni asoslash uchun pozitivistik sotsiologiya nazariyasini tanqid qiladi.

Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqt o'tdi, yangi jug'rofiy-siyosiy makonlar paydo bo'ldi. Eng muhimi esa totalitar tuzum barham topib, yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi va yangi jamiyatlarda bir partiyaviylik hukmronligi emirildi. Endi jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan, sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik tamoyil orqali tadqiq qilish davri keldi. Bu tamoyil orqali sotsial munosabatlarning muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning hosili sifatida mamlakatimizda sotsial munosabat muammolari jahon ilmiy tafakkurining har xil yo'nalish natijalari asosida tadqiq qilinayotganligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Demak, sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot natijaoari asosida o'rganish joizdir. Chunki sotsiologiya nafaqat bu muammoni, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarni keng qamrovda, kompleks xarakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiq qiladi.

**2. Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi.** Chunki birdamlik bu – ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining ko'rinishidir. Avvalombor Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ilk bor bu termin sotsiologiya faniga sotsial jipslashuvni bildiradigan tushuncha sifatida O.Kont tomonidan kiritilgan edi. Mazkur muammoga ko'pgina mutafakkirlar o'zlarining katta etiborlarini qaratganlar. Ayniqsa, E.Dyurkgeym va G.Spenser bu muammoni Chuqur tahlil qilganlar, lekin ular o'z tadqiqotlarini turli xil yo'nalishlarda olib borganlar. E.Dyurkgeymning fikricha, sotsial birdamlik bu – axloqiy tamoyil va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir a'zosi tomonidan tan olinadi.

E.Dyurkgeymning ta'kidlashicha, industrializatsiya tufayli jamiyatning ko'rinishi ham o'zgardi va bu kishilarda uning imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlikni paydo qildi. E.Dyurkgeymning fikricha, jamiyat hayoti uchun eng muhimi bu – sotsial birdamlikdir. U o'zining klassik asar bo'lmish – “O'z joniga qasd qilish”da shuni aniqladiki, bu salbiy hodisaning asosiy sababi bo'lib sotsial birdamlik tuyg'ularini kamayishi gavdalanadi. Katolitsizmdan farqli o'laroq, protestantizm mazhabida individualizmga urg'uni qaratish anomiyani rivojlanishiga jiddiy turtki berdi. Shuning uchun bu mashabda o'z joniga qasd qilish ko'payib ketdi.

O'zining boshqa bir asari – “Ijtimoiy mehnatning taqsimoti”da u Shunday holatni ta'kidlaydi: industrialgacha bo'lgan jamiyatda sotsial birdamlik jamiyatning mexanik hissiyotlari, ayniqsa diniy mansublik va uning tuyg'ulari asosida ta'minlangan. Bunday jamiyatda kishilar universal holatda faoliyat olib

borishgan, ya'ni barcha kerakli narsalarni o'zlari yaratishgan: oziq-ovqat etishtirish, mehnat qurollari va kiyim-kechak kabilarni. Shuning uchun ular jamoaviylikka mansub bo'lishgan va o'z tuyg'ularini boshqalar bilan o'zaro bahamlashishgan.

Sanoatlashgan jamiyatda u ijtimoiylashuvning muqarrarligini his qiladi. Endi kishilar tor sohalarga ixtisoslasha boradilar. Bu ixtisosliklar dinga ham ta'sir ko'rsata boshlaydi. Sanoatlashish asosida rivojlangan jamiyatlarda din endi kichik jihatlarda namoyon bo'la boshlaydi va kichik bo'laklarga: uy, oila, ish kabilarga ajralib ketadi.

E.Dyurkgeym fikricha, industrial jamiyatdagi sotsial birdamlikka ikkita omil salbiy ta'sir ko'rsatadi: mexanik birdamlik va xizmat joyida o'rtoqlik ruxini topish harakatlari. Industrialgacha bo'lgan jamiyatda esa sotsial birdamlik mexanik xissiyotlar asosida, diniy mansublik negizida ta'minlanar edi.<sup>2</sup>

O.Kont va G.Spenserlarning tadqiqotlarida sotsial birdamlikning asosini iqtisodiy mafaatlarni tashkil qilish markaziy o'rinni egallaydi. G.Spenser o'zining birdamlik ta'limotida majburiy va ko'ngilli birdamlikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, kishilik jamiyati o'z rivojlanish yo'lida ikkita harbiy va sanoat davrlariga bo'linadi. Butun hayot bu erda intizomga asoslangan. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi.

Ko'pgina g'arb olimlari ijtimoiy mulkka asoslangan kooperatsiyaning sarmahsulligini inkor etib keladilar. Ularning fikricha, butun jamiyat bilan ishlab chiqarish vositalarini guruhlar mulki qilib berish kerak. Agar ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulk xususiyatiga ega bo'lsa, «ma'muriyat» xalqdan ajralib qoladi va shu sabab tufayli byurokrat boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi mumkin. O'z-o'zidan tabiiyki, bu jarayonlar natijasida ishchilar o'z mehnatlaridan manfaatdorlikni his qilmaydilar. Mazkur taxminlarning aksariyati o'z isbotlarini topdilar.

Ayniqsa, totalitar tuzum davrida, bizning diyorda sohta birdamlik asosidagi kooperatsiyalashtirish ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti va kooperatsiya niqobi ostida bizning hudud hom-ashyo etishtiradigan respublikaga aylandi. Jamiyatimizda tub ma'nodagi birlashma jarayoni faoliyat ko'rsatmadi.

Vaholanki, xalqimiz tafakkurida jamoaviylik ruhi juda kuchli bo'lgan va shunday qolmoqda. Mamlakatimizning birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab ko'rsatganidek, "O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli — mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda... Eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy Sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin. Hech bir korxonada, hech bir davlat idorasi yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi»<sup>3</sup>.

Hozirda jamiyatimizda kechayotgan sotsial munosabatlar uchun mutlaqo yangi bo'lgan asoslar yaratilmoqda. Xususiy mulkchilikka turli shakllariga asoslangan ko'p ukladli, ochiq iqtisodiyot shakllanmoqda. Shuning uchun ham yangi iqtisodiy va taqsimot munosabatlarini joriy qilish sotsiologiya fanining

<sup>2</sup> Cragun Ryan T., Cragun Deborah. Introduction to Sociology. Wikibooks.org. 2012. -R.65.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – Toshkent.: O'zbekiston, 1996. -B. 281.

asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bugun endi mehnatning mazmunini Chuqur va har jihatdan o'zgartirmay turib, jamiyatimiz ijtimoiy tarkibida sifat o'zgarishiga erishib bo'lmaydi. Buning uchun, eng avvalo, mehnatga yangicha munosabatni tarkib toptirish, yangi texnologiyani yaratish, fanni yanada taraqqiy ettirish, munosib malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim sohasini barchabo'g'inlarini tubdan yangilash kabi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar amalga oshirilmog'i lozim.

Xususiy mulkning qonuniy, deb e'lon qilinishi bilan jamiyatimiz ijtimoiy tarkibidagi bir xillik holati asta-sekin o'z o'rnini ijtimoiy mavqei jihatidan, etishtirilayotgan moddiy ne'matlarning taqsimoti xususiyatlari bilan farq qiluvchi ijtimoiy guruh va tabaqalarga bo'linishiga bo' Shatib bermoqda.

Jamiyat sotsial strukturasi ijtimoiy-sinfy munosabatlar ham alohida o'rin egallaydi. Sobiq totalitar tuzum sotsiologiyasida sinfiy munosabatlar, sinfiy kurash masalalariga keng o'rin berilib, bu munosabatlar ijtimoiy tarkibdagi boshqa barcha elementlar, munosabatlar ichida eng muhim va belgilovchi omil hisoblangan.

Haqiqatdan ham, sotsializm da ishchilar va dehqonlar sinfi jamiyatning eng kam ta'minlangan, quyi darajadagi sinflarni tashkil qildi. Intelligentsiya ijtimoiy qatlami esa moddiy ta'minlanganlik jihatidan ulardan unchalik farq qilmagan. O'tgan davrda, asosan, ikki sinf — ishchilar va dehqonlar sinfi va ziyolilar qatlami mavjud, deb ko'rsatilib, jamiyatning boshqa sotsial guruhlarning ahamiyati mutlaqo e'tiborga olinmagan. Holbuki, norasmiy, yashirin hukmron sinf — nomenaklatura mavjudligi hamma yaxshi bilardi.

Ishchilar sinfi ko'p qirrali ijtimoiy birlik hisoblanadi. Uning ichki tarkibi demografik (jinsi va yoshi bilan), professional — tayyorgarligi bilan (mehnatning mazmuni va xarakteri bilan) hududiy (ijtimoiy-hududiy birlik bilan), etnik (milliy farqi) va madaniy-ma'lumoti bilan farq qiluvchi tarkibiy tuzilishga ega.

Hozirda O'zbekiston davlati miqyosida milliy ishchilar sinfining tarkib topishi uchun yangi shart-sharoit yaratilmoqda. Jahon miqyosida raqobat bardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun moddiy-texnikaviy asos bunyod etilmoqda. Buning uchun esa mamlakatda horijiy davlatlarning nufuzli korxonalarining filiallari ochilmoqda. Natijada yuqori texnologiyaga asoslangan sanoat ishlab chiqarishining malakali ishchi — injenerlar guruhi shakllana boshladi.

Ishchilar sinfi rivojlanish istiqbollariga erishish uchun ularni miqdoriy jihatdan ko'paytirish bilangina erishib bo'lmaydi. Avvalo, mehnatning intellektual mazmunini boyitish, zamonaviy avtomat-texnologiya bilan jihozlangan iqtisodiy Shart-sharoitlarni barpo qilish zarur. Amalga oshirilishi kerak bo'lgan bunday tadbirlar bevosita qishloq xo'jaligi dehqonlari hamda ziyolilar qatlami uchun ham taalluqlidir.

Jamiyat ijtimoiy tarkibida ziyolilar qatlami ham salmoqli o'rin tutadi. Intelligentsiya aqliy mehnat mutaxassisleri bo'lib, u ijtimoiy-professional guruhlardan tarkib topmoqda. Jamiyat ijtimoiy tarkibida intelligentsiya aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi oqibatida shakllandi. Hozirda fan, ilmiy texnika taraqqiyotining jadal borishi bilan intelligentsiyaning professional malakasi yanada takomillashmoqda. Uning tarkibiga ilmiy, ishlab chiqarish-texnik, madaniyat, ma'rifat, tibbiyot-harbiy va boshqaruv apparati xodimlari kirib keldi.



Ziyolilar tarkibini yana shahar va qishloq, ijtimoiy bandlik sohalari bo'yicha (ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida) mehnatning ijodiy xarakteri darajasi, malaka va boshqa jihatlari bilan farqlash mumkin.

Sobiq sovet davrida ziyolilar son jihatidan ko'paydi, lekin sifat jihatidan ularning saviyasi past holatda mavjud mavjud bo'ldi. Chunki ziyolilar qatlami avvalambor ularning mehnat faoliyatining mazmuni bilan aniqlanadi. Hozirda qanchadan qancha oliy ma'lumotli insonlar o'z sohalaridan ketib, o'zlariga xos bo'lmagan oldi-sotdi kabi mashg'ulotlar bilan o'ralashib qolganlar.

**3. Begonalashuv muammosi ham sotsial munosabatlar tizimida muhim ahamiyatga egadir. Begonalashuv bu – inson tomonidan tub ma'nodagi kuchini yo'qotishi va sub'ekt va ob'ekt o'rtasida qarama qarshilik vujudga kelishi hamda bu muayyan sotsial oqibatlarni keltirib chiqishidir. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, begonalashuv hodisasi kishilarning faol ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashib qolishini anglatadi.**

Hozirgi jamiyatda quyidagi begonalashuv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Iqtisodiy
- Siyosiy
- Madaniy
- Ijtimoiy
- Psixologik

Iqtisodiy begonalashuv bu – kishilarni mulkdan, mehnat jarayonidan va mehnat natijalaridan; siyosiy begonalashuv – siyosiy hokimiyatdan; madaniy begonalashuv – madaniyat va ma'naviyatdan; ijtimoiy begonalashuv muloqatdan, insonlarning bir-biridan; psixologik begonalashuv esa shaxsning o'z o'zidan uzoqlashishini anglatadi.<sup>4</sup>

Begonalashuvning yuqorida keltirilgan turlaridan iqtisodiyi muhim ma'no kasb etadi. Aynan Shu jarayon G'arbiy Yevropada aholining keskin tarzda tabaqalashuviga sabab bo'ldi. Mazkur holatni nemis mutafakkirlari turli jihatlarda tadqiq qilishga urindilar.

Xususan, K.Marksning ta'kidlashicha, inson baxti-soadati uning tabiatini yuksak Cho'qqisi hisoblanadi. Anglangan mashg'ulot bilan Shug'ullanish barobarinda kishilar o'zlari ishlab chiqargan maxsulotdan manfaat ko'rishlari kerak. Sanoat inqilobi bilan birgalikda evolyutsion tarzda rivojlangan kapitalistik jamiyatda ishchilar mehnat natijalariga emas, faqat o'z ish kuchlariga ega bo'lishadi. Burjuaziya ishchilardan ularning ish haqi evaziga ishlashi maqsadida foydalanadi. Natijada ishchilar o'z mehnat natijalari – ishlab chiqarilgan maxsulotga egalik qilishdan begonalashishadi. Marks fikricha, qachonki kishilarga o'z mehnatining hosili tegishli bo'lsagina, ana o' Shanda ular inson tabiatining ideali va maqsadiga ega bo'lishadi.

Shuningdek, K.Marks kapitalizmida kishilarni katta baxtsizlikka olib boruvchi yo'lni ko'rdi. Kapitalizmida ishlab chiqarish natijalarini begonalashishdan tashqari, ishchilarni yanada bir-biridan begonalashishi ham kuzatiladi. Chunki kapitalizm ishga joylashish uchun cheklangan resurslarga erishish maqsadida kishilarni bir-

<sup>4</sup> Cotsiologiya. O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshqalar. – Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriëti. 2002. -B.62.

birlari bilan raqobat qilishga moyillashtiradi. Kapitalizmga ishga joylashish imkoniyatlari Cheklanganligi tufayli kapitalistlar ish haqini past darajada u Shlab turishlariga xizmat qiladi. Shuning uchun kishilar bir-birlari bilan raqobat qilishga majbur bo'ladilar.<sup>5</sup>

Shu erda muhim bir izohni ilgari surish lozim: birinchidan, sobiq SSSR va Xitoyda o'rnatilgan tuzumlar K.Marks tomonidan taklif qilinganlari emasdi. Kapitalizm o'zining barcha zararli tomonlari bilan birgalikda, ishlab chiqarish vositalari aynan Shu tuzumda rivojlanadi va ulardan keyingi tuzimda foydalanish mumkin bo'ladi. Demak, kapitalizmni ayovsiz tanqid qilish bilan barobarinda, K.Marks uni ishlab chiqarish vositalarini rivojlantirish uchun foydaliligini ham tan olgan.<sup>6</sup>

Uning bu fikrlariga jiddiy e'tiroz bildirish mumkin. Aynan sotsialistik tuzumda raqobatning deyarli yo'qligi moddiy va ma'naviy tovar va buyumlarni o'ta taqchilligini keltirib chiqardi. Shuningdek, korxonalarda ishlab chiqarilgan maxsulotlar o'ta sifatsiz darajada ekanligi va shuning uchun aholi horijdan keltirilgan tovarlarga ega bo'lishga intilgani yaqin tariximizdan yaxshi ma'lumdir.

Qolaversa, sotilmagan tovarlar uchun ishchi va xizmatchilarga muntazam maosh to'lab kelingani ham sobiq tuzumning, jumladan, o' Sha davrdagi O'zbekistonning iqtisodiga ham jiddiy zararlar etkazdi. Lekin Marks bu davrda yashamadi va o'z sotsiologik ta'limotining salbiy jihatlarini ko'rmadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ilgari tuzumni qumsab qolganlarga, o' Sha davr kamchiliklaridan bexabar bo'lgan yoshlarga yuqorida bayon etilgan hayotiy lavhalarni eslatib qo'yish biz sotsiologlarning kasbiy vazifamizdir.

Horijiy adabiyot materiallari bilant tanishib chiqib, muammo tahlili bo'yicha quyidagi o'z tanqidiy fikrlarimizni ilgari surishimiz mumkin bo'ladi, deb hisoblaymiz:

Marksizm ta'limoti bo'yicha xususiy mulk ijtimoiylashtirilgach, ishlab chiqarish vositalariga endi bevosita ishlab chiqaruvchilar umumiy egalik qilishlari kerak edi. Lekin ijtimoiy amaliyotda esa buning aksi bo'lib chiqdi. Siyosiy hokimiyatni bosib olgan proletariat ishlab chiqarish vositalarini davlat mulkiga aylantirdi. Sotsialistik revolyutsiya mantiqiga ko'ra, bu tadbirlar begonalashuv jarayoni ildiziga bolta uru Shi kerak edi. Ammo, 70 yillik tarix davomida bizga uqtirib kelingan ijtimoiy mulk davlat mulki edi. Bu mulk esa xususiy mulkning eng jirkanch, adolatsiz turi bo'lib chiqdi. Chunki davlat mulki o'zining real egasiga ega emas. U bir mavhum tushuncha edi. Mehnat kishisi esa yana mulkdan begonalashdi. Davlat mulki esa davlat apparatining xususiy mulkiga aylanib, bu nomenklaturani «yangi» sinfga aylantirdi. Bu salbiy jarayonlar natijasida ishlab chiqarish o'zining haqiqiy egasini topa olmadi.

Boshqa bir nemis olimi Maks Veber o'z vatandoshi va millatdoshi – K.Marks g'oyalari bilan yaqindan tanishib, uning fikrlarini qabul qila olmadi. Jumladan, unga qarshi o'zining ratsionalistik g'oyalarini ilgari surdi. Horijiy adabiyotlarida quyidagicha ma'lumot berilgan:

---

<sup>5</sup> Cragun Ryan T., Cragun Deborah. Introduction to Sociology. Wikibooks.org. 2012. -R.64-65

<sup>6</sup> O'sha erda. -R.65

Maks Veber jamiyatdagi ratsionallash va sanoat inqilobidan tashvishlanib yashadi. Chunki bu ikki o'zgarishlar inson tabiatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Veber Shuni yaxshi tushunib etdiki, o'zi yashagan davr – XIX asrning sanoat inqilobi davrida jamiyat hayoti madaniyat tufayli ratsionallashib boradi va bu jarayon jamiyatni harakatlantiruvchi kuch bo'lib namoyon bo'ladi.<sup>7</sup>

4. Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birlariga bog'liq hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaysa, xo'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tu Shib ketib, narxlar tez sur'atlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan, deb fikr yuritishimiz mumkin.

Bu Chuqur tanazzul insonlarning kuchli begonalashuv olamiga salbiy ta'sir qilishi, ba'zi tartiblar kirgizishi aniq. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa tanazzul ham Shunchalik, Chuqurlashib boraveradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bu esa taraqqiyot uchun qo'yilgan ulkan qadamdir. Shu bilan birga ijtimoiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy munosabatlarning Shunday bir turi – ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki, uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib, asta-sekinlik bilan o'z mehnati natijasida begonalashib boradi. Endi bu ishlab chiqaruvchi shaxs uchun mehnat unumining ham qizig'i yo'q.

Siyosiy jabhada ham siyosiy hokimiyatdan jamiyatning ko'pgina a'zolari begonalashtirildilar. Ya'ni, siyosiy hokimiyat xalq hokimiyati umumxalq, hokimiyati, deb e'lon qilingan bo'lsa-da, aslida u ma'lum bir guruhning – elitaning xususiy mulkiga aylandi. Buning asosida esa butun bir xalq davlat siyosiy hokimiyatidan begonalashdi va bu begonalashgan omma bilan nomenklatura orasida ulkan jarlik paydo bo'ldi. O'z navbatida bu jarayonlar siyosiy tanazzulga olib keldi va bu tanazzul tufayli tashqi du Shman enga olmagan totalitar davlat o'z-o'zidan parchalanib ketdi.

Madaniy sohadagi begonalashuv ham anchagina chuqur salbiy oqibatlariga olib keladigan ma'naviy tanazzulni keltirib chiqaradi. Jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda ma'naviyat va madaniyatning o'rni o'zgacha. Chunki ular individlarning barkamol bo'lib Shakllanishlariga katta ta'sir ko'rsatadilar. Agar jamiyat a'zolari o'z ma'naviyatlari – boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undan begonalashsalar, ular endi o'zlarining kelib chiqishlaridan tortib, to o'z millatlarining ham milliy urf-odatlarini, an'alarini ham inkor qila boshlaydilar.

Agarda yaqin o'tmishimizga, uning tirixiga murojaat etsak ushbu satrlarimizning yaqqol isbotini ko'ramiz. Masalan, boy madaniy merosimizdan begonalashuvimiz atoqli adib chingiz Aytmatovning ta'biricha, bizlarni manqurtlarga aylantiray dedi, ya'ni biz o'z xalqimiz tarixi, milliy ozodlik harakatlari va ularning sarkardalari, dinimiz va o'zligimizdan uzoqlashib qoldik. Bu haqda faylasuf olim, professor M.Q.Oripov shunday fikr bildirgan edi: «Mana shunday o'lik aqidalardan biri ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni belgilaydi, degan markscha-moddiyuncha dunyoqarash qoidasidan iboratdir. Bu qoidaga ko'ra, inson

---

<sup>7</sup> O'sha erda. -R.63.

ongli, ijodkor faoliyat sohibi sifatida emas, balki ishlab chiqarish munosabatlari, deb atalmish mavhum va mujmal narsaning tobe maxsuliga aylanib koladi. Bunday odam manqurtdir. Totalitar mafkuraning 70 yildan ortiq xukmronligi o'zining tarixi, ajdodlarining namunali ishlarini inkor etgan, o'z xalqi va Vataniga sadoqatini yo'qotgan manqurtlarni keltirib chiqardi».<sup>8</sup> Davlatimiz mustaqilligiga erishib, madaniy begonalashuvni bartaraf etishni boshladik.

Sotsiologiyadagi muhim begonalashuv hisoblangan sotsial begonalashish insonlarni muloqotdan, bir-birlaridan uzoqlashishlari natijasida yuzaga keladi. Inson o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga egadir. O'zaro faoliyat tufayli paydo bo'lgan ehtiyojlar asosida insonlar doim bir-birlari bilan muloqotlarda bo'ladilar. Muloqotning ijtimoiy ma'nosi shundaki, u madaniyat Shakllari va ijtimoiy tajribalarni uzatish vositasi bo'lib ximat qiladi.

Ammo, iqtisodiy tanazzul ko'pgina insonlarni qiyin iqtisodiy ahvolga solib qo'yadi. Natijada jamiyat a'zolarining aksariyati bozor iqtisodi munosabalariga ko'nikishlari qiyin kechadi. Oqibatda inflyatsiya tufayli moddiy va ma'naviy ehtiyojlar tizimining Cheklanishi hamda me'yorlartirilishi insonlarda agressivlik kayfiyati, johillashish holatini kuchaytirib boradi. Bu hodisa fuqarolarda an'ana va urf-odatlar, ma'naviy qadryatlarning ta'sirini yo'qolishga olib keladi. Shu kabi salbiy omillar insonlarning bir-birlaridan begonalashuvlarini kuchaytiradi va hamma o'z holicha, degan norasmiy qonun paydo bo'ladi.

Ruhiy begonalashuv bu – insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishdir. Ushbu muammoni nemis mutaffakiri Erix Fromm juda yaxshi ishlab chiqqan. Uning fikricha, inson mohiyati doimo o'ziga du Shmanlik kayfiyatida bo'lgan sotsial tuzilma ta'siri ostidagi inson o'z-o'zidan begonalashuvining har bir darajasiga ma'lum bir sotsial xarakter - dunyoparaslik, ekspluatatorlik, retseptiv (andozalik, qolip), bozorga oidlik xosdir.

Zamonaviy jamiyatni E.Fromm inson mohiyatini «mashinalashtirish», «kompyuterlashtirish» va «robotlashtirish» jarayonlari yordamida begonalashuv uning darajasining bir mahsuli, deb ta'riflaydi. Bozorga yo'naltirilgan sotsial harakat paydo bo'lib, unda iste'molga intilish, ikkilanishlar hissiyoti, yakkalanib qolishlik va boshqa salbiy holat, hissiyotlar markaziy ahamiyat kasb etadi.

Xuddi shu erda psixologik va sotsial begonalashish bir-birlari bilan juda uyg'unlashib ketishlarini ko'rish mumkin. Insonlar bir-birlaridan munosabatda, muloqotda begonalashsalar, o'z-o'zlaridan begonalashish ham yuz beradi, chunki insonlarning bir-birlaridan begonalashuvlari oqibatida ular yakkalanish, zerikish va hayotga qiziqishlari so'nishi vujudga kelishi mumkin. Buning natijasida inson o'z kelajagiga, orzu-niyatlariga ishonchi yo'qolib, u o'zini begona, deb hisoblaydi va bu jarayon ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat hayotidagi turli xil begonalashuv jarayonlari tezroq ilmiylik va uyg'unlik asosida bartaraf qilinsagina jamiyat sog'lom sharoitda taraqqiy etadi va salbiy ijtimoiy hodisalarning o'z vaqtida oldi olinadi. Masalan, mehnatdan begonalashishlikni bartaraf etish uchun birinchi navbatda insonlarning o'z mehnatlari natijalaridan manfaatdor bo'lishlari va uning

---

<sup>8</sup> Oripov M.Q. Ijtimoiy ong va ijtimoiy borliq. // Qalb ko'zi xaftanomasi. 8 oktyabr.1997.

oqibatida esa ularning mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirib, qiziqish va kuch-g'ayratlari bilan ishlashlarini tashkil etish darkor.

Ishlab chiqarishni boshqarishdan begonalashish muammosini bartaraf etish ham juda muhim ma'no kasb etadi. Buning uchun ishlab chiqarish munosabatlarini Chuqur demokratiyalashtirish, korxonalar, tashkilot va muassasalardagi mavjud boshqaruv tizimlarini demokratik yo'llar bilan takomillashtirish va ishchi, xizmatchilar xo'jalik egasining aniq vazifasi, huquqi va mas'uliyatlarini bilishlari kerak.

Madaniyatdan begonalashuvni bartaraf etish uchun madaniy merosga munosabatni takomillashtirib borish, jamiyatning har bir a'zosi ma'naviy qadriyatlardan yaxshi xabardor bo'lish va madaniy qurilishga etarli mablag' ajratilishini ta'minlash zarur.

Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf qilish uchun insonlarning bir-birlari bilan munosabatlari, muammolarni haqiqiy birdamlik va hamkorlik asosida qurish kerakki, shunda har bir inson o'zini boshqalar uchun ham kerak ekanligini Chin yurakdan sezsin.

Ruhiy begonalashuvni bartaraf etish Choralari sotsial begonalashuvni bartaraf etishning uzviy davomidir. Inson o'zini kimgadir kerakligini ruhan his qila olsagina u hach qachon tu Shkunlikka tu Shmaydi. YAKkalanish, iztirobga tu Shish xavfidan xolos bo'ladi, oqibatda uning o'z-o'zidan, o'z mohiyatidan begonalashuviga hech qanday sabab qolmaydi.

Biz qurayotgan bugungi yangi jamiyat o'z oldiga bu begonalashuv jarayonlarini tezroq bartaraf etib, haqiqiy rivojlanishga, erkinlikka, ozodlikka erishish uchun hozirgi qiyinchiliklarni sobitqadamlik bilan engib bormoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur qamrab olib, davlatimizni rivojlangan mamlakatlar safidan tezroq o'z munosib o'rnini egallashiga hizmat qilmoqda. Albatta, ushbu ijtimoiy jarayonning bir tekisda kechishi muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Mazkur qiyinchiliklar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi bo'lgan milliy mafkurani yaratish harakatlarida ko'proq namoyon bo'layotgani biz jamiyatshunoslarni ko'proq tashvishga solmoqda. Chunki milliy mafkura mustaqil davlatning asosiy ma'naviy poydevorlaridan hisoblanadi. U siz hech bir davlat barqaror rivojlanish xususiyatiga ega bo'la olmaydi.

Milliy mafkuramiz esa biror bir siyosiy partiya, yohud ijtimoiy harakatlarning emas, balki umumxalq manfaatlarini ifodalashi juda muhimdir. Ushbu mafkuraning mazmun va mohiyati millatimizning o'ziga xos bo'lgan tafakkur tarziga mos kelishi uni real hayotdan ajralmasligini ta'minlaydi.

«Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'priki bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman»<sup>9</sup>.

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin. // Tafakkur. 1998. N 2, B. 6.

Respublikamiz birinchi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan fikrlardan ma'lumki, milliy mafkurani shakllanishiga millatning o'ziga xos xususiyatlari: milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar va udumlar negizida shakllanadigan hamda rivojlanadigan tafakkur tarzi bevosita asos bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, milliy g'oya va tafakkur o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir. Shuning uchun ularni bir-birlaridan sira ajratib olishimiz mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, qaysi bir jamiyatda ushbu masalaga to'g'ri munosabatda bo'lib, uning negizida milliy mafkura shakllansa, o'sha jamiyatdan taraqqiyot, erkinlik va ozodlik qaror topadi.

O'rta asrlarda yashab o'tgan avlod-ajdodlarimiz hayot yo'llarni tahlil qilib ko'rsak, shunga amin bo'lamizki, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab yuksak tafakkur egalari bo'lgan bobokalonlarimiz yashagan ijtimoiy-madaniy muhitda shakllangan tafakkur tarzi va milliy g'oyalar naqadar teran va ilmiy asosga qurilganligini ko'ramiz. Demak, ajdodlarimiz yashagan o' Sha davrlarda ushbu masalalarga katta e'tibor qaratilgan. Shuning oqibati o'laroq, Turon eli yuksak rivojlangan ilm-fan va madaniyat o'chog'i bo'lgan.

Lekin baxtga qarshi Yevropadagi mashhur Renesans davridan ancha ilgari yaratilgan bu taraqqiyot yo'lini biz asta-sekinlik bilan unuta boshladik. Milliy g'oya, milliy mafkuraning asoslaridan bo'lgan ma'naviy boyliklarimizga qanchalik e'tiborimizni kamroq qaratsak, taraqqiyot yo'lidan shunchalik chetga chiqib keta berdik va milliy g'oya o'rnini «mahalliychilik» g'oyasi egalladi. Buning natijasida esa markazlashgan ulkan davlatimiz parchalanib, millatimiz tarqoq va qoloqlik darajasiga tushib qoldi. Yagona milliy g'oyamizni mahalliychilik g'oyasiga aylantirishimiz, buning natijasida esa tarqoqlilik va kuchsizlik holatiga tushishimiz sababli avval Chorizm mustamlakasiga, keyinchalik esa sobiq sovet imperiyasining arzon hom-ashyo etishtirib boradigan «viloyati»ga aylandik.

Mana endi biz 130 yildan ortiq davom etgan mustamlachilikdan qutulib, yana markazlashgan va mustaqil davlatchiligimizga erishdik. Shu o'rinda aytishimiz joizki, bizdan oldin o'tgan avlodlarimiz yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni aslo qaytarmasligimiz zarur. Buning uchun esa o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqloq mafkurasi ruhida tarbiyalash kerak. Jamiyat hayotini sotsiologik tahlil qilish Shuni ko'rsatayaptiki, vatandoshlarimiz ushbu milliy mafkura mohiyatini borgan sari Chuqurroq tushunib borayotganlarini qayd qilish mumkin.

Sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar doimiy ravishda o'zlarining ham nazariy, ham amaliy tadqiqotlari bilan milliy istiqloq g'oyalarini hayotga tadbiq etishning samarali usullarini chuqurroq tadqiq etishga mavjud barcha imkoniyatlarini amalga oshirishlari kerak.

#### **Tayanch atamalar.**

Sotsial munosabatlar, begonalashuv, hamfikrlik, barqarorlik, kooperatsiya, mexanik birdamlik, organik birdamlik, sotsial hamkorlik.

#### **ADABIYOTLAR.**

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – Toshkent.: «O'zbekiston». 1996

2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin. // Tafakkur. 1998. N 2
3. Oripov M.Q. Ijtimoiy ong va ijtimoiy borliq. //Qalb ko'zi xaftanomasi. 8 oktyabr.1997
4. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshqalar. – Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
5. Sotsiologiya. Pod. red. Lavrenenko V.N. -Moskva.: «YUNITI». 2012
6. Cragun Ryan T., Cragun Deborah. Introduction to sociology. Wikibooks.org. 2012

## 15-mavzu. JAMIYAT – SOTSIAL TIZIM SIFATIDA

### REJA

1. Sotsiologiyada jamiyat tushunchasi
2. Jamiyat belgilari
3. Jamiyat tizim sifatida
4. Jamiyat turlari
5. Sanoatgacha, sanoatlashgan va postsanoatlashgan jamiyatlar
6. Fanda fuqarolik jamiyati g'oyasi

Jamiyat tushunchasining eng oddiy ta'rifi bu – kishilarni muayyan hudud va madaniyat asosida birlashtiradigan guruhdir. Sotsiologiyada bu tushuncha kengroq tahlil qilinadi. Biz jamiyatni bunday guruhlarning o'zaro harakatlarini aks ettiradigan sotsial strukturadir, degan xulosani ilgari suramiz. Sotsial struktura esa jamiyatdagi hulq-atovr modeli bo'lib namoyon bo'ladi. Shunday qilib jamiyat bu nafaqat kishilarni birlashtirgan guruhlar va ularning madaniyati, balki yana u kishilar va institutlar orasidagi munosabatlar tizimidir. Kishilik jamiyati madaniyatga egadir va madaniyat faqat qaerda jamiyat bo'lsa, u o' Sha erda faoliyat ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, insonlar bir-biridan alohida yashay olmaydilar. Inson o'z tabiatiga ko'ra jamiyatning bir bo'lagidir. Masalan, biron kechada birga ishtirok etayotgan do'stlar, badiiy adabiyot ixlosmandlari, kitobsevarlar jamiyatlari va boshqalar Shular jumlasidan. P.A.Sorokin ta'kidlaganidek, jamiyat tarkib topishi uchun kamida ikkita odam o'zaro aloqada bo'lishi kerak<sup>2</sup>.

Hozirgacha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish asosan, ikki yo'nalishda rivojlanib keldi.

Birinchi yo'nalish: O.Kontdan boshlab, frantsuz sotsiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan va nemis olimlari M.Veber, F. Tyonnis va boshqalar, keyinchalik esa amerikaliklar: P.A.Sorokin, T.Parsons, R.Merton kabi sotsiologlarning ta'limotlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishda sotsial tizim o'zgarishi tashqi kuchlar ta'siri orqali tushuntirilib, ko'proq psixologik omillarga e'tibor berilgan.

Ikkinchi yo'nalish: materialistik sotsiologik ta'limot bo'lib, unda sotsial tizim ichki ziddiyatlar asosida ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, moddiy munosabatlarning belgilovchi roliga asosiy e'tibor qaratilgan

Avvalambor, jamiyat o'zi nima? degan savol bilan duch kelamiz. Agarda umumiy qarashlar doirasida fikrlasak, jamiyat – bu odamlar jamoasi, guruhi va yig'indisidir. Biroq, jamiyat Shunchaki bir guruh odamlar jamoasi emas. Bu Shunday guruhki, unda odamlar o'zaro yaqin aloqada bo'lib, uzviy va barqaror munosabatlarga kirishadi. Bundan kelib chiqadiki, jamiyat unda yashab turgan insonlarning umumiy tomonlarini o'zida namoyon etadi.

«Jamiyat» atamasi xususida turli tushunchalar mavjud. Sotsiologiyada «jamiyat» tushunchasi keng ma'noda insonlarning tabiiy holatdagi o'zaro munosabatlarning tarixiy mahsuli sifatida tahlil qilinadi.

<sup>1</sup> Introduction to Sociology. R.31

<sup>2</sup> Sorokin P.A. CHelovek. TSivilizatsiya. Obshestvo. / Per. s angl. – M.: Politizdat, 1992. – S. 33.



Tor doirada esa ma'lum bir millat, mamlakat, xalq va aholining ijtimoiy birikmasi sifatida o'rganiladi. Bu ta'rifdan kelib chiqadiki, jamiyat odamlar, ularning ijtimoiy munosabatlari, o'zaro aloqalaridan tashkil topgan yaxlit tizimdir. Undagi aloqalar, munosabatlar, turg'un xususiyatga ega va tarixiy jarayonda avloddan avlodga o'tib, yanada mustahkamlanib boradi.

Demak, jamiyat bu odamlarning Shunday jamoasiki, u insonlarning o'zaro munosabatlari yordamida faoliyat ko'rsatadi. Odamlar, ijtimoiy harakatlar va aloqalar, birlashmalar, sotsial institutlar, sotsial guruhlar, jamoalar, sotsial me'yorlar va qadriyatlar jamiyat hayotini tashkil etuvchi tarkibiy qismlaridir.

Bu talqinlardan kelib chiqib, jamiyat odamlardan, ularning o'zaro munosabatlaridan, sotsial aloqalari, sotsial institutlar, tashkilotlar, sotsial guruhlar va jamoalar, sotsial me'yor va an'analardan tashkil topadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu omillarning har biri boshqasi bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi va jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat deganda muayyan tarixiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa o'ziga xos qirralari mavjud bo'lgan makon tushuniladi. Jamiyatga aynan Shunday ta'rif bergan amerikalik sotsiolog N.Smelzer jamiyatni ma'lum geografik chegaralari, qonunchilik tizimi, ma'lum bir milliy (sotsial-madaniy) qadriyatlarga ega bo'lgan aholi, ya'ni odamlar birlashmasi<sup>3</sup>, deya qayd etadi.

Bundan tashqari «jamiyat», «mamlakat», «davlat» kabi o'zaro bog'liq bo'lgan, keng ma'noda ishlatiladigan tushunchalarni o'zaro farqlay bilish ham lozim. «Mamlakat» – bu sayyoramizning ma'lum bir bo'lagiga xos geografik hususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi, o'z chegaralari bo'lgan mustaqil davlat tushunchasini anglatadi. «Davlat» esa mamlakat siyosiy hayotidagi asosiy tushuncha. Jamiyat – bevosita mamlakatning ijtimoiy tuzilishini o'zida aks ettiradi va shuning uchun ham sotsiologiyada markaziy o'rin egallaydi.

Shunday qilib, sotsiologiyada sotsial tizim, jamiyat sifatida ijtimoiy Shakllanish tarixi, o'zaro aloqalari va munosabatlari umumiy bo'lgan odamlar guruhi tushuniladi.

Qanday sifatlariga ko'ra jamiyatlar bir-biridan farqlanadi? degan savol gavdalanadi. Jamiyatning birinchi belgisi bu – sotsial aloqalar sodir bo'ladigan hududdir. Hudud – bu individlar o'rtasidagi munosabatlar Shakllanib, rivojlanadigan kenglik asosidir. Jamiyatlarni bir-biridan farqlab turadigan yana bir muhim jihat – ichki o'sib boruvchi sotsial munosabatlardir, o'zaro muvofiqlashgan ijtimoiy faoliyat tizimidir.

E.Dyurkgeym jamiyatni bir yaxlit jamoa tasavvurlari, maqsadlari, his-tuyg'ulari, dini umumiy bo'lgan insonlar guruhi, deb ta'kidlaydi. Bu uyg'unlikda jamoa ongi individ xudbinligiga qarama-qarshi holatda namoyon bo'ladi<sup>4</sup>.

M.Veber esa bu uyg'unlikni sotsial omillar bilan bog'laydi<sup>5</sup>. T.Parsons va R.Merton ta'limotlarida: «Jamiyatda odamlarni ustqurmaviy me'yorlar, qadriyatlar, hayotiy faoliyatda amal qilinadigan barcha omillar birlashtiradi, –

<sup>3</sup> Volkov IO.G. Sotsiologiya: Kurs lektsiy. – Rostov na-Donu: Feniks. 1999. – S. 132.

<sup>4</sup> O'sha asar. – S. 136.

<sup>5</sup> Veber M. Izbrannoe proizvedenie. – M.:Progress, 1990. – S. 509.

deyiladi. E. Shils jamiyatni markaziy hokimiyat, hududiy yaxlitlik va markaziy boshqaruvga hamohang tushunchalar bilan bog'liq tarzda o'rganadi<sup>6</sup>.

Jamiyatning uchta o'ziga xos belgisi bor. Bu sifatlar uning mustaqilligini belgilovchi, o'zini o'zi boshqarish darajasini bildiradi. Jamiyatning mustaqilligi uning a'zolariga o'z ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat yaratib berishi, tor darajadagi kasbiy faoliyat bilan Shug'ullanishi, madaniyat, fan va boshqa sohalaridagi yutuqlar bilan tanishishi, o'z vazifalarini ado etishi uchun Shart-sharoitlar yaratishida namoyon bo'ladi. Bu imkoniyatlar insonlarga o'z maqsadlariga erishishda yangilik va qulaylik yaratib beradi.

Jamiyatning to'rtinchi farqli belgisi shuki, u muvofiqlashish xususiyatiga ega. Har bir yangi avlod jamiyatda ijtimoiy Sharoitlarga muvofiq Shakllanadi. Bu yo'nalishda yangicha ijtimoiy ta'lim, turli me'yorlar institutsional tarzda rivojlanib boradi. Shu bilan bir vaqtda odamlarga azaldan urf bo'lib qolgan an'analar, axloqiy me'yorlar ta'siri saqlab qolinadi.

YUqoridagilarni hisobga olib, jamiyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq. Jamiyat – bu tarixiy Shakllanish bosqichlari, o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida birlashgan, g'oyalari, maqsadlari uyg'un bo'lgan, ishlab chiqarish va ta'minoti mustaqil hamda barqaror bo'lgan odamlar jamoasidir. Bu jamoa o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z madaniy salohiyati, o'ziga xos ijtimoiy me'yorlari va qadriyatlari mavjud bo'lgan o'zaro aloqalari va munosabatlari umumiy maqsadlarga yo'nalgan insonlar guruhidir.

Sotsiologiyada jamiyat yaxlit tizim ekanligi haqidagi tasavvurlar tarkibiy funksionalizm namoyondalari: amerikalik sotsiologlar - T.Parsons va R.Merton tadqiqotlari ta'sirida shakllana boshlagan.

T.Parsons makronazariyasida ilk jamiyatlar haqidagi tushunchasi sotsial harakat bilan bog'liqdir. Parsons insonlar o'rtasidagi o'zaro barqaror aloqalar uyg'unligini «harakatlar tizimi» deya qayd etadi. Har qanday boshqa ochiq tizim kabi bu tizim ham qator vazifalarni bajarishi kerak. Bu vazifalardan eng asosiylari – moslashuv, maqsadga erishish, integratsiya, latentlik va boshqalardir.

Adaptatsiya (moslashuv) – bu muvozanatni saqlash, sotsial tizimning atrof-muhitga moslashuvi, uni boshqarish bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Maqsadga erishish uchun jamiyatdagi a'zolar o'z maqsadini aniq bilishi, bu maqsadga erishish yo'lidagi imkoniyatlardan to'liq foydalanishi lozim.

Integratsiya – tizimning tarkibiy qismlarga hamohang bo'lish, hamjihatlik va ichki tartibni qo'llab-quvvatlash, tizimning muvozanatdan chiqishiga qarshilik qilishdan iboratdir. Latentlik deganda madaniyat namunalarini yaratish, madaniy boyliklarni yangilash va kelgusi avlodlarga etkazib berish tushuniladi. Qayd etib o'tganimizdek, vazifalar bugungi tizim, shuningdek, uning to'rtta tarkibiy qismlari tomonidan bajariladi.<sup>7</sup>

Jamiyatning integratsiyalashuvi sotsial tizim tomonidan amalga oshiriladi. Tizimning ma'lum maqsadga intilishini Parsons faqat o' Sha jamiyat Shaxsiyatiga

<sup>6</sup> Values, motives and systems of action {Talcott Parsons, Edward A. Shils with the assistance of James Olds}// Toward a General Theory of Action, p. 47-109.

<sup>7</sup> Parsons T. O strukture sotsialnogo deystviya. – M.: Akademicheskii Proekt, 2000. – S. 289-293.

taalluqli, deb hisoblaydi. Jamiyatning me'yorlari va qadriyatlarini yuzaga chiqarishda madaniyat tizimining roli katta. Muvozanatni saqlashda esa axloqiy me'yorlarga amal qilinadi.

T.Parsons modeliga muvofiq sotsial tizim faoliyat yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar holati va jarayonida vujudga kelgan tuzilmaga aytiladi. Bu tuzilma to'rtta asosiy qismdan tashkil topadi. Bular qadriyatlar, me'yorlar, jamoalar va vazifalardir.<sup>8</sup>

Sotsial tizimning muhim takibiy qismi bu – institutsionallashtirishdir. Bu o'zaro munosabatlarning barqaror modellari vujudga kelish jarayoni bo'lib, bu aloqalar ma'lum me'yorlar asosida boshqariladi va shu sababdan ham barqaror va istiqbolidir.

Institutsionallashtirish jarayoni natijasida ijtimoiy tarkib shakllanadi. Turli vazifalarni bajaruvchilar o'rtasida me'yoriy munosabatlar yuzaga keladi. Shuning uchun ijtimoiy tizimni institutsional vazifalar yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin. Sotsial tizim bilan solishtirganda qolgan uchta ya'ni madaniy, shaxsiy va axloqiy tuzilma muhit sifatida namoyon bo'ladi.

Sotsial tizimning tuzilmalari sifatida o'z navbatida iqtisodiy tizim, siyosiy tizim, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiylashtirish tizimlari farqlanadi. Sotsial tizimning barqarorlik shartlari qismlar o'rtasidagi determinantlangan munosabatlarga asoslanadi. Aksincha, kutilmagan va beqaror o'zaro munosabatlarni esa rad etadi.

Tizim tarkibiy qismlarining o'zaro bir-biri bilan bog'liqligi ijtimoiy intizomni ta'minlaydi. Bu tartib o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash kuchiga ega bo'lib, muvozanatni saqlashga yordam beradi. Barqaror tizimni joriy etish shartlari sotsial nazorat va ijtimoiylashtirish mexanizmlari bilan bog'liq holda rivojlanadi. Sotsial nazorat ko'magida ijtimoiy vazifalar tashkil etiladi, o'zaro munosabatlarda ma'lum shakllarning orasidagi masofa kamayadi. Sotsial nazorat qismlari bular – institutsionallashtirish va sanksiya kabi qadriyatlarni asraydigan tuzilmalardir. Zo'ravonlik va majburlash ham shu tarkibga kiradi. R.Merton T.Parsonsning nazariyasiga tanqidiy yondashib, sotsial tizimni tahlil qilish bo'yicha o'z uslubiyotini yaratdi. Bu amerikalik sotsiolog tahliliy muqobil shaklni ishlab chiqar ekan, funksionalizmning uchta an'anaviy fikrini rad qildi.

U birinchidan, jamiyatning funksional hamjihatligi haqidagi fikrni rad etadi. Merton o'z tahliliga ko'ra, yangi qarashni ilgari surdi. YA'ni, u tizimning integratsiya darajasi qamrovi keng va u beqaror hamda u turli jamiyatlarda o'zgarib turadi, degan fikrni ma'qullaydi.

Ikkinchidan, funksionalizmning ko'pqirraliligi yoki barcha mavjud shakllar va tizimlarning funksional foydasi haqidagi qarashni ilgari suradi. Bu fikrga qarama-qarshi tarzda tizimning tarkibiy qismlari o'z vazifalari bilan birga tamoman teskari faoliyatni ham bajarishi mumkin yoki ular o'z vazifasini to'liq amalga oshirmaydi. Vazifalar to'g'ri yoki aniq, noaniq, ochiq yoki yashirin bo'lishi mumkin.

R.Merton ularning aniqlik yoki tahminiylilik darajasini ham tahlil qiladi. Ko'pincha sotsiologning e'tibori tahminiy shaklga qaratiladi.

---

<sup>8</sup> O'sha erda. - S. 200-202.

Uchinchidan, zaruriyat haqidagi fikr ham mavjud, bunda vazifalar tizimning bazaviy ehtiyojlarini qondiradi. Tizimdagi har bir tarkib alohida vazifani bajaradi. Shu bilan birga ularning o'rnini hech nima bosmaydi. Merton tarkib va vazifalarning o'zaro aloqasi haqidagi fikrni rad etadi. Bu masalani u boshqacha talqin qiladi: birinchi tarkib bir necha vazifalarni bajaradi, deb ta'kidlaydi

To'rtinchidan, uning fikriga ko'ra, turli tizimlardagi tarkiblar bir-biriga o'xshash vazifalarni bajarishi mumkin.<sup>9</sup>

Nemis sotsiologi N.Lumanning nazariyasi bu boradagi tizimli yondashuvda asosiy qadam bo'ldi. Uning ta'limotiga ko'ra, sotsial tizimning uchta turi mavjud. Bular: o'zaro faoliyat tizimi, sotsietal tizim, tashkilotlar. Tizimning birinchi turi individlarning bir-birini qabul qilishi bilan bog'liq. Ikkinchi turdagi tizimlar keng qamrovli bo'lib, barcha kommunikativ harakatlarni o'z ichiga oladi. qamrab oladi. O'zaro faoliyat tizimlari bilan solishtirganda ularning yuksak saviyada tashkil qilinganligi ko'zga tashlanadi.

Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati: – (Ko'proq G'arbda; Skandinaviya davlatini misol keltirish mumkin).

2. Iste'mol qilish jamiyati (AK Shda XX asr 40–50-yillarda yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi).

3. Ochiq va yopiq jamiyat. Ochiq jamiyat - demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit Sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tishga moslashgan jamiyat. YOpiq jamiyat – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, mavhum tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi.

4. Industrial (sanoat) jamiyati. (XX asr 50-60 -yillarida yuzaga keldi. Bu kontseptsiya o'z mohiyatiga ko'ra, markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to'g'risidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan.

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralangan edi. Chunki, an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimoti va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirish, jamiyat a'zolarini bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini Cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat Shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etar edi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'zni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining Chuqurlashuvi - uning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarning qonunlar, me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirishning rasmiy tizimini shakllanishi, ijtimoiy boshqaruvning takomillashgan tizimini yaratilishi, dinni davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq

<sup>9</sup> Zdravomislov A.G. Obshaya sotsiologiya. Xrestomatiya. – M.: Vissh. Gik, 2006. – S. 62-63.

va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklari fuqarolik jamiyati, deb atala boshlandi.

Hozirgi sotsietal tizim avvalo dunyo hamjamiyatidir. Uchinchi turga kiruvchi tizimlar o'zaro faoliyat tizimi va sotsietal tizim o'rtasida oraliq holatda joylashgan. Bu tizimlarning o'ziga xos belgisi a'zolar o'rtasidagi o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Tashkilotlar, individual motivlar va me'yoriy mo'ljallarning keng qamrovli bo'lishiga olib keladi. Luman fikriga ko'ra, ochiq ijtimoiy tizimlarga xos bo'lgan xususiyat o'z-o'zini boshqarish va autopoyesidir. O'zini o'zi boshqarish – bu tizimni atrof-muhitdan va boshqa tizimlardan ajratib turuvchi omildir. Bu esa tizimni o'z chegaralarini belgilashga undaydi. Autopeysis tizimning tarkibiy qismlarini o'zida ishlab chiqarishga imkoniyat borligini bildiradi.

Ijtimoiy tizimning muhim elementi harakatlar emas, aloqalardir. Bu aloqalar vositasida voqelikning oddiy jarayonlari tartibga solinadi. Ular kamida ikkita sub'ekt mavjud bo'lganda yuzaga keladi va mantiqqa asoslanganligi bilan ajralib turadi<sup>10</sup>.

Ta'kidlanganidek, har qanday jamiyat odamlar, sotsial aloqalar, munosabatlar, sotsial guruhlar, jamoalar, sotsial me'yorlar, qadriyatlar va boshqalardan tashkil topadi. Ulardan har biri boshqa biri bilan ozmi-ko'pmi uzviy aloqada bo'ladi, jamiyatda o'ziga xos o'rin egallaydi. Shular bilan bog'liq ravishda sotsiologiyaning vazifasi, birinchi navbatda, jamiyatning tarkibini aniqlash, uning asosiy elementlarini ilmiy turkumlash, ularning jamiyatda, ya'ni sotsial tizimdagi o'zaro aloqalarini o'rganishdan iborat. Tarkibiy jihatidan jamiyat odamlar to'dasidan, shunchaki betartib olomondan ajralib turadi. Bu yo'nalishda jamiyat tartibli tuzilishga ega bo'lgan boshqa sotsial tuzilmalardan ham farq qiladi. Ijtimoiy tarkib ko'pincha barqarorlik, tizimning mustahkamlik Shartlariga ham asos bo'ladi va yuqorida qayd etib o'tilganidek, jamiyat – bu individlar qatori, ularning aloqalari va faoliyati emas, balki jamiyat odamlar va ularning soni va sifatida qat'iy nazar bir butun tizimdir. Bunday birikuv, yangi, integrallashgan va tizimli sifatdir. Jamiyat Shunday sotsial tizimki, u o'z belgilari va qonunlariga tayanib rivojlanadi.

Sotsiologik tahlil uchun jamiyatning eng muhim tizimli belgilari – yaxlitlik (ichki sifati jamoat ishlab chiqarishiga to'g'ri keladi), turg'unlik, dinamiklik (avlodlar almashinuvi, jamoat substraktining o'zgarishi, sekinlashuv yoki tezlashuv), ochiqlik va o'zini rivojlantirishdir (bu – ishlab chiqarish, ayriboshlash va iste'mol qilish kabilar hamda ijtimoiy jamoalarning qiziqishlari va kuchiga asoslanadi).

Shunday qilib, jamiyat deganda sotsiologiyada sotsial tizim sifatida bir-biri bilan ozmi ko'pmi bog'liq va bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan ijtimoiy omillar hamda jarayonlarning tartibga solingan katta bir yig'indisi – yaxlit bir butun tizim tushuniladi.

Zamonaviy sotsiologik adabiyotlarda hozirgi davrda jamiyatlarning turli-tuman xillari mavjudligi ta'kidlanadi. Shu bilan bir vaqtda ular orasida oshkora va

---

<sup>10</sup> O'sha erda. – S.110-111.

yashirin o'zaro farqlar mavjudligini tavsiflash mumkin. Oshkora farqlar jamiyatlarning o'zaro muomala madaniyati, tili, geografik holati, farovonlik darajasida namoyon bo'ladi. Yashirin farqlar esa barqarorlik darajasi, ijtimoiy muvofiqlashuvi, o'zini o'zi ro'yobga chiqarishda ko'zga tashlanadi.

Sotsiologlar jamiyatni turlarga bo'lishga turlicha yondashadi. Masalan, materialistik sotsiologiya jamiyatni turlarga ajratishda moddiy boyliklar va ularni ishlab chiqarish, ishlab chiqarish munosabatlari va ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarini nazarda tutadi. Bunda kishilik jamiyati beshta asosiy ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga ajratiladi. Bular – ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik tuzumi, feodal tuzum, kapitalizm va kommunizm. (sotsialistik jamiyat kommunistik jamiyatning o'tish bosqichi sifatida talqin etiladi).

Nemis sotsiologi F.Tennis asosiy e'tiborini jamiyatning ikkita asosiy turiga qaratadi. Ishlab chiqarishgacha bo'lgan jamoa, an'anaviy (gemayn Shaft – qishloqda dehqonlar jamoasi), va zamonaviy, ishlab chiqarishga asoslangan Shahar hududlaridagi (gezel Shaft) jamiyat.<sup>11</sup>

Sotsiologiyada jamiyatni turlarga bo'lishda sanoatgacha bo'lgan yoki an'anaviy, sanoatlashgan va postsanoatlashgan sifatlarga ham ahamiyat beriladi. An'anaviy tarzda agrar yo'nalishdagi jamiyat, sotsiomadaniy boshqaruvga asoslangan konservativ yo'nalishdagi jamiyatlar farqlanadi. An'anaviy jamiyatlar hozirgi tushunchalarga ko'ra, qoloq deb atalib, tanqidiy talqin qilinadi. Bunday jamiyatda individning o'zini tutishi qat'iy nazorat qilinadi, uni jamoat me'yorlari va sotsial institutlar asosida faoliyat yuritishi tartibga solinadi.

Sanoati rivojlangan jamiyatlarning o'ziga xos tomoni – ularda ishlab chiqarish keng taraqqiy etgan, ijtimoiy turmushni ochiq va erkin shakllarda tashkil qilish qabul qilingan. Bunday turdagi jamiyatlarga kishilar va sotsial guruhlarining ehtiyojlari, odamlarning qiziqishlari, ijtimoiy munosabatlar, aloqa-kommunikatsiya vositalarining rivojlanganligidan kelib chiqqan holda, sotsial tarkiblarning moslashuvchanligi xosdir.

Boshqa so'z bilan aytganda, sanoati rivojlangan jamiyat – bu ijtimoiy hayotdagi shunday tashkilotki, bu jamiyatda jamoatchilikning integrativ vazifasi qat'iy turib nazorat qilish emas, moslashuvchan tarkiblarni shakllantirish vositasida individ erkinligi va qiziqishlariga muvofiq tamoyillar asosida jamiyatni boshqarish tushuniladi. XX asrning 70-yillaridan boshlab G'arb sotsiologiyasida postsanoatlashgan jamiyat kontsepsiyalari ishlab chiqildi (D.Bell, A.Turen). U.Rastou bu jamiyatni keng iste'molchilar jamiyati deb ta'kidlaydi. A.Toffler buni «uchinchi to'lqin» sifatida talqin etadi. So'nggi vaqtlarda asosan «axborotlashgan jamiyat» degan atama ishlatilmoqda. Ilmiy-texnik revolyutsiya natijasida rivojlangan mamlakatlarning madaniyati, iqtisodiyotida yuzaga kelgan sifatli, tarkibiy-funksional o'zgarishlar, fanning to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi, axborot va ilm-fan salohiyatining kuchayishi bunday kontsepsiyaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi<sup>12</sup>.

Texnologik o'zgarishlar, axborotlashish jarayonida yangi postsanoatlashgan jamiyat yuzaga keldi. Bunday jamiyat ko'pincha rivojlangan mamlakatlarga

<sup>11</sup> Tennis F. «Obshnost i obshество» po istochniku: Sotsiologicheskiy jurnal. 1998. № 3-4. – S. 206-229.

<sup>12</sup> Lavrinko V.N. Sotsiologiya. Uchebnik. 3izd., pererab. i dop. – M.: IONITI-DANA, 2012. - S. 127

xosdir. Zamonaviy jamiyatning bunday turida ishlab chiqarish tarkibi ilmiy-texnik yutuqlar va yangiliklarni amaliyotda qo'llash bilan takomillashib boradi.

Postsanoatlashgan jamiyat birinchidan, o'zida fan, yangi texnologiyalar, aqliy va jismoniy mehnatga yangicha yondashuv va aqliy mehnatda yangicha ahamiyat kasb etuvchi axborotning etakchi o'rin tutishida namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyatining asosiy og'irlik kuchi bosqichma-bosqich tayyorlov jarayoniga, ilmiy bilimlarni qayta ishlash, loyihalashtirish hamda boshqarishga yo'naltiriladi. Bunda axborot-kommunikatsiya tizimlari eng bebaho tovarga aylanadi. Ishlab chiqarishning yangicha texnologik bazasi – elektron-axborot texnikasi vujudga keladi. Bu baza ishlab chiqarishning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotdagi bunday o'zgarishlar osonlikcha qo'lga kiritilmaydi.

Axborotlashgan jamiyatdagi kuchli raqobat va avtomatlashtirilganlik natijasida ishsizlik muammosi kelib chiqadi. Oqibatda shaxsning mehnat qilish huquqini kamsitilishi sodir bo'ladi. Bunday og'ir oqibatlarni yum Shatish uchun insonlarda turli sohalarda ishlash uchun ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish lozim.

Ikkinchidan, ijtimoiy o'zaro munosabatlarni tartibga solish istiqbollarini axborotlashtirish insonlar o'rtasidagi muloqot samarasiga salbiy ta'sir qiladi.

Uchinchidan, madaniyat, ta'lim, axborotlashtirish, fan va san'at sohasida tub burilish kuzatiladi. Biroq jamiyatni axborotlashtirish, keng qamrovli kommunikatsiya vositalari axloqiy mezonlarga, aqliy mehnat va madaniyat rivojiga xavf tug'diradi.<sup>13</sup> YUqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, jamiyat Shakllarini turlarga ajratishga bo'yicha fikrlarga yakuniy xulosa qilib bo'lmaydi. Chunki, kishilarning tafakkuri takomillashib borishi tufayli ijtimoiy hayotni yangi qoida va tamoyillar asosida tashkil etish davom etib boraveradi.

Barcha jamiyat ichida eng soddasi bu kishilarning ovchilik va termachilik bilan Shug'ullanishlaridir. Insoniyatning dastlabki avlodi paydo bo'lganiga taxminan 3 million yil bo'lgan deb hisoblansa, bundan 12 ming yil oldin kishilarning barchasi ovchi va termachi bo'lishgan. Hatto 1800 yilda ham ko'plab ovchilar va termachilarni topish mumkin edi<sup>14</sup>.

Ibtidoiy jamiyatda kishilar dastlab ovchilik va termachilik bilan Shug'ullanganlar. Buning uchun yovvoyi hayvonlarni ovlash va mevalarni terishga kirishganlar. Natijada ovchi-termachi kishilar mobil guruh a'zolari hisoblangan. Odatda ovchilik bilan erkaklar, ayolar esa mevalar, yong'oqlar, ildizlar va boshqa o'simliklarni yig'ish bilan Shug'ullanganlar. Ovchi-termachi kishilar yovvoyi tabiatdan kerakli mahsulotlarni olib ishlatishni o'rgandilar. Keyinchalik o'zlariga yashash joylarini ham yaratishni o'zlashtirdilar. Bu makonlardan yirtqich hayvonlardan muhofaza qilish vositasi sifatida foydalandilar.

Aksariyat ovchi-termachi kishilar ko'chmanchi hayot tarzini olib bordilar. Bu toifadagi kishilar past darajadagi zichlikda yashaganlar Shu tufayli ortiqcha oziq-ovqat saqlashga imkoniyatlari bo'lmagan. Bunday jamiyatda asossiz tenglashtiruv tamoyili hukmronlik qilgan<sup>15</sup>.

<sup>13</sup> Lavrinko V.N. Sotsiologiya. Uchebnik. 3 izd., pererab. i dop. – M.: IONITI-DANA, 2012. – S. 128.

<sup>14</sup> Macionis, John J. Sociology R.81

<sup>15</sup> Introduction to Sociology. R.33

Bundan 5000 yil avval Yaqin Sharqda texnologiya sohasida inqilob sodir bo'lib, u Erdagi hayotni tubdan o'zgartirdi. YA'ni, qishloq ho'jaligi paydo bo'lib, omoch ixtiro qilindi va yirik Chorva hayvonlari yordamida erga ishlov berish avj oldi. Bu davrda yana g'ildirak, sug'orish ilmi, xat, raqamlar ham vujudga keldi. Keyinchalik ayirboshlash uchun pul ixtiro qilindi<sup>16</sup>.

Industrial jamiyatgacha bo'lgan davrda energiyaning asosiy manbasi bo'lib kishilarning mu Shaklari xizmat qilar edi. 1750 yilda insoniyat gidroenergiyaga murojaat qildi. Keyin esa bug' qozonlari zavod va fabriklardagi ulkan maishanalarni ishlashiga vosita bo'ldi.

Sanoat texnologiyasi kishilarga shunchalik kuch-g'ayrat berdiki, natijada jamiyat tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sanoatlashgan jamiyatlar bir asr davomida shakllanib rivojlangan bo'lsalar, agrar jamiyatlar esa ming yil davomida shakllandi. Temir yo'llardan keyin rivoj topgan avtomobillar kishilarning uzog'ini yaqin qildi. Telegraf, telefon, keyinchalik radio va televideniedan boshlangan elektronika asri dunyoni lahzada bilish imkoniyatlarini ochib berdi.

Mehnat faoliyati o'zgardi. Agar jamiyatda erkak va ayol kishilar uylari va unga yaqin joylarda mehnat qilgan bo'lsalar, sanoatlashgan jamiyatda esa zavodlar, energiya manbalariga yaqin joylashgan Shaxtalarda ishlay boshladilar<sup>17</sup>.

Ushbu jamiyat – sanoatlashgan hududdir. Sanoatning o'zi esa tovarlarni mexanizatsiyalashtirgan ko'rinishda ishlab chiqarishdir. Agrar jamiyatdagi kabi sanoatlashgan jamiyat ham maxsulotlarning ortib borishini ta'minlaydi. Natijada ishchilar kuchini turli bo'limlarga ajratuvchi ierarxiyani tashkil qiladi.

Sanoatlashgan jamiyatda jamiyatning eng muhim belgisi sifatida ishchilarning birikmasi namoyon bo'ladi va bu hodisa munosabatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Industrialgacha bo'lgan jamiyatlarda kishilar orasidagi munosabatlar uy-joylarning yaqinligida amalga oshrilsa, industrial jamiyatda esa bunday munosabatlar ishxonadagi o'zaro hamfikrlik va do'stlik asosida kechadi.

O'z foydasi uchun sanoat inqilobi Yevropadagi XVIII-XIX asrlar davomida davom etgan birinchi sanoat inqilobiga murojaat etadi. Keyingi sanoat inqilobi esa elektroenergiya va ichida energiya tashkil topadigan dvigatel harakatiga tayandi. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar sovuq uru Sh davrida yoki AQSH, yoki SSSR ta'sirida sanoatlashib bordilar.

Bugungi kunda yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda ilg'or mexanizatsiya tufayli ishchi kuchi kichik bir hajmni tashkil etadi. Mashinalar robotlardan foydalanish sanoatdagi ishchilarni kamaytirishga va mehnat unumdorligini oshirish omil bo'ladi<sup>18</sup>.

Sanoatlashgan jamiyat bu – tovarlarni ishlab chiqarish va taraqatishda ilg'or texnologiyalarni qo'llaydigan jamiyatdir. Sanoatlashgan inqilob bundan 250 yil oldin sodir bo'lib, mexanik energiyaning olishni imkoni yo'q Sharaitlarida Angliyada bug' dvigatelinini kashf etilganini misol tarzida keltirish mumkin.

---

<sup>16</sup> Macionis, John J. Sociology R.82

<sup>17</sup> Macionis, John J. Sociology. R.84

<sup>18</sup> Introduction to Sociology. R.38.



Bug' dvigatellari lokomotivlar, zavodlarni elektr quvvati bilan ta'minlab, jamiyatni sanoat inqilobi tomon o'zgarib borishini belgilab berdi. Fan rivoji agrotexnikani: almashlab ekish, hosilni yig'ishtirib olish va paxtani tozalash kabilarni taraqqiy etishiga xizmat qildi. Shuningdek, gidroelektorstantsiyalarni qurish uchun to'g'onlar bunyod qilishni ta'minladi<sup>19</sup>.

Post- sanoatlashgan jamiyat qishloq ho'jaligi va sanoatdagi holatdan xizmat ko'rsatish sohalarga asosiy e'tiborini qaratishi bilan ajralib turadi.

Post- sanoatlashgan jamiyatga quyidagilar xosdir:

- sanoat mollariga qaraganda xizmat ko'rsatish sohasini kengayishi;
- ishlab chiqarishda mexanizatsiyalashtirishdan keng foydalanish;
- axborot texnologiyalari hajmini oshirish;
- axborot, bilim va ijod iqtisodning yangi xom-ashyolari hisoblanadi.

Eng yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar postsanoatlashgan hisoblanishadi va bu erda aksariyat kishilar sanoat yoni qishloq ho'jaligiga emas, aksincha, xizmat ko'rsatish sohasiga: moliya, sog'liqni saqlash, ta'lim kabilarga yo'naltirilgandir. Shunday holatni AQSHda kuzatish mumkin.

Lekin ayrim Shaxslar post sanoatlashgan jamiyatni tanqid qiladilar. Maqsad – industrial rivojni qayta tiklash yoki yanada rivojlantirish. Biroq, ayrim kishilar va jamoalar zavodlarni qurilishlarning yangi ob'ekti sifatida joriy qilishga rad javobini bermoqdalar<sup>20</sup>.

Zamonaviy davrda yangi turdagi jamiyatlar paydo bo'layapti. Aksariyat jamiyatlar moddiy farovonlikni generezatsiya qilish sifati bilan ajralib turadilar. Postindustrial jamiyatlar iqtisodiy jihatdan xizmat, ma'lumot va bilimlarni ishlab chiqish va ularni taqsimlashga bog'liq bo'ladi. Postindustrial jamiyatning axborot asosi bo'lib, unda texnologiyalar hayotiy muhim vazifalarni bajaradi. AQSH Shiddat bilan postindustrial jamiyat bo'lib Shakllanmoqda, YAponiya esa bundan ham ilgarilab ketmoqda. Ko'pgina xodimlar boshqaruv, ta'lim, huquqiy xizmat, ilmiy-tadqiqot ishlari, bank ishi kabi servis xizmatlarini ko'rsatishda ishtirok etmoqdalar.

Postindustrial jamiyat iqtisodida hisoblash texnikasining ilg'or texnologiyasi, robototexnika, genetik injeneriya va lazer texnologiyalari markaziy o'rin tutadi.

Postindustrial jamiyatga o'tish sotsial institutlarning kuchli ta'sirida sodir bo'ladi. O'quv muassasalari bunday jamiyatda birinchi darajali ahamiyat kasb etadilar va bunda fan alohida o'ringa ega bo'ladi<sup>21</sup>.

Fuqarolik jamiyati g'oyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda aholining biron-bir guruhi boshqa bir guruhni o'ziga bo'ysundira olmaydi, shuningdek, erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi ko'plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Bu g'oya XX asrning 80-yillarda avj olgan demokratlashtirish jarayoni natijasida alohida mazmun kasb

---

<sup>19</sup> *Sociology: The Essentials*, Sixth Edition Margaret L. Andersen and Howard F. Taylor. R.107.

<sup>20</sup> Introduction to Sociology. R.38.

<sup>21</sup> *Sociology: The Essentials*, Sixth Edition Margaret L. Andersen and Howard F. Taylor R.109.

eta boshladi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi.

Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir Shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi.

Hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarida barpo etilgan fuqarolik jamiyatlari to'g'risidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan bo'lsak, u holda fuqarolik jamiyati bu:

- avvalo, jamiyatning hayotiy faoliyatini iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

- ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

- uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli davlat organlari tazyiqlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qilishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Shu bilan bir qatorda, hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

*Iqtisodiy sohada:* nodavlat tashkilotlar; kooperativ- Shirkatlar; ijara jamoalari; aktsiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; korporatsiyalarning mavjudligi.

*Ijtimoiy sohada:* oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o'zini o'zi boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning zamonaviy Shakllari, ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir.

*Ma'naviy sohada:* so'z, vijdon va fikrlar erkinligi; o'z fikrini ochiq bildirishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta'minlanganligi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo'lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqillik bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishi ham taqozo qilinadi.

So'nggi shart-sharoit esa har bir fuqaroning o'z mulkiga ega bo'lishi, bu mulkni o'zi istagan tarzda tasarruf qila olishi uchun uning Shaxsiy yoki jamoaviy huquqi ta'minlagan bo'lishi lozimligidir.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga ko'rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o'zini o'zi boshqarish va jamoat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilar ekan.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z vazifalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa alohida o'z vazifalari bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarning ham o'z harakat doirasini o'zlari uchun belgilagan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o'zgarganda ham bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinish yoxud Chetga chiqib ketish ro'y berishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko'rsatdi.

Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'zini o'zi anglash, ularning ob'ektiv ravishdagi mas'uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu jamiyatda shakllangan mamlakatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining asosi – jamoat tashkilotlaridir. Va shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – nodavlat tizimidagi barcha jamoat tashkilotlariga a'zolikning ixtiyoriy Shaklda bo'lishidir. Bu qoida, birinchidan, shu jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, ikkinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolligi yuksakligini bildiradi. Qolaversa, har bir fuqaro o'zi kirmoqchi bo'lgan tashkilot faoliyatida o'z manfaatlari va ehtiyojlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch hosil qilganidan so'nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la oladi.

**Tayanch iboralar:** Jamiyat, mamlakatlar, davlatlar, ijtimoiy tizim, ijtimoiy o'zaro munosabatlar, ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy jamoalar va guruhlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy tarkib, jamiyat tizimining tarkibiy qismlari.

### **Nazorat savollari**

1. Jamiyat deganda qanday makon tushuniladi?
2. Nima uchun inson jamiyatdan holi yashay olmaydi?
3. Ijtimoiy tizimning asosiy tarkibiy birligi sizningcha nima?
4. Jamiyatning tizim sifatidagi o'ziga xos belgilari, uning tarkibi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Insoniyat taraqqiyotining o'ziga xosligi va yo'nalishlarini qanday omillar belgilaydi?
6. Jamiyatning qanday tarixiy Shakllarini bilasiz?
7. O'zbekistonning bugungi holatini jamiyatshunoslik atamalari tahlili vositasida ta'riflab bering.
8. Sharq jamiyatlarining o'ziga xos sifatlarini ko'rsatib bering
9. Hozirda G'arb jamiyatlarining tizimga xos belgilari qanday?
10. XXI asr jamiyati kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Introduction to sociology. R.31
2. Sorokin P.A. Chelovek. TSivilizatsiya. Obshestvo. / Per. s angl. – M.: Politizdat, 1992. – S. 33.
3. Volkov YU.G. Sotsiologiya: Kurs lektsiy. – Rostov na-Donu: Feniks. 1999.

- S. 132.
4. Veber M. Izbrannoe proizvedenie. – M.:Progress, 1990. – S. 509.
  5. Values, motives and systems of action {Talcott Parsons, Edward A. Shils with the assistance of James Olds)// Toward a General Theory of Action, p. 47-109.
  6. Parsons T. O strukture sotsialnogo deystviya. – M.: Akademicheskiy Proekt, 2000. – S. 289-293.
  7. Zdravomislov A.G. Obshaya sotsiologiya. Xrestomatiya. – M.: Vis Sh. Gik, 2006. – S. 62-63.
  8. Tennis F. «Obshnost i obshestvo» po istochniku: Sotsiologicheskiy jurnal. 1998. № 3-4. – S. 206-229.
  9. Lavrinko V.N. Sotsiologiya. Uchebnik. 3izd., pererab. i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2012. - S. 127.
  - 10.Macionis, John J. Sociology R.81.
  - 11.Sociology: The Essentials, sixth Edition Margaret L. Andersen and Howard F. Taylor. R.107.

## 16-mavzu. JAMIYAT VA IQTISOD

### REJA

1. Jamiyat tushunchasi
2. Jamiyat belgilari
3. Jamiyatning iqtisodiy sohasi
4. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi
5. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar
6. Iqtisodiyot va jamiyatning o'zaro bog'liqligi

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz siyosati, iqtisodiy va ma'naviy hayotida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlarni o'rganish, ularning natijalarini sarhisob qilish, to'plangan tajribalarni umumlashtirish asosida vaziyat tahlilini berish Shu kunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga huquqiy davlat qurish maqsadini qo'yganligini e'lon qildi. Lekin, bu bir zumda va o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi, albatta. Ma'muriy byurokratik tizimning emirilishi mustaqil O'zbekistonning jahon maydoniga chiqishi, bozor iqtisodiyoti munosabatlari tarkib topa borishi ham bu masalani dolzarb qilib qo'ydi. Biz istiqlol tufayli o'zbek xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldik.

O'zbekiston tinch parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy milliy davlatchiligini barpo etish huquqiga erishdi. Mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos va mos davlat-huquqiy yo'li tanlab olindi. Davlat qurilishi sohasida tanqidiy nuqtai nazarsiz qabul qilinadigan tayyor qolip va andozalar yo'q. Dunyoda bir-biriga aynan o'xshagan ikkita davlat yo'q. Har bir davlat – betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilidir. Uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir.

Jamiyat – bu odamlar birlashuvining hamma shakllari va ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarining hamma usullari majmuidir. Jamiyat har qanday murakkab bir butun hodisa va tizim sifatida o'z tuzilishi, strukturasiga ega. Bu struktura qanday degan savolga faylasuflarning bir emas bir qancha avlodlari javob topishga harakat qilishgan. Qadimgi sharq faylasuflari fikricha, jamiyat bir butun bo'lgani bilan bir turdagi ob'ekt emas.

Jamiyat tushunchasining eng oddiy ta'rifi bu – kishilarni muayyan hudud va madaniyat asosida birlashtiradigan guruhdir. jamiyat bu nafaqat kishilarni birlashtirgan guruhlar va ularning madaniyati, balki yana u kishilar va institutlar orasidagi munosabatlar tizimidir. Kishilik jamiyati madaniyatga egadir va madaniyat faqat qaerda jamiyat bo'lsa, u o' Sha erda faoliyat ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, insonlar bir-biridan alohida yashay olmaydilar. Inson o'z tabiatiga ko'ra jamiyatning bir bo'lagidir. Masalan, biron kechada birga ishtirok etayotgan do'stlar, badiiy adabiyot ixlosmandlari, kitobsevarlar jamiyatlari va

---

<sup>1</sup> Introduction to Sociology. – R.31.

boshqalar Shular jumlasidan. P.A.Sorokin ta'kidlaganidek, jamiyat tarkib topishi uchun kamida ikkita odam o'zaro aloqada bo'lishi kerak<sup>2</sup>.

Hozirgacha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish asosan, ikki yo'nalishda rivojlanib keldi.

Birinchi yo'nalish: O.Kontdan boshlab, frantsuz sotsiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan va nemis olimlari M.Veber, F. Tyonnis va boshqalar, keyinchalik esa amerikaliklar: P.A.Sorokin, T.Parsons, R.Merton kabi sotsiologlarning ta'limotlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishda sotsial tizim o'zgarishi tashqi kuchlar ta'siri orqali tushuntirilib, ko'proq psixologik omillarga e'tibor berilgan.

Ikkinchi yo'nalish: materialistik sotsiologik ta'limot bo'lib, unda sotsial tizim ichki ziddiyatlar asosida ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, moddiy munosabatlarning belgilovchi roliga asosiy e'tibor qaratilgan.

Umumiy qarashlar doirasida fikrlasak, jamiyat – bu odamlar jamoasi, guruhi va yig'indisidir. Biroq, jamiyat Shunchaki bir guruh odamlar jamoasi emas. Bu Shunday guruhki, unda odamlar o'zaro yaqin aloqada bo'lib, uzviy va barqaror munosabatlarga kirishadi. Bundan kelib chiqadiki, jamiyat unda yashab turgan insonlarning umumiy tomonlarini o'zida namoyon etadi.

Jamiyat deganda, muayyan tarixiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa o'ziga xos qirralari mavjud bo'lgan makon tushuniladi. Jamiyatga aynan Shunday ta'rif bergan amerikalik sotsiolog N.Smelzer jamiyatni ma'lum geografik Chegaralari, qonunchilik tizimi, ma'lum bir milliy (sotsial-madaniy) qadriyatlarga ega bo'lgan aholi, ya'ni odamlar birlashmasi<sup>3</sup>, deya qayd etadi.

Jamiyat – bevosita mamlakatning ijtimoiy tuzilishini o'zida aks ettiradi va shuning uchun ham sotsiologiyada markaziy o'rin egallaydi. Shunday qilib, sotsiologiyada sotsial tizim, jamiyat sifatida ijtimoiy Shakllanish tarixi, o'zaro aloqalari va munosabatlari umumiy bo'lgan odamlar guruhi tushuniladi.

Hozirgi davrning taniqli faylasuflari R.Aron, D.Bell, P.Blau, A.Giddens, R.Darendorf, G.Zimmel, F. Znanetskiy, T.Kun, K.Levi-Stross, K. Manngeym, R. Merton, X.Ortega-i-Gasset, K.Popper, P.A.Sorokin, E.Fromm, K.YAspers va boshqalar jamiyat to'g'risidagi o'ziga xos fikrlarini bildirganlar. Ko'pchilik mutafakkirlar jamiyatning mohiyati bir yoki bir nechta asosiy printsip orqali tushuntiradilar. Masalan, O. Shpannda bu printsip – birbutunlik, O.Tofflerda – plyuralizm, U.Rostouda – bosqichma-bosqichlik, K.Popperda – ochiqlik, R.Mertonda – universallik. Lekin, masalaga jiddiy qarovchi faylasuflar hatto o'zlarining printsiplarini ham mutlaqlashtirmaydilar. Masalan, K.Popper ochiqlik printsipti to'g'risida shunday deb yozadi: «Ochiq jamiyatlar... hali mukammallikdan yiroqda..., balki avlodlarimiz bir necha yuz yillardan so'ng axloqiy jihatdan bizdan ancha o'tib ketsalar kerak. Bularning barchasi ro'y berishi mumkin deb hisoblasam-da, shunga qaramay, yana qaytaraman: hozirgi davrda biz yashab turgan ochiq jamiyatlar – qachonlardir mavjud bo'lgan jamiyatlarning eng

<sup>2</sup> Sorokin P.A. CHelovek. TSivilizatsiya. Obshestvo / Per. s angl. – M.: Politizdat, 1992. – S. 33.

<sup>3</sup> Volkov IO.G. Sotsiologiya: Kurs lektsiy. – Rostov na-Donu: Feniks, 1999. – S. 132.

yaxshisi, eng erkin va adolatlisi, o'z-o'zini tanqid qiluvchi va islohotlarni eng tez qabul qiluvchilardir»<sup>4</sup>.

Jamiyatning birinchi belgisi bu – sotsial aloqalar sodir bo'ladigan hududdir. Hudud – bu individlar o'rtasidagi munosabatlar Shakllanib, rivojlanadigan kenglik asosidir. Jamiyatlarni bir-biridan farqlab turadigan yana bir muhim jihat – ichki o'sib boruvchi sotsial munosabatlardir, o'zaro muvofiqlashgan ijtimoiy faoliyat tizimidir.

E.Dyurkgeym jamiyatni bir yaxlit jamoa tasavvurlari, maqsadlari, his-tuyg'ulari, dini umumiy bo'lgan insonlar guruhi, deb ta'kidlaydi. Bu uyg'unlikda jamoa ongi individ xudbinligiga qarama-qarshi holatda namoyon bo'ladi<sup>5</sup>.

M.Veber esa bu uyg'unlikni sotsial omillar bilan bog'laydi<sup>6</sup>. T.Parsons va R.Merton ta'limotlarida: «Jamiyatda odamlarni ustqurmaviy me'yorlar, qadriyatlar, hayotiy faoliyatda amal qilinadigan barcha omillar birlashtiradi, – deyiladi. E. Shilz jamiyatni markaziy hokimiyat, hududiy yaxlitlik va markaziy boshqaruvga hamohang tushunchalar bilan bog'liq tarzda o'rganadi<sup>7</sup>.

Jamiyatning uchta o'ziga xos belgisi bor. Bu sifatlar uning mustaqilligini belgilovchi, o'zini o'zi boshqarish darajasini bildiradi. Jamiyatning mustaqilligi uning a'zolariga o'z ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat yaratib berishi, tor darajadagi kasbiy faoliyat bilan Shug'ullanishi, madaniyat, fan va boshqa sohalardagi yutuqlar bilan tanishishi, o'z vazifalarini ado etishi uchun Shart-sharoitlar yaratishida namoyon bo'ladi. Bu imkoniyatlar insonlarga o'z maqsadlariga erishishda yangilik va qulaylik yaratib beradi.

Jamiyatning to'rtinchi farqli belgisi shuki, u muvofiqlashish xususiyatiga ega. Har bir yangi avlod jamiyatda ijtimoiy Sharoitlarga muvofiq Shakllanadi. Bu yo'nalishda yangicha ijtimoiy ta'lim, turli me'yorlar institutsional tarzda rivojlanib boradi. Shu bilan bir vaqtda odamlarga azaldan urf bo'lib qolgan an'analar, axloqiy me'yorlar ta'siri saqlab qolinadi.

Jamiyat har qanday murakkab bir butun hodisa va tizim sifatida o'z tuzilishi, strukturasi ega. Bu struktura qanday degan savolga faylasuflarning bir emas bir qancha avlodlari javob topishga harakat qilishgan. Qadimgi sharq faylasuflari fikricha, jamiyat birbutun bo'lgani bilan bir turdagi ob'ekt emas. Miloddan avval IV asrda yashagan xitoy faylasufi Chjuan-tszi ta'kidlashicha, «nimaiki turli-tumanlikdan mahrum bo'lsa, turli-tumanlik bo'lgan joyda paydo bo'ladi»<sup>8</sup>.

Antik davrda jamiyat strukturasi muammosiga ikki xil yondashuv Shakllangan edi. Birinchi yondashuvga asosan, jamiyat – tegishli ichki strukturaga ega bo'lgan tabiiy tuzilmadir. Ikkinchi qarashga asosan, jamiyat yashash va boshqarish oson bo'lishi uchun sun'iy ravishda tizimga solingan. Birinchi nuqtai nazarni Arastu, seneka, ikkinchisini – Aflotun, Epikur, Lukretsiy Kar qo'llab quvvatlaganlar.

<sup>4</sup> K.Popper. Otkritoe obshestvo i ego vragi. – M., 1992. – B.15.

<sup>5</sup> O'sha asar. – S. 136.

<sup>6</sup> Veber M. Izbrannoe proizvedenie. – M.:Progress, 1990. – S. 509.

<sup>7</sup> Values, motives and systems of action {Talcott Parsons, Edward A. Shils with the assistance of James Olds} // Toward a General Theory of Action, – p. 47-109.

<sup>8</sup> Razzoqov A., Toshmatov SH., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. -Toshkent: «Moliya», 2002.

O'rta asr Sharqida Arastuning qarashlari keng tarqalib, jamiyat strukturasi tabiiyligi tan olingan. Yangi davrda «ijtimoiy Shartnoma» (bitim) nazariyasiga asoslangan ikkinchi nuqtai nazar keng tarqalgan. Unga ko'ra odamlar «tabiiy holat»da mutlaq teng, ozod, o'ziga to'q bo'lib, jamiyatning o'zi esa, hech qanday strukturaga ega emas. Faqat ijtimoiy bitim tuzilgandan keyingina jamiyat strukturaga ega bo'ladi. Bu holat J.–J. Russo (1712-1779) tomonidan yaqqol ko'rsatib berilib, uning fikricha oliy hokimiyat – jamiyatning «boshi», qonun va urf-odatlar – «miyasi», savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi esa – hazm qilish tizimi, moliya esa – «qoni»dir va boshqalar<sup>9</sup>.

Ilmiy sotsiologiyaning asoschilaridan biri ingliz faylasufi Gerbert spenser (1820-1903) har qanday jamiyatning asosida yotadigan uchta asosiy tizimni ajratgan: a) tartibga soluvchi; b) yashash vositalarini ishlab chiqaruvchi; v) bo'lib beruvchi. Sotsium qancha rivojlangan bo'lsa, uning tuzilishi shuncha murakkab bo'ladi. «Bir xillikdan ko'p xillikka o'tish bir butun tsivilizatsiya taraqqiyotida ham, har bir qabila taraqqiyotida ham kuzatiladi»<sup>10</sup>.

Turli falsafiy, sotsiologik maktablar va yo'nalishlar jamiyat strukturasi to'g'risida o'z variantlarini tavsiya etganlar. Ijtimoiy birbutunlikka kiruvchi mustaqil tizim va kichik tizim sifatida madaniyat (I.Gerder, O. Shpengler, K.Y.Aspers), san'at (G.Lessing, I.Ten, J.M.Gyuyo), iqtisodiyot (N.Smelser, U.Mur, T.Veblen), din (E.Dyurkgeym, M.Veber, T.Lukman), shuningdek, fan, texnika, huquq, til, ekologiya, ommaviy axborot vositalari va boshqalar tavsiya qilingan edi.

Hozirgi zamon jamiyat falsafasida ijtimoiy struktura kontseptsiyalari etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ulardan L.Altjusserning strukturalizmini, E.Giddensning strukturatsiya nazariyasini, P.Sorokinning stratifikatsiya kontseptsiyasini, K.Levi-Strossning genetik antropologiyasini, Goldmanning irsiy strukturalizmini, R.Mertonning tuzilmali funktsionalizmini aytib o'tish mumkin<sup>11</sup>.

Vaqt o'tishi bilan jamiyat tuzilmasida to'rtta asosiy sohalar ajralib chiqdi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalar. Shuni ta'kidlash kerakki, «ijtimoiy hayot sohasi» tushunchasi o'rniga «ijtimoiy struktura» yoki «siyosiy hayot» kabi tushunchalar ishlatiladi. Ularni sinonim tushunchalar desa ham bo'ladi. Lekin, fanda ko'proq «soha» tushunchasi qo'llaniladi.

Iqtisodiy sohaga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. U tor ma'noda «turli predmet va xizmat turlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste'mol qilish» deb tushuniladi<sup>12</sup>. Shu ma'noda aytish mumkinki, «jamiyatning iqtisodiy soha»si tushunchasi «bazis» tushunchasiga mos keladi. Keng ma'noda esa iqtisodiy soha deganda barcha ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tushuniladi: ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining birligi, shuningdek iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirlari yig'indisi. O'ta keng kategorial ma'noda sotsiumning iqtisodiy

<sup>9</sup> Russo J.J. Traktati. – M., 1969. 113-b.

<sup>10</sup> Spenser G. Sinteticheskaya filosofiya. – Kiev, 1997. 42-b.

<sup>11</sup> Razzoqov A., Toshmatov SH., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. –Toshkent: «Moliya», 2002.

<sup>12</sup> Sotsialnaya filosofiya. – M., 1995. – 36-b.



sohasi «tabiat bilan insonlar o'rtasida individ va kishilar guruhining ongli faoliyati orqali o'zaro aloqalarini» aks ettiradi<sup>13</sup>.

Iqtisodiy soha asosida insonning ishlab chiqarish va mehnat faoliyati yotadi. Uning zarurligi insonning ehtiyojlari hayvonning ehtiyojlaridan tubdan farqlanishi bilan belgilanadi. Inson rivojlanishi bilan tabiatdan ajraladi. Bu jarayonda esa, jamiyatning iqtisodiy sohasi taraqqiyoti muhim rol o'ynaydi. «Xususiy mulk» tushunchasi iqtisodiy tushunchalarning eng muhimlaridan hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy sohasida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari muhim tuzilmaviy qismlari hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlar kishilar o'rtasida ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va ne'matlarni iste'mol qilish jarayonlarida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlardir. Ishlab chiqarish kuchlariga moddiy ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan «sub'ektiv (inson) va moddiy (texnika va mehnat qurollari) elementlar tizimi kiradi»<sup>14</sup>.

Hatto eng yuqori darajadagi texnika va texnologiya rivojiga qaramay, baribir moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib qoladi. Fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanganligi insonga, ishchiga qo'yiladigan talablarni qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Hozirgi davrda ishchi nafaqat o'zining malakali kasbi, hunariga ega bo'lishi kerak, balki u doim o'zining malakasini oshirib, bilimlarini Chuqurlashtirib borishi kerak. Masalan, YAponiyada yaqin kelajakda umumiy, oliy ta'lim tizimiga o'tish mo'ljallangan, Chunki ishchilarga nisbatan talablar kuchayib ketgan.

G'arb ijtimoiy falsafasi (T.Parsons, N.Smelzer, U.Mur va b.) iqtisodiy hayotni tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq rollar va maqomlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Ko'plab ijtimoiy falsafiy nazariyalar doirasida iqtisodiyot bazis, jamiyat asosi, fundamenti sifatida ko'rilmaydi. Uning asosi sifatida madaniyat, tsivilizatsiya, huquq, axloq, din va boshqalar qo'yiladi. Iqtisodiy soha esa sotsiumning oddiy kichik tizimi sifatida yoki oddiy ijtimoiy institut (ta'lim, sog'liqni saqlash, ommaviy axborot vositalari) bilan bir qatorda talqin qilinadi.

Jamiyatda iqtisodiyot alohida ahamiyatga ega. Hozirgi zamonda sobiq sotsialistik jamiyatlarni isloh etishda «bozor munosabatlarini izchil rivojlantirishga o'tish, tadbirkorlikni rivojlantirish, xususiy mulkning, shaxsiy faollikning xilma-xilligi» muhim elementlardan hisoblanishi bejiz emas<sup>15</sup>.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo'naltirilgan boshqaruvga asoslangan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bozor munosabatlariga o'tishning o'z modeli, o'ziga mos yo'lini ishlab chiqqan. Bu yo'lning bir qismini Respublika bosib o'tdi. Islohotlarning birinchi bosqichida (1991-1994) yangi tuzumning poydevorini tayyorlash vazifasi hal etildi, yangi iqtisodiy tuzumning huquqiy asoslari yaratildi, aholi tomonidan tanlangan yo'lning to'g'ri ekanligini tushunish, faqat bozor iqtisodiyotiga o'tishgina kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning, jamiyatni demokratlashtirishning, har bir Shaxs uchun munosib yashash Sharoitlarini yaratishning asosi ekanligini

<sup>13</sup> Filosofiya. M., 1995. 209-b.

<sup>14</sup> Krapivenskiy S.E. Sotsialnaya filosofiya. – M., 1998. – 95-b.

<sup>15</sup> Milliy istiqloq ʻroyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, 2001. 49-b.

tushuntirish vazifalari bajarildi. Odamlarning va xo'jaliklarning yangi sharoitlarga sekin-asta moslashish jarayoni kuzatildi.

Keyingi bosqichda xususiy mulkchilik plyuralizmiga asoslangan ko'pukladli iqtisodiyotni shakllantirish vazifasi bajarilmoqda. Buni amalga oshirish uchun iqtisodni sekin-asta va bosqichma-bosqich davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, keyin esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi davlat mulkini aktsiyalashtirish amalga oshirila boshladi. Qishloqlardagi xo'jaliklarda ham keng miqyosda islohotlar olib borilmoqda<sup>16</sup>.

Islohotlarning bugungi bosqichida iqtisodiyotning ko'pukladli turi shakllanib bormoqda. Unga xususiy mulkchilikning turli shakllari plyuralizmi – davlat va nodavlat (xususiy, aktsionerlik, jamoa, kooperativ mulki), shuningdek qishloq xo'jaligining dehqon-fermer sektoridagi ijaraviy mulki ko'proq xosdir. Shu bilan bir qatorda davlat hanuzgacha ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yo'qotmagan holda barqarorlik, himoya va adolat kafolati rolini o'ynashda davom etmoqda. Shunga ko'ra, mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichi o'zgarib borayotgan sharoitlarga to'liq javob bera oladigan talab va printsiplarni amalda qo'llashni talab qiladi.

Mustaqil taraqqiyotning birinchi o'n yilligi natijalari asosida islohotlarni chuqurlashtirish dasturi qabul qilingan edi. Unda iqtisodiyotni erkinlashtirishni davom ettirish va chuqurlashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, iqtisodiyotda xususiy mulkchilik ta'sirini kuchaytirish, kichik va o'rta biznes tadbirkorlariga erkinlik va imtiyozlarni ko'paytirish kabilar nazarda tutilgan.

Bugun hammaga ma'lumki, kishilar yashashlari, siyosat, san'at, adabiyot, fan, ma'rifat, madaniyat, ta'lim bilan Shug'ullanishlari uchun hayotiy ne'matlarni iste'mol qilishlari, kiyinishlari va turli xil xizmatlardan bahramand bo'lishlari kerak. Buning uchun esa oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va turli xizmatlardan iborat hayotiy vositalar zarur.

Kishilar bunday hayotiy vositalarga ega bo'lishi uchun turli sohalarda faoliyat ko'rsatadi. Insonning bu turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, ularning yashashi va kamol topishini ta'minlaydigan moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan iqtisodiy faoliyatdir.

Kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar yaxlit qilib, iqtisodiy faoliyat deb ataladi<sup>17</sup>.

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi doirasida ro'y bergan. Shuning uchun iqtisodiyot deganda uy xo'jaligi va uni yuritish qonun-qoidalari tushunilgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot faqat uy xo'jaligi doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki yirik xususiy va jamoa xo'jaliklari, hissadorlik jamiyatlari, davlat xo'jaliklari, moliya va bank tizimlari, xo'jaliklararo,

<sup>16</sup> Vaxabov A.V., Xudiyakova N.K. Mejdunarodnie valiotno-kreditnie i finansovie otnosheniya. Uchebnoe posobie v 2-x ch. – Tashkent, 2003.

<sup>17</sup> Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy. Pod red. V.D.Kamaeva, 8-oe izdanie. – M.: VLADOS, 2013.

davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, kontsernlr, qo'shma korxonalar, hamda ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlardan iborat bo'lgan, juda murakkab organizm hisoblanadi.

Iqtisodiyot – bu iqtisodiy ne'matlarni takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hamda ularni tartibga soluvchi mexanizmlar va turli darajadagi muassasalarning ma'lum darajada tartibga solingan tizimidir<sup>18</sup>. Boshqacha aytganda iqtisodiyot - bu zaruriy hayotiy ne'matlar yaratish yo'li bilan jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi xo'jalik tizimlari majmuasidir. Har qanday iqtisodiyot bir qator zaruriy bo'g'inlar va umumiy tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'ladi<sup>19</sup>.

Bular ichidan ishlab chiqarishning texnologik usuli, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashish, jamiyatning iqtisodiy resurs salohiyati va ustqurmaviy tuzilmalarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiyot doirasida moddiy boyliklarni, ya'ni jamiyat uchun zarur bo'lgan ne'matlarni takror ishlab chiqarish jarayoni ro'y beradi. Iqtisodiy fanda takror ishlab chiqarish qisqarib boruvchi, oddiy va kengaytirilgan turlarga ajratiladi. Qisqarib boruvchi takror ishlab chiqarishda ishlab chiqarish hajmi kamayib borish tartibida takrorlansa, uning oddiy turida bir me'yorda, o'zgarmasdan va kengaytirilgan turida esa kengayib borish tartibida takrorlanadi<sup>20</sup>.

Tovarlar, xizmatlar va resurslarning harakati bo'yicha takror ishlab chiqarish - ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarining birligidan iboratdir. Bularning ichida eng asosiysi va boshlang'ich bo'g'inini ishlab chiqarish jarayonidir. Chunki, hamma tovar va xizmatlar xuddi shu bosqichda yaratiladi. Agar ishlab chiqarilmasa, taqsimlanadigan, ayirboshlanadigan va nihoyat, iste'mol qilinadigan narsalar bo'lmaydi.

Ikkinchi muhim bosqich taqsimot jarayonidir. Bu bosqichda, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, tovar va xizmatlar hamda pul daromadlari, tarmoqlar, sohalar, hududlar, korxonalar va jamiyatning alohida a'zolari o'rtasida taqsimlanadi.

Ayirboshlash jarayoni yaratilgan ne'matlar va boyliklarning ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarini bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida iqtisodiy aloqa ya'ni – ayirboshlash jarayoni pul vositasida amalga oshiriladi.

Takror ishlab chiqarishning oxirgi bosqichi iste'mol jarayonidir. Bu jarayonda tovarlar va xizmatlar o'zlarining pirovard iste'molchilarini topadi hamda turli xil ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Iste'mol ikki turga bo'linadi: unumli va shaxsiy iste'mol. Ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi ishlab chiqarish jarayonida foydalanilib, unumli iste'mol qilinadi. Iste'mol buyumlari shaxsiy iste'mol jarayonida foydalaniladi, va shu orqali ularning o'rniga yangisini ishlab chiqarish zaruriyati paydo bo'ladi<sup>21</sup>. Shunday qilib, tovarlar, xizmatlar va


<sup>18</sup> SHodmonov SH., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiёт nazariyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Moliya, 2002.

<sup>19</sup> Ioxin V.YA. Ekonomicheskaya teoriya. – M.: Ekonomistъ. 2005.

<sup>20</sup> Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. Pod obshey red. prof. V.I.Vidyapina, G.P.Juravlevoy. – M.: REA, 2012.

<sup>21</sup>Ekonomicheskaya teoriya. izd.ispr. i dop. Pod.obsh. red. akad. V.I.Vidyapina, A.I. Dobrinina, G.P.Juravlevoy, L.S.Tarasevicha. -M.: INFRA-M, 2013.

resurslarning harakati doimo to'xtovsiz takrorlanib uzluksiz yangilanib turadigan jarayondir.



### **1-chizma. Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi harakati**

Infratuzilma – bu ishlab chiqarish va ayirboshlashning me'yorida ro'y berishi hamda kishilar turmush kechirishining umumiy Shart-sharoitini tashkil qiluvchi sohalar.

Infratuzilma turlari:

- Ishlab chiqarish infratuzilmasi.
- Ijtimoiy infratuzilma.
- Bozor infratuzilmasi.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi jamiyat ehtiyojlarining Cheksizligi hamda iqtisodiy resurslarning Cheklanganligidir.

Iqtisodiyotning asosiy muammosi – bu iqtisodiy resurslar Cheklangan Sharoitda jamiyatning Cheksiz ehtiyojlarini qanday qilib to'laroq qondirib borish mumkinligi to'g'risidagi masaladir.

Iqtisodiyotning asosiy muammosini hal qilish yo'llari:

- iqtisodiy resurslar miqdorini ko'paytirish;
- resurslar unumdorligini oshirish;
- resurslardan foydalanishning turli hil muqobil variantlaridan eng samaralisini tanlash;
- jamiyat ehtiyojlarini Cheklash.

Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy munosabatlarda amal qiladigan iqtisodiy qonunlarni ham o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, bu fanining asosiy vazifalaridan biri iqtisodiy qonunlarni bilish va uning mazmunini, amal qilish mexanizimini ochib berish hisoblanadi.

Iqtisodiy qonunlar iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning ichki o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

Iqtisodiy qonunlar ob'ektiv amal qilayotgan iqtisodiy voqealikning umumlashgan nazariy ifodasi bo'lib, u ob'ektiv reallikni ilmiy bilish natijasidir, ya'ni uning inson ongidagi in'ikosidir. Iqtisodiy qonunlar ob'ektiv xarakterga ega

bo'lib, ularning kelib chiqishi, amal qilishi, rivojlanishi va barham topishi kishilarning ongiga, ularning hoxish irodasiga bog'liq emas.

Ma'lum tarixiy davrlarda, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga, mavjud iqtisodiy tizimning xarakteri va shart-sharoitiga mos keladigan iqtisodiy qonunlar vujudga keladi va amal qila boshlaydi. Lekin, iqtisodiy qonunlar kishilarning iqtisodiy faoliyatidan tashqarida, ulardan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, balki aynan ularning faoliyati, xatti -harakatlari, iqtisodiy xulq-atvori tufayli tarkib topadi va ular orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun insonlar iqtisodiy qonunlarning mazmunini bilib, ularning, talablarini hisobga olib, ulardan o'zlarining amaliy faoliyatlarida foydalanishlari lozim bo'ladi. Bu iqtisodiy qonunlar talablariga zid har qanday qaror va hatti-harakatlar kishilarning xohish irodasidan qat'iy nazar muqarrar ravishda xo'jalik faoliyatida qiyinchiliklarga, resurslar isrofgarchiligiga olib keladi<sup>22</sup>.

Iqtisodiy qonunlar tabiat qonunlaridan farq qiladi. Ularning farqi shundaki, tabiat qonunlari doimiydir, iqtisodiy qonunlar esa ijtimoiy hayot qonunlari bo'lib, tarixiydir va o'zgaruvchandir, Chunki u kishilarning faoliyati bilan bog'liq bo'lib kishilik jamiyati mavjud bo'lganda paydo bo'ladi va amal qiladi.

Amal qilish davrining davomiyligiga qarab iqtisodiy qonunlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Umumiqtisodiy qonunlar – kishilik jamiyati rivojlanishining barcha bosqichlarida amal qiladi. Masalan, vaqtni tejash qonuni, ehtiyojlarning o'sib borish qonuni, takror ishlab chiqarish qonuni, ishlab chiqarish munosabatlarning ishlab chiqaruvchi kuchlar xarakteri va rivojlanish darajasi mos kelishi qonuni va boshqalar;

2. Xususiy yoki davriy iqtisodiy qonunlar – insoniyat jamiyati taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida amal qiladi. Masalan, talab qonuni va taklif qonuni, tovar-pul munosabatlari mavjud bo'lgan davrlarda mavjud bo'ladi.

3. Maxsus o'ziga xos iqtisodiy qonunlar – alohida olingan iqtisodiy tizim Sharoitida amal qiladi. Masalan, qo'shimcha qiymat qonuni.

Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy qonunlar bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlarning alohida tomonlarini tavsiflaydigan iqtisodiy kategoriyalarning mazmunini ham ochib beradi.

Iqtisodiy kategoriyalar – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiynazariy tushunchadir.

Iqtisodiy kategoriyalar real iqtisodiy hodisalarning mohiyatini ifoda etadigan ilmiy tushuncha bo'lib, ilmiy tafakkur mahsulidir. Ular nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Bozor, pul, tovar, kapital, ishchi kuchi, iqtisodiy muvozanat, moliya, kredit, bank va boshqa shu kabi tushunchalar iqtisodiy kategoriyalarga misol bo'la oladi. Iqtisodiy qonunlardan farq qilib, ilmiy tushunchalar, iqtisodiy hodisalarning mazmunini ifoda etadi.

Bir iqtisodiy qonun ikki yoki bir nechta ilmiy tushunchalar bo'lishi mumkinki, ularni bilmasdan turib Shu iqtisodiy qonunning mazmunini tushunish va uning tabiatini bilish ancha qiyin. Masalan, talab qonuni mohiyatini bilib olishimiz uchun baho va talab tushunchalari mazmunini bilishimiz zarur bo'lsa,

<sup>22</sup> Razzoqov A., Toshmatov SH., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. -Toshkent: «Moliya», 2002.

tovar, pul, qiymat, baho, mehnat, kabi tushunchalarning mazmuni bilan tanish bo'lgandan keyin, qiymat qonunini tushunib olish mumkin. Umuman olganda, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi. Ular birgalikda iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini aks ettiradi.

Iqtisodiyot jamiyat hayotining muhim sohalaridan biri bo'lib, inson rivojlanishi manbaini tashkil qiladi. Unda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ne'mat va vositalarni ishlab chiqaradilar va o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy ta'sir etadi.

Sobiq totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida siyosat iqtisodiyotdan ustun bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berardi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolxoz-kooperativ mulkchilik Shakllaridan iborat umumxalq mulki tashkil etardi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90 foizdan ortig'iga ega bo'lib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni o'rnatgan edi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyotni, iqtisodiy hayotni bir markazdan ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarib borar edi.

Jamiyat a'zolari ijtimoiy mulkka egalik qilish huquqidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan Shug'ullanish qonun bilan man etilgan edi. Bunday faoliyat bilan Shug'ullanganlar Chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar. Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganligi tufayli, mehnat motivatsiyasi sust. Pirovard natijada sobiq ittifoq Chuqur tanazzulga uchradi.

Ma'lumki, shaxsning mulkdor bo'lish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat Sharoitlarida ishlash, o'zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin Shug'ullanish hamda shunga muvofiq Cheklanmagan daromad olish va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo'lish kabi huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotigina ta'minlashga qodirdir.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil Shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk Shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan babbaravar muhofaza etilishini kafolatlaydi<sup>23</sup>», deb belgilab qo'yilgan.

Amaldagi islohotlarning asosiy maqsadi haqida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «Barcha islohotlarning iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat Sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat<sup>24</sup>», deb ta'kidlagan edi.

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–Toshkent: O'zbekiston, 2003. – B.11.

<sup>24</sup> Karimov I.A.. O'zbekiston buok kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. – B.281-282.

Erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm bo'lib, demokratiyaning umumbashariy tamoyili hisoblanadi. Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk Shakllari va xo'jalik yuritish usullarining xilma-xil bo'lishida o'z ifodasini topadi. Shu boisdan ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra ko'p ukladli poliiqtisodiyot bo'lib, unda turli mulk Shakllari va xo'jalik ukladlarining teng huquqliligi, muvozanatda bo'lishi hamda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi ta'minlanadi.

Demokratik jamiyatga monand demokratik iqtisodiy tamoyillar erkin bozor iqtisodiyotining quyidagi tub belgilarida o'z ifodasini topadi:

1) xususiy mulk; 2) tadbirkorlik va tanlov erkinligi; 3) Shaxsiy manfaatning inson xatti-harakatining bosh motivi ekanligi; 4) raqobat; 5) erkin narx tizimi; 6) davlatning iqtisodiyotga aralashuvining Cheklanganligi.

Harakatlar strategiyasida<sup>25</sup> iqtisodiyotni yanada rivojlantirish hamda liberallashtirishga oid belgilangan chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilishi, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, pirovardida aholi farovonligini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Chunonchi, iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, etakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, moliya-bank sohasini tubdan isloh etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga e'tibor qaratilgani diqqatga molik.

Butun xalqimiz, ayniqsa, uning eng faol qatlamiga aylanib borayotgan tadbirkorlarni o'yantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, ularni qo'llab-quvvatlash, huquq hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida belgilangan vazifalar, shubhasiz, oilalar farovonligini ta'minlash bilan birga, yurtimiz iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu hujjatda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy printsiplari hamda mexanizmlarini joriy qilish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar aks etgani muhim jihatlardan biri bo'lib, uning ijrosini ta'minlash har birimizdan katta mas'uliyat talab qiladi. Albatta, bunda ijtimoiy Sheriklik munosabatlaridan oqilona foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Bular mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish orqali xalqimizning hayotdan rozi bo'lib, baxtli-saodatli umr kechirishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

---

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'rtinchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-moddasi). – Toshkent, 2017.

**Tayanch iboralar:** Jamiyat, jamiyatning iqtisodiy hayoti, moddiy ishlab chiqarish, ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari, mulk, texnika, texnologiya, bozor iqtisodiyoti.

**Nazorat savollari:**

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyat tushunchasini kim birinchi bo'lib o'rgangan?
3. Jamiyat belgilari nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy kategoriyalar nimalardan iborat?
5. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi nima?
6. Iqtisodiyot va jamiyatning o'zaro bog'liqligi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Iqtisodiy tamoyillar erkin bozor iqtisodiyotining qaysi tub belgilarida o'z ifodasini topadi?



## 17-mavzu. JAMIYAT VA DAVLAT

### REJA

1. Sotsiologiyada davlat bilan jamiyatning o'zaro nisbati.
2. Davlat ijtimoiy institut sifatida: paradigmalari, belgilar va funktsiyalar.
3. Hokimiyat, fuqarolik jamiyati va siyosiy partiyalar.
4. Siyosiy sotsiologiya

Davlat bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari va hamkorligi sotsiologiya nazariyasi va amaliyotining eng muhim jihatlaridan biridir. Chunki insonning u yoki bu sotsiumdagi o'rnini va roli, huquq va erkinliklarining ta'minlanganlik darajasi uning salohiyati va qobiliyati ro'yobga chiqishini aniqlab beradi. Masalan, O'zbekistonda o'tkazilgan keng miqyosli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitet – egamenlik, xavfsizlik va huquqiy tartibni saqlash, davlat chegaralari dahlsizligi, qonun, inson huquqlari va erkinliklari, jamiyatda millatlararo murosaa, diniy bag'rikenglikning mustahkam poydevorini, aholi hayoti, fuqarolarning yaratuvchilik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib Sharoit yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi qabul qilindi. U davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va xavfsizlikni ta'minlash, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni nazarda tutadi<sup>1</sup>. Bularning barchasi mamlakatimizdagi keng miqyosli islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladigan “davlat” va “jamiyat” atamalarining nazariy asoslarini bilib olishni taqozo qiladi.

“Jamiyat” atamasini sotsiologik nuqtai nazaridan tushunib olish uchun u individlar – alohida shaxslar tarkib topishinigina aytish kifoya qilmaydi, Chunki sotsium Shakllanishida kishilarning birligi, umumiyligi, birdamligi va o'zaro aloqalari eng muhim unsurlar hisoblanadi. Kishilarning ushbu o'zaro aloqalari va munosabatlari qandaydir umumiy asosga ko'ra shakllanadi. Sotsiologiyaning turli maktablari ular qatoriga “manfaatlar”, “ehtiyotlar”, “sabablar”, “oldga qo'yilgan maqsadlar”, “qadriyatlar” va hokazolarni kiritadi<sup>2</sup>.

Jamiyatni to'rtta asosiy sohaga bo'lib o'rganish mumkin: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy<sup>3</sup>. Bu ko'plab ijtimoiy hodisalar orasida yo'lni topib olishga yordam beradi. Umuman olganda, siyosiy soha Prezident, uning devoni, hukumat va Parlament, mahalliy hokimiyat idoralari, armiya, soliq va bojxona xizmatlari, ichki ishlar idoralari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ular birgalikda davlatni tashkil qiladi. Siyosiy soha davlat tarkibiga kirmaydigan siyosiy partiyalarni ham o'z ichiga oladi<sup>4</sup>. Partiyalarning vazifasi qonundan belgilab qo'yilgan usullar bilan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'rtinchi». O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, - 354 b.

<sup>2</sup> Radugin A.A. Sotsiologiya. - M., 2003.

<sup>3</sup> Luman N. Ponyatie obshestva // Problemi teoreticheskoy sotsiologii. – SPb., 1994.

<sup>4</sup> Bendiks R. Sovremennoe obshestvo // Amerikanskaya sotsiologiya. – M., 1992.

aholi ba'zan manfaati o'zaro zid keladigan qatlamlarining turli-tuman siyosiy manfaatlarini ifoda qilishdir.

Davlatning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga huquq va qonunga tayanish, jamiyatning me'yoriy va barqaror ishlashini ta'minlash uchun ijtimoiy jarayonlarni majburiy tartibga solish va ularni nazorat qilish kiradi. M.Veber: "Davlat tarixan o'zidan oldingi siyosiy ittifoqlar singari odamning odam ustidan hukmronligiga asoslangan munosabatdir. U vosita sifatida qonuniy kuch ishlatishga tayanadi. Shu tariqa hukmronlik qilishi uchun uning ostida bo'lgan odamlar ta'sir kuchiga ega bo'lganga (avtoritetga) bo'ysunishi kerak, ayni paytda hokimiyat tepasidagilar ta'sir kuchiga ega bo'lishga intiladi"<sup>5</sup>.

Gap bu erda faqat qonunchilikka tayanish haqida emas, davlat hokimiyatining aholi qo'llab-quvvatlashini ta'minlab beruvchi ta'sir kuchi, obro'si haqida ketmoqda. Shu tariqa davlat jamiyatning hokimiyat, kuch va ta'sir kuchiga ega bir bo'lagi, ijtimoiy institutidir. U muayyan ijtimoiy tizimni qo'llab-quvvatlovchi resurslar va mablag' taqsimoti uchun zarurdir.

Shuningdek, davlat markaziy va jamiyatni birlashtiruvchi siyosiy institut hamdir. U oliy hokimiyat vakolatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Boshqaruv qobiliyati evaziga ijtimoiy munosabatlarni ma'lum maqsad yo'lida tartibga solib boradi. Sotsiolog P.Burde M.Veber asos solgan an'anani davom ettirib, davlatga quyidagicha ta'rif beradi: "Davlat "kapital turlari, jismoniy majburlash yoki kuch ishlatishning – armiya, politsiya, iqtisodiy, madaniy yoki to'g'rirog'i, axborot-ramziy – vositalari yig'indisidir. Ushbu yig'indi davlatni o'ziga xos metakapital egasiga aylantiradi hamda kapitalning boshqa turlari va ular egalari ustida hukmronlik qilish huquqini beradi"<sup>6</sup>.

Davlatning boshqa institutlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari tarixan professional boshqaruvchilarning (amaldorlarning) paydo bo'lishi davlat hokimiyatining jamiyatdan ajralishiga, uning ijtimoiy manfaatlarga mos kelmasligiga sabab bo'ldi. Bu davlatni o'zini o'zi boshqarishga asoslangan urug'-aymoqchilik tashkilotidan ajratib turadi. Davlat hokimiyatini yurgizish muayyan tashkilotchilikni – amaldorlarning maxsus apparati, sudyalari, armiya va hokazolarni bo'lishini taqozo etadi. Zamonaviy demokratik davlat professional boshqaruv apparati bilan saylov vositada shakllantiriladigan vakillik tizimini o'zaro omuxta qiladi.

Uning yana bir xususiyati suverenitet – egamenlik – muayyan makondagi oliy hokimiyatdir, ya'ni hukmronlikning unga buyruq yoki irodasini amalga oshirishga halal beradigan hech bir Shakli yo'qdir<sup>7</sup>. Uning aholi barcha qatlamlari uchun majburiy qonunlar Chiqarish, ularga o'zgartirishlar kiritish singari ichki suverenitet hamda davlatning tashqi nazoratdan eminlikni nazarda tutuvchi tashqi suverenitet (xalqaro munosabatlar kontekstida) ko'rinishi ham bor.

<sup>5</sup> Veber M. Izbrannie proizvedeniya. Per. s nemetskogo. Sost., obsh. red. i poslesl. Davidova IO.N., - M.: Progress, 1990. 646 s.

<sup>6</sup> Burdē P. Dux gosudarstva: genezis i struktura biorokratsicheskogo polya. <http://gtmarket.ru/laboratory/expertize/2006/704>

<sup>7</sup> Brokgauz F.A., Efron I.A. Suverenitet // Entsiklopedicheskiy slovar // URL: <http://enc-dic.com/brokgause/Suverenitet-22303.html>

Shu o'rinda davlatning qonunaniy kuch ishlatish va jismoniy majburlashga bo'lgan monopoliyasini alohida qayd etish lozim. Davlatning majburlash vakolatlari qamrovi erkinlikni Cheklashdan tortib, odamni jismonan yo'q qilish qadar kengdir. Majburlash funksiyasini amalga oshirish uchun davlatning armiya, xavfsizlik xizmati, sud, prokuratura singari maxsus vosita va idoralari bor.

Bunga uning aholidan soliq va to'lovlar yig'ish borasidagi monopol huquqi ham kiradi. Soliqlar boshqaruv apparatini boqish va davlat siyosatini moddiy jihatdan ta'minlash, ijtimoiy hayotni qonuniy yo'l bilan tartibga solish uchun kerak. Huquq bo'lmasa, qonunlar Chiqarilmasa, davlat jamiyatni samarali boshqarishi, qabul qilinayotgan qarorlar ijrosini so'zsiz ta'minlay olmaydi. Har qanday zamonaviy jamiyatda hokimiyatning juda ko'plab sub'ektlari bor. Biroq Chiqarayotgan qarorlari fuqarolar, tashkilotlar va muassasalar uchun majburiy bo'lgan oliy hokimiyat bu – davlatdir. Faqat davlatgina ijrosi majburiy bo'lgan qonun va me'yoriy hujjatlar Chiqarish huquqiga ega.

Davlatni sotsial institut sifatida ko'rib chiqishning bir qancha sotsiologik paradigmalari mavjud. Dastlabki paradigmaga ko'ra, davlat hukmron sinf (tuzumga oid) hokimiyatini mustahkamlovchi va himoya qiluvchi institut deb qaraladi. Ushbu yondashuvda davlat institutining faoliyati, avvalo, Cheklangan resurslar uchun kurashga e'tibor qaratishi zarurligi bilan doimiy ziddiyatlardan iborat bo'ladi, deb xulosa chiqarilgan.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga ishlab chiqarish munosabatlari va huquqning muayyan turi to'g'ri keladi<sup>8</sup>. Davlat turi esa davlat hokimiyatining qaysi mulkdorlar sinfiga tegishli, ya'ni ishlab chiqarish vositalari kimning qo'lida ekaniga bog'liq. Davlatning bir turidan ikkinchisiga ijtimoiy inqilob orqali o'tiladi, o' Sha inqilob jarayonida davlatning mohiyati va ijtimoiy ahamiyati o'zgaradi. Davlatning tarixan so'nggi turi sotsialistik davlat bo'lishi, sinfsiz jamiyatga o'tish davrini tayyorlashi, so'ngra barhami topishi kerak. Tarix bunday bir tomonlama yondashuvning eskirganini yaqqol ko'rsatib berdi.

Davlatning ijtimoiy institut sifatidagi tavsifining ikkinchi paradigmasi uning tuzilmasi va funksiyasi tahlilidan kelib chiqadi. Unda asosiy e'tibor davlat siyosiy hokimiyatining ijtimoiy ziddiyatlarga emas, hamkorlikka asoslangan jihatlariga qaratiladi. Masalan, T.Parsonsning fikricha, davlatning siyosiy faoliyati sinflar o'rtasidagi resurslarni taqsimlash va ularni nazorat qilish uchun kurashdan ko'ra muvofiqlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi<sup>9</sup>.

V.Gumboldt, O. Shpengler, A.Toynbi, s.Xantington va boshqalar davlat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga tsivilizatsion yondashuvni taklif qilgan edi. Uning mohiyatini tavsiflashda mezon sifatida "ijtimoiy-iqtisodiy tuzum" emas, "tsivilizatsiya" – "tamaddun"dan foydalaniladi. "Tamaddun" tushunchasi muayyan makon va vaqt Chegaralariga ega, unga rivojlangan jamiyat hayotiy faoliyatining yuksak darajada farqlanishini ta'minlovchi, shu bilan birga uning zarur integratsiyasini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-madaniy tizim sifatida qaraladi.

<sup>8</sup> Anderxill D., Barrett S. i dr. Politika. Obsh.red.: Osadchaya I.M. - M.:INFRA-M. 2001.

<sup>9</sup> Parsons T. Politics and Social Structure. - NY, 1969. P.204

TSivilizatsion yondashuv nafaqat moddiy-iqdisodiy, qolaversa, davlat rivojlanishiga ta'sir etadigan geografik, dunyoqarash, diniy, ruhiy, madaniy, ma'naviy va boshqa omillarni ham hisobga olishga intiladi. Tamaddun nazariyasiga ko'ra, davlatning ijtimoiy tabiati ijtimoiy rivojlanishning faqat ob'ektiv-moddiy emas, ideal-ma'naviy, madaniy omillari bilan aniqlanishini alohida qayd etish lozim. Masalan, F.Toynbining fikriga ko'ra, jahon tarixida 26 ta tsivilizatsiya bo'lgan: Misr, Xitoy, G'arb, pravoslav, arab va hokazolar. Ularga davlatlarning muayyan turlari mos keladi<sup>10</sup>.

Davlatning ijtimoiy institut sifatidagi quyidagi asosiy belgilari mavjud:

1) hokimiyatning davlat organlari, muassasalar va tashkilotlar tizimi sifatida mavjudligi;

2) davlatning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishda rasmiy hokimiyatning alohida mexanizmlari faoliyati;

3) huquqiy me'yorlar va qonun-qoidalarning siyosiy hokimiyat tasdiqlagan tizimi;

4) ushbu hokimiyat amal qiladigan hudud, muayyan makon chorcho'pining mavjudligi;

5) boshqarilayotgan jamiyatda davlat faoliyatining ma'lum darajada qo'llab-quvvatlanishi (legitimlik)<sup>11</sup>.

Davlat ijtimoiy institut sifatida ko'plab tizimostiga bo'linib ketgan murakkab tizimdir. Aslida davlat tuzilmasida ko'plab ijtimoiy institutlar faoliyat yuritadi. Jamiyat a'zolari hayoti davomida bevosita ularga bevosita duch keladi. Ularni shartli ravishda bir qancha yo'nalishlarga bo'lish mumkin.

Birinchidan, davlat hokimiyatini yuritadigan xalq vakilligi institutlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida davlatga quyidagicha ta'rif beriladi: "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor Shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"<sup>12</sup>. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligi manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy adolat, qonuniylik printsiplarga asoslanib tashkil etishi shart. O'zbekiston fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ham bevosita, ham o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bu o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarining demokratiya printsiplari asosida tuzilishi orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud tarmoqlariga bo'linish printsiptiga asoslanadi. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi tarmog'i bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkita palatadan tarkib topgan: Qonunchilik palatasi (quyi palata) va senat (yuqori palata).

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti davlat rahbaridir. Prezident davlat hokimiyati organlarining kelishgan holda faoliyat yuritishi va hamkorligini

<sup>10</sup> Toynbi A.Dj. TSivilizatsiya pered sudom istorii. – M.: AST, 2011. – 318 s.

<sup>11</sup> Dobrenkov V.I. Sotsiologiya. M.: INFRA-M, 2005.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 22-son. - 406 b.

ta'minlaydi. Ijro hokimiyatiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi boshchilik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati rahbari lavozimiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Hokimlar rahbarlik qiladigan xalq deputatlari kengashlari viloyat, tuman va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan Shaharlar, shuningdek, shahar tarkibiga kiradigan tumanlardan tashqari) vakillik organlari hisoblanadi. Ular davlat va fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqib, o'z vakolati doirasidagi masalalarni hal qiladi.

Qo'rg'on, qishloq va ovullar, shuningdek, shahar, qo'rg'on, qishloq va ovullardagi mahallalarda fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi.

Davlatning institut sifatidagi ijtimoiy funksiyalari birinchi navbatda jamiyatda xavfsizlik, barqarorlik va ijtimoiy tartibni ta'minlashdir. Bu davlatning birlashtiruvchi funktsiyasidir. Chunki tartib va barqarorlik ijtimoiy integratsiyaning muhim Sharti hisoblanadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning madaniyat va ta'lim, tibbiyot, adabiyot, san'at va me'morchilikning jadal rivojlanishi, ilmiy maktablarning paydo bo'lishi, ko'plab iste'dodlarning etishib chiqishi turli omillar, jumladan, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, ammo birinchi navbatda barqarorlik saqlanishiga bog'liq ekani to'g'risidagi fikrini keltirish joiz. Binobarin, barqarorlik yo'q joyda fanning rivojlanishi haqida gapirish ortiqcha. Qachonki hammayoq tinch, barqaror bo'lsa, odamlar tinch uyquga yotadi va ertaga boshingga balo-qazolar tu Shadi, deb qo'rqmaydi. Bu to'g'riligi ko'plab asrlar davomida isbotlangan haqiqatdir<sup>13</sup>.

Davlatning ikkinchi ijtimoiy funktsiyasiga tartibga solish va taqsimotni kiritish mumkin. Iqtisodiy bazani tashkil qiluvchi muayyan resurslar va moddiy boyliklarga ega davlat ularni iqtisodiyot, siyosat, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot kabi ijtimoiy institutlar manfaatlaridan kelib chiqib taqsimlaydi.

Ushbu davlat ixtiyoridagi moddiy boyliklar va resurslarni shartli ravishda ikkita asosiy turga bo'lish mumkin: "azaldan mavjud" (er, qazilmalar, tabiiy zahiralari va h.k.) va "ishlab topilgan" (xo'jalik faoliyati, qurilish, soliq yig'implari va h.k. singari davlat faoliyati natijasida to'plangan) moddiy boyliklar va resurslar uning kuchi va qudrati asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Davlatning resurslari qancha ko'p bo'lsa va o' Sha resurslarni jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, oqilona taqsimlasa, butun boshli ijtimoiy tizim samarali ishlashi uchun Shunchalik qulay Sharoit yaratiladi.

---

<sup>13</sup> Birinchi Prezident Islom Karimovning «O'rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi. <http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-islom-karimovning-rta-asrlar-shar-allomalari-va-mutafakkirlarining-tarixii-merosi-uning-zamonavii-tsivilizatsiya-rivozhidagi-rol-i-va-aamiyati-mavzusidagi-khalaro-konferentsiyaning-ochilish-marosimidagi-nuti-16.05.2014-32302>.

Ayni sababga ko'ra, aksariyat G'arb sotsiologlari davlatning taqsimlovchi funksiyasini o'ta muhim deb hisoblaydi, Chunki u yoki bu davlat aholisining hayot sifati shu bilan belgilanadi.

Davlat institutining uchinchi asosiy funksiyasi – ijtimoiy (jamoatchilik) nazoratni amalga oshirishdir. Ushbu funktsiya turli ijtimoiy tuzilmalar faoliyatini tartibga solish va aniq belgilab qo'yish hamda og'ma xulq-atvor ustidan jamoatchilik nazoratini ko'zda tutadi. Faqat Shu yo'l bilan jamiyatda barqarorlik va tartibni saqlash uchun Sharoit yaratish mumkin.

Og'ma xulq-atvorning (deviant) turli shakllari (narkomaniya, fohishalik, jinoyatchilik va h.k.) avj olishi va tarqalishi mumkin bo'lgan joyda jamoat tartibi buzilishi barobarida davlatning ta'sir kuchi, unga bo'lgan ishonch darajasi pasayadi. Bunaqa holatlarda jamiyat davlatni qo'llab-quvatlashiga umid qilish xom hayoldan boshqa narsa emas.

Jamiyat nuqtai nazaridan davlat odamlarning ish, turarjoy, sog'liqni saqlash, aholining ehtiyojmand qatlamlariga (yoshlar, pensionerlar, ishsizlar, etim bolalar, ko'parzandli oilalar va h.k.) ijtimoiy kafolatlar berish singari ijtimoiy funktsiyani ham bajarishi kerak. Davlat ushbu funktsiyani bajarish orqali amalga oshirilayotgan islohotlarning ijtimoiy oqibatlarini tuzata boradi, ya'ni gap bu erda aholining ehtiyojmand qatlamlarini kuchli ijtimoiy himoya bilan ta'minlash haqida bormoqda.

Shuningdek, davlat mavjud ishlab chiqarish usulini iqtisodiy jihatdan himoyalash, iqtisodiy jarayonlarni soliq va kredit siyosati orqali tartibga solish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil yaratish va "tabiiy monopoliyalarni" tartib solish bilan ham Shug'ullanadi. Davlatning iqtisodiyot sohasiga aralashishi Chegaralari masalasi zamonaviy nazariya va amaliyotning dolzarb muammolaridan biridir. Zamonaviy davlat iqtisodiy jarayonlarning tartibga solish uchun iqtisodiy vositalardan (soliqlar, imtiyozlar, kreditlar) foydalanishi darkor.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishning yuksak sur'atlarini saqlab qolish, uning raqobatbardoshligini oshirish qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va jadal rivojlantirish maqsadida taraqqiy ettirish va erkinlashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi o'rnini qisqartirish orqali inistitutsional va sturakturali islohotlarni davom ettirish, xususiy mulkning huquqlarini va ustuvorlik roli himoyasini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, mintaqalar, tumanlar va shaharlarni kompleks va muvozanatlashgan tarzda rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash yo'li bilan iqtisodiyot sohalari va mamlakat mintaqalariga chet el investitsiyalarini faol jalb qilish ko'rsatib o'tilgan<sup>14</sup>.

Shu o'rinda davlatning ta'lim berish va madaniy-tarbiyaviy funktsiyasini alohida qayd etish lozim. U hamma uchun baravar umumiy va o'rta maxsus ta'lim

---

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son. - 354 b.

olish, shuningdek, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun Sharoit yaratishga qaratilgandir.

Davlatning yana bir qancha: xalqaro maydonda milliy manfaatlarni himoya qilish, mamlakat mudofaasini tashkil etish, boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik va integratsiyaning rivojlantirish singari tashqi funktsiyalari ham bor.

“Davlat Shakli” tushunchasi “boshqaruv Shakli” va “davlat tuzumi shakli” singari tushunchalar orqali tavsiflanadi. “Boshqaruv Shakli” oliy hokimiyatning tashkil bo’lish usulidir va o’ Sha hokimiyatning formal manbalariga bog’liq. U davlat organlari tuzilmasi (institutSIONAL dizayni) va ularning o’zaro munosabatini belgilab beradi. Oliy hokimiyatning tashkil bo’lish usuli davlatning oliy organlari qanday Shakllanishi, ular tuzilmasi, davlat organlari o’rtasidagi o’zaro munosabatlar asosini qanday printsiplar tashkil qilishi, oliy hokimiyat organi bilan mamlakatning oddiy fuqarolari o’rtasidagi munosabatlar qanday qaror topishi, davlat organlari ishini tashkil qilish fuqaroning huquq va erkinliklarini qanday ta’minlashini ko’rsatib beradi.

Zamonaviy dunyoda boshqaruvning ikkita asosiy Shakli mavjud: monarxiya va respublika (ularning turli ko’rinishlari). Monarxiya biror boshqa hokimiyatning hosilasi bo’lmay, faqat bitta oilaga tegishli bo’ladi va avloddan-avlodga o’tadi. U albatta muqaddas sanaladi, Chunki monarx hokimiyatining qonuniylik Sharti – Shu.

Zamonaviy davlatlar umumlashtirilgan tizimga ega. Davlat hokimiyati aholining aksariyat qismi qo’llab-quvvatlamay turib, boshqaruv funktsiyasini bajara olmaydi. Demokratiya siyosiy hokimiyatga xuddi shunday qo’llab-quvvatlashni bevosita yoki bilvosita ta’minlab beradi. Respublika har qanday siyosiy hamjamiyatning universal belgisidir, unga ko’ra, hokimiyat xalqqa tegishlidir, ya’ni xalq irodasining hosilasidir. Demokratik respublika boshqaruvining ikkita asosiy Shakli ma’lum: Prezident va Parlament respublikalari.

Prezident respublikasida Prezident alohida vakolatlarga ega bo’ladi. Prezident saylovida g’alaba qozongan partiya rahbari Prezident bo’ladi. Vazirlar Prezident belgilab bergan siyosatni yuritishga majbur va uning oldida hisob beradi. Prezident respublikasining o’ziga xos eng muhim xususiyatlaridan biri hokimiyat tarmoqlarining izchil bo’linishidir. Hokimiyatning barcha tarmoqlari bir-biriga nisbatan mustaqil bo’ladi, ammo tarmoqlarning muvozanatini saqlovchi o’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimi mavjud.

Parlament respublikasi Parlamentning ustunligini e’lon qilish bilan tavsiflanadi, hukumat faoliyati uchun Parlament oldida to’liq javobgar bo’ladi, hukumat parlamentda ko’pchilik ovozga ega bo’lgan partiya deputatlaridan Shakllantiriladi.

Boshqaruv Shakllari orasida ham Prezident, ham Parlament respublikalari alomatlarini omuxta qilganlari ham bor.

Davlat tuzumi shakli uning hududiy-siyosiy tashkil qilinish tartibi bo’lib, unga tarkibiy qismlarining siyosiy-huquqiy maqomi, markaziy va mintaqaviy davlat organlarining o’zaro munosabatlari kiradi. Davlat tuzumining ikkita asosiy Shakli bor: unitar va federativ davlat. Unitar davlat siyosiy mustaqillikka ega

bo'lmagan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi. Federativ davlat bir necha davlat tuzilmalaridan tashkil topgan va har biri o'z vakolatlariga, qonun chiqaruvchi, ijro va sud organlariga ega bo'lgan ittifoq davlatidir. Konfederatsiya bilan federatsiyaning farqi shundaki, federatsiya ittifoqning barcha a'zolari nomidan qaror qabul qilish vakolati bo'lgan va ularga nisbatan hokimiyat vakolatini qo'llay oladigan markaz bo'lishini nazarda tutadi. Konfederatsiya esa u yoki bu darajada moslashuvchan tarzda tashkil etilgan, hech qanday umumiy Konstitutsiyaga ega bo'lmagan mustaqil davlatlar federatsiyasidir.

Sotsiologiya hokimiyat mavzusini alohida tadqiq qiladi. Hamma ham hokimiyatni siyosiy institut deb qaramaydi. Ba'zan unga maxsus hokimiyat mexanizmlari va vositalari (huquqiy me'yorlar, ma'muriy hujjatlar va h.k.) yordamida odamlar va ijtimoiy guruhlarning hulq-atvori va faoliyatiga ta'sir etish qobiliyati, imkoniyati va huquqi shakli yoki tizimi deb qaraladi. Ayni paytda hokimiyat nafaqat siyosiy, balki keng ma'noda maqsadga erishish usuli ham, vositasi ham bo'lishi mumkin.

Hokimiyat har qanday faoliyat, har qanday ijtimoiy sub'ekt funksiyasi bo'lishi mumkin. Bu o'rinda uning ikki turi haqida so'z yuritamiz: a) oila va muayyan ijtimoiy guruhlarda norasmiy etakchilik sifatida tushuniladigan tabiiy hokimiyat; b) alohida institutlar, ko'pincha davlatning majburiy xarakterga ega bo'lgan tashqi kuchi sifatidagi majburan qabul qildirilgan hokimiyat. Boshqacha aytganda, hokimiyat ota-onaning farzandlar ustidan hukmronligi yoki egallab turgan lavozim bilan bog'liq tarzda kuch ishlatuvchi maqom, shuningdek, meros qilib olingan ta'sir kuchiga asoslanadi.

Siyosiy hokimiyat ikkinchi turga mansubdir. Uning universal ibtidosi hukmronlik va buysunish, boshqarish va ijro o'rtasidagi nisbatdir. M.Veber siyosat bilan hokimiyatning aloqasi haqida shunday deb yozgan edi: siyosat mohiyatan – davlatlar yoki davlat tarkibiga kiruvchi odamlar guruhining – hokimiyatda qatnashishga yoki hokimiyatni taqsimlashga ta'sir ko'rsatishga intilishdir... Siyosat bilan Shug'ullanayotgan odam hokimiyatga intiladi yoki hokimiyat unga boshqa (ideal yoki egoistik) maqsadlarga bo'ysundirilgan vosita sifatida kerak, yoki u hokimiyatga “hokimiyat yurgizish” uchun intiladi, Chunki u beradigan obro'-e'tibor hissi odamga huzur bag'ishlaydi<sup>15</sup>.

M.Veber hokimiyatni va uning legitim (qonuniy, jamiyat tan olgan) va institutsional xarakterga egalik atributi sifatidagi ta'sir kuchini tahlil qilib, uch turga ajratgan edi: 1) xarizmatik (go'yo oliy, deyarli mistik kuchga ega bo'lgan etakchiga sadoqatga asoslangan); 2) an'anaviy (an'ana va urf-odatlariga asoslangan); 3) ratsional-legitim (o'rnatilgan rasmiy qoidalar va axloq me'yorlariga jamiyatning barcha a'zolari rioya qilishi to'g'riligiga va rasmiyatchilik emasligiga asoslangan). Hokimiyatning M.Veber ishlab chiqqan tasnifi sotsiologiyadagi eng mashhurlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, siyosiy va davlat hokimiyatlarini bir-biridan ajratgan ma'qul. Davlat hokimiyati siyosiy xarakterga ega, ammo uni alohida hududda joylashgan va qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan kuch ishlatish huquqidan foydalanadigan maxsus va alohida apparat amalga oshiradi. Siyosiy hokimiyatga

<sup>15</sup> Veber M. Izbrannie sochineniya. - M.: 2010. – 646 s.



esa alohida ijtimoiy guruhlar va shaxslarning o'z irodasini siyosat va huquqiy me'yorlar vositasida amalga oshirish borasidagi Chin ma'nodagi faoliyati xosdir<sup>16</sup>.

Endi "davlat – jamiyat" mavzusi doirasida fuqarolik jamiyati degan muhim tushunchaga etib kelyapmiz. Ushbu atamani Aristotel muomalaga kiritgan hamda siyosiy tuzumning (davlat-polis) alohida shakli bilan o'zaro bog'langan erkin va teng huquqli fuqarolar jamiyatini fuqarolik jamiyati deb atagan edi.

XVII–XVIII asrlarda fuqarolik jamiyati absolyutizmga asoslangan feodal davlatga qarama-qarshi qo'yilgan. Fuqarolik jamiyati hozirgi kunda keng tarqalgan mazmuniga ko'ra davlatdan mustaqil va avtonom bo'lgan, demokratik jamiyat doirasida rivojlanuvchi iqtisodiyot, madaniyat kabi sohalaridagi munosabatlar majmuini anglatadi. Fuqarolik jamiyati uning a'zolarining keng miqyosli demokratik huquqlari va erkinligi mavjudligini nazarda tutadi<sup>17</sup>.

Odatda fuqarolik jamiyati tuzilmasida inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari ustuvorligi sifatida quyidagi tarkibiy qismlar ajratib ko'rsatiladi: hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi; mafkuraviy va siyosiy rang-baranglik, barcha mulk Shakllarining huquq nuqtai nazaridan teng himoya qilinishi; ko'ppartiyalilik; o'zini o'zi boshqarishning barcha, jumladan, hududiy Shakllarini rivojlantirish; kasaba uyushmalarining avtonom faoliyat yuritishi; e'tiqod erkinligi. Fuqarolik jamiyati tuzilmasida davlatdan mustaqil OAV, axborot erkinligi alohida o'rin egallaydi.

O'zbekistonda ham "fuqarolik jamiyati" deganda ayni qadriyatlar, xususan, qonun ustunlik qiladigan ijtimoiy makon tushuniladi, u erda inson huquqlari, manfaatlari va erkinliklari ta'minlanadi, shaxs rivojlanishi va salohiyatini namoyon qilishi uchun qulay Sharoit yaratiladi, aholi keng qatlamlarining qo'llab-quvvatlashiga ega mustaqil va barqaror institutlar faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla), siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatlari institutlari sanaladi.

O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida olib borilayotgan ishlar asta-sekin va tobora ijobiy natijalar bermoqda. Aholining asosiy qismi fuqarolik jamiyati faoliyatini turli ko'rinishlarida, masalan, jamoat va xayriya ishlari, NNT tadbirlarida faol ishtirok etadi. Fuqarolik jamiyati institutlari milliy an'analar, ijtimoiy munosabatlarning mustahkam poydevorini yaratishning ko'p asrlik tarixiy tajribasini hisobga olgan holda shakllantirilmoqda. Fuqarolar ijtimoiy faolligining an'anaviy Shakllari barobarida ko'ngillilik – talabgorlik faoliyati, davlat organlariga tizimli ravishda murojaat qilish, mahalliy hamjamiyat manfaatlarini himoya qilish (iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, jonivorlarni himoya qilish va hk.) singari ko'rinishlari ham rivojlanmoqda.

Jamoatchilik fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatlari zarurati fuqarolarning o'z ijtimoiy muammolarini o'zlari hal qilishga intilishida paydo bo'ladi (masalan, aholining ehtiyojmand qatlamlariga yordamlashish, biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'mak berish va hk.). Mahalla singari fuqarolik jamiyati instituti

<sup>16</sup> Zborovskiy G.E. Obshaya sotsiologiya: Uchebnik. 3-e izd., ispr. i dop. – M.: Gardariki, 2004. – 592 s.

<sup>17</sup> Kojevnikov S.N. Gosudarstvo i pravo: kratkiy slovar terminov i raz'yasneniy po pravovedeniю. – M.: 2016.

mamlakatning ijtimoiy hayotida, siyosiy-huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarda inson huquqlari va erkinliklariga hurmatni shakllantirish, ularning konstitutsion huquqlarini anglab olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ijtimoiy jihatdan e'tiborga molik vazifalarni bajarish, fuqarolarning huquq va qonuniy erkinliklarini himoya qilishda mahalla singari noyob fuqarolik jamiyati institutining roli oshib borayotganidan dalolat beradi<sup>18</sup>.

Davlat bilan jamiyatni bog'lab turadigan yana bir muhim institut siyosiy partiyalardir. Sotsiologiya siyosiy partiyalarni o'rganayotganda ularning quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratadi: a) potentsial ijtimoiy baza (saylovchilar); b) uning rahbariyati qaysi ijtimoiy guruhlar va qatlamlar bilan bog'langani; v) partiyaning dasturi aholining qaysi guruhlariga qaratilganda ko'proq ish berishi.

Zamonaviy O'zbekiston Sharoitida siyosiy partiyalar faoliyatini siyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki keng miqyosli islohotlar natijasida siyosiy partiyalarga va davlat darajasida qarorlar qabul qilishga muhim rol va ahamiyat berilmoqda. Butun jahonda tan olingan tasnifga ko'ra, siyosiy partiyalarni shartli ravishda o'ng (liberal-demokratik mavqei nuqtai nazaridan, markazchi (o'rta) va chap (sotsial-demokratik) partiyalarga bo'lish mumkin. Yana o'zgarishlarga xu Shi yo'q konservativ; ayrim sifat o'zgarishlarini amalga oshirish Sharti bilan mavjud tuzimni saqlab qolishni ko'zlovchi mo'tadil islohotchilar; teran sifat o'zgarishlariga intiluvchi islohotchilar va mavjud tuzumni Konstitutsiyaga zid ravishda ag'darib tashlashni ko'zlovchi ekstremistik partiyalar ham bor.

Partiya odamlarning Shakllangan guruhi bo'lib, uning bir qancha belgilari mavjud: muayyan g'oya va ideallarga asoslangan umumiy maqsadlarinng mavjudligi; hokimiyatni egallash va uni yuritishga mo'ljal olish; davlat organlari faoliyatida qatnashishga intilish; jamiyatning keng qatlamlari qo'llab-quvvatlashiga intilish; tashkilot, intizom, dastur, nizomning mavjudligi; maxsus muassasalarning borligi.

Siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi va mavjudligi O'zbekistonda amaldagi qonunchilik, xususan, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi va hokazo qonunlar bilan tartibga solinadi. Umuman olganda, jamiyatdagi siyosiy partiyalarning asosiy vazifasi davlat hokimiyatiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Mamlakatdan ko'ppartiyalilik tizimi mavjudligi siyosiy hokimiyatning bir qo'lda jamlanmay yoyilishiga va bu o'z navbatida ijtimoiy va siyosiy tartibni qo'llab-quvvatlashga sabab bo'ladi, butun hokimiyatning bir joyga yig'ilishi imkoniyatini Cheklaydi.

Siyosiy partiyaning bundan boshqa, ammo ahamiyati undan kam bo'lmagan vazifasi fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasida o' Sha jamiyat a'zolarining muayyan qismi manfaatlarini himoya qiluvchi vositachi bo'lishidir. Odamlar partiya a'zosi sifatida uning faoliyatida ishtirok etishi bilan siyosiy faoliyat va siyosiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Partiyaning ayrim a'zolari siyosatga aynan Shu yo'l bilan kirib keladi, faol siyosiy faoliyat natijasida professional siyosatchilarga aylanadi, masalan, mamlakat parlamenti – Oliy Majlisga saylanadi.

<sup>18</sup> Seitov A.P. Parmanov F.YA. i dr. Opros demonstriruet rost aktivnosti institutov grajdanskogo obshestva v Uzbekistane. // <http://nimfogo.uz/ru/node/>

Partiyalar sotsial institut sifatida o'zining moddiy-moliyaviy asosiga ega bo'ladi. Bu a'zolik badallari, xayriya mablag'lari, matbuotini sotishdan tu Shgan pul va qonunda taqiqlanmagan xo'jalik-tadbirkorlik faoliyati bo'lishi mumkin. Bir qancha mamlakatlarda partiyalar saylovda yutib olgan mandatlariga qarab, davlat byudjetidan dotatsiyalar oladi. U holda partiyalar pul mablag'larini qanday sarf qilgani to'g'risida jamoatchilik oldida hisob berishga majbur. O'zbekistonda ham Shunday tizim amal qiladi. Qonunchilik palatasida o'z fraktsiyasiga ega bo'lgan va davlat moliyaviy mablag' ajratadigan har bir partiya Oliy Majlis oldida moliyaviy faoliyati xususida, jumladan, mamlakat Hisob palatasi tek Shiruvlari natijasi bo'yicha hisob beradi.

M.Veber tarixiy yondashuvga amal qilib va birinchilardan bo'lib, siyosiy partiyalarni tasniflashga urinib ko'rgan edi. U barcha partiyalarni aristokratlar guruhlarini, siyosiy klublar va zamonaviy ommaviy partiyalarga ajratdi. Polyak olimi E.Vyatruning tasnifiga ko'ra, partiyalar quyidagi parametrlariga qarab turlarga bo'linadi: a) u yoki bu, ya'ni burjuaziya, dini, dehqonlar kabi qatlamlarga mansubligiga qarab; b) tashkiliy tuzilmasiga qarab – kasbga (bir soha mutaxassislaridan iborat) va ommaviy partiyalar; v) partiyaning hokimiyat tizimidagi joyiga qarab – qonuniy va noqonuniy partiyalar; g) ustuvor mafkuraviy qiyofasiga qarab – islohotchi, inqilobiy, konservativ, reaksiyon, aksilinqilobi partiyalar.

Bunga yana ikkita mezonni qo'shish mumkin. Birinchidan, partiyaning hokimiyatga nisbatan ijtimoiy roli – muxolifat va hokimiyatni yoqlovchi. Ikkinchidan, 2016 yilda AQSH va Frantsiyada o'tkazilgan saylovlardan ma'lum bo'lishicha, ma'lum vaziyatda paydo bo'ladigan ommaviy va uyushmagan siyosiy harakatlar ma'lum vaqtga borib, ommaviy partiya ko'rinishini olishi mumkin. Bu borada, ayniqsa, Frantsiya tajribasi, saylovgacha siyosiy tajribaga ega bo'lmagan partiyaning E.Makron boshchiligidagi g'alaba qozonishi e'tiborga loyiq.

Binobarin, siyosiy partiyalarning roli saylov kampaniyalari vaqtida kuchayadi. Bunga sabab tashkilotlar a'zolarining faolligi oshishi barobarida ularni qo'llab-quvvatlovchi kuchlar va tuzilmalar, ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy tuzilmalarning faolligi keskin oshib ketadi. Chunki saylovning demokratik tizimiga ega davlatning siyosiy va iqtisodiy kursi ko'p jihatdan u yoki bu partiyaning g'alabasiga bog'liq.

Xulosa o'rnida aytmogchimizki, davlat bilan jamiyatning o'zaro munosabatlarini tahlil qilayotganda sotsiologiya ushbu masalalarga umumiy nazariyalar bilan yondashib qolmasdan, alohida soha – siyosiy sotsiologiya nuqtai nazaridan ham o'rganadi. Aynan ushbu fan jamiyatning siyosiy institutlarga (hokimiyat, davlat, partiyalar va h.k.) ta'siri va ularning sotsiumdagi o'rnini belgilash masalalarini tahlil qiladi. Bundan tashqari, siyosiy sotsiologiya doirasida ijtimoiy birliklar va tashkilotlarning Shaxs bilan aloqa qilishidagi siyosiy hulq-atvori o'rganilmoqda. Sotsiologiya metodikasi nuqtai nazaridan saylovchilar hulq-atvorining empirik variantlari va unga ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tadqiq etilmoqda.

Sotsiologlarning aniqlashicha, siyosiy hulq-atvor va siyosiy rollar hulq-atvorining boshqa ko'rinishlari va tegishli rollari bilan mos tu Shmaydi. Siyosiy

hulq-atvorning mohiyati odamlarning siyosiy madaniyati va siyosiy tizimga integratsiyalashuvi darajasi bilan belgilanadi.

Siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy hayotini belgilovchi g'oyalar, me'yorlar, qadriyatlar, ideallar, urf-odatlar va an'analarning o'zaro aloqasi, ijtimoiy guruhlar va ular a'zolarining siyosiy faoliyati, hulq-atvori tarzida zuhur bo'ladi. Ushbu madaniyatning ikkita asosiy tarkibiy qismi mavjud: qadriyat va me'yorlar. Qadriyatlarga odamlarning siyosiy jarayonlarda qatnashishini ko'rsatuvchi g'oyalar, qarashlar, kontseptsiyalar, qadriyatlar kiradi. Me'yorlar esa hulq-atvorni tartibga soluvchi siyosiy va huquqiy me'yorlar, siyosiy o'yin qoidalaridan iborat.

Sotsiolog N.Smelzerning fikricha, siyosiy tizimga integratsiyalashuv ijtimoiy muhitga xos bo'lgan g'oyalar, hayotiy pozitsiyalar va hulq-atvor namunalari tadbiriy jarayoni xosdir<sup>19</sup>. Siyosiy tizimga integratsiyalashuv jarayoni bolalikdan boshlanadi, lekin u bilan birga tugab qolmaydi, aksincha, insonga butun umr hamrohlik qiladi.

Zamonaviy siyosiy sotsiologiya o'z tadqiqotlarida turli metodologik yondashuvlardan va o'zining tushunchalar tizimidan foydalanadi. Siyosiy sotsiologiyaning ixtisoslashgan yo'nalish sifatida o'tkazayotgan tadqiqotlari Chegarasi har doim ham aniq belgilab olinmaydi. Sotsiologlar siyosiy sotsiologiya u yoki bu darajada siyosiy institutlar faoliyati bilan bog'liq ekanini ta'kidlagan holda, asosiy e'tiborni aholi hokimiyatni, uning turli shakllari va rivojlanishini qanday qabul qilayotganiga qaratadi. Zamonaviy siyosiy sotsiologiya ilgari davlat bilan jamiyatni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish hollarini engib o'tishga intilmoqda: davlatga siyosiy institutlardan biri sifatida qaralmoqda, ularning ichidagi va boshqa institutlar bilan o'zaro munosabatlar hamisha u yoki bu darajada siyosiy ahamiyatga molik.

Siyosiy sotsiologiyaning rivojlanishi siyosiy jarayonlarni o'rganishga turlicha yondashuvlardan foydalanishi bilan ajralib turadi: institutsional (J.Brays, A.Bentli), bixevorial (hulq-atvor nuqtai nazaridan) (CH.Merriam, D.Valdo, K.Boulding), post-bixevorial (R.CH.Mills, s.Dodd), modellashtirish (D.Iston, K.Doych, G. Almond), qadriyatlar nuqtai nazaridan (G.Lassuell, L.Hoffman, F.Bro).

AQSHdagi tadqiqotlar yorqin ifodalangan empirik xarakterga ega bo'lib, siyosiy hokimiyat va ziddiyatlarning turli jihatlariga taalluqli bo'lsa, ular Germaniyada davlat Shunoslik va siyosiy falsafa bilan, Buyuk Britaniyada esa siyosiy tarix va siyosiy iqtisod bilan bog'liq<sup>20</sup>.

Siyosiy sotsiologiya siyosatning ijtimoiy jihatlari, siyosiy ustuvorliklarni tanlash, siyosiy jarayonlar, ularning harakatlanish mexanizmlari va siyosiy madaniyatni o'rganadi. Odamlarning o'zaro munosabatlari, turli ijtimoiy guruhlarning u yoki bu siyosiy qarorlar va harakatlarga munosabati, boshqacha aytganda, siyosiy jamoatchilik fikrni aniqlash uning vazifasiga kiradi.

Siyosiy sotsiologiya faqat sotsiologik va siyosiy yondashuvlar bir-biriga qo'shilganda va o'zaro kesishganda mavjud bo'ladi. Siyosiy sotsiologiya har bir

<sup>19</sup> Smelzer N.Dj. Sotsiologiya. - M.: 2015. – 545 s.

<sup>20</sup> Alisova L.N. Golenkova T. Politicheskaya sotsiologiya: Uchebnik. - M.: Institut sotsialno-politicheskix issledovaniy RAN, 2000.

tarkibiy qism haqidagi ma'lumotlarni o'zgaruvchan qiymat tarzida o'z ichiga oluvchi keng miqyosli modellarni izlash bilan Shug'ullanuvchi fanlararo fan hisoblanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Siyosat sohasi jamiyatning bir qismi ekanligini ta'riflang.
2. Sotsiologiyada "davlat" atamasining asosiy ta'riflarini keltiring.
3. Davlatning ijtimoiy institut sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Sotsiologiyada davlatni ijtimoiy institut sifatida qarashning pradagimalarini ko'rsating.
5. Davlatning ijtimoiy institut sifatidagi asosiy belgilari nimalardan iborat.
6. O'zbekistondagi davlat hokimiyati tizimini ta'riflang.
7. Davlatning asosiy ijtimoiy vazifalarini sanang.
8. Davlat Shakllari qanday?
9. Sotsiologiyada davlat tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
10. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va uning Shakllanishi xususiyatlari qanday?
11. Siyosiy partiyalar va jamiyat, siyosiy madaniyat tushunchalarini ta'riflang.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 22-son. – 406 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoevning Farmoni «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son. 354-modda.
3. Birinchi Prezident Islom Karimovning «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi. <http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-islom-karimovning-rta-asrlar-Sharq-allomalari-va-mutafakkirlarining-tarixii-merosi-uning-zamonavii-tsvilizatsiya-rivozhidagi-rol-i-va-aamiyati-mavzusidagi-khalaro-konferentsiyaning-ochilish-marosimidagi-nuti-16.05.2014-32302>.
4. Alisova L. Golenkova T. Politicheskaya sotsiologiya: Uchebnik. – M.: Institut sotsialno-politicheskix issledovaniy RAN, 2000.
5. Bendiks R. Sovremennoe obshestvo // Amerikanskaya sotsiologiya. – M., 1992.
6. Brokgauz F.A., Efron I.A. Suverenitet // Entsiklopedicheskiy slovar // URL: <http://enc-dic.com/brokgause/Suverenitet-22303.html>
7. Burdyo P. Dux gosudarstva: genezis i struktura byurokraticheskogo polya. <http://gtmarket.ru/laboratory/expertize/2006/704>
8. Veber M. Izbrannie proizvedeniya. Per. s nemetskogo. Sost., obsh. red. i poslesl. Davidova YU.N., - M.: Progress, 2010. – 646 s.
9. Veber M. Politika kak prizvanie i professiya. Izbr. proizv. - M., 1990.

10. Dobrenkov V.I. Sotsiologiya. M.: INFRA-M, 2005.
11. Zborovskiy G.E. Obshaya sotsiologiya: Uchebnik. 3-e izd., ispr. i dop. - M.: Gardariki, 2004. - 592 s.
12. Kravchenko s.A., Mnashkanyan M.O., Pokrovskiy N.E. Sotsiologiya: paradigmi i temi. - M., 1997.
13. Kojevnikov S.N. Gosudarstvo i pravo: kratkiy slovar terminov i raz'yasneniy po pravovedeniyu. - M., 2016.
14. Luman N. Ponyatie obshestva // Problemi teoreticheskoy sotsiologii. – SPb., 1994.
15. Anderxill D., Barrett s. i dr. Politika. Obsh.red.: Osadchaya I.M. - M.:INFRA-M. 2001.
16. Radugin A.A. Sotsiologiya. - M., 2003.
17. Seitov A.P. Parmanov F.YA. i dr. Opros demonstriruet rost aktivnosti institutov grajdanskogo obshestva v Uzbekistane. // <http://nimfogo.uz/ru/node/>
18. Smelzer N.Dj. Sotsiologiya. - M., 2015. – 545 s.
19. Toynbi A.Dj. TSivilizatsiya pered sudom istorii. – M.: AST, 2011. – 318 s.
20. Toshenko J.T. Sotsiologiya. – M., 1998.
21. Parsons T. Politics and Social structure. - NY, 1969. P.204

## 18-mavzu. JAMIYAT VA SIYOSAT

### REJA

**1. Siyosat tushunchasi. Siyosiy hokimiyat: faoliyat ko'rsatishi shakllari va metodlarining davlat va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi.**

**2. M. Veberning hokimiyat turlari: xarizmatik, totalitar, demokratik haqidagi g'oyalari.**

**3. Kishilar, ijtimoiy guruhlar, etnik jamoalarning siyosiy ongi va manfaatlari.**

**4. V. Paretoning elita nazariyasi. Chikago maktabi vakillarining jamiyat va siyosat masalalari o'zaro munosabatlari bo'yicha ishlab chiqqan ta'limotlari.**

**5. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va jahon siyosatining sub'ektlari.**

Siyosatni o'rganish eng avvalo siyosat tushunchasini, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va funktsiyalari, tuzilishi, vositalari va usullarini aniq tasavvur qilishni taqozo etadi. Bu masalalarning ma'no – mazmunini Chuqur va har tomonlama anglamay turib, oldimizga qo'ygan maqsadga erishish, kursni o'rganish mu Shkuldir. Shuning uchun ham biz mazkur bobda siyosat tushunchasining ma'no - mazmunini, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va funktsiyalarini, tuzilishini, vositalari va usullarini ochib berishga urinib ko'ramiz.

Xo' Sh, siyosat nima? U boshqa ijtimoiy xodisalardan qanday farq qiladi? Siyosat - murakkab ijtimoiy xodisadir. Uning tabiati va mazmunini ochib berish oson ish emas. U ilmiy adabiyotlarda ham keng, ham tor ma'noda ishlatiladi.

Keng ma'noda kishilar ko'pincha har qanday maqsadga muvofiq ijtimoiy faoliyatni siyosat deb atashadi. Bu tushuncha u yoki bu jarayonni boshqarish bilan aynanlashtiriladi. M. Veber o'zining mashhur "Siyosat ham mayl, ham kasb sifatida" maqolasida shunday deb yozadi: "Siyosat deganda biz nimani tushunamiz? Bu tushuncha nihoyatda keng ma'noga ega va mustaqil boshqaruvga doir faoliyatning barcha ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Banklarning valyuta siyosati, kasaba uyushmasining ish tashlash vaqtidagi siyosati to'g'risida gapiriladi, shahar yoki qishloq jamoasining maktablarga oid siyosati, korporatsiya, rahbarining boshqaruv siyosati va nihoyat, hatto o'z erini boshqarishga intilayotgan aqlli xotin siyosati haqida gapirish mumkin".<sup>1</sup>

Siyosat tushunchasi ko'pincha tor va tom ma'noda ishlatiladi. Bu holda u jamiyatning mustaqil sohalaridan birini, ya'ni, iqtisodiyot va madaniyat bilan bir qatorda bo'lgan sohani belgilash uchun foydalaniladi.

Tor ma'noda siyosat davlat hokimiyati idoralari, siyosiy partiyalar, manfaat guruhlarining mamlakatda tinchlik – totuvlikni, ijtimoiy barqarorlikni, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatini anglatadi. Bu tushuncha davlatlarning, turli siyosiy kuchlarning, tashkilotlarning xalqaro maydondagi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatini ham o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda siyosatning turli-tuman ta'riflari, talqinlari mavjuddir. Bu

<sup>1</sup> Qarang. M. Veber. Izbrannie proizvedenie. M., 1990 y. 644-645-betaar,



ilmiy ta'riflarni asosan uchta guruhga: sotsiologik, substantsional va faollik guruhlari bo'lish mumkin.

Siyosatning sotsiologik ta'riflari sotsiologik yondoshuvga asoslanadi. Ularda siyosat boshqa ijtimoiy xodisalar: iqtisodiyot, ijtimoiy guruhlar, huquq, ahlok, madaniyat, din orqali tavsiflanadi.

Siyosatning iqtisodiy ta'riflari siyosatni iqtisodiy bazis ustidagi ustqurma, iqtisod ehtiyojlari, manfaatlarining jamlangan ifodasi sifatida tavsiflaydi. Bu holatda siyosat ijtimoiy hayotning o'ziga xos sohasi sifatida o'zining mustaqilligidan mahrum bo'ladi. Faqat nisbiy, Cheklangan mustaqilligini saqlab qoladi. Umuman, siyosatning mazmuni uning sub'ektlari irodasiga bog'lik bo'lmagan ob'ektiv iqtisodiy qonunlar bilan belgilanadi. Siyosatni iqtisodiy determinizm nuqtai nazarida ta'riflashda faqat uning muhim manbalaridan biriga e'tibor qaratiladi. Bu kontseptsiyalar odatda siyosatga iqtisodiy ehtiyojlarning ta'sirini haddan ziyod bo'rttiradi, mutloqlashtiradi, uning mustaqilligini etarli baholamaydi.

Siyosatni sotsiologik ta'riflashning muhim tarkibiy qismlaridan biri - stratifikatsiya talqinlaridir. Bunda siyosat muayyan ijtimoiy rypuhlar: sinflar va millatlarning yoki manfaatdor guruhlarning (A. Bentli, D.Trumen va boshqalar) raqobati sifatida talqin etiladi. Jumladan, u hozirgi ilg'or mamlakatlarda siyosatni ijtimoiy manfaatlarning balansini, muvozanatini ta'minlovchi turli-tuman manfaatdor rypuhlar raqobati sifatida talqin etuvchi demokratiyaning plyuralistik kontseptsiyalarida o'z ifodasini topgandir.

Siyosiy fikrning rivojlanishi tarixida, shu jumladan hozirgi zamon nazariyotchilariniig asarlarida siyosatning huquqiy kontseptsiyalari keng o'rin olgan. Ular siyosatni, davlatni huquqdan, avvalambor, ommaviy huquq, -davlat qonunlari va faoliyatining asosida yotuvchi insonning tabiiy huquqlaridan kelib chiqadigan xodisa, deb xisoblaydilar. Siyosatning huquqiy kontseptsiyasi spinoza, Goobs, Lokk, Russo, Kant kabi ko'zga ko'ringan mutafakkirlar tomonidan asoslab berilgan ijtimoiy Shartnoma nazariyalari yaqqol misol bo'la oladi. Bu nazariyalarning ma'nosi siyosatni, avvalo davlatni har bir insonga tug'ilgandan xos bo'lgan fundamental huquqlar: yashash, erkin, xavfsiz bo'lish, mulkka egalik qilish va boshqalarni muxofaza qiluvchi maxsus faoliyat sifatida talqin etishdan iboratdir.

Hokimiyat tushunchasi etimologik jihatdan Qadimiy grek tilidagi «*cratos*» so'zidan kelib chiqqan. Bu atama Qadimgi Gretsiya shaharlarida jamiyatda fuqorolarni boshqarish ma'nosida qo'llanilgan.

Hokimiyatni tavsiflashning ko'plab Shakllari mavjud hisoblanadi. Ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Hokimiyat – bu nimanidir, kimnidir boshqarish imkoniyatiga yoki huquqiga, imkoniyatlariga ega bo'lish, taqdirlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, turli xil huquqiy vositalar, iroda, mansab, majburlash orqali insonlar faoliyati yoki hulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish hisoblanadi.

Hokimiyat – bu insonlar ustidan siyosiy humkronlik hisoblanadi.

Hokimiyat – bu davlat organlari tizimi hisoblanadi.

Hokimiyat – bu tegishli tartibdagi davlat, ma'muriy miqyosdagi vakolatlarga ega bo'lgan organlar, shaxslar hisoblanadi.

Hokimiyat – bu insonlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi echimlarni qabul qilish va ijro etish bo'yicha potentsial imkoniyatlarga yoki xususiyatlarga ega bo'lish hisoblanadi.

Freyd Z. tomonidan hokimiyatga intilish va unga ega bo'lish libido (jinsiy mayl) holatining kompensatsiyalanishi kabi holat ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Mavjud yondashuvlarning ma'lum bir sintezi orqali hokimiyat quyidagicha tavsiflanadi: «Hokimiyat – bu ijtimoiy munosabatlarning eng muhim turlaridan biri hisoblanib, bunda kamida ikkita sub'ekt o'rtasidagi spetsifik munosabatlarni o'zida ifodalaydi, ulardan biri boshqasiga bo'ysinadi, natijada esa bu holatda bo'ysindiruvchi sub'ekt o'z irodasi va manfaatlarini amalga oshiradi»<sup>2</sup>. Bu ko'rinishdagi tushuntirishning ustunligi shundaki, bu holatda hokimiyatning ijtimoiy sub'ekt tomonidan boshqalarning unga bo'ysinishiga intilishi irodasi, eng avvalo o'zining qiziqishlar zamiridagi manfaatlarini qondirishi uchun ijtimoiy munosabatlar to'qnashuvi tarzida ekanligi yaqqol aks etadi. Shu bilan birgalikda, bu ko'rinishdagi tushunish hokimiyatning strukturasi va farqlanuvchi belgilarini, manbalarini oydinlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, qayd qilib o'tish kerakki, xokimiyat nafaqat siyosiy strukturalar va jarayonlarda amalga oshishi, balki u hayotda shaxslar o'rtasida kuzatilishi mumkin, masalan ota-onalarning bolalari ustidan hokimiyati, boshliqlarning o'ziga bo'ysinuvchilar ustidan hokimiyati, insonlarning o'z do'stlari ustidan hukmronligi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Biroq siyosatda hokimiyat – eng muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Siyosat hokimiyatsiz holatda bo'lishi mumkin emas, hokimiyat esa siyosatsiz ham mavjud bo'la oladi.

Maks Veber hokimiyatga klassik ta'rifni quyidagicha bergan. Hokimiyat – bu xohlagan turdagi imkoniyatlar bo'lib, ushbu asosda mavjud ijtimoiy munosabatlarda va xatto qarama-qarshiliklar Sharoitida ham o'z irodasini amalga oshirish yuzaga keladi. Veber hokimiyat tushunchasini «ijtimoiy jihatdan amorf» holatda ifodalaydi. YA'ni, hokimiyat mavjudligi uchun qandaydir insoniy xislatlar (kuch, aql...) yoki sharoitlar (qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar...) mavjudligi talab qilinmaydi. Xohlagan sifat imkoniyatlari va xohlagan Sharoitlar irodani amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu holat bevosita zo'ravonlikka asoslanishi mumkin yoki havf tug'dirishlarga, nufuz, jozibadorlik va jinsiy sifatlarga, go'zallikka, alohida turdagi qandaydir vaziyatlar Sharoitlariga, instituttsional tutgan o'ringa va hakozolarga asoslanilishi mumkin. Ko'p pulga ega bo'lgan yoki nisbatan yuqori o'ringa ega bo'lgan yoki shunchaki nufuzga ega inson boshqalarga nisbatan Sharoitdan foydalanish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi, ya'ni o'z navbatida hokimiyatga erishish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi.

Ushbu ko'rinishda, siyosiy hokimiyatni siyosiy sub'ektlar xulq-atvori va harakatlariga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy echimlarga kelish va uni qabul qilish, ijrosini ta'minlash sifatida tavsiflanadi.

---

<sup>2</sup> Politologiya / Pod red. M. A. Vasilika.– SPb, 1997. – S. 76.

Hokimiyat sub'ektlari sifatida individlar va ijtimoiy jamoalar, tashkilotlar va birlashmalar, idoralar va sohalar, ma'muriy-hududiy tuzilmalar (qishloq, tuman, shahar, viloyat, o'lka, respublika, hudud va boshqalar), mamlakat yoki mamlakatlar ittifoqlari (masalan, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi yoki Yevropa Ittifoqi) kabilar bo'lishi mumkin. Hokimiyatning ta'sir sohasi iqtisodiyot, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy sohalar, qonunchilik sohasi, sud, mudofaa, xavfsizlik sohaları va boshqalar hisoblanadi

Hokimiyatning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan tashkil topgan:

- Hokimiyat irodasining ustunligi;
- Boshqarishning alohida o'ziga xos apparati mavjudligi;
- Hokimiyat organlarining mustaqilligi;
- Jamiyat xayotining reglamentatsiyasida monopoliya;
- Jamiyat va shaxs munosabatlarida majburiylik imkoniyatlari;

Hokimiyatning ob'ektga ta'siri turli xil Shakllarda amalga oshiriladi. Bunda hokimiyatning mavjudlik Shakllari quyidagi asosiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- Xukmronlik;
- Boshqaruv;
- Rahbariyat;
- Koordinatsiya;
- Tashkiliylik;
- Nazorat.

Siyosiy hokimiyat o'z mavjudligida turli xil vositalardan foydalanadi.

Ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Huquq;
- Nufuz;
- Ishonch;
- An'ana;
- Manipulyatsiya;
- Majburlash;
- Zo'ravonlik.

Siyosiy qarashlar tarixida davlat boshqaruvi shakllarining tasniflanishi. Aflotun, Arastu, Polibiy, TSitseron, N.Makiavelli, T.Gobbs, Dj.Lokk, F.Prokopovich, V.N.Tatishev, sh.Monteske qarashlari. Monarxiya va respublika: yondashuvlarning Cheklanganligi.

Davlat hokimiyatining Shakllari hokimiyat organlari va uning hududiy birliklarining oliy (oliy, yuqorigi), o'rta (hududiy) va quyi (mahalliy quyi) darajalari o'rtasidagi o'zaro barqaror munosabatlar birligini ifodalab, shuningdek bunda ular o'rtasida davlat hokimiyatining taqsimlanishi, ularning o'zaro birlariga nisbatan mavjudligi shakllanishi masalalari nazarda tutiladi.

Davlat hokimiyatining tuzilishi va funktsiya bajarishidagi ko'p darajali xususiyat qayd qilinadi. Davlat hokimiyatining xududiy birliklarini tashkil qilish usullari, uning hududiy birliklari va darajalari o'rtasidagi munosabatlar tavsiflari qayd qilinadi.

Davlat hokimiyatining hududiy birliklarini tashkil qilish usullari, uning hududiy birliklari darajalari o'rtasidagi munosabatlar tavsiflari. Davlat hokimiyatining xududiy birliklari o'rtasida vakolat va zahiralarning taqsimlanishi, huquq va burchlar taqsimlanishi amalga oshiriladi. Davlat hokimiyatining markazlashtirilish yoki demarkazlashtirilishi amalga oshirilishi xos xususiyat hisoblanadi. Mustaqillik huquqi va milliy o'z-o'zini boshqarish, anglash huquqi ta'minlanadi.

1. Davlat boshqaruvining parlament Shakli (Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, GFR, shvetsiya, YAponiya). Bunda davlatning xokimiyatining vakolatlari Cheklanishi (prezident yoki monarx) milliy birlikning simvoli sifatida va uning vakili sifatida tan olinadi. Uning «siyosiy jihatdan neytralligi» e'tirof etiladi. Tayinlangan (saylangan) hokimiyat parlament orqali ifodalanadi. Hukumatning parlament oldida jamoaviy siyosiy ma'suliyati ta'minlanadi. Hokimiyatning ishdan ketishi parlamentning muddatidan oldingi tarqatilishi hisoblanadi.

2. Davlat boshqaruvining prezidentlik Shakli (AQSH). Bunda prezident davlat boshlig'i va ijro-tartibga tu Shiruvchi hokimiyat boshlig'i sifatida ifodalanadi. Prezident ma'muriyatining hokimiyat sifatidagi funktsiyasi qayd qilinadi. Xalq hokimiyatning ijro etuvchi-tartibga tu Shiriluvchi va qonuniy-vakilligining yagona manbai hisoblanadi. Prezidentlik ma'muriyatining parlament oldida jamoaviy siyosiy javobgarligi mavjud emasligi. Parlamentni muddatidan oldin tarqatish imkoniyati mavjud emasligi. Hokimiyat vakolatlarining prezident va parlament o'rtasida taqsimlanishi. Ularning nisbiy avtonomiyasi (mustaqilligi) va tengligi. Prezident va parlamentning o'zaro bir biri bilan bog'liqligi. Prezident ma'muriyatining parlament bilan kelishilgan holatda joriy qilinishi. Parlament qabul qilgan qarorlarga prezidentning imzo Chekishi. Prezidentning ta'qiqlash huquqi. Prezidentni lavozimidan chetlashtirish (impichment) tartibi mavjudligi.

3. YArim prezidentlik Shaklidagi davlat boshqaruvi shakli (Frantsiyada 1958 yildan keyin, sobiq Ittifoqda 1990-1991 yillar davomida, Rossiyada 1991 yil). Bu holatda prezident davlatning vakolatli boshlig'i va ijro-boshqaruv hokimiyati boshlig'i sifatida ifodalanadi. Manba prezidentlik va parlament xokimiyati hisoblanadi. Shuningdek, bosh vazir boshchiligidagi hokimiyat mavjud hisoblanadi. O'ziga xos tarzdagi prezidentlik va xokimiyat boshqaruv huquq va imtiyozlari kuzatilishi. Prezident arbitraji mavjudligi. Prezident, xukumat va parlamentning nisbiy mustaqilligi. Hokimiyatning prezident va parlamentdan tashkil topishi. Hokimiyatning prezident va parlament oldidagi javobgarligi. Prezident tomonidan parlament qabul qilgan qonunlarga imzo Chekilishi. Prezidentning ta'qiqlash huquqi. Prezidentning davlat miqyosidagi o'zgarishlarga javobgarligi. Frantsuz prezidentlarining parlamentni muddatidan oldin tarqatish, uni navbatdan tashqari Chaqirish, favqulotda holatlarda sessiyalar va qonun loyihalarini referendumda ovozza qo'yish huquqi mavjudligi.

4. Superprezidentlik davlat boshqaruv Shakli (Lotin Amerikasi). Prezidentning gipertrofiya tarzidagi nazorat qilinmaydigan boshqaruvi. Markaziy va hududiy ijro-boshqaruv hokimiyatining prezidentga to'liq bo'ysinishi.

Prezidentlikning ijro-boshqaruv hokimiyati, parlament va sud ustidan ustunligi. Qonuniy-vakillik imtiyozlari, sud-nazorati va hududiy hokimiyatning Cheklanishi. Prezident tomonidan mahalliy qonunchilikning to'xtatilishi. Prezident tomonidan mahalliy ijro-boshqaruv hokimiyati boshliqlarining lavozimidan olib tashlanishi. Prezident tomonidan hududlarga o'z vakillarining joylashtirilishi.

5. Davlat boshqaruvining harbiy-politsiya shakli (Afrika, Lotin Amerikasi). Bunda boshqaruv qonuniy yoki noqonuniy boshliqlar tomonidan amalga oshiriladi. Nisbatan ma'lum darajada qonuniy yoki qonuniy bo'lmagan holatda, tinchlik yoki uru-shlar yo'li bilan hokimiyatning o'rnatilishi. Davlatning barcha hokimiyati butunlay (qonun chiqaruvchi-vakillik va ijro-boshqaruv) bitta odamning qo'lida bo'lishi. Harbiy-politsiya kuchlariga tayanish. Qonun chiqaruvchi-vakillik organlari hokimiyatining tugatilishi. Sud-nazorati hokimiyatining ijro-boshqaruv hokimiyatiga bo'ysinishi yoki nisbatan undan sezili darajada mustaqilligi Cheklanishi.

6. Davlat boshqaruvining monarxiya shakli (O'rta asrlar Yevropa mamlakatlari, Osiyo, Rossiyada 1917 yilga qadar). Mutloq va cheklangan monarxiya. Oliy meros qoldirishga asoslanilgan davlat hokimiyati (qonun chiqaruvchi-vakillik, ijro-boshqaruv xokimiyati) bitta odamning qo'lida bo'lishi.

7. Konfederativ davlat boshqaruvi (Niderlandiyada 1579-1795 yillar davomida, AQSHda 1776-1787 yillarda, shveysariyada 1815-1849 yillarda, Germaniyada 1815-1866 yillarda amal qilgan). Konfederatsiya ko'ngilli birlashma sifatida (ittifoq) bir qator mamlakatlarning ayrim o'z faoliyatlarini (tashqi siyosiy, harbiy) koordinatsiyalash maqsadlarida birlashishlaridan tashkil topgan. Konfederatsiya tarkibiga kiruvchi mamlakatlar mustaqilligi saqlab qolinadi. Ularda avtonom qonun chiqaruvchi-vakillik xokimiyati, ijro-boshqaruv xokimiyati va sud-nazorat organlari, o'z konstitutsiyasi va qonunlari, davlat simvollari (bayroq, gerb, madhiya) amal qiladi, o'z hududida konfederatsiya aktlarini qabul qilmaslik huquqi saqlab qolinadi. Yagona hududga ega bo'lmaslik, yagona fuqorolik nazarda tutilmaslik qayd qilinadi. Davlat boshqaruvida umumiy organlar soni Cheklanadi. Huquqiy asoslar yagona konstitutsiya hisoblanmasdan, davlatlar o'rtasidagi shartnomalar amal qiladi. Konfederatsiyalarning yuzaga kelishi sabablari va omillari ularning baqarorligi bilan izohlanadi.

8. Federativ davlat boshqaruvi (Avstraliya, Braziliya, Xindiston, Meksika, AQSH, GFR). Federatsiya birlashgan (ittifoq) davlat singari bir nechta mustaqil davlat tuzilmalaridan tashkil topgan. Birlashgan davlat xokimiyati mavjudligi, umumiy (federativ) davlat boshqaruv organlari, yagona konstitutsiya, hudud, pul birligi va davlat simvollari, yagona fuqorolik qayd qilinadi. Federatsiyada hududiy-ma'muriy va milliy-hududiy tashkillanish usullari qabul qilingan.

9. Markazlashtirilgan unitar (Buyuk Britaniya, shveysiya, Daniya) va demarkazlashtirilgan unitar (Frantsiya, Italiya, Ispaniya) davlat tuzilmalari. Davlat xokimiyatining markazlashtirilish darajasi, uning mahalliy organlari vakolatlari Cheklanishlari qayd qilinadi. Aholi tarkibi bir millatli tarkibga ega.

10. Imperiya (Britaniya, Usmoniylar, Rim imperiyalari). Bir jinsli bo'lmagan etnik va madaniy aholi tarkibi. Keng ko'lamdagi hudud. Nisbatan uncha yirik bo'lmagan metropoliya mavjudligi, o'z zahiralari asosan boshqa hududlar va

koloniyalar hisobiga ta'minlash. Davlat hokimiyatining metropoliyada yig'ilishi. Boshqa hududlar va koloniyalar huquqlarining Cheklanishi. Imperiyaning yuzaga kelish sabablari inqirozga uchrash, davlat boshqaruvi sharoitlariga bog'liq.

3. Qonuniylik tushunchasi lotin tilidan «*Legitimus*» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu qonun bilan kelishishlarni, xuquqiylik va to'g'rilikni anglatadi. Qonuniylik (hokimiyatga nisbatan olinganda) – bu hokimiyatning qonuniyligining jamiyat tomonidan ommaviy tarzda tan olinishi, qabul qilinishi hisoblanadi. «Qonuniylik» atamasi XIX asrda Frantsiyada vujudga kelgan bo'lib, qirol xokimiyatini qayta tiklash, qonunga hilof tarzda (o' Sha davrda Rossiyada Napoleon xokimiyatini qonunga hilof tarzda xokimiyat deb nomlangan) Napoleon hokimiyatidan farqli ravishda yagona qonuniy asoslarda hokimiyatni tashkil qilish ma'nosida qo'llanilgan.

O'rta asrlarga tegishli hokimiyat haqidagi ta'limotlarda feodal ierarxiya va cherkov hokimiyatining huquqiylik jihatlari asoslanilgan, bu vaqtda aqida asoschilari o'zlarining siyosiy aksiomalarini diniy kitoblar (Bibliya) matnlari asosida asoslashga urinishgan.

Qonunga itoat etish, hokimiyatga so'zsiz ravishda bo'ysunish g'oyalari O'rta asrlarda diniy ta'limotlarning asosini tashkil qilgan.

F.Akvinskiy – o'rta asrlarga tegishli yirik qarashlar vakili hisoblangan, u tomonidan fuqorolarning davlat hokimiyatiga nisbatan so'zsiz itoat etishlari, qonunga bo'ysinislari kerakligi ilgari surilgan. Biroq, bunda albatta agar hokimiyat diniy irodaga qarshi borsa va me'yorlarni buzsa, u holda unga bo'ysinish talab qilinmaydi deb belgilangan. Bundan tashqari, hokimiyat etakchisi – hukmdor nomunosib bo'lsa, hokimiyatni su'istemol qilsa va qonunga xilof faoliyat ko'rsatsa, u holatda halq ochiq, oshkora tarzda itoatsizlik qilishga va qarshilik uyu Shtirishga haqli hisoblangan.

Angliyalik diniy ta'limot asoschilaridan biri, huquq Shunos I.Solsberiyskiy (XII asr) tomonidan tartibni haddan tashqari buzuvchi zolim xukmdorni o'ldirish qonuniy va xudoga xu Sh keluvchi amal sifatida ko'rsatib o'tadi.

Zo'ravonlikka asoslanilgan hokimiyatning almashinishiga va davlat Chegaralarining zo'ravonlik asosida o'zgartirilishiga qarshilik ko'rinishida hokimiyatning qonuniyligi talabi bizning davrimizda tsivilizatsion hokimiyatning o'ziga xos ajralmas belgisi hisoblanib, bu holat fuqorolik jamiyati va butundunyo hamjamiyati huquqiy me'yorlari asosida tan olinadi.

Qonuniy hokimiyat. Hokimiyat manbalarining boshqa insonlar xulq-atvor me'yorlari asosida tan olinishiga asoslaniladi. Biroq, qonuniylik tushunchasida ushbu hokimiyatni barcha fuqorolar mutloq holatda tan oladi degani emas. Xohlagan jamiyatda qonunni buzuvachilar, anarxistlar topiladi.

Qonuniylik Shuningdek, barcha fuqorolarning ushbu hokimiyatni qo'llab-quvvatlashini anglatmaydi. Jamiyatda har doim hokimiyatga bo'lgan tanqid, kamchilik insonlar ishonchliligi mavjud hisoblanadi.

Qonuniylik qabul qilinayotgan qonunlarning va qarorlarning asosiy qismi jamiyatda bajarilishini anglatadi. Bu holat ushbu hokimiyatda yuqori darajada madaniy jihatdan qonunga bo'ysunish holatlarida qayd qilinadi.

Hokimiyatning qonuniyligi belgilari quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Joriy hokimiyatga ishonch, unga bo'ysunuvchi fuqorolarning tuzumning haqo'yligini tan olishlari;
2. Fuqorolar irodasi amalga oshirishining erkin holatda namoyon bo'lishi; Insoniyat tarixida hokimiyat qonuniyligining bir necha tiplari qayd qilingan. Ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Qonuniylik turlari.

1. Hokimiyat merosxo'rlik huquqiga asoslangan holatdagi vaziyat. Ushbu ko'rinishdagi qonuniylik jamiyatdagi an'analar me'yorlariga mos kelib, biroq an'anaviylik o'z navbatida monarx hokimiyatining Cheklanishiga olib keladi. Monarxning siyosiy, iqtisodiy va boshqa aksiyalari xalq orasida ommalashmasligi mumkin va faqat bunda uning irodasi zo'ravonlikka asoslanilishi kuzatiladi (tarixda Amir Temur, Ivan Grozniy, Pyotr I kabilar hukmronligi bunga misol bo'la oladi).

2. Hokimiyat qonuniyligining xarizmatik turi. Hokimiyat qonuniyligining ushbu turi M.Veber tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunda xarizm – bu mohiyatiga ko'ra, o'ziga xos ko'plab alohida xususiyatlari bilan ajralib turuvchi yuksak darajadagi insonni ifodalaydi. Xarizmlarga misol qilib Veber Budda, Iso Masix, Muhammad, solomon, Aleksandr Makedonskiy, TSezar, Napoleon kabilarni ko'rsatib o'tgan.

XX asrda xarizmatik sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan ko'plab etakchilar Shakllangan, jumladan Mao TSzedun, Gitler, sh. de Goll, stalin, Tito, Cherrchill, Ruzvelt, Nerularni ko'rsatib o'tish mumkin.

3. Liberal-demokratik yoki qonuniylikning konstitutsional turi. Qonuniy xokimiyatning bu turi quyidagi holatlarga asoslaniladi:

- Fuqorolar uchun erkin holatda o'z irodasini, xohishini bildirishi;
- Hokimiyatning barcha markaziy organlarining xalq tomonidan saylanishi;
- Davlat faoliyatining konstitutsional Cheklanganligi;
- Qonun doirasida faoliyat ko'rsatuvchi barcha siyosiy kuchlarning tengligi;
- Hokimiyat qonuniyligining etnik turi.

Ushbu holatda hokimiyat strukturalarining Shakllanishi, siyosiy va iqtisodiy elita milliy belgilari bo'yicha amalga oshiriladi.

Etnik jihatdan qonuniylik mahalliy millatga yoki bitta guruhga tegishli shaxsning yuqori faolligi ostida yuzaga keladi, milliy davlat g'oyalarining manipulyatsiyasi, mahalliy millatga mansub bo'lmagan aholi yoki boshqa guruhlarga mansub aholining nofaolligi.

Aftidan, ishonch bilan aytish mumkinki, qonuniylikning etnik turi tarixiy jihatdan istiqbolli hisoblanmaydi, Chunki dunyo rivojlanish tarixi davomida konstitutsion tipdagi qonuniylik tendentsiyalari ustunlik qilishi qayd qilinadi.

Siyosiy professionallik nuqtai nazaridan tan olishning eng maqbuli xarizma xodisasi deb hisoblaydi M.Veber.

M.Veber (1864–1920) nazariyasi g'arb va dunyoning XX asr sotsiologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U byurokriyani humron sinf deb hisoblamaydi, balki uni hokimiyatning qo'lidagi qurol deb qaraydi. U demokratiya

nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariyaning markazida jamiyatdan o'zini alohida tutgan byurokratik apparat ustidan ijtimoiy nazorat mexanizmini ishlab chiqish g'oyasi yotadi. U byurokratiyani o'ziga bo'ysundira oladigan siyosiy elitani tanlash texnikasiga e'tibor berishni talab qiladi. M.Veber hukmronlik usuli bu davlat tipologiyasi va qonunchiligidan iborat. Hukmronlik deb hokimiyatga tanho egallik qilishni, hokimiyat monopoliyasi esa, o'z erkini buyruqlar yordami bilan o'tkazish qobiliyatini tushunadi. Hukmronlik – bu qonuniylashtirilgan zo'rlikdir. U 3 xil bo'ladi: an'anaviy, sodiqlik va legallik (ochiqlik). An'anaviylik hukmronlik urf-odatlariga asoslanadi, sodiqlik siyosiy liderlarga sodiq bo'lishga, ochiq hukmronlik esa huquqqa asoslanadi. M.Veber boshqarishning prezidentlik Shakliga ham e'tibor berdi.

«Totalitarizm nazariyasi» – (lot.) siyosiy rejim turi haqidagi ta'limotlardan biri bo'lib, davlatning barcha hayotiy sohalari ustidan to'la (total) nazorati, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning amalda yo'q qilinishi, oppozitsiya va o'zgacha fikrlarga nisbatan qatog'onlar bo'lishini bayon etadi. Uni A.Arendt, K.Fridrix, Z.Bjezinskiy asoslab berganlar. Bunda 1) iqtisodiy markazlashgan rahbarlik; 2) ijtimoiy soha nazoratda; 3) siyosiy sohada bir partiyalilik; 4) ma'naviy sohada hukmron mafkura; 5) ommaviy kommunikatsiya vositalari partiya va davlat qo'lida; 6) partiya va davlat qo'lida barcha qurollar to'planadi.

Italiyalik *Vilfredo Pareto*(1848-1923) o'zining «Umumiy sotsiologiya tartibi» asari bilan sotsiologiyaga katta hissa qo'shdi. U haqiqiylik, ishonchlilik va ilmiy-empirik asoslanganlikni ta'minlay oladigan sotsiologik bilimlar tuzilishi jarayonlarini ishlab chiqishga intildi. Ijtimoiy fanlarning barchasi pozitivizm g'oyalariga tayanadi, shuningdek, sotsiologiyani huquq, iqtisodiyot, din tarixi va boshqa ijtimoiy fanlarning sintezi deb hisobladi.

Pareto tomonidan ishlab chiqilgan pozitiv yondashuv konsepsiyasi o'zining mohiyatiga ko'ra uslubiyat xususiyatiga ega bo'lib, bitta maqsadga, ya'ni ijtimoiy-nazariy tadqiqotlarni mafkuraviy mohiyatdan ozod qilishga qaratilgan edi. Paretoning sotsiologik tizimida elitalar nazariyasi muhim o'rin tutadi. Jamiyatning sotsiologik tuzilishini u ikki guruhga bo'ladi: o'qimishli odamlardan iborat elita hamda hissiyotlar va ikkilanishlarda yashovchi, boshqariladigan omma – quyi qatlam.

Paretoning fikricha, siyosiy jarayon elitaning hokimiyat tepasiga keli- Shi bilan bog'liq, ulardan bittasi jamiyatni boshqarish imkoniyatlarini yo'-qotsa, uning o'rnini boshqasi egallaydi. Elitaning o'rin almashish tartiboti istalgan jamiyatdagi universal qonuniyatlardan hisoblanadi. Siyosiy elita-ning yashash qobiliyati kichik qatlamlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy imkoniyatlarga, ijtimoiy boshqarish huquqini beruvchi siyosiy tuzum-ga jamiyatning nechog'li ochiqligiga bog'liq.<sup>3</sup>

Uning siyosiy qarashlari ham G.Moska qarashlariga yaqin. Har bir davrda o'ziga xos 2 guruh: elita va elitaga qarshi turganlar bo'ladi. Ular hokimiyat uchun kurashadi. Tarixda elitalar o'zgarib turadi. Siyosiy boshqaruv qobiliyati «zodagonlar» da deydi.

Siyosat ijtimoiy ziddiyatlarning "zichlashtirilishi", ularni "do'stlar" - "du Shmanlar" munosabatlari sifatida anglash natijasida paydo bo'ladi. Du Shman -

<sup>31</sup>Qarang : Kamarov M. S Vvedenie v sotsiologiro. –M.:Nauka, 1994 – 36-s.



ushbu sub'ektga yoki uning manfaatlariga xavf soluvchi qandaydir "begonadir", do'st esa - bu maqsadga erishishda ittifoqchi, yordamchidir.

Siyosatning faoliyatiga oid talqinlar, xususan, siyosiy qarorlar nazariyasida keng qo'llaniladi. Undan siyosatning teleologik talqinlarida ham foydalaniladi. Bunda siyosat jamoa maqsadlariga samarali erishish faoliyati sifatida qaraladi. Amerika sotsiologiyasining asoschilaridan biri T.Parsons yozishicha, siyosat - yalpi tizimning muayyan elementlari, umumiy maqsadlarga erishishi uchun samarali tashkiliy usullar yig'indisidan iboratdir.

Shunday qilib, biz jamiyat va siyosatning ayrim muhim ta'riflarini ko'rib chiqdik.

Siyosatni ijtimoiy xodisa sifatida murakkabligi, mazmunining boyligi, ijtimoiy funktsiyalarning xilma-xilligi bilan tushuntirish mumkin.

Siyosatning turli ta'riflari va talqinlarini umumlashtirib, uni quyidagicha ta'riflash mumkin. Siyosat- bu ijtimoiy guruhlar va insonning ziddiyatli jamoa manfaatlarini anglash, butun jamiyat uchun majburiy bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish va ularni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirish faoliyatidir.

Jamiyatning siyosiy hayoti siyosiy munosabatlar, doimiy ishlab chiqarish va ushbu munosabatlardagi ishlab chiqarish jarayonlaridan tashkil topgan. Siyosiy hayot ijtimoiy jamiyatlar faoliyati va institutlar faoliyati, siyosiy maqsadlarga ega bo'lgan tashkilotlar va alohida shaxslar faoliyatlarini o'z ichiga oladi.

Siyosiy hayot – bu kompleks holatdagi, ko'p tomonlama ma'noga ega tushuncha bo'lib, qandaydir xususiyatlar, jihatlar yoki bir qator aspektlar bilan tavsiflanuvchi jarayonlar, hodisalar va omillar kabi ko'plab komponentlar yig'indisidan tashkil topgan.

1. Siyosiy ishtirok Shunday faoliyat yig'indisidan tashkil topganki, bunda individual yoki jamoaviy holatda boshqariluvchi, turli xil darajada samadorlikka ega bo'lgan va turli xil darajada marosimlashtirilgan Shakllarda amalga oshiriluvchi faoliyatlarni o'z ichiga olib, bu faoliyatlar birligi siyosiy tizim funktsiyasiga ta'sir ko'rsatishga xarakat qiladi<sup>4</sup>.

Ushbu tushuncha ostida o'z maqsadlariga ega bo'lgan alohida fuqorolar yoki odamlar guruhlarining davlat yoki jamiyat siyosiy holatiga ta'sir ko'rsatishi, davlat ishlarini boshqarishga yoki siyosiy boshqaruv saylovlarida hokimiyatning barcha darajalaridagi, ya'ni mahalliydan tortib umumilliy darajagacha etakchilarni saylashga o'z ta'sirlarini ko'rsatishlari tushuniladi.

XX asrning o'rtalariga qadar «siyosiy ishtirok» tushunchasi me'yoriy kategoriya sifatida qaralib, ya'ni individning qandaydir «majburiylikdagi» burchlarini ifodalashda qo'llanilgan. Ushbu ko'rinishdagi tushunchaning o'zgarishiga Amerikalik olimlar – «bixevioristlar» o'z ta'sirlarini ko'rsatishgan.

Uru Shdan keyingi davrda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ko'pgina fuqorolar uchun siyosatga bo'lgan qiziqish xos xususiyat bo'lib, siyosiy ishtirok esa epizodik tarzda amalga oshirilgan. Ko'pgina fuqorolar siyosiy jihatdan kuchsiz axborotlar bilan ta'minlangan va shu sababli shunchaki «tashqi» ta'sirga ega bo'lgan. Bu erda Amerikalik siyosat Shunoslar G.Almond va s.Verb tomonidan keltirilgan xulosalarga to'xtalib o'tish mumkin, ya'ni ular AQSH, Buyuk

<sup>4</sup> Lecomte J.- Ph. Op. cit – P. 401.

Britaniya, Germaniya, Italiya va Meksikada siyosiy madaniyatning holatini o'rganib quyidagi fikrlarga kelishgan: «Yaxshi ishlovchi demokratiya albatta mavjud va faol fuqorolar ko'rinishida aks etib, bunda axborot bilan ta'minlangan va siyosiy sohaga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi fuqorolar nazarda tutiladi. Qachonki ular echim qabul qilishsa, ayniqsa ovoz berishsa, bunda ular albatta turli xil saylovlarni diqqat bilan o'rganish va holat o'zgarishlarini baholash asosida ish yuritishlari talab qilinadi. Ular axborot bilan yaxshi ta'minlanmagan holatda, faol bo'lmagan holatda esa ular tomonidan ishlab chiqilgan elektoral echimlar ratsional hisoblashlar jarayonlarida kam ta'sirga ega bo'lishi kuzatiladi»<sup>5</sup>.

Siyosiy ishtirok – ko'ngilli tarzdagi faoliyat hisoblanib, u orqali jamiyat a'zosi hokimiyatga saylovlarda bevosita yoki bilvosita qatnashadi, davlatning siyosiy holati shakllanishida ishtirok etadi. Siyosiy ishtirok doimiy yoki epizodik turlarda bo'lishi mumkin, bunda xokimiyatning qonuniy yoki noqonuniy usullardan foydalanilishi, tashkillangan yoki tashkillanmagan bo'lishi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Siyosiy ishtirok ijtimoiy-etnik guruhlar yoki ijtimoiy-siyosiy jamoalar a'zolarining individual Shaklda yoki guruhlar asosida ushbu jamiyatning ichki siyosiy hokimiyati yoki halqaro miqyosdagi hamjamiyatga ta'siridan tashkil topgan.

Jamiyat hayotida ishtirok etish – nafaqat siyosiy, balki boshqariluvchi (yoki o'zini o'zi boshqaruvchi) insonlar jamoalarining ajralmas xususiyati hisoblanib, ularning o'z manfaatlari va qiziqishlariga erishishlarining vositalaridan birini tashkil qiladi. Davlat – tashkillashgan jamiyat ko'rinishidagi sharoitlarda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida fuqorolarning jarayonlarda qabul qilingan echimlarda u yoki bu darajada ishtirok etishi kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy manfaatlar va qiziqishlarga qarama – qarshi bo'lgan, hokimiyatga ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lmagan qabul qilingan echimlarda ishtirok etish xususiy siyosiy xususiyatga ega emas.

Siyosiy ishtirok jarayonlarini tahlil qilish asosida fuqorolarning siyosiy ta'sirida ikkita tur ajratib ko'rsatiladi. Birinchi tur hokimiyat bilan qandaydir hamkorliklarni rad qilishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi turda esa aksincha, hokimiyatga qarama – qarshilik kayfiyatini saqlab qoladi, siyosiy sub'ektlar fuqorolarning siyosiy hulq-atvor xususiyatlarini boshqaruvchi demokratik jamiyat me'yorlariga mos holatda barcha qonuniy ta'sir imkoniyatlaridan foydalanishga urinishadi<sup>6</sup>.

Siyosiy ishtirokning individual va jamoaviy, ko'ngilli va majburiy, faol va nofaol, an'anaviy va novatorlikka oid, qonuniy va noqonuniy, himoyaviy turlari farqlanadi. Shunga bog'liq holatda siyosiy ishtirok: saylovlarda qatnashish, echimlar qabul qilish, boshqaruvda ishtirok etish, siyosiy etakchilarni saylashda va ularning faoliyatini nazorat qilishda ishtirok etish, qonun himoyasi va uning amalga oshirilishida echimlar qabul qilinishida ishtirok etish, saylov va boshqa

<sup>5</sup> Almond G., Verba S. The Civic Culture. – Prinston, 1961. – P. 474.

<sup>6</sup> Jedtov V.V., Jeltov M.V. Politicheskaya sotsiologiya: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – 2-e izd., dop. i ispr. – M.: Akademicheskij Proekt, 2009. – S. 450.

turdagi siyosiy kampaniyalarda, siyosiy mitinglarda va yig'ilishlarda ishtirok etish, siyosiy axborotlarning uzatilishi yoki o'zlashtirilishi, ish tashlashlarda ishtirok etish, ozodlik kurashlari va inqiloblar, siyosiy partiyalarning va jamoat tashkilotlarining siyosiy faoliyatida ishtirok kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Alohida shakllari, turlari, usullari, darajasi, hajmi va fuqorolarning ishtiroki natijalari bevosita siyosatda ushbu siyosiy tizimning protsessual-funksional xususiyatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi va ta'sir natijalari siyosiy manfaatlarining yuzaga kelishi, ijtimoiy-sinfy kuchlarning qayta tuzilishi, siyosiy rejimning xususiyatlari, hokimiyat strukturalari, siyosiy ong, an'analar va madaniyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demokratik jamiyat uchun fuqorolarning siyosiy ishtiroki keng ko'lamdagi qulay Sharoitlarni yaratib berishi qayd qilingan.

Siyosiy ishtirok uchun (yoki ishtirok etmaslik uchun) individning siyosiy yo'naltirilganligi, uning siyosiy qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlari, siyosiy qadriyatlarni ajrata bilishi, g'oya va an'analari va boshqalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shaxsning siyosatda ishtirok etishi va siyosiy hulq-atvor turlari bo'yicha quyidagi «ideal» turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. YUqori darajada siyosiy faollikka ega bo'lgan Shaxs, siyosiy hayotda echimlar qabul qilinishida doimiy ravishda ishtirok etadi, kasbiy mahorat ko'rinishida siyosat bilan Shug'ullanuvchi shaxs va siyosiy tashkilotlarda yoki muassasalarda ma'sul o'rinlarni egallamagan Shaxs.

Siyosatda epizodik tarzda ishtirok etuvchi shaxs (saylovlarda, alohida siyosiy aktsiyalarda qatnashish).

2. Turli xil darajada omilkorlikka ega bo'lgan Shaxs, kuzatuvchilik, siyosatga qiziqishga ega, biroq Shaxsan o'zi ushbu jarayonlarda ishtirok etmaydi.

3. Siyosatga befarq yoki salbiy munosabatda bo'lgan nafaol Shaxs.

4. O'z ishtiroki bilan siyosatga salbiy munosabatda bo'lgan apolitik, begona shaxs.

Birdamlik – insonlarning instinkt tarzidagi hulq-atvori hisoblanib, bu nafaqat o'zaro raqobatlashishni, balki bir – biri bilan o'zaro hamkorlik qilishni ham ko'zda tutadi. Birdamlik asosida siyosatda insonning ma'lum bir guruhlar, partiyalar, millat bilan birgalikda o'zini namoyon qilishi amalga oshadi, bunda ushbu jamiyatning yagona maqsadlar va manfaatlar yo'lida a'zolarini birlashtirish amalga oshiriladi. Birdamlikning klassik tarzda turli xilligi – turli xildagi norozilik aktsiyalari, o'z do'stlarini qo'llab – quvvatlash tarzida aks etib, masalan ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatuvchi ishchilar ushbu tashkilotga, ma'muriyatga noroziliklarini namoyish qilish maqsadida ish tashlashga tayyorliklarini e'lon qilishadi. Umumiy holatda instinktlar ongsiz tarzda, irratsional, siyosiy hulq atvorning ehtirosiga boy Shakllari ko'rinishida alohida individlar bo'yicha yoki tashkillashgan guruhlar ko'rinishlarida ommaviy tartibsizliklarga olib kelishi mumkin.

Hulq-atvorning ikkinchi shakli – bu ko'nikmalar hisoblanadi. Tug'ma instinktlardan farq qilib odamning ko'pgina hulq-atvor xususiyatlari hayotiy ko'nikmalar asosida shakllanadi. Tegishli holatdagi siyosiy ko'nikmalar davlat miqyosidagi arbob hulq-atvori va oddiy saylovchi, partiya etakchisi va ommaviy

harakat ishtirokchisi hulq-atvori ko'rinishlarini talab qiladi. Ko'nikmalar – bu hohlagan ishtirokchilarning siyosiy jarayonlarda o'zining funksiyasi va rolini bajarishni talab qiluvchi ma'lum bir mahoratini tashkil qiladi. Ko'nikmalar odat tarzida ma'lum bir siyosiy madaniyat muhitida fuqorolarda shakllanadi, shuningdek qandaydir siyosiy hodisalarga, jumladan echimlar qabul qilinishida takrorlanishlar ko'rinishidagi stereotiplar shakllanadi. Siyosiy mahorat va omilkorlik, ya'ni kompetentlik (lotin tilida *competentis* – mos keluvchi, qodir) fuqoroning nimani bilishi, aynan nimani qilishi kerakligini anglashi, o'zining siyosiy rolini va kerakli natijaga qanday erishish kerakligini tushuna olishini anglatadi. Omilkorlik siyosiy hulq-atvorda nisbatan kerakli shakllardan biri hisoblanadi. Etakchi nisbatan omilkorlik xususiyatiga ega bo'lishi talab qilinib, siyosiy jihatdan u yoki bu holatlarda ilg'or ijrochi rolini bajarishi kerak. Masalan, demokratiya me'yorlari asosida etakchilarning o'zgartirilishi tamoyillari hozirgi kunga qadar baxsli masala sifatida qolib ketmoqda. O'z – o'zidan tushunarliki, Prezidentning o'z atrofidagi ma'muriyati bilan ketishi va yangi, nisbatan kamroq tajribaga ega bo'lgan siyosatchilarning hokimiyat tepasiga kelishi davlat tashkilotlarining boshqarilishida omilkorlik darajasi sezilarli susayishiga olib kelishi kuzatiladi. Biroq, amaliyot natijalari ko'rsatishicha, o'zgarishsiz holatda faoliyat olib boruvchi rahbariyat ham ayrim havfli jihatlarni sir saqlaydi, ular orasida masalan eng asosiylaridan biri – jamiyatning rivojlanishidagi to'xtab qolish qayd qilinadi.

Aholining ma'lum bir ko'nikmalarni egallashidan butun davlat manfaatdor hisoblanadi, shu sababli siyosiy ma'rifatparvarlikka javobgar bo'lgan va siyosiy rolni bajarish bo'yicha mashg'ulotlarni amalga oshiruvchi maxsus institutlar tashkil qilinadi. Ushbu ko'rinishda, etakchilar fuqorolar orasidan o'zining ommaviy va shaxsiy ko'nikmalari bo'yicha, yoshlar tashkilotlari va boshqa tashkilotlarda o'zining siyosiy faoliyati bilan ajralib turuvchi xususiyatlariga ko'ra tanlab olinadi. Bir qator mamlakatlarda o'qitish jarayoni saylangan parlament a'zolarini zimmasiga yuklanadi. Boshqa mamlakatlarda esa nomzod yoki deputat bo'lish uchun qonun ishlab chiqish faoliyati uchun kerakli bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lish talab qilinadi.

Aqlga tayangan holatda faoliyat ko'rsatish, mulohazalilik – siyosatda hulq-atvorning uchinchi shakli hisoblanib, bu tushunchani olimlar turli xilda talqin qilishadi. Muloxazalilikning mezonlaridan biri samaradorlik (maqsadga natijalarning mos kelishi) bo'lishi mumkin, boshqa bir mezoni esa – siyosiy harakatlarni anglash darajasi, uchinchi mezoni – amalga oshiriluvchi siyosat asosiga qo'yilgan oliy qadriyatlarga mos kelishdan tashkil topganligi qayd qilinadi. Biroq, yuqorida keltirilgan siyosiy hulq-atvorning ikkala shaklidan ushbu Shaklining yaqqol ajralib turishi xususida baholashlar aniq amalga oshirilmagan.

Individual va jamoaviy holatdagi siyosiy hulq-atvor uchun umumlashgan va tizimlashtirilgan tarzda maqsadlarni va siyosiy qadriyatlarni o'zida aks ettiruvchi g'oyalar ayniqsa alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bundan tashqari, hulq-atvor hech qachon doktorinalarda keltirilgan mo'ljal olishlarga mos tu Shmaydi. Ommaviy holatda siyosiy hulq-atvorni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar

natijalari ko'rsatishicha, turli xil mamlakatlarda faqat ma'lum bir qism odamlargina o'z xatti-xarakatlarida ideologiya holatlarni aks ettiradi.

Siyosiy hulq-atvorning uchta shaklining – instinktlar, ko'nikmalar va muloxazakorlikning ajratib ko'rsatilishi tahliliy vaziflarni xal qilishda foydali hisoblanadi. Haqiqiy hayotda insonlarning hulq-atvori o'z tarkibiga barcha uchala shakli ham qamrab oladi. Hulq-atvor tarkibida ongli va ongsiz tarzdagi elementlarni ajratish har doim ham mumkin emas. Shu bilan bir qatorda «ongli – ongsiz» ko'rinishidagi delemmlar siyosiy hulq-atvor strukturasi o'z tarkibiga bir qator aniq ruhiy elementlarni oladi va ularning hisobga olinishi hulq-atvorning nisbatan ishonchli va alohida qismlari bo'yicha batafsil o'rganilishini ta'minlaydi.

#### **Tayanch iboralar:**

Siyosat, siyosiy hokimiyat, davlat, jamiyat, siyosiy ong, siyosiy manfaat, xarizma, totalitar, demokratiya, siyosiy elita, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

## 19-mavzu. JAMIYAT VA MADANIYAT

O'zbek tilidagi ko'plab entsiklopedik lug'atlarda "Madaniyat" arabcha – madina ( Shahar, kent) so'zidan kelib chiqqanligi yozilib, u tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usulidir, degan ma'noda talqin qilinadi. "Madaniyat alohida shaxs (individ), sotsial guruh yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradigan tushunchadir. Dastlab, madaniyat tushunchasi insonning tabiatga nisbatan maqsadga muvofiq ta'siri (erga ishlov berish, ya'ni kultivatsiya qilish, lotincha "*culture*" so'zidan olingan), hamda insonning o'zini tarbiyalash, o'ziga ishlov berish ma'nolarida ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi vositasida "tsivilizatsiya" (taraqqiyot) bilan bog'liq mazmun tushunila boshlandi. Madaniyat inson faoliyatining maxsuli va sifat ko'rsatkichi sanaladi. Insonning o'zi ham pirovard natijada madaniyat maxsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham Shunday Shakllanadi."<sup>1</sup>

"Madaniyat" so'zining tarixiga e'tibor qaratilsa, u ijtimoiy hayotda ma'no jihatidan murakkab talaffuzga ega mazmun kasb etib, ilmiy amaliy va kundalik hayotda keng qo'llaniladi. Turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda ong va tafakkur bilan bog'liq turli sotsial tizimlardagi murakkab tushunchalarning izohini ta'riflashda ham unga murojaat qilinadi.

Madaniyat so'zining ma'nosi fanga qanday qilib kirib kelgani va shakllanganligi to'g'risida til Shunos tadqiqotchisi R.Uilyams<sup>2</sup> bildirgan fikrlar alohida ahamiyatga ega. [193, r. 76—82] Ushbu atama "*colere*" so'zidan olingan bo'lib, uning turli Yevropa tillari talaffuziga o'rnashishida lotincha "*cultura*" so'zining ta'siri yuqori bo'lgan. Ijtimoiy fanlarda *solere* atamasi "o'rnashib olmoq", "madaniylashtirmoq", "otaliqqa olmoq", "bo'ysunmoq", "amal qilmoq" kabi ma'nolarda keladi. Ushbu jumalarning ayrimlari vaqt o'tishi bilan o'zining mustaqil ma'nosiga ega bo'lib bordi va ilmiy atamashunoslikda keng qo'llanilib, ayrim holatlarda joyi kelsa ma'no jihatdan bir-birini to'ldirib turadi. Jumladan, "o'rnashib olmoq" so'zi ma'nosi lotin tilidagi "*colonus*" so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik *koloniya* so'zining kelib chiqishi uchun sabab bo'lgan. "Amal qilmoq", "bo'ysunmoq" fe'llari esa lotincha "*cultus*" so'zidan olingan bo'lib, hozirgi adabiyotlarda "*sig'inish*" (kult) ma'nosida ishlatiladi.

"*Sulture*" atamasi dastlab "xizmat qilmoq", "amal qilmoq" so'zlariga mazmun jihatidan yaqin bo'lgan "rivojlantirish", "kultivatsiya qilish" ma'nolarini berib, o'rta asrlardagi ingliz tilida u to'g'ridan to'g'ri "xizmat ko'rsatish" ma'nosini anglatgan. Qadimgi frantsuz tilida "*couture*" so'zi qisman biomadaniyat izohida qo'llanilib, kundalik hayotda alohida mazmun kasb etgan va keyinchalik "*culture*" Shaklida talaffuz qilina boshlandi. Frantsuzlarda *sulture* so'zining arxaik foydalanilgan jumlarining barchasida nimanidir, masalan, hayvonot yoki o'simliklar dunyosini madaniylashtirish (kultivatsiya qilish) jihatlari tushunilgan. Bu esa o'z navbatida ushbu atamaning boshqa Yevropa xalqlari lahjasida qo'shimcha ma'nolarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Xususan, ingliz tilidagi

<sup>1</sup> Falsafa qomusiy lufat. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: SHarq, 2004. - 230 b.

“*culter*” – (plug, soʻqaning tishi maʼnosida keladi) soʻzi lotin tilidagi mehnat qurolini anglatuvchi “*culter*” soʻzidan kelib chiqqan. Uning keyingi evolyutsiyasi madaniylashtirish (kultivatsiya qilish), tabiiy hodisa va jarayonlarni insoniyat bilan bogʻlash, odamlarni unga oʻrgatish va madaniy rivojlantirish bilan bogʻliq tasavvurlar bilan izohlanadi. Shunday boʻlsada ushbu soʻzning qishloq xoʻjaligi bilan bogʻliq maʼnosi koʻp asrlar davomida saqlanib qolgan. Agro-kultura, kultivatsiya kabi soʻzlar Shular jumlasidandir.

XVIII asrning oʻrtalarida Yevropa mamlakatlari, xususan Angliyada madaniyat yoki ilmiy maʼnoda kultura atamasi aql va tarbiya bilan uygʻunlashtirildi. Ingliz faylasufi F.Bekon oʻz qarashlarida “madaniyat va aqlni parvarishlash” haqida fikrlaydi. YUqoridagilardan kelib chiqilsa, parvarishlash – bu kultivatsiyaning sinonimi oʻrnida keladi. Shu davr ruhoniylari “zodagon kishilarning oʻz farzandlarini tarbiyalash uchun cherkovga top Shirishni istamayotganlari va buning oʻrniga “bola tugʻilganidan uning aqlini madaniyatlashtirib borililayotganligi” (persons of either birth or culture) toʻgʻrisida noliydilar”.<sup>3</sup> Bunda ikki jihatga toʻxtalib oʻtish muhim. Birinchidan, metafora, yaʼni majoziy maʼnoda madaniyat bilan tarbiyaning uygʻunlashuvi odatiy boʻlib bora boshladi va unda aql (ong va tafakkur) inson maʼnaviy yuksalishini shu ikki omil bilan parvarishlab bordi. Ikkinchidan, insonning ruhiy erkinligi va uning individual sotsial imkoniyatlari ijtimoiy hayotda rivojlanish va takomillashib borish uchun madaniyat atamasidan unumli foydalanishga sabab boʻldi. Bu esa ushbu atamaning fanlar tizimida yanada universallashtirishga olib keldi.

XVIII-XIX asrlarda zamonaviy madaniyat soʻzining koʻpqirrali, ammo Chalkash maʼnoli tarixi boshlandi. Bu davrda madaniyatning izohini ifodalovchi “*culture*” talaffuzi yoniga “*civilis*”, yaʼni “fuqaroga taalluqli”, “fuqaroga oid” maʼnoni beruvchi atama qoʻshildi. U lotincha “*civis*” – fuqaro soʻzi bilan qoʻshilgan holda “tsivilizatsiya” jamlanmasining oʻzagini tashkil qiladi. XX asrning 90 yillarida (keyinchalik ham) oʻzbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ayrim tadqiqotchilar ushbu atamani forsiydagi “*tamaddun*” soʻzi bilan izohlashga harakat qildilar. Taʼkidlash mumkinki, bu izoh oʻzbek tilida oʻzining toʻliq lugʻaviy ifodasini bera olmadi. Xususan, sotsiolog va siyosat Shunos tadqiqotchilari orasida keng munozarali asar hisoblangan s.Xantingtonning mashhur asari ingliz tili (*The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*) dan tarjima qilinganda “Tamaddunlar yoki tsivilizatsiyalar toʻqnashuvi...” deb emas, balki “Madaniyatlar toʻqnashuvi...” deb talaffuz qilinmoqda (K.K.).<sup>4</sup>

Ijtimoiy fanlarning uzoq muddatli evolyutsiyasi davomida “tsivilizatsiya” atamasi dunyodagi tarixiy jarayonlar va uning yutuqlarini, insonning jismoniy, maʼnaviy va ruhiy kechinmalaridagi axloqiy tarbiyaning poklanishi, qonunchilik ustuvorligi hamda jamiyatdagi sotsial tartib maʼnolarini anglatib keldi. XIX asrning oxirlarida dastlab Frantsiya, keyinchalik Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida tsivilizatsiya soʻzi koʻplik maʼnosida qoʻllanila boshlandi. Mustamlakachilik siyosati bir vaqtning oʻzida yangi madaniyatlar bilan toʻqnash

---

<sup>3</sup> Bu xususda qarang:

<sup>4</sup> Asar rus tiliga “Stolknovenie tsivilizatsiy i preobrazovanie mirovogo poryadka” deb tarjima qilingan. Qaralsin:

keldi va buning natijasida turli xil tsivilizatsiyalar to'g'risida fikr-mulohazalarga oid asarlar paydo bo'la boshladi.

Sobiq ittifoq paytida madaniyat atamasiga berilgan izohlar tabiiyki, rus tilidagi manbalardan olib izoh berilardi. Shu vaqtlarda madaniyat so'zini "Madina" Shahriga qiyoslab yozilgan kitob yoki maqolalar qariyb uchramasdi. "Kultura" fe'li rus tilida N.Kirillovning 1845 yili Chop etilgan "Horijiy tillar Cho'ntak lug'ati"da ilk bor iste'molga kiritilgan. Lekin unga shu vaqtlarda jamiyatshunos mutahassis va davlat arboblarning alohida e'tibor qaratmaganligi ma'lum. Rus mutafakkir olimi I.Pokrovskiy o'zining "Rus tilidagi xatolar bo'yicha qaydlar varog'i" asarida hattoki ushbu so'zni muloqot uchun keraksiz deb e'lon qiladi. Faqatgina XIX asrning 80 yillariga kelib kultura, ya'ni madaniyatning zaruriyati xususida G'arb tillarida berilgan ma'no bo'yicha iste'molga kiritilishiga ruxsat etiladi. Atoqli til Shunos rus olimi V.Dal tomonidan yozilgan to'rt jildlik lug'atning ikkinchi qismida "kultura" so'ziga qisqagina to'xtalib o'tadi.<sup>5</sup> Bunda madaniyat ma'nosi Yevropa tillarida qanday Shaklda bo'lsa, shu holatda beriladi. TSivilizatsiya atamasi esa jamiyatning umumiy holatidan kelib chiqib alohida shaxslarning tarbiyasi, hulq-atvori darajasida tushunilib, yovvoyilik va varvarlikka to'la-to'kis qarshi holatda tasvirlanadi.

Zamonaviy Yevropa tillarida ijtimoiy fanlarga qo'llab madaniyat so'zining to'rtta asosiy ma'nosi qiyoslab ko'rsatiladi: 1) Umumiy jarayonlarning intellektual, ma'naviy, estetik rivojlanishidagi mavhum ma'nolar (masalan, oliy ma'lumotlilar madaniyatli kishilar; ammo barcha oliy ma'lumotlilarning intellektual darajasi baland bo'lmasligi, estetik didi yuksak darajada shakllanmagan bo'lishi ham mumkin va h.z.lar); 2) Jamiyatning sotsial taraqqiyotida huquq, tartib, axloq tolerantligiga asoslangan ma'noda keluvchi madaniyat; ushbu vaziyatda madaniyat so'zi tsivilizatsiya so'zining ma'nosi bilan mos keladi; 3) qaysidir bir jamiyat yoki insonlar guruhining ma'lum bir tarixiy davrga xos bo'lgan mavjudlik usuli yoki hayot tarzining xususiyatlariga mavhum ishora; (masalan, sug'dlar madaniyati, maya madaniyati va b.) 4) aqliy-intellektual madaniyat, bunda dastavval badiiy faoliyat Shakllari va mahsulotlarining mavhum tavsifini ifodalovchi musiqa, adabiyot, rangtasvir, teatr, kino va shu kabilarni anglash mumkin. Asosan madaniyat vazirligi tasarrufiga kiruvchi ushbu jarayonlarni katta ehtimol bilan aholi "madaniyat" sifatida talqin etilishi ko'p kuzatiladi.

YUqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib "madaniyat" so'zining ma'nosi umumiy jihatdan bir-biriga qisman bog'liq bo'lib, insonning jamiyatda tutgan o'rnini belgilashda yuksak tuyg'ularni ifodalovchi atama sifatida shakllandi. Lekin madaniyat talaffuziga faqat ijobiy jihatdan yondashilgan, deyish xato bo'ladi. Tarixda bir madaniyatning ikkinchisi ustidan bo'lgan tazyiqi tufayli, unga salbiy du Shmanlik munosabati hissiyotlar orqali shakllangan davrlar bo'lgan. Dastlabki ko'rinish Angliyada XIX asrda vujudga kelib, unda muhtasham "estetsizm" va "lirik hayot" o'rtasidagi qarama-qarshilik M.Arnold<sup>6</sup> asarlarida paydo bo'ladi. Bu davrda estetsizm tanqidchilari iste'moldagi "culture" so'zi o'rniga raqiblari

<sup>5</sup> Dal V. Tolkoviy slovar jivago velikoruskago yazika. M.:Izdanie knigoprodavtsa-tipografa M.O.Volfa, 1881. – S. 217.

<sup>6</sup> Qarang:



tomonidan “kashf qilingan” masxaromuz o’xshatish Shaklidagi “culchah” so’zidan foydalanganlar.

Madaniyatga nisbatan du Shmanona kayfiyatni shakllanishi mustamlakachilik va ikkita jahon uru Shini vujudga keltirdi. XX asrning dastlabki o’n yilliklarida nigilizm va avangardchilar, 60-70 yillardagi yoshlar harakatlari esa G’arbda madaniyatni an’ana tayanchi hamda insoniyat kelajagi yo’lidagi asosiy to’siq sifatida ko’rib, uni butkul bartaraf qilish uchun bo’lgan turli xil ziddiyatlarni paydo qildi. Madaniyatga nisbatan doimiy du Shmanlik munosabati bir tomondan ma’lum toifa ziyoli kishilarning tanadagi aql va qalb haroratini baholashda o’zlarini haddan ziyod yuqori baholovchi nisbatan asossiz da’volari bilan bog’liq edi. Ikkinchidan, oddiy insonlarga nisbatan kamtarona munosabatning hamma vaqt ham etishmasligi “madaniyatli hisoblangan” kishilarga norozi munosabatlarni keltirib chiqarardi. Shu tipda tushuniladigan madaniyatni ta’riflash uchun, turli millatlarda kamsituv ma’nosidagi ba’zi bir maxsus atamalar yuzaga keldi. Jumladan Amerikada *culture-vulture*, Rossiya va rusiyzabon MDH davlatlarida shunga yaqinroq *kultur-multur* jumlasini ishlatilsa, o’zbeklar orasida ko’pincha *madaniyat-padaniyat* kabi norozi ohanglar qo’llanilib turadi. Masalan, “... yo’qot-e madaniyat-padaniyatingni”, degan e’tirozli jummalarni hozir ham uchratish mumkin.

Madaniyat sotsiologiyasi sohaning tarmoq yo’nalishi hisoblanib, u madaniyatning vujudga kelishi, zamonaviy holati va istiqbolini tarixiy va sotsial tadqiqotlar yordamida o’rganadi. Madaniyatning jamiyat hayotidagi roli haqida tasavvurlar jiddiy ravishda o’zgarib borar ekan, shunga mos ravishda fanning predmeti, maqsadi, tuzilmasi va usuli haqidagi tasavvurlar ham yangitdan Shakllanmoqda. AQSH universitetlarida madaniyat sotsiologiyasi fani o’rniga madaniy antropologiya yoki sotsial antropologiya o’qitilib, asosan madaniyatning etnik jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Sotsial antropologiya va madaniyat sotsiologiyasi umuman olganda madaniyat falsafasining ilmiy metodologiyasi va tahliliy apparatini keng qo’llaydigan, hamda o’z oldiga sotsiomadaniy o’zgarishlar qonuniyligini aniqlash va tahlil etishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Ko’p holatlarda u sotsiomadaniy tahlil deb ham ataladi. Sotsiomadaniy tahlil – bu ilmiylikka qo’yiladigan keskin intizomdan ko’ra ko’proq nazariy tadqiqot yo’nalishi bo’lib, o’zida ob’ektivlik va sub’ektivlik jarayonlarini ham gavdalantiradi.

“Sotsial madaniyat” atamasi sotsiologiyada “sotsial munosabatlardagi madaniyat”<sup>7</sup> deb ham nomlanishi mumkin. U kishilarning jamiyatdagi hulq-atvorlari va sotsial o’zaro munosabatlari asosida shakllangan qadriyatlar tizimi bo’yicha tartibga solinib kelingan. Sotsial madaniyatning asosiy o’zagi jamiyati, davlat va boshqa sotsial institutlarning (O’zbekistonda mahalla instituti alohida ahamiyat kasb etadi) faolyatida namoyon bo’ladi. Shulardan kelib chiqqan holda, sotsial madaniyatning asosiy Shakllari o’zida ahloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyat turlarini qamrab oladi.

Kishilik jamiyatining insoniyat dunyosi va tabiatga nisbatan aynan to’g’ri kelmasligida biz sotsial tarix qonuniyatlari hamda sotsial taraqqiyotning o’ziga xos

<sup>7</sup> Qarang: Frolov S.S. Sotsiologiya. M.: Gardarki., 1999. – S. 125.

jihatlari mavjudligini qayd etamiz. Shuningdek, bunda biz sotsiumning faqat insonga xos bo'lgan faoliyat Shakli, ya'ni madaniyatning yuzaga kelish va mavjud bo'lish jarayonlarini hisobga olamiz, umumlashtiramiz.

Insoniyat turining tabiiy yashash muhiti – bu organik butunlik, insonlar mavjudligining zaruriy asosidir. Inson va uning yashash muhiti bu butunlikning o'zaro tobe' qismi sanaladi. Biroq insoniyat dunyosi va aniq insonning o'z tabiati yoki o'zga kishilarga aynan to'g'ri kelmasligida insonning o'z tabiiy organik butunligiga moslashish jarayoni “fojeaviy” o'rin tutgani yo'q. O'ziga o'xshaganlar bilan muloqotga kirishish zarurati – sotsial tarix, ijtimoiy taraqqiyot va kulturogenezning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib chiqdi<sup>8</sup>. XXI asrning so'nggi o'n yilligida sotsiallik bilan bog'liq masalalar dunyo hamjamiyatining diqqat markazida turadigan bo'ldi. Uning ahamiyati shundaki, taraqqiy etib borayotgan jamiyatda mazkur masala, ya'ni “sotsiallik”ga nisbatan qo'shimcha o'zlashtirilgan yoki o'zgartirilgan, ammo natijasiz “sayqal” berish yuqorida ta'kidlaganimiz sotsiumda kutilmagan tug'yonlarga olib kelishi mumkin.

Sotsiologik nuqtai-nazardan har qanday madaniyatning sotsial munosabatlar tizimini tahlili qiladigan bo'lsak, fan nuqtai nazaridan mutahassislar, ushbu jarayonni “madaniyat”, “ijtomiyat”yoki “siyosat” deb alohida talqin qilishdan ko'ra, ilmiy asosda “sotsiomadaniy” deb fikr bildirishga odatlanganlar. Shundan kelib chiqib, sotsial madaniyatni “sotsiomadaniy” jarayon sifatida qarash ham mumkin. XX asrning taniqli mutaffakiri s.Xantington fikricha “yangicha shakllanayotgan dunyoda mohiyatan mavjud nizolarning asosini yo mafkura va yoki iqtisod tashkil etmaydi. Insonlarning bir-birlaridan uzoqlashuvi va ular o'rtasidagi nizolarning manbalari madaniyat orqali sodir bo'ladi”.<sup>9</sup>

Axborot kommunikatsion madaniyat bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borgan Kanadalik antropolog va madaniyat Shunos tadqiqotchi G.Maklyuen insoniyat tarixida muloqot va madaniyatning uchta shakli bo'lib o'tganligiga alohida e'tibor beradi. Demak, bular a) og'zaki an'analarga asoslangan madaniyat, b) yozuv va bosma yozuv an'alariga asoslangan madaniyat, v) madaniyatning elektron Shakli<sup>10</sup>. Bundan kelib chiqqan holda, biz O'zbekiston Sharoitda G.Maklyuen tomonidan keltirilgan izohning uchinchisi, ya'ni madaniyatning elektron Shakli tobora rivojlanib borayotganligini e'tirof etmoqchimiz.

Sotsiomadaniy jarayonlar ichida keng tarqalgan hodisalardan biri – “madaniy talvasa”, aniqrog'i madaniy talvasaga tu Shish hisoblanadi. Ushbu atamani ilk bor 1960 yili amerikalik tadqiqotchi Kalervo Oberg (**Kalervo Oberg**) ilmiy muhitga kiritgan. Madaniy talvasaning paydo bo'lishi oddiydan murakkabga qarab boradi va insonda pessimistik, ya'ni noxu Shlik kayfiyati darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u Shunchalik ko'p madaniy talvasaga tu Shadi. Bunda eski bilan yangi o'rtasidagi to'qnashuv, kechagi kun bilan bugunning bir-biriga mos tu Shmasligi, avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar, geografik hududning o'zgarishi asosida psixologik va sotsial kayfiyatdagi tu Shkunlik holatlarini kuzatishimiz mumkin.

<sup>8</sup> Kultura, kulturologiya i obrazovaniya (Materiali «Kruglogo stola»). Vistupleniya V.A. Lektorskogo // Voprosi filiofii, 1997. № 2. S.4

<sup>9</sup> Qarang: Grachev G.V. Informatsionnie texnologii politicheskoy borbi v rossiyskix usloviyax // Polis. 2000. № 3. S. 10

<sup>10</sup> McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. - Cambridge, 1994. – R. 92.

Boshqa bir amerikalik mutaxassis F.Bok fikricha “madaniy talvasa insonda o’zga dunyo bilan o’zaro faoliyatga kirishish natijasida o’zi uchun notanish bo’lgan belgi va ramzlar bilan to’qnash kelish oqibatida vujudga keladigan tashvishli holat, hadiklar asosida paydo bo’ladi”.<sup>11</sup> U o’zining madaniy antropologiya bo’yicha maqolalar to’plamining kirish qismida( bu qism Culture Shock, ya’ni Madaniy talvasa deb nomlangan) muammoga quyidagicha ta’rif beradi: “Madaniy talvasa so’zining keng ma’nodagi mazmuni – bu, aytaylik kimdir o’z uyini tark etayotganida, keyinchalik Shu uyga o’zining begona bo’lishidir. Inson madaniy talvasa holatida xuddi iblisning vasvasasiga tu Shgandek, mutlaqo o’ziga notanish bo’lgan, ammo mavjud makonda hamma vaqt bayon etib kelingan ishonchli va qabul qilingan xodisalarning guvohi bo’ladi. Siz tasodifan kirib kelgan guruhda odamlar har kuni ijro etadigan umumiy madaniy rollarga sherik bo’lishingizga to’g’ri keladi. Bunda o’zingiz o’ylab ko’rgandek so’z va muomalangizni loyihalashtirishning iloji bo’lmaydi. Chunki barcha, shu jumladan siz ham ko’pchilik qatori dunyoni amalda bir xil ko’rasizlar, bir birlaringizdan nimani kutishni bilasizlar. Shunday bo’lsada, begona jamiyatga o’tib, siz qiyinchiliklarga duch kelasiz, tanangizda ojizlik va adashish hissini tuyasiz va buni ilmiy tilda madaniy talvasa deyish mumkin”.<sup>12</sup> O’quvchimizga muammoni yanada tushunarli bo’lishi uchun quyidagi misolni keltirish o’rinli bo’ladi. Tabiatan hisob-kitobli va o’ziga xos tartibga amal qilib yashaydigan G’arb kishisi uchun o’zbeklar turmush tarzida alohida ahamiyat kasb etadigan nahorgi osh marosimi madaniy talvasa holatini keltirib chiqarishi aniq. Erta tong sahardan muzika sadolari ostida to’kin dasturxon ustida issiq somsa va yog’li palovni 200 tadan 500 tagacha odamga tekinga tarqatilayotganini ko’rib, u o’zida diskomfort sezadi. Shuningdek, uning ertalabki nonu Shta vaqtida bir Chashka kofe yoki apelsin Sharbatini ichib, ish joyiga ketishini hisobga olinsa, ushbu marosim jarayoni bilan ilk to’qnash kelgan har qanday odamdagi noqulaylikni his etish oson. O’z navbatida boshqa jamiyat kishisining o’zga madaniy dunyoga tu Shib qolganda shu kabi marosim yoki odatlar oldida dezorientatsiya, ya’ni ajralib qolish holatini zamonaviy dunyoda tez-tez kuzatish mumkin.

Madaniy talvasaning mazmuni eski va yangi o’rtasidagi madaniy me’yor va orientatsiyalar to’qashuvida namoyon bo’ladi. O’tmishga aylangan davrning ishtirokchisi va guvohi bo’lgan Shaxs avval Shu jamiyatga xos bo’lib, keyinchalik uni tark etishi natijasida yangi bir ijtimoiy hayotni ifodalovchisiga aylanishi mumkin. Buni biz sobiq ittifoq davrida ta’lim olib, butun hayotini mustaqillikka bax Shida qilgan odamlar misolida ko’rishimiz mumkin. Umuman olganda, madaniy talvasa – bu individual ( Shaxs) ong darajasidagi ikki madaniyat to’qnashuvidir. Zinhor uni etnik yoki diniy madaniyatlardagi kelishmovchilik omillari bilan bog’lash kerak emas. Qaysidir bir insonning madaniy talvasa holatiga tu Shishi, uning o’zga muhitdagi madaniyat bilan to’qnash kelib, shuning natijasida o’zida diskomfort, ya’ni noqulaychiliklarni his etishi bilan bog’liq.

Madaniy talvasa faqat bir Shakl bilan uzoq muddatli davom etmaydi. Buning uchun individ o’zida mujassam bo’lgan stereotip (ongda qotib qolgan odat)larni

<sup>11</sup> Ph.K.Bock. Culture Shock. A reader in modern cultural anthropology. New York, 1970. – P. 23.

<sup>12</sup> O’sha joyda.

qaysidir tartibda sindirib boradi. Jumladan, XX asr ta'lim tizimida erkak va ayol jinsiga mansub bo'lgan kishilarning bir sinfda bilim olishi madaniy talvasa sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, bugun bu jarayon oddiy holatga aylanib ulgurdi. YOki ayol kishining avtomobil rulini boshqarishini bundan 15-20 yil oldin ko'rib, o'zida noqulaychiliklarni his etgan qanchadan-qancha odamlarni uchratish mumkin edi.

Dunyoning globallashuvi va axborotlar ko'lami tarqalishi avj olib borayotgan bugungi davrda har qanday odam bir necha bor u yoki bu darajadagi madaniy talvasa holatini o'z tanasida his etishi mumkin. Bunga milliy yoki diniy farqlar, kiyinish, ovqatlanish, musiqa, oilaviy muhit tarbiyasi kabi omillar ta'sir o'tkazadi. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, ta'kidlash kerakki, bir jihatdan madaniy talvasa holatida kimdir tezda o'zini o'nqlab olsa, ikkinchidan, unda insonlar og'ir noqulayliklar ichida qolib ketishi mumkin.

F.Bok fikricha, talvasa holatidagi madaniy to'qnashuvli nizoni echishning besh usuli mavjud. Birinchi usulni u Shartli ravishda "gettolashgan" ("getto" so'zidan olingan) deb ataydi. Zamonaviy jamiyatda migratsiya jarayonlarining avj olishi gettolashish omilini kuchaytirmoqda. Shaxsning o'zga jamiyatga kelib qolganida mahalliy tilni bilmasligi, tortinchoqlik, o'zga dinga e'tiqod va boshqa shu kabi sabablar tufayli o'ziga notanish bo'lgan madaniyat bilan muomalaga kirishishga majbur bo'ladi. Shunday Sharoitda u o'zining Shaxsiy madaniy muhitini yaratishga harakat qiladi. Boshqa hamyurtlari, qarindosh-urug'lari, qabiladoshlari bilan o'zlariga mos bo'lgan muhit yaratib, mavjud "begona" madaniyat ta'siridan o'zini o'rab oladi, ya'ni himoya vositasini yaratadi.

Ko'plab G'arbdagi katta, o'rtacha va hatto kichik Shaharlarda mahalliy madaniyatdan keskin farq qiladigan getto madaniyatlari paydo bo'ldi. Bularga hind, xitoy, turk, arab va shu kabi kvartallarni misol qilish mumkin. Masalan, Berlining Kroysberg tumaniga bir necha o'n yilliklar davomida turk migrantlari va qochoqlari kelib joylasha boshladilar. Nemis olami va turmush tarzini qabul qilishni istamagan turklar o'zlarining sotsial dunyosini ajdodlar an'analari asosida davom ettirib, butunlay yopiq tizim yaratadilar. Natijada turk disporasi o'rniga o'ziga xos getto paydo bo'ldi. Bu kabi tumanlarda istiqomat qiluvchilar nafaqat turkcha talaffuzda gaplashishadi, unda hatto ko'chalarning nomlari va qiyofasi, undagi reklama va e'lonlar ham turk tilida bitilgan. Turkcha tamaddixonalar va restoranlar, turk banklari va sayohat byurolari, turk partiyalari vakolatxonalar va devorlarda turk tilidagi siyosiy Shiorlarni har qadamda uchratish mumkin. Kroysbergda butun umr nemis tilida biror so'z gapirmasdan yashab o'tish mumkin. Bunday getto – arman, gruzinlar ham revolyutsiyadan oldin Moskvada bo'lgan. Kanadaning Toronto Shahrida gettolashgan tumanlar Shu darajada o'ziga xos milliy ahamiyat kasb etganidan, amerikalik kinorejissyorlar Kalkutta, Bangkok yoki shanxayda olinishi kerak bo'lgan sahnalarni Torontodagi kvartallarda olishni ma'qul ko'rishadi.

Madaniy to'qnashuvga oid nizolar echimini hal etishdagi ikkinchi usul – assimilyatsiya, ya'ni "qorishib ketish" bo'lib, u o'z mazmuniga ko'ra, gettolashgan jarayonning aksi sanaladi. Assimilyatsiya jarayonida shaxs o'zining asriy madaniyatini rad etib, o'zi uchun yangitdan o'zlashtirilgan vatanning madaniy-ma'naviy boyligini to'lig'icha o'zlashtirishga harakat qiladi.

Talvasali holatdagi madaniy to'qnashuv nizosini echishning uchinchi usuli "oralik masofali" bo'lib, unda madaniy aloqalar o'zaro hamkorlikda mujassam bo'ladi. Aloqalar to'g'ri amalga oshishi va har ikki tomonga foydali bo'lishi uchun o'zaro xayrixohlik va oshkoralik bo'lishi shart. O'zaro munosabatlarda tomonlarning biri "avtohton" (mahalliy) va ikkinchisi "muhojir" (qochoq) bo'lsada tarixda muvaffaqiyatli madaniy aloqalar ko'p uchragan. Masalan, ikkinchi jahon uru Shi davrida O'zbekiston, xususan Toshkent Shahriga juda ko'p sonli turli millat vakillari evakuatsiya qilinadi. Odamlar bilan birga yirik sanoat korxonolari, ilmiy akademik tashkilot va muassasalarning ko'chirib kelinishi fan va ta'limning rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. O'zbek va turli millatga mansub madaniyatlarning yaqinlashuvi o'ziga xos madaniy simbiozni shakllantirdi. Aholi orasida ko'ptillilik paydo bo'ldi, jamiyatning intellektual iqlimi o'zgarib, dinlararo va millatlararo totuvlik kuchaydi. Umuman olganda o'zaro madaniy aloqalarning natijalari birdaniga amalga oshishi bilan ko'zga ko'rinmaydi. Ular vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini namoyon qilib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatdan jiddiy tus olib boradi.

To'rtinchi usul qisman, yoki "vaqtinchalik assimilyatsiyalashuv" deb nomlanib, unda shaxs ijtimoiy hayotning qaysidir bir tarmoqlarida o'zga madaniyat foydasiga o'z madaniyatini qisman qurbon qiladi. Masalan, xizmat joyida o'zga madaniyat muhiti me'yor va talablariga moslashsa, oilasi va qarindosh urug'lari davrasi, ma'naviy-maishiy sohalarda o'zi mansub madaniyat normalariga amal qiladi. Madaniy talvasani bartaraf etishning ushbu usuli bugungi zamonaviy jamiyatning eng ommalashgan ko'rinishi hisoblanadi. Ko'pincha muhojirlar o'zga dunyoga qisman assimilyatsiyalashadi va o'z turmush tarzini ikkita, lekin bir-biriga teng bo'lmagan qismga ajratishga majbur bo'ladi. O'zga hududda gettolashgan madaniyat to'liq Shakllanmasa, unda shaxsning mavjud muhitga qorishib ketishi qisman yuz beradi. Lekin qisman assimilyatsiya jarayoni keyingi avlodlarga o'tganda to'liq assimilyatsiyalashuvga o'tib ketishi mumkin.

Davriy o'zgarishlar natijasida XX asr tadqiqotchilarining e'tibori ko'proq "konstant" madaniyatlar, ya'ni barcha xalqlarning turmush tarzidagi doimiy barqaror elementlarni ozmi ko'pmi darajada o'zgartirmagan holatda o'rganishga qaratiladi. Bunda insonning borlig'ini madaniy bezovchi rango-ranglikdagi farqlar alohida ajratib olinadi. Natijada madaniyat Shunoslikka oid tadqiqotlarning mavzusi ham o'zgarib boradi. Sotsiologiyada asosiy mavzu sifatida insoniyatning tarixiy madaniyati emas, balki aniq mavjud madaniyatlar tadqiqot ob'ektiga aylandi. Asta-sekinlik bilan bunday yondashuvlar global-evolyutsionizmga oid qarashlardan voz kechishga olib keldi.

Madaniyat haqidagi tajribaga asoslangan fanlarda evolyutsionizmga asoslangan g'oyalar o'z o'rnini saqlab qoldi va turli tadqiqotlarning sotsial-falsafiy asosi sifatida taraqqiyotning madaniy rivojlanishiga davriy nazariyalar xizmat qildi. Madaniy davriylik deganda o'zgarishlarning ma'lum ketma-ketlik fazasi va madaniyatning barqaror rivojlanishi tushuniladi. Ilmiy qonuniylik asosida davriy o'zgarishlar bir-biridan keyin kelishi mumkin, ammo ular qaytalanuvchi yoki takrorlanuvchi mazmun kasb etib qoladi. Biz buni inson hayoti bilan qiyoslashimiz mumkin. Bilamizki, inson tug'ilgach o'z tanasida bolalik, yoshlik, balog'at,

etuklik, keksalikni boshdan kechiradi va hayotdan ko'z yumadi. Organitsistik yondashuv nuqtai-nazaridan kelib chiqib madaniyatlar to'g'risida ham Shunday deyish mumkin: har bir madaniyat tug'iladi, o'z davrini yashab o'tadi va yakuniga etadi. Davriylik nazariyasining turli vakillari madaniyatning hayotiy substrati (asosi)ni turlicha aniqlashgan, uning mavjudlik davrini turlicha tasvirlab, mavjud va poyoniga etgan madaniyatlarni turlicha tasniflab, tarixiy davrlarga taqsimlaganlar. Jumladan, Chor Rossiyasi tarixchisi va madaniyat Shunosi general N.YA.Danilevskiy tomonidan 1871 yilda chop etilgan "Rossiya va Yevropa" asarida madaniy-tarixiy turlar haqida gapirib o'tadi va ulardan o'ntasini ajratib ko'rsatadi. Bular misr, xitoy, qadimiy semit (assuriya-vavilon-finikiya madaniyati), hind, fors, yahudiy, yunon, rim, yangi semit yoki arab, roman-german yoki Yevropa madaniyat turlarida o'z ifodasini topadi. (27, 88b). Ushbu madaniy-tarixiy turlar yoki tsivilizatsiyalarning har biri o'z Shaxsiy tarixiga ega bo'lib, bunda insoniyatning umumiy yoki universal rivoji haqida mulohaza yuritish Shart emas.

Har bir madaniy davrlarning qadimiy, o'rta va yangi tarixiy jihatlari mavjud. Ulardan ba'zilari allaqachon o'zining mavjudlik davrini tugatgan, ayrimlari esa hali ham mavjud bo'lib, rivojlanishning turli bosqichlarini o'tamoqda. Davriylik g'oyasidan kelib chiqib, N.Danilevskiy tarixiy rivojlanishning beshta qonunini tuzadi. 1) Bir-biriga yagona til yoki tillar guruhi bo'yicha ancha yaqin bo'lgan har qanday qabila yoki xalqlar oilasiga mansub o'ziga xos mustaqil madaniy-tarixiy turlar; 2) Mustaqil madaniy-tarixiy davrga oid bo'lgan tsivilizatsiya tug'ilishi va rivojlanishi uchun, unga mansub xalqlar siyosiy mustaqillikka ega bo'lishlari zarur; 3) Bir madaniy-tarixiy davr tsivilizatsiyasining boshlanishi boshqa davrdagi madaniyatlarga hamma vaqt ham jiddiy ta'sir o'tmaydi. Har bir davr madaniyatni ozmi-ko'pmi darajada begona tsivilizatsiyalar ta'siri ostida takomillashtirib boradi; 4) Turli madaniy-tarixiy davrga mansub tsivilizatsiyalar tarkibidagi etnografik elementlar har xil bo'lganidagina o'zining mukammallik, rang-baranglik va taraqqiyotiga erisha oladi; 5) Madaniy-tarixiy davrlarning taraqqiyot jarayoni ko'pincha bir marta meva beradigan (yoki gullaydigan) ko'p yillik o'simliklarga qiyoslanadi. Ularning o'sib, rivojlanish davri noma'lum davomiylikda bo'ladi, ammo gullash va hosil berish davri – nisbatan qisqa bo'lib, bir yo'la o'zining hayotiy kuchini bitirib tugatadi. (27, 91-92b). N.Danilevskiy zamonaviy tarix Shunoslik va madaniyat fanida davriy nazariyalarga asos solgan birinchi olim sanaladi. Keyinchalik O. Shpengler, A.Toynbi, P.Sorokin, L.Gumilevlar o'z tadqiqot ishlarida tsivilizatsiyalar rivojlanishiga oid tadqiqotlarni davom ettirishdi. Ular davriy taraqqiyotga oid qarashlarning tarafdorlari uchun "umumiylikni madaniy yaxlitlikdan iborat bo'lgan "tarixiy Shaxsiyat" va ushbu yaxlitlikda mavjud bo'lgan "davriy hayot" haqidagi tasavvurlardan tashkil topgan"ligini bayon etadilar. Shpenglarning fikricha, har bir davr madaniyatdan tsivilizatsiyaga qarab rivojlanishdan iborat bo'ladi. So'nggida madaniy yaxlitlik o'z umriga yakun yasaydi va yangisiga o'rnini bo' Shatib beradi. Sotsiologiyada ushbu qarash yangi paradigmalarga asoslangan davriy ta'limot bo'lib, u metodologik nuqtai-nazardan strukturali-funksionalizmni ifodalaydi.

“Madaniyat yaxlitligi” g’oyasi sotsial antropologiya fanida chuqur o’rganilib, ushbu ta’limotni B.Malinovskiy va A.Redkliff-Braunlar ishlab chiqqanlar. Ular yaxlitlik deb tushuniladigan madaniyatda “ortiqcha” elementlar yo’q, degan mazmundagi qarashdan kelib chiqib o’z nazariyalarini ilgari suradilar. “Biz nimani ko’rib chiqmaylik, masalan, kiyimlarning bezak elementlari, diniy urflar, marosimlar Shakli – bularning hammasi o’zida madaniyat yaxlitligini ifodalovchi ma’lum funktsiyalarni bajaradi. Buni biz kishilar guruhining yashash uchun mavjud muhit Sharoitlariga moslashishining o’ziga xos Shakli”, deb tushunishimiz mumkin. Misol uchun musulmon arxitekturasi shaklan Sharq mamlakatlarida bir-biridan farq qilsa-da, mazmunan o’ziga xos yaxlitlikni his etamiz. Bu holat ayniqsa masjid va madrasalar qurilishida yaqqol namoyon bo’ladi.

Davriy nazariyalar va strukturali-funksionalizm ta’limoti sotsiologiyada madaniyat haqidagi tasavvurlarni evolyutsion paradigma doirasida ishlab chiqilgan g’oyalardan farqli o’laroq o’zgartirib yubordi. Unga ko’ra har bir madaniyat rivoji evolyutsion pillapoyada egallagan o’rnidan qat’iy nazar o’zining ahamiyatli ekanligini namoyon etdi. Shu sababali ham strukturali-funksionalizm vakillari o’z ko’rsatilib o’tilganidek, har bir madaniy organizm qanchalik murakkab yaralish bo’lgani uchun, madaniyatlarni qoloq (primitiv) yoki o’ta rivojlangan turlarga bo’lish mumkin emas. Evolyutsion taraqqiyot nuqtai nazaridan qoloq deb hisoblangan va rivojlanish pillapoyasining pastki qatorlarida turgan madaniyatlar funksionalizm bo’yicha har qanday ilg’or madaniy tuzilmalar kabi harakat qilish qonunuyatiga ega tizim sifatida qabul qilina boshlandi. Bu qarash Yevropacha markazlashgan dunyoqarashlarga nisbatan qattiq zarba bo’ldi. YUqorida ta’kidlanganidek madaniyatga nisbatan antropologik taraqqiyotni qo’llash davom ettirildi va rivojlantirildi.

Ikkinchidan, yuksak madaniyat iyyforini beruvchi muzey-arxiv yondashuvi o’tmishda qoldi. Madaniyatni tushunish uchun marosim, urf-odat va dunyoqarashlarni tasvirlashning o’zi etarli bo’lmay qoldi. Har qanday madaniyatning yaxlitligini aniqlashda undagi mavjud dunyoqarashning u yoki bu elementi aynan qaysi funktsiyani bajarayotganligi hamda ushbu yaxlitlikni qanday “u Shlab turganini” aniqlash kerak bo’ladi. Qolaversa, zamonaviy jamiyatda madaniyat Shunoslik paradigmasining o’zgarishi bilan muzeylar tushunchasiga bo’lgan munosabatning o’zi ham o’zgardi. Zamonaviy muzeyning ko’rgazmalardan asosiy maqsadi, undagi madaniy muhitning asliga mos g’oyalarini namoyon qilishdir.

Madaniyat modernizatsiya nazariyasi doirasida ijtimoiy va madaniy o’zgarishlar tahlil qilinadigan asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Taniqli siyosat Shunos va sotsiolog olim s.Xantington o’zining mashxur “Madaniyatlar to’qnashuvi” asarida demokratiya, oligarxiya va diktatura, liberalizm va konservatizm, totalitarizm va konstitutsionalizm, natsionalizm va internatsionalizm kabi ilmiy qarash va nazariy fikrlashlar madaniyat Shunoslikka oid fanlarda orqa planga o’tib qolgan edi. Birinchi darajaga esa yuz yillar davomida rivojlangan Amerika va Yevropa xalqlarining fikrlash tasavvurini dixotomik aniqlab bergan zamonaviylik va an’anaviylik kontseptsiyalari Chiqib oldi. Sotsiologik ta’limotlar

tizimida ushbu dixotomiya tahminan quyidagicha ko'rinish oladi. An'anaviy jamiyatlar uchun o'ziga xoslik tarzidagi madaniyatga motivatsiya beruvchi modellarning askriptiv, partikulyar, diffuz hodisa shakllari.

Askriptiv (ingl. ascription-qo'shimcha kiritish, nisbat berish) atamasi fanga R.Linton tomonidan kiritilgan bo'lib, keyinchalik T.Parsons tomonidan takomillashtirilgan. U sotsiologik bilimlar tizimida "nisbat berish yoki yutuqqa erishish" (ascription-achievement) qarama-qarshiligini ifodalovchi mazmuni anglatadi. Qaysidir bir individ ( Shaxs) haqida fikr yuritganda yoki unga nisbatan o'zini tutish hulq-atvoriga berilgan sifatlarga qarab fiziologik madaniyat (yosh, jins, etnik nufuz, tana rangi va boshqalar) yoki sotsiomadaniy hulqi va muvaffaqiyatiga ko'ra (qaysidir kasb vakili, fuqaro, soliq to'lovchi va shu kabilar) ko'ra mo'ljal olish mumkin. Bu tushuncha sotsial mavqeni xarakterlash, ya'ni shaxsning jamiyatda qaysidir bir qatlamga mansubigini ifodalovchi mezonni belgilashda keng qo'llanilishi mumkin. Rivojlangan sanoat mamlakatlarida shaxsning sotsial mavqesi uning haqiqiy muvaffaqiyatlari (yutuqlariga qarab) bilan aniqlanadi. Shu sababli ham askriptiv belgilar (nisbat berish) sanoatlashgan jamiyatlarda hech qanday ahamiyat kasb etaydi. (140, 885b).

Universallik (umumiylik) yoki "universal-partikulyar" atamasi madaniyat Shunoslikda muqobil rag'batlantirish turlaridan biri hisoblanadi. Umumiy motivatsiyaga ega individ har qanday teng ma'nodagi belgilarga ega bo'lgan sotsial ob'ektga nisbatan bir xil mo'ljal oladi; partikulyar mo'ljal esa, aksincha, individ uchun faqatgina o'ziga xos ahamiyatga ega belgan sotsial ob'ektlarni e'tiborga oladi. Masalan, har qanday toifali bemorga ko'mak beradigan vrach umumiy-universal mo'ljal olgan hisoblansa, asosan o'zining tanishlari yoki guruhiga mansublarni davolaydigan vrach olgan mo'ljal partikulyar hisoblanadi.

Sotsiologiyada yana bir jihat – diffuz, ya'ni o'ziga xoslik madaniyatlarni o'zaro taqqoslashda muqobil variantlardan hisoblanadi. Maxsus belgili mo'ljallarga asoslangan o'zaro munosabatlarda shaxsning faqatgina o'z hamkori bilan sodir bo'ladigan tabiiy aloqalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi (masalan, savdo bitimlarida sotuvchi va xaridor munosabatlari). Diffuz mo'ljalga asoslangan munosabatlarda esa shaxsning o'zi birlamchi o'rin tutadi (masalan, oila yoki jamiyat a'zolari bir-birlarini shunday qabul qilishadi).

Zamonaviy jamiyat uchun ko'pincha maxsus belgili mo'ljallar xos bo'lib, sotsiomadaniy jarayonlardagi o'zaro munosabatlarning ixtisoslashgan Shaklini tashkil etadi. U T.Parsons tomonidan ishlab chiqilgan "uch juftli motivatsion o'zgarishlar" tizimiga asoslanadi.<sup>13</sup> Bular: a) sotsial guruhlarning barqarorligi va o'ta chegaralangan makonda harakatchanlik; b) nisbatan barqaror va oddiy professional differentsiatsiya; v) askriptiv (nisbiy) mavqelar bilan diffuz (muqobil) o'zaro ta'sirga asoslangan qatlamlar tizimidan tashkil topgan.

Sanoatlashgan jamiyatlar uchun mavjud o'ziga xosliklar universallik (umumiylik) va maxsus modeli motivatsiyaga asoslangan yutuq keltiruvchi mo'ljal olish bilan xarakterlanadi. Unda sotsial harakatchanlikning yuqori darajasi,

---

<sup>13</sup> Bu haqda to'liqroq maълumot olish uchun qarang: Kovalev A. D. Formirovanie teorii deystviya Tolkotta Parsonsa // Istoriya teoreticheskoy sotsiologii. V 4-x tt. T.3. M.: Kanon, 1997, s.150-179.; Lexikon zur Soziologie / Hrsg. W. Fuchs u.a. Opladen: Westdeutscher Verlag, 1978. S. 885.



asosan vertikal xarakterga ega bo'lib, o'ta rivojlangan va o'zga sotsial tuzilmalardan alohida ajralib turuvchi kasblar tizimida erishilgan nufuzga asoslangan "egalitar" qatlamli madaniyatni shakllantiradi. Maxsus funktsiyali, askriptiv (nisbiy) asosga ega bo'lmagan madaniy "assotsiatsiya"larning ustunligi tufayli, kontseptual tizimlar asosida shaxs va jamiyatning mutlaqo turli qiyofalari Chiziladi.<sup>14</sup>

An'anaviy jamiyatda esa inson faoliyati askriptiv nufuzga mo'ljal oladi va shuning asosida unga madaniy nisbat beriladi. Bir vaqtning o'zida kishi o'zining va sherigining jinsi, yoshi, yashash joyi, barqaror ijtimoiy ahvoli bo'yicha sotsial ierarxiya (pillapoya)da qaysidir tabaqa, qatlam yoki kastaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. "Sherik" kategoriyasi "diffuzli" (muqobil) asosida qabul qilinadi. Masalan, qaysidir bir joy yoki hududdan chiqqan hamyurti bilan faxrlanish, maqtanish, ta'sirlanish kabi sifatlar An'anaviy jamiyat kishisida bu kabi tuyg'ular sotsial harakat belgisi sifatida ham ifodalanadi. Bu o'ziga xos bitim, shartnoma sifatida ham ifodalanib, hech qanday rasmiy yoki legitim mazmun kasb etmasligi ham mumkin. Sherik Shuningdek "partikulyar" qabul qilinadi, ya'ni mo'ljal olish individ uchun faqatgina o'ziga xos ahamiyatga ega belgan sotsial ob'ektlarni e'tiborga oladi.

Zamonaviy jamiyatda inson va guruh munosabatlari sotsiomadaniy jihatdan o'zgacha qabul qilinadi. Har bir kishining yutug'i, u tug'ilgan kundan boshlab qaysidir bir qatlamga mansublik bilan emas, balki mehnat va qobiliyat asosida o'z sa'y-harakati bilan erishilgan mo'ljalga qarab hukm Chiqariladi. O'zaro munosabatlarda idrok va o'zaro ta'sir bir tomondan maxsus Shakllantirilgan, ikkinchi tomondan esa universal, umumiy jihatlariga tayanadi. Maxsus Shakllangan xususiyatlar dunyoni bilishda turli tarixiy davrlar tajribasida egallangan va shu bilan birga zamonaviy davrda idrok etilayotgan tafakkur asosida namoyon bo'ladi. Ammo o'zaro munosabatlarga kirishishda "Sherikchilik" tamoyili faqat bir tomonning ehtiyojlarini, ya'ni kishiga hamfikir bo'lgan muhim va zaruriy xarakteristika bilan hisoblashadi. Masalan, vrach uchun uning qarshisida turgan bemorni ijtimoiy holatidan ko'ra biologik xususiyati muhim o'rin tutadi. Tananing rangi, tug'ilgan joy, siyosiy qarashlar, kasbiy darajasi va boshqa ko'rsatkichlar Gippokrat qasamyodiga ko'ra hech qanday ahamiyatga ega emas. Uning uchun barcha bemorlar teng va bu universallikning ko'rinishi sanaladi. Ammo vrach hamma vaqt bu qoidaga amal qilmasligi mumkin. Kasbiy mahorati oshib, ilmiy maqomga ega darajasi ko'tarilib borgan sari, uning oldida ma'lum bir guruh, toifa va institutlarning xarakteristikasi aniqlanadi. Maqsadli guruhlarning ustunligi sotsial harakatchanlik sifatida namoyon bo'ladi. Oliy toifali mavqega ega vrachning oldida "sotsial mavqe qoidasi"ga ko'ra, bemorning egallagan kasbi va nufuzi doirasidan kelib chiqib, maqsadga qaratilgan xizmat ko'rsatilishi mumkin. Masalan, elita guruhlarga ilmiy tek Shirish institutining direktori xizmat ko'rsatib, oddiy fuqarolarga praktikant yoki yuqori tajribaga ega bo'lmagan mutahassislarni biriktirib qo'yilishi mumkin. Biz bunda partikulyar holatni kuzatamiz.

Zamonaviy jamiyatda insoniyatga qaysidir tur (odam maymundan paydo bo'lgan va h.k.) yoki ijtimoiy mavjudot deb qarash orqali, uning sotsiopsixologik

---

<sup>14</sup> (129, 358b).

tavsifini zaif guruhga bog'lab qo'yish deyarli o'zini oqlamaydi. U bugun mukammal Shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning biologik va sotsial ehtiyojlaridan tashqari, ong faoliyatini boshqarish va nazorat qilishda jinsiy ehtiyojlar ham alohida o'rin tutishini uyatli yoki andishali yopiq mavzu sifatida qarashlar qariyb yo'qoldi. Jamiyatlarni turlarga ajratish va shaxslarning turmush tarzini bir-biriga qiyoslaydigan bo'lsak, bugungi kunda ijtimoiy hayotda madaniyat va tsivilizatsiyalar qarama-qarshiligini osongina payqashimiz mumkin. Bu esa "madaniy pessimist"lar va "madaniy tanqidchi"lar sonining oshib borishiga vaj sabab bo'layotganini tushunish mumkin. Zamonaviy jamiyatning sotsiomadany tasniflariga ilmiy-texnik bilimlar, ta'lim, ommaviy aloqalar tizimining rivojlanishi, yuqori darajadagi tibbiyot, o'rtacha umr ko'rishning uzayishi, demokratik va siyosiy ozodlik tizimining rivojlangan mobilligi, sog'liqni saqlash, pensiya ta'minoti va shu kabilar kiradi. Ularni tavsiflash uchun bir qator nazariya va metodologiyalar paydo bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning modernizatsiyalashuv nazariyasi.

Ko'plab tadqiqotchilar modernizatsiyalashuvni Yevropaparastlikka qiyoslashadi. Ushbu g'oya vakillarining fikriga ko'ra, modernizatsiyalashuv va u bilan bog'liq ko'plab hodisalar zamonaviy jamiyatdagi insonning hayotini bezaydi. An'anaviy jamiyat kishisi uchun modernizatsiyalashuvning u qadar ahamiyati yo'q. YUksalish sari qat'iy yo'naltirilgan monolinear (bir Chiziqli evolyutsiya yoki bir tekis taraqqiyot, degan ma'noni berib, qandaydir bir omilni o'zida mahkam qamrab oladi)<sup>15</sup> taraqqiyot g'oyalariga tayanib harakat qilinsa, ta'kidlash mumkinki evolyutsion o'sish Shunga mos ravishda bo'lib, unda jamiyatning har tomonlama modernizatsiyasiyalashuvini qat'iy belgilab bo'lmaydi.

O'sish g'oyasi bilan bog'langan qat'iy yo'naltirilgan monolinear taraqqiyot g'oyalariga tayanib harakat qilsa, shunga mos ravishda jamiyatlarning modernizatsiyasi ham qat'iy va biron tomonga o'zgartirib bo'lmaydigan qaysarlikni ifodalaydi. Modernizatsiya nazariyasining ashaddiy tarafdorlari har qanday boshqarib bo'lmaydigan jarayonni ilmiy bayon etish orqali ular faqat uning amalga oshish jarayoniga yordam berishlari mumkin, ya'ni boshqa davlatlarga texnologiya va nou-xaularni etkazib, ularga o'z etik norma va qadriyatlarini, faoliyat modeli, institut va tashkilotlarini kiritish va joriy qilish orqali. Biz "madaniy Shok" haqidagi bo'limda madaniy kolonizatsiya deb ataganimiz, modernizatsiya nazariyasi pozitsiyasidan modernizatsion jarayonning qismi sifatida qabul qilinadi. Demak, "eskilik"dan "zamonaviylik"ka o'tadigan ko'prik modernizatsiya orqali o'tadi. S.Xantington Shu sohada ishlayotgan deyarli barcha mualliflarda ochiq yoki yashirin holatda uchraydigan modernizatsiyaning to'qqizta asosiy xarakteristikasini aytib o'tadi:

1) modernizatsiya – bu revolyutsion jarayon bo'lib, u sotsial institutlar, tizimlar, jamiyatlar va insonlar hayotida tubdan bo'ladigan keskin o'zgarishlardagi xususiyatlarning davomiyligini tahmin qiladi;

2) modernizatsiya – bu kompleks (har tomonlama) jarayon bo'lib, u jamiyat hayotidagi qaysidir jihatning bir tomoni yoki o'lchamiga e'tibor qaratmasdan, mavjud ijtimoiy tizimni to'laligicha qamrab oladi;

<sup>15</sup> Manba: [https://gufo.me/dict/enru\\_social/monolinear\\_evolution#ixzz4nobdDw5r](https://gufo.me/dict/enru_social/monolinear_evolution#ixzz4nobdDw5r)

3) modernizatsiya – bu tizimli jarayon bo'lib, unga ko'ra qaysidir bir omil yoki hodisaning o'zgarishi natijasida ijtimoiy taraqqiyotda qandaydir qo'zg'alish, siljish sodir bo'lib, uning natijasida sotsial tizimda keskin to'ntarish (revolyutsiya) sodir bo'ladi;

4) modernizatsiya – bu global jarayon bo'lib, u qachonlardir an'anaviy bo'lgan mamlakatlarning zamonaviy holatga o'tishi yoki shu jarayonga intilish pallasida turganini anglatadi;

5) modernizatsiya – bu ko'lamli jarayon bo'lib, unga ko'ra mavjud o'zgarishlar keng ko'lamda ijtimoiy hayotni revolyutsion darajada qamrab olishi mumkin. Hozirgi vaqtda o'zgarishlar surati keskin o'sib bormoqda, ammo modernizatsiya bir soatda yuzaga keladigan hodisa bo'lmay, ma'lum vaqtni talab qiladi, aniqrog'i bir necha avlodlarning almashinuvi davomida sodir bo'ladi;

6) modernizatsiya – bu pog'onali jarayon bo'lib, u barcha jamiyatlarga xos bo'ladi. modernizatsiyalana turib bir xil bosqichlardan o'tadi. Har bir jamiyat taraqqiyot va rivojlanish yo'lidan borar ekan, deyarli bir xil bosqichlarni bosib o'tadi. Ammo ushbu yo'l qachon o'tilgan, yoki qaysi bosqichda ekanligi mavjud jamiyatning modernizatsiya jarayonini qanday boshlashiga bog'liq;

7) modernizatsiya – bu gomogenli (bir xususiyatli) jarayon bo'lib, turli xususiyatga ega bo'lgan an'anaviy jamiyatlardagi umumiy jihatlarni namoyon etadi;

8) modernizatsiya – bu ortga qaytarib bo'lmas jarayon hisoblansada, unda ma'lum joyda to'xtalishlar, qisman ortga qaytishlar bo'lishi mumkin. Ammo bu jihatlari nisbiy bo'lib, modernizatsiya jarayoni boshlanib ketgach, u muvaffaqiyatsiz yakuniga etishi mumkin emas;

9) modernizatsiya – o'suvchi jarayon bo'lib, bu yo'lda ko'p yovuzlik va qiyinchiliklar bo'lsada, oxir oqibat hammasi o'zini oqlaydi. Chunki modernizatsiyalashgan zamonaviy jamiyatda insonning madaniy va moddiy farovonligi behad yuqori ahamiyat kasb etadi. (129, 360-363b).

Davr taraqqiy etib borishi bilan ijtimoiy fanlar tizimida sotsiomadaniy modernizatsiyaga oid nazariyalar tanqidi bir tomonlamali berila boshlandi. Tanqidga o'ta ahamiyatli qoidalar ham uchray boshladi. Tanqidchilar o'zaro munozaraga kirishar ekanlar, asosan an'anaviylik va zamonaviylik tushunchalarining assimetrik va dixotomik jihatlari bo'lgan e'tiborni qayd etadilar. Ular zamonaviy jamiyatlarni mukammal, an'anaviylarini esa o'zgaruvchan va ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Biz ham o'z navbatida o'zbek jamiyatidagi an'anaviylik va zamonaviylik maqomining bugungi holatini qay tartibda baholash kerakligini mahalliy tadqiqotchilar muhokamasiga tashlagan holda mulohazalarimizni ilgari surmoqchimiz. Aksariyat ilmiy adabiyot, OAV materiallari va Internet ma'lumotlarida ko'pincha mualliflar tomonidan "an'anaviy o'zbek jamiyati" degan iborani tez-tez qo'llanilishini kuzatamiz. Ishonch bilan aytish mumkinki, bugungi o'zbek jamiyati an'anaviylikka mansub emas. Aholining nahor oshiga borishi, kechqurungi nikoh bazmlari, navro'z yoki hayit bayramlarini nishonlanishi ko'pchilik tasavvur qilganidek an'anaviylik yoki milliy qadriyatlar namunasi ekanligini anglatmaydi. Bularni odat yoki e'tiqodga vosita bo'lgan element sifatida baholash mumkin. O'zbek jamiyati

modernizatsiyalashgan tizim bo'lib, o'zida to'liq zamonaviylikni aks ettiradi. Aholining savodxonlik holati, huquqiy madaniyati, ilmiy-texnik imkoniyatlari, transport va kommunal infratuzilmalarning mavjudligi, axborot bilan ta'minlanganlik darajasi bunga yaqqol misol bo'ladi. Faqat zamonaviylikning rivojlanish sur'ati va shakliga oydinlik kiritilishi kerak xalos. Bugungi kunda kimano kiygan yapon, do'ppili o'zbek yoki belbog' taqqan xitoylikni an'anaviy jamiyat kishisiga qiyoslash butunlay noo'rin bo'ladi.

Tez-tez o'zini an'anaviy hisoblaydigan jamiyatlar bilan mukammal Shakllangan zamonaviy jamiyatlar o'rtasidagi farqlarni o'ta murakkablashtirish bugungi kunda deyarli o'z ahamiyatini yo'qotgan. Bundan tashqari an'anaviy jamiyatlar haqidagi statik va qo'zg'almas sifatida qabul qilingan tasavvurlar ham noto'g'ri. An'ana nafaqat o'ziga meros oladi, balki bo'ladigan o'zgarishlarni ham tahmin qiladi. Butun dunyoda jamiyatlar dinamik rivojlanmoqda, biroq majburiy modernizatsiyaning bosim bilan kiritilishi an'analar bilan chegaralangan taraqqiyot o'rtasida nizolarning vujudga kelishiga olib kelmoqda. Ikkinchidan, "zamonaviy" jamiyatlarning a'zosi bo'lishga intilayotgan insonlarning tafakkuridagi identiklik bilan bog'liq muammolar qayd etilmoqda. Identiklik (identus – aynanlik, mansublik, o'xshashlik) - Shaxs tomonidan o'zining qaysi sotsial guruhga mansubligi hamda shu sotsial guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, maishiy, ahloqiy stereotiplarga amal qilinishi tushuniladi.

Identiklik jamiyatda sotsiologik, psixologik, falsafiy, antropologik, huquqiy va madaniy mazmun kasb etadi. Bunda shaxsning intuitiv (ichki his bilan) ravishdagi sotsiomadaniy identifikatsiyasi muhim rol o'ynaydi. Sotsiomadaniy identifikatsiya – bu Shaxsning mavjud sotsiumda turli madaniy xususiyatlarni o'zida jamlaganligi va shuning asnosida undagi sotsial birliklarga tegishli ekanligini anglash, his etishdir.<sup>16</sup> Sotsiomadaniy identifikatsiya tarkibida kichik sotsial guruhlar, sinflar, hududiy birliklar, etnik va milliy guruhlar, xalqlar, sotsial harakatlar, davlat va global Sharoidda butun bir insoniyat ham kiradi. Bunda inson sotsial munosabatlar tizimidagi madaniy sub'ekt, ya'ni agent (tashuvchi) sifatida o'zini idrok etadi, his etadi va baholaydi.

U yoki bu identifikatsiyaning ijtimoiy strukturadagi o'rni sotsiomadaniy kontekstning o'zgarishi ta'sirida almashishi mumkin. Masalan, har bir davrning boshqaruv apparatidagi o'zgarishlar yangi shaxslararo yoki avlodlararo identifikatsiyani paydo qilishi mumkin. Jumladan, XX asrning 30-60 yillaridagi insonlar uchun non mukofot rolini bajarishi muqarrar edi. Ammo bugungi kun avlodiga nonning qadrini android tizimidagi texnik vositalar (kompyuter, telefon, turli maishiy texnika buyumlari) qiymati bilan solishtirish mutlaqo tushunarsiz holat hisoblanadi.

Madaniy munosabatlarda identiklik muhim ahamiyat kasb etib, u milliy, etnik, fuqarolik, kasbiy, hududiy, diniy-konfessional, gender va yoshga oid mazmun kasb etadi. boshqa turlarga bo'linib, u o'z qamrovidagi insonlarni iqtisodiy, siyosiy, maishiy, ma'naviy, madaniy, mental jihatdan hayot tarzida

---

<sup>16</sup> Bornevasser M. Sotsialnaya struktura, identifikatsiya i sotsialniy kontakt // Inostrannaya psixologiya. – 1993. – T.1. - № 1. – S. 69.

ma'lum stereotiplar hosil qilishi, fikrlash, hulq-atvor natijasida sotsial guruh yoki qatlamlarni yaratishi bilan xarakterlidir.

“Zamonaviy jamiyat” atamasi ilk bor G'arbiy Yevropa va shimoliy Amerika tadqiqotchilari tomonidan ilgari suriladi. Bugungi kunda ushbu atama G'arb dunyosi zamonaviy jamiyatlari va o'zga dunyo zamonaviy jamiyatlariga bo'linadi. Masalan, musulmon-islom dunyosi, sharq mamlakatlari, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Afrika qit'asidagi zamonaviy jamiyatlar kabi jumlar tez-tez uchraydigan bo'ldi. Umuman olganda modernizatsiyalashgan madaniyat bir xil ma'noda ilgari surilsada, unda doimo zamonaviylik bilan an'anaviylik o'zaro bir-birini rad etib kelmoqda.

Amerikalik antropologlar A.Kreber va K.Klakxonlar 1952 yili shu davrgacha madaniyatga berilgan 150 dan ortiq ta'riflarni tahlil etadilar. Ular madaniyatning ingliz va amerika adabiyoti asosidagi hamda nemis-frantsuz turmush tarzi ana'alariga asoslangan tadqiqot ishlarining ko'p qirrali ta'limot va tasniflarini tahlil etadilar. Kreber va Klakxon madaniyat atamasiga berilgan ta'riflarni to'rtta asosiy turga ajratadilar: 1) E.Taylor tomonidan madaniyatga berilgan antropologik ta'rif: “madaniyat yoki tsivilizatsiya keng etnografik ma'noda o'zida bilim, e'tiqod, san'at, ma'naviyat, qonunlar, udumlar, odatlar va boshqa imkoniyatlarni mujassamlashtirib, insonni jamiyat a'zosi sifatida shakllantiradi” [71. 18 b]. 2). Til Shunos olim E.Sepir tomonidan sotsial meros va an'anaviy jarayonlarni aks ettiruvchi tarixiy tasnif: “madaniyat – bu sotsial jarayon bo'lib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tuvchi qoidalarning faoliyati va ishonchliligini aks ettiruvchi ijtimoiy hayotimiz hujayrasidir”[159, r. 221]. 3). Antropolog olim K.Uislerning me'yoriy-normativ tasnifi: ushbu tasnif ikki guruhga bo'linadi; a) hayot tarzi tushunchasi bilan bog'liq tasnifga ko'ra, “jamoalari yoki qabiladagi hayot tarzi madaniyat hisoblanadi... Qabila madaniyati o'zining bir turdagi e'tiqodi va amaliyoti bilan a'zolari boshqaradi” [194, r 15]; b) ideallar va qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lgan tasnifga ko'ra, “madaniyat – bu inson oliy qobiliyatining doimiy ro'yobga chiqishida sotsial organizmdagi energiya qoldiqlaridan xalos bo'lishidir” [102, r. 283], 4). U.Tomasning qadriyatli tasnifiga ko'ra, “madaniyat – bu turli sotsial guruh (institut)dagi insonlarning moddiy va ijtimoiy qadriyatlaridir”.

Ingliz yozuvchisi Ch.Snou 1959 yili o'zining “Ikki madaniyat va ilmiy inqilob” (66) deb nomlangan mashhur nutqida (keyinchalik ushbu nutq uning publitsistik ishlari to'plamiga kiritiladi) ziyolilar o'rtasidagi madaniy ong farqini ko'rsatib beradi. Unga ko'ra ongdagi tafakkur Shakli ikki guruhga ajratiladi: bir tomondan adabiy jihatdan Shakllangan gumanitar sohadagi ziyolilar va ikkinchisi tabiiy-ilmiy va texnik sohadagi ilmiy (bilimli) kishilar. Snouning fikricha har ikkala guruhga mansub insonlar dunyoqarashi va ularning qadriyatlarga bo'lgan munosabati keskin mulohazakor tabiatga ega. Tabiiy-ilmiy va texnika soha vakillari yaratuvchanlik ruhida ishonch bilan kashfiyotlar qilishga moyil bo'lsalar, ijtimoiy soha vakillari ilm-fan va texnik yutuqlar tufayli an'anaviy qadriyatlar yo'qolib borayotganligini, imkon qadar vorisiylikni saqlab qolishni ta'kidlaydilar. Ushbu qarama-qarshiliklar natijasida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida falsafiy bilimlardan sotsiologiya, antropologiya, madaniyat

Shunoslik kabi fanlarni ajralib chiqishiga turtki berdi. O' Sha davr falsafiy g'oyalardagi konservativ fikrlar doirasida "madaniyatning tanqidi" degan atama yuzaga keldi. Kezi kelganda ta'kidlamoqchimiz, ya'ni O'zbekistonda XX asrning 90 yillarida paydo bo'lgan sotsiologiya sohasiga bugungi 2017 yilda hamon "bu fanning o'zi kerakmi yoki kerak emas" deb qarovchilarning ikkilanishlari, afsuski achinarli.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, aksariyat tadqiqotchilar madaniyat va tsivilizatsiyani bir-biriga yaqin tushunchalar sifatida izohlaydilar. Lekin bu ikki atama yagona mazmun kasb etganda, ular uchun ikki xil so'z ishlatilmasdi. Madaniyat tsivilizatsiyaga nisbatan hayotga hissiy yondashuv va ma'naviy ijodkorlik ruhi bilan yondoshadi. Unda adabiyot, san'at, musiqa, falsafa hukmronlik qilsa, tsivilizatsiyada sovuqqon va murakkab hisob-kitoblar dunyosi hamda texnik konstruksiyalarga asoslangan texnik-ilmiy ong ustuvor bo'ladi. Madaniyatning ijodiy tabiati tsivilizatsiyaning "raqamli" olami, ma'naviy mehnat esa jismoniy ish bilan qarama-qarshi keladi. Mavjud bayram marosimlari tadbirlarga, dam olish ishlashga, erkinlik zaruratga qarshi qo'yiladi.

Snouning "Ikki madaniyat" asari XX asrning o'rtalarida dunyoga kelgan bo'lib, juda ommaviylashib ketadi va u jamiyatshunoslikdagi mumtoz qarama-qarshilikning bir ko'rinishi sifatida saqlanib qoldi. Uning madaniyatga bo'lgan yondashuvi muaamoga avval yozilgan tanqidlardan nimasi bilan farq qilgan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunda ikki xil yo'nalish mavjud bo'lib, birinchisi madaniyatni baholashda qutbiy o'zgarishni yuzaga kelishi, ya'ni adabiy va ijtimoiy sohadagi ziyolilarning dunyoqarashlarida an'anaviylikdagi ijtimoiy rollarni salbiy baholashga erishishi. Ikkinchi guruh vakillari bir qadar konservativ bo'lib, unda an'ana va udumlarning ashaddiy tarafdori sifatida qolib ketishlari. Bu esa o'z navbatida keskin ilmiy-publitsistik va dramatik bahs-munozaralarni keltirib chiqardi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida ushbu holatning yaqqol ifodasini qariyb 25 yil mobaynida milliy OAV (televidenie, gazeta-jurnallar, radioe Shittirish) va Internet (mahalliy saytlar, sotsial tarmoqlar)dagi turli xil debatlarida kuzatdik. Milliy OAVlarda an'anaviylik urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar, udumlarni qattiq himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, aksincha sotsial tarmoqlarda globallashtirgan dunyoning texnik yutuqlariga katta e'tibor qaratilardi. E'tirof etadigan tomoni shundaki ijtimoiy-gumanitar sohasining davlat tashkilotlarida ishlaydigan xodimlari an'anaviylikni qattiq turib himoya qilganlari holda, o'z farzand va nabiralarini rus yoki Yevropalashgan bog'cha va maktablarga ta'lim olishlari uchun berardilar. Albatta bu paradokslilik holat jamiyatda yopiq tushunmovchiliklarni keltirib chiqarardi.

Nemis sotsiologi V.Delenis 1985 yili o'zining "Uch madaniyat" degan asarini nashrdan chiqaradi. (138) U to'g'ridan-to'g'ri snou taklif etgan g'oyalarga ishora qilib, madaniy dunyoqarash sohasida muhim rolni "uchinchi madaniyat", ya'ni zamonaviy ijtimoiy fanlar o'ynaydi. U ijtimoiy fanlar deganda falsafa, sotsiologiya, psixologiya, madaniyat Shunoslik, sotsial antropologiya kabi fanlarni nazarda tutadi. Agar XIX asrda ikki qutbli dunyoqarash (zamonaviylik va an'anaviylik) mo'ljallarini shakllantirish uchun kurash huquqi mavjud bo'lsa, endilikda ushbu kurash "uchinchi" madaniyat doirasida kurtak ochadi. U ijtimoiy

fanlar doirasida amalga oshirilib, bunda ideal tabiiy-ilmiy bilimlarga mo'ljallangan pozitivistik pozitsiya an'anaviy adabiy-gumanitar yondashuvga yaqinroq bo'lgan hermenevtik yo'l orasida kechadi. Gumanistik an'analarda hermenevtika deganda, biz qadimgi qo'lyozmalarni talqin qilish va uning mohiyatini anglash san'atini ilmiy jihatdan tushunamiz. XX asrning atoqli mutafakkirlari F.Ionin, L. Shlyayermaxer, V.Diltey, keyinchalik M.Xaydeggerlar o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan hermenevtik falsafani insonning o'zini o'zi anglash va ma'naviy mavjudligini bilish usuli deb atadilar.

XX asrning birinchi yarmida sotsiologiya sohasida pozitivizmga qaratilgan mo'ljal olish ustuvorlik qila boshlaydi. 50 yillardan boshlab fan va ta'limda ijtimoiy va mafkuraviy g'oyalarning har bir jamiyatda muhim omilga aylanishi sotsial-gumanitar yondashuvlarni universallikka aylantirdi. Fanning eng radikal tanqidchilari ham madaniyat doirasida tabiiy fanlardagi sotsial masalalarni inkor etmaydigan bo'ldilar. Shunday qilib, madaniyat sotsiologiyasining rivojlanish dinamikasiga e'tibo beradigan bo'lsak, u o'zida "an'anaviylik", "zamonaviylik" va "ijtimoiy-gumanitar fanlardagi yondashuvlar" tizimi bo'yicha tadqiq etilganligini kuzatishimiz mumkin.

## 20-mavzu. JAMIYAT VA DIN.

1. «Din» tushunchasi va uning ijtimoiy mazmuni.
2. Kishilik jamiyati tarixida din va diniy e'tiqodning sotsiologik ahamiyati.
3. Dinning jamiyat hayotidagi sotsiologik ahamiyati va funksiyalari.
4. Din va uni davlat bilan o'zaro munosabati
5. O'zbekiston jamiyatida diniylik va dunyoviylik munosabatlari.

Din – kishining yorug' olamga kelishi va ma'lum bir vaqtdan keyin uni tark etishi orasidagi borliq masofasi, butun umri davomida uni tubdan o'zgarishiga o'z ta'sirini o'tkazish salohiyatiga ega bo'lgan voqelikdir. Ilmiy adabiyotlarda uning lug'aviy ma'nosi turli-tuman qarashlar asosida ilgari suriladi.

«Din (arabcha. Ishonch, ishonmoq) – borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni, xudoga munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir». <sup>1</sup>

AQSHning Nyu-Gemp Shir (The University of New Hamp Shire) universiteti professori – Mishel Dillon (Michele Dillon) honim din hodisasiga quyidagi ta'rifini berganligi alohida e'tiborlidir:

«Din bu – zamonaviy Amerika va dunyoning boshqa mamlakatlarning ijtimoiy hayotini tushunishdagi tayanch konstruksiyadir. Aksariyat amerikaliklarning kundalik hayotlarini tushunishda dinning turli sotsial jarayonlardagi rolini aniqlash sotsiologlar uchun qiziqish uyg'otadi». <sup>2</sup>

Dunyoviy adabiyotlarda dinlarning tasnifi quyidagi tarzda beriladi:

– ibtidoiy jamoa sharoitlaridagi urug'-qabila dinlari (fetishizm, totemizm, animizm, magiya). Ushbu dinlarda ajdodlar Shaxsiga sig'inish, urug'-aymoqchilik aloqalari muhim o'rin egallaydi. Bunda qabila boshlig'ining Shaxsi ilohiylik asosida haddan ziyod ulug'lanadi. Hozirda bu dinlarning vakillari Janubi- Sharqiy Osiyo, Avstraliya, Okeaniya, Afrika aholisi va shimoliy hamda Janubiy Amerikaning hindu qabilalarida istiqomat qiladilar;

– milliy dinlar (konfutsiychilik, hinduizm, yahudiylilik, sintoizm va boshqalar). Ular ayrim xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa hayotiy xususiyatlarini aks ettiradi. Bu xalqlar o'z dinlariga boshqa millat va xalqlarni qabul qilishmagani tufayli ularning dinlari jahon dinlari darajasiga chiqa olmadi;

– jahon dinlari (xristianlik, islom va buddaviylik). Mazkur dinlar eng ko'p e'tiqod qiluvchilarga ega hisoblanadi. Ularning geografiyasi juda katta hududni qamrab oladi. Bu dinlarning milliy dinlardan asosiy farqi shundaki, ularda kishilarning millati va irqidan qat'iy nazar e'tiqod qilish imkoniyatlari to'liq mujassamlashgandir.

<sup>1</sup> Falsafa (Qomusiy lufat). –Toshkent.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati». 2004. –B.112.

<sup>2</sup> Handbook of the sociology of religions. Edited by Michele Dillon. Cambridge University Press. 2003. –R.7.



YUqorida ko'rsatib o'tilgan dinlar kishilik jamiyatining tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan va shunday qolmoqda. Ushbu tarixiy jarayonlarning vorisligi asosida din zamonaviy jamiyatlarda ham kishilarning turmush va tafakkur tarzi tizimining muhim elementi sifatida sotsial, mafkuraviy munosabatlarning o'ta muhim muvofiqlashtiruvchi hamda etakchi kuchi bo'lib kelmoqda.

G'arbiy Yevropa ma'rifatchilarining dinni barham topishi haqidagi g'oyalari o'zining to'liq isbotini topmagan bo'lsa-da, lekin bu mintaqadagi mamlakatlarda diniy e'tiqod masalalari ancha zaiflashganiga guvoh bo'lib turibmiz. Sharq mamlakatlarida esa bu jarayonlar aksincha kechmoqda: din ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy elementi sifatida kishilarning kundalik va ijtimoiy hayotlariga tobora chuqur kirib bormoqda.

Zamonaviy Sharoitlarda diniy axloqning ijtimoiy me'yorni bir bo'lagi sifatida insonning haddan ziyod ortib borayotgan moddiy ehtiyojlarini tartiblash hamda odamzotni ma'naviy kamolot sari yo'naltirishga qodir salohiyati jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hozirda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida davlat instituti o'z mafkuraviy platformasini mustahkamlash va ommaning ijtimoiy ongiga ta'sir ko'rsatishda din omilidan faol foydalanilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ma'lum bir ma'noda milliy g'oyalarning o'zagini diniy qadriyatlar tashkil etayotgani kuzatilmoqda.

Din hodisasining mohiyati va uni zamonaviy jamiyat hayotida tutgan o'rnini tahlil qilishda o'tmishda dinga bo'lgan munosabatni ham unutmash kerak. Ayniqsa, dindan kamchiliklar qidirib, uning ahkomlari va qadriyatlari tanqidini davlat siyosati darajasiga ko'tarish qanday ayanchli oqibatlarga olib kelganini har doim yodda saqlash lozim.

Sobiq totalitar tuzum davrida, mamlakatimiz ijtimoiy-gumanitar fanlari tizimida din va uning tadqiqotlari bir tomonlama, «kurashuvchan» ateistik<sup>3</sup> ruhda olib borilgani bizga yaqin o'tmishdan yaxshi ma'lumdir. Bu davrda din inson ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy hayoti sharoitlarini nomunosib tarzda aks ettiruvchi salbiy hodisa sifatida talqin qilingan edi. Bu holat esa dinning haqiqiy sotsial ahamiyatini ochib berishga monelik qildi. G'arb mamlakatlarida esa dinning sotsiologik tahlili ochiqlik ruhida, ilmiy dalillar va ishonchli tarixiy ma'lumotlar asosida va nisbatan xolislik tamoyiliga tayanilgan holda olib borilganini alohida ta'kidlash mumkin.

Demak, dinni ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning omili ko'rinishida o'rganish uni alohida ijtimoiy-madaniy tizim, murakkab sotsial fenomen sifatida, boshqa sotsial institutlar bilan chuqur aloqadorligi nuqtai nazardan turib tahlil qilishni taqozo etadi.

Ma'lumki, Yevropadagi ma'rifatchilik harakati dinga funktsionalizm tamoyili nuqtai nazardan murojaat qila boshladi. Buning natijasida esa dinning mazmunidan to'liq yoki qisman voz kechish kayfiyati shakllandi. Lekin G'arbda hamma ham bunday yondashuvga moyillik bildirmadi. Masalan, frantsuz

---

<sup>3</sup> Ateizm (a-inkor qiluvchi ioklama, yononcha theos-xudo ma'nosi bilan qo'shilib, bevosita xudosizlik ma'nosini anglatadi).

sotsiologi E.Dyurkgeym dinni jamiyatda muayyan ijobiy funksiyalarni bajarayotgan sotsial institut sifatida qabul qilishni taklif etdi. Uning bunday qarashlari keyinchalik amerikalik mashhur sotsiolog T.Parsons tomonidan yanada ijodiy ruhda rivojlantirildi.

Umuman olganda, din kishini transtsendentallikka<sup>4</sup> yo'naltiradi. Boshqa dunyoviy ijtimoiy tizimlar esa jamiyat tomonidan belgilangan vazifalarni bajaradi.

Ma'lumki, din har qanday jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan hodisadir. Aynan din kishilik jamiyatining tsivilizatsiyasi rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan sotsial institutlar sirasiga taalluqli hisoblanadi. Insoniyat tarixidan yaxshi bilamizki, dunyoning hech bir mintaqasi, xalqi ma'lum bir din va e'tiqodlar tizimisiz o'z Shaxsiy va ijtimoiy hayotini tasavvur qila olmagan. Jamiyatning asosiy sotsial institutlari tarixiy davrning barcha bosqichlarida o'z faoliyatlarini olib borish uchun u yoki bu diniy e'tiqod tamoyillariga tayanganlar. Mazkur holat barcha xalqlar va millatlarga xos bo'lib keldi.

Albatta, ijtimoiy hayotning Shakl va mazmunining transformatsiyasi jamiyat a'zolarining dinga bo'lgan munosabatlarini ham tobora o'zgarib borishga o'z ta'sirini ko'rsatishiga muvaffaq bo'ldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ibtidoiy jamoa kishisi bilan XXI asr kishisining dinga bo'lgan munosabatlari va e'tiqodlari tizimidagi farq osmon va erchalik ekanligi yaqqol seziladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, muayyan bir diniy e'tiqodga ega bo'lish universal hodisa sifatida namoyon bo'lib keldi va haligacha ma'lum bir ma'noda shunday bo'lib kelmoqda.

To'g'ri, har bir xalq, har bir jamiyat a'zosi konkret kishilardan tashkil topishini e'tirof etib, din masalasiga ham turlicha yondashuvlar mavjudligini tan olish lozim. Din va uning arkonlari hamda hukmlari, avvalambor, mazlum, qalbi shikasta va ijtimoiy ko'makka muhtoj kishilarni himoya qilishga xizmat qilgani tufayli jamiyatning zodagon kiborlar tabaqasi uni darhol hamda so'zsiz qabul qilmaganliklarini tarixiy lavhalardan bilishimiz mumkin. Keyinchalik esa jamiyatning hukmron doiralari din arkonlaridan o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mavqelarini mustahkamlash maqsadlarida foydalanishga intilib keldilar. Bunda ular o'zlarining g'ayri-insoniy xatti-harakatlarini ham amalga oshirishdan toymadilar.

Jumladan, ular ulkan ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirayotgan olimlarni o'z hukmronliklariga xavf-xatar solayotganlar sifatida tasavvur qilishdi va xristian dini nomidan ularga nisbatan inkvizitsiya siyosatini qo'llab kelishdi. Pirovardida, ilg'or fikrli olimlarni sexr-jodugarlikda ayblash, ularga nisbatan ommaviy tahqirlash hamda qatag'on siyosati amalga oshirildi. Demak, bunday holatda biz hukmron siyosiy elitani diniy e'tiqodni yovuz-jinoiy va g'arazli maqsadlariga erishish vositasiga aylantirish harakatlari bilan duch kelib turibmiz.

Agarda G'arbdagi bu ijtimoiy illatni O'rta asrlar Sharoitlaridagi Movarounnahrda, Temuriylar davridagi hodisalar bilan qiyoslasak, shunday holatni kuzatamizki, islom dini ulamolari bu hududda yashab, ijod qilgan buyuk allomalarimizning dunyoviy-ilmiy faoliyatlarini din ahkomlariga zid, deb

---

<sup>4</sup> Turli-tuman hodisalar mohiyatini tajriba asosida bilish imkoniyatidan tashqarida, faqat aql-idrok bilan tasavvur qilishi mumkin bo'lgan borliq.

qoralamaganlar. Chunki islom ilm-fan va ma'rifatparvarlik dini bo'lgani uchun olimlar va fozillar hamisha ardoqlanib kelingan.

Sobiq totalitar tuzum hukmronlik qilgan davrda, milliy-madaniy merosimiz g'ayri-ilmiy tarzda talqin qilinayotgan Sharoitlarda esa islom dini va diniy e'tiqodni ilm-fanning ku Shandasi qilib ko'rsatishga astoydil kirishildi. Masalan, XX asrning 70- yillarida, O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil YOqubovning «Ulug'bek xazinasini» romani asosida olingan videofilmida Mirzo Ulug'bekning o'limida shayx Xo'ja Ahror Valiy bosh aybdor qilib ko'rsatilgani ma'lum.

Ushbu videofilm syujetida shayx Xo'ja Ahror Valiy «otang koinot sirlari va sayyoralarni o'rganish niqobi ostida kufr ishlarni olib borayapti va bu bilan ulkan darajada shakkoklik qilayapti» degan ma'noda Ulug'bekning o'g'li shaxzoda Abdullatifni otasiga nisbatan qarshi qo'yib, «kofirni o'ldirish jihoddur va shu tufayli islomda katta ajr-savobga erishiladi» degan qabih fatvoni bergan, deb ta'riflangan edi.

Albatta, yuqorida ko'rsatib o'tilgan tarixning soxtalashtirilgan lavhalariga mamlakatimiz adiblari va san'atkorlarining to'g'ridan-to'g'ri aloqalari yo'q, Chunki 1991 yilgacha mamlakatimiz tarixi totalitar tuzum markazidan berilgan ko'rsatmalar asosida, soxta, yolg'on va g'ayri-ilmiy yondashuv ta'sirida yozilgan edi.

Mana endi mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, boy madaniy-tarixiy merosimiz olimlarimiz tomonidan ilmiy va xolislik asosida tadqiq etilib, ilgarigi kommunistik mafkuraning yolg'on sarqitlaridan holi bo'lmoqda. Bu sa'iy-harakatlar natijasida ataylab yashirib kelingan tarixiy haqiqat qayta yuzaga chiqmoqda.

Xususan, mamlakatimiz olimlari tomonidan Shunday tarixiy fakt aniqlandiki, Mirzo Ulug'bek haqiqatan o'z o'g'li Abdullatif farmoni bilan qatl etilgan, lekin buning asosiy sababi uni toju taxtga ega bo'lishdagi razil, pastkash va yovuz niyatini amalga oshirish harakati edi. Ushbu g'ayrinsoniy maqsadiga erish uchun Abdullatif padarko' Shlikdan ham toymadi. Shayx Xo'ja Ahror Valiy esa Ulug'bek qatl qilinganda umuman samarqandda bo'lmagan, aksincha, u temuriyodalar o'rtasidagi toj-taxt uchun kechayotgan birordarko' Shlik uru Shlarining oldini olishga o'zining astoydil va munosib ulu Shini qo'shib kelgan ekan.

Darhaqiqat, temuriylar hukmronligi tanazzulga yuz tutishi bilan bizning yurtimizda ham din va uning arkonlaridan unumli foydalanish anchagina susaydi va bu hol o'z navbatida ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'sirini ko'rsatishga ulgurdi. Ayniqsa, bu holat XVIII asr oxiri va XIX asr boshidan kuchayib bordi. Dinu diyonatdan uzoqlashish, islom axloqiga amal qilmaslik tufayli ayrim hukmdorlarimiz tobora razolat va fah Sh botqog'iga g'arq bo'la boshladilar, bunday jirkanchlik natijasida esa markazlashgan ulkan davlatimiz parchalanib, millatimiz tarqoqlik va qoloqlik darajasiga tu Shib qoldi. Ajdodlarimiz qoldirgan diniy qadriyatlarga tayangan yagona milliy g'oyamizni mahalliychilik g'oyasiga aylantirishimiz, buning natijasida esa tarqoqlilik va kuchsizlik girdobiga tu

Shishimiz sababli avval Chorizm mustamlakasiga, keyinchalik esa sobiq sovet imperiyasining arzon xom-ashyo etishtirib beradigan «viloyati»ga aylandik<sup>5</sup>.

XIX ikkinchi yarmi va XX asr boshidan Turkistonda keng quloch yozayotgan jadidchilik harakatining asl maqsadi qoloq feodal munosabatlarga asoslangan o'lkani taraqqiy ettirishga yo'naltirilgan edi. Jadidchilar o'z davrining ilg'or kishilari bo'lib, ular ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni Chuqur egallagan edilar. Bu harakat islom dinining mazmun va mohiyatini to'g'ri anglagan holda jamiyat a'zolari, ayniqsa, yosh o'g'il va qizlar diniy bilimlar bilan parallel uyg'unlikda dunyoviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan xolatdagina hozirda qoloqlik darajasida qolayotgan jafokash Turkiston xalqi tez fursatlarda barqaror taraqqiyotga erishishiga qat'iy ishonganlar. Ana shu maqsadlar yo'lida ular fidokorona va matonatli faoliyat olib bordilar.

Bu ezgu niyatlarni amalga oshirish ular uchun oson kechmadi. Ayniqsa, ijtimoiy yangilikka tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lganlar hudbin kishilar – qadimchilar jadidchilarni kofirlikda aylab, Buxoro qozisidan ularni jismonan yo'q qilish fatvosini oldilar. O'lkada yana qirg'inbarot birodarku Shlik harakati boshlandi. Bu jarayonlar esa Turkistonning eng ma'rifatli kishilarini bevaqt va fojeali o'limiga sabab bo'ldi. Jumladan, Turkiston jadidchilarining etakchisi bo'lmish muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) ham Shafqatsiz, johil va savodsiz aqidaparastlarning qurboni bo'ldi.

Shunday musibatli kunlarni boshidan kechirib, og'ir kurashlarda toblangan o'zbek millati o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab muqaddas islom madaniyati va axloqiga asoslangan e'tiqodni milliy g'oyaning ajralmas bir qismi sifatida tatbiq etgan holda ajdodlarimiz orzu qilgan farovon va erkin jamiyat qurish yo'lidan sobitqadam bormoqda.

Ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlardan yaxshi ma'lumki, sotsiologiya termini lotincha «societas» - jamiyat va yunoncha «logos» - ta'limot so'zlarining birikmasidan olingan bo'lib, u bevosita jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. Ushbu iborani ilk bor ilmiy muomolaga kiritgan mutafakkir bu - frantsuz olimi Ogyust Kont (1798-1857).

1830 yilda o'zining «Pozitiv falsafa ruhi» asarining ilk jildini nashr ettirib, u yangi ijtimoiy fan dunyoga kelganini e'lon qildi va o'z ta'limotini pozitivizm, deb nomladi<sup>6</sup>.

O' Sha davrdan to hozirgi kungacha sotsiologiyaning tadqiqot ob'ekti - jamiyat hayotidagi mavjud sotsial muammolar bo'lib, fanning maqsad va vazifalari esa ularni nazariy-amaliy jihatlarida tahlil qilish va ularning echimiga muvofiq keladigan taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsad va vazifalarni bajarish jarayonida zamonaviy sotsiologiya fani tizimida bir necha maxsus va tarmoq yo'nalishlari shakllandi va rivojlandi. Sotsiologiyaning maxsus va tarmoq yo'nalishlari bu – alohida bir ob'ekt, yohud bir mavzuga qaratilgan tadqiqotlardir. Masalan, taraqqiyot sotsiologiyasi, sotsial institutlar sotsiologiyasi, sotsial munosabatlar, tafakkur tarzi sotsiologiyasi, din sotsiologiyasi va hakoza.

<sup>5</sup> Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshqalar. – Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriëti. 2002. -B.67.

<sup>6</sup> Toshenko J.T. Sotsiologiya. //Uchebnik.- Moskva.: «IONITI». 2012. -S.10.

Maxsus va tarmoq yo'nalishlaridan bugungi kunda eng rivojlanganlari esa quyidagilardir:

- Iqtisodiy sotsiologiya;
- Mehnat sotsiologiyasi;
- Siyosiy sotsiologiya;
- Madaniyat sotsiologiyasi;
- Sanoat sotsiologiyasi;
- Din sotsiologiyasi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, din sotsiologiyasi sotsiologiya fanining maxsus yo'nalishlari orasida o'ziga xos sotsial ahamiyatga ega bo'lgan soha hisoblanib, u sotsiologiya fanida ishlab chiqilgan tushuncha va metodlarga tayangan holda dinni jamiyat hayotida tutgan o'rni va rolini tahlil qiladi. Bunday Sharoitda sotsiolog dinni o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan sotsial institut sifatida tasavvur qilib, kishilar e'tiqodi darajasi, diniy guruhlar va tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishi hodisalarini empirik metodlar yordamida tadqiq qilishga harakat qiladi.

Din sotsiologiyasi fani tadqiq etadigan yana bir muammo bu – jamiyat a'zolaridagi mavjud diniy tafakkur masalasidir. Tafakkurning ushbu turi din arkonlaridan kelib chiqib Shakllanadi va rivojlanadi. U boshqa tafakkur turlari ichida eng qadimiysidir. Ayrim tafakkur turlari diniy tafakkur bilan o'zaro uyg'unlashib ketadilar. Ayniqsa, an'anaviy, jamoaviy, ma'lum darajada hatto pragmatik tafakkur turlari va diniy tafakkur o'rtasida yaqin aloqalar sodir bo'ladi.

Masalan, diniy va pragmatik tafakkur turlarining o'zaro munosabatlarga kirishishi, nemis olimi M.Veberning fikricha, G'arbiy Yevropada kapitalizmning vujudga kelishi va rivojlanishiga ma'naviy asos bo'lib xizmat qildi. Demak, ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo'lgan din va diniy e'tiqod masalasi sotsiologiya fanining dolzarb ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Sotsiologiya jamiyat hayotini o'rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va ayni paytda unga kuchli ta'sir o'tkazuvchi omil – din doimo uning diqqat markazida bo'lgan.

Albatta, sotsiologiyada din hodisasini o'rganish jarayonida dinning ijtimoiy hayotda bajarayotgan funksiyalariga murojaat qilishi lozim bo'ladi. YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib, dinning sotsial institut sifatida bajarayotgan funksiyalari haqida qisqacha to'xtash mumkin bo'ladi.

Rossiyalik professor YU.G.Volkov tahriri ostida nashr etilgan «Sotsiologiya» darsligida quyidagilar din institutining asosiy funksiyalari, deb talqin qilinadi:

**1. Dunyoqarash funksiyasi.** Barcha davrlarda din hayot mazmuni, insonning turmush qiyinchiliklari, yorug' dunyoni tark etish mohiyati haqidagi savollarga javob beradi. Ushbu javoblar kishilarga yashashdan maqsadni hosil qilish hisini beradi. Xudoga ishonuvchi kishilar o'zlarini taqdirning zarbalari ostida arang kun ko'ruvchi ojiz mavjudot sifatida emas, balki hayotlarini yaxlit ilohiy mazmunning bir bo'lagi sifatida tasavvur qiladilar.

**2. Kompensatorlik funksiyasi.** Hayot mazmuni haqidagi savollarga din tomonidan berilayotgan javoblar bu olamda kechirilayotgan azob-uqubatlarni inson uchun bejiz emasligini uqtirib, din e'tiqod qiluvchilarga ruhiy osoyishtalik taqdim

etadi. Tashvishli hodisalar (kasallik, o'lim va hokozolar.) bilan aloqador bo'lgan diniy rasm-rusumlar bunday musibatli kunlarda kishilarda ruhiy muvozanatni saqlash va ularning muqarrar achchiq qismatga ko'nikishiga imkoniyat beradi. Kishi boshqalarni o'ziga nisbatan hayrixohligini his qiladi va tanish hamda aniq o'rnatilgan rasm-rusumlardan osoyishtalik topadi.

**3. O'zini sotsial identifikatsiyalash funktsiyasi.** Diniy ta'limotlar va amallar e'tiqod qiluvchilarni bir xil qadriyatlarni qabul qilgan va bir xil maqsadlarni ko'zlayotgan kishilar uyushmasi bilan birlashtiradi (biz musulmonmiz, biz nasroniymiz, biz yahudiyimiz va hokozolar.)

**4. Sotsial-reglamentatsiya funktsiyasi.** Diniy ta'limotlarni mavhumlikka yo'naltirilgan deyish to'g'ri emas. Aksincha, ularni kishilarning kundalik hayotlariga ta'siri sezilarli darajada degan xulosani ilgari surish mumkin. Masalan, islom dinida kishilarni ota-onalari, farzandlari, qo'ni-qo'shnilari, qarindosh-urug'lari va xatto boshqa dinga e'tiqod qiladigan fuqarolarga nisbatan bo'ladigan o'zaro munosabatlari qat'iy tarzda tartiblab qo'yilgan va ular ijtimoiy hayotda o'z o'rniga egadir.

**5. Sotsial nazorat funktsiyasi.** Din kundalik hayot uchun o'z me'yorlarini belgilash bilan cheklanmasdan kishilarning xulq-atvorini ham nazorat qiladi. Diniy guruhning aksariyat Cheklovlari faqat uning a'zolariga taalluqlidir. Lekin ayrim me'yorlar diniy jamoaga taalluqli bo'lmagan kishilarga ham tegishli hisoblanishi mumkin. Masalan, giyohvand moddasini iste'mol qilish, boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga zo'ravonlik qilish, o'ziga tegishli bo'lmagan mulkka egalik qilishga intilish kabi boshqa salbiy hodisalarga qarshi turish umumiy cheklov va nazoratga bog'liqdir.

**6. Moslashuv funktsiyasi.** Din kishilarni yangi ijtimoiy muhitga moslashishga yordam berish imkoniyatlariga ega. Boshqa mamlakatlarga ko'chib ketgan kishilar uchun bu erlarda qabul qilingan, ularga notanish bo'lgan urf-odatlariga ko'nikish oson kechmaydi. Bunday Sharoitlarda din ona tili, tanish rasm-rusumlar va e'tiqod normalarini saqlab qolish orqali bunday toyifadagi kishilarga ularning ko'hna o'tmish madaniyati bilan aloqani saqlab qolishda ko'mak beradi.<sup>7</sup>

Albatta, yuqorida ko'rsatib o'tilgan muhim sotsial funktsiyalarni bajara turib, din jamiyat a'zolari dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tarixiy manbalardan yaxshi ma'lumki, uzoq vaqt davomida din va siyosiy institutlar munosabatlariga davlatning kelib chiqishini diniy mohiyati, hukumdorlarning hokimiyati manbasi haqidagi baxs-munozalar doirasida nazar tashlab kelindi. Davlatning institut sifatida shakllanishi sodir bo'lishigacha jamiyat hayotining barcha jabhalari urug'-aymoqchilik munosabatlariga asoslangan edi. Shuning uchun kishilarning xulq-atvori nazorati va ularni hokimiyatga bo'ysinish holati, tartibbuzarchilik kabi hodisalar asosan jamoviylik asosidagi qarashlar va hukmlar asosida muvofiqlashtirib kelindi. Bunda asosiy rolni diniy e'tiqod va me'yorlar bajarib keldi.

Jahon dinlari, jumladan, buddaviylik va xristianlikni vujudga kelishi tufayli din hamda siyosiy tizim o'zaro munosabatlarining xususiyatlari ham o'zgara boshladi. Bu dinlar davlat nazoratidan tashqarida faoliyat ko'rsatadigan o'z

<sup>7</sup> Volkov Ю.Г. Sotsiologiya. – Moskva.: «Gardariki», 2003. -S.283-286.

tashkilotlarini joriy qila boshladilar. O'z navbatida mazkur dinlar davlat dini maqomiga ega bo'lganlaridagina yanada jadal rivojlana bordilar.

Islom Shakllanishining ilk davrida din va davlat rahbarligi bir kishi timsolida mujassamlashgan edi. Dastlab bu vazifani Muhammad alayhissalom ijro etgan, keyin esa Abu Bakr siddiq, Umar ibn Hattob, Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolib islom olamining diniy va dunyoviy rahbari bo'lib xizmat qilishdi. Musulmon jamiyatining davlat tuzumi va tsivilizatsiyasi islom ahkamlari bilan yo'g'irilgan bo'lib, uning ta'sirida islom o'zida diniylik va dunyoviylikni o'zaro uyg'unlashtirdi.

Keyinchalik esa islom tarqalgan hududlardagi davlat boshqaruvida din ta'siri sezilarli saqlanib qolgan bo'lsa-da, lekin bu darayonda dunyoviy hokimiyat etakchilik darajasiga erishdi. Tarixiy manbalarga tayanib, bunday holatni qadimgi Movarounnahr sarhadlarida ham kuzatishimiz mumkin.

Musulmon jamiyatlaridan farqli o'laroq, G'arbiy Yevropa O'rta asrlari esa din va siyosiy tizim munosabatlarining alohida xususiyatini ifodalaydi. Bu mintaqadagi jamiyatlarga hokimiyatning diniy jihatlarida yuqori darajada tashkil etilganligi va milliy-hududiy davlatchilikni shakllanishi xosdir. Jamiyatda oliy hokimiyat joriy qilishga da'vo qilayotgan diniy tashkilotni o'z hududida dunyoviy davlat hokimiyatining ustuvorligi tamoyili bilan to'qnashuvi Rim Papasi va qirol o'rtasida konfliktlar Chiqishiga sabab bo'ldi. Bu nizolarning manbasi O'rta asr Yevropasida davlat va cherkov o'zaro munosabatlarining o'zgarishi bo'lib, buning natijasida qirol hokimiyatining qonuniylik asoslari ham boshqacha mazmun kasb eta boshladi.

Demak, «kishilik jamiyati shakllanishining ilk davrida siyosiy va diniy strukturalar bir-birlari bilan aralashib ketgan», degan xulosaga kelish mumkin. Jamiyatda xususiy mulk va sinflar Shakllanishi tufayli davlat institutining bunyod bo'lishi insoniyat tarixidagi eng muhim hodisadir. Davlat institutining vujudga kelishida «buyuk Shaxs» – etakchi, dohiy, ya'ni boshqa kishilardan avtoritet nuqtai nazardan ajralib turadigan insonning roli haqidagi turli gipotezalar mavjud. M.Veber bunday xususiyatni «xarizma» tushunchasi bilan ifodalaydi. Xarizmatik Shaxs qandaydir g'ayri-oddiy sifatlarga ega bo'lib, u jamiyat hayotida muhim tarixiy rolni o'ynaydi. Aynan Shu sifatlar diniy-mistik asosda vujudga keldi, degan fikrlar ham mavjud.

Davlat hokimiyatining ilk Shakli, deb xarizmatik turdagi rahbarning hokimiyatini e'tirof etish uchun bir necha asoslar bor. Chunki xarizmatik hokimiyat jamiyat a'zolaridan oliy mistik kuch bilan ilhomlantirilgan insonga bo'ysinishni va unga sadoqatli bo'lishni taqazo etadi. Shunday qarashlarga tayanib, siyosiy tizim va din orasida o'zaro aloqa azaldan mavjud, degan fikrga kelish, ularning asosida sotsial taraqqiyot, jamiyat differentsatsiyasi va integratsiyasi yotibdi, deb hisoblash mumkin. Ayrim olimlar keyingi vaqtdagi o'zgarishlarni hisobga olganda holda, shuni alohida ta'kidlashadiki, zamonaviy davlatni din tomonidan legitimizatsiyalanishiga (qonunlashtirilish) endi ehtiyoj yo'q.

To'g'ri, ushbu tamoyilni Yevropa, Amerika va boshqa qit'alarda joylashgan mamlakatlarning Sharoitlariga qo'llash mumkin. Lekin bu masalada musulmon olamining mamlakatlarida ijtimoiy vaziyat boshqacha ko'rinish hosil qiladi.

Masalan, Fors ko'rfazidagi ayrim davlatlar: Eron, Baxreyn va ayniqsa, saudiya Arabistoni, shuningdek, Yaqin Sharqdagi Yordaniya kabilarda davlat institutining faoliyatini qonunlashtirishga din instituti ta'siri hali ham juda sezilarlidir.

CHunonchi, Livanda xatto hokimiyatning turli konfessiyalar orasidagi taqsimoti qonun tomonidan belgilab qo'yilgan. Bu mamlakat Konstitutsiyasiga muvofiq Prezident faqat xristian, parlament spikeri va Bosh Vazir musulmon-sunnit, Konstitutsion sud raisi esa alavit bo'lishi rasman joriy qilingan. Bunday Sharoitlarda din omili ta'sirining kuchayishi avvalambor mazkur jamiyatlarda dunyoviy qonunlarning kuch-qudrati hali etarli emasligi bilan bog'liq, shu tufayli mazkur hududlarda siyosiy beqarorlik va konfessiyalar orasida turli darajadagi ijtimoiy-siyosiy konfliktlar tez-tez sodir bo'lib turadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy jamiyat Sharoitlarida din va siyosiy tizim muammosining tahlili uchun universal modelni ishlab chiqishning iloji yo'qligi bugungi kunda yaqqol ma'lum bo'lmoqda. Buning sababi shundaki, zamonaviy jamiyatda ko'p konfessiyalik hodisasi mavjuddir.

Ko'p konfessiyalik xususiyatiga ega bo'lgan mamlakatimiz Sharoitlarida esa davlat va din munosabatlarini boshqa jamiyatlardan farqli o'laroq, ratsional asos ustiga qurilganligi asosiy Qomusimizning 31-moddasida ta'kidlanadi. Unda «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»<sup>8</sup>, deb belgilab qo'yilgan. Shuningdek, 1998 yilda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi» Qonun (yangi tahrir) davlat hokimiyati va din munosabatlarini yanada oydinlashtirib berdi.

Albatta, mazkur huquqiy hujjatlarga muvofiq din davlatdan ajratilgan, lekin dinning jamiyat hayotidan ajralishini sira tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy Sharoitlarida din davlat boshqaruvi ishlariga aralashmaydi. Biroq, dinning siyosiy jarayonlarga o'ziga xos ta'siri ham mavjud. Jumladan, davlatlararo munosabatlarni yanada iliqlashtirish va rivojlantirishda din omili sezilarli rol ni o'ynashi mumkin. Masalan, aytaylik, mamlakatimizga saudiya Arabistoni, Indoneziya yoki Malayziyaning oliy martabali rahbarlari tashrif buyurishsa, ularni albatta davlatimiz rahbari o'zi qabul qilib, ular bilan rasmiy muzokaralar olib boradi. Tashrifning rasmiy qismi yakunlanib, davlatlararo o'zaro manfaatli bitimlar imzolanganidan keyin esa mehmonlarni mamlakatimizdagi islom madaniyatiga taalluqli tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayoni boshlanadi.

Xususan, ular Toshkentdagi «Xastimom» majmuasi, unda saqlanayotgan noyob Usmon mu Shafini borib ko'radilar, samarqandda joylashgan Imom Buxoriy, Buxorodagi Bahouddin NAQSHband, Abduholiq G'ijduvoniy maqbaralari va hududimizning boshqa joylaridagi qadamjolarga ham tashrif buyuriladi. Aminmizki, mehmonlar o'z mamlakatlariga qaytgach, O'zbekistonda islom dini va uning tarixiy yodgorliklari dunyoviy davlat tomonidan ardoqlanayotgani haqidagi o'z iliq ta'surotlarini albatta vatandoshlariga ham etkazishadi. Bu ijobiy holat esa mazkur mamlakatlar fuqarolarining O'zbekiston bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni yanada mustahkamlashga ilhomlantiradi.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent.: «O'zbekiston». 2014. -B.13



Demak, aynan Shunday hodisalar din institutining siyosiy institutlarga ta'sirini amalga oshirish omilari bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy hayot o'zgaruvchanlikka moyil ekan, uni tashkil qiluvchi barcha sohalar ham ma'lum bir transformatsiya jarayonlari ta'sirida bo'ladilar. Jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat, axloq, ta'lim va boshqa sotsial institutlar davr talabi bilan o'z faoliyatlarida yangicha mazmun kasb qilib boradilar. Lekin din instituti ularga nisbatan olganda konservativ xususiyat kasb etadi, Chunki uning an'analari mustahkam asos ustiga qurilgandir. Shuning uchun dindagi o'zgarishlar ijtimoiy hayotning boshqa sohalardagi kabi shiddat bilan kechmaydi.

Din institutining o'zgarishi jarayonini tahlil qilishdan oldin ijtimoiy hayotda sekulyarizatsiya hodisasi mavjud bo'lishi haqida etarli tasavvurlarga ega bo'lish talab etiladi. Sekulyarizatsiya tushunchasi lotincha «secular»dan hosil bo'lib, u bevosita dunyoviylik ma'nosini ifodalaydi.<sup>9</sup> Yana ham aniqroq aytilsa, bu jamiyat hayotining turli sohalari, ijtimoiy, guruh va individual ong, kishilar faoliyati, xulq-atvorlari, sotsial institutlar va ularning funktsiyalarini amalga oshirish mexanizmi bo'lgan sotsial munosabatlar tizimini din ta'siridan yiroqlashish jarayonidir.

Islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni ko'p bo'lgan mamlakatlarda sekulyarizatsiya jarayonining kechishi aholisi o'zini xristianlikka mansub, deb hisoblaydigan jamiyatlarga qaraganda murakkabroq kechishi azaldan ma'lum. Chunki islom va uning qadriyatlari kishilarning Shaxsiy hayotlariga chuqur kirib borib joylashgan. Shuning uchun ular dunyoviylik jarayoniga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashadilar.

Albatta, mazkur masalaning ob'ektiv sabablari ham mavjud. «G'arb jamiyatida sodir bo'layotgan axloqiy buzuvchiliklar, fah Sh, giyohvandlik kabi illatlarning kengayib borishida kishilarning sekulyarizatsiya tufayli o'z dinlaridagi burch va majburiyatlaridan voz kechishi asosiy rol o'ynayapti», degan mulohalar islom diniga e'tiqod qiluvchilar orasida chuqur ildiz otmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, «sekulyarizatsiya islomga mos keladimi, yoki undan yiroq bo'lish kerakmi?» degan savol ham paydo bo'lishi tabiiydir. Ayrimlar «sekulyarizatsiya jarayoni tufayli jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlaridan birini tashkil qiluvchi islom madaniyati va axloqining ta'siri huddi G'arb jamiyatlarida xristianlik qadriyatlari yo'qolib borishi kabi holatga tu Shadi, dinga e'tiqod qiladiganlar sonining keskin kamayishi esa jamiyat ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi», degan qat'iy fikrlarini ilgari surishmoqda.

Musulmonlar aholisining aksariyatini tashkil qilayotgan mamlakatlar tajribasi bunday xulosalar to'liq asosga ega emasligini ko'rsatmoqda. Germaniyalik olim, professor Rotraud Vilandt bu masala bo'yicha o'zining quyidagi ilmiy mulohazalarini ilgari suradi:

«Hozirgi dunyoga nazar tashlansa, din va davlatning birligi tamoyilidan islom doirasida voz kechsa bo'ladimi? degan savol bugunga kelib, hayotiy voqelikning o'zi tomonidan allaqachon kun tartibidan olib tashlangandek tuyulishi mumkin. Shunday qilib, masalan, 185 millionga yaqin, ya'ni dunyodagi boshqa har qanday davlatdan ko'ra ko'proq musulmon istiqomat qiladigan Indoneziya

<sup>9</sup> Bolshoy tolkoviy sotsiologicheskiy slovar. – Moskva.: «VECHE-AST». 1999. Tom 2. S.191

davlatchiligining tagzaminida tarkibiga musulmon dini va huquqi emas, balki Xudoga ishonch kiradigan «Pancha shila» nomi bilan mashhur besh tamoyil yotadi.

Aholisining soni nuqtai nazaridan musulmonlar sezilarli darajada ozchilikni – 115 millionga yaqin odamni tashkil qiladigan Hindiston esa dunyoviy-ma'rifiy demokratik davlat hisoblanadi. Ko'p asrlar muqaddam islom ildiz otgan mazkur mamlakatlarda u avvalgidek bitmas-tugunmas hayotiy kuchga ega.

Aholisining 98% musulmonlardan iborat Turkiya Respublikasi mana 75 yildan ziyodroq vaqtdan buyon rasman dunyoviy-ma'rifiy davlat tamoyillariga amal qilib kelmoqda. Ammo, bunday holat mamlakat fuqarolari orasida dindorlikni yo'qolib ketishiga olib kelmadi». <sup>10</sup>

Haqiqatan, nemis olimining mazkur fikrlari yuqorida keltirib o'tilgan baxsli munozaralarga munosib javob sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, uning bu fikrlariga tayanib, mamlakatimizning uzoq o'tmishli tarixiga nazar solsak, shunga amin bo'lamizki, bizning hududlarimizda ham azaldan kishilar tafakkurida tabiat hamda jamiyat hodisalarini idrok qilishga diniylik va dunyoviylik tamoyillaridan kelib chiqib, harakat qilingan. Chunonchi, fiqh ilmining darg'alaridan bo'lgan taniqli olim Burhoniddin Marg'inoniy tomonidan XII asrda yozilgan va hozirda ham musulmon mamlakatlarining universitetlarida fiqh yo'nalishi bo'yicha qimmatli o'quv-ilmiiy va tarixiy manba bo'lib kelayotgan «Xidoya fi furul al-fikh», ya'ni «Xidoya» asarida muallif islom dinidagi diniylik va dunyoviylik munosabatlarining ayrim qirralari haqidagi o'z xulosalarini Qur'on oyatlari va hadislarga tayangan holda ilgari surganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Masalan, bu asarda musulmon yigitga boshqa dinga e'tiqod qiladigan qizni o'z nikohiga olishi mumkinligi bayon qilingan. Buning uchun esa bo'lg'usi kelin albatta «ahli kitoblardan», ya'ni ilohiy kitoblar va payg'ambarlarni e'tirof qiluvchi bo'lishi lozimligi alohida ajratib ko'rsatiladi. Bunda qizni o'zi e'tiqod qiladigan dinidan majburan voz kechishini talab qilish joiz emas. Lekin musulmon yigitni ma'jusiyluk va ko'pxudolikka e'tiqod qiladiganlarga uylanishi mumkin emasligi ta'kidlanadi. Diqqatga sazovorligi shundaki, musulmonlar uchun bu e'tiqod egalari bilan boshqa dunyoviy munosabatlarga kirishish mumkinligi tasdiqlanadi va bu fikrlar ham Burhoniddin Marg'inoniy tomonidan Qur'on oyatlari bilan asoslanadi. Bu holatda biz diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi ma'lum bir me'yor va chegarani ko'ramiz.

Asardagi yana bir muhim holat Shundan iboratki, diniylik nuqtai nazaridan musulmonlarga ma'jusiylar tomonidan amalga oshirilayotgan qurbonlikda ishtirok etmaslik buyurilmoqda, lekin dunyoviylik jihatidan ularning bu urf-odatlarini ta'qiqlashga da'vat etilmayapti. <sup>11</sup>

Bu erda aynan diniylik va dunyoviylikning mustahkam aloqasini kuzatishimiz mumkin. Demak, buyuk ajdodlarimizning diniylik va dunyoviylik

<sup>10</sup> Rotraud Vilandt. Din va davlat birligi islomning qatsiy talabimi?//Islom va dunyoviy-ma'rifiy davlat.//Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari.-Toshkent.: «Imom al Buxoriy» va «Fridrix Ebert» jamfarnalari. 2003. -B.66

<sup>11</sup> Burxanuddin Marginani. Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. Perevod s angliyskogo. -Tashkent.: «O'zbekiston». 1994. -S.131

haqidagi mazkur qarashlari jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy totuvlikni ta'minlashga mustahkam g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilib keldi.

Shu bilan birgalikda shunday holatni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz tarixining ayrim davrlarida dunyoviylik roli ma'lum bir darajada yuqori bo'lganligi kuzatilsa, ba'zi davrlarda esa diniylik ustuvor bo'lishga erishgan. Kishilik jamiyatning tarixi tajribasi shuni yaqqol isbotladiki, bu ikki tamoyil bir-birini o'zaro to'ldirsagina jamiyatdagi mavjud barcha sotsial institutlarning faoliyati yuqori darajada bo'ladi va shu makonda ijtimoiy barqarorlik hamda taraqqiyotni ta'minlash qonuniyat xususiyatiga ega bo'ladi.

«Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi.

Shu ma'noda, biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug'lab, shu bilan birga, dunyoviy hayotga ham qat'iy ishonch bilan intilib yashagan taqdiridagina o'z ezgu maqsadlarimizga eta olamiz».<sup>12</sup>

Sohibqiron Amir Temur ham markazlashgan davlatchiligimiz asoschisi sifatida diniylik va dunyoviylik munosabatlarini o'zaro uyg'unlikda faoliyat ko'rsatishiga katta e'tibor qaratib kelgan. U o'zining davlat boshqaruvi faoliyatida din ulamolari maslahatiga ham tayangan, lekin qarorlarni mustaqil tarzda, dunyoviylik jihatlaridan kelib chiqib, e'lon qilgani tarixiy lavhalardan yaxshi ma'lum.

YUqoridagi xulosalarni professor Z.Munavvarov tomonidan olib borgan tadqiqotlarning natijalari ham yaqqol tasdiqlaydi: «Manbalarda shunday qaydlar uchraydiki, ruxoniylarning eng nufuzli vakillari sahibqiron qarorlarining ustuvorligini so'zsiz tan olganlar va u boshlagan har bir ishga, shu jumladan harbiy yurishlarga ham oq fotiha berganlar».<sup>13</sup>

Demak, bildirilgan fikrlardan ma'lum bo'lmoqdaki, sahibqiron diniylikni dunyoviylikka qarshi qo'ymagan. Lekin davlat boshqaruvi ishlarini dunyoviylik asosida olib borgan. Ma'lumki, uning hukmronligi davrida diyorimizda aholining aksariyati islom diniga e'tiqod qilardi, biroq, aholisi boshqa dinlarga e'tiqod kiladigan mamlakatlardan kelgan elchilarga sahibqiron dunyoviylik asosida juda hu Shmomulalik bilan, samimiy munosabatda bo'lgani bizga tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum.

Shuningdek, bobokalonimiz biror-bir hududni fath etgan takdirida ham o' Sha yurt vakiliga rahbarlik vazifasini top Shirganligi ul zotda diniy va dunyoviy bag'rikenglik sifatleri bisyor bo'lganini anglatadi: «Har erning tabiati, har el va shaharning rasmu-odatleri, mijozidan voqif bo'lib turdim. Har bir o'lka va shahar aholisining ashraf-urug'lari va buzruqlari bilan oshno tutindim. Ularning mijozlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari ishlagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim».<sup>14</sup>

<sup>12</sup> Karimov I.A. Юksak maъnaviyat – engilmas kuch.- Toshkent.: «Maъnaviyat». 2008. -B.96

<sup>13</sup> Munavvarov Z. O'zbekiston Respublikasida dunëviylik bilan diniylik o'rtasidagi yangi nisbatning shakllanishi.//Islom va dunëviy-maъrifiy davlat.//Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materialleri.Toshkent.: «Imom al Buxoriy» va «Fridrix Ebert» jamfarmalari. 2003. -B.134

<sup>14</sup> Temur tuziklari. –Toshkent.: Fofur Fulom nomidagi adabiët va sanъat nashriëti. 1991. -B.55.

Endi dunyoviylik ortga surilib, faqat diniylik mutloq etakchilik qilgan davrni eslasak, quyidagi ijtimoiy hodisa bilan duch kelamiz:

Turkistonning yagona hudud sifatidagi maqomining o'zgarishi va uni xonlik va amirlikka ajaralib ketishi tashqi kuchlarning bevosita bosqinchilik harakati bilan bog'liq bo'lsa-da, biroq, mamlakatdagi ichki vaziyat ham ushbu tarixiy noho' Sh voqealarning jiddiy sabablardan biri bo'lgan. Ushbu fikrlarimizni amaliy jihatdan asoslash maqsadida yana professor Z.Munavvarovning ilmiy tadqiqotlariga murojaat qilamiz:

«...tarixning mazkur davrida muayyan kuchlar o'z maqsadlariga erishish uchun nufuzli shayxlar va ulamolardan foydalanib, ko'pincha ularning davlat siyosatiga aralashuvini sezilarli darajada faollashtirgani ham o'zaro ichki nizolarni Chuqurlashtirib, salbiy rol o'ynadi. Bu XVIII asrda Movarounnahrni siyosiy nuqtai nazardan uzil-kesil parchalanib ketishiga va uning hududida uchta mayda davlatlar – Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini tashkil topishiga olib keldi».<sup>15</sup>

XX asrning 20-yillaridan boshlab, aksincha, Turkistondagi davlat va jamiyat boshqaruvida dunyoviylik xususiyatlari kuchaytirilib, diniylikka nisbatan ayovsiz kurash olib borildi. Xatto xudosizlikni targ'ib etuvchi jamoatchilik tashkilotlari ham tuzila boshlandi. Islom dini rivojiga ulkan ulu Sh qo'shgan buyuk allomalar asarlari «mistika, hom-hayollikni targ'ib qiluvchi reaksiyon, o'ta ijtimoiy zararli manbalar», deb e'lon qilindi va ulardan jamiyat a'zolarini tanishish va foydalanish imkoniyatlari ta'qiqlandi.

Din va uning asoratlari bilan kurashish bahonasida arab imlosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida nashr qilingan qanchadan-qancha dunyoviy kitoblar ham dunyoviy mutassibligimiz tufayli yakson qilindi. Bu esa tarixiy-madaniy merosimiz slohiyatiga jiddiy putur etkazdi. Ushbu salbiy hodisaning asosiy sabablaridan biri bu – totalitar jamiyat Sharoitlarida islom dinini boshqa dinlar kabi ijtimoiy hayot tarkibidan maksimal darajada siqib chiqarilganidir. Bundan tashqari dinning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalari bilan aloqasi deyarli to'liq uzib qo'yildi. Provardida, kishilar din va uning qadriyatlaridan begonalasha boshladilar. «O'z maqsadlarimizga etishdik», deb hisoblagan sobiq Ittifoq rahbarlari «ateistik tarbiyani yanada kuchaytirish lozimligini» ta'kidladilar. Buning natijasida totalitar jamiyatdagi sekulyarizatsiya jarayoni ateizatsiya bilan aynanlashtirildi. Masalaga bunday yondashuv esa sekulyarizatsiya mazmuniga umuman zid edi. Ateizm endi yangi e'tiqod ramzi bo'lib gavdalana boshladi va bu holat jamiyat a'zolarini o'zaro birlashtirish o'rniga ularni bir-birlaridan yiroqlashtirdi.

CHunki dinga e'tiqod qiluvchilar bilan unga e'tiqod qilmovchilar o'rtasida sun'iy farq tashkil qilindi. YUqori mansab lavozimiga nomzodlarni tayinlashda ateistik dunyoqarash bosh mezonlardan biri bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun o'z xudosizligini namoyish qilganlarga mansab pillapoyalaridan yuqoriga ko'tarilish imkoniyatlarining e Shiklari keng tarzda ochib berildi. Bunday Sharoitlarda boshqa millat vakillari o'zlarini «ateist», deb tanishtirishlari oddiy hol bo'lgan bo'lsa,

---

<sup>15</sup> Munavvarov Z. O'zbekiston Respublikasida dunëviylik bilan diniylik o'rtasidagi yangi nisbatning shakllanishi.//Islom va dunëviy-ma'rifiy davlat.//Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari.Toshkent.: «Imom al Buxoriy» va «Fridrix Ebert» jam'farmalari. 2003.-B.135-136.

o'zbeklar bu masalada o'ta ehtiyot bo'lishga intilganlar. Buning asosiy sababi shundaki, o'zbek jamiyatida o' Sha davrlarda ham o'zini ochiqdan-ochiq «xudosizman», degan kishilarga hech qachon xurmat bilan qaralmagan.

Mana endi mamlakatimiz o'z suverenitetiga ega bo'lib, totalitar tuzum din, jumladan islomga nisbatan olib borgan barcha salbiy siyosatining asoratlarini bartaraf qilishga jiddiy kirishdik va bu ezgu sa'iy-harakat o'z ijobiy natijalarini namoyon qilishga ulgurdi. Ayniqsa, Qur'oni Karim ma'nolarini o'zbek tilida bayon qilinishi, Imom Buxoriy, Hakim Termiziy va hadis ilmining boshqa allomalari asarlarini ona tilimizga tarjima qilingani diniy amallarni dunyoviy jamiyatda ham emin-erkin bajarish imkoniyatlarini vujudga keltirdi.

Globalashuv Sharoitlarida ham zamonaviy o'zbek jamiyati hayotida sekulyarizatsiya hodisasining ahamiyati oshib bormoqda. Ilgari diniy mazmun va ma'noga ega bo'lgan qadriyatlar va rasm-rusumlar endi dunyoviylik ko'rinishiga ega bo'layapti. Jumladan, farzand tug'ilishi sababli amal qilinadigan aqiqa to'yi, yoshlarning oila qurishdan oldin o'qiladigan nikoh odati bir muddat avval dindorlar tomonidan o'tkazilgan marosim hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda dunyoviy turmush tarzini olib boradigan kishilar ham ularni din bilan uyg'unlashgan milliy urf-odat sifatida qabul qilishyapti. Demak, bunday hodisalar zamonaviy o'zbek jamiyati ijtimoiy barqarorligining ma'naviy omillaridan biri – diniylik va dunyoviylik mutanosibligini ishonchli tarzda ta'minlayapti.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat tarixining barcha davrlarida din va diniy e'tiqod masalalari ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida mavjud bo'lib kelgan. Zamonaviy jamiyat Sharoitlarda ham dunyoviy davlat din omilining boshqa omillar bilan sermaxsul hamkorligiga tayanib, ijtimoiy hayotidagi dolzarb sotsial muammolar echimini topishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Shu jihatdan qaraganda, o'zining mustaqil rivojlanish yo'lidan jadal ketayotgan O'zbekiston Respublikasida dunyoviylik va diniylik munosabatlarini xalqimizning boy tarixiy-diniy merosiga tayanilishi mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotining muhim omillaridan bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Tayanch atamalar**

#### **O'zbekcha**

Din instituti, dinning sotsial funktsiyalari, transtsendentallik, dunyo dinlari, milliy dinlar, fuqarolik dinlari, sekulyarizatsiya, sakralizatsiya, transformatsiya, klerikalizm, teokratik davlat, dunyoviy davlat, latsizm, xarizma, totalitar tuzum, demokratik davlat, diniylik va dunyoviylik mutanosibligi, globalashuv.

#### **ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent.: «O'zbekiston». 2014
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch.- Toshkent.: «Ma'naviyat». 2008.
3. Bol Shoy tolkoviy sotsiologicheskiy slovar. – Moskva.: «VECHE-AST». 1999. Tom 2.
4. Burxanuddin Marginani. Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. Perevod s angliyskogo. -Tashkent.: «O'zbekiston». 1994.
5. Volkov YU.G. Sotsiologiya. – Moskva.: «Gardariki», 2003.

6. Munavvarov Z. O'zbekiston Respublikasida dunyoviylik bilan diniylik o'rtasidagi yangi nisbatning Shakllanishi.//Islom va dunyoviy-ma'rifiy davlat.//Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari.Toshkent.: «Imom al Buxoriy» va «Fridrix Ebert» jamg'armalari. 2003
7. Rotraud Vilandt. Din va davlat birligi islomning qat'iy talabimi?//Islom va dunyoviy-ma'rifiy davlat.//Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari.-Toshkent.: «Imom al Buxoriy» va «Fridrix Ebert» jamg'armalari. 2003.
8. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshqalar. – Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002
9. Temur tuziklari. –Toshkent.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1991
10. Toshenko J.T. Sotsiologiya. //Uchebnik.- Moskva.: «YUNITI». 2012
11. Falsafa (Qomusiy lug'at). –Toshkent.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati». 2004

## 21-mavzu. JAMIYATNING SOTSIAL STRUKTURASI

### REJA

1. **Sotsial struktura tushunchasining mazmun mohiyati**
2. **Sotsiologik maktablar va yo'nalishlarda sotsial strukturaning o'rganilish**
3. **Sotsial strukturaning bosh elementlari**
4. **Zamonaviy jamiyatlarning sotsial strukturasi**

Sotsiologik munozaralarda jamiyat haqidagi bahslardan keyin turuvchi ikkinchi muhim mavzu – bu sotsial struktura tushunchasidir. Sotsial struktura tushunchasini qo'llash orqali fanda kishilarning ijtimoiy qatlamlar, sinflar, tabaqalar, jamoalarga taqsimlanishi hamda ushbu yirik guruhlarda sodir bo'layotgan o'zaro munosabatlarning tartiblanganligi nazarda tutiladi. Qisqa qilib ifodalaganda sotsial struktura – jamiyatning anatomik skeletidir.

Fanda struktura tushunchasi ostida funktsional bog'liq elementlar yig'indisi tushuniladi. Struktura ob'ektning ichki qurilmasini hosil qiladi. Ushbu qurilmaning poydevori – sotsial stratifikatsiya, jumladan ijtimoiy tabaqalar (stratalar) va sinflardan iborat vertikal tayanchlar hamda aholining ijtimoiy tarkibi, ya'ni ijtimoiy, diniy, kasbiy, siyosiy, demografik guruhlaridan iborat gorizontol to'sinlar yordamida quriladi

Sotsiologiyada sotsial struktura zamonaviy yirik ko'lamli jamiyatlar misolida o'rganilsa, ijtimoiy antropologiyaning fundamental ahamiyatli ushbu kategoriyasi unchalik katta bo'lmagan qabila va lokal guruhlardan tashkil topgan arxaik jamiyatlarni nazarda tutadi. Sotsial struktura ijtimoiy psixologiyaning ham bosh kategoriyalardan biri bo'lib, unda jamiyat ijtimoiy strukturasi kichik guruhlar doirasida torayib boradi va guruhli struktura darajasida o'rganiladi. Predmet, metodlar va nazariy yondashuvlardagi turfa xillikdan qat'iy nazar ushbu uch qardosh fan sotsial strukturani o'rganadi.

«Struktura» atamasining kishilik jamiyatiga nisbatan qo'llanilishi XIX asrdan boshlandi. «Sotsial struktura» atamasi esa 1920 yillar oxiri 1930 yillarning boshlaridan nazariy sotsiologiyaga kirib keldi. Sotsial strukturani tarkiblarni ajratishga bo'lgan ilk urinishi antropolog L. Ralf (1893—1953) tomonidan amalga oshirilib, u jamiyat a'zolari, kishilarning egallagan o'rni, joyi tuzilmani hosil qilishi fikrini ilgari surgan. U bu joyni «maqom» deb atab, ushbu davrdan «o'rin», «mavqe», «holat» tushunchalari maqomning sinonimlari sifatida qo'llanib boshlandi.

Ijtimoiy fanlarda bo'lgani kabi sotsiologiyada ham asosiy tushunchalar borasidagi bahslar davom etmoqda. «Sotsial struktura» tushunchasi bundan mustasno emas. Qator sotsiologlar uchun sotsial struktura takroran namoyon bo'luvchi ijtimoiy hulq modeli sifatida ko'rinadi. Takroran namoyon bo'luvchi har qanday hatti-harakat vaqt davomida yoki odatga aylanadi yoki ijtimoiy institut darajasiga ko'tariladi. Bu ma'noda sotsial strukturani individlar va jamiyat ijtimoiy institutlararo davomli, tartiblangan va odatiy aloqalar sifatida tavsiflash mumkin.

Ehtimol aynan Shu holat jamiyatni mashina yoki organizmga qiyoslashga urinishlarning debochasidir.

Sotsiologiyada sotsial struktura status, sotsial institutlar va sotsial o'zgarishlar tushunchalari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etiladi.

E.Giddensning tuzilmalar nazariyasida struktura tushunchasi ayni damda individ harakatlanishi sharti va natijasi yig'indisidan hosil bo'luvchi qoidalar to'plamidan iborat. Sub'ekt bir paytning o'zida qodilarni yaratadi va ishlatadi hamda unga rioya etadi. Institutlar esa bunda sotsial praktiklar sifatida zamon va makon o'lchamidagi kenglikda yoyilgan bo'ladi.

Shu tariqa sotsial struktura bu – xatti-harakat takroriyliги jarayonida yaratilgan ijtimoiy hatti-harakatning barqaror shakllarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridir. Takrorlanuvchi hatti-harakatlar strukturani shakllantiradi, keyingisi o'z o'rnida navbatdagi hatti-harakatni yo'naltiradi va nazorat etadi.

R.Mills sotsial strukturani institutsional tartiblarning kombinatsiyasi ya'ni, jamiyatning turli sohalaridagi institutlar yig'indisi sifatida tushungan. J.Bernard va L.Topmsonlar uchun struktura – bu institutlarning alohida tartibi (joylashishi) bo'lib, ular kishilarning birgalikdagi hayotini qurish va o'zaro munosabatda bo'lishida ko'maklashadi<sup>1</sup>. Bu sotsiologlarga institutsional yondashuv xosdir.

Fenomenologik sotsiologiya vakillari P.Berger va T.Lukmanlar aksincha, go'yoki o'rgamchak to'rini to'qigani kabi kishi atrof-muhitni o'z kutishlari, stereotiplar, tartib-qoidalari va an'analaridan kelib chiqib o'zi quradi.

Sotsial struktura kishining o'zi tomonidan qurilar ekan demak, faqat uning uchun mavjud bo'ladi xolos. Bu ma'noda sotsial struktura, sotsial institutlar, sotsial tizim nomoddiy va ular nisbiy mazmun kasb etadi.

Nuqtai nazarlarning barchasini xulosalash sotsial strukturani ta'riflashdagi ikki yo'nalishni ajratib ko'rsatadi. Birinchisini shartli ravishda strukturalistik, ikkinchisini esa interaksionallik deb nomlash mumkin. Aksariyat holatlarda ular bir-birini istisno etadi.

Strukturalistlar uchun sotsial struktura kishilarning ixtiyori, ongi va hulqidan qat'iy nazar mavjud bo'ladi. Ikkinchisi uchun struktura kishilarning ongi, hulqi bilan uzviy bog'liqlikda, bundan tashqari kishilarning sub'ektiv mo'ljallari va hatti-harakatining mahsulidir.

Strukturali yondashuv doirasida ikki yirik sotsiologik maktab alohida ko'rsatiladi, bular: strukturali-funksional yondashuv (E.Dyurkgeym, T.Parsons, R.Merton va boshqalar) hamda jamiyatning sinfiy tuzilmasi yondashuvi. Jamiyatning sinfiy tuzilmasiga binoan aholining real guruhleri strukturaning poydevori sanaladi. Ushbu yondashuv XX asrning 80-90 yillarida sobiq ittifoq ilm-fanida mustahkam o'rin egalladi. Unga ko'ra, sotsial struktura – «o'zaro bog'liq sotsial guruhlar, sotsial institutlar va ularning o'zaro munosabatlari yig'indisidir»<sup>2</sup>.

Strukturali funksionalizm vakillari uchun bosh kategoriya sifatida kishining sotsial strukturada egallagan o'rni, joyi olinadi. Ushbu yondashuvga binoan struktura orqali mavqe mustahkamlanadi, individ emas. Struktura bu ma'noda konkret individga bog'liq emas. Aksincha individning tizimdagi ishtiroki

<sup>1</sup> Bernard J., Thompson L.F. Sociology. Nurses and their Patients in a Modern Society. Saint Louis, 1970.

<sup>2</sup> Kratkiy slovar po sotsiologii. - M., 1988. - S. 392.



yig'indisini hosil qiladi. U yoki bu o'rin, joyni to'ldirilishi esa ma'lum maqomni orttirilishi sanaladi<sup>3</sup>.

Bunda struktura – mustahkam ustun rolini o'taydi va u harakatsiz yachaykalarni o'zaro elimlaydi. Bu vazifani sotsial maqomlar, institutlar va muassasalar bajaradi. Odatda maqom deb nomlanuvchi o'rin, mavqe strukturaning asosiy elementi sanaladi. U funktsiya deb nomlanadi. Shu bois, struktura va funktsiyaga taqsimlanish Shartli bo'lib bir tomondan struktura sifatida talqin etilgan holat funktsiya sifatida namoyon bo'ladi va aksincha.

Strukturalistik yondashuv nuqtai nazaridan ikkala yo'nalishda struktura birlamchi sanaladi. individ esa ikkilamchi. Menejmentda strukturalizmga klassik yondashuv mos keladi. Unga muvofiq oldin tashkilotning yaxshi rejalashtirilgan strukturasi yaratish kerak. Bu struktura lavozimlar sxemasida namoyon bo'lishi lozim. So'ng ijrochilarni tanlash mumkin. Joyni kishi bezatmaydi, aksincha kishi egallagan o'rniga nisbat beradi.

T. Parsons uchun struktura me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq: me'yorlar sotsial munosabatlarni sotsial struktura deb atalishi mumkin bo'lgan qat'iy konstruktsiyaga birlashtiradi. «Struktura — bu nisbatan barqaror standartlashtirilgan munosabatlar elementlarining yig'indisidir. Aktor sotsial tizim elementi ekan, sotsial struktura aktorlarning bir-biri bilan sotsial munosabatlarini standartlashtirilgan tizimini hosil qiladi»<sup>4</sup>. T. Parsons sotsial strukturani ikki jarayon bilan bog'laydi, bular: ijtimoiylashuv va sotsial nazorat bo'lib, ularni «me'yoriy madaniyat»ning institutlashtirilgan namunalari sifatida tushunadi. 1964 yilda T. Parsonsning «Sotsial struktura va shaxs» nomli fundamental asari nashr etildi. Asarda muallif sotsial strukturani o'zgartiruvchi manba sifatida madaniyatni ko'rsatadi.

Strukturalizm antipsixologik, ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, individning yoki guruhning hulqini ularning sotsial strukturadagi o'rnini nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qiladi. Bu bilan boshqa xususiyat, ya'ni sotsial strukturaning o'z elementlariga nisbatan determinant rolini tan olish zaruratini bildiradi<sup>6</sup>.

Strukturali funktsionalizmning etakchi vakillaridan R. Mertonning fikriga ko'ra sotsial strukturani shakllanishi asosida hokimiyatning noteng taqsimoti va boylik yotadi. Tengsizlik sotsial stratalarning ierarxiyasini hosil qiladi. Sotsial stratalar o'z o'rnida sinfiy strukturani yaratadi. Shu bois, sotsial strukturani hokimiyat strukturasi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Bunga qarama-qarshi o'laroq ramziy interaksionallikda sotsial struktura kishilarning kundalik muloqoti va o'zaro munosabatidan Shakllanadi<sup>7</sup>. Kishilar o'zaro munosabatga chek qo'ysalar struktura ham g'oyib bo'ladi. U allaqanday mustahkam va inson ongidan mustaqil emas, aksincha etarlicha harakatchan va mavhumdir.

Shu tariqa ikki sotsiologik yo'nalish, ya'ni strukturalizm va interaksionallik sotsial strukturani turlicha ta'riflaydi. Strukturali funktsionalizm jamiyatning sotsial strukturasi kishilarning ixtiyori va ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi. U turg'un holatdagi misli ulkan imperiya va u kishilardagi shaxsiyat,

3

<sup>4</sup> Parsons T. O strukture sotsialnogo deystviya. 2-e izd. – M., 2002. – S. 320.

sub'ektiv hissiyotlar va hatti-harakatlardan qat'iy nazar mavjud bo'ladi. Strukturali funktsionallikda o'zaro munosabat ikkilamchi bo'lsa, struktura birlamchidir. Aksincha, tushunuvchi sotsiologiyada umuman struktura ikkilamchi, o'zaro munosabat esa birlamchidir.

Xullas strukturali funktsionallik kishilarning sotsial o'zaro munosabatini o'rganishdan voz kechmasa-da, ammo kishilar ushbu munosabatlarga sotsial strukturada ularga belgilangan yachaykalarini egallaganlaridan so'ng kirishadilar. O'qituvchi belgilangan lavozimni egallagandan so'ng o'quvchiga nisbatan tegishli munosabatda bo'lishi mumkin. Ammo, ungacha emas.

Ikkinchi holatda sotsial struktura kishilar munosabatlarining sababi emas, mahsuli sanaladi. Kimdir o'qituvchi lavzoimini egallamasdan turib ham kishilarga ustozlik qilishi, hayotga o'rgatishi, murabbiylikni namoyon etishi mumkin. Zero, murabbiylik yoki ustozlik – uning turmush tarzining ajralmas qismidir. Kundalik hayotda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari maktabda mustahkamlangandan ko'ra ko'proq uchraydi: ota-onalar farzandlariga o'rgatadi, kattalar-kichiklarni, ofitseraskarni va h.k.

Ushbu qabildagi mulohaza yuritish mantig'idan kelib chiqadigan bo'lsak, qadimdan o'rgatuvchan o'zaro munosabatning barqaror turlari shakllangan. Minglab yillar o'tishi davomida esa ular institutsional Shaklga (maktablarni institut sifatida shakllanishi) kirib borgan va jamiyat sotsial strukturasi metindek mustahkam ustunini hosil qilgan.

Ikki nuqtai nazardan qaysi biri to'g'ri ekanligini aytish murakkab. Zero, ikkisi ham ob'ektiv voqelikni turli jihatlaridan kelib chiqib aks etadi. Shu bois, ularni zid nazariyalar sifatida emas, bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Ikki yondashuv sotsial reallikni yaxlit manzarasini hosil qilishda zaruridir.

Shunga qaramasdan bugungi zamonaviy jamiyat Sharoitida sotsial strukturani anglash uchun strukturali funktsionallikni olish maqsadga muvofiq. U zamonaviy jamiyatlarda allaqachon Shakllanib ulguragan tayyor struktura va institutlardan kelib chiqadi. Ular sotsial hayotning mutlaq kuchli omillariga aylanib ulguranki, alohida individlar ixtiyorini yutib yuborgan. Zero, zamonaviy jamiyatlar kishilarning nafaqat kundalik muloqot va munosabati amaliyotidan tuzilmaydi.

Aynan strukturali funktsionallikda sotsial struktura jamiyatning anatomik skeleti yoki qurilmasiga qiyoslanadi. Struktura deganda ob'ektning ichki qurilmasini hosil qiluvchi elementlar nazarda tutilsa-da ushbu elementlar deganda nima yoki kimlar nazarda tutilishida yaxlit fikrga kelinmagan. Masalan, A.R.Radcliff-Braun sotsial strukturani elementlararo (bu ma'noda insonlararo) yaxlit qonuniyatga bo'ysudirilgan munosabatlar sifatida ta'riflaydi.

S.F.Neydl uchun esa element sifatida rollar olingan. Sotsiologlarning aksariyati, jumladan funktsionalistlar sotsial strukturaning elementlari sifatida sotsial hulqning tashkillangan namunalari bo'lgan sotsial institutlarni olish kerakligini bildiradi. Xullas, sotsial institutlararo funktsional munosabatlar ko'zga ko'rinmas ulkan sotsial to'rni hosil qilar ekan, ko'p sonli munozaralarga sabab bo'layotgan sotsial strukturani hosil qiladi.

Bizningcha sotsial strukturaning bosh elementlari sifatida sotsial maqom va rollarni olish maqsaga muvofiq. Ularning miqdori, joylashish tartibi va bir-biriga bog'liqligi xususiyatlari jamiyatning ma'lum tuzilmasi mazmunini belgilab beradi. Bu ma'noda qadimgi va zamonaviy jamiyatlarning sotsial strukturasi tubdan farq qilishi aniq.

Struktura jamiyat tuzilmasining barqarorligi, harakatsizligini anglatadi, tarixan u o'zgaruvchidir. Undagi harakatchanlik individlarning o'zaro munosabatlari jarayonida sotsial rollar tomonidan taqdim etiladi. Sotsial strukturaning ko'p qirraligi shundaki, uni uch jihatdan, ya'ni: 1) funktsional (jamoatchilik faoliyati, ijtimoiy institutlar va ijtimoiy hayotning boshqa shakllarini tartiblangan yig'indisi); 2) tashkiliy (sotsial guruhlarining turli tiplarini shakllantiruvchi aloqalar yig'indisi, bunda tahlil birliklari sifatida jamoalar, tashkilotlar va ularning tuzilmali elementlari olinadi); 3) sotsial hatti-harakatning orientirlanishi tizimi (tahlil birliklari – sotsial hatti-harakatning maqsadi va vositasi, motiv, stimuly, me'yor, namuna, dasturi va dastur osti)<sup>8</sup>.

Bunda sotsial strukturaning uch nazariy modeli hosil bo'ladi;

- klassik yondashuvda; sotsial struktura – real guruhlar yig'indisidir;

- strukturali-funktsionallikda; sotsial struktura – joy o'rnini, mavqeni, maqom yig'indisi;

- ramziy interaktsionallikda; sotsial struktura – kishilararo munosabatlar mahsulidir.

Ushbu yondashuvlarni umumlashtirgan holda keng ma'noda sotsial struktura – bu guruhlardagi sotsial munosabatlar shakli yoki modeli bo'lsa, tor ma'noda – kichik guruhlardan tortib, to sotsial tashkilotlar hatto jamiyatgacha bo'lgan guruhlar va jamoalardagi munosabat shaklini tavsiflaydi.

Tirik mavjudotlarning har bir turi sotsial munosabatlarning bir emas bir necha turlariga ega. Sotsial strukturaning turfa xilligi qator omillar bilan shartlangan.

Sotsiologiyada sotsial strukturani o'rganishga bo'lgan intilishlarni xulosalab ushbu tushunchani boshqa tushuncha ya'ni sotsial makon tushunchasi bilan uzviy bog'liqlikda ta'riflash maqsadga muvofiq. Sotsial makon yordamida individ yoki guruh jamiyatdagi o'z o'rnini egallaydi. Ular sotsial maqomdir.

Bu ta'rifga binoan sotsial strukturani kamida ikki mazmunda anglash lozim. Keng ma'noda sotsial struktura – barcha sotsial guruhlar va qatlamlar, jumladan sinflarning yig'indisi bo'lsa, tor ma'noda – ayni tarixiy daqiqalarda mavjud bo'lgan funktsional bog'liq maqomlar yig'indisidir.

Jamiyat sotsial strukturasi nafaqat stratalar, guruhlar, balki institutlar ham kiradi. Sotsial institutlar ijtimoiy munosabatlarning ma'lum sohasini tartiblovchi me'yor va muassasalar yig'indisidir. Sotsial institutlar kishilik faoliyatini rollar va maqomlarning ma'lum tizimida tashkillantiradi va ijtimoiy hayotning turli sohalarida kishilarning hulq-atvori namunalarini o'rnatadi. Masalan, maktab ijtimoiy institut sifatida o'qituvchi va o'quvchi rollarini, oila esa ota-ona va farzand rollarini qamrab oladi. Ular o'rtasida ma'lum rolli munosabat yuzaga keladi. Bu munosabatlar maxsus me'yor va tartiblar bilan tartiblanadi. Nisbatan dolzarb me'yori qonunchilik bilan mustahkamlansa, qolganlari an'ana, urf-odatlar, jamoatchilik fikri orqali nazorat etiladi.

Har qanday sotsial institut o'zida sanksiyalar tizimini aks etadi. Bular huquqiy-me'yoriy va axloqiy-ma'naviy sanksiyalar bo'lib, ular tegishli qadriyat va me'yorlar butligini ta'minlaydi, tegishli rolli munosabatlarni qayta ishlab chiqaradi. Xullas sotsial institut kishilarning individual hatti-harakatini muvofiqlashtiradi, tartiblaydi, ularni tashkillanganligini ta'minlaydi, sotsial tipik vaziyatlarda kishilarning standart hulqini shakllantiradi.

Sotsial struktura sotsiologiyannig predmetlari doirasidagi yirik uchlikdan o'rin olgan, bular; struktura, tashkilot, shaxs bo'lib, ularning yig'indisidan umumiy sotsiologiyannig fundamental bilim sohasi hosil bo'ladi. Sotsial struktura o'zining ko'p sonli tuzilmaosti (sotsioprofessional, sotsiomaqomli, sotsiomintaqaviy, sotsioetnik va h.k.) bilan jamiyat statikasi yoki «sotsial skeletini» hosil qiladi.

Sotsial tashkilot esa aksincha, ijtimoiy hayotni harakatda ekanligini ko'rsatadi. Bu ma'noda masala jamiyatning «sotsial fiziologiyasi», uning tarixiy dinamikasika doir. Demak, sotsial strukturani uch o'lchamli kesimda ham tahlil etish mumkin. Ushbu uchlikning uchinchi nuqtasi shaxs struktura va tashkilot kesishmasida o'rin olgan. Shaxs sotsiologiyada individual-takrorlanmas jihatlari (bu psixologiyannig vazifasi) atamasi bilan emas sotsial-tipik atamasi bilan o'rganiladi. Boshqacha qilib aytganda shaxs sotsiologiyada – kichik kontaktli guruhning bir bo'lagi emas, yirik sotsial guruhning tipik vakili, ushbu guruhga xos me'yorlar, an'analar, qadriyat va manfaatlar, munosabatlarning tashuvchisidir.

Demak, sotsial struktura – bir-bir bilan uzviy, funktsional bog'liqlikda bo'lgan maqom va rollar yig'idisi. Maqom – individning jamiyatdagi sotsial holati, rol ayni damdagi maqomga xos hulq modeli, uning dinamik tavsifi, maqom tavfsiloti huquq va majuburiyatlar yig'indisi orqali ochiladi. Har bir maqom sotsial maqomlar ierarxiyasida ma'lum joylarga ega. Bu ierarxiya jamoatchilik fikri orqali yaratiladi.

Ierarxiyadagi joy rang deb nomlanadi. Ular yuqori, o'rta yoki past bo'lishi mumkin. Rang qanchalik baland bo'lsa maqom Shunchalik qadrlil, u Shunchalik ko'proq imtiyozlar, mukofot, nufuzga ega. Maqomning rangi rasmiy mustahkamlangan bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda u titul, unvon deb nomlanadi. Masalan, ofitser titul bo'lib, uning turlari polkovnik, mayor va h.k.lar sanaladi. Rang aksariyat hollatlar rasman mustahkamlanmagan va omma ongida baho berish Shakli sifatida mavjud bo'ladi.

Kishida bir paytning o'zida qator maqomlar va rollar bo'ladi. Primitiv jamiyatlarda maqomlar miqdori ozchilikni tashkil qilgan. Zamonaviy jamiyatlarda esa birgina professional statuslar soni 40 000 ga yaqin, oilaviy-nikoh, qarindoshlik maqomlari 200 dan ortiq. Shu tariqa sotsial struktura «bitta-maqom – bitta yachayka» tamoyili asosida quriladi.

Yirik sotsial guruhlarning yig'indisi yangi tushuncha – aholining sotsial tarkibini hosil qiladi. Agarda yirik sotsial guruhlar vertikal kenglikda joylashib, daromad, hokimiyat, ta'lim va nufuz tengsizligi asosida qurilsa, «sotsial stratifikatsiya» hosil bo'ladi. O'z o'rnida, stratifikatsiya – o' Sha maqomlarning o'zginasi bo'lsa-da, boshqa mezonlar asosida guruhlashtirilgan va «tokchalar» bo'ylab yuqoridan pastga terilgan. Stratifikatsiya namunalaridan biri – jamiyatning sinfiy tarkibidir.

Sotsial maqom turlari sifatida demografik (millat, irq, jins); oilaviy-qarindoshlik (er, xotin, qiz, o'g'il); iqtisodiy (tadbirkor, yollanma ishchi); kasbiy (injener, shofyor, bankir); diniy (ruhoniy, dindor) va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ko'rsatilgan maqomlar guruhlari jamiyat sotsial strukturasi tuzilmaostini shakllantiradi. Ushbu tuzilmaostining har birini institutsional soha sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Misol uchun oilaviy-qarindoshlik strukturani oila va nikoh instituti taqdim etdi. Kasbiy va iqtisodiy strukturalar eng yirik va turli-tumanligi bois qator institutlar – davlat va huquq, ishlab chiqarish va ta'lim kabilarni hosil qiladi.

Xullas, sotsiologiyaning uch fundamental tushunchasi – «sotsial struktura», «sotsial stratifikatsiya» va «sotsial institutlar» - maqom va rollar orqali uzviy bog'liqlikda. Sotsial strukturani zamonaviy jamiyatning jamoaviy maqomli portreti yoki maqomli portreti deyishimiz mumkin. Shu bois, struktura bir-birga zich joylashtirilgan maqomlarning yaxlit nomlanishidir.

Jamoaviy maqomli portret (jamiyat sotsial strukturasi) individual maqomli portret (maqomlar to'plami) kabi o'ta individual xarakterga ega. Ular jamiyat haqida deyarli barcha ma'lumotlarni beradi. Shu bois, ma'lum jamiyatning tarixiy rivojlanishining turli davrlaridagi maqomli portretini solishtirish orqali qiziqarli va muhim ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Xullas, sotsial struktura kishilik jamiyatidagi jamoaviy hayot tarzi maqsadli va tashkillanganligini anglatadi. Sotsial struktura bois kishilar ongida hayotiy tajriba faktlari bir-biri bilan bog'lanadi. Bunda har bir qism alohida, uzilgan holda emas, aksincha, mu Shtaraklikda namoyon bo'ladi. Masalan, biz biror binoga qaraganda g'isht, tom, shisha yoki boshqa qurilish materallarini alohida emas, aynan yaxlit uy Shaklida ko'ramiz. Demak, sotsial struktura hayotni tashkillanganligi va barqarorligi hissini beradi.

Masalan universitetning sotsial strukturasi olsak, kuz mavsumida talabalarning yangi guruhni qabul qilinsa, yoz mavsumida yana bir guruh o'qishni yakunlaydi. Dekanatlar talabalar va o'quv jarayonini boshqaradi. Har doim yangi talabalar, o'qituvchilar va dekanat ushbu tizimdan o'tadi va belgilangan vaqtda undan chiqadi. Universitetni tashkil etuvchi kishilar vaqt davomida o'zgarib borasada universitet saqlanib turadi. Bu ma'noda sotsial struktura guruh yoki jamiyat a'zolari o'rtasida doimiy va tartiblangan o'zaro aloqalarni nazarda tutadi.

Sotsiologlar sotsial strukturani sotsial dalil sifatida o'rganadi. Sotsial struktura individ harakatini boshqaradi va ma'lum oqimga yo'naltiradi. Universitetning an'analari va urf-odatlar – uning strukturasi bo'lib o'z faoliyatining dastlabki davridan talabalar, o'qituvchilar va rahbariyatning doimiy munosabatlaridan Shakllangan va ushbu tashkilot tomonidan qabul etilgan.

Statik strukturaga doir atamashunoslikni qo'llanilishi sotsial strukturaning o'zgaruvchan va dinamik xususiyatlarini ko'rsatmasligi mumkin. Universitet – bu tashkil etilganidan bir xil o'zgarishlarsiz faoliyat ko'rsatuvchi turg'un organizm emas. Undagi barcha sotsial tartiblanganlik sotsial munosabatlar bilan chambarchas bog'liqlikda va barqarorlikda yaratiladi va qayta ishlab chiqariladi. Shu bois tashkillangan sotsial hayot doimiy tarzda turli modifikatsiyalar va o'zgarishlarni boshidan kechiradi.

### **Tayanch iboralar:**

Jamiyat, struktura, funktsiya, sotsial struktura, tizim, elementlar, sotsial maqom, sotsial rollar, sotsial me'yor, sotsial sanktsiya, sotsial institut.

### **Nazorat savollari**

1. Sotsial struktura tushunchasi nimani anglatadi?
2. Sotsial struktura «jamiyatning anatomik qurilmasi» iborasini ta'riflang.
3. Sotsial strukturani fanlararo ta'riflanishi izohlang.
4. Sotsial strukturaning sotsiologik maktablar va yo'nalishlarda o'rganilishi xususiyatlarini ta'riflang.
5. Jamiyat sotsial strukturasi bosh elementlarini sanang.
6. Jamiyat sotsial strukturasi uch nazariy modelini ta'riflang.
7. Sotsial maqom va rollarning jamiyat sotsial strukturasi egallagan o'rnini ko'rsating.
8. Sotsial makonda sotsial strukturaning ikki va uch o'lchamli modellarini namoyon bo'lishini ta'riflang.
9. Sotsial strukturaning butunligi va davomiyligini ta'minlovchi komponentlarni sanang.
10. Zamonaviy jamiyatlarning sotsial strukturasi turli variatsiyalarda izohlang.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Bernard J., Thompson L.F. Sociology. Nurses and their Patients in a Modern society. Saint Louis, 1970.
2. Kratkiy slovar po sotsiologii. - M., 1988. - S. 392.
3. Parsons T. O strukture sotsialnogo deystviya. 2-e izd. – M., 2002. – S. 320.

## 22-mavzu. SOTSIAL STRATIFIKATSIYA

### Reja:

1. Sotsial stratifikatsiya tushunchasi
2. G'arb sotsiologiyasida stratifikatsiya nazariyasi
3. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta'lim va hokimiyat
4. Stratifikatsion tizimlar

Stratifikatsiya katta sotsial guruhlarning ierarxik kelishuvi bo'lib, u asosiy resurlarni nazorat qilishga tayanadi. Stratifikatsiya o'zida struktur notenglikni mujassamlashtiradi. Bu holat ushbu guruhlarga a'zolik va va notenglikni tarannum etuvchi mafkura tomonidan qo'llab-quvvatlanish bilan bog'liqdir. Sotsiologiyaning bu masalada sotsial guruhlarni o'rganadi. Chunki bu guruhlar yuqoridagi ierarxiyani tashkil etadi va sotsiolog notenglik Shakllanganligi va uni doim saqlanib qolishishiga javob izlaydi.

Sotsiologlarning fikricha, badavlat kishilarning hayoti boshqalarniki bilan solishtirganda buning asosiy sababi shundaki, ular sifatli ta'lim, xavfsizlik, yuqori sifatli oziq-ovqat va boshqa turdagi mulk hamda xizmat ko'rsatishlarga ega bo'lishning ulkanimkoniyatlariga xo'jayinlik qiladilar. Va aksincha, past darajadagi daromad va kunini minimal darajada ta'minlaydigan kishilarda yuqoridagi resurlarga ega bo'lishga imkoniyat Cheklangan bo'ladi. Resurs esa pul, mulk, tibiy xizmat va ta'lim kabi elemntlardan topgan tizimdir.<sup>1</sup>

**Sotsial tengsizlik.** Har qanday jamiyatni o'rganmaylik, u ko'pgina asoslar – milliy, ijtimoiy – sinfiy, demografik, hududiy asoslarga qurilgan bo'ladi. Odamlarning u yoki bu ijtimoiy, kasbiy, sotsial demografik, guruhlarga mansubligi yoki tarkiblanishi sotsial tengsizlikni keltirib chiqaradi. Hattoki tabiiy – genetik yoki jismoniy farqlar odamlar orasida tengsizlik munosabatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Biroq jamiyatdagi eng asosiy holat Shundan iboratki, jamiyatning o'zida sotsial tengsizlikni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv omillarning mavjudligidir. Tengsizlik har qanday jamiyatning o'tkinchi bo'lmagan omilidir. Ralf Darendorf yozadi: “Hattoki eng gullab yashnayotgan jamiyatda ham eng muhim turg'un holat sanaladi. Albatta bu farqlar kasta yoki tabaqaviy jamiyat tayangan to'g'ridan – to'g'ri zo'ravonlik va qonunchilik normalariga tayanmay qo'ydi. Shu bilan birga, mulk va daromad hajmiga, obro' va mansabga qarab tabaqalanishdan tashqari jamiyatimizda mansab bilan bog'liq yana ko'pgina farqlanishlar bilan farqlanadi. O'lar Shunchalik Chigal va jamiyat hayotida mustahkam o'rnashib olganki, tengsizlik yo'qotildi, barcha barobar deb e'lon qilindi, deyilsa, hamma bu habarga shubha bilan qaraydi”.

**Sotsial farqlar** deb, sotsial omillar – alohida individ yoki sotsial guruh bajaradigan mehnat taqsimoti, turmush Sharoiti, jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq farqlar nazarda tutiladi.

Strukturalashgan (tarkiblashgan) jamiyat deb ijtimoiy jamiyatning o'zaro aloqador va bir – birini taqozo etadigan sohalari yig'indisi tushunilishi mumkin:

<sup>1</sup>Diana Kendall. *Sociology in Our Times: The Essentials*, Tenth Edition. R.201

iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, sotsial va ularning ichida gohida oila bilan bog'liq sohalar ham ajratib ko'rsatiladi. Ijtimoiy hayotning yuqorida nazarda tutilgan har bir sohasida xususiy – sotsial tabaqalanish, xususiy struktura alohida o'rin egallaydi. Odamlar orasidagi ijtimoiy sotsial farqlarni sotsial struktura aniqlaydi. Unda birinchi navbatda jamiyatning sotsial strukturasi namoyon bo'ladi. Bu strukturaning asosiy elementlariga sinflar, ijtimoiy va kasbiy guruhlar, birlashmalar kiradi.

Jamiyatning eng yirik sotsial stratifikatsiyasi birlashmasi- bu sinfdir.

“Sinf” so'zi Qadimgi Rimdan kirib kelgan va uni soliqqa tortish maqsadida aholini ma'lum guruhlarga bo'lish uchun qo'llangan. Eng yuqori pog'onada assidiylar – boy rimliklar, eng quyi pog'onada proletariylar turishgan.

Qadimgi YUnonistonda Platon ikkita sinfni ko'rsatadi: boylar va kambag'allar. Aristotel esa jamiyatni ochko'z boylardan iborat yuqori tabaqa, quyi sinf – qullar hamda umumxalq taqdirini ishonib top Shirsa bo'ladigan, olijanob o'rta tabaqaga bo'ladi. Uning fikricha, aynan o'rta tabaqa fazilat va qusurlarni o'zida me'yorida qo'llaydi.

Sinfiylikning ilmiy kontseptsiyasi XIX asrda paydo bo'lib, uning asoschilaridan biri Karl Marks hisoblanadi. Butun insoniyat tarixini u sinflarning ziddiyatida ko'rgan. Aynan Shuning uchun sinfsizlik, jamiyatning to'liq ijtimoiy integratsiyasi, ijtimoiy tenglik g'oyalari paydo bo'ladi. Marks zamonaviy jamiyatni xususiy mulkka bo'lgan munosabatiga qarab ikkita asosiy turga bo'lgan. Uning mantig'iga tayansak, sotsialistik tizim to'la ijtimoiy tenglikni ta'minlashi kerak edi, Chunki mulk umumxalq yoki davlat mulkiga aylandi, unga jamiyatning barcha a'zolari, barcha ijtimoiy guruh teng foydalanish huquqiga ega edi. Biroq aynan umumxalq mulki asosida nomenklatura, biryoqlama, salbiy iqtisodiyot qaror topdi. Nega bu ijtimoiy amaliyot omadsizlikka uchradi?

**Birinchi**dan, har qanday jamiyatda xususiy mulkka ega bo'lishdan tashqari, kimdir xo'jalikning tezkor boshqaruvini amalga oshirishi lozim. Moddiy va pul resurslari taqsimoti aksari mulkka egalik qilishdan ko'ra foydaliroqdir. Bunday holatda mulkka mas'uliyatsiz yondashuv vujudga kelishi mumkin, Chunki u begonaning mulki bilan ish qiladi. Shunday qilib noto'g'ri boshqaruvda mansabdorlar uncha zarar ko'rmasligi, biroq bu mas'uliyatsizlikning ijtimoiy oqibati yomon bo'lishi mumkin.

**Ikkinchi**dan, jamiyat har doim o'zining siyosiy davlat tashkilotlariga ega, demak, davlat menejerlari, mansabdor Shaxslar – liderlar paydo bo'ladi, ular esa shubhasiz boshqalarga qaraganda ko'proq huquq va imtiyozlarga ega bo'lishlari lozim, aks holda ular jamiyatni boshqarish funksiyasini amalga oshira olmaydilar. Amalda har bir jamiyatda bunday ijtimoiy guruhlar ma'lum bir mavqega ega, bu esa, shubhasiz, ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi.

**Uchinchi**dan, insoniyatning yozma tarixi ibtidoiy tengsizlik bo'lmagan birorta jamiyat borligini bilmaydi. Ijtimoiy tengsizlik ko'p qirralidir, u turli shakllarda va sotsial tashkilotlarning turli qatlamlarida namoyon bo'ladi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, odamlar sotsial ierarxiyada o'z o'rinlarini juda yaxshi bilishadi va sotsial tengsizlikni his qilib, unga o'z noroziligini bildirib turadilar, bu noroziliklarning ko'pchiligi sotsial ziddiyatlarda namoyon bo'ladi.



Insonlar tabiatida genetik jihatdan boshqalarga qaraganda ustunroq bo'lishga intilish bor. Alohida shaxslarda bu intilish turlicha namoyon bo'ladi. Alohida shaxs yoki ijtimoiy guruh xokimiyatga ega bo'lgach, ochiqchasiga yoki yashirin holatda undan foydalanishni boshlaydi. Bu jarayonlarni boshqarish mumkin (vakillik demokratiyasi, xokimiyatlarning bo'linishi, davlat mansabdor Shaxslarini almashtirish), biroq, bu holatni umuman bartaraf qilib bo'lmaydi.

**To'rtinchidan**, jamiyat xokimiyat boshqaruviga eng qobiliyatli, mas'uliyatli shaxslarni ta'minlashdan manfaatdor. Shu bilan birga odamlarning bu mansabni egallashga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga ham majburdir. Sotsial tengsizlik bu jamiyatning o'z – o'zini saklab qolishning o'ziga hos mexanizmidir, uning yordamida jamiyat ongli ravishda muhim mansablarni qobiliyatli, malakali shaxslar, o'ziga hos ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, harbiy va hokazo elita tomonidan egallanishini ta'minlaydi. Bunday odamlarning xatosi yoki mas'uliyatsizligi jamiyat uchun qimmatga tu Shishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy mavqe, ijtimoiy holat uchun ayrim imtiyolar berilishi, eng qobiliyatli odamlar ko'tarilishiga yordam berish lozim.

Sotsial tengsizlik stratifikatsiyaning fundamental nazariy asosi tsivilizatsiyaning rivojlanishi sanaladi. Har bir Shaxs moddiy va madaniy yutuqlarga yakka o'zi egalik qilolmaydi. Odamlarning ixtisoslashuvi va shu bilan birga inson faoliyatining yutuqli sohalari paydo bo'ladi. Odamlar o'z qobiliyati, tarbiyasi va savodi bilan tengdirlar. Mana shu narsa stratifikatsiyaning nazariy asosi sanaladi.

Sotsial stratifikatsiya muammosi – sotsiologiyaning bosh mavzularidan biridir. U jamiyatdagi sotsial tengsizlikni, sotsial qatlamlarning daromadlar darajasi va turmush tarziga ko'ra, imtiyozlarning mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra bo'linishini tavsiflaydi. Ibtidoiy jamoa davrida tengsizlik ahamiyatsiz darajada bo'lgan, shu bois bu erda stratifikatsiya deyarli kuzatilmagan. Murakkab jamiyatlarda tengsizlik ham kuchayib borgan, u odamlarni daromadlari, ma'lumot darajasi va sotsial mavqeiga ko'ra bir-biridan ajratgan.

G'arb sotsiologiyasida an'anaviy ravishda jamiyatning sotsial strukturasi stratifikatsiya nazariyasi (strata- qatlam) nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar.

Ularning fikricha, stratifikatsiya – jamiyatning Shunday tuzilishiki, bunda bir individlar, sotsial guruh boshqasiga qaraganda ko'proq mol-mulkka ega, boshqalari esa umuman hech narsaga ega bo'lmasligiga mumkin. Sotsiologlarning fikricha, bu holatni hal qilishning umuman iloji yo'q. U bir biriga mutlaqo qarama – qarshi bo'gan ikkita haqiqatga tayanadi.

Bir tomondan jamiyatning stratifikatsiyasi salbiy oqibatlariga olib keladi, u sotsial ziddiyatlardan inqiloblargacha olib kelishi mumkin. Stratifikatsion tizim tubidagi odamlar jismoniy ham ma'naviy jihatdan huquqlari Cheklangan bo'ladi. Lyumpen jamiyat, ishsiz, och odamga bo'lgan sotsial Shafqat tushunchasini tasavvur qilish mumkin.

Boshqa tomondan, stratifikatsiya odamlarni, sotsial guruhlarni tadbirkorlik, jamiyatning taraqqiyotiga undaydi.

Umuman olib qaraganda, G'arb sotsiologiyasida stratifikatsiya nazariyasi asoschisi M. Veber hisoblanadi. U sotsial holat faqat mol – mulkning holati bilan

belgilanmaydi, deb hisoblaydi. Kambag'allashib qolgan bo'lsada katta siyosiy ta'sirga ega aristokratlar, generallar bor. YOki masalan, Germaniyaning katta tadbirkorlari katta mol – mulkka ega bo'lib turib, millati nemis bo'lmaganligi uchun hech qanday ijtimoiy siyosiy mavqega ega emaslar. M.Veberning fikricha, Marksning tabaqalanishga nisbatan yondashuvi juda sodda, shuning uchun stratifikatsiyani uch yo'nalishda aniqlash lozim: mulk, nufuz, hokimiyat, Chunki aynan ular istalgan odamning yoki "sotsial" guruhning mavqeini belgilab beradi. Ularga qarab uch guruhni ajratamiz: quyi, o'rta va yuqori. Sotsial struktura moddiy holatga qarab kengayib boradi. Jamiyat stratifikatsiyasining moddiy holat bo'yicha asosiy ko'rsatkichi bo'lib, sotsial ierarxiyaning yuqorisi va quyisida joylashgan 10% aholining moddiy ko'rsatkichi sanaladi. Ularning munosabati ziddiyatlarning aniq darajasini, jamiyatning ziddiyatlilik darajasini ko'rsatishi mumkin. Bu ikki sotsial guruh orasida o'rta sinf ham bo'lishi lozim: ularga o'rta va kichik tadbirkorlar, malakali ishchilar, intelligentsiya davlat mansabdorlari, bank xizmatchilari. O'rta qatlamdagilar qanchalik ko'p bo'lsa, ularning sotsial holati shuncha yaxshi bo'ladi, jamiyat barqaror rivojlanadi, u Shunchalik sotsial ziddiyatlardan himoyalangan bo'ladi.

M.Veber mulkka egalikka unchalik ahamiyat bermagan. Mol – mulkka egalik qilmay ham odam yohud jamiyat ma'lum bir mavqega, hokimiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, tashkilotlardagi yuqori malakali menejer. Insonning nufuzi ham sotsial strukturada uning o'rnini aniqlab beradi. Masalan, sportchi, aktyor, modelning nufuzini iqtisodiy foydaga almashtirish mumkin. Siyosiy hokimiyat ham iqtisodiy holatga bog'liq bo'lmaydi.

Real jamiyatda turli variantlar mavjud bo'lishi mumkin. Odam boy bo'lishi, biroq ma'lum bir mavqega, oliy ma'lumot, siyosiy ta'sirga ega bo'lmasligi mumkin. G'arb sotsiologiyasida bunday holat "nomuvofiqlik statusi" deb yuritiladi. Nomuvofiqlik maqomini his qiluvchi odamlar norozilik, hafsalasizlik kayfiyatida, ekstremizmga moyil bo'ladilar. Agar insonning bir holatda martabasi ulug' bo'lsayu, boshqa holatda martabasi yuqori bo'lmasa, u o'z martabasini ko'z – ko'z qilishga urinadi va odamlar unga baho berayotganlarida avvalo uning quyi martabasinigina ko'radilar. Ziddiyatlarning asosi ham mana shunda.

Masalan, universitet professorlari ularni saviyasi darajasiga, ilmiy yutuqlariga qarab baholanishlarini hohlaydilar. Biroq universitetdan tashqaridagilarning ko'pchiligi ularning talablarni rad etadilar, sababini esa ularning siyosiy ta'siri, boyligi va hokimiyatining yo'qligi bilan izohlaydilar. "Vulgar boyvachcha" iborasi ko'pgina boylarning nomuvofiqlik maqomini ko'rsatib turadi.

Zamonaviy stratifikatsion ta'limotlarning asosiy tamoyili bo'lib, T.Parsons, L.Uorner, B.Barber va ushbu yo'nalishning boshqa namoyondalarining funksionalizm nazariyalari sanaladi. Ular sotsial tengsizlikni "jamiyatni saqlab qolishi uchun zarur holat, ularning qismlari o'zaro aloqador va muvozanatda" deb bilganlar.

T.Parsons istalgan jamiyatda stratifikatsiyaning maqsadi ma'naviy baho, qadriyatlar tizimi deb qaragan, ularni atamalarda ifodalasak, turli sotsial birliklarga baho berish imkoniga ega bo'lamiz.

K.Devis va G.Murning ta'limotlarida sotsial stratifikatsiya nazariyasi funksional zaruriyat va har bir jamiyatdagi stratifikatsiya nazariyasining universal mavjudligi kabilarni o'zida mujassamlashtiradi. Ular uchun stratifikatsiya moddiy boyliklar va sotsial mavqenining noteng taqsimlanganligidir.

Amerikalik sotsiolog Elton Jonson o'zining stratifikatsion tadqiqotlarida individlarning sotsial mavqeini uchta asosiy belgi bo'yicha aniqlaydi: mashg'ulot turi, ma'lumoti, va insonning irqiy – etnik guruhi.

- Ma'lumoti oliy, o'rta va quyi. YUqori mavqega o'z vaqtida shunchaki universitetni tamomlaganlar emas, obro'li universitetlarni tamomlaganlar kiritilganlar.

- Irqiy – etnik guruh. AQSHga xos xususiyatlardan kelib chiqib, u kelib chiqishiga ko'ra irlandlar guruhini, ikkinchisiga italyanlar guruhini (oq tanlilar orasida), uchinchisiga oq va sariq irq vakillarini kiritgan.

Uch guruh bo'yicha individual mavqelarni birlashtirib, konkret odamlarning muvofiqlik maqomini aniqlash mumkin. Chiqindi tashuvchi yoki taksi haydovchisi, oliy ma'lumotli oq amerikalik – bu bitta mavqe. Qora tanli, ma'lumotsiz Shahar meri – bu ikkinchi maqom. Stratifikatsion tizimda alohida shaxs yoki guruhning ijtimoiy mavqeini bashorat qilish odamning xulqini, uning konkret voqealarga reaksiyasini, ijtimoiy ziddiyatlarga munosabatini va boshqa ko'plab masalalarni prognozlashtirish imkonini beradi.

Stratifikatsiya nazariyasi – bu hayotdagi xilma xillikni tushuntirishga asosdir. Nega puli bor odamlar metsenatga aylanadi? Nega universitet professorlari ishlab chiqarishga ketib qolishadi? Nega Rossiyada aralash oilada tug'ilganlar o'zlarini rus, O'zbekistonda tug'ilganlar esa o'zbek deb yozdirishadi? Nega shaharliklar viloyatliklarga past nazar bilan qarashadi?

Shunday qilib, ijtimoiy – sinfiy struktura tahlili zamonaviy sotsiologik nazariyaning muhim qismi, shuningdek, ijtimoiy amaliyot uchun nazariy asos sanaladi.

**3. Iqtisodiy holat.** Stratifikatsiyaning iqtisodiy darajasi boylik va daromad bilan belgilanadi. Boylik deganda odamlar egalik qiluvchi moddiy ne'matlar tushuniladi. Daromad soddalashtirilgan ko'rinishda, odamlar oluvchi pullar miqdori sifatida tavsiflanadi. Masalan, inson ulkan boylikka ega bo'lishi va undan oz miqdorda daromad olishi mumkin; bunday odamlar qatoriga noyob tangalar, qimmatbaho toshlar, san'at asarlarini kolleksiya qiluvchilar va boshqa shunga o'xshash odamlar kiradi. Boshqa bir odam katta maosh olishi, hashamatli hayot kechirishi, lekin boy bo'lmasligi mumkin.

**Nufuz (prestij).** Darajasi muayyan sotsial maqom bilan mos keluvchi jamiyatdagi obro', e'tibor, hurmat bilan o'lchanadi. Nufuz – qo'l bilan u Shlab bo'lmaydigan, faqat nazarda tutiladigan hodisa sanaladi. Ammo, kundalik hayotda inson odatda nufuzga salmoqli tus berishga harakat qiladi – unvonlar beradi, hurmat-e'tibor rasm-rusumlariga rioya qiladi, faxriy darajalar beradi, o'zining «yashashni bilishi» ni namoyish etadi. Bu harakatlar va ob'ektlar sotsial muhimlik darajasini aks ettiruvchi nufuz belgilari rolini bajaradi.

Odamlarning bir-biri bilan o'zaro aloqalari tarkibiga ularning bir-biriga ko'rsatishi va bir-biridan olishi lozim bo'lgan hurmat-e'tibor darajasiga doir

muzokaralar kiradi. Hatto oddiy so'zlashuvga ham, agar so'zlarimizga e'tibor beriladigan bo'lsa, biz bu gaplarga diqqat bilan quloq solishimiz haqidagi muayyan pinhona ahdlashuv xos. Biz o'zimizdan yuqori darajadagi odamga turli usullar bilan hurmat-e'tibor ko'rsatamiz. Masalan, tanishuv taomilida ramziy harakatlar – ta'zimlar, komplimentlar qo'llaniladi. O'zini olib qochish taomilida ayni shu maqsadga obro'li shaxslarga nisbatan «tegishli masofa» ni saqlash orqali erishiladi.

Obro' qozonish va uni saqlab qolish uchun boylik va hokimiyatga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Ular umume'tiboriga havola etilishi lozim, zero obro' faqat aniq faktlar asosida qozonilishi mumkin. Hozirgi vaqtda aksariyat odamlarning nufuzi, qoida tariqasida, ularning daromadi, kasb-kori va turmush tarzi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda insonning Shaxsiyati va kirishimliliigi ham juda muhim. Garchi ko'pchilik hali-hanuz pul hamma narsadan muhim deb hisoblasada, lekin insonning turmush tarzi va u ilgari suradigan qadriyatlar hozirgi vaqtda uning nufuzini belgilashda ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy jamiyatlarda ayrim kasblar yuqori nufuzga, ayrimlari, o'rtacha, yana boshqalari esa pastroq nufuzga (prestijga) ega bo'lishadi. Masalan, bizning jamiyatda eng obro'li kasblar sifatida huquq Shunos, shifokor, iqtisodchi, psixologlar, pastroq nufuzga ega bo'lgan kasb-hunarlar sifatida esa farrosh, ko'cha tozalovchi, mardikor, yollanma ishchilar nazarda tutiladi.

**Hokimiyat.** Aynan qaysi odamlar yoki ularning guruhleri o'z mayllari va mo'ljallarini ijtimoiy hayot voqeligiga aylantira olishlari mumkinligini belgilaydi. Hokimiyat – bu ayrim Shaxslar va sotsial guruhlarning o'z hukmini boshqalarga o'tkazish va mavjud resurslarni maqsadga erishish uchun safarbar qilish qobiliyatini namoyon etadi.

Hokimiyat asoslarini tashkil etuvchi resurslarning uch toifasi farqlanadi.

1. Majburlash – mazkur resurslarga ega bo'lgan tomonga muayyan vaziyatga yangi Cheklashlarni joriy etish imkonini beruvchi resurslar.

2. Rag'batlantiruvchi motivlar – bir tomonga vaziyatga yangi ustunliklar berish uchun imkoniyat yaratuvchi resurslar.

3. Ishontirish kuchi – bir tomonga boshqa odamlarning ko'z qarashlarini muayyan vaziyatga kamchiliklar yoki ustunliklarni kiritmasdan o'zgartirish imkonini beruvchi manbalar.

Shunday qilib, muhim resurslarni o'zlashtirish-odamlar ustidan hukmronlikni qo'lga kiritish demak. Eng muhim resurslarni nazorat qilish - o'zini, yoki o'z guruhini odamlar bilan ularga o'z biologik, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beruvchi vositalar o'rtasiga qo'yish demakdir.

**Ma'lumotlik (ta'lim) darajasi.** YUqori sanab o'tilgan me'zonlardan tashkari hozirgi kunda sotsiologlar ma'lumotlik darajasiga qarab ham kishilarni muayyan qatlamlarga ajratishadi. Bunday me'zon sifatida kishilarning ta'lim darajasi-ma'lumotliliigi olinadi. Agar kishilarni ma'lumotlik (ta'lim) darajasi bilan qatlamlarga ajratadigan bo'lsak, ular oliy, o'rta maxsus, o'rta, va to'liqsiz o'rta ma'lumotlarga bo'linadi. O'z navbatida esa intelligentsiya (ziyoli) ning o'zlari ham fan doktori, fan nomzodi, magistr, bakalavr singari tarkiblarga ega bo'ladi.

4. Ijtimoiy tizim elementlari orasida muhimligi va o'zgaruvchanlik jihatidan stratifikatsiya va uning darajalari alohida ajralib turadi. Ushbu tizimlar orasida

sotsiologlar darajalar bo'yicha ochiq va yopiq tizimlarni ajratib ko'rsatadilar. Ochiq tizimlarda ierarxiyadarajalari orasidagi farq ancha o'zgaruvchan va unga kishilarning erishgan statuslari faol ta'sir ko'rsata oladi. Ochiq tizimlarda sotsial harakatchanlik yuqoriroq saviyada bo'ladi. Sotsial harakatchanlik esa kishilar yoki sotsial guruhlarning stratifikatsiya tizimidagi bir darajadan boshqa darajaga qarab harakatlanishidir. Bu harakat bqori yoki pastga qarab yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Turli avlodlarga taalluqli bo'lgan mazkur harakatlar bosqichma-bosqich sodir bo'lishi mumkin.<sup>2</sup>

Bir mutafakkirning "Kambag'allik hayot imkoniyatlarini toraytiradi va berkitadi" degan tezisni ilgari surdi. Haqiqatan, kambag'allikning jabrdiydalari imkoniyatlarni arteskerozini his qiladilar. Iqtisodiy ishonchsilik nafaqat yoqimsiz holat, balki u yana kishining aqliy va jismoniy salomatligiga zarar etkazadi. Bizning imkoniyatlarimiz taalluqli bo'lgan sinflarga ham bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari kishilar orasidagi yoshdagi farq ham bu masalada muhim ahamiyat kasb etadi. YOsh bolalarda kattalarga qaraganda hokimiyat va ma'suliyat kamroqdir. Boylikka va hokimiyatga ega bo'lmagan kattalar ierarxiyada o'rtamiyona joyni egallaydilar. Jamiyatlagi huddi shunday differentsatsiya holatini ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqda ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ayollar aksariyat hollarda erkaklarga tobe sifatida qabul qilinadilar. Jamiyatning bosqichli davrlarida kishilar diniy, etnik va kasbiy mansubliklari tufayli notenglik holatiga aloqalar bo'ladilar.<sup>3</sup>

Sotsiallik – sinfiy strukturaning gorizontal talqini bilan birga savodlilik, kasbiy malakalilik darajasiga ko'ra vertikal talqin ham qilish mumkin. Masalan, ishchilar orasida past, o'rta va yuqori malakalilarini ajratib olsak. Ularning nisbati tahminan 25:50:25 nisbatga bo'linadi. Tadqiqotlar Shuni ko'rsatadiki, ishchilarni uch guruhga bo'lishning o'zi etarli.

Intelligentsiyaning vertikal talqin etish esa ancha murakkab kechadi. An'anaga ko'ra ularga maxsus tayyorgarlik talab qiluvchi aqliy mehnat bilan Shug'ullanuvchilar kiradi. Sotsiologiyada bu guruhni intelligentsiya va xizmatchilarga ajratib o'rganadilar. Ziyolilar, ishchilar, oliy va o'rtam ma'lumotli odatda aqliy, ijodiy mehnat bilan Shug'ullanuvchi, kasbiy band odamlar kiradi. Ishchi mutaxassislariga ilmiy ma'lumot talab qilinmaydigan, biroq ilmiy ma'lumoti borligi ham zarar qilmaydigan militsioner, kotiba, hisobchi va hokazolar kiradi. Oliy o'quv yurtida o'qib uni tamomlaganlarning hammasini ham ziyoli deb bo'lmaydi. Ishchilarning 10% ini oliy va o'rta ma'lumotlilar tashkil qiladi. Bunday holatda mexnat xarakteri nazarda tutiladi. Sotsiologiyada ishchi – ziyoli tushunchasini kiritish orqali muammoni hal qilishga urinishdi. Unga malakali, maxsus kasbiy tayyorgarlik va savod talab qilinadigan ishlarda mehnat qiluvchi ishchilar guruhi nazarda tutiladi. Masalan, tajriba sinov ishchilari, uchuvchi, murakkab uskunalar operatori, ularda ishlashni o'rgatuvchi operatorlar va hk. Aytish mumkinki, jamiyatning taraqqiy etishi bilan uning sotsial strukturasi murakkablashadi, hamda alohida shaxslar turli sotsial guruh va sinflar Chegarasida qolishadi.

---

<sup>2</sup>Diana Kendall. Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. R.201

<sup>3</sup>Diana Kendall. Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. R.201

**Sotsial maqom** – bu individning ijtimoiy ierarxiyada egallagan, muayyan huquqlar, majburiyatlar va yashash uslublarini keltirib chiqaradigan nisbiy darajasidir. Maqom individlarga va ular tug'ilganda individning fazilatlaridan qat'iy nazar, shuningdek jins, yosh, oilaviy o'zaro aloqalar, kelib chiqish belgilariga ko'ra berilishi yoki raqobat kurashi jarayonida qo'lga kiritilishi mumkin. So'nggi zikr etilgan holat alohida shaxsiy fazilatlarni va insonning o'z kuch-g'ayratini talab qiladi. Bunday guruhlarning sotsial sinflardan farqi shundaki, ular iqtisodiy holatning o'zigagina emas, balki hurmat-e'tibor va nufuzga ham asoslanadi. Muayyan maqom guruhi a'zolari asosan o'z guruhi doirasida bir-biri bilan o'zaro aloqa qiladi va yuqori yoki past maqomli odamlar bilan kamroq darajada o'zaro aloqalarga kirishadi.

Sotsial stratifikatsiyani amalda kasb etadigan Shakl- Shamoyillardan qat'i nazar, uning mavjudligi universaldir. Sotsial stratifikatsiyaning to'rt asosiy tizimi mavjud: qullik, kastalar, klanlarvasinflardan tashkil topadi.

**5.** Qullik bu stratifikatsiyaning eng favqulotdagi shakli bo'lib, u kishilarni boshqalar tomonidan iqtisodiy jinsiy ekspluatatsiya qilinishiga asoslanadi. Bu yopiq tizimdir, Chunki unda kishilarni qul ko'rinishidagi o'z mulklari sifatida ko'rishgan.

Qullik amerika jamiyatida tarixiy omadsizlik emas. Bu mamlakatda qullik asosan uchta sohada keng rivojlangan edi: qishloq ho'jaligida, ichki qullik va jinsiy qullik. Yigirma birinchi asrning dastlabki yigirma yillida norasmiy qullik Shu darajada kuchayib ketdiki, AQSH Prezidenti bu holatni bartarf qilish uchun har yili mamlakatga murojaat qiladi.<sup>4</sup>

**Qullik sabablari.** Bir odamning boshqa odamlarga egalik qilishi qullikning ajralmas belgisi hisoblanadi. Qullar qadimgi rimliklarda ham, qadimgi afrikaliklarda ham bo'lgan. Qadimgi Gretsiyada qullar jismoniy mehnat bilan Shug'ullangan va buning natijasida erkin fuqarolar siyosatda va san'atda o'z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Qullik ko'chmanchi xalqlarga, ayniqsa ovchilar va termachilarga kamroq darajada xos bo'lgan.

Odatda qullikning uch sababi ko'rsatiladi:

1. Qarz majburiyatining mavjudligi. Bunda o'z qarzlarni to'lashga qurbi etmagan odam qarz beruvchining quliga aylangan.

2. Qonunlarni buzish. Bunda qotil yoki talonchini qatl etish uni qulga aylantirish bilan almashtirilgan, ya'ni aybdor jabrlangan oilaga etkazilgan zarar yoki musibat evaziga tovon haqi sifatida top Shirilgan.

3. Uru Sh, talonchilik hujumlari, bo'sundirish. Bunda odamlarning bir guruhi boshqa odamlar ustidan g'alaba qozongan va g'oliblar asirlarning bir qismidan qul sifatida foydalangan.

**Qullikning umumiy tavsifi.** Garchi quldorlik amaliyoti turli mintaqalarda va turli zamonlarda har xil bo'lgan bo'lsa-da, qullikning sababidan qat'i nazar, qul baribir boshqa odamning mulki hisoblangan va qonunlar tizimi qulning maqomini mustahkamlagan. Qullik kishilarni bir-biridan farqlashning qaysi odam erkin-u (muayyan imtiyozlarga ega-yu), qaysi odam qul (imtiyozsiz) hisoblanishini aniq ko'rsatuvchi asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan.

<sup>4</sup>Diana Kendall. Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. R.203

Kasta ham qullik kabi sotsial stratifikatsiyaning yopiq tizimi hisoblanadi. Kasta tizimi sotsial notenglik tizimi bo'lib, unda kishilarning statuslari ota-onalarida qolgan va umrbod ko'rinishidagi holat bo'lib namoyon bo'ladi.

Kasta tizimining qoliqlari zamonaviy Hindiston va Janubiy Afrikada kuzatiladi. Hindistonda kasta mashg'ulotda namoyon bo'ladi. Oilada avloddan avlodga o'tib kelayotgan mashg'ulot bilan Shug'ullanishadi. Janubiy Afrikada esa kasta tizimi irqiy holatga tayanadi. Mamlakt aholisining ozchilikni tashkil qiladigan oq tanlilar ko'pchilikni tashkil qiluvchi qora tanlilarga qaraganda yuqori statutga ega edilar. 1990 yilgacha oq tanlilar hukumatni tashkil qilib, armiya va politsiya yordamida appartaidni himoya qilishdi. Qora tanlilarga fuqarolik to'liq ma'noda berilmadi, kasalxonalar, maktablar va tukraro joyga egalik qilish huquqlari inkor etib kelindi. Oq tanlilar esa barcha istagan ish joylariga ega bo'lishdi, qora tanlilar esa malakasiz va kam haq to'lanadigan mashg'ulot bilan Shug'ullanishdi.

Kasta tizimida nikoh o'ziga o'xshanalar guruhidan bo'lganlar bilan tuzilishi qayd qilib qo'yilgan. Hindistonda ota-onalar o'z farzandlariga azaldan, an'anaviy tarzda nikoh partnerini tanlab qo'yishar edi. Janubiy Afrikada esa 1985 yilgacha aralash irqqa asoslangan nikohlar ta'qiqlangan edi.

Madaniy e'tiqod va qadriyatlar kasta tizimiga asos bo'ladi. Hindistonda esa induizm din sifatida kasta tizimining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qiladi. Unga muvofiq kishilar o'z taqdiriga ko'nikib, jon-jahdi bilan mehnat qilishlari va bu bilan axloqiy majburiyatni sidqi-dildan bajarishlari talab qilinadi. Lekin kasta tizimi borgan sari zaiflashib bormoqda. Sababi jamiyatda sanoatlashishi kuchayib bormoqda va bu holat kishilardan industrializatsiya ko'nikmalariga tobora kengroq ega bo'lishalarini talab qilmoqda.<sup>5</sup>

Kastalar tizimida maqom inson tug'ilganda belgilanadi va umrbod amal qiladi; sotsiologik nazariya bo'yicha tavsiflaydigan bo'lsak, kastalar tizimi zamirida amr etish yo'li bilan belgilangan maqom yotadi. Erishilgan maqom individning mazkur tizimdagi o'rnini o'zgartirishga qodir emas. Tug'ilishga ko'ra past maqomli guruhga mansub bo'lgan odamlar har doim hayotda ular Shaxsan nimaga erishishga muvaffaq bo'lganidan qat'i nazar, ayni shu maqomga ega bo'ladi.

Stratifikatsiyaning mazkur Shakli xos bo'lgan jamiyatlar kastalar o'rtasidagi Chegarani daxlsiz saqlashga harakat qiladi. Shu sababli bu erda endogamiya, ya'ni o'z guruhi doirasidagi nikohlar amal qiladi va guruhlar o'rtasida nikohlar taqiqlanadi. Kastalar o'rtasida aloqalarga yo'l qo'ymaslik uchun bunday jamiyatlar kastaning tozaligini ta'minlashga qaratilgan murakkab qoidalarni ishlab chiqadi. Bu qoidalarga ko'ra, quyi kastalarning vakillari bilan aloqa qilish yuqori kastaning tahqirlanishiga sabab bo'ladi.

YUqorida ta'kidlab o'tilganidek, Hindiston jamiyati kastalar tizimiga yorqin misol bo'lishi mumkin. Irqiy tamoyillarga emas, balki diniy tamoyillarga asoslangan mazkur tizim mamlakatda qariyb uch ming yil mobaynida amal qilgan. Hindlarning to'rt asosiy kastasi yoki varnalar minglab ixtisoslashgan kichik kastalar (jatilar)ga bo'linadi. Bunda har bir kasta va har bir jati vakillari muayyan kasb-kor bilan Shug'ullanadi.

<sup>5</sup>Diana Kendall. Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. R.204

Klanlar tizimi agrar jamiyatlarga xos. Bunday tizimda har bir individ qonqarindoshlikning ko'plab sotsial aloqalari - klanlar bilan bog'langan. Klan o'ta tarmoqlangan oilani o'zida ifodalaydi va o'xshash jihatlariga egalik bilan tavsiflanadi: agar klan yuksak maqomga ega bo'lsa, mazkur klanga mansub individ ham Shunday maqomga ega bo'ladi; klanga qarashli barcha mablag'lar – ular xoh qash Shoq, xoh boy bo'lsin, teng darajada klanning har bir a'zosiga qarashli bo'ladi; klanga sodiqlik uning har bir a'zosining umrbod majburiyati hisoblanadi.

Klanlar kastalarni ham eslatadi: klanga mansublik eng avvalo tug'ilishga ko'ra belgilanadi va umrbod amal qiladi. Biroq kastalardan farqli ravishda, mazkur tizimda turli klanlar o'rtasida nikohlarga yo'l qo'yiladi; ulardan hatto klanlar o'rtasida ittifoqlar tuzish yoki mavjud ittifoqlarni mustahkamlash uchun foydalanilishi ham mumkin, Chunki nikoh natijasida er-xotinning qarindoshlariga yuklanadigan majburiyatlar ikki klan a'zolarini birlashtirishga qodir.

Industrializatsiya va urbanizatsiya jarayonlari klanlarni nisbatan o'zgaruvchan guruhlariga aylantiradi va oxir-oqibat klanlar o'rnini sotsial sinflar egallashiga olib keladi.

Qullikka, kastalar va klanlarga asoslangan stratifikatsiya tizimlari yopiq hisoblanadi. Odamlarni bir-biridan ajratuvchi chegaralar Shu darajada aniq va qat'iyki, odamlarga bir guruhdan boshqa guruhga o'tish uchun imkoniyat qoldirmaydi. Turli klanlarning a'zolari o'rtasidagi nikohlar bundan mustasno. Sinfy tizim ancha ochiq, Chunki u birinchi navbatda pul yoki moddiy mulkka asoslanadi. Sinfga mansublik ham tug'ilganda belgilanadi – individ o'z ota-onasining maqomini oladi, biroq individning sotsial sinfi uning umri mobaynida u hayotda nimaga erishganiga (yoki erisha olmaganiga) qarab o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari, individning mashg'uloti yoki kasb-korini tug'ilishga ko'ra belgilaydigan yoki boshqa sotsial sinflarning vakillari bilan nikohga kirishni taqiqlaydigan qonunlar mavjud emas.

Stratifikatsiyaning sinf tizimi mulkka va resurslarga egalik sifatleri bilan belgilanadi. Nazariy jihatdan qaraganda sinf tizimi kasta tizimiga solishtirganda aniq ochiqlik kasb etadi. Chunki sinflar o'rtasidagi chegaralar kastachalik qat'iy emas. Sinf tizimida statusga erishish sinfga mansublikka yo'l ochib beradi. Va bunda belgilangan status asosiy rolni o'ynamaydi. Sinf tizimi ota-onalar statusiga to'liq bog'liq bo'lmaydi. Vaholanki, ular past yoki yuqori sinfga taalluqli bo'lgan bo'lsalar-da.<sup>6</sup>

O'n to'qqizinchi yil G'arbiy Yevropada sinf tushunchalariga nisbatan turdimuman tyondashuvlar paydo bo'ldi. Jumladan, nemis iqtisodchisi K.Marks fikricha g'arb jamiyatida asosan ikki sinf: kapitalistlar va ishchilar mavjud. Kapitalist bu – fabrikalar va shaxtalar uchun zaouo bo'lgan mehnat vositalari, er va kapital egasidir. Ishchilar sinfi esa ushbu mulkka ega bo'lganlarga o'z ishchi kuchini faqat kun ko'rish uchun sotadiganlardir. Bu sinflar o'rtasida notenglik va ekspluatatsiya paydo bo'ladi. Kapitalist foyda olish uchun ishchilarni toboro ko'proq ishlab, yana ko'p boylik to'plashga intiladi. Bunda ishga to'lanadigan haq juda minimal darajada bo'ladi.

---

<sup>6</sup>Diana Kendall. Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. R.205



Albatta, K.Marksning yuqorida keltirilgan g'oyalariga qarshi alternatf yondashuvlar ham mavjud. Ayniqsa, uning millatdoshi va zamondoshi M.Veber bu masalada o'zining bir qator ilg'or fikrlarini tavsiya etgan. Xususan, M.Veber idividualizm, byurokratik, korporativlikka asoslangan kapitalizmdagi o'zgarishlarni xis qildi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Veber kapitalizmning o'zgarib borayotganini Marksga qaraganda kengroq tahlil qildi. Albatta, Veber Marksning iqtisodiy omil haqidagi qarashlarini inkor etmadi. Lekin u jamiyatlarni sinflarga ajralishida faqat iqtisodiy omil bilan chegaralanib qolishni yoqlamadi.<sup>7</sup>

Binobarin, mazkur sotsialstratifikatsiya tizimi asosan o'z Chegarasining o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligi bilan tavsiflanadi. Sinfiy tizim sotsial harakatchanlik, ya'ni ijtimoiy zinapoyadan yuqoriga ko'tarilish yoki pastga tu Shish uchun imkoniyatlar qoldiradi. O'z sotsial mavqei yoki mansublik sinfini yuksaltirish uchun imkoniyatlarning mavjudligi – odamlarni yaxshi o'qishga va tirishqoqlik bilan mehnat qilishga rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri. Albatta, inson tug'alganda unga meros bo'lib o'tadigan oilaviy holat mutlaqo noqulay Shart-sharoitlarni belgilashi va ular insonga hayotda yuksak mavqega erishish va o'z farzandiga shunday imtiyozlarni ta'minlash uchun imkoniyat qoldirmasligi ham mumkin.

Har qanday jamiyatda jinsiy belgi sotsial stratifikatsiyaning negizini tashkil etadi. Birorta ham jamiyatda jins sotsial tabaqalanishni belgilaydigan birdan-bir tamoyil hisoblanmaydi. Lekin, shunga qaramay, uhar qanday sotsialstratifikatsiya tizimi (qullik, kastalar, klanlar, sinflar)ga xos. Jinsiy belgiga ko'ra har qanday jamiyat a'zolari toifalarga bo'linadi va jamiyat ularga taklif qilishi mumkin bo'lgan boylıklardan foydalanish uchun teng bo'lmagan imkoniyatlarni qo'lga kiritadi. O'z-o'zidan ravShanki, bunday ajratish har doim erkaklar foydasiga amalga oshiriladi.

Sotsial stratifikatsiya sotsiologiya fanining keng qamrovli va dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Jamiyat mavjud ekan, jamiyatdagi kishilar harakatda bo'ladi va mana shu harakatlari natijasida ma'lum bir statusga, maqomga ega bo'ladilar. Jamiyat taraqqiyotida kishilar har qaysi makon va zamonda bir xil statusga ega bo'lmaganlar. Chunki, jamiyatda doimiy tengsizlik mavjud bo'lib, bu kishilarning hatti harakatlari bilan uzviy bog'liq hodisadir. Kishilarning xatti-harakatlari, intilishlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, istedodi, bilim va ko'nikmalari, moddiy va ma'naviy imkoniyatlari ularni ma'lum bir pozitsiyadan boshqa bir pozitsiyaga o'tishlariga imkoniyat yaratib bergan. Ushbu jarayonlarni ilmiy o'rganish, tahlil qilish, hozirgi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

1989 yilda vatanimizning mustaqillikka erishishi arafasida O'zbekistonda dastlabki sotsiologiya kafedrasining Toshkent Davlat Universitetida (hozirgi O'zMU) ochilishi bugungi kunda ushbu sohaning rivojlanishi, jamiyatdagi sotsial muammolarni ilmiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sotsiologlar tomonidan ko'plab mavzular, muammolar ilmiy jihatdan o'rganildi va buning uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan Shart-sharoit, imkoniyatlar keng

---

<sup>7</sup>Diana Kendall. Sociology in Our Times: The Essentials, Tenth Edition. R.207

qamrovlidir. Jumladan, ijtimoiy muammolarni, sotsial stratifikatsiya jarayonlarini ilmiy o'rganish imkoniyatini berdi.

Shu o'rinda sotsiologiya fanining tarixiga e'tibor qaratsak. Sotsiologiya fan sifatida G'arbiy Yevropada vujudga kelgan bo'lsada, hozirgi kunda er yuzi jamiyatining barcha hududlarida rivojlanib taraqqiy etib bormoqda. Bu fanning rivojlanishiga O.Kont, R.Merton, M.Veber, E.Dyurkgeym, E.Giddens, G.Spenser, Ch.Kuli, M. Sherif, T.Parsons, F.Znanetskiylar o'z xissalarini qo'shgan bo'lsalar, sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, YUsuf Hos Hojib, A.Navoiy, Ibn sino, Imom G'azzoliy, Abdulqodir Bedil, Ibn Xaldunlarning sotsial qarashlari sharqda ijtimoiy fikrlar rivojida asosiy kontseptsiya vazifasini o'tadi.

Jumladan, taxminan XI-asr boshlarida yashab ijod etgan YUsuf Hos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida davlatni idora qilish usuli, qonun-qoidalari, siyosati va mafkurasini, turli ijtimoiy guruh va tabaqalarning mavqei va munosabatlari, ahloq va odoblarini ifoda etuvchi holatlarni yoritib, o' Sha davr uchun ahamiyatli bo'lgan nizomnomani ishlab chiqdi hamda ushbu asarda ijtimoiy tengsizlik muammosini tahlil qilishga urindi. Asarda hokim tabaqa vakillari kambag'allarga nisbatan mehr-Shafqatli, insof-adolatli, tob'elar esa hokimlarga sadoqatli bo'lishi zarurligi, birdamlik o'rnatilishi kerakligi uqtiriladi. Asardagi ko'tarilgan ushbu masallardan Shuni aniqlash mumkinki, o' Sha davrda ham jamiyatda qatlamlar mavjud bo'lgan.

A.Navoiy esa ijtimoiy hayot to'g'risida, turli ijtimoiy tabaqalarning feodal jamiyatda tutgan o'rni va vazifalari to'g'risida "Mahbubul-qulub" nasriy asarida so'z yuritadi. A.Navoiyning fikricha, jamiyat barqarorligida ijtimoiy tabaqalarning o'z vazifalarini to'g'ri, halol bajarishlari katta ahamiyatga ega. Inson hayotini o'zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo'lgan ishga bag'ishlashi kerak.

Mirzo Abdulqodir Bedilning ham sotsiologik qarashlari boy bo'lib, u tilanchi, ta'magir, tekinxo'rlarni, ya'ni boqimandalik va tanballikni qoralab, kishilarning mehnatsevar, harakatchan bo'lishlarini qo'llab quvvatlaydi [3,18]. Demak, sharq va g'arb mutafakkirlari jamiyatda tengsizlik mavjud ekanligini, kishilarning harakatchanligi nechog'lik ahamiyatliligini hamda ushbu hodisalarni ilmiy o'rganish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu mavzuni keng qamrovli tarzda tadqiq etgan taniqli sotsiolog Pitirim Aleksandrovich Sorokindir.

P.A.Sorokin (1889-1969) yirik olim va jamoat arbobi sifatida Rossiyada sotsiologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. 1920 yilda P.A.Sorokinning "Sotsiologiya asoslari" asari Chop etildi. G'arb sotsiologiyasida jamiyatning ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikatsiya tushunchasi asosida o'rganiladi. Stratifikatsiya lotincha "strato", "qatlam" degan ma'noni anglatib, g'arb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri va maxsus sohasi hisoblanadi. Jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtimoiy tabaqalarga, guruhlariga ajratilganini va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifodlaydi.

Sotsial stratifikatsiya nazariyasi marksizm sotsiologiyasining sinflar va sinfiy kurash nazariyasiga zid bo'lib, jamiyatning sinflarga bo'linishi sababi mulkiy munosabatlarda ekanligiga tabiiy-tarixiy qonuniyat sifatida qaraydi. Bu sinflarni ijtimoiy qatlamlar va guruhlarni ma'lumoti, psixologik jihatlari, turmush Sharoiti, ijtimoiy bandlik, daromadi va shu kabi xususiyatlari bilan farqlaydi. Sotsial stratifikatsiya nazariyasi dastlab E.Dyurkgeym, G.Spenser,

P.Sorokinlarning ilmiy faoliyatlari natijasida shakllanib rivojlandi. E.Dyurkgeym o'zining "Ijtimoiy mehnat taqsimoti" (1893) asarida quyidagi fikrni bildiradi: "o'z-o'zidan, tabiiy kuch asosida kishilar layoqatiga ko'ra farq qiladilar. Boshqacha bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, har bir individning layoqati va ularning holati o'rtasida uyg'unlik tarkib topadi".

Sotsial stratifikatsiya nazariyasi amerikalik sotsiolog T.Parsons tomonidan yanada rivojlantirilgan. "Stratifikatsiya, - deb yozadi T.Parsons ijtimoiy tizim tarkibiy ziddiyatning asosiy yuzaga keltiruvchisi".

Sotsial stratifikatsiya nazariyasini rivojlantirgan P.A.Sorokin sotsial mobillik mavzusiga ham o'z e'tiborini qaratadi. Olim "Inson. Taraqqiyot. Jamiyat" asarining alohida bobida sotsial stratifikatsiya mavzusini yoritib berdi.

P.A.Sorokin yuqoridagi asarida ushbu mavzuga tegishli geometrik makon va ijtimoiy makon, ijtimoiy stratifikatsiya, ijtimoiy stratifikatsiyaning asosiy Shakllari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, kasbiy stratifikatsiyalar, ijtimoiy mobillik kontseptsiyasi va shakllari haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlarni keltirgan. U ushbu asarida geometrik makon va ijtimoiy makonni bir biriga taqqoslaydi. "YUqori va quyi sinflar, ijtimoiy pog'onada ko'tarilish, "N.N" sotsial pog'onada muvaffaqiyatli ko'tarilmoqda, uning ijtimoiy mavqei yuqori darajada, yirik ijtimoiy masofa mavjud" kabi tushunchalar bilan kundalik hayotda ham, iqtisodiy, siyosiy va sotsiologik tadqiqotlarda ham to'qnash kelamiz". deb ta'kidlaydi olim. Biz kundalik hayotda kimningdir yuqori marralarga erishgani haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Bu kabi tushunchalar ijtimoiy makon tushunchasining mavjudligidan darak beradi. XVII asrning yirik mutafakkirlaridan bo'lgan Dekart, Gobbs, Leybnits, Vaygeldan keyin faqatgina F.Rattsel, G.Zimmel, E.Dyurkgeym, R.Park, E.Bogardus" ijtimoiy makon muammosiga va u bilan bog'liq boshqa masalalarga o'z e'tiborlarini qaratishgan.

Mazkur tadqiqotlarning predmetini ijtimoiy mobillik (safariylik, harakatchanlik), ya'ni individning ijtimoiy makon ichidagi harakati tashkil etadi. Shu o'rinda Pitirim sorokin quyidagi fikrni bildiradi. Ijtimoiy makon va uning omillari mohiyatini yoritish maqsadga muvofiqdir. Olim geometrik makon bilan ijtimoiy makonni bir-biriga taqqoslab quyidagi misollarni keltiradi:

Birinchidan, ijtimoiy makon geometrik makondan tubdan farq qiladi. Geometrik makonda bir-biriga yaqin bo'lgan insonlar (m-n, qirol va uning xizmatkori) ijtimoiy makonda yirik masofa bilan ajralgan bo'lishi mumkin va aksincha, geometrik makonda bir-biridan uzoq bo'lgan insonlar (m-n, biri Amerikada boshqasi esa Xitoyda xizmat qilayotgan ikki general) ijtimoiy jihatdan juda yaqin bo'lishi mumkin. Inson o'zining ijtimoiy mavqeini o'zgartirmagan holda geometrik makonda minglab kilometrni bosib o'tishi mumkin, va aksincha, o' Sha geometrik makonda qolib o'zining ijtimoiy holatini keskin ravishda o'zgartirishi ham mumkin.

YUqorida keltirilgan fikrlar ijtimoiy va geometrik makon bir-biridan keskin farq qilishini ko'rsatadi. Geometrik makonni odatda ko'plab jismlar joylashgan qandaydir koinot sifatida tasavvur qilamiz. Shu ma'noda ijtimoiy makon ham er yuzi aholisidan tashkil topgan koinotdir. Insonlar istiqomat qilmaydigan yoki bitta

inson yashaydigan joyda ijtimoiy makon mavjud bo'lmaydi, Chunki bir kishi hech kim bilan munosabatga kirishmaydi. U ijtimoiy makonda emas, balki faqatgina geometrik makonda mavjud bo'ladi.

Insonning ijtimoiy holatini aniqlash uchun uning oilaviy ahvoli, fuqaroligi, millati, dinga munosabati, kasbi, siyosiy partiyalarga mansubligi, iqtisodiy mavqei, kelib chiqishini bilish zarur. Ammo, bular ham etarli emas. Chunki, bir xildagi guruhlar ichida ham turli xil pozitsiyalar mavjud (m-n, bir davlatdagi qirol va oddiy fuqaro). Demak, individning jamiyatdagi har bir asosiy guruhlardagi o'rnini ham bilish lozim. Doim ham bizni insonning bo'yi, sochlarining rangi, temperamenti to'g'risidagi axborot bilan ta'minlamaydi. Bularning barchasi biolog yoki psixolog uchun ahamiyatlidir, lekin sotsiolog uchun katta ahamiyatga ega emas, deb ta'kidlaydi.

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: 1) ijtimoiy makon – bu er yuzi aholisi; 2) ijtimoiy holat – bu individning jamiyatdagi guruhlar va ularning a'zolari bilan aloqalari majmuidir; 3) insonning sotsial koinotdagi o'rnini mazkur aloqalarni o'rnatish yo'li bilan belgilanadi; 4) bunday guruhlar hamda ularning har biridagi holatlar yig'indisi har qanday individning ijtimoiy o'rnini aniqlashga ko'maklashadigan sotsial koordinatlar tizimini tashkil etadi.

Bir xil ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lgan va ushbu guruhlarning har birida o'xshash vazifalarni bajaradigan kishilar bir xil ijtimoiy o'ringa (holatga) ega. Bu jihatdan farqlanadigan insonlar esa turli xil ijtimoiy holatga mansubdirlar. Kishilarning ijtimoiy holatida qanchalik o'xshashliklar ko'p bo'lsa, shunchalik ular ijtimoiy makonda ham bir-biriga yaqin bo'ladilar.

P.A.Sorokin ijtimoiy stratifikatsiyaning uchta asosiy Shaklini ko'rsatib o'tadi: iqtisodiy, siyosiy va kasbiy stratifikatsiya. Odatda, ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Qaysidir jihatdan yuqori qatlamga mansub bo'lgan insonlar, odatda boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ham ushbu qatlamga mansub bo'ladi va aksincha. YUqori iqtisodiy qatlam vakillari bir vaqtning o'zida oliy siyosiy-kasbiy qatlamlarga ham mansub bo'lishi mumkin. Masalan, boylar doim ham siyosiy va kasbiy ierarxiya cho'qqisida bo'lmasligi, huddi shunday kambag'allar ham siyosiy va kasbiy ierarxiyaning quyi o'rinlarini egallamasligi mumkinligini ta'kidlaydi.

P.A.Sorokin har qanday uyu Shgan ijtimoiy guruh doim ijtimoiy jihatdan tabaqalashgandir. "Tekis" va barcha a'zolari teng bo'lgan doimiy ijtimoiy guruh mavjud bo'lmagan va bo'lmaydi degan xulosani beradi. Real tenglikka asoslangan tabaqalashmagan jamiyat bu, insoniyat tarixi davomida haqiqatga aylanmagan afsonadir. Tabaqalashuv Shakllari turli xil bo'lishi mumkin, lekin mohiyati o'zgarmasdir. Bu nafaqat insonlar jamiyati uchun, balki o'simlik va hayvonot dunyosi uchun ham xosligini aytadi. Olim quyidagi misollari orqali har qanday jamiyatda tabaqalashuv mavjudligini ko'rsatadi.

**O'simlik va hayvonot dunyosi.** Agarda ijtimoiy sotsiologiya tushunchalarini hayvonot va o'simlik dunyosini talqin etishda qo'llash mumkin bo'lsa, bu erda ham ijtimoiy tabaqalanishning mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, o'simlik dunyosida ham turli xil "ijtimoiy" sinflar, hukmronlik va tobelik munosabatlari, "iqtisodiy" jihatdan turlicha hayot darajalari (havo, namlik, quyosh

nurining miqdori, erning unumdorligi darajasi bo'yicha) mavjud. Bu kabi hodisalar o'simlik dunyosi ham mutloq "tenglar jamoasi" emasligidan darak beradi.

Hayvonot dunyosida ijtimoiy tabaqalanish quyidagilarda o'z ifodasini topadi: a) asalarilar, Chumolilar va boshqa xasharlarda turli xil qat'iy sinflarning mavjudligi; b) sut emizuvchilar to' dasida yo'l boshlovchining mavjudligi; v) ekspluatatsiya, tobelik, hukmronlik va h.k. holatlarning mavjudligi. Demak, hayvonot dunyosida ham tabaqalashuv holati kuzatiladi. Demak, sorokinnig bu fikrlaridan Shuni anglash mumkinki tabaqalashuv har qanday jamiyatda mavjud bo'lib, bu kishilar hayoti uchun albatta zarar keltirmaydi.

P.Sorokin fikriga ko'ra, jismoniy mehnat vakillari aqliy mehnat egalaridan ko'ra mehnat haqi kam to'lanadigan, oz imtiyozlarga va zaif ta'sirga ega bo'lgan guruhdir. Bu holat jismoniy mehnat bilan Shug'ullanuvchilarning intellektual kasblarga intilishida namoyon bo'ladi. Aqliy va jismoniy kasblarning bu umumiy ierarxiyasi professor F.Toussig klassifikatsiyasida aks etgan (1-jadval).

### Intellekt indekslari

1-jadval

Intellekt indekslari	Kasb
0 dan 4.29 gacha	Yollanma ishchilar, kundalik mamashg'ulotlar, dehqonlar mehnati va h.k
5.41 dan 6.93 gacha	Haydovchi, sartarosh, tarqatuvchi va h.k.
7.05 dan 10.83 gacha	Keng miqyosdagi ta'mirlovchi, oshpaz, fermer, posbon, quruvchi, kulol va h.k.
10.86 dan 16.28 gacha	Detektiv, transport kompaniya xodimi, prorab, muxbir, o'rta maktab o'qituvchisi, muhandis, artist, arxitektor va h.k.
16.58 dan 17.50 gacha	Ulgurji savdogar, ta'lim tizimi ma'muri, shifokor, jurnalist, nashriyotchi va h.k.
17.81 dan 17.50	Universitet professori, buyuk musiqachi, rasmiy insonlar, mashhur tadqiqotchi va h.k.

Jadvaldagi ma'lumotga ko'ra qo'l mehnati, intellekt (zakovat) ning past darajasi hamda ijtimoiy uyu Shtirish va nazorat vazifalaridan begonalashuv kabi uch ko'rsatkichlar parallel va bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Boshqa tomondan, bunday holat aqliy mehnatga asoslangan kasblar orasida ham uchraydi. Har bir kasbiy guruh a'zolari uch qatlamga ajratiladi. Ularning dastlabkisi o'z faoliyatida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan hamda xodimlarni nazorat etadigan tadbirkorlardir. Direktorlar, menedjerlar, bosh muhandislar, korporatsiya direktorlari kengashi a'zolari va h.k. ikkinchi qatlam, ya'ni oliy kategoriya xizmatchilarini tashkil etadi. Ular bo'ysunadi, o'z xizmatini sotadi, tashkil etish va nazorat qilishda etakchi rol o'ynaydi, aqliy mehnat bilan Shug'ullanadi. So'nggi qatlam o'zining faoliyatida mustaqil bo'lmagan, jismoniy mehnat bilan Shug'ullanadigan, oliy kategoriya xizmatchilaridan kamroq mehnat haqi oladigan yollanma ishchilardir.

Hozirgi kunda har qanday demokratik jamiyat ham tabaqalashgandir, deb ta'kidlaydi sorokin.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati rivojlandi. Jamiyatda mulkdorlar sinfi shakllandi. Bu jamiyat hayotida o'rta qatlamni shakllantirishga bo'lgan harakatni bildiradi. Jamiyat tarkibida o'rta qatlamning ko'p salmoqli bo'lishi jamiyatni rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Sotsial sotsial stratifikatsiya nazariyasini asoslagan va tadbiq etgan P.A.Sorokinning ushbu nazariyalari barcha jamiyatlar uchun ahamiyatlidir. Jamiyatimiz hayotining barcha jabhalaridagi stratifikatsion qatlamlarni aniqlash va ilmiy o'rganish jamiyatimiz rivojlanishida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Sorokin P.A. Chelovek. TSivlizatsiya. Obshestvo. – M., 1992. – 540 s.
2. Dyurkgeym E. O razdlenii obshestvennogo truda. – M., 1991. – 350 s.
3. Xolbekov A., Idivov U. Sotsiologiya / Izohli lug'at-ma'lumotnoma – Toshkent: Ibn sino, 1999. – 166 s.

## 23-mavzu. SOTSIAL HARAKATCHANLIK

### REJA

1. Sotsial mobillik tushunchasining mazmuni va ularni turkumlash
2. Indivd sotsial mobilligiga turtki bo'luvchi omillar
3. Migratsiya sotsial mobillikning ommalashgan turi sifatida
4. O'zbekistonda migratsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari

**Tayanch so'zlar:** Sotsial mobillik, harakatchanlik; pastga harakat, gorizontal harakatchanlik, avlodlararo harakatchanlik, ichki tarmoq harakatchanlik, stratifikatsiya, tuzilmaviy harakatchanlik, vertikal harakatchanlik, immigratsiya, emigratsiya, yuqori malakali migratsiya, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, nomuntazam migratsiya, teskari miratsiya, mayatnikli migratsiya.

Sotsiologiyada sotsial harakatchanlik ijtimoiy maqomdagi o'zgarishlar yoki ularning yo'qligini asoslab, tushuntirib beradi. Ijtimoiy sinf bilan tashkil topgan jamiyatlarda odatda, kattaroq sotsial harakatchanlik kuzatiladi. Tabaqalik (kasta) jamiyatida bunday hodisalar bo'lmaydi. Bunday jamiyatlarda yuksak ijtimoiy maqomga erishishga bo'lgan qobiliyat, layoqat ijtimoiy aloqa, boyluk, say'-harakat va ta'lim kabi omillarga bog'liq. Merokratiyalarda ijtimoiy maqom xizmatlarga bog'liq. Shu bois, sotsial harakatchanlik bu bitta ijtimoiy maqomdan boshqa, odatda yuqori yoki quyi bo'lgan maqomga o'tish holatidir. Masalan, yollanma ishchining farzandi professor bo'lganida, sotsial harakatchanlikning yuksakroq darajasiga erishadi. Gender va irq esa, sotsial harakatchanlikning yuksalishini Cheklashi mumkin va ko'plab sotsiologlar fikricha, sotsial harakatchanlik katta darajada ijtimoiy tuzilmalarga bog'liq, bular qatoriga insonlarni turli guruhlariga taklif qilingan imkoniyatlar kiradi, individual say'-harakatlar bularga mansub emas.

Harakatchanlik, mobillik bu o'zgarish harakatini anglatadi. O'zgarish bitta holatdan boshqa holatga o'tishda ham kuzatiladi. O'zgarishni baholash qiyin, ya'ni yaxshimi yoki yomonmi buni aytish qiyin. Qachonki, bu mobillik yoniga ijtimoiy tavsifni bersak, bu "ijtimoiy" holatni egallagan insonlar yoki indivd boshqa lavozim yoki maqomga o'tishini anglatadi.

Ijtimoiy pillapoyada bu harakat yuqoriga chiquvchi yoki quyiga tu Shuvchi bo'lishi mumkin, u avlodlararo yoki avlod ichida kuzatiladi. Qisqa qilib aytganda, sotsial harakatchanlik alohida inson yoki guruhni bitta holatdan boshqa holatga o'zgarishini anglatadi.

P.Sorokin o'zining "Ijtimoiy va madaniy mobillik" deb nomlangan kitobida sotsial mobillikni quyidagicha ta'riflaydi: "YOpiq jamiyat yo'q (Hindistondagi tabaqa tizimi) hamda to'liq ochiq bo'lgan jamiyat ham yo'qdir (sinflar tizimi). Keyinchalik u ikki jamiyatdan biron biri ham imkoniyatli bo'lgan yoki imkoniyatsiz bo'lgan rag'batlantiriladigan yoki rag'batlantirilmaydigan harakatlarning bir xil soni bilan farqlanmaydi. Bundan tashqari, harakat tezligi yoki o'zgarishlar vaqtning bir davridan nisbatan boshqasiga o'zgarishi mumkin. O'zgarish tezligi mazkur jamiyatning modernizatsiyalashuv darajasiga bog'liq".

Sotsial mobillikni zamonda kechayotgan jarayon sifatida tushunish lozim. Bunda individlar ijtimoiy sinfdagi bitta rol va holatdan ijtimoiy o'zaro ta'sirning xilma-xil turlarida ular bilan bo'lgan narsa tufayli o'tadilar. Harakatchanlik ijtimoiy o'zaro hamkorlikda, o'zaro ta'sirda vujudga keladi. Chunki har bir individ ijtimoiy rollarning o'zgarayotgan ketma-ketligi va izchilligida boshqalarga ta'sir qiladi va o'zi ham ta'sir ostida bo'ladi<sup>1</sup>.

Bu borada harakatchanlik "insonga jamiyat yoki iqtisod taklif qiladigandan ko'ra, ko'proq yoki kamroq ustuvorliklar beradi". Rik Shaning o'g'li huquq Shunos, klerkning o'g'li shifokor har bir holatda ota va o'g'il o'rtasidagi rolning o'zgarishi o'g'ilga hayotda ko'proq farovonlik beradi.

Advokat, shifokor va muhandisning roli tashabbus, o'qish va o'zini o'zi qurbon qilishni talab qiladi. Insonlar yangi rollar ustida ishlash uchun omillarning murakkab xilma-xilligiga, ularning yuqoriroq maqomi va kattaroq mukofotlariga muvofiq asoslanadilar. Hayotdagi imtiyozlar Cheklangan va insonlar boshqalar bilan raqobatbardosh bo'lishlari, to'qnashishlari va hamkorlik qilib ularni olishga muvaffaq bo'ladilar.

Bizning fikrimizcha, sotsial harakatchanlik salbiydan ko'ra, ijobiy qadriyatdir. Sotsial harakatchanlik bo'lgan yopiq jamiyat insonni muvaffaqiyatsiz raqobatning mag'lubiyatidan himoyalaydi. Bu jamiyat imkoniyatsiz bo'lgan umidlarni rag'batlantirmaydi, bundan tashqari, u insonni tahqirlanishdan himoyalaydi.

Harakatchan individuum muntazam, doimiy tarzda yangi sinf, yangi me'yor, yangi qadriyatlarning ijtimoiy notanish bo'lgan vaziyatiga moslashishi lozim. Yopiq jamiyat a'zosi o'z hayotini o'ziga tanish bo'lgan muhitida o'tkazadi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, harakatchanlik darajasi yuqori bo'lgan jamiyat bahtni kafolatlab bermaydi<sup>2</sup>.

Boshqa tomondan, harakatchanligi kam bo'lgan yopiq jamiyat jahonda etakchi bo'la olmaydi. Irsiyat qobiliyatli va dono otaning o'g'li ham xuddi shunday bo'lishini kafolatlamaydi. Quyi qatlamga mansub iste'dodli insonlarga yuqori lavozimlarni egallash imkoniyatini bermaydigan jamiyatni umri ham qisqadir.

Harakatchanlik turli ma'nolarda o'rganilishi mumkin, jumladan:

A) Maqomi keyingi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kasbning o'zgarishi.

B) Bitta kasbiy guruh doirasida tashviqot.

C) Muayyan kasb doirasida stajni to'planishi.

D) Mashg'ulotlar turini bitta avloddan boshqaga, ya'ni otadan o'g'ilga o'tish mobaynida o'zgarishi.

Harakatchanlik turlari:

Individ yoki sotsial guruh ijtimoiy holatining o'zgarishi turli shakllarga egadir. Zamonning qandaydir davrida harakatchanlikning bir turi bo'lsa, boshqa davrda boshqa turi keng tarqalgan bo'lishi mumkin. Keyingi turlarning har biri istisno emasdir, ammo ular kesishishi mumkin va qulaylik hamda tahlil uchun ularga quyidagi turli belgilar beriladi.

<sup>1</sup> Bobrov M.YA. Zakoni sotsiologii i istorii v proizvodstve jizni sotsiosferi. - M., 2010. – 224 s.

<sup>2</sup> Kincharova A.V. Metodologicheskie problemi i podxodi k analizu sotsialnoy mobilnosti. – Samarkand: Vestnik SamGU, 2008. - №3.



1. Gorizental mobillik: Sotsial harakatchanlikning bunday turida inson o'z mashg'ulotini o'zgartiradi, ammo umumiy ijtimoiy maqomi o'zgarmas bo'lib qoladi. Ba'zi kasblar esa, masalan, shifokor, muhandis va professor bir xil maqomga ega. Ammo muhandis muhandislik kasbini o'qituvchilik kasbiga o'zgartirsa, u bitta toifali kasbdan gorizental tarzda boshqasiga o'tadi. Ammo ijtimoiy stratifikatsiya tizimida hech qanday o'zgarishlar bo'lmadi.

Boshqacha so'zlar bilan aytganda, gorizental harakatchanlik alohida ijtimoiy ob'ektni bitta darajada bo'lgan bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga o'tishidir.

Gorizental harakatchanlikni tushuntirgan holda biz asosan, insonlarni nufuzi bir xil bo'lgan yoki nufuzi biroz baland yoki past bo'lgan bitta istehkomdan boshqasiga harakatini tushunamiz.

P.Sorokinning ta'kidlashicha, "gorizental harakatchanlik kishining hududiy, diniy, siyosiy partiyalar, oila, kasbiy va boshqa gorizental o'zgarishlariga mansub bo'lib, bunday o'zgarish vertikal holatda sezilarsiz kechadi". G'arb jamiyatlarida XIX asrning 2 yarmidan boshlab, alohida shaxslarning hududiy almashinuvining ko'payishi gorizental harakatchanlikdan dalolat beradi.

Individuumlar endilikda tug'ilish joyiga mansub emasdir. Individlar bir joydan boshqa joyga nufuzi bir xil bo'lgan ishni izlab ko'chishlari mumkin. Ko'chishning zamonaviy vositalari insonlarning hududiy jihatdan ko'chib o'tishini kattaroq miqyosiga olib keldi.

Hududiy harakatchanlikning yana bir boshqa ifodasi sorokinning fikricha, ijtimoiy buyum va qadriyatlarni yanada keng tarqalishidir. Bular gazeta yangiliklari, avtomobil asbob-uskunalari, tug'ilish ustidan nazorat yoki pulga tegishli. Bunda ijtimoiy buyum bitta sinfga mansub bo'lgan insonlar tomonidan mamlakat yoki hududiy chegaradan qat'iy ravishda qo'llanilsa, bu gorizental mobillikning ifodasidir.

Bunga qo'shimcha tarzda odamlarni bitta bo' Sh ish joyidan (masalan, zavod yoki fabrika, yoxud kasbidan yoki shunga o'xshash joyga) ko'chishi gorizental tsirkulyatsiya sanaladi. Ammo bu erda vertikal yo'nalishda sezilarli o'zgarishlari bo'lmasligi lozim. Shunday qilib, bu turlari kasbiy aylanma ichida bo'ladi yoki ishchi kuchning o'zgarishi nafaqat vertikal, balki kasbiy harakatchanlikning ichidagi gorizentalga mansub.

Bundan tashqari, sorokin zamonaviy G'arb jamiyatining hududiy, oilaviy, ichki kasbiy harakatchanligi intensiv bo'lganligi sabab, u bitta davlatdan boshqa davlatga, bitta diniy guruhdan boshqaga, bitta siyosiy partiyadan boshqa partiyaga va umuman, bitta mafkuraviy guruhdan boshqa mafkuraviy guruhga insonlarni gorizental ko'chishi bilan kuzatilishi kutilayotganligini ta'kidlab o'tadi.

2. Vertikal harakatchanlik: Vertikal harakatchanlik inson yoki ijtimoiy guruhining kasbiy, iqtisodiy yoki siyosiy maqomidagi har qanday o'zgarishlarga mansub bo'lib, ularning holatini o'zgarishiga olib keladi. Sorokin ta'kidlashicha, vertikal sotsial harakatchanlik deganda, individ yoki ijtimoiy ob'ektni bitta ijtimoiy qatlamdan boshqa qatlamga o'tishi tushuniladi.

O'tish yo'nalishiga muvofiq vertikal sotsial harakatchanlikning yuksaluvchi va pastlovchi yoki ijtimoiy yuksalish va ijtimoiy cho'kish turlari mavjud. O'z o'rnida, yuksaluvchi vertikal mobillikning ikki, ya'ni, quyi darajadagi individlarni

mavjud bo'lgan yuqori (oliy) jamiyatga kirishi va quyi darajadagi individlar guruhini mazkur qatlamning yuqoriroq qatlamiga o'tish yoki xuddi shunday qatlamni yaratish turi mavjud.

Soddaroq qilib aytganda, vertikal harakatchanlik sotsial harakatchanlikni ham yuqoriga, ham pastga o'zgarishini belgilaydi, harakatchanlikni yuksaluvchi yoki pasayuvchi turi sifatida belgilashi mumkin. Yirik tadbirkor o'z biznesida yo'qotishlarga duch kelsa va bankrot deb e'lon qilinsa, u quyi maqomni egallaydi. Boshqa tomondan, agarda yuqori kasbiy ko'nikma mablag'larning katta hajmiga ega bo'lgan mayda tadbirkor sanoatchi bo'lsa va katta tadbirkorga aylansa, u ijtimoiy zinapoyada yuqoriroq o'rinni egallaydi. Demak, uning holati ierarxik tartibda o'zgaradi.

Vertikal harakatchanlik ochiq jamiyatlarda nisbatan intensivdir, sorokin esa vertikal harakatchanlikning quyidagi umumiy tamoyillarini ko'rsatib o'tgan:

- qatlamlari to'liq, mutlaq yopiq yoki iqtisodiy, siyosiy va kasbiy, ya'ni 3 Shaklda vertikal harakatchanligi bo'lmagan jamiyat mavjud bo'lmagan bo'lsa kerak.

- vertikal sotsial harakatchanlikning mutlaq erkin hamda bitta ijtimoiy qatlamdan boshqa qatlamga o'tishida qarshilik qilmaydigan jamiyatlar mavjud bo'lmagan.

- intensivlik hamda vertikal sotsial harakatchanlikning umumiyliги jamiyatdan-jamiyatga qarab o'zgaradi va o'zaro farqlanadi.

- iqtisodiy, siyosiy va kasbiy vertikal harakatchanlikning intensivligi va umumiyliги bitta jamiyatda ham turlicha bo'ladi<sup>3</sup>.

3. Harakatchanlikni oshirish: Inson yoki insonlar guruhi pastki holatdan yuqori o'tganida bu hodisa Upward Mobility deb nomlanadi. Masalan, quyi tabaqaga mansub bo'lgan quyi ijtimoiy holatdagi shaxs, saylovlarda g'alaba erishgandan so'ng vazir bo'lib yuqoriroq mansabga erishadi. Balki u o'z tabaqasini o'zgartira olmaydi, ammo o'zining iqtisodiy va siyosiy kuchi bilan u yuqoriga harakatlanadi. Masalan, Hindistondagi yadavalar mazkur dalilning yorqin misolidir.

Jalb etilgan Shaxslar uchun harakatchanlikni oshishi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab ijtimoiy va ruhiy holatlar mavjud. Bularning ba'zilari ko'zga ko'rinib turadi. Chunki erkak va ayollar doimo "muvaffaqiyatga" intilganida orzulari barbod bo'ladi. YUksalish harakati jarayonida inson ko'plab inson va o'rinlarni ortda qoldirishi lozim. U o'zining avvalgi, dastlabki assotsiatsiyalarini tavsiflovchi tafakkur va hulq uslublarini ortda qoldirishi va imkon bo'lsa o'zining yangi maqomiga muvofiq bo'lgan tafakkur va hulqning yangi uslublariga o'rganishi lozim.

4. Quyiga qaratilgan harakatchanlik: Pastga harakat inson o'zining yuksak holatini yo'qotib, quyi holatni egallaganidan darak beradi. Misol tariqasida, muhandis bo'lib jamiyatda o'z ma'lumoti tufayli muvofiq o'rinni egallaydi.

Agarda uni pora olganligi, gunoh qilganligi yoki biron narsani noto'g'ri amalga oshirganligi sabab u Shlab olishsa, u qamoqqa mahkum etilishi mumkin. Oqibatda u o'zi mansub bo'lgan qatlam a'zolari tomonidan chiqarib tashlanishi

<sup>3</sup> Sorokin. «CHelovek. TSivilizatsiya. Obshestvo». (Seriya «Misliteli XX veka»). - M., 1992. - S. 302-373.

mumkin. Qatlamdan haydalgan Shaxs sifatida avvalgidan ko'ra quyi o'rinni egallaydi. An'anaviy hind ijtimoiy tizimiga muvofiq, braxmanlarning yuqori qatlamiga mansub ayol Shudra qatlamidan bo'lgan insonga turmushga chiqsa, nafaqat erkak va ayol braxmanlikdan chiqariladi, balki ularning farzandlari ham «kandallar» safiga kiritiladi.

Ijtimoiy maqomini keskin pasayishidan aziyat Chekkan insonlar uchun pastga harakat stressga sabab bo'ladi. Odatda, erkaklar tartibli va izchil mansabidan zavq olib, shaxsiy, oilaviy va jamoaviy hayotda barqaror o'rinni egallay. Buni amalga oshiraolmagan erkaklar Shaxsiyati beqarorligi bois sutsidga moyil bo'ladi.

Lipset va Zetterbergning fikricha, harakatchanlikning turi maqomlarni almashinuvi bilan bog'liqdir, ya'ni imkoniyatlar tengligini amalga oshirish davomidagi harakatchanlikdir.

5. Avlodlararo harakatchanlik: Harakatchanlikning ushbu turi muvofiq bitta avlod o'z ijtimoiy maqomini katta avloddan farqli ravishda o'zgartirishidir. Biroq, bu harakat yuqori yoki pastga yo'nalishi ham mumkin. Quyi qatlam yoki sinfga mansub insonlar o'z farzandlariga oliy ta'lim olish, kasbiy tayyorgarlik va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini taqdim eta oladi.

Bu ko'nikmalar yordamida yosh avlod yuqori sinf yoki tabaqada ish olishi imkoniyatiga ega bo'ladi. Hatto etikdo'z ota o'g'li ta'lim olgandan so'ng klerk, shifokor yoki muhandis bo'lishi yuqorilovchi avlodlararo harakatchanlik deb ataladi<sup>4</sup>.

Xuddi shu kabi Braxmanlar oilasi marosimlarga tayyorgarlik va bajarish kabi an'anaviy mashg'ulotlar bilan band bo'lishi mumkin. Ammo uning yosh avlodi kutilgandek aqlli bo'lmasligi, oilaviy an'anaga rioya qilmasligi mumkin. Ularning kasbini o'zgartirishi esa quyiga yo'naltirilgan avlodlararo harakatchanlikdan dalolat beradi.

Iqtisodiy holat yaxshilangani sari insonlar hayot tarzini o'zgartiradi. Ular eski tajribadan voz kechadi va ijtimoiy pillapoyada yuqori holatni egallaganlarning amaliyotini o'zlashtiradilar. Ikki yoki uch avloddan so'ng ularning ushbu amaliyoti tan olinadi.

Avlodlararo harakatchanlik uchun Shart-sharoitlar talab etiladi. Sorokinning ta'kidlashicha, avlodlar o'rtasidagi harakatning tezligiga quyidagilar ta'sir qiladi:

A) Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi tafovut: Agar otasi yoki onasi yuqori ishlab chiqarishni talab qilgan muhim o'rinni egallasa-da farzandlari layoqatsiz bo'lsa, ularda harakatchanlik sust bo'lishi aniq. Aksincha, bolalari ona-onasiga nisbatan layoqatli, qobiliyatliroq bo'lsa, ular jadal yuqoriga harakat qiladilar. Harakatchanlikning bu turi aksariyat ochiq jamiyatlarda kuzatiladi.

B) Aholi sonining o'zgarishi: Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholi sonini quyi darajada ko'payishi yuqori darajadan ko'ra, harakatchanlikning oshishiga ko'maklashadi. Aholining umumiy o'sishi yuqori va o'rta darajadagi yangi holatlarni yaratadi.

C) Kasbiy tuzilmadagi o'zgarishlar: Vaqt o'tgani sari ko'plab kasblar zamonaviylashtirildi. Chunki ularning ijtimoiy belgilangan xususiyati o'zgardi.

---

<sup>4</sup> Sotsialnaya mobilnost // Sredniy klass v sovremennoy Rossii / Otv. red. M.K. Gorshkov, N.E. Tixonova; - M.: Institut sotsiologii RAN, 2008. - S. 143-154.

O'z vazifalarini bajarishga tayyor va layoqatli bo'lganlar ish joyining yo'qligi sabab yuqoriga yoki pastroqqa tu Shdi. Kasbiy tuzilmadagi bunday o'zgarishlar avlodlar o'rtasidagi harakatchanlik darajasiga ta'sir qiladi.

Ichki tur harakatchanligi - harakatchanlikning bu turi bitta hayot o'rniga ega, buni 2 qismga bo'lish mumkin:

A). Bitta insonni hayoti davomida holatini o'zgarishi.

B). Bitta aka yoki ukaning holatini o'zgarishi, ammo boshqa akaning holati o'zgarmasligi<sup>5</sup>.

Inson klerk karerasini boshlashi mumkin. U Shunga munosib keng qamrovli va chuqur ta'lim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Vaqt o'tgani sari u ofitser yoki professor bo'lishi mumkin. Shunday qilib, u yuqoriga ko'tariladi va o'z karerasini boshlagan maqomdan ko'ra baland ijtimoiy maqomga erishadi.

Albatta, uning akasi ham o'z karerasini klerk sifatida boshladi. Ammo o'z hayotida yuqori mansablarga erishmadi va dastlabki holatda qoldi. Demak, bitta avlodda aka yoki ukadan biri maqomini o'zgartirgani, boshqasi esa o'zgartirmaganini ko'ramiz.

Kasbiy harakatchanlik boshqa kasbga o'tishni anglatadi. Bunda ierarxiya turlicha tashkillashtirilgan. Chunki mazkur lavozimlarni egallagan Shaxs turli iqtisodiy mukofotlarga ega bo'lib, turli hokimiyat darajasiga, nufuz va imtiyozlarga ega. bularning asosi iqtisodiy samaradorlik, obro'-e'tibor va hurmatdir.

Bu kasblar stratifikatsiyalashgan yoki ierarxik joylashtirilgan. Inson yoki shaxslar guruhi quyi nufuzdagi mashg'ulotlardan yuqori darajadagi kasblarga o'tsa, buni yuqorilovchi, yuksaluvchi oliy harakatchanlik deb ataladi. Xuddi shu kabi yuksak nufuzli kasbdagi individ yoki guruhlar quyi nufuzdagi mashg'ulotlarga o'tsalar, bu kasbiy harakatchanlik pastlovchi vertikal harakatchanlik deb ataladi. Qisqacha qilib aytganda, kasbiy harakatchanlik quyi nufuzdagi kasbni yuqoriga o'zgartirishi va aksincha ma'noni anglatadi.

Harakatchanlikning yuqorida qayd etilgan Shakllari yakuniy emas va harakatchanlikning akkretsion maqom kabi boshqa turlarini o'z ichiga qamrab olmaydi Aksincha, tabaqa tizimida makon harakatchanligi ham buning ichiga kirmaydi. Biroq, yuqorida keltirilgan Shakllar harakatchanlikning asosiy intilishlari, ya'ni tepaga yoki pastga, vertikal yoki gorizontal intilishlarni tushuntirib beradi. Harakatchanlikni vaqt kesimida o'rganish lozim.

Quyidagi global jarayonlar sotsial mobillikni avj olishiga turtki bo'ldi:

1. Sanoatlashuv: Sanoat inqilobi yangi ijtimoiy tizimni kashf etdi. Unda insonlar o'z qobiliyati va ma'lumotiga ko'ra maqomga ega bo'ldilar. Kasta, irq, din va etnik mansublik ahamiyatga ega bo'lmay qoldi. Qishloq aholisi sanoat Shaharlariga ko'chib o'tdilar. Ular yangi kasbiy ta'limga ega bo'lib, sanoatda o'z o'rinlarini egalladilar, tajriba orttirib ijtimoiy pillapoyadan ko'tarildilar va industrial jamiyatda yuqori maqomga erishdilar.

2. Urbanizatsiya: Katta shaharlarda insonlar bir-birini yaqindan tanimaydi. Shahar markazlari kishilarning anonimligi bilan farqlanadi. Insonlar faqatgina o'z

---

<sup>5</sup> "The Demographic Echo of War and Social Mobility in Russia", Gordey Yastrebov, Moscow. 2014. Sociology. 3. pp. 34-38.

do'stlari va qarindosh urug'lari bilan munosabatda bo'ladi. Bunday holatda insonning mavqei uning kelib chiqishiga emas, ko'p jihatdan ma'lumoti, kasbi va daromadiga bog'liq.

Oliy ma'lumotli inson ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar nufuzli lavozimni egallashi va baland maosh olishi hisobidan yuqori ijtimoiy maqomga ega bo'ladi. Shu ma'noda urbanizatsiya sotsial harakatchanlikka ko'maklashadi. Bunda sotsial harakatchanlikka to'sqinlik qiluvchi omillar bartaraf etiladi.

8. Qonunchilik: Yangi qonunlarning qabul qilinishi ham sotsial harakatchanlikka ko'maklashishi mumkin. Sud tizim ham ma'lum mulohazalarni ifoda qilgan holda ijtimoiy harakatchanlikka ko'maklashishi mumkin. Hindular nikohi haqidagi qonun ayollarning holatini mustahkamladi, xuddi shu tarzda hindularning meros haqidagi qonuni oila mulkida qizi uchun teng huquqlarni taqdim etadi. AQSHning irqiy diskriminatsiya bilan kurash haqidagi qonuni ham qora irq vakillari, ham ayollarning ijtimoiy harakatchanligiga ko'maklashdi.

9. Siyosatlashuv: Ta'lim va ommaviy vositalar bilan kengroq muloqot hamda keng aloqalar tufayli insonlar o'z huquqlaridan xabardor bo'ldilar. Siyosiy partiyalar ham insonlarni huquqlaridan xabardor qiladilar. O'z huquqlariga erishish uchun insonlar birlashadilar va hokimiyat va hukumatdan o'z talablarini qabul qilishga erishadilar.

Ovozlarga ega bo'lish uchun siyosiy partiyalar bir qator imtiyoz beradi. Mazkur yangi imtiyoz va xohishlar orqali ular o'z ijtimoiy maqomini yaxshilaydilar. Bir nechta inson davlatning siyosiy etakchisi, vaziri bo'lib qolishi mumkin.

10. Modernizatsiyalashuv: Modernizatsiyalashuv jarayoni bilim va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni nazarda tutadi. Bu ratsionallik va hayotning dunyoviy tarziga ham mansubdir. Shunday qilib, ular o'z holatlarini yuqoriroq holatga o'zgartiradilar. Mamlakatning rivojlanish darajasi ham sotsial harakatchanlikka ko'maklashadi yoki to'sqinlik qiladi.

Rivojlangan zamonaviy jamiyatlarda imkoniyat va raqobatning kengayishiga yo'l ochib beriladi. Faqatgina rivojlangan mamlakatlarda yuqori maqomlarga erishish ehtimoli mavjud. Boshqacha qilib aytganda, modernizatsiyalashuv sotsial harakatchanlikka ko'maklashadi.

Yuqoriga harakatlanishga bo'lgan intilish turli ruhiy muammolarni ham keltiradi. Insonga har qanday maqomga erisha olishi haqida tushuncha beradi, ammo aslida bunday bo'lmaydi, uning ijtimoiy maqomi, qaysi irqqa mansubligi, etnik mansubligi, uni sotsial harakatchanlikka bo'lgan imkoniyatlarini osonlashtiradi yoki to'sqinlik qiladi. Xuddi shu tarzda sotsial harakatchanlik uchun imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlar turg'unlik va rivojlanish yo'qligidan aziyat Chekadi.

Sotsial harakatchanlikka ko'maklashadigan ko'plab omillar mavjud, bu omillar individual motivatsiya va muassasani yaxshilash bo'yicha say'i-harakatlarga mansub bo'lib, bularda yangi mexanizm ishlab chiqiladi yoki bu say'i-harakatlar umuman olganda, jamiyatdagi baholash tizimidagi radikal o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bu omillarni alohida individual tarzda o'rganib chiqamiz va bunda biz ular sotsial harakatchanlikda qanday vazifani bajarishini aniqlab olamiz.

1. Motivatsiya: Har bir inson nafaqat hayotning eng yaxshi darajasiga ega bo'lishni, balki o'z ijtimoiy mavqei, holatini o'zgartirishga intiladi. Ochiq tizimda har qanday maqomga erishish mumkin, bu ochiqlik insonlarni mehnat qilib, o'z ko'nikmalarini yaxshilashga undaydi. Bunda ular yuqoriroq ijtimoiy maqomga erishadi. Bunday motivatsiya va say'i-harakatlarsiz individual sotsial harakatchanlik imkoni yo'q.

2. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik: Bu erda muvaffaqiyat o'ta g'ayrioddiy, kutilmagan ishni ma'nosini anglatadi. Bu ish keng ommani inson qobiliyatiga e'tiborini jalb etadi. Barcha yutuqlar ham sotsial harakatchanlikka olib kelmaydi. Yutuqlar yaxshi bo'lgandagina maqomga o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, kambag'al inson latoreyada yutuqqa ega bo'lib, boylik orttirsam yoki meros olib boyisa yoxud adabiy mukofotni yutgan yozuvchi o'z maqomini yaxshilaydi. Muvaffaqiyatsizlik va salbiy harakatlar pastlovchi harakatchanlikka ham Shu kabi ta'sirni o'tkazadi.

3. Ta'lim: Ta'lim insonga nafaqat bilim ega bo'lish, balki nufuzini oshirish, kasbiy hayoti uchun o'ziga xos pasportdir. Minimal rasmiy ta'limga ega bo'lgandan so'ng inson yuqori maqomni egallashga intiladi., Aynan ta'lim tufayli zamonaviy Hindistonda quyi kasta va tabaqa a'zolari nafaqat o'z an'anaviy kasbini almashtiradi, balki ular nufuzli ish o'rinlarini egallaydi.

4. Ko'nikma va ta'lim: Har bir jamiyat yosh avlodga ko'nikma va ta'lim berishni ta'minlaydi. Ko'nikmalarga ega bo'lish uchun ko'plab vaqt va pul sarflash lozim. Jamiyat bunday insonlarga imtiyozlar beradi, ular ta'lim olishini tugatgach, yuqori lavozimlarga xos imtiyozlarga ega bo'ladi. Individ ijtimoiy pillapoyadan ko'tarilish umidi bilan ta'lim oladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, ko'nikma va ta'lim sotsial harakatchanlikka turtki bo'luvchi ijobiy omillardan biridir.

5. Migratsiya: Migratsiya ham sotsial harakatchanlikka ko'maklashadi. Insonlar bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tadilar. Sababi, ma'lum joyda ijtimoiy holatini yaxshilash uchun imkoniyat bo'lmasligi mumkin. Odamlar o'z hayotini yaxshilash, daromad topish uchun maqomlarini o'zgartirishga ehtiyoj sezadi va ayrim vaziyatlarda bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi. Zero, yangi joyda ular uchun yangi imkoniyatlar bo'lishi mumkin.

Migrantlar kim? degan savolga javob bir qarashdan oddiygina tuyulsa-da aslida javob juda murakkab. Birinchidan, «migrant» tushunchasi turli vaziyatlardagi odamlarni nazarda tutadi. Ikkinchidan, migrantlarni sanab chiqish va qancha vaqtdan beri Chetda ekanligini aniqlash qiyin masala. Uchinchidan, kishi qachon migrant bo'lishini aniqlash uning migrant bo'lishdan to'htashini aniqlash singari muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv oqibati sifatida, zamonaviy jamiyatlarda o'zgacha xususiyatli migrantlar oqimi shakllanmoqda. Ko'pincha ular transmilliy jamoalar va disporalarning a'zolari sifatida talqin qilinadi.

Bu insonlar mavjud imkoniyatlardan foydalanib, o'z ijtimoiy holatini yaxshilaydi. Misol tariqasida biz Uttar-Prade Sh va Bixaradagi quyi tabaqalarga mansub insonlarni olamiz. Ular Panjob va Xaryanga ko'chib, yollanma ishchi bo'lib ishlaydilar va o'z hayotini yaxshilash uchun mablag' topadilar.

Immigratsiya va migratsiya kishilarda zamonaviy jamiyat muammolariga nisbatan jiddiy va konkret munosabatni shakllantiradi. Oqibatda sanoatlashgan davlatlarda ularning huquqiy muhofazasi uchun zarur asoslar, shart-sharoitlarni yaratishga sabab bo'ladigan omillar yuzaga keldi. Natijada, ilmiy adabiyotlarda migratsiya va immigratsiyaning jamiyatga ta'siriga borasida o'ziga xos tahliliy axborotlar paydo bo'ldi. Xususan, sotsiologlarning e'tirof etishicha, jamiyatga dogmatik yondashuv haqiqatni to'liq aks ettirmaydi. U vaqt o'tishi bilan bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi mumkin. Masalan, migrantlar mehnat bozorida yangi malaka va tajriba to'plab, kasbiy mahorati oshishi bilan yuqori haq to'lanadigan boshqa sohani tanlaydi. Bu kabi o'zgarishlar tufayli migratsiyaning ijtimoiy hayotga ta'siri alohida omil sifatida ajralib chiqadi. Xususan, savdning liberallasuvi yoki ko'chmas mulkni xususiy lashtirilishi kabi ommani jalb qiladigan o'ziga xos jarayonlar keyingi bosqichlarda migrantlarning xizmati bo'lishi mumkin.

Hozirgi davrda migratsiyaga bo'lgan ehtiyojning oshishi, ularni qabul qiluvchi davlatlarda migrantning geografik, demografik, etnik xususiyatlarini keyingi o'rinlarga surib qo'yishga olib kelmoqda. Jumladan, sobiq ittifoq davrida (asosan, XX asrning 70-80 yillarda) O'rta Osiyo (Markaziy Osiyo) xalqlarini sibir o'lkasiga ko'chirish haqida takliflar bo'lganda, aholi u joyning iqlimi sovuqligi tufayli borishni rad etdi. Ammo bugungi kunga kelib, insonning yashashi, o'zini namoyon etishi, oilani boqish kabi omillar geografik va psixologik to'siqlarni engib o'tishga turtki bo'lmoqda<sup>6</sup>. Dunyoning rivojlangan davlatlari, xususan, AQSH ning nufuzli ekspertlari immigratsiya jamiyat uchun salbiy iqtisodiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin, deb ishontirishga harakat qilmoqdalar. Bunga asosiy sabab qilib immigrantlar orasida ishsizlik darajasi yuqori ekanligi, ijtimoiy-iqtisodiy ta'minoti pastligi, bozorda narx-navolar oshishiga olib kelishi, oilalar tarqoqligi, o'rnashgan etnik kichik guruhlar bilan raqobatning salbiy ta'siri kabilarni ko'rsatishmoqda. Darhaqiqat, past malakali mehnat resurslari, bir tomondan, sanoatni qayta tuzishga va diversifikatsiyani tashkil etishga to'sqinlik qilishi, ikkinchi tomondan, yangi ish o'rinlarini yaratish va sanoat birlashmalarining Shakllangan mehnat standartlarini qo'llashga halal berishi mumkin.

Migratsiya orqali to'plangan pullarni yig'ib ular o'z qishloqlariga qaytadilar va aksariyati er sotib oladilar. Natijada ular o'z eriga va bu erga ishlov berish uchun texnikaga ega bo'ladilar. Demak, ular an'anaviy ishidan boshqa ishga o'tib, o'z maqomini yaxshilaydi va mulk egalariга aylanadilar. Insonlar o'z yashash joyida shunday imkoniyatlarga ega bo'lmaganligi sabab, ular ko'chib o'tadilar va yangi o'rinlar ularni kashf etadi. Bu erda ular yangi ko'nikma va bilimlarga ega bo'lib, yuqori daromadli mavqega ega bo'ladilar.

Xalqaro ekspertlar fikricha ichki migratsion jarayonlar tashqi migratsion jarayonlariga qaraganda muhim ahamiyatga molik. Xalqaro migrantlarning ta'riflar murakkablashib bormokda. Ichki migratsiya bir hududda ishsizlikdan qutulish va

---

<sup>6</sup> Citation: (2014) Sotsial'naya mobil'nost' v postsovetskoy Rossii: novyy vzglyad na problemu (sispol'zovaniem prodvinytykh metodov analiza) [Social Mobility in the Post-Soviet Russia: A Revision of Existing Measurements by Drawing on Advanced Methods ] Economic Sociology, 2, pp. 127-136 (in Russian)

boshqa hududlarda esa ish o'rinlarini to'ldirishning bir yo'lidir. Ba'zi izlanishlarning ko'rsatishicha, ichki migrantlar uylariga sezilarli darajada pul jo'natmalari ham yuboradilar. Ayrim hisoblarga ko'ra, Xitoyda ichki migrantlar tomonidan yiliga 30 milliard pul Shaharga kelgan ishchilar tomonidan qishloqqa jo'natiladi. Ularning pul jo'natmalari shaharliklar va qishloqliklar daromadidagi tafovutni qiskartirdi. Mulkiy tengsizlikni pasaytirdi, kambag'allikni kamaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash to'lovlarini to'lash, iste'mol va investitsiyani qullab-quvvatlashga yordam berdi.


YUkori malakali migratsiya globallashuvning migratsiyaga ta'sirining turli yo'llarini ko'rsatdi. Sababi, global iktisodiyotdagi tizimga oid tengsizliklar saqlanib yaqin kelajakda migratsiyaga sabab bo'lishda davom etadi. Bunga keyinchalik kommunikatsiya va transport sohasidagi tub o'zgarishlar, migratsiya tarmoqlarining ko'payishi va migratsiya sanoati yordam beradi. Migratsiya va globallashuv bir-biridan ajralmagan holda davom etadi.

Teskari migratsiyaning rivojlanishi kuzatiladi. Bu – intellektual migratsiyaning da'vatlariga qarata uzoq muddatli javobni beradi. Sababi, ko'plab mamlakatlar o'zlarining vaqtinchalik migratsion dasturlarini kiritmoqdalar. Maqsad migrant ishchilarni keyin o'z uylariga qaytish sharti bilan muddatli tarzda ishga qabul qilishdir. Bu ham yuqori ham past malakali ishchilarga birday taalluqli.

Qishloqdan Shaharga ko'chib o'tish, shahar markazlarida yuqori maqomli muassasalarda ish topish imkoniyati kengroq. Qishloqdagi odamlar Shaharga ta'lim olish va zaruriy ko'nikmaga ega bo'lish maqsadida ko'chib keladilar. So'ngra ular o'zlarining qishloqda qolgan ota-onasi, aka-ukalaridan ko'ra yuqoriroq lavozimlarni egallaydilar.

Respublikamiz viloyatlarining o'ziga xos etnopsixologik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy shart sharoitlari hamda migratsiyada ishtirok etayotgan erkak va ayollarning miqdor ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili bu borada muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Buni respublikamiz hududlari bo'yicha migrantlarning faolligini baholovchi quyidagi "migratsiya haritasi" orqali yaqqol ko'rish mumkin:

**-rasm. Migratsiya jarayonlarida O'zbekiston aholisining faolligi xaritasi<sup>7</sup>**




<sup>7</sup> Parmanov, F. A. Migratsiya jarayonlarini boshqarishda inson omili. Sotsiologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun e'zilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2012.



Ma'lumki, bugun O'zbekistonda migratsiya geometrik progressiya asosida rivojlanmoqda. Mazkur muammoni ilmiy jihatdan keng qamrovli tadqiq etish katta mablag' va vaqt talab etadi. Shu sababli, muammoni o'rganish uchun sotsiologiyada keng qo'llaniladigan «biografik metod»dan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur usul asosida XX asrning 30 yillarida Amerikadagi polyak muhojirlari hayoti va faoliyatini o'rgangan olim F.Znanetskiy muhojirlar tomonidan yozilgan xat, kundalik daftar, memuarlari o'rganib chiqqan. Migratsiya jarayonida ishtirok etayotgan har bir o'zbekistonlikning yaqin qarindosh-urug'lari bor. Demak, ularda bir-biriga yozgan xat (bu elektron xat ham bo'lishi mumkin), kundalik daftar, rasmiy hujjat va foto ko'rgazmalari bo'lishi tabiiy. Ularni o'rganish natijasida migrantning ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli, emotsional-ruhiy holati haqida muayyan tasavvurlar Shakllanadi.

Aholining barqaror rivojlanishida, tug'ilish jarayonlarining u yoki bu darajada tartibga solinishida davlat siyosati hamda mavjud milliy an'analar va diniy qadriyatlar katta ta'sir kuchiga ega. Tabiat qonuniyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, yangi insonning dunyoga kelishida jins omili ulkan ahamiyat kasb etadi. Migratsion jarayonlarda ilk vaqtlarda erkak jinsiga mansub bo'lganlar faol qatnashgan bo'lsalar, keyinchalik ayollarning ham faolligi keskin oshib bormoqda. Bu esa, mamlakatning demografik istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### -rasm. Migratsion jarayonlarida ayollar faolligi



## 24-mavzu. ETNOSOTSILOGIYA

### REJA:

1. Etnik munosabatlar
2. Etnotsiologiya fanining Shakllanishi va rivojlanishi
3. Etnosotsiologiyaning predmeti va ob'ekti
4. Etnos, millat sotsiologiya o'rganish ob'ekti sifatida
5. Millatlararo munosabatlar tushunchasi va uning tasnifi
6. Millatlararo munosabatlarda tolerantlik

Etnik munosabatlar masalasi ko'p millatli mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. Va shu narsa tushunarliki, birorta tamoyil jihatidan masala yo'qki, aholining milliy tarkibi hisobga olinmasdan turib hal qilinsa. Etnik munosabatlar murakkab sotsiologik kategoriya hisoblanib, umumiy holatda sotsiologik munosabatlarning o'ziga xos spetsifik Shakllaridan biri hisoblanadi. Ular alohida holatda, boshqa ijtimoiy masalalardan sof holatda mavjud emas, balki iqtisodiyot, siyosat va ma'naviy hayot bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy O'zbekiston o'zining mustaqil rivojlanish yo'lini tanlar ekan, bevosita umumjahon tsivilizatsiyasiga tegishli jarayonga qo'shilishi amalga oshdi. Mamlakatimizda bir vaqtning o'zida ijtimoiy jihatdan mo'ljal olingan bozor iqtisodiyotiga asoslanilgan demokratik, huquqiy davlat barpo qilindi, bunda millatlararo o'zaro hamjihatlikni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi Harakatlar strategiyasini asosiy vazifalardan biri: – “xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnicilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash” deb belgilangan<sup>1</sup>.

O'zbekistonning ijtimoiy hayotini isloh qilish va yangilash mamlakatimiz uchun butunlay yangi bo'lgan sotsiologiya yo'nalishini – etnik sotsiologiyaning Shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Yangicha ijtimoiy – madaniy vaziyatda yangicha bilimlar, g'oyalar, o'quv fanlarini shakllantirish, shuningdek adekvat haqiqat tarzidagi dunyoqarashni shakllantirish juda muhim hisoblanadi.

Etnosotsiologiya – bu sotsiologiya fani tarkibida eng yosh va istiqbolli hisoblangan yo'nalishlardan biri bo'lib, u kelajakka xos bo'lgan dunyoqarashlarni tuzib chiqishda o'zining sezilarli hissani qo'shishi ta'kidlangan. Bu holat albatta, o'tmishda etnik masalalar mavjud bo'lmaganligini anglatmaydi. Biroq, oldinlari ko'pgina olimlarning ishlarida bu yo'nalishda ma'lum bir aniq g'oyaviy qaror topishlar o'z aksini topgan, shuningdek millatlararo munosabatlarda qandaydir

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasini ta'rifida. (*O'zbekiston Respublikasi qonunhujjatlar to'plami*, 2017 y., 6-son, 70-modda). <http://www.lex.uz>

masalalarning mavjudligini rad etish, jumladan millatlararo ziddiyatlardan ko'z yumish, shunchaki umumiy holatda sobiq Ittifoq halqlarining o'zaro ahil – inoqligi haqidagi g'oyaviy manzarani aks ettirishga urinilgan. 1980-yillarning o'rtalariga kelib boshlangan etnik o'zaro to'qnashuvlar milliy siyosatdagi alohida xatolar va shuningdek iqtisodiy, demografik sabablarga bog'liq holatda izohlanilgan.

Jamiyat transformatsiyasi jarayonida etnik omillarning rolini mazmun – mohiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish 1980-yillarning oxirlari va 1990-yillarning boshlarida boshlangan.

Olimlar – etnologlar, siyosat Shunoslar, sotsiologlar ushbu davrda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni izohlashga harakat qilishgan. Ko'p sondagi nazariy, empirik faktlarga asoslanilgan tadqiqot ishlari yuzaga kelgan, ularning mualliflari etnosotsiologik masalalarga turli xil jihatdan yondashilishga harakat qilishgan.

Mamlakatda amalga oshirila boshlangan demokratik o'zgarishlar umumiy holatda sotsiologik fanlarda ham o'z ta'sirini ko'rsatgan va ularning rivojlanishi qayd qilinadi, ushbu ko'rinishda uning maxsus yo'nalishi – jamoatchilik fikri yuzaga kelgan. Boshlang'ich davrda bu holat asosan marketing yo'nalishidagi tadqiqotlarda foydalanilgan, shuningdek alohida olimlar tomonidan aniq va individual amalga oshiriluvchi dasturlarda qo'llanilgan. 1997 yilda jamoatchilik fikrini o'rganish «Ijtimoiy fikr» Respublika markazi tashkil qilinganidan keyin jamoatchilik fikrini o'rganish tizimli xususiyatga ega bo'lishi kuzatildi.

Ishonchli hisoblangan etnosotsiologik axborotlarning olinishi empirik tadqiqotlarda alohida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda bu ko'rinishdagi tadqiqotlar bo'yicha etarlicha tajriba to'plangan. Etnik o'zaro munosabatlar darajasi va yo'nalishlari empirik tahlil jarayonida dolzarb predmet sifatida qaror topgan.

Etnosotsiologik tadqiqotlar yo'nalishida O'zbekistonda mavjud bo'lgan tajriba, hozirgi kunda uning xususiyatlari yuzaga chiqishi, polietnik muhit Sharoitlarida moslashtirilgan holatdagi uni amalga oshirish usullari, shuningdek yangi yo'nalishlarni o'rganish jamoatchilik munosabatlarida eng dolzarb hisoblangan yangi yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

**2. Etnosotsiologiya fanining Shakllanishi va rivojlanishi.** Etnosotsiologiya nisbatan jamiyat hayotining murakkab sferasi – milliy munosabatlarni o'rganadi. Bu munosabatlar turli xildagi etnik jamoatchilikning hayot faoliyati turli tomonlarini qamrab oladi. XX asr nafaqat krossmadaniy aloqalar kengayishi va Yevropa birlashuvi bilan namoyon bo'lishi kuzatiladi, balki ko'p millatli davlatlarning parchalanishi, tajovuzkor millatchilik va etnik o'zaro uru Shlar bilan ham tavsiflanadi, bu holatlar ko'p jihatdan Er kurrasida insoniyatning yagona hamjihatligi haqidagi gumanistik xayoliy manzaraning naqadar muhimligini tasdiqladi. Hatto postindustrial jamiyatlarda ham etnik omillar nafaqat o'z ahamiyatini yo'qotishi, balki o'z funktsiyasi arealini kengaytirishi qayd qilinadi. Bu holatga Amerikalik sotsiolog Neyl smelzer o'z munosabatini bildirar ekan, quyidagi holatlarni qayd qiladi: “G'arb dunyosi sotsiologiyasida F.Tyonnisdan tortib bizning davrimizgacha bo'lgan vaqt davomida murakkab tarzda amalga oshuvchi, ratsional holatda maqsadga yo'naltirilgan tashkillanishlarda azaliy

(primordial)<sup>2</sup> kuchlarning susayishi amalga oshishi haqida noto'g'ri fikrlar bildirilgan. Hozirgi kunda aynan ushbu azaliy kuchlar yana qaytadan o'zini namoyon qilishi, hududiy, etnik va til Shunoslik, ijtimoiy harakatlar va bir butun holatdagi dunyo miqyosida kuzatiluvchi siyosiy kurashlarda aks etishi qayd qilinadi.”<sup>3</sup>

“Etnos” so'zi ilk bora qadimgi grek tilidagi manbalarda uchraydi. Taxminan miloddan avvalgi VI-V asrlarda bu so'z kelib chiqishi grek bo'lmaganurug' va qabilalargan nisbatan qo'llanilgan. Aynan Shu ma'nodam azkur iboralarim madaniyativalotintilida ishlatilgan.

XVIII asrning oxirlariga qadar etnos tushunchasini hoyatda chegaralangan tarzda iste'molda bo'ldi. Faqat XIX asrdan e'tiboran bu termin ilmiy adabiyotlarda “xalq” (“narod”) ma'nosida keng qo'llanila boshlagan.

«Etnosotsiologiya» atamasi birinchi marta XX asrning 30-yillarida nemis olimi Rixard Turnvaldning «Kishilik jamiyati va uning etnosotsiologik asoslari» asarida keltirilgan. Biroq, Turnvaldning o'zi etnosotsiologiya tushunchasining mazmunini etnologik va sotsiologik bilim sifatida tavsiflagan, bunda uning asosida ijtimoiylashish institutlari va primitiv jamiyatlarning integratsiyasi, etnoslar va millatlar birligi funksionalizmi o'rganilishi amalga oshirilishi bo'yicha ushbu tushunchaning empirik tavsiflanishini keltiradi. Hozirgi kunga qadar sotsiologiyaning ushbu yo'nalishi etnosotsiologiya nomi bilan atalib kelinadi.<sup>4</sup>

Dastlabki etnosotsiologik tadqiqotlar sifatida Uilyam Tomas va Feliks Znanetskiyning hamkorligidagi amalga oshirgan «Pol Shalik dehqon Yevropada va Amerikada» nomli tadqiqot ishini ko'rsatish mumkin, bu tadqiqot ishi Pol Shalik emigrantlarning AQSHdagi adaptatsiya masalalariga bag'ishlanadi. Birinchi etnik guruh bir butun holatda emas, balki qismlar bo'yicha Pol Shalik polyaklar va Amerikada istiqomat qiluvchi polyaklar ko'rinishida tavsiflanadi.

Shaxsiy hujjatlarni (xatlar, tarjimai hol, kundaliklar, esdaliklar va boshq.) tahlil qilish usuli F.Znanetskiy tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra, respondentlarning sub'ektiv bildirgan fikrlarini hisobga olgan holatda ob'ektiv xulosalarga kelish imkonini beradi. Xolis tarzda tadqiqotlarda sotsiologlar tomonidan Shaxsiy hujjatlar bilan birgalikda va rasmiy hujjatlarga (emigrant gazetalari va cherkovlarga kelib – ketishlar ro'yxati, sud ishlari) murojaat qilish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan.<sup>5</sup>

Mamlakatimizda etnik sotsiologiya yo'nalishining rivojlanishi etnik o'zaro munosabatlarni o'rganish va etnosotsiologiyaning alohida ilmiy yo'nalish sifatida qaror topishidagi bu munosabatlarning rolini oydinlashtirish, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va etnologiya fanlari «kesishish» nuqtasida bu yo'nalishning shakllanishi bilan ifodalanadi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab etnosotsiologik fikrlar o'z rivojlanishida yangicha impuls olishi kuzatiladi. Ko'p yillardan keyin jamiyatshunoslik

<sup>2</sup>Primordial – birlamchi, azaliy (muallif tavsifi bo'yicha)

<sup>3</sup>Smelzer N. Sotsiologiya. – M.: Feniks, 1994. 13-b.

<sup>4</sup>Mnatsakanyan M.O. Natsii i natsionalnqe otnosheniya. Sotsiologiya i psixologiya natsionalnoy jizni. – M.: IONITI, 2004. – 10 b.

<sup>5</sup>Sikevich Z. V. Sotsiologiyai psixologiya natsionalnix otnosheniy. – SPb., 1999. 10b..

fanlaridagi «turg'unlik» holati kuzatilishdan so'ngra bu sohada yangi vaziyatga adekvat tarzda javob reaksiyasi yuzaga kelishi kuzatiladi, mavjud haqiqiy millatlararo munosabatlarda ob'ektiv manzara qayd qilinadi, millatlararo, hududiy va global miqyosdagi munosabatlar tahlil qilinishida yangicha tendentsiyalar kuzatila boshlangan.

Islohotlar yo'liga o'tish orqali bizning jamiyatimiz o'ziga xos yangi jarayonlar ustida bosh qotira boshlangan. Qisqa muddatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan o'zgartira olish kuchiga ega bo'lgan isloxlarning o'zi ham millatlararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin, bunda ziddiyatli potentsial yuzaga kelishi, ma'lum bir kuchlarning mavjudligi – ijtimoiy bosim ostidagi kuch manbalari yuzaga kelishi qayd qilinadi, biroq O'zbekiston halqlarining etnik yadrosini mustaxkamlash jarayonlari pozitiv tarzda ifodalanib, milliy o'zlikni anglash, madaniyat va til va boshqa sohalarda barqaror rivojlanish yo'lga qo'yilishiga erishilgan.

Hozirgi kundagi O'zbekistonda hukm surayotgan ijtimoiy – siyosiy vaziyatda etnosotsiologik masalalarning o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan bunda millatlararo munosabatlarning o'rganilishi alohida o'rin tutadi. Bu holat O'zbekiston jamiyatida konsolidatsiya jarayonlarining Chuqurlashishi va uning integratsiya yangi bosqichga ko'tarilishi bilan bog'liq hisoblanadi, masalan bunda bir butunlikdagi jamoatchilik fikri shakllanishi, umumiy fuqorolik mentaliteti shakllanishi qayd qilinadi. Biroq, ketma – ketlik sifatida, bosqichli tarzda amalga oshiriluvchi vazifalarda etnik jamiyatlar haqidagi va ularning bir butun ijtimoiy struktura ko'rinishida integratsiyasi bo'yicha tegishli bilim darajasida etishmovchilik mavjudligi kuzatiladi. Milliy o'zlikni anglashning o'ziga xosligi va aniq Shakllari haqida, uning strukturasi, holati, dinamikasi, uning rivojlanishini stimullovchi va tormozlovchi omillar haqida to'xtalib o'tamiz.

Sotsiologlar tomonidan O'zbekistonda istiqomat qiluvchi halqlarning milliy o'zligini anglash xususiyatini o'rganish, etnik o'zaro munosabatlar Shakllari va usullari, kommunikatsiyalar, ehtimolligi mavjud bo'lgan etnik ziddiyatlar sabablari va ularning regulyatsiya qilinishi tamoyillarini o'rganish masalalari etarlicha darajada dolzarb hisoblanadi. Etnosotsiologiyaning asosiy tarkibini tashkil qiluvchi ushbu masalalarning o'rganilishi umummilliy, umumdavlat miqyosida shaxsiyatning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi masalalarini hal qilishning amaliy talablari Chuqurligi bilan ifodalanadi.

**3. Etnosotsiologiyaning predmeti va ob'ekti.** Har bir fan o'zining tadqiqot predmeti xosligi, uning tadqiqot etish uslublari bilan boshqa fandan farqlanib turadi.

Etnosotsiologiyaning predmet sohasiga murojat qilishda qayd qilib o'tish kerakki, u hali shakllanish bosqichida hisoblanadi. G'arb mamlakatlari sotsiologiyasi sohasida etnik sotsiologiya maxsus nazariyalar ro'yxati tarkibiga kiritilmaydi. Biroq, sotsiologiyaning sohaga oid yo'nalishlari orasida «sotsiologik irqlar» yo'nalishi mavjud bo'lib, sotsiologlar tomonidan o'z tadqiqotlari yo'nalishlarini belgilashda «irqqa oid» va «etnik munosabatlar» tushunchalarini tavsiflash qayd qilinadi.

Bu tushunchalarning bahs-munozaralarsiz tarzdagi o'xshashlik xususiyati shubha ostiga olinadi. Bu Shu bilan bog'liqki, G'arb sotsiologiyasida ko'rsatib o'tilgan ilmiy sohaning asosiy yo'nalishlari irqchilik g'oyalariga tegishli hisoblanadi. Ularning asosida ma'lumki, etnik guruhlarning ijtimoiy tengsizlik masalalari yotadi, bu holat odamlarning genetik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan vertikal va gorizontaal sotsial strukturalardagi holatlari, zamonaviy vaziyatlarda industrial jamiyat doirasida etnik tengsizlik vaziyatlari yuzaga kelishlari bilan belgilanadi. G'arb sotsiologlari tomonidan «irqchilik» tushunchasi mazmun – mohiyatiga ko'ra, etno milliylik belgisi bo'yicha «etnik mansublik» tushunchasiga mos kelishi qayd qilinadi.

O'zining ichki tarkibiga, mantiq xususiyatlariga ko'ra, sotsiologik fanlar tushunchalari va kategoriyalari tizimi o'zaro bog'liqlikka ega bo'lib, bunda etnosotsiologiya sotsiologiyaning yo'nalishlaridan biri sifatida, sohaga *oid sotsiologik fan* hisoblanadi.

Bu holatda sotsiologiya kabi bir butun holatda etnosotsiologiya ham ilmiy fan sifatida hozirgi kunda ko'plab ilmiy nazariyalar, yo'nalishlar va maktablardan tashkil topganligi qayd qilinadi. Shu sababli, ayrim tadqiqotchilar hisoblashlaricha, etnosotsiologiya empirik tadqiqotlarga asoslanilgan o'rta darajadagi maxsus sotsiologik nazariyalardan tashkil topgan bo'lmasdan, balki sohaga oid sotsiologik fan hisoblanadi. Ushbu nazariyalarning har biri (marksizm, materializm, psixologik, siyosiy, relyavistik, konstruktiv va boshqalar) sotsiologiya tizimida o'rta darajadagi maxsus sotsiologik nazariya sifatida, shuningdek nazariya, usul va empiriya sifatida qayd qilinadi.<sup>6</sup>

Etnosotsiologiya *fanlararo* fan hisoblanib, u turli xildagi etnik muhitlarda va sotsial guruhlarda amalga oshuvchi sotsial jarayonlarni o'rganuvchi etnoslar va milliy – etnik jamiyatlar haqidagi bir nechta fanlar kesishish sohasida shakllanadi.

Etnik sotsiologiyaning predmet sohasi etarlicha keng hisoblanadi. Uning tarkibiga halqlarning sotsial strukturasi, ularning muhiti o'zgarishlari, oila ichki munosabatlaridagi o'zgarishlar spetsifik xususiyatlari, turli xil etnik guruhlarda tillardan foydalanish tendentsiyalari, madaniyatlararo o'zaro aloqalar, milliy o'zlikni anglash, etnoslar o'rtasidagi aloqalar kabilar kiritiladi.

*Etnosotsiologiyaning predmetini* alohida ahamiyatga ega bo'lgan, ichki milliy jamiyatlar ichidagi va ular o'rtasidagi Chuqur madaniy – psixologik aloqalar sifatida belgilash mumkinligi qayd qilinadi. Bunda milliy jamiyatlar umumiy holatda ijtimoiy tizim tarkibiy masalalari sifatida qarab chiqiladi, uning funktsiyasi va roli o'z-o'zini harakatlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish manbai sifatida tavsiflanib, uning faoliyati qonuniyatlari ijtimoiy – sub'ektiv xosilalar ko'rinishida ifodalanadi. Milliy jamiyatlar tushunchasi orqali ichki va tashqi aloqalari va munosabatlari bilan bir butunlik holida integratsiyalashish ifodalanadi. Ushbu vaziyatda, *ichki integral milliy aloqalarning o'rganilishi – ushbu fanning asosiy predmeti zvenosini tashkil qiladi.*

Etnosotsiologiyaning *ob'ekti* halqlar, etnik guruhlari va ularning ijtimoiy differentsiatsiyasi, shuningdek etnik xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlari

---

<sup>6</sup>Mnatsakanyan M.O. Natsii i natsionalnqe otnosheniya. Sotsiologiya i psixologiya natsionalnoy jizni.. – M., 2004. 12-bet.

(masalan, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklar, mamlakatda yashovchi o'zbek va rus tadbirkorlari yoki boshqa ijtimoiy guruhlar) hisoblanadi.

Etnosotsiologiyada ob'ekt ikki xilda o'rganiladi: ya'ni, shaxsiyat orqali – ma'lum bir guruh tarkibiga kiritiluvchi ma'lum bir etnik mansublik orqali va etnik mansublik ta'siri orqali – ya'ni, guruhlarining odam «jamoaviy ongi», uning xulq-atvoriga, faoliyatiga ta'siri orqali ifodalanadi. Etnik guruhlar ijtimoiy jihatdan ifodalanishi – bu jamiyatning bir qismi, segmentlari sifatida umumiy madaniyatning manbalari sifatida qaraladi va shuningdek birdamlik hissiga ega hisoblanadi.

Odam hayotida etnik funksiyalarning aniqlanishi va etnik o'xshashlik sezilarli ahamiyatga ega hisoblanadi. Milliy psixologiyani o'rganish davomida jamoaviy psixologiya tashqarida va aniq bir odamga bog'liq bo'lmagan holatda mavjudligini hisobga olgan holatda, bu ko'plab avlodlar tajribasi, ongli va ongsizlik sintezi ko'rinishida ifodalanadi. Shu bilan bir vaqtda ushbu holat har bir halqda o'zining «jamoaviy» mavjudligi va o'ziga xosliklariga ega bo'lib, turli xil guruhlarining va ularning vakillarining turli xil shakllari va ifodalanishlari kuzatilib, ularning ongi orqali o'tishlar va ularning psixologiyasi struktura bo'yicha o'tishlardagi sinishlar qayd qilinadi.

Ushbu ko'rinishda, **etnik sotsiologiya** – *bu Shaxsiyat va etnik guruhlarining rivojlanishi va funksiyasining ijtimoiy jihatlarini, ularning o'xshashligini, manfaatlarini, xulq-atvorini, o'zaro munosabat va aloqalarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.* Bu fan sotsiologiyaning sohasi bo'lib, nafaqat sotsiolog olimlar tadqiqotlariga asoslanilishi, balki etnolog, psixolog, tarixchilar, etnograflar ishlariga asoslanishi ham qayd qilinadi.

Etnosotsiologiyaning asosiy yo'nalishlari etnik va milliy o'zlikni anglash bo'yicha tadqiqotlardan tashkil topgan bo'lib, ushbu holatning ma'lum bir aniq tarixiy Sharoitlar bilan bog'liq holatda funksiyasini o'rganishga qaratiladi. Ushbu jihatdan olib qaralganda, etnosotsiologiya ijtimoiy ongning holati va dunyoda mavjud bo'lgan asosiy irqning xulq-atvorlari holatini o'rganish bilan shug'ullanadi. Nisbatan keng tarqalgan holat sifatida milliy o'zlikni anglash va halqlarning xulq-atvorlarini o'rganish qayd qilinib, bu holatlar o'ziga xos takrorlanmas belgi – xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu jihatdan katta va kichik halqlar ularning iqtisodiy jihatdan va siyosiy hayoti, madaniyatining rivojlanishi, tili, an'analar va urf – odatlarga amal qilish bo'yicha rivojlanish darajasi bilan o'zaro farqlanib, bu holatlar ularning avtonom tarzda mavjudligini belgilab beradi.

Etnik sotsiologiya va uning vakillari hisoblangan olimlar shuningdek amaliy tadqiqotlar bilan ham shug'ullanishib, bunda asosan etnomadaniy tadqiqotlar alohida o'rin tutishi keltiriladi. Uning predmeti sifatida madaniy ehtiyojlar va an'analarning milliy o'ziga xosligi, xulq-atvorning ijtimoiy stereotiplari va ma'lum bir aniq etnik jamiyatlar vakillarining hayoti, ularning o'zaro munosabatlari va aloqalari, manfaat va ehtiyojlari, qadriyatlarga bo'lgan mo'ljal olishlari qayd qilinadi.

**4. Etnos, millat sotsiologiya o'rganish ob'ekti sifatida.** Zamonaviy dunyoda 200 ta atrofidagi mustaqil davlatlar mavjud hisoblanadi. Ushbu holatda

dunyo miqyosida 3000 dan 5000 tagacha halqlar mavjudligi qayd qilingan. Ushbu holatdan kelib chiqqan tarzda, o'z navbatida zamonaviy davlatlar ko'p millatli davlatlar hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan MDH xam bu holatdan mustasno emas. Ushbu davlatlarning ko'p millatli halqlari o'ziga xos rivojlanish bosqichidaligi qayd qilinadi. Ularning hohish – istaklariga bog'liq holatda ular o'zlarining «toza» holatdagi milliy aholi munosabatlari asosidagi o'z davlatlarini tashkil qila olishi yoki ko'p millatli davlat sifatida qolishi amalga oshadi.

Har qanday fan o'zining asosiy tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Bu holat etnosotsiologiya fani uchun xam xos xususiyat hisoblanadi. Uning asosiy tushunchalari sifatida –«*etnik guruh*», «*millat*» tushunchalari ko'rsatib o'tiladi.

Oksford lug'atida etnik guruh tushunchasi: - bunday bir odamlar, tili, ijtimoyi, madaniy yoki milliy tajriba sifatida, bir-biriga o'h Shashligi asosida belgilangan odamlar turkumi<sup>7</sup> deb berelgan. Boshqa ijtimoyi guruhlar qaraganda, etnik guruh o'zi yashab turgan jamiyat asoslangan irziy xolat xisoblanadi.

Etnik kelib chiqish, odamlar katta guruh bilan aniqlash (identifikatsiya) mumkin tomonidan muxim vositasi xisoblanadi. Antropologlar Frederik Bart va Erik Volf kabi ko'plab sotsiologlar, etnik kimligini universal deb hisoblamidi. Ular etniklikni inson guruhlariga o'ziga xos turbagi muxim sifatida emas, balki jamoa o'zaro ta'sirlarning mahsuloti munosabati deb qaraydi<sup>8</sup>. Bunday jaroyonlar etnogenez degan o'zini anglash (identifikatsiya) olib keladi.

Millatning Shakllanishi va rivojlanishida asosiy rolni ijtimoiy – iqtisodiy omillar o'ynaydi. Birinchi millatlar feodalizm tuzumining emirilishi va kapitalistik munosabatlar asosidagi davlatlar qaror topishi davrida yuzaga kelgan. Millatlar paydo bo'lishining iqtisodiy asoslari ishlab chiqarish munosabatlarida xususiy mulk, feodal munosabatlarning emirilishi, alohida etnik birliklar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mustaxkamlanishi, mahalliy bozorlarning birlashtirilishi va umummilliy ruh kasb etishi kabilar bilan bog'liq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda «millat» va «millatga mansublik» tushunchalari aniqlanishida eng avvalo ikkita ko'rsatkich hisobga olinadi. Birinchidan, ma'lum bir ob'ektiv bir butunlikni tashkil qiluvchi (madaniy, hududiy, xo'jalik) milliy – davlatchilik, madaniy atributlar ko'rsatib o'tiladi. Ikkinchidan, individlarning ijtimoiy identifikatsiyalanishi bo'yicha, ularning qadriyatlarga nisbatan mo'ljal olishlari bo'yicha sub'ektiv ko'rsatuvchi reaksiyalari hisobga olinadi. Boshqacha aytganda, har bir individ bir tomondan ob'ektiv holatda va ikkinchi tomondan sub'ektiv holatda milliy mansublikka egaligi qayd qilinadi, ongli ravishda u o'zini u yoki bu jamiyatning, madaniyatning bir qismi sifatida tan oladi.<sup>9</sup>

Sotsiologik doiralarda millat tushunchasi haqida baxs – munozaralar keng ko'lamda qayd qilinadi. «Millat» atamasini fuqorolik sifatida foydalanish tarafdorlari xam topiladi, biroq bunda ushbu atamaning oldingi ma'nosi Chuqur emotsional va siyosiy huquqiy holatda aks etib, uni qaytadan o'zgartirishlarni butunlay ta'qiqlab qo'yish mumkin emas. Shu sababli, so'nggi vaqtlarda amalga

<sup>7</sup>“**Ethnicity: definition of ethnicity**”. Oxford Dictionaries. Oxford University Press. Retrieved 28 December 2013.

<sup>8</sup>Fredrik Barth, ed. 1969 Ethnic Groups and Boundaries: The Social Organization of Cultural Difference; Eric Wolf 1982 Europe and the People Without History p. 381

<sup>9</sup> Krisko V.G. Etnopsixologiya. – M., 2002. – 75-b.



oshirilgan sotsiologik tadqiqot ishlarida ilmiy doiralarda etnomadaniy birliklarni aniqlashda qo'llaniluvchi qabul qilingan «etnik guruhlar» tushunchasi bilan birgalikda «etnomillat» yoki «milliy mansublik», «halq» tushunchalari ham ishlatiladi.

Millatning integral nazariyalari tarafdorlari hisoblashlaricha, barcha tarixiy paydo bo'lgan holatlar va hozirgi kunda mavjud bo'lgan millat nazariyalari barchasi bir tomonlama bo'lib, haqiqiy mavjudlikdan alohidalanib qolgan. Integral nazariya tarafdorlaridan biri hisoblangan M.O.Mnatsakanyan tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, ushbu nazariya milliy birliklarning haqiqiy integral tabiati, uning substratga oid asoslari va xususiyatlarini adekvat tarzda aks ettirish sifatida yuzaga kelgan. Integral yondashuv nafaqat milliy hayot fenomenlarining Shunchaki barcha xususiyatlarini, ularning bir butunligini qamrab olmasdan, balki bunda eng avvalo ichki integral milliy bog'lanishlar, asosiy xususiyatlar sifatida odamlarni va avlodlarni bir butun jamoaviy birlik ko'rinishida bog'lashni amalga oshiruvchi jihatlarning hozirgi kunga qadar soyada qolib ketishlarni oydinlashtirib berishga harakat qiladi.<sup>10</sup>

Deyarli barcha tadqiqotchilar bir ovozdan millat – yangi davr hodisa ekanligini tasdiqlashadi. Biroq, ayrim mualliflar (B.Anderson) hisoblashlaricha, millat XVIII asrning oxirlarida yuzaga kelgan, boshqalar tomonidan esa (E.Gellner) bu tushunchaning burjuaziya rivojlanish davrida shakllanganligi qayd qilib o'tiladi. Marksizm ta'limotida millatning Shakllanishi feodalizm tuzumining emirilishi va milliy davlatlarning paydo bo'lishi, o'z navbatida Yevropa aholisi orasida tilga oid Chegaralanishlar yuzaga kelishi, burjuaziya harakatlari boshlanishi bilan bog'liqligi ta'kidlaniladi.

YUqorida keltirilgan yondashuvlardan farq qilib, etnologik yondashuvda asosiy etnik belgilar sifatida – original xulq-atvor stereotiplari, kelib chiqishning o'ziga xosligi, o'zlikni anglash va shu kabi bir qator holatlar ilgari suriladi.

Millat tugunchasini tavsiflashning qiyin jihati shu bilan bog'liq hisoblanadiki, u bir qator mavjud va mavjud bo'lmagan xususiyatlarni namoyon qilishi bilan birgalikda ular o'rtasidagi o'zaro farqlanishlar har doim ham yaqqol qaror topmaganligi kuzatiladi. Ushbu vaziyatdan millatning yuqorida keltirilgan hohlagan aniqlanishlaridagi shartlilik va chegaralanganlik holatlari kelib chiqadi.

Shuningdek, tasdiqlash mumkinki, millat – tarixiy hodisa hisoblanib, ma'lum bir aniqlikdagi integrativ omillar tizimi bilan aniqlanuvchi, uning milliy ongi va o'zligini anglanishini shakllantiruvchi omillar bilan belgilanishi qayd qilinadi.

Millatni aniqlashda til, hudud, madaniyat, iqtisodiy hayot kabi belgilarning o'zi kamlik qiladi. Bunda odamlarning jamoaviy identiklik xususiyatlari shakllanishi sharoitlari va omillari xam kam ahamiyatga ega emasligi qayd qilinadi. Millat – odamlar birligi bo'lib, ularning o'zligini anglash va psixologik jihatdan o'xshashligini (identifikatsiya) sub'ektiv tarzda individual his qilishlari asosida yuzaga keladi. Shaxsning milliy identikligining qaror topishida aniqlovchi rolni madaniyat va jamoaviy psixologiya o'ynaydi, bu holatda tarix va tarixiy

---

<sup>10</sup>Mnatsakanyan M.O. Natsii i natsionalnqe otnosheniya. Sotsiologiya i psixologiya natsionalnoy jizni.. – , 2004. – 72b.

xotira yig'ilishi amalga oshadi, shuningdek milliy madaniyat, an'analar va urf – odatlar yig'ilishi kuzatiladi.

Millatning nisbatan barqaror holatdagi aniqlanishida ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan foydalaniluvchi aniqlanish «Milliy munosabatlar» lug'atida keltirilgan bo'lib, quyidagicha ifodalanadi: «*Millat – etnos tipi bo'lib, odamlarning tarixiy tarkib topuvchi ijtimoiy – iqtisodiy va ma'naviy birligi hisoblanadi. Millat hudud umumiyliigi, iqtisodiy aloqalar birligi, psixologik yig'ilmalar, madaniyat va o'zlikni anglash birligi ko'rinishi namoyon bo'ladi*».<sup>11</sup>

«Milliy mansublik» tushunchasi ushbu hodisaning keng ma'noda millat va boshqa etnomilliy birliklarni tavsiflashda qo'llanilishini ifodalab beradi, tor ma'noda esa – milliy-o'ziga xoslik (ya'ni, xususiy etnik) xususiyatlarni tavsiflashda foydalaniladi. Milliy mansublik so'zi orqali odamning u yoki bu ijtimoiy – etnik birlikka: millat, halq, milliy yoki etnik guruhga tegishliligi ifodalanadi.

Millatning nisbatan muhim hisoblangan tavsiflari sifatida uning rivojlanish barqarorligi, Chuqur tarixiy ildizlarga egaligi, til va madaniyatga egaligi, ijtimoiy hodisa sifatida takrorlanmas xossalarga egaligi kabilar ko'rsatib o'tiladi. Birorta boshqa ijtimoiy guruh bu ko'rinishdagi odamlarning o'zaro munosabatlarida avlodlar o'rtasidagi qudratli uzatuvchi, g'oyalar, an'analar, xulq-atvor usullari, qadriyatlar tashuvchisi sifatida o'rin tutmaydi. P.A.Sorokin bildirgan fikrga ko'ra, millat o'ziga xos xususiyatlari bilan «alohida holatdagi kuchli sabab – mohiyat ko'rinishida ko'plab individlarga ta'siri bilan ajralib turadi, bu holat insoniyatning rivojlanishi va bir butun ijtimoiy – madaniy olam taraqqiyoti davomida amalga oshishi qayd qilinadi».

Millatga mansublik fuqoroning pasportida va boshqa xujjatlarida qayd qilinadi. Milliy mansublikning anglanishi shaxsiyatning o'zi ijodiy iqtidorini ochib berishining qo'zg'atuvchisi hisoblanadi, bunda u o'z halqning bir qismini anglashi orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishda g'urur hissini his qiladi, bu holat Shaxsni butun halq manfaatlari yo'lida mehnat qilishiga chorlaydi.

Har bir millat uni tashkil qiluvchi odamlar o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalar va munosabatlar tizimi hisobiga mavjud hisoblanadi. Bu aloqalar va munosabatlar etnik rivojlanish jarayonida shakllanib, ushbu muhitda qabul qilingan an'analar va xulq-atvor me'yorlari bilan nazorat qilinadi va boshlang'ich milliy madaniyat va til qaror topishi va rivojlanishi davomida takomillashib borishi qayd qilinadi.

Millatning mavjudligining asosiy belgilaridan biri – tarixiy xotira hisoblanib, u ajdodlarning madaniy merosi, halq tarixini, ma'naviy birlikni o'zida aks ettiradi. U yoki bu millat vakili sifatida odam faqat o'zining ajdodlari kimligi haqida bilimlarga ega bo'lgan holatdagina o'zligini to'liq anglay oladi. Tarixiy xotira madaniy, diniy, xo'jalik, davlatga oid uzatilishlar va merosda moddiylashadi.

**5. Millatlararo munosabatlar tushunchasi va uning tasnifi.** Birorta bir etnik birlik boshqa halqlardan mutloqo alohidalangan holatda mavjud bo'lishi mumkin emas. Amaliy jihatdan har bir etnos u yoki bu darajada o'zaro aloqalar va boshqa etnoslar bilan madaniy yutuqlarni almashinish uchun ochiq hisoblanadi

<sup>11</sup>Natsionalnie otnosheniy:Slovar. – M., 1997. – 91b.

hamda o'zining xususiy madaniy yutuqlari va qadriyatlari bilan bo'lishishga tayyor hisoblanadi. millatlararo munosabatlar etnoslar o'rtasidagi turli xildagi o'zaro aloqalardan tashkil topgan bo'lib, uning ta'sirida o'zaro ta'sirlashuvchi etnik guruhlar va ularning a'zolarining individual va ijtimoiy tavsiflari o'zgarishga uchraydi.

Ko'p sondagi etnomadaniy yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari guvohlik berishicha, millatlararo aloqalarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan uning ishtirokchilari imkoniyatlariga va bir – birini tushuna olishlari, o'zaro kelishuvga erishishlariga bog'liq hisoblanadi. Turli xildagi etnik birliklar vakillari o'zaro munosabatlarda ta'sirlashishlari davomida bir tomondan o'zlarining xususiy belgilarini va sifatlarini o'zgartirishi va boshqa tomondan – o'zaro birgalikda faoliyat ta'siri ostida ularning har birida oldin mavjud bo'lmagan qandaydir umumiy takrorlanmas xususiyatlar o'zlashtirilishi amalga oshadi.

Ushbu holatdan kelib chiqqan tarzda, *millatlararo munosabatlar* ushbu atamaning keng ma'noda tushunilishini ta'minlaydi, bunda uning mazmun – mohiyati ijtimoiy hayotning turli xil sohalarida, jumladan iqtisodiyot, sa'nat, fan va boshqalarda halqlarning o'zaro aloqalari ko'rinishida tavsiflanadi, tor ma'noda esa bu tushuncha turli xil etnik mansublikka ega bo'lgan odamlarning turli xil sohalarida, jumladan mehnat, oilaviy – kundalik turmush, shaxsiyatlararo o'zaro munosabatlari, muloqotning norasmiy turlari ko'rinishida belgilanadi.

Etnosotsiologiyada millatlararo munosabatlarni o'rganishda ikkita daraja o'zaro farqlanadi, jumladan institutsional va guruhlar o'rtasidagi, shaxsiyatga oid.<sup>12</sup> Institutsional daraja makromuhit – mamlakatdagi ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy Sharoitlar xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Mikromuhit ichidagi o'zaro munosabatlar ikkinchi – Shaxsiyatga oid va guruhlar o'rtasidagi munosabatlar darajasiga tegishli tadqiqot hisoblanadi, bu darajadagi tadqiqotlar bevosita mamlakatdagi mavjud vaziyatni, o'zaro aloqaga kirishuvchi guruhlarning etnomadaniy jihatdan spetsifik o'ziga xosliklarini va ularning o'zaro muloqotlari darajasini aniqlash imkonini beradi.

Millatlararo munosabatlar institutsional darajada funktsiya bajaradi va davlat va jamiyat tashkilotlarining o'zaro aloqalari orqali ro'yobga chiqadi. Guruhlar, turli xil etnik mansublikka tegishli odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar vaziyatida gap millatlararo munosabatlar haqida ketadi.<sup>13</sup>

Millatlararo munosabatlar tavsiflariga mamlakatda mavjud bo'lgan umumiy siyosiy vaziyat, hokimiyatning qonuniyligi va barqarorligi, liberalizatsiyaga bo'lgan mo'ljal olishlar – jumladan, turli xil millatlarga mansub bo'lgan ma'lum bir Shaxslararo munosabatlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kundalik turmushda har kuni ishga oid va norasmiy aloqalar davomida odamlar amaliy jihatdan tenglikni his qilishlari yoki his qilmasliklari, o'zaro hamkorlik yoki huquqlarning Cheklanishi, bularning barchasi *tolerant* munosabatlarni belgilab beradi.

Millatlararo munosabatlar masalasi so'nggi yillarda ijtimoiy fanlarda eng ommalashgan masalalardan biriga aylanishi kuzatiladi. Olimlar tomonidan tasdiqlangan oldindan bashorat qilishlarga muvofiq, millatlar o'rtasidagi o'zaro

<sup>12</sup> Arutunyan IO.V., Drobijeva L.M., Susokolov A.A. Etnosotsiologiya. – M., 1999. – 184b.

<sup>13</sup> Drobijeva L.M. Sotsialnie problemi mejnatsionalnix otnosheniy v postsovetskyoy Rossii. – M., 2003. – 263 b.

aloqalar kuchayishi va globallashish tendentsiyalari jadallashishi bilan birgalikda millatlararo farqlanishlar nafaqat saqlanib qolishi, balki ko'pgina mamlakatlarning siyosiy hayotida nisbatan muhimroq rol o'ynashi, davlatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

**Xozirgi davrda ko'pgina davlatlar – polietnik davlatlardan tashkil topgan. Bu ko'rinishdagi mamlakatlarda halqlar o'rtasidagi, ozchilik va ko'pchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi siyosiy hayotning muhim momentini yuzaga keltiradi.**

Uzoq davrlardan tashkil topgan tarixiy rivojlanish davomida bizning mamlakatimiz hududida turli xil millat vakillari tinch – totuvlikda va o'zaro hamjihatlikda istiqomat qilib kelishadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston ko'p millatli davlat sifatida tan olingan. O'zbekistonda aholining 80% oshiq qismini tashkil qiluvchi o'zbek millati vakillaridan tashqari 130 dan ortiq halqlar vakillari yashashadi. Shunga bog'liq holatda millatlararo munosabatlar masalalarini o'rganish o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

O'zbekiston uchun millatlararo munosabatlarda nizolar yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadlarida millatlararo munosabatlarni doimiy ravishda o'rganish masalasi dolzarb hisoblanadi. Etnik ozchilikka tegishli masalalarning o'z vaqtida, ularning ijtimoiy – madaniy ehtiyojlarini qondirish yo'li bilan hal qilinishi, demokratik tamoyillar va tenglikning amal qilishi mamlakatda ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini yaratadi, shuningdek ilmiy asoslanilgan milliy siyosatni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

**6. Millatlararo munosabatlarda tolerantlik.** Bardoshlilik yoki tolerantlik masalasi birinchi marta 1995 yil noyabr oyida YUNESKO da ilgari surilgan. Bu vaqtda 1995 yil 16 noyabr sanasi Halqaro tolerantlik kuni sifatida e'lon qilinib, tolerantlik Deklaratsiyasi tamoyillari qabul qilingan.

Tolerantliknimani anglatadi, uning mazmun – mohiyati nimada?

«Tolerantlik» atamasining o'zi lotin tilidan «tolerantia» so'zidan olingan bo'lib, G'arb adabiyotiga kirib kelgan va Uyg'onish davrida faol tarzda qo'llanila boshlagan, bu vaqtda ushbu atama asosan e'tiqodga nisbatan bardoshlilik ma'nosida qo'llanilgan. Keyinchalik bu tushuncha umuman odamga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, boshqalar nuqtai nazarlari, begona urf – odatlarga hurmat bajo qilish ma'nosida qo'llanila boshlangan. Rus tilida lotin tilidan olingan «tolerantia» so'zining analogi sifatida «bardosh» (terpenie), ingliz tilida unga ekvivalent sifatida – «tolerance», «toleration» so'zlari va mos ravishda «bardoshlilik» (terpimost) qo'llaniladi. Shunga bog'liq holatda, tolerantlik tushunchasi orqali begonalar nuqtai nazarlariga, e'tiqodi va xulq-atvoriga bardoshlilik, Chidam aks ettiriladi.<sup>14</sup>

«Tolerantlik» tushunchasini turli xilda tavsiflash mavjud hisoblanadi. Ko'pincha holatlarda ushbu tushuncha orqali «teng huquqlilik va o'zaro kelishuv tamoyillariga intilish» tushuniladi.<sup>15</sup>

<sup>14</sup>Katta entsiklopedik lufat. – M., 1998. 1209-bet.

<sup>15</sup>Drobijeva L.M. Tolerantnost i rost etnicheskogo samosoznaniya: predeli sovместimosti \ Tolerantnost i soglasie. – M., 1997. – 63 b.

«Bardoshlilik» va «bardosh» tushunchalarining ijtimoiy mohiyatini o'zaro farqlay bilish talab qilinadi. Bardosh – Shaxsning psixologik his qilish darajasi, pag'onasi hisoblanib, uning uchun yoqimsiz bo'lgan guruhning ijtimoiy, ma'naviy va boshqa turlagi ta'siri ostida u o'zining psixologik va o'zini qo'lga olib tura olish barqarorligini yo'qotadi hamda aytish qiyin bo'lgan hatti – harakatlarga moyil bo'ladi.

Bardoshdan farqli ravishda bardoshlilik o'z – o'zini kamsitish belgilariga ega hisoblanmaydi, balki o'ziga yoki boshqalarga nisbatan o'zaro tenglikni his qilish, tan olishni anglatadi, ya'ni tomonlar o'rtasidagi ijobiy o'zaro munosabatlar konstruktiv asoslarda amalga oshiriladi.

Tolerantlik o'z asoslariga ko'ra o'zining ichki Chidamsizligini engib o'tishni ifodalab beradi, u o'z navbatida etnik xilma – xillikning mavjudligi asoslarini tashkil qiladi va yuzaga keluvchi millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlarni o'zaro muloqot, kompromiss, teng huquqlilik asosida hal qilishga qaratiladi.

Tolerantlikning jamiyatdagi roli va ahamiyati uning mazmun – mohiyatidan kelib chiqadi. Asosiy odamlar ommasining turli xil g'oyaviy nazariyalarga, ahloqiy, diniy qarashlarga, madaniy hodisalarga, turli xil millatga mansub odamlarga bo'lgan munosabatlari darajasi va yo'nalishlari sezilarli darajada jamiyatdagi barqarorlikni aniqlab beradi, bu holat ijtimoiy va ma'naviy – ahloqiy taraqqiyotning o'rnini almashtirib bo'lmaydigan Sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Alohida odamning tolerantlik darajasi ko'p jihatdan uning Shaxsiy sifatlariga, ma'naviy kamol topganligiga va madaniyatiga bog'liq bo'lib, uning boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Ko'pgina ijtimoiy va siyosiy nazariyalarda jamiyatning tolerantlik darajasi jamiyatning ma'naviy – ahloqiy, ijtimoiy, davlatga oid bo'lgan taraqqiyotining etakchi va ayrim holatlarda asosiy mezonlaridan birini tashkil qilishi keltiriladi.

O'zbekistonda ko'p millatli tarkibga ega aholi qayd qilingan bir Sharoitda ayniqsa tolerantlik muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu holat hozirgi kunda jamiyatda tolerantlikni yuqori darajada shakllantirish yuzasidan ko'plab ijtimoiy va davlat miqyosidagi institutlar ish olib borishayotganligi bilan xam izohlaniladi.

Millatlararo va millatlararo munosabatlarda tolerantlikka erishish siyosati oldingi, eskirgan aqidalardan voz kechish va odamlar ongiga milliy mustaqillik, ma'naviy yangilanish tamoyillari va g'oyalarini tadbiiq etishga yo'naltirilgan. O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, odamlar tolerant hisoblanib, muloqotlarga kirishishga tayyorligi, hamma joyda shunchaki indeferentdan farqli ravishda ko'proq narsaga qodirligi tasdiqlangan. O'zbek millati vakillarining boshqa millatlar vakillariga nisbatan bag'rikenglik, ochiq ko'ngillik bilan munosabatda bo'lishi so'rovlarda ishtirok etgan tatar millatiga mansub respondentlarning 33,4% qismi tomonidan, shuningdek slavyan millati vakillari tomonidan 33,3% holatlarda tasdiqlangan. Bunda so'rovlarda ishtirok etganlarning tatar millatiga mansub respondentlarning har uchinchisidan ko'proq qismi (39,4%) va slavyanlar (31,2%) o'zbek halqi vakillarining bag'ri kengligi va uning ahloqiy sifatlarini jamiyatda millatlararo birdamlik va hamjihatlikni

ta'minlashdagi ustuvor omil sifatida ta'kidlashadi. Umuman olganda, Yevropaga oid millat vakillari tomonidan jamiyatimizdagi millatlararo va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro birdamlikning umuminsoniy omillari sifatida o'zbek halqining bag'ri kengligi, uning boshqa millat vakillariga, nisbatan ko'ngli ochiqligi, diniy sabr – bardoshlilikiga alohida e'tibor qaratiladi.<sup>16</sup>

Millatlararo tolerantlik hatti – harakatlarda o'zligini namoyon qiladi, biroq ong sferasida shakllanadi va yakuniy holatda etnik identiklik bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Giperidentiklikning barcha turlari Millatlararo munosabatlarda akstolerantlik darajasini oshirishi qayd qilinadi. Ushbu asosda etnik o'zlikning anglanishi giperbolizatsiyasi tolerantlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi va akstolerant qaror topishlarning nafaqat psixik doiralarda o'sishiga olib keladi, balki uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot sferalarida xam namoyon bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Tolerantlik millatlararo, dinlararo o'zaro hamjihatlik hisoblanib, barcha ijtimoiy, milliy guruhlarning manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishi sifatida aks etadi, asosiy – tub bo'lmagan aholi vakillarining yangicha o'zgaruvchan Sharoitlarga ijtimoiy – psixologik jihatdan moslashishini, ijtimoiy va siyosiy identifikatsiyani ta'minlaydi.

### **Mustaqil ish mavzulari**

1. Etnosotsiologiya fanining Shakllanishida sotsiologiya va etnologiya fanlarining ahamiyati
2. Etnosotsiologiya fanining Shakllanish bosqichlari
3. Etnosotsiologiya faning asosiy metodologiyasi va uning tarkibiy qismlari
4. Etnosotsiologiya tadqiqot ob'ektlari va ularning tasnifi
5. Millatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari
6. «Tolerantlik» tushunchasi va uning jamiyat barqarorligidagi ahamiyati.
7. “Tolerantlik tamoyillari” deklaratsiyasi va uning jahon hamjamiyatida tinchlikni saqlashdagi ahamiyati

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI PREZIDENTIning Farmoni “O'zbekiston Respublikasiniyanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (*O'zbekiston Respublikasi qonunhujjatlarito'plami*, 2017 y., 6-son, 70-modda). <http://www.lex.uz>

2. "Ethnicity: definition of ethnicity".Oxford Dictionaries. Oxford University Press. Retrieved 28 December 2013.

3. Fredrik Barth, ed. 1969 Ethnic Groups and Boundaries: The Social Organization of Cultural Difference; Eric Wolf 1982 Europe and the People Without History p. 381

---

<sup>16</sup>O'zbekistonliklarning ijtimoiy qi'efasi (portreti). Sotsiologik tadqiqotlar natijalari. – Toshkent: Ijtimoiyfikr, 2002. 100-bet.

4. Arutyunyan YU.V., Drobijeva L.M., susokolov A.A. Etnosotsiologiya. – M., 1999. 184-bet.
  5. Ashirov A. Etnologiya. O'quvko'llanma. – Toshkent, 2011.
  6. Ganieva M.X. Etnosotsiologiya. Uchebnoe posobie. – Tashkent, 2006.
  7. Drobijeva L.M. Tolerantnost i rost etnicheskogo samosoznaniya: predeli sovместimosti \ Tolerantnost i soglasie. – M., 1997.
  8. Krisko V.G. Etnik psixologiya. – M., 2002. 75-b.
  9. Mnatsakanyan M.O. Natsii i natsionalnqe otnosheniya. Sotsiologiya i psixologiya natsionalnoy jizni. – M.: YUNITI, 2004.
  10. Natsionalnqe otnosheniya: Slovar. – M., 1997.
  11. Sikevich Z. V. Sotsiologiyai psixologiya natsionalnqx otnosheniy. – SPb., 1999.
- Smelzer N. Sotsiologiya. – M.: Feniks, 1994.

## 25-mavzu. SOTSIAL KONFLIKTLAR

### REJA

- 1. Sotsial konfliktlar to'g'risida ilk ijtimoiy qarashlar**
- 2. XVIII-XX asrlarda sotsial konfliktlarni ilmiy o'rganilishi**
- 3. Sotsial konfliktologiyaning zamonaviy tamoyillari**
- 4. Konfliktlarning mazmun-mohiyati, uning ob'ekti va predmeti**

Ijtimoiy konfliktlarning tabiati to'g'risidagi ilk fikrlar va tushunchalar orasida qadimgi yunon faylasuflarining ijtimoiy qarashlari alohida o'rin egallaydi. Xususan, antik davr faylasufi Geraklit (tahminan er. av. 530-470 y.) uru Shlar va ijtimoiy konfliktlar to'g'risidagi fikr va mulohazalarini tabiiy borliq haqidagi umumiy qarashlar tizimi bilan bog'lashga harakat qilgan. Uningcha jamiyatda hamma narsa o'zaro bog'liq, shu jumladan, insoniy munosabat me'yorlari ham. Dunyoda hamma narsa o'ch va adovat tufayli vujudga keladi, deb hisoblagan Geraklitning fikriga ko'ra: "Koinot mavjudligining yagona umumiy qonuniyati – bu "hamma narsaning otasi va pod Shohi "uru Sh"ekanligidir. U har qanday jamiyatda kimlardir xudo, kimlardir sig'inuvchi odamlar, yana birovlarini qul, boshqasini esa ozod qilib belgilab bergan"<sup>1</sup>.

Shu tariqa Geraklit uru Sh, ziddiyat, kurashning jamiyat taraqqiyotidagi ijobiy rolini to'g'ri belgilab berishga harakat qilgan. Geraklit qarashlarida konflikt o'ziga xos yangi ma'noda, misoli jamiyat hayotining ramzi, aniqrog'i, jamiyat rivojining eng kerakli va asosiy Sharti sifatida namoyon bo'ladi. Geraklitning "barcha narsalarning asosi konflikt va kurash" degan tushunchasini qadimgi yunon faylasuflaridan yana biri Epikur (er. av. 341-270 y.) ham qo'llaydi. Epikur jamiyatdagi to'qnashuvlarning salbiy oqibatlari insonlarni tinch-osoyshta va birdamlikda yashashga chorlaydi va qachonlardir Shunga olib keladi, deb hisoblagan.

O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri deb nom olgan IX-XII asrlarda faoliyat ko'rsatgan mutafakkirlarning dunyoviy ma'rifatga intilishi va bu yo'lda o'tmish davlatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, insonni ulug'lash, uning ma'naviy fazilatlarini asoslash borasidagi fikr-mulohazalari jamiyatdagi konfliktlar haqidagi tarixiy-tadrijiy bahslarda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Abu Nasr Forobiy (873-950 y.) birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi va davlatni qanday boshqarish kerakligi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar tizimini ishlab chiqdi. Bular asosan quyidagilardir:

- ijtimoiy hayot haqidagi fan va uning vazifasi;
- inson jamoasining vujudga kelishi, tarkibi va turlari;
- Shahar-davlat jamoasining hayoti va fazilati, davlatning faoliyati vazifasi va uni boshqarish Shakllari;
- insonning jamiyatdagi o'rni va vazifasi, aqliy, axloqiy kamoloti masalalari;
- davlat jamoasining maqsad va vazifalari, insonni baxt-saodatga erishtirishning usullari va yo'l-yo'riqlari.



Forobiyning fikricha, jamiyatdagi konfliktlarning birdan bir sababi odamlar tafakkurida ijtimoiy hayot, shahar-davlat, axloq va fiqh ilmlarining to'la shakllanmaganligidadir. O'z navbatida yuzaga kelmoqchi bo'layotgan konfliktlarning oldini olishda hamda odamlarning ushbu ilmlar bo'yicha olgan yuqori bilimlari ijobiy natijalar berishi haqida gapirib, nazariy bilimlarning egallanishi amaliyotda muhim ahamiyatga ega ekanligini uqtiradi.

Forobiyning jamiyat haqidagi mulohazalarida “zo’ravonlik va majburlash ta’limoti” qoralanadi. Chunki, har qanday davlat va jamiyatda “zo’ravonlik va majburlash ta’limoti”ning amaliyotda aks etishi, o’ Sha davlat va jamiyatdagi konfliktlar Shakllanishining asosidir. Forobiy “zo’ravonlik va majburlash ta’limoti”ga qarama-qarshi o’laroq “tabiiy ehtiyoj nazariyasi”ni ilgari suradi. Zero, odamlarning birgalikda totuv yashashi, jamoalarga uyu Shishi, bir-biriga yordamlashib kun kechirishi kabilar tabiat va jamiyatdagi “tabiiy ehtiyoj” mavjudligining belgilaridir.

“Odamlarni birlashtirib turuvchi bosh mezon - insoniylikdir. Shu tufayli kishilar odamzod turkumiga oid bo’lganligi uchun ham o’zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”<sup>1</sup>-deb yozadi Forobiy.

Demak, insoniylik – eng ulug’ ne’mat bo’lib, u jamiyatdagi konfliktlarning yuzaga chiqmasligi uchun odamlarni tinch-totuvlikka chorlovchi ilk ijtimoiy manbadir.

Forobiy o’z davri turmush tarzidan kelib chiqqan holda jamiyatdagi fozil va johil Shahar-davlatlar o’rtasidagi farqlarni bir-biriga taqqoslaydi. Dehqonchilik, Chorvachilik, to’quvchilik, baliqchilik kabi sohalar bilan birgalikda kasb-hunarga katta e’tibor berish fozil Shahar-davlatga xos bo’lgan xususiyatdir. Xalqlarning bir-birlari hududlarini bosib olishi, asirlarni qul sifatida ishlatishi, faqat o’z davlatining tinch-totuvligini, farovon hayotini ko’zlagan davlatni johil Shahar-davlat, deb ta’riflaydi. U johil Shahar-davlatlarning mavjudligini nafaqat davlatda, balki jamiyatda ham konfliktlarning tobora kengayishidagi bosh omil sifatida qoraladi.

Umuman olganda Forobiy jamiyatda “ideal davlat”larning bo’lishini orzu qiladi. “Ideal davlat”larning mavjudligi jamiyatda konfliktlar o’rniga barqarorlikni ta’minlaydi. Bunday jamiyatga erishishning manbai sifatida, u odamlarning ilm-fanni Chuqur egallashlari zarurligini ko’rsatadi.

O’rta Osiyodagi ilk Uyg’onish davri vakillaridan biri Abu Ali Ibn sino (980-1037 yy.) jamiyatdagi konfliktlar haqida o’zining “Risolatu tadbiri manzil”, “In Shorat va Tanbixat” kabi asarlarida fikrlarini bildirgan. “Risolatu tadbiri manzil” asarida shunday yozadi: “...odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o’zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababidir”. Bizningcha, tarixan bunday ijtimoiy borliq ilk marotaba “aql idrokli odamlar” davrida shakllangan. Demak, bu fikrlarga asoslangan holda konflikt avvalo ijtimoiy hodisa ekanligini alohida ta’kidlash mumkin.

---

<sup>1</sup> Xayrullaev M. Forobiyning falsafiy va ijtimoiy qarashlari // O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Toshkent: O’zbekiston, 1995. - bet

Ibn sinoning jamiyatda “o’zaro bog’liqlik va almashinuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan holi etishi” xususidagi qarashlarini Forobiyning “tabiiy ehtiyoj nazariyasi”ni tadrijiy davomi sifatida qarash mumkin. Biroq yuqorida ta’kidlanganidek, Forobiy “tabiiy ehtiyoj nazariyasi”ni jamiyatdagi “zo’ravonlik va majburlash ta’limoti”ga qarama-qarshi qo’ysa, Ibn sino “o’zaro bog’liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birini qandaydir muhtojlikdan xoli etishi”dan keyingina jamiyatda “adolat qoidalari va qonunlari o’rnatiladi”<sup>1</sup> deydi. “Adolat qoidalari va qonunlari o’rnatilgan” jamiyatda esa konfliktlarning tobora kamayib borishi tabiiy holdir.

Sharqdagi ilk uyg’onish davri vakillari qarashlaridan farqli ravishda G’arb dunyosi o’rta asrlari Yevropa uyg’onish davri namoyondalari ijtimoiy konfliktlarga murakkab va qarama-qarshi baho berdilar. Negaki, bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar va qurolli to’qnashuvlarni mashhur gumanistlar T. Mor, E. Rotterdam, F. Rable, F. Bekonlar keskin qoralab chiqqan edilar.

Erazm Rotterdam (1464-1536 yy.) uru Sh – “uru Shni bilmaganlar uchun Shirin”<sup>2</sup> - deydi. U boshlanajak konfliktning misoli zanjir reaksiyasi yanglig’, o’z domiga aholining yangi qatlamlari va davlatlarni tortib ketishi borasida so’z yuritib, qarama-qarshi turgan tomonlar garchi umumiy jihatdan g’oyaviy birga bo’lsalar ham, o’zaro sulhga kelishishi mu Shkulligiga e’tibor qaratdi.

Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626 yy.) ning konfliktlar tabiati to’g’risidagi fikrlari ham e’tiborga loyiqdir. U ilk bor davlatning ichki ijtimoiy konfliktlari sabablarini aniq nazariy tahlil qilib chiqib, ijtimoiy tartibsizlikning moddiy, siyosiy va ruhiy Shart-sharoitlarini sinchiklab o’rgangan hamda ularni bartaraf etish yo’llarini belgilab bergan. F. Bekon qarashlarida davlat va jamiyatdagi ijtimoiy tartibsizliklarning yuzaga kelishida asosan moddiy omillar ustuvorligi xarakterlidir. “...davlatda qancha nochor bo’lsa, - deydi u – Shuncha tayyor ko’zg’olonchi bor deganidir. Mabodo nochorlikka oddiy xalqning kambag’allashuvi sabab bo’lsa, xavf ortib boradi va aniqroq namoyon bo’ladi. Biroq unutmazlik kerakki, qorin uchun bo’ladigan qo’zg’olonlar xavflarning eng xavflisidir”<sup>1</sup>.

Ijtimoiy ziddiyatlarning oldini oladigan yo’llardan biri sifatida F.Bekon siyosiy manyovr san’atini ko’rsatadi. “Odamlarni bir umiddan ikkinchisiga ishontirish norozilikning oldini oladigan eng yaxshi vosita. Insonlarning ehtiyojlarini qondira olmasalarda ularni kelajakka faqat umidlar bilan ishontira oladigan, har qanday adovatni o’z vaqtida orzu va umid uchqunlari bilan yum Shata oladigan hukumat oqildir. Bu narsa aytarli mu Shkul emas, zero Shaxslar va ba’zan butun boshli partiyalar o’z istiqbollariga ishonmasalarda, baribir orzu va umidlari to’g’risida ochiq gapirib, o’zlarini ana shular bilan ovutadilar”. F.Bekon “davlatga qarshi bo’lgan ittifoqlar va partiyalar orasiga qutqu solib, o’zaro qarama-qarshi qilib qo’yish, ularda kelajakka nisbatan ishonchsizlik paydo qilish”da siyosatning roli va ahamiyati katta ekanligiga alohida urg’u beradi.

---

1

<sup>2</sup> Jumaev R.Z, Ubaydullaev U.A, Xo’janov B.A. Konfliktologiya asoslari. O’quv qo’llanma – Toshkent: Akademiya nashriëti, 2000. – 10 b.

1

Ziddiyat darajasidan qat'i nazar konfliktning oldini olishda F.Bekon ta'rifi bo'yicha, "norozilar orasida ularni birlashtiradigan etakchi bo'lmasligiga erishish eng "go'zal me'yordir". Ikkinchi tomondan esa, xalq qo'zg'olonlari va tartibsizliklarini bosadigan bitta, yaxshirog'i bir nechta bunday Shaxslarning bo'lishi vaqti kelib olomon xalqqa aylanganda ular qanday asosiy sifatga ega bo'lishidan dastlabki ehtimollarni beradi. Shuning uchun "... harbiy boshliqlar va xalq fidoiylari ishonarli va obro'li kishilar bo'lishi, ajralishlar tarafdori va shuhratparast bo'lmasliklari, shuningdek, davlat amaldorlari bilan har qanday lahzada til topishadigan Shaxs bo'lishi zarur. Aks holda lahzalik malham og'ir kasallikdan ham xavfliroq bo'lishi mumkin",- deb yozadi Bekon<sup>2</sup>.

Ma'lumki, yashash uchun kurash muammosi ingliz biologiyasi Charlz Darvin (1809-1902 yy.) ta'limotida ham markaziy o'rinni egallagan. Uning asosiy nazariy g'oyalari biologik evolyutsiya to'g'risidagi "Turlarning tabiiy tanlov natijasida kelib chiqishi yoki yashash uchun kurashda toza naslli turlarni saqlab qolish" (1959 y.) ilmiy asarida bayon etilgan. Asarning asosiy g'oyasi uning nomida o'z aksini topgan, ya'ni tirik tabiatning rivojlanishi yashash uchun olib borilayotgan doimiy kurashda, yanada aniqrog'i eng yashovchan turlargina tabiiy tanlov natijasida omon qolishida ekanligi isbotlab berilgan. Ch.Darvin o'zining mazkur ta'limotini jamiyat taraqqiyotiga tadbqiq etganmi yoki yo'qmi aytish qiyin. Umuman olganda olimning ijodini o'rgangan tadqiqotchilar o'rtasida bu borada yagona fikr mavjud emas. To'g'ri, uning ketidan "ijtimoiy darvinizm" oqimi paydo bo'ldi. Ammo, bu oqim tarafdorlari jamiyat taraqqiyotini tabiiy tanlov va yashash uchun kurashning biologik qonuniyatlari asosidagina tushuntirishga harakat qilganlar.

Keyinchalik yashash uchun kurash tamoyiliga asoslangan (bu jihatdan Darvin ta'limotiga yaqin), biroq yashash uchun kurashga ijtimoiy tamoyillarni asos qilib olgan pozitivizmning rahnamolaridan biri Gerbert spenser (1820-1903 yy.) jamiyat taraqqiyotida asosiy qonun bo'lgan jamiyat Shukuhiga eng moslashgan individlarning tirik qolishi haqidagi g'oyani ilgari surdi, xolos. G.Spenser ta'limotiga ko'ra jamiyatdagi mavjud qarama-qarshilik holati ko'p qirralidir. Xuddi shu jihati bilan u faqat alohida jamiyat orasidagi muvozanatni emas, balki jamiyat va uni o'rab turgan tabiiy olam o'rtasidagi munosabatlarni ham o'ziga qamrab oladi. Shuning uchun ham olim jamiyatda konfliktlar qonuniyatini umumiy va asosiy qonun sifatida e'tirof etadi.

G.Spenser ta'limotida jamiyat bilan tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlardan tashqari jamiyat rivojining tarixiy chegaralari ham ana shu qonuniyat asosida bo'lishi bayon etilgan. Uningcha, jamiyatdagi tabiiy muhitning ilk sarchashmalari jamiyat rivojining, muayyan bosqichida xalqlar va irqalar o'rtasida to'liq tenglik yuzaga kelmaguncha namoyon bo'la olmaydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida AQSHda ijod qilgan olim Uilyam samner (1840-1910 yy.) yashash uchun kurashda taraqqiyotning muqarrar omili sifatida insoniyatning eng kuchsiz va ongsiz qatlami halok bo'lishi shart degan aqidani olg'a suradi. G'oliblar-chi!? G'oliblar esa jamiyatdagi ishbilarmon

---

<sup>2</sup> O'sha joy.

tadbirkorlar, xodimlar, bankirlar va shu kabilar - barcha “umumbashariy qadriyatlar ijodkorlari va umuman eng yaxshi insonlar sanaladi”<sup>2</sup>.

Konfliktologiya borasidagi konservatizmga asoslangan fikrlardan farqli ravishda, U.Samner qarashlari fanning ilmiy irmoqlariga kutilmagan “toshqin” singari qo’shildi. Uning qarashlarida pozitivistik ohang hukmron edi. Tarixiy-etnografik materiallarning qatlamiga tayangan U.Samner, ijtimoiy munosabatlar me’yorini o’rganishda tizimli uslubiy yondashuvga asos solib, guruhlar ichidagi va guruhlararo munosabatlarni shu tarzda o’rganishni boshlab berdi. Konfliktlarni tadqiq qilishda guruhlararo konfliktlarga alohida e’tibor qaratish U.Samner ta’limotining asosiy bo’g’inlaridan biri bo’ldi.

Konfliktlar borasidagi yangi nazariy-tahliliy motivlar polyak olimi Lyudvig Gumplovich (1838-1909 yy.) ijodida ham uchraydi. Jahon tarixi irqilar o’rtasidagi doimiy kurashdan iborat ekanligini e’tirof etgan olim, irqilarning yuzaga kelishi hamda ularning bir-biridan farqli jihatlari biologik emas, balki madaniy o’ziga xoslikda yotadi, deb hisoblaydi. Har bir irq o’ziga xos madaniyatdir. Shu bois, konfliktning sababini nafaqat inson tabiatidan, balki madaniy tafovutlarining ijtimoiy omillaridan izlash kerak. Negaki, madaniyat ijtimoiy konfliktlarning ijtimoiy hayot talablariga monand o’zgarib borishi jarayonidagi ilk ma’lumotlarni berishi mumkin.

L.Gumplovich fikricha, konfliktlar yagona va zaruriy ijtimoiy jarayon emas. Biroq, keng ijtimoiy jamoalar hamda davlatlarni vujudga keltiradigan ijtimoiy birlashuvlar ahamiyatga molik jarayondir. Chunki jamiyatda ijtimoiy guruhlar aynan konflikt natijasida birlashadilar.

Nemis sotsiologi Georg Zimmel (1858-1918 yy.) "konflikt sotsiologiyasi" atamasini ilmiy atamashunoslikka kiritgan olim sifatida tan olingan. Olimning fikricha, konfliktlar jamiyatda ijtimoiy integratsiyani muayyan darajada muvofiqlashtiradi, ijtimoiy bilimlarning aniq xususiyatlarini aniqlab, ularni tashkil etish tamoyillari va me’yorlarini mustahkamlaydi.

XX asrning 20-yillarga kelib, Chikago maktabining ko’zga ko’ringan sotsiologlari Robert Park (1864-1944 yy.), Ernest Berdjess (1894-1964 yy.), Albion smoll( 1854-1926 yy.)lar G.Zimmelning nazariy tadqiqotlarining davom ettiradilar. Ular ijtimoiy jarayonni o’zaro bog’liq bo’lgan to’rt harakat: musobaqa, konflikt, moslashuv va assimilyatsiya asosida ko’rib chiqishadi. Konfliktlar jamiyatdagi ushbu o’zaro ijtimoiy munosabatlarda markaziy o’rinni egallab, ijtimoiy jarayondagi musobaqadan moslashuv va assimilyatsiyaga o’tkazuvchi rolini o’ynaydi va bu bilan ijtimoiy o’zgarishlarning muhim manbaiga aylanadi.

XX asrning 30-yillaridan boshlab jamiyatdagi konfliktlarni ilmiy o’rganishga bo’lgan qiziqishni pasayishi sodir bo’ldi. Ayrim sotsiolog va huquq Shunoslar jamiyatdagi ish tashlashlar, namoyishlar, qurolli to’qnashuvlar ortidagi muammolar va uru Shlarning kelib chiqish sabablarini tadqiq qila boshladilar. Biroq bu tadqiqotlar ko’proq epizodik va empirik tadqiqotlar ko’rinishida edi.

---

<sup>2</sup> Jumaev R.Z, Ubaydullaev U.A, Xo’janov B.A. Konfliktologiya asoslari. O’quv qo’llanma – Toshkent: Akademiya nashriëti, 2000. – 16 b.

Ko'rinib turibdiki, konfliktlarni tizimli tahlili o'rnini ruhiy tanglik va ularni engillatish uslublari egallay boshladi. Natijada jamiyatdagi konfliktlarning sababi sifatida faqat ikki tomon o'rtasidagi qarama-qarshilik va ziddiyatlar birinchi o'ringa chiqib qoladi. Vaholanki, konflikt qanday xarakterda bo'lmasin ularning yuzaga kelishida o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjud bo'ladi.

XX asr 40-yillarida jamiyatning funktsional modeli asosida konfliktlarni tadqiq etish rivojlandi. Xususan, Tolkott Parsons (1902-1979) konfliktlarni tadqiq qilish va bartaraf etishni integratsion jarayon sifatida baholadi va uni ijtimoiy ziddiyat, engib o'tish lozim bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy kasallik, deb biladi.

Ijtimoiy konfliktlarga nisbatan T.Parsons tutgan yondashuvni "insoniy munosabatlar" (Public relations) maktabi vakillari ham o'z tadqiqotlarida tatbiq etdilar. Ularning fikricha, sanoati rivojlanib borayotgan davlatlarning xalqaro munosabatlarda o'zini tutishi va olib borayotgan siyosati ijtimoiy konsensusga asoslanmog'i lozim. Shundagina ular o'zining rivojlanish darajalarini bir me'yorda saqlab turishi mumkin. Ushbu maktabning taniqli vakili Garvard universiteti professori Elton Meyo (1880-1949) "hozirgi zamon bosh muammosi" sifatida "sanoatda tinchlik o'rnatish"ga erishishning tobora qiyinlashib borayotganini ko'rsatadi. Konflikt, uningcha, jamiyatdagi o'ta mudhish "ijtimoiy kasallik"dir. Uni bartaraf etish uchun avvalo "ijtimoiy muvozanat" va "hamkorlik holati"ni davlat va jamiyatda qaror toptirish uchun harakat qilmoq kerak<sup>3</sup>. Shundagina "sog'lom jamiyat"ga erishish mumkin.

1956 yilda Lyuis Kozerning "Ijtimoiy konflikt funktsiyalari" nomli kitobi nashr etildi. Unda L.Kozer konfliktsiz jamiyat, demak konfliktsiz ijtimoiy guruhlar ham bo'lmasligini ta'kidlar ekan, konfliktlar jamiyat tuzumining yangicha rivojlanishida ijobiy ahamiyatga ega ekanligini alohida uqtiradi. L.Kozer "konfliktning ijobiy funktsional kontseptsiyasi" deb nomlangan nazariy dasturini klassik funktsionalizm nazariyasiga qarama-qarshi tarzda ishlab chiqdi. Unda konfliktlar ijtimoiy tahlil Chegaralaridan tashqarida o'rganiladi. Agar funktsional tizim tarafdorlari ijtimoiy konfliktlarda ijtimoiy ziddiyatlar, jamiyatning tartibsizlanish belgilarini ko'rsa, L.Kozer esa aksincha, konfliktlarning jamiyatdagi har qanday tartibsizlik va barqarorlikni ta'min etishdagi ijobiy rolga e'tiborini qaratdi va uni asoslab berishga urindi. Uning fikricha, jamiyatdagi barqarorlik mavjud konfliktli munosabatlar va ular o'rtasidagi aloqalar turiga bog'liq.

1965 yilida Ralf Darendorf Germaniyada "Sinfy tizim va sinfiy konflikt" nomli asarini Chop etdi. Uning "konfliktli jamiyat" kontseptsiyasi dunyo hokimiyati: konfliktlar va rivojlanishlar asosidagi "aksilhayoliy" turmush tarzida qurilgan edi. Agar L.Kozer konfliktning ijtimoiy birlikni ta'min etishdagi ijobiy rolini asoslashga uringan bo'lsa, R. Darendorf konfliktni ijtimoiy organizmning permanent holati deb hisoblaydi. "Konfliktning borligi emas, uning yo'qligi qandaydir g'alati va g'ayritabiiy hol. Jamiyat yoki muassasada konflikt holati sezilmasa, albatta, bu - Shubhaga olib keladi" - deb ta'kidlaydi R. Darendorf. "Har qanday jamiyatning turmush tarzi konflikt asosida qurilgan. Chunki jamiyat ham,

---

<sup>3</sup> Jumaev R.Z, Ubaydullaev U.A, Xo'janov B.A. Konfliktologiya asoslari. O'quv qo'llanma – Toshkent: Akademiya nashriëti, 2000. – 27 b.

jamiyatdagi qadriyatlar ham o'zgaruvchidir. Shu boisdan ham aynan konfliktda turli birlashmalar va erkinlikning ijodiy asosi, shuningdek, ijtimoiy muammolar ustidan nazorat va maqsadga muvofiq ravishdagi qulay muhit mujassamlashgan bo'ladi"<sup>4</sup>.

Amerikalik sotsiolog va iqtisodchi, "konfliktning umumiy nazariyasi" muallifi Kennet Boulding, mavjud konfliktlarning to'liq ilmiy nazariyasini tirik va jonsiz tabiat, shaxsiy va umumiy hayot doirasi ko'rinishlarida tasvirlab berishga intildi. "Konflikt" atamasi uning tadqiqotlarida jismoniy, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan kelib chiqib keng tahlil qilinadi. K.Boulding "dengizning quruqlik bilan yoki erdagi bir turning boshqa bir Shakl bilan tuganmas uru Shi"ni ko'rsatar ekan, jonsiz tabiatning ham jiddiy mojarolardan holi emasligini uqtiradi.

Qarama-qarshiliksiz yashash istagi - yaxshi g'oya. Birok inson - ijtimoiy-siyosiy mavjudot. Shuning uchun ham insoniyat tobora rivojlangan muhitda yashash uchun intiladi. Rivojlanish esa qarama-qarshiliksiz bo'lmaydi. Zero, qarama-qarshilik tomonlar o'rtasida konfliktlarni keltirib chiqarishi tabiiy. XX asrning 70- yillariga kelib jamiyatdagi inqirozli holatlar – konfliktlarni ijobiy tarafdin o'rganish yanada rivojlandi. Ayniqsa, jamiyatning konfliktlarsiz rivojlanish g'oyasini "muqobil" sotsiologiyaning atoqli vakili, amerikalik sotsiolog Alvin Gouldner (1920-1980) qattiq tanqid qildi. Uning fikricha, sotsiologiyaning asosiy vazifasi jamiyatning konfliktli holati va jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'ladigan inqirozli vaziyatlar sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlashdan iboratdir. G'arb jamiyatining inqirozini A.Gouldnsr insonning tobora yakkalashib ketishi, dunyoga nisbatan odamlarning maqsadli qarashlarining yo'qolishi, bilim va hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlarning rivojlanishiga bog'liq, deb baholaydi<sup>5</sup>.

Jamiyatning konfliktlarsiz rivojlanishi borasidagi qarashlar Ch.Mills va boshqalarning asarlarida ham tanqid qilingan. Biroq, XX asrning 80-yillar boshida jahonda nafaqat rivojlanish, balki tinch-totuv yashash va doimiy barqarorlikka erishish uchun konfliktlarga chek qo'yish haqidagi qarashlar Shakllandi. Bunday jarayonga, avvalo, umumbashariy muammolarni bartaraf etish uchun davlatlarning hamkorlikka bo'lgan tabiiy talab sezilarli ta'sir o'tkazdi. Birinchilar qatorida "umumbashariy muammolar"ni tadqiq etishga Rim klubi a'zolari alohida e'tibor qaratib, bu borada "tizimli tahlil" uslubini qo'lladilar. Ushbu klub xalqaro nohukumat tashkiloti bo'lib (1968) o'z safiga jahondagi ko'plab davlat va jamoat arboblarni, olimlarni birlashtirgan edi. "O'sish Chegaralari" – Rim klubi tomonidan 1972 yilda tayyorlangan ilk ma'ruzalar to'plamidir. Ushbu ma'ruzalar majmuasi Massachusetts texnologiya instituti ilmiy-tek Shirish guruhi tomonidan tayyorlangan (Denis va Donsll Medouz rahbarligida) bo'lib, ma'ruzalar matni xalqaro hamjamiyatning yuksak e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Klubda o'tkazilgan yig'ilishlarda ko'plab siyosiy ziddiyatlar, uru Sh va mojarolar, tinchlik muammolari muhokama etildi. Ushbu muhokama etilgan

<sup>4</sup> Darendorf R. Elementi teorii sotsialnix konfliktov // Sotsiologicheskoe issledovanie. – M, 1994. – № 5.

<sup>5</sup> Jumaev R.Z, Ubaydullaev U.A, Xo'janov B.A. Konfliktologiya asoslari. O'quv qo'llanma – Toshkent: Akademiya nashrieti, 2000. – 33 b.

muammolarning asosini er yuzida tinchlikni ta'minlash masalasi tashkil etdi. Zero, tinchlikni ta'minlash uru Shning yo'qligi demakdir. Qolaversa, er yuzida uru Shlarga barham berish tinchlik haqidagi maqsadlarning samarali intihosidir. Faqat jahon rivojlanishidagi uyg'unlik Sharoit, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik orqaligina mustahkam tinchlik va xavfsizlikka erishish mumkin. Davlatlarning o'zaro hamkorlikka intilishi xalqaro keskinliklarni yum Shatish uchungina emas, balki davlatlar umummanfaatlari mu Shtarakligini ham namoyon etadi. Qolaversa, uzoq kelajakni ko'zlab qilingan hamkorlik Shartlari tomonlar uchun musobaqalashuv yoki raqobatlashuvdan ko'ra manfaatliroqdir.

Barqarorlik va tinchlik Sharoitida jamiyatning yangicha turmush tarziga erishish uchun Rim klubi mutaxassislari ijobiy taraqqiyot va o'sishning yangicha kontsepsiyalarini taklif qiladilar. Klub a'zosi, germaniyalik taniqli jamoat va siyosat arbobi E.Pestel uzviy taraqqiyotning o'ziga xos tomonlarga ega ekanligini aytib, uni quyidagicha ta'riflaydi:

- o'zaro aloqadorlikdagi tizim, ya'ni bir-biriga zarar etkazmasdan o'zaro bog'liq ravishda o'sadigan tizim - jamiyatdagi progressiv o'zgarishlar;

- turli xil tizim qismlari talablariga javob beradigan ko'ptomonlama rivojlanish, shuning uchun ham dunyoning turli mintaqalarida joylashgan davlatlar turlicha rivojlanadi (buning ustiga rivojlanish jarayoni vaqt o'tishi bilan o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'zgarib turadi);

- maqsadlarni muvofiqlashtiruvchi mu Shtarakligi tinchlikni ta'minlashga daxldor ekanligini bildiradi;

- tezkorlik, harakatchanlik va moslashuvchanlik – taraqqiyot jarayonida vujudga keladigan tasodifiy ta'sirlarni bartaraf etishda qo'l keladi. Bosh maqsad yo'nalishiga bunday xususiyatlar hech qanday halaqit bermaydi;

- odamlarning turmush Sharoitini yaxshilash va kerakli narsalar bilan ta'minlashni taraqqiyotning bosh mezoni sifatida bilish;

- rivojlanish bosqichida qiyinchiliklar va yangi muammolarning darajasiga qarab baho beradigan vaqt o'lchovini anglash;

- maqsadlarning doimiy "yangilanib borishi", ya'ni "eski" maqsadlarga erishilganidan yoki qayta mulohaza etilganidan so'ng, yana "yangi" maqsadlarning yuzaga kelishi.

Xullas, jamiyatdagi ziddiyatlar xususida XX asrda bildirilgan turli xil mulohazalar ikki yo'nalishda o'z aksini topdi, bular;

Birinchidan, G'arbiy Yevropa (Frantsiya, Gollandiya, Italiya, GFR, Ispaniya)da shakllanib o'zining muayyan rivojlanish bosqichiga ega bo'lgan ilmiy institutlar faoliyati.

Ikkinchidan, AQSHda yuzaga kelgan va rivojlangan ilmiy yo'nalish. Umuman ikkala makonda tadqiqot olib borgan olimlarning maqsadlari mu Shtarak. Faqat ular ob'ektga nisbatan turli xil uslubiy yondashuvlar asosida o'z fikrlarini bayon etishgan xolos. Ushbu tadqiqotlardan birida martabaga erishish yo'llari haqida fikr yuritilib: "Tinchlik istasang uru Shni o'rgan", - deyiladi. Tinchlikni yoqlovchi institut tadqiqotchilari esa tinchlik va kelishuv muammolariga e'tibor qaratadilar.

Mamlakatimizda ijtimoiy konfliktlarni ilmiy o'rganish mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, sobiq ittifoq davrida ushbu fan yo'nalishi yaqin-yaqinlargacha biz o'rganib kelayotgan fanlar qatorida konfliktologiyani uchratmas edik. Hozirgi vaqtda davlatimizning bir qator ilm dargohlarida konfliktologiya fan sifatida o'qitilmoqda.

Konflikt so'zi lotincha «conflictus»<sup>6</sup>, ya'ni ixtilof, to'qnashuv, nizo kabi ma'nolarni bildiradi. Konflikt hayotiy ziddiyatlar, insonlarning istak va intilishlari, his-tuyg'ulari va ehtirolari, o'y-fikrlari va xatti-harakatlaridagi qarama-qarshiliklar, kuchli dramatik to'qnashuvlar, kelishmovchiliklar, kishilar ongi va dunyoqarashlaridagi kayfiyati va fe'l-atvoridagi qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar va ziddiyatlarni ilmiy ifodalash Shaklidir. Konflikt jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy kuchlari va an'analarning to'qnashuvi asosida yuzaga keladi va echiladi. An'anaviy ma'nodagi tenglik va tengsizlik, adolat va adolatsizlik, to'g'ri va egri, rost va yolg'on, yaxshilik va yomonlik, ma'rifat va xurofot, zulmat va nur, ezgulik va yovuzlik kabi ko'plab qarama-qarshi vaziyat, hodisalar tarzida namoyon bo'ladi.

Konfliktologiya – mojarolar mohiyatini o'rganish va ular muammolarining echimiga qaratilgan optimal taklif va tavsiyalar ishlab chiqish haqidagi bilim sohasidir. Konfliktologiya ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy-siyosiy boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirish va mutanosiblashtirish zaruriyati siyosat Shunoslik, siyosiy ruhiyat Shunoslik, sotsiologiya fanlari oralig'ida vujudga kelgan. Hozirgi davrda shakllantirilgan konfliktologiya bilim sohasi siyosat Shunoslik va sotsiologiya fanlari erishgan yutuqlarga suyangan holda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, ahloqiy munosabatlar jarayonida kelib chiqayotgan to'qnashuv-mojarolarning tinchlik bilan guruhlararo, davlatlararo, millatlararo, jamoalararo, xalqaro miqyoslarda kelishuv-murosa yo'li bilan bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqib amaliyotga kiritishga muvaffaq bo'lgan.

To'qnashuvlar doimiy harakatda bo'lib, to'qnashuv vaziyatlaridan kelib chiqadi va shu vaziyat tabiatiga ko'ra, ularni asta-sekin yo'qqa chiqarish yoki alangalatish imkoniyatlaridan foydalanadigan ijtimoiy yoki siyosiy kuchlar jamiyatda doim mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham konfliktologiyaning asosiy strategik vazifasini to'qnashuv – mojarolarning echimini izlab topishgagina emas, balki, kelib chiqishi – amaliy asoslarini ishlab chiqib, jamiyat hayotining barcha jabhalariga ularni joriy qilish mexanizmlarini belgilab berishdan iborat. Sotsiologlar fikricha, aslida barcha konfliktlarda gap ikki narsa: resurs va uning ustidan nazorat qilish xususida boradi. «Moddiy dunyo va ijtimoiy dunyo borliq elementlarining ma'lum bir konflikt ob'ekti bo'lishi uchun element ustidan nazorat o'rnatishga harakat qilayotgan turli ijtimoiy sub'ektlar manfaatlari uning atrofida bir-biriga tutashgan holda bo'lishi kerak».<sup>7</sup>

Konfliktni bartaraf etish yo'llarini topish asosan uning predmeti qanchalik aniqlanib, tahlil etilganligi bilan belgilanadi. Konflikt predmetini tadqiq qilish faqat tomonlar o'rtasidagi vositachi yoki hakamlargagina tegishli bo'lib qolmasdan, balki bevosita konflikt sub'ektlarining ham muhokama mavzusi

<sup>6</sup> Sotsiologicheskiy slovar. – Minsk, 1997.

<sup>7</sup> Lebedova M.M. Politicheskaya urelegirovanie konfliktov. – Moskva, 1997



bo'lishi mumkin. Bunday muzokaralar tomonlarning o'zaro muzokaralar olib borishi bilan amalga oshiriladi. Bizga ma'lumki, konfliktlarning turli shakllari bo'lib, ular oddiy ikki insondan tortib yirik harbiy yoki millionlab insonlar ishtirok etgan siyosiy uru Shlarda bo'ladi. Ijtimoiy hayotda konfliktlarning xili, shakli ko'p bo'lsada ular umumiy xarakteristikaga ega va aynan Shu tadqiqotda konfliktning asosiy o'lchamlarini turkumlashda va uning jadallashuvidagi omillarni aniqlashda yordam beradi. Barcha konfliktlarga ushbu xususiyatlar xos:

- konflikt sabablari;
- konfliktning keskinligi;
- konfliktning davomiyligi;
- konfliktning natijasi.

Ushbu xarakteristikalarni o'rganib, ulardagi o'xshashlik va farqlarni anglash va konfliktning muhim tomonini aniqlash mumkin. Konflikt munosabatlarini o'rganishda konfliktning xarakterini belgilash va uning sababini tahlil qilishni uning turlaridan boshlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular:

YAshirin maqsad sari inson o'z ehtiyojini qondirishga harakati jarayonida u qarama-qarshi maqsadli qadriyatga intiladi. Ayni damda boshqa individ va guruhlar ham Shu qadriyatga intilishadi. Natijada ularda to'qnashuv sodir bo'ladi va bu konflikt kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Qarama-qarshi maqsadli qadriyat konfliktlari turli xil bo'lib, ular sevgi, oila, nikoh, hatti-harakat odobi, san'at, sport va boshqa sotsial institutlarga turli munosabat tufayli paydo bo'ladi. O'rta darajadagi konflikt turli madaniyatlar to'qnashuvidan yuzaga keladi. Qarama-qarshi maqsadga sabab bo'lgan konfliktlar iqtisodiy-siyosiy, sotsial-psixologik va boshqa qadriyatli maqsadlar muhitida sodir bo'ladi. G'oyaviy kelishmovchiliklar asosida paydo bo'lgan konfliktlar qarama-qarshi mo'ljal konfliktlarida tez-tez uchrab turadi. Ularning farqi shundaki, g'oyaviy konfliktning sabablari jamiyatning g'oyaviy tizimiga bo'lgan turli munosabatidir. Diniy e'tiqod, sotsial-psixologik intilish qarama-qarshiliklarning katalizatoridir.

Konflikt sabablaridan yana biri iqtisodiy xilma-xillik va sotsial tengsizlikdir. Individ va guruhlarda daromad bilan axborot madaniyat elementlari kabi qadriyatlar taqsimlanishidagi farqlar konfliktga sabab bo'ladi. Ma'lumki, har qanday jamiyatning yuzaga kelish asosida muayyan konfliktlarni, qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdek murakkab jarayon yotadi. Sotsiometrik ta'limot konfliktologiya muammolarini nisbatan aynan jamiyatdagi konfliktlarni emas, balki, jamiyatdagi qarama-qarshilik ya'ni bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan kuchlar o'rtasidagi munosabatlarnigina tadqiq qiladi.<sup>8</sup> Jamiyatdagi muayyan qarama-qarshilik muammolari bilan Shug'ullanishni to'la ma'nodagi konfliktologiya muammolari bilan Shug'ullanadi deyish qiyin, biroq konfliktlarni tadqiq etish muayyan qarama-qarshiliklarni ham tadqiq etishdir, deyishimiz mumkin.

Har qanday konflikt qamrov doirasi keng bo'lgan ichki va tashqi holatlarga bog'liq bo'lib, bu holatlar qanchalik o'zgaruvchan va o'ziga xos bo'lmasin, baribir ular o'rtasida mutanosiblik mavjud, Konfliktning tashqi va ichki omillari bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, o' Sha tashqi yoki ichki omillarni tadqiq etishdagi uslubiy yondashuvlar bir-birinikidan farq qilishi mumkin. Ichki va tashqi holatni

<sup>8</sup> Istoriya sotsiologii. // Pod red. A.M.Elsukova. – Minsk: Visheyshaya shkola, 1997. – S. 215.

o'rganishda yuzaga keladigan farqliliklarni avvalo, konfliktning qamrov doirasi, ularning aniq bir kategoriyalarga, yo'nalishlarga ega bo'lishi kabi sabablar yuzaga chiqaradi. Konfliktni umumiy qilib (ichki yoki tashki holatlarga ajratmasdan) tadqiq qilayotganda konflikt yo'nalishi va uning mavjudligini belgilovchi ikki jihati - ya'ni konflikt predmeti va uning ob'ektini ajratib ko'rsatish kerak.

Konflikt predmeti deganda tomonlar o'rtasida ob'ektiv jihatdan mavjud bo'lgan yoki biror maqsadni ko'zlab yuzaga keltirilgan muammo tushuniladi. Holbuki, ushbu muammo tomonlarning o'zaro konfliktga kirishuviga sabab bo'ladi. E'tiborli jihati shundaki, bunda har ikki tomon ham ushbu muammoni o'zlarining foydasiga hal etilishidan manfaatdor bo'ladi. Demak, konflikt predmeti - konflikt ishtirokchilari, ya'ni sub'ektlarning o'zaro kurashga kirishib, o'zlaricha biror echimga harakat qilishini nazarda tutuvchi ziddiyatlar majmuasidir. Bu to'qnashuvlar asosida hokimiyatni egallash, u yoki bu boylikka ega bo'lish yoki raqibidan doimo birinchi turish istagi yotadi.

Konfliktni bartaraf etish yo'llarini topish, asosan uning predmeti qanchalik aniqlanib tahlil etilganligi bilan belgilanadi. Garchi bu ba'zan o'ta mu Shkul vazifa bo'lsa-da. Ko'pgina konfliktlar murakkab va chalkash tarixga ega bo'lib, uning har bir bosqichini birma-bir ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Chunki, konflikt predmeti bir necha qatlamlardan iborat bo'lishi, oqibatda bir-biriga bog'liq tarzda ko'plab "og'riqli nuqtalar" hosil qilishi mumkin. Biror oiladagi davomli konfliktlar yoki millatlararo konfliktlarning nechog'li ko'p qirrali xususiyatlarga ega ekanligi bunga misol bo'la oladi.

Konflikt predmetini tadqiq etish faqat tomonlar o'rtasidagi vositachi yoki hakamlargagina tegishli bo'lib qolmasdan, balki bevosita konflikt sub'ektlarining ham muhokama mavzusi bo'lishi mumkin. Bunday muhokamalar tomonlarning o'zaro munozaralar olib borishi bilan amalga oshiriladi. Sub'ektlar o'rtasidagi muzokaralar (vositachilik yoki hakamlik qilishga nisbatan olganda) o'zining tomonlar o'rtasida ruhan muammoni his qilishi, ijtimoiy o'zaro ta'sir etish kuchiga (munosabatlarga nisbatan) egaligi, imkoniyatlarning bir qadar ko'pligi bilan ajralib turadi. Gap shundaki, muzokaralar Chog'ida sub'ektlarning o'ziga xos yashirin manfaatlarini umumiy "manfaatlar konflikt"i doirasida hal etiladi yoki aksincha. Muzokaralar predmeti esa aynan manfaatlar konflikti tanlagan predmetning xuddi o'zi. Biroq, bu erda tomonlar konfliktidagi kabi harakat qilmaydilar. Ular o'rtasidagi muzokaralar risoladagidek olib borilib, u ko'proq ilmiy bahs yoki bozordagi savdoni eslatadi. Biroq muzokaralar - mavjud munosabatlar yuzasidan bo'ladigan muzokaralardir. Qolaversa, bu bahs va munozaralarda tomonlar manfaatlarining qarama-qarshiligidan so'z yuritiladi.

Muzokaralar davomida tomonlar o'zlarining konfliktlari predmetini aniqlab olishi yoki uni ma'lum darajada hayolan tasavvur etishlari mumkin. Biroq muzokaralar jarayonida tomonlar bir-biriga nisbatan tugayotgan pozitsiyalarini, vositachilar esa konfliktni yuzaga keltirgan asosiy "yadro"ni aniqlab olishlari kerak. Ana shu konflikt "yadro"si keyinroq "konflikt ob'ekta" tushunchasini anglab etishda kerak bo'ladi.

Sotsiologlar fikricha, aslida barcha konfliktlarda gap ikki narsa: resurs va uning ustidan nazorat qilish xususida boradi. Ushbu nuqtai nazardan hokimiyatni

egallash resurslar ustidan nazorat o'rnatish, mulkka egalikni qo'lga kiritish esa, Cheksiz resurslarga egalikni qo'lga kiritish demaقدir. Resurslarni moddiy va ma'naviy resurslarga bo'lish mumkin. Ma'naviy resurslar jamiki mavjud resurslarni yaratuvchi omildir. Bu fikr albatta, boshqa fanlarning ko'plab mutaxassislari tomonidan muqarrar Shaklda ifoda etilmaydi. Biroq barcha mutaxassislarning umumiy fikrlarini tahlil etganda, "konflikt ob'ekti" degan tushunchaga nisbatan va bu tushuncha orqali konfliktning ikkala ishtirokchilari ham egallashga harakat qiladigan ana o' Sha konkret moddiy yoki ma'naviy boylik nazarda tutilganligining guvohi bo'lamiz. Konflikt ob'ekti sifatida shaxs, guruhlar yoki davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi moddiy dunyo va ijtimoiy borliqdagi mavjud narsalar u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Moddiy dunyo va ijtimoiy borliq elementlarining ma'lum bir konflikt ob'ekti bo'lishi uchun, ushbu element ustidan nazorat o'rnatishga harakat qilayotgan turli ijtimoiy sub'ektlar manfaatlarini uning atrofida bir-biriga tutashgan holda bo'lishi kerak. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin: Chiroyli o'yinchoq ustida talashib qolgan bolakaylar o'rtasidagi munosabatlar, u yoki bu hududni o'z nazoratiga olish istagida yurgan davlatlar o'rtasidagi xalqaro konfliktlar va boshqalar.

Munosabatlarning muayyan tizimidagi konflikt ob'ekti - doimo tanqis resurslar bo'lgan. Masalan:

- bo' Sh direktor lavozimiga da'vogarlik qilayotgan ikki o'rinbosar;
- do'kondagi so'nggi non uchun navbatda turganlarning janjali;

Afsuski, insonlar hayotida uchrab turadigan bunday ko'plab muammolarni barcha tomonlarning istaganidek hal etib bo'lmaydi. Kundalik hayotimizda sodir bo'lib turadigan bir qator konfliktlar ob'ektini ajratib olganimizda, umumiy xarakterga ega muammolar doirasini belgilab olish mumkin.

Biroq, konflikt aniq ob'ektga ega bo'lmasligi ham mumkin. "Ob'ektli" konfliktdan tashqari konflikt kategoriyalari o'z ustidan nazorat qilishga yo'l bermaydigan "ob'ektsiz" konflikt turiga ham ajratishadi. Masalan, oddiy ko'p qavatli uydagi ikki qo'shnilardan biri yozuv ustida ishlayotgan paytda, ikkinchi qo'shni biror san'at asbobini Chalayapti. Birinchi qo'shni musiqa tovushi unga halaqit berayotgani uchun devorni taqillatadi. Natijada konflikt boshlanadi. Ko'rinib turibdiki, konfliktga ikki tomonning o'zaro kelishib vaziyatni yum Shatishga intilishi emas, balki bir tomon faoliyati ikkinchisining ishiga halaqit berib, uning faoliyatini susaytirib yuborishi sabab bo'lmoqda.

#### **Nazorat savollari:**

1. Konflikt deganda nimani anglaysiz?
2. Konfliktning umumiyliги nimada?
3. Sotsial konfliktlar ko'rinishlarining xilma-xilligi deganda nimani tushunasiz?
4. Sotsial konfliktning sabablari nimalardan iborat?
5. Konflikt ob'ekti va predmetini tushuntirib bering?

#### **Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Darendorf R. Elementi teorii sotsialnix konfliktov // Sotsiologicheskoe issledovanie. – M, 1994. – №5.
2. Zdravomislov A.G. Sotsiologiya konfliktov. – M., 1996.
3. Istoriya sotsiologii pod redaktsiey. A.M.Elsukova. – Minsk: Vi Sheyshaya shkola, 1997.
4. Kozirev G.I. Vvedenie v konfliktologiyu. – M.,1999.
5. Konfliktologiya. Sotsialnie konflikti: uchebnik dlya studentov vuzov / T.N. Kilmashkina. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2012.
6. Lebedova M.M. Politicheskaya urelegirovanie konfliktov. – Moskva, 1997.
7. Jumaev R.Z, Ubaydullaev U.A, Xo'janov B.A. Konfliktologiya asoslari. O'quv qo'llanma – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2000. – 10 b.
8. Sotsialniy konflikt. Sovremennie issledovaniya: Reformativniy sbornik. – M., 1997.
9. Sotsiologicheskii slovar. – Minsk. 1997.
10. Xayrullaev M. Forobiyning falsafiy va ijtimoiy qarashlari // O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Toshkent, O'zbekiston. 1995.

## 26-mavzu. EKOLOGIYA SOTSILOGIYASI

### REJA

1. Ekologiya sotsiologiyasining rivojlanishi.
2. Ekologiya sotsiologiyasi ob'ekti va predmeti.
3. Sotsial-ekologik qarashlarning vujudga kelishi.
4. Sotsiologiyada “YAngi invayronmental paradigma”.

Inson doimo boshqa sotsial sub'ektlar va atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lib turadi. Bu ikki tizim organik jihatdan bir-biri bilan bog'langan va bunda jamiyatning rivojlanish darajasi insonning tabiatga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Atrof-muhitning holati inson tsivilizatsiyasi mavjudligining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun insoniyatning eng muhim vazifalaridan biri tabiiy resurslardan foydalanishda anglangan va tizimli boshqarish faoliyati bo'lib xizmat qiladi. Ekologik muammolar, garchi ular barcha hududlarga tegishli bo'lsada ayniqsa industrial rivojlangan markazlarda keskin tus olgan. Atrof-muhit muammolari faqatgina jismoniy yoki ekologik muammolardan iborat bo'libgina qolmaydi. Ular siyosiy, institutsional, madaniy-ekologik negizlarni aks ettirib, ijtimoiy fanlarning diqqat markazida bo'ladi.

Ekologiya sotsiologiyasining ob'ekt va predmeti. Ekologiya sotsiologiyasi - sotsiologiya sohasi bo'lib, insonlar bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'ziga xos aloqalar, sotsial jarayonlar, sotsial struktura va institutlar faoliyatiga antropogen ekologik omillar ta'sir qilishi, ularning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishining o'ziga xos jihatlarini o'rganadi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarda, sotsial xatti-harakatlar va ommaviy hulq-atvor qonuniyatlarini, ekologik krizis holatini vujudga kelish muammolarini hal qilish mexanizmlarini o'rganadi. Uning bosh vazifalaridan biri jamiyat va tabiatning o'zaro bir-biriga ta'sir qilish qonuniyatlarini o'rganish, ana shu o'zaro munosabatning muvozanatlashishiga erishish, haqqoniy sotsial-ekologik axborotni olish, ularni yuzaga keltiradigan ekologik muammolar va omillar bo'yicha jamoatchilik fikrini aniqlash bo'lib xizmat qiladi. Uning ilmiy qiziqishi sohasida atrof-muhitning jamiyatga ta'siri, ekologik ongni shakllantirish, fuqarolarning davlat ekologik siyosatini amalga oshirishda ishtirok etishini ta'minlash va shunga o'xshash vazifalar yotadi.

Ekologiya sotsiologiyasining predmetiga jamiyat va insonning sun'iy yashash muhiti o'rtasidagi o'zaro aloqa muammolarini ham kiritish mumkin.

«Ekologiya» atamasi ilmiy sohaga buyuk nemis biologi E.Gekkeleyning urinishlari tufayli 1866 yilda organizmlar va atrof-muhitning munosabatlari to'g'risidagi fanni belgilash orqali kirib keldi.<sup>1</sup> Bu so'z qadimiy yunon tilidan olingan (oikos - uy, turar joy)<sup>2</sup>, uy, turar joy ma'nosini bildiradi. Ekologiyaning rivojlanishidagi muhim bosqichi bu ekotizimdir. Amerikalik ekolog A.Tensli tomonidan 1935 yilda tirik va notirik elementlardan iborat bo'lgan “ekotizim” tushunchasi asoslab beriladi<sup>3</sup>. Atrof-muhitga antropogen (inson faoliyati keltirib

<sup>1</sup> Sotsiologicheskaya entsiklopediya. M., 2003. T. 2. S. 791-794.

<sup>2</sup> Entsiklopedicheskiy sotsiologicheskiy slovar. M., 1995. S. 896-898

<sup>3</sup> Toshenko J.T. Sotsiologiya. M., 2005. Gl. «Ekologicheskaya sotsiologiya».

chiqargan, u tomondan murakkab va qudratli texnikaning qo'llanilishi natijasida yuzaga kelgan) ta'sirning kuchayishi tufayli vaqt o'tishi bilan "tabiat ijtimoiylashuvi" g'oyasi yuzaga keldi. Ushbu g'oya XX asrning 30-yillar o'rtalarida sotsiologiyaning Chikago maktabi etakchilari R.Park, YU.Berdjessa va R. Makkenzi tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Ular "Shahar-organizm" va jamiyatning "chuqur biologik hodisa" ekanligi to'g'risidagi kontseptsiyani ilgari surishdi. Kontseptsiyaga ko'ra, jamiyatda biologik va sotsial jarayonlarning o'zaro bir-biriga ta'sir qiladigan harakati amalga oshadi va uning natijasida "sotsial muvozanat" yuzaga kelishi lozim bo'ladi. Ushbu muammolar majmuasini Chikago maktabi etakchilari "Sotsial ekologiya" deb atashni taklif etadilar. Aynan Shu davrda ekologiya sotsiologiyasi sotsiologik bilishning nisbatan mustaqil sohasi sifatida shakllanishga hali ulgurmagan bo'lib, unda faktologiya ham, nazariy kontseptsiyalar ham etishmasdi. Uning oyoqqa turishi faqatgina XX asrning 70-yillar o'rtalarida amalga oshib, biosferaning tashkil etilganligini, o'zini shakllantirish mexanizmlari samaradorligi insonning faol faoliyati natijasida haddan tashqari kamayib ketishi bilan, bu holat halokatli natijalarga olib kelishi, jamiyat va tabiat o'rtasidagi dinamik muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkinligi oydin bo'lib qoladi. Ekotizimlarni sotsiologik tadqiqot qilish borasidagi tarqoq va lokal harakatlar asosida asta-sekin nisbatan mustaqil bo'lgan ilmiy bilishning integratsiyalashgan sohasi – ekologiya sotsiologiyasi shakllana boshlaydi. O'zining asosiy vazifasi bo'lib, tabiiy va ijtimoiy bilimlar kontseptsiyalarining tadqiqot usullarini nazariy sintez qilish, ular asosida inson va tabiatning o'zaro aloqa qilishining kontseptual modelini ishlab chiqish deb biladi. Bu holat o'zaro aloqa jarayonlarini optimallashtirishga, so'ngra esa uyg'unlashtirishga imkon berardi. Atrof-muhitning geologik va biologik muhitlari tabiatdagi jarayonlarning ta'siri texnologik va sotsial – sotsial jarayonlar natijasida yuzaga kelgan bo'lib, ular sotsial munosabatlarda va inson xatti-harakati natijasida namoyon bo'ladi. Bu esa shunday xulosaga olib keladiki, ekologiya sotsiologiyasi bo'lib turli sotsial jarayonlarda birlashgan insonlarning ongli, maqsadga yo'naltirilgan faoliyati natijasida shakllanadigan va amal qiladigan sotsial-tabiiy munosabatlar va o'zaro aloqalarning murakkab tizimi bo'lib xizmat qiladi. Albatta, u ana shu murakkab tuzilgan tizimning har bir qismining o'ziga xos jihatlari, rivojlanishining tendentsiyalari va qonuniyatlarini o'rgana olmaydi. Albatta, bu ko'pchilik fanlarning vazifasidir - fizika, kimyo, geologiya, biologiya va hokazo. U "jamiyat – inson – texnika - tabiat" kabi o'zaro aloqalar tizimi bo'lib xizmat qiladigan ana shu ko'p jihatli ob'ektdan maxsus, faqat unga xos bo'lgan tadqiqot predmetini ajratib oladi. Modomiki bu fan oyoqqa turish bosqichida ekan, uning predmetiga qarashlarda turli fikrlar mavjud bo'ladi. Ko'pchilik bir nechta o'zaro bog'langan tadqiqot muammolarini tan oladi, ekologiya sotsiologiyasining fan sifatidagi muammolar maydonini va demak uning predmetini birgalikda tuzadi. Ularning orasida – turli ko'lamdagi ijtimoiy tizimlar (alohida individ, oila, umumiy planetar tizim sifatidagi insoniyat) va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalar. Bunda faqatgina jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasining sotsial omillari emas, balki birinchi navbatda ijtimoiy umumiylikning elementi bo'lgan insonning faol tabiatni o'zgartiruvchi (ko'pincha tabiatni vayron etuvchi) faoliyati tahlil

qilinadi. U va tabiat o'rtasida maxsus uchinchi element – texnika, texnologiya va “ikkinchi tabiat” tomonidan sun'iy yaratilgan boshqa predmetlari faoliyat ko'rsatib turadi. Chunki jamiyat va tabiat o'rtasidagi kelajakdagi munosabatlar aynan hududiy, kasbiy, etnik va boshqa sotsial jamoada birlashgan odamlar, ular tomonidan yaratilgan texnosferaning tabiiy yashash muhitiga ko'rsatadigan vayronalarcha ta'siriga va ular tomonidan tanlab olingan va amalga oshiriladigan tabiatdan foydalanish strategiyasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ekologiya sotsiologiyasi faqatgina sotsial jarayonlarning faoliyatini o'rganib qolmasdan, balki insonning manfaatlari va ehtiyojlariga javob beradigan, hamda biosferaning saqlab qolinishiga va qayta ishlab chiqarilishiga, jamiyatning tabiat bilan uyg'unlashishiga yordam beradigan optimal modellarni yaratishga xizmat qilishi lozim bo'ladi. Insoniyatning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasini optimallashtirishga yo'naltirilgan nazariyalar ishlab chiqish bilan bir qatorda ekologiya sotsiologiyasi ana shu o'zaro aloqalarning maqsadga yo'naltirilgan holda shakllanishining faol omili bo'lib xizmat qiladi. Bu funktsiyani u boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ijro etadi.

Demak, ekologiya sotsiologiyasining predmeti – bu inson (jamiyat) va atrof-muhit o'rtasidagi o'ziga xos maxsus aloqalarni, uning tabiiy va ijtimoiy omillar majmuasi sifatidagi insonga ta'sirini, shuningdek insonning atrof-muhitga ta'sir qilishini tadqiqot qilish hisoblanadi. Uning global, hududiy, antropogen o'zgarishlari, atrof-muhitda insonning sotsio-biologik mavjudot sifatida normal hayot kechirishi uchun, saqlab qolish va qayta ishlab chiqarishni sotsio-madaniy interpretatsiyasi qiziqtiradi. Ekologiya sotsiologiyasining predmetini aniqlash masalasi uning ob'ektini aniq ajratib olishga imkon beradi. Ekologik va sotsial ob'ektlarni o'rganishdagi ikki xil yondashuvning – ekologiya va sotsiologiyaning integratsiyasi bo'lgani holda, bu integrativ fan kontseptsiyalar, nazariyalar, har bir fanlardan alohida olingan ilmiy bilimlarning mexanik birlashuvi bilan chegaralanib qolmaydi. Uning ob'ektini ajratib olish o'z ichiga ekologiya va sotsiologiya komponentlarini kiritib umumlashgan, sintetik, sifat jihatdan yangi ilmiy kontseptsiya tufayli amalga oshadi. Agar tadqiqot ob'ektiga nisbatan ekologik yo'naltirish tirik organizmlar va atrof-muhitning o'zaro aloqa qilishi borasidagi asosiy tamoyillardan kelib chiqilsa, sotsiologik yo'nalish esa – individlar va guruhlarning sotsial muhit bilan o'zaro aloqa qilishidan kelib chiqadi, u holda tadqiqot ob'ektiga sotsioekologik yo'naltirilganlik “tabiiy- sun'iy”lik o'zaro aloqasi bilan belgilanadi. Uning nigohi faqatgina tirik organizmlarning yashash muhiti bilan o'zaro aloqasining tabiiy jarayonlariga emas, balki murakkab eko- va sotsiotizimlarning o'zaro aloqa qilish jarayonlariga, alohida ob'ektlar – “ikkinchi tabiat”ning, ya'ni inson tomonidan yaratilgan predmetli muhitning tuzilmasi, o'ziga xos jihatlari va tendentsiyalariga qaratilgan bo'ladi.

Masalan, muhit doirasida shahar, temir yo'l, atom elektrostantsiyasi, ishlab chiqarish faoliyatining butun infratuzilmasi yotadi. Bu ob'ektlar insonning o'zi yashaydigan «ikkinchi», sun'iy yaratilgan tabiatga kiradi. “Ikkinchi tabiatning” mavjudligining o'zi ekologik va sotsial tizimlar Chegarasida yuzaga keladigan ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Barcha sotsioekologik muammolar

aynan sotsioekologik tadqiqotlarning ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Demak xulosa qiladigan bo'lsak :

1. Inson va sotsial jarayonlarning tabiiy va sun'iy muhitning ikkilangan va bir-birini kesib o'tuvchi ta'siri ostida rivojlanadi va faoliyat ko'rsatadi.

2. "Ikkinchi" tabiatning barcha komponentlari, ularning funksional xususiyatlari inson bilan tabiat o'rtasida uchinchi element – mehnat qurollarining (tabiatdan olingan va natijaga erishish uchun texnik jihatdan qayta ishlangan qurol) borligi oqibatida yuzaga keladi. Bu Shuni anglatadiki, insoniyat jamiyatining tabiiy muhit bilan o'zaro aloqa qilishining eng muhim komponenti bo'lib faqatgina antropogen emas, balki insonning texnogen faoliyati mahsuli bo'lgan sun'iy yaratilgan muhit bo'lib xizmat qiladi.

3. Insonning tabiat bilan o'zaro aloqasi faqatgina texnik emas, balki sotsial omillar – huquqiy, ahloqiy, iqtisodiy, sotsio-madaniy omillar bilan ifodalanadi. Ushbu fikrlarni hisobga olganda, ekologiya sotsiologiyasining ob'ekti nihoyat Shakllandi – bu munosabatlar o'zaro aloqalarning murakkab va ko'p jihatli tizimi bo'lib, u o'zida inson bilan biosferaning o'zaro aloqasi sotsial va texnologik omillar bilan belgilangan "jamiyat – inson – texnika – tabiiy muhit" kabi o'zaro bog'liq elementlarni birlashtiradi. Ushbu tizim uning kontseptual yadrosini tashkil etadigan insondan tashqari o'zaro bog'liqlikda insonning hayot faoliyatini tashkil etadigan bir nechta turli muhitlarni – geomuhit, biomuhit, texnomuhit va sotsiomuhitni o'z ichiga oladi.

**Tizimli yondashuv.** Atrof-muhitni komponentlari dinamik jihatdan muvozanatlashgan, yaxlit tizimli differentsiallashtirilgan tizim sifatida anglashni nazarda tutadi. Shunga muvofiq ravishda insoniyatning ekologik muhiti - Er biosferasi bo'lib xizmat qiladi va u atrof-muhit bilan insonni yagona tizimga: tabiat - jamiyat tizimiga birlashtiradi.

Ekologiya sotsiologiyasi insonning tabiiy ekotizimlar muvozanatiga ta'sirini o'rganadi, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni boshqarish va ratsionallashtirish zarurligini asoslab beradi va insoniyatga ekologik tizimning tarkibiy qismi sifatida qaraydi.

**Dialektik yondashuv.** Tizim komponentlarining o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sir qilishini o'rganishni oldindan belgilab beradi. Tabiatga doimiy va o'zgarmaydigan qonunlarga bo'ysunadigan va insonga bog'liq bo'lmagan ob'ekt sifatida qarashdan voz kechgan holda, ekologiya sotsiologiyasi komponentlari nisbatan avtonom va faol sub'ektlar bo'lgan yaxlit "inson- tabiiy muhit" dinamik tizimini o'z tadqiqotlarining predmeti deb hisoblaydi. Bu tizim komponentlarining o'zaro ta'sirining o'ziga xos jihatlari insoniyatning tabiatdan oladigan moddalar va energiya hisobiga yashashini ta'minlashdan iboratdir. Bularning barchasi ularni qazib olish, qayta ishlash, transportirovka qilish va o'zlashtirishni, shuningdek qayta ishlash va o'zlashtirishning kerak bo'lmagan chiqindilarini ajratib olishni nazarda tutadi.

Ekologiya sotsiologiyasining bilimlar sohasi sifatida shakllanishi. Inson va tabiatning o'zaro aloqa qilishini o'rganish muammolari Chuqur tarixiy manbalarga ega. Qadimiy yunon sofisti Protogor birorta ham tur nobud bo'lmasligi to'g'risida qayg'urgan Epimeteyni (Prometei akasini) uning tuhfasini deb bilgan. Butun



mavjudotning o'zaro bog'liqligi, o'zaro ta'sir qilishi birligini his qilish XIX asr boshlarigacha saqlanib qolgan. Faqatgina zamonaviy Sharoidda – ekologik halokat yoqasida turganda inson va uning biologik muhiti bilan bo'lgan avvalgi birligini qayta tiklash uchun xizmat qiladigan chuqur sotsial ekologiya yuzaga keladi. Bilimlarning mustaqil sohasi sifatida ekologiya biologiya fanida shakllandi. Uning asosi bo'lib ingliz tabiiy sinovchisi Charlz Darvinning (1809- 1882)<sup>4</sup> tirik tizimlar evolyutsiyasi to'g'risidagi g'oyalari, xususan uning dunyoda tiriklik uchun doimiy kurash boradi degan fikri xizmat qiladi. Ekologiya tirik mavjudotlarning muhitga munosabatini, shuningdek Shu muhitdagi aloqalarini, tirik mavjudotlarning muhitga ta'sir qilishini o'rganadigan, ekologik muhitning faoliyat ko'rsatishining maxsus qonunlarini belgilab beradigan fan sifatida talqin etiladi. Ekologiyaning sohalaridan biri bo'lib inson ekologiyasi – insonning va atrof o'zaro aloqalari to'g'risidagi axborotni birlashtirib turadigan, odamlar hayotining tabiiy Sharoitlarini, uning an'alarini, sotsial tuzilmasini va texnologiyalarini, rivojlanish va tirik qolish yo'llarini, jamiyat va atrof muhit o'rtasidagi bog'lanishlarni, erkinlik va qadr-qimmatga, insonni bir qism sifatida o'z ichiga olgan tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lishga asoslanadigan jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiqot qiladi. Inson ekologiyasi bo'yicha Jahon markazi faoliyat ko'rsatadi va u inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalar muammolari bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. 1984 yilda inson ekologiyasi kontseptsiyasi tasdiqlandi. Bu bilim sohasidagi mutaxassislar biologik tizimlarni, shuningdek ekologik muammolarning madaniy, psixologik, sotsiologik, ekologik va siyosiy jihatlarini, inson bilan tabiatning o'zaro munosabatlarini tadqiqot qiladilar. Ikki fan – sotsiologiya va ekologiya predmet sohasining ana shunday kesishuvi natijasida inson bilan tabiiy muhitning o'zaro munosabatlarini o'rganadigan ekologiyaning kichik sohasi yuzaga keldi. Sotsiologiya “aholi”, “muhit”, “texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish” kabi tushunchalarga urg'u beradi. Inson ekologiyasi esa insonning ekotizimdagi tutgan o'rnini, inson bilan ekotizimning o'zaro munosabatlarini, shuningdek ana shu jarayonning oqibatlarini o'rganadi. Ekologik muammolar insonning predmetli faoliyati bilan aloqador ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bois jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqalarini o'rganishga diqqat e'tiborini qaratadigan fan zaruriyati kelib chiqadi. Bunday bilimlar tizimini ekologiya sotsiologiyasi – nisbatan yosh bo'lgan bilimlar sohasi taqdim etadi. Uning metodologik va gnoseologik qiyinchiliklari oyoqqa turish va rivojlanish jarayoni bilan bog'liq - predmet sohasining aniqlashtirilishi, metodik va metodologik apparatning takomillashtirilishi, nazariy ta'limotlar va kontseptsiyalarni tanlab olishdir. Ekologiya sotsiologiyasining muhim nazariy manbasi bo'lib biosferaning planetadagi hayotning tarqalishi sifatida qaraladigan va noosfera to'g'risidagi g'oyalar xizmat qiladi. Uning rivojlanishining yuqori sotsial va antropogen-

---

<sup>4</sup> John H. Wahlert. **The Mount House, Shrewsbury, England (Charles Darwin)**. *Darwin and Darwinism*. **Baruch College** (11 June 2001). Provereno 26 noyabrya 2008. **Arxivirovano iz pervoistochnika 22 iunya 2012** «There is no evidence that man was aboriginally endowed with the ennobling belief in the existence of an Omnipotent God». Charles Darwin, *The Descent of Man*, ch

texnologik omillar bilan ifodalangan bo'lib, inson ongi ijodiy kuchining yangi darajasini namoyon etadi.

Sotsiologlarning Varnadagi Jahon kongressida (1996) sotsial ekologiya muammolari bo'yicha sotsiologlar Jahon uyushmasining tadqiqotlar qo'mitasi tashkil etildi.<sup>5</sup> Ekologiya sotsiologiyasining zamonaviy paradigmasi inson yashash muhitining degradatsiyasi, aholining atrof-muhitning ahvolidan tashvishga tu Shishining kuchayishi, ekologik ifloslanishning global o'lchash yo'llarini ishlab chiqish (masalan Rim klubining ma'ruzalari) ta'siri ostida shakllandi. G'arbiy sotsiologiyada «invayromental (ingl. environment – tevarak-atrof, muhit) sotsiologiya»<sup>6</sup> atamasi ishlatiladi, va u ekologiyani sotsial falsafa va yashash vositasi sifatida talqin qiladi. U ilmiy fanlardan biri hisoblanib, sotsial-ekologik yondashuvni qo'llaydi, va farqli ravishda lokal jamiyat va tegishli muhit bilan chegaralanib qoladi. Ekologik siyosat – garmonik ravishda yashash, atrof-muhitni saqlab qolish va uni qayta ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, sotsial va madaniy Sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatdir. Iqtisodiy siyosatning sotsial mohiyati barqaror rivojlanishni ta'minlashdan, ya'ni yashash muhitini saqlagan va qayta ishlab chiqargan holda texnologik va iqtisodiy o'sish jarayonlarini birlashtirishdan iboratdir. Zamonaviy bosqichda ekologik etnogenez muammosi ham dolzarb bo'lmoqda. Millatlar va xalqlarning ekologo-etnik yaxlitligi jamiyat va tabiatning yagona (konevolyutsion) rivojlanish istiqbollarini ochib beradi. Sotsial jamoa tuzumidagi insonning tabiatga bo'lgan munosabatining sotsiomadaniy modeliga mos xaraterga ega va inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Rivojlanishning industrial fazasi boshlanishi bilan etnoslar muhitdan uzilib qoldi. Sun'iy muhit inson va atrof-muhit voqeligi o'rtasida to'siq bo'ladi va o'zining yashash qoidalariga ko'ra faoliyat ko'rsatadi. Etnoslarning taraqqiyoti tabiiy resurslarning ekspluatatsiya qilinishini kuchaytirdi va bu holat etnoslarning yangi tabiiy boyliklar uchun kurashida o'z ifodasini topadigan degradatsiyaga olib keldi. Ko'p sonli migratsiyalar, urbanizatsiya etnoslarning aralashib ketishini, ular bilan tabiat orasidagi aloqalarning yo'qolishini keltirib chiqaradi. Zamonaviy demografik krizis iqtisodiy sabablar orqali ham kelib chiqqan. Shu ma'noda millatlar va elatlarning ekologik-etnik yaxlitligini har tomonlama o'rganish ekologik krizis sabablari va uning oqibatlarini tushunib etishga imkon beradi, ekologik xavfsiz bo'lgan sotsial muhitni shakllantirishga, tabiat va tabiat resurslarini himoya qilishga majbur etadi. Masalan, agar XX asrning 70-chi yillari boshlarida 2500 ta ekologik birlashmalar va harakatlar mavjud bo'lgan bo'lsa, 80-chi yillarda ularning soni 15 mingtaga, 90-chi yillar boshlarida esa deyarli 20 mingtaga etdi. Ekologik muammolar tabiiy va gumanitar fanlarning Chuqur tadqiqot predmeti bo'lib qoldi. Masalan, mutaxassislar muayyan texnologiyalarning tabiatga ta'sirini o'rganar ekanlar, xalq xo'jaliginig turli sohalarida ekologik Cheklanishlarni shaklantirdilar, ishlab chiqarishning ekologik sof yo'nalishlarini asoslab berdilar.

---

<sup>5</sup> Beck U. Risk society: Towards a new modernity. London: Sage Publications, 1992.

<sup>6</sup> R. Dunlap. Handbook of Environmental Sociology. — 2000.

Ekologik muammolarni o'rganishda mutaxassis bo'lgan bilimlar sohasi ommalashib bormoqda, nisbatan mustaqil bo'lgan fan – ekologiya sotsiologiyasi ham jadal Shakllanmoqda

Tabiiy muhit faqatgina insoniylik faoliyatining barcha jarayonlariga kirib boribgina qolmay, balki tabiat qonunlariga muvofiq ravishda ana shu jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan Sharoitda aynan jamiyat va tabiatning o'zaro aloqa qilishi dolzarb bo'lib qoladi. Tabiiy muhitning o'zgarishi sotsial ahamiyat kasb etadi. Tabiat qonunlarini o'zlashtirib va tabiat kuchlarini egallagan bo'lishiga qaramay jamiyat ana shu qonunlarni o'zgartirishga yoki ularni sotsial qonuniyatlarga bo'ysundirishga qodir emas (xuddi sotsial qonuniyatlarni ham tabiiy qonuniyatlarga keltirish mumkin bo'lmaganday). Zamonaviy ekologik vaziyatning o'ziga xosligi ana shu turli qonuniyatlarning muayyan ekotizim bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu sotsial tizim Sharoitida kesishib va o'zaro aloqa qilishi xizmatga qiladi. Tizimlarning o'zaro bog'langanligi va o'zaro faoliyat ko'rsatishi ana shu o'zaro bog'lanishning o'ziga xosligini o'rganishni talab qiladi, bu esa ham sotsiologik “germetizm”ni, ham tabiiy reduksionizmni istisno qiladi.

Zamonaviy ekologik vaziyatni sotsial va tabiiy qonuniyatlarning kesishishidagi ikkita unsur qarama-qarshiliklarining namoyon bo'lishining eng rivojlangan Shakli, ya'ni nazariy ko'rib chiqish uchun ma'qul bo'lgan Shakl deb hisoblash mumkin bo'ladi. Bu ma'noda so'nggi o'n yilliklarda fanlararo xarakterga ega bo'lgan turli sotsial-ekologik nazariyalarning paydo bo'lishi tabiiy bo'ladi. Avvalgi sotsiologik nazariyalarning ham, tabiiy va keng dunyoqarashli kontekstdagi sotsiologik jihatdan nazariylashtirilgan nazariyalarni ham sintez qilishga intiladi.

Ana shunday sintezning eng yorqin misoli, amerikancha invayronmentalizm bo'lib xizmat qiladi va u tegishli sotsial fanning ommaviy sotsial harakat amaliyoti bilan birgalikdagi muayyan turdagi dunyoqarash va nazariy asoslarni ifoda etadi.

Amerikancha invayronmentalizm o'zining boy va qadimiy an'analariga ega (o'tgan asrning o'rtalaridan mavjud). Uning rivojlanishining hozirgi bosqichi ham nazariy, ham sotsial-siyosiy jihatdan 70-chi yillardan boshlanadi va ko'pchilik infayromentalistlar hisoblashicha, 1973 yildagi energetik krizis oqibatlarini (iqtisodiy, siyosiy, sotsial va hokazo) bilan bog'liqdir. Invayronmentalistik harakat rivojlanishining va sotsial-ekologik tadqiqotlarning institutsional asoslari bir necha yil avval amalga oshirilgan edi<sup>7</sup> (1969 yilda milliy tabiatni muhofaza qilish siyosati to'g'risidagi qonun loyihasining qabul qilinishi, 1970 yilda Er himoyasi kunini o'tkazish, umummilliy va lokal darajada turli xil tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarining tashkil etilishi).

Umumiy ekologik kayfiyatlardan Amerika sotsial fani ham Chetda qolmadi: 1976 yilda Amerika sotsiologiya assotsiatsiyasida invayronmentalistik sotsiologiya sektsiyasi ochiladi, 1977 yilda assotsiatsiya sessiyasida “Invayronmentalizmning sotsial ildizlari” mavzusi muhokama qilinadi, bundan ham avvalroq Shunga o'xshash sektsiyalar, sotsial muammolarni o'rganish, qishloq sotsiologiyasi jamiyatlari tashkil etilgan ko'rishimiz mumkin.

---

<sup>7</sup> R. Dunlap. Handbook of Environmental Sociology. — 2000.

Nihoyat 80-yillar oxiriga kelib “invayronmentalizm asri”ning kirib kelishini e’lon qiladigan “yangi invayronmentalistik paradigma” ning asosiy (boshlang’ich) qoidalari shakllanadi. Bu paradigma umuman olganda ratsionallikning yangi turini va yangi standartlarini tartibga solishning siyosiy va iqtisodiy jihatlarini qadriyatli darajada qaytadan ko’rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Atrof muhitning degradatsiyasi shunday bo’lib ketdiki, ekologik "konservatsionistik" va progressistik harakat "radikal-invayronmental" harakatga aylanadi va bu holat texnik taraqqiyot afzalliklarini ilgari suradigan postulatlarini shubha ostiga oladigan vaziyatni keltirib chiqaradi. «Bu ezgulik kabi shunday yovuzlikdir»- deb xulosa qiladi invayronmentalistlarning umumiy Shijoatini L.Milbret.<sup>8</sup>

1978 yildan boshlab Amerika sotsiologik jurnallaridagi invayronmentalizmga bag’ishlangan maqolalar soni oshadi. U.Ketton va R.Denlep so’nggi o’n yilliklardagi invayronmentalizm tomonidan yig’ilgan nazariy tajribani umumlashtirib sotsiologiyada "yangi invayronmental paradigma"ni e’lon qiladi, uning namoyon bo’lishi “sotsial voqelik”ning o’zgarishi bilan bog’liqdir.

70-chi yillar boshlarida “Sotsial vaziyatning o’zgarishi“ birinchi navbatda sotsiologiyadagi invayronmental g’oyalarning faollashishining sababi va manbasiga aylandi. Bu o’zgarishning mohiyati “iqtisodiy krizis” tushunchasida namoyon bo’ladi. Bu tushuncha bilan invayronmentalistlar quyidagi hodisalarni tushuntiradilar: atrof muhitning zararlanishi, tabiiy resurslar etishmasligi, aholi sonining oshib ketishi, urbanizatsiya oqibatlari, hayvonlarning ayrim turlarining yo’q bo’lib ketishi va hokazo. Ushbu xodisalar “sotsial xodisalar” deb tan olinmasdan, balki o’ta sotsial ahamiyatga ega bo’lgan xodisalar deb tan olinishi maqsadga muvofiqdir, negaki ushbu xodisalar jamiyat rivojlanishi bilan uyg’undur.

Modomiki yangi isbotsiz qabul qilinadigan qoidaning ta’kidlanishi “qarshi fikr yuritish” usuli bilan amalga oshirilgan ekan va bu qoidalarning printsiplial jihatdan yangligi aytib o’tilar ekan, bundan avvalgi sotsiologik nazariyalarning inkor etilishi ravshan bo’lib qoladi. Bunday nigilizm uchun asoslab berishda quyidagi fakt xizmat qiladi. Sotsiologiyaning butun tarixiy jarayonidagi invayronmental sotsiologlarning fikricha “muhit” asosan “o’zaro aloqa qilish ishtirokchilari tomonidan unga beriladigan ahamiyat atamaları” orqali sotsial ta’sir ko’rsatish holatining bir bo’lagi sifatida talqin qilingan, vaholanki ularning fikricha sotsial o’zaro aloqa darajasida teng huquqli bo’lgan ob’ekt sifatida qaralishi lozim edi (muhit o’zgaruvchilariga quyidagilar kiradi: *ifloslanish darajasi, energiyani iste’mol qilish sur’atlari, qurilish xarakteri va hokazolar*). “Muhit” o’zgaruvchilarining bunday izolyatsiyasi distsiplinar an’analarning sotsiologik “germetizmi” bilan bog’liqdir.

Ular orasida invayronmentalistlar ikkita asosiysini ajratib ko’rsatadilar:

1) Dyurkgeymning “sotsiologizm” predmetining haddan tashqari qat’iy ta’riflanishi, ”Antireduksionistik tabu”- sotsial fakt.

---

<sup>8</sup>Chirkova L.M., Polyakov V.I. EKOLOGIYA I SOTSILOGIYA // Fundamentalnie issledovaniya. – 2005. – № 7. – S. 102-103;

2) Birgina harakat va ahamiyat vaziyatidagi individual baholashga yo'naltirilganlik. Individ harakatni amalga oshiradi va fizik hamda fazoviy xarakteristikalar yana inkor etiladi (Dj. Mid Ch. Kuli U. Tomas va boshqalarning veberiancha an'anasi).

Yevropa harakatlari "yangi Chap" talabalik Chiqishlari va hokozolar bilan uzviy bog'liq bo'lgan bo'lsa, AQSH dagi invayronmental harakat etizim, pragmatizm, meliroizm an'alariga sodiq qolgan holda "fuqarolik huquqlari" uchun va Vetnam uru Shiga qarshi harakat o'rnini egalladi.

Bundan tashqari Amerikalik invayronmentalistlar Yevropa ekologlari kabi texnofobiya balosiga duchor bo'lmaydi, hamda invayronmentalistlarning sezilarli qismi ekologik muammolarni echishda texnologiyalarning takomillashining hal qiluvchi o'rinni egallashiga ishonch bildiradilar. Invayronmentalizmning xarakteristikasi bo'lib biotsentrik qadriyatlar, moddiy rivojlanishdagi "chegaralar" kabi kayfiyatlar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtga kelib Amerikanacha invayronmentalizm qadriyatlarga yo'naltirilgan (me'yoriy-yo'naltirilgandan kelishishdan farq qilgan holda) harakat bo'lib, 12 mingga yaqin odamni o'z safida birlashtiradi. Bu tashkilotga a'zolar soni har yili 250 taga ko'paymoqda. So'rovlar natijalariga ko'ra invayronmentalizmga aholining 60% dan 80% gacha moyillik bildirgan. Ko'pchilik tashkilotlar so'nggi o'n yillikda tashkil topdi. Invayronmental tashkilotga a'zo bo'lish uchun etarli asos bo'lib ekologik havfning mavjudligini tan olish hisoblanadi. Garchi harakatda muayyan kelishmovchilar bo'lsa ham tarqalib ketish tendentsiyalari kuzatilmayapti, Chunki ko'pchilik invayronmentalistlar bir nechta lokal tashkilotlarga kiradilar. Unda "quyi sinf" va "o'rta sinf" etakchilik qiladi. AQSH jamoatchiligining 10 % ga yaqini ana shu tashkilotlarga tegishli ekanligini aytib o'tishadi, biroq ularning faoliyatida faqat 1% i faol ishtirok etadi. Bu guruh "o'rta hol" sinfning faol vakillari bo'lib, ularning ma'lumoti va daromadlari o'rtacha darajadadir.<sup>9</sup>

Eng yirik tashkilotlar orasida quyidagilar ajralib turadi: Tabiat resurslarini himoya qilish Kengashi, Invayronmental siyosat Instituti, Milliy yovvoyi tabiat Federatsiyasi, Invayronmental himoya Fondi, Isaak Uoltonning Amerika ligasi, serra Klub, Odyubon Milliy jamiyati, Milliy parklar va konservatsiyalar Assotsiatsiyasi, YOvvoyi tabiat Jamiyati, Er do'stlari.

Invayronmentalistlarda yangi sotsial siyosatga erishish uchun olib boriladigan siyosiy kurash usullari borasida sezilarli kelishmovchiliklar yo'q bo'lib, biroq ana shu siyosat maqsadlariga sharh berishda tafovutlar uchraydi.

Umuman olganda Amerikanacha ekologiya sotsiologiyasi kontseptsiyalarining rivojlanishini baholaganda birinchi navbatda invayronmentalizmning, ayniqsa uning dastlabki shakllarining amerikanacha turmush tarzi shakllanishining sotsial-tarixiy Sharoitlari va naturalizm, individualizm, aktivizm, lokal ideologiya va reformizm kabi xos bo'lgan elementlari bilan birgalikda olib qaraladigan tegishli fikrlash tarzi bilan organik aloqasini ta'kidlab o'tish lozim.

---

<sup>9</sup> Oleg YAnitskiy. Russian Greens in a Risk Society. A Structural Analysis. — Nelsinki, 2000.

Invayronmentalizmning nazariy asoslarida ratsionalizm va irratsionalizmning qo'shilib ketishi bir pog'ona pastda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni ham asoslaydi: - reformizmni ekologik muammolarni ularga erishish vositalarini taklif qilgan holda hal qilishning ratsional maqsadlari timsoli sifatida birgalikda qo'shish.

Shuningdek ekologiya sotsiologiyasining empirik tadqiqotlari va ularning natijalarini sotsial muhitga tatbiq etish tajribasi ham e'tiborga joizdir. Bundan tashqari invayronmentalizmni sotsial hodisa sifatida, uning boshqa ijtimoiy harakatlar bilan aloqalari g'oyasini yanada batafsilroq o'rganish ham kam ahamiyatli masala hisoblanmaydi. Invayronmentalizmning taraqqiy etishi davomida u tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan savollarning ko'p jihatlilik va dolzarbliligini oldindan aytib bo'lmaydi va ortiqcha baholab ham bo'lmaydi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1."Ekologiya" atamasi ilmiy fanga kim tomonidan kiritilgan.
2. Ekotizim tushunchasi kim tomonidan asoslab berilgan.
3. Ekologiya sotsiologiyasining Shakllanishi.
4. "Jamiyat – inson – texnika - tabiat" tadqiqot predmeti.
5. Ekologiya sotsiologiyasining fan sifatidagi muammolari nimalardan iborat.
6. Sotsial jarayonlarning tabiiy va sun'iy muhiti.
8. Ekologiya sotsiologiyasi haqida turli yondashuvlar.
9. Negilizmni qanday tushunasiz.
10. Invayromental sotsiologiya
11. Sotsiologiyada "yangi invayronmental paradigma“.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Toshenko J.T. Sotsiologiya. M., 2005. Gl. «Ekologicheskaya sotsiologiya».
2. Spetsialnie i otraslevie sotsiologii / Pod red Pilipenko V E - K: Vis Shee obrazovanie, 2003
3. V. T. Xarcheva. Osnovi sotsiologii / Moskva , «Logos», 2001
4. CHirkova L.M., Polyakov V.I. EKOLOGIYA I SOTSILOGIYA // Fundamentalnie issledovaniya. – 2005. – № 7.
5. **Oleg YAnitskiy**. Russian Greens in a Risk society. A Structural Analysis. — Nelsinki, 2000.
6. *R. Dunlap*. Handbook of Environmental sociology. — 2000.

## 27-mavzu. SOTSIAL KOMMUNIKATSIYA

### REJA

1. **«Kommunikatsiya» va «sotsial kommunikatsiya» tushunchalari: umumiylik va xususiylik.**
2. **Kommunikatsiya sotsiologiyasining ilmiy qurilmasi.**
3. **Kommunikatsiya shakllari va ularni turkumlash.**
4. **Ommaviy kommunikatsiyaning ijtimoiy ahamiyati.**

«Kommunikatsiya» atamasi ko'plab ta'riflariga ega bo'lib, ularni uch asos bo'yicha guruhlashtirish mumkin: birinchidan, kommunikatsiya turli ob'ektlar o'rtasidagi aloqa, bog'liqlik deb qaraladi. Bu toifaga oid bo'lmagan ta'rif kommunikatsiyani asosan kundalik tushunish uchun qo'llaniladi. Ikkinchidan, kommunikatsiya muloqot so'zining ma'nodoshi sifatida tushuniladi. Uchinchidan, kommunikatsiya ta'sir deb ham tushuniladi. Mavjud ta'riflardan ba'zilarini keltiramiz.

«Kommunikatsiya» atamasi (lot. *communicatio*) ilmiy adabiyotlarda XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Amerika sotsiologiyasi asoschilaridan biri Charlz Kuli «kommunikatsiya deganda uning vositasida inson munosabatlari – aql-idrokning barcha ramzlari, ularni makonda uzatish va zamonda saqlab qolish usullari bilan birga mavjudligi va rivojlanishi mumkin bo'lgan mexanizm tushuniladi» – de aytgan edi. U o'z ichiga muloqot, imo-ishoralar, ovoz toni, so'zlar, yozuv, noshirlik, temir yo'llar, telegraf, telefon, makon va zamoni egallashga qaratilgan so'nggi yutuqlarni qamrab oladi. «Kommunikatsiya vositalari hamda qolgan tashqi dunyo o'rtasida aniq Chegara mavjud emas. Biroq tashqi dunyo paydo bo'lishi bilan faqat fikr uzatish uchun mo'ljallangan standart ramzlar tizimi yuzaga kelib, kommunikatsiyaning an'anaviy rivoji ana shundan boshlanadi»<sup>1</sup>.

J.D'Arsi Frantsiyada 1969 yili jamoatchilik e'tiborini insonning kommunikatsiya huquqini e'tirof etish zarurligiga qaratib, bu tushunchaga kommunikatsiyaning ham moddiy, ham ruhiy Sharoitlarini ta'minlash imkoniyatini ham kiritadi<sup>2</sup>.

Dastlab bu atama ajratish, qo'l bilan u Shlab ko'rish mumkin bo'lgan buyum, narsalarni; oziq-ovqat mahsulotlari, er, tovar va mulkni anglatgan. Bugungi kunda u ko'pincha odamlar yoki kompyuter yordamida ishlov beriladigan bilimga nisbatan qo'llanadi<sup>3</sup>.

Kommunikatsiya – bu «axborot, g'oyalar, baholar yoki his-tuyg'ularni asosan ramzlar vositasida bir kishidan (yoki guruhdan) boshqasiga (yoki boshqalarga) uzatishdan iborat».

«Keng ma'nodagi kommunikatsiya deganda o'zaro hamkorlik (ta'sir) amalga oshirilayotgan tizim, o'zaro hamkorlik (ta'sir) jarayonining o'zi hamda turli-tuman axborotni yaratish uzatish va qabul qilish imkonini beradigan usullar tushuniladi».

---

<sup>1</sup>Kuli CH. *Obshestvennaya organizatsiya // Teksti po istorii sotsiologii XIX-XX vekov. Xrestomatiya.* –M.: Nauka, 1994. – S. 379.

<sup>2</sup>Terin V.P. *Massovaya kommunikatsiya.* – M., 2000. – S. 197.

<sup>3</sup>CommunicationTheory.Wikibooks.org. 2013. – P. 5.

«Kommunikatsiya – shaxslararo va ommaviy muloqot sharoitlarida axborot uzatish va qabul qilib olishning turli kommunikativ vositalar yordamidagi sotsial Shartlashilgan jarayondir<sup>4</sup>.

Kommunikatsiya « Shaxslararo va ommaviy muloqot Sharoitlarida har xil kommunikativ vositalar yordamidagi turli kanallar bo'ylab axborot uzatish va qabul qilib olishning sotsial Shaklidir»<sup>5</sup>.

Biologlar D.Lyuis va N.Gauer kommunikatsiyaga «organizmlar yoki bir organizm qismlari o'rtasidagi signal uzatilishi» – deb ta'rif berib, bunda tanlash (saylash) signallar hosil qilish va qabul qilib olishga ko'maklashadi. Kommunikatsiya jarayonida axborot o'zgarishi va sub'ektlarning o'zaro moslashuvi (adaptatsiyalashuvi)ro'y beradi<sup>6</sup>.

Ko'plab mualliflar kommunikatsiya deganda verbaldan noverbalka va noverbaldan verbal sohaga qayta kodlashtirish jarayonlarini tushunadilar. Tarixiy jihatdan kommunikatsiya deganda aynan shunday bo'lgan: boshqalarni u yoki bu harakatlarni bajarishga majbur qilishdir.

Misol uchun, T.Shibutani «kommunikatsiya – bu, birinchi navbatda odamlar faoliyatining o'zaro moslashuvini osonlashtiradigan faoliyat usulidir... bu kopperativ o'zaro yordamni ta'minlab, o'ta murakkab harakatlarning o'zaro muvofiqlashtirish imkoniyatini hosil qiladi» deb hisoblaydi.

Keltirilgan ta'riflar (bu ularning kichik bir qismi, xolos) «kommunikatsiya» tushunchasi ko'p jihatli ekanligidan dalolat berib, unda shartli ravishda quyidagi ma'nolarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Sotsial kommunikatsiya, «sotsial sub'ektlarning o'zaro ta'sirlashuvi, sotsiomadaniy me'yorlar va ana shunday ta'sirlashish namunalarini takror ishlab chiqarish va o'zgarib borishiga qaratilgan universal sotsiomadaniy mexanizm sifatida qaraladi»<sup>7</sup>.

Kommunikatsiya individlar, guruhlar, tashkilotlar, madaniyatlar orasida turli belgili tizimlar (tillar) vositasida ro'y beradi (amalga oshadi). Shaxslararo, ommaviy (ommaviy kommunikatsiya vositalari yoki OKV), ilmiy, texnik kommunikatsiyani va sh.k.larni farqlaydilar. Shu sababli «kommunikatsiya» atamasi, umumiy, universal ma'nosidan tashqari, unga u yoki bu ilmiy yondashuv doirasida qanday ma'no berilishiga bog'liq ravishda qo'shimcha va aniqlashtiruvchi mazmunga ham ega bo'ladi.

Kommunikatsiya tushunchasi ikki darajada mavjud – bu hodisa to'g'risidagi kundalik (odatiy) va ilmiy tassavvurlardir. Kundalik darajada kommunikatsiya deganda har qanday aloqalar bog'lashga bo'lgan imkoniyat nazarda tutiladi. Masalan, «kommunikativ odam» ifodasi ostida boshqalarni o'z irodasiga bo'ysundiradigan kishini emas, balki odamlar bilan kirishib keta oladigan, ular bilan oson til topishadigan, o'zi aloqa va muloqot uchun ochiq odam tushuniladi. Ba'zan kommunikatsiyani muloqotdan ajratmay o'rganadigan ilmiy ta'riflar u haqidagi aynan kundalik tasavvurga asoslanganligini ko'ramiz. Bundan kelib

<sup>4</sup>SHarkov F. I. Osnovi teorii kommunikatsii. – M., 2002. – S. 5.

<sup>5</sup>Konetskaya V. P. Sotsiologiya kommunikatsii. – M., 1997.

<sup>6</sup>Osnovi teorii kommunikatsii. Uchebno-metodicheskoe posobie. Sost. J.V.Nikolaeva. – Ulan-Ude: VSGTU, 2004

<sup>7</sup>Dridze T.M. Sotsialnaya kommunikatsiya kak tekstovaya deyatelnost v semiosotsiopsixologii / Obshestvennie nauki i sovremennost 1996, №3. – S. 145.



chiqib, kommunikativ jarayonning o'zi, hamda uning ishtirokchilari aniqlanadilar: demak, «kommunikatsion harakat –kommunikatsiya ishtirokchilarini o'zgartirmagan holda ro'y beradigan, mazmunli o'zaro hamkorlikka asoslangan tugallangan operatsiyadir».

Kommunikatsiya ta'rifidan kelib chiqib, kommunikativ harakatning uch xil shakli ajratib ko'rsatiladi:

1. Taqlid qilish – biron nimaga yoki biron kimga o'xshatish, sotsiallashtirishning dastlabki darajasiga xos, masalan maktabgacha yoshdagi bolalarga, shuningdek an'anavar va odatlarni avloddan-avlodga uzatish kommunikativ harakatga xos.

2. Dialog –kommunikatsiya teng huquqli sub'ektlarining o'zaro muloqoti, ta'siri shakli sifatida.

3. Boshqarish –sub'ektning ob'ektga ko'rsatadigan ta'sirining shakli sifatida<sup>8</sup>.

Mazkur model mohiyatini quyidagicha aniqlash mumkin:

- unda «kommunikatsiya» va «muloqot» tushunchalari qorishib ketadi, chunki dialog – bu muloqot tavsifi, boshqaruv esa – tom ma'nodagi kommunikatsiya tavsifidir;

- kommunikatsiya tushunchasining o'zida unga kundalik va ilmiy ta'rif berish darajalari qorishib, chunki taqlid qilish aslida kommunikatsiya deb topilishi mumkin bo'lmay, mohiyatan, uni mavjudlik muhitiga moslashishiga ko'maklashadigan individning xususiyatlaridan biri bo'lib keladi.

«Kommunikatsiya» va «muloqot» tushunchalarining bu kabi qorishib, aralashib ketishi ilmiy adabiyotlarda bir muncha keng tarqalgan hodisa bo'lib, masalan, u yuqorida keltirilgan kommunikatsiya ta'riflarining ikkinchisida mavjud va ko'pincha bu so'z tarjimasida (lot. communicatio – xabar, uzatish) va inglizcha communication so'zi o'ziga bir necha xil ma'no olib, xabarlar, axborot uzatish, ma'lum qilish, aloqa, aloqa vositasini, shuningdek muloqotni anglatib kelishi mumkinligi sababli ro'y beradi. Unga izoh berishdagi umumiy jihatlar kommunikatsiya to'g'risida «maxsus tashuvchilar, signallar vositasida bir tizimdan boshqasiga axborot uzatish» sifatidagi tasavvur bilan bog'liq<sup>9</sup>.

Ana shu so'zning tarjimasidan foydalanishda til kommunikatsiyasining ikki darajasi qorishib ketadi – o'z ichiga og'zaki til sohasida ishlatiladigan so'z-iboralarni o'z ichiga olgan lingvistik hamda turli fanlarning (sotsiologiya ham shular qatoriga kiradi) maxsus tilini shakllantirish asosida yotadigan so'z-atamalarni tarkibiga olgan metalingvistik daraja.

Kommunikatsiya odamlar, guruhlar, xalqlar, davlatlar o'zaro hamkorligining zarur elementi, uning jarayonida axborot, his-tuyg'ular, baholar, ma'nolar, mohiyatlar, qadriyatlarni uzatish va qaytib uzatish amalga oshiriladigan jarayon sifatida sotsial jarayonlar sohasida etakchi o'rin tutadi.

Kommunikatsiyasiz sotsial birliklar, sotsial tizimlar, institutlar, tashkilotlarni tashkil etish, umuman sotsiallik, sotsium o'z holicha mavjud bo'lishi mumkin emas. Kommunikatsiya jamiyat, sotsial guruhlar va ayrim individlar hayotining

<sup>8</sup>Konetskaya V. P. Sotsiologiya kommunikatsii. – M., 1997. – S. 9.; Pocheptsov G.G. Teoriya kommunikatsii. – M., 2001. – S. 14.

<sup>9</sup> Entsiklopedicheskiy sotsiologicheskiy slovar Obshaya redaktsiya Osipova G.V. – M.: In-t sotsialno-politicheskix issledovaniy RAN, 1995. – S. 286.

barcha taraflarini qamrab oladi. Sotsial hayotning har qanday tadqiqi uning u yoki bu Shakllariga oid bo'ladi.

«Zamonaviy g'arb sotsiologiyasi»da kommunikatsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif, izoh beriladi: 1. Moddiy va ma'naviy olamga tegishli har qanday ob'ektlarning aloqa vositalari. 2. Muloqot, odamdan odamga axborot uzatish. 3. Jamiyatda muloqot va axborot almashinish, ya'ni sotsial kommunikatsiya<sup>10</sup>.

«Xorijiy so'zlarning zamonaviy lug'atida» – ushbu tushunchaga quyidagigcha izoh beriladi:

- qatnov yo'li (havo, suv va shu kabi kommunikatsiya);
- aloqa shakli (telegraf, radio, telefon);
- muloqot hodisasi, ikki va undan ko'p individlar o'rtasidagi aloqa, bir-birini anglash, tushunish uchun asos;
- texnik vositalar yordamida axborot ma'lum qilish (xabar berish) jarayoni – OKV (SMK) (nashr mahsulotlari, radio, kino, televidenie)<sup>11</sup> qomusiy sotsiologik lug'atga ko'ra kommunikatsiya – bu axborotning bir tizimdan boshqasiga, maxsus moddiy tashuvchilar, signallar vositasida uzatish, shakllantirish<sup>12</sup>.

Shunday qilib, kommunikatsiya quyidagilardan iborat:

- moddiy va ma'naviy olamga tegishli istalgan ob'ektlarning aloqa vositasi;
- muloqot jarayoni, ya'ni insondan insonga axborot uzatish;
- jamiyatda unga ta'sir ko'rsatish maqsadida axborot uzatish va almashinish.

Insonlar jamiyatida kommunikatsiya individlar, guruhlar, tashkilotlar, davlatlar, madaniyatlar o'rtasida belgili tizimlar (tillar) vositasida ro'y beradi. Odamlar o'rtasida kommunikatsiya yaxlit belgili hosilalar (xabarlar) bilan almashinish shaklida yuz berib, ularda muloqot qilayotgan tomonlar bilimi, fikrlari, g'oyalari, qadriyatli munosabatlari, emotsional holatlari, faoliyat dasturlari aks etadi. Kommunikatsiya mazmuni va shakllari odamlarning ijtimoiy munosabatlari va tarixiy tajribasini aks ettiradilar.

Kommunikatsiya – barcha sotsial tizimlar ishlab turishi va rivojlanishining zarur Sharti bo'lib, chunki u odamlar orasida aloqa bog'lab, sotsial tajriba to'plash va uni uzatish imkonini beradi, mehnat taqsimoti va birgalikdagi faoliyat, boshqarishni, madaniyatning yoyilib borishni ta'minlaydi. Odamlar o'rtasidagi bevosita muloqot jarayonida ularning psixologik o'zaro ta'siri bilan uzviy bog'liq kommunikatsiya, faqat abstraktsiyada (mavhum) Shaxslararo muloqotning axborot Shakli sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Taqdim etilgan ta'riflardan kelib chiqib, aytish mumkinki, kommunikatsiya hodisa sifatida jamiyatning har bir tashkilotida mavjud bo'lib, uning ichida ham uning qolgan sotsial tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro ta'sir, hamkorlikni ta'minlash bilan birga o'z xususiyatlari va jihatlariga ham egadir.

Kommunikatsiya sotsial fanlarda mustaqil ob'ekt sifatida axborot uzatish texnik vositalari, ayniqsa o'tgan asrning 20-yillarida radio taraqqiy etishi bilan ajralib chiqdi. Nomi keltirilgan vositalardan foydalanish va bir vaqtning o'zida

<sup>10</sup>Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya: Slovar. – M.: Politizdat, 1990. – S. 131.

<sup>11</sup>Sovremenniy slovar inostrannix slov. – M., 1993. – S. 294.

<sup>12</sup>Entsiklopedicheskiy sotsiologicheskiy slovar. – M., 1995. – S. 286.

axborot uzatish tashkiliy Sharoitlarining murakkablashuvi muloqot qilayotgan tomonlar bevosita hamkorligining cheklanishiga hamda axborotning sotsial tizimlarda uzatish qonuniyatlarini maxsus o'rganish zaruratiga olib keldilar. Kommunikatsiya nazariyasi rivojlanishiga kibernetika, informatika, semiotikaning tiklanishi, matematika va muhandislik fanlari murakkablashuvi ko'maklashib, ularda «kommunikatsiya» atamasi bilan texnik kanallar va aloqa vositalari, elektron tizimlar nomlanadi.

Kommunikatsiya gumanitar, shuningdek aniq fanlarning ham ob'ekti bo'lib, ulardan har biri kommunikatsiyadan o'z tadqiqot ob'ekti va predmetini ajratib olib o'rganadi.

Bunda texnik fanlar axborot uzatish, unga ishlov berish va saqlash usullari va imkoniyatlarini, maxsus kodlarni yaratish esa – ular yordamida zarur axborotni taqdim etilishi mumkin bo'lgan muayyan ramzlar va qoidalar tizimini o'rganadilar.

Etnografiya kommunikatsiyaning maishiy va madaniy xususiyatlarini etnik voqelikda muloqot sifatida o'rganib chiqadi.

Psixologiya va psixolingvistika axborot uzatish va uni idrok etishga ko'maklashadigan omillarni, shaxslararo va ommaviy kommunikatsiya jarayonlarini qiyinlashtiradigan sabablarni, shuningdek kommunikantlar nutqiy axloqining motivlanganligi, nimalardan kelib chiqishini ko'rib chiqadi. Psixologiyada nutq faoliyati mehnat, bilish faoliyat singari faoliyat turi sifatida izohlanadi. Bunday tushunish, izoh psixologik kontseptsiyada qabul qilingan bo'lib\*, unga ko'ra nutq faoliyati psixologik jihatdan yo'llangan, ya'ni maqsadga qaratilganligi bilan farqlanib, ko'plab nutq operatsiyalaridan iborat bo'lgan «nutq harakatlari» orqali amalga oshadi<sup>13</sup>.

Lingvistika verbal kommunikatsiya muammolari – so'z va so'z birikmalarining nutqda normativ va normativ bo'lmagan tarzda – og'zaki va yozma, dialogik va monologik qo'llanishi bilan Shug'ullanadi.

Paralingvistika noverbal kommunikatsiya vositalari usullari – imo-ishora, mimika va so'z bilan bog'liq bo'lmagan boshqa kommunikativ vositalarga ixtisoslashadi.

Sotsiolingvistika tilning sotsial mohiyatiga oid muammolarni, uning turli sotsiumlarda faoliyat ko'rsatishi, ishlashi bilan bog'liq xususiyatlarni, shuningdek turli sotsial guruhlar vakillari orasidagi aloqalarni keltirib chiqaradigan sotsial va til omillarining o'zaro ta'sirlashish mexanizmlarini o'rganadi<sup>14</sup>.

Shunday ekan, xulosa qilib «sotsial kommunikatsiya» atamasining izohini, ta'rifini berib o'tishimiz mumkin. Sotsial kommunikatsiya deb odamlarning Shunday kommunikativ faoliyatiga aytiladiki, u ushbu jamiyatda qabul qilingan qator sotsial jihatdan ahamiyatli baholashlar, muayyan vaziyatlar, kommunikativ soha va muloqot me'yorlaridan kelib chiqadi.

Shunday qilib, kommunikatsiya umumiy sotsial nazariyaning yo'nalishi sifatida sotsiologiyaning maxsus tarmog'i bo'lib, sotsiologik tadqiqotlar sohasida muayyan

---

<sup>13</sup>Vigotskiy L.S. Razvitiye vishey psixicheskoy funktsii. – M., 1960; Leontev A.N. Problemi razvitiya psixiki. – M., 1965.

<sup>14</sup>Konetskaya V.P. Sotsiologiya kommunikatsii. – M., 1997. – S. 5-6.

o'rin tutadi. Kommunikatsiya sotsiologiyasining ob'ekti sifatida sotsial kommunikatsiya olinadi.

Sotsial kommunikatsiyaning keltirilgan ta'rifidan shunday xulosa qilish mumkin, kommunikatsiya sotsiologiyasining predmeti – turli sotsial guruhlar o'zaro faoliyati jarayonidagi (mazmunli va baholashga doir axborotni uzatish va olish) muloqotining funktsional xususiyatlaridan iborat.

Kommunikatsiya sotsiologiyasining sub'ektlari – inson, odamlar, odamlar guruhlari, tashkilotlar, jamiyat va sotsiumdir.

Sotsial kommunikatsiya o'zining ro'yobga chiqarilish jarayonida quyidagi to'rt asosiy o'zaro bog'liq vazifani amalga oshiradi:

1. Integratsiya ayrim individlarni sotsial guruhlar va jamoalarga, ularni esa o'z navbatida – jamiyatning yagona va yaxlit tizimiga aylantirish.

2. Jamiyat, uni tashkil etuvchi guruhlar, jamoalar, sotsial tashkilotlar va institutlarning ichki tabaqalashuvi (differentsiatsiyasi).

3. Jamiyat va turli guruhlar, jamoalarning ular o'zaro muloqoti va o'zaro hamkorligi hamda ta'siri jarayonida bir-biridan ajralib, alohida bo'lib qolishi, bu ular o'ziga xos jihatlarni chuqurroq anglashi va ularga xos funktsiyalarni samaraliroq bajarishiga olib keladi.

4. Boshqaruv qarorini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish uchun asoslar va asosiy komponentlarni yaratish.

Kommunikatsiya sotsiologiyasi, shuningdek sotsial kommunikatsiyadagi ahamiyatli toifalarni (sotsial maqom, sotsial tabaqalashuv (differentsiatsiya), sotsial integratsiya, sotsial interferentsiya, kommunikativ rol, kommunikativ soha, kommunikativ vaziyat, mazmunli axborot, baholash uchun axborot, qadriyatlar baholanishi, o'z-o'ziga baho berish va b.) va xususiy funktsiyalar (kontakt o'rnatuvchi, o'z-o'zini taqdim qilish, appelyativ, undovchi, ixtiyorini bildiruvchi, muvofiqlashtiruvchi, ritual, performativ va b.), kommunikatsiya darajalari (semiotik, lingvistik, metalingvistik, paralingvistik, sintetik va b.), kommunikativ tizimlar turlari (tabiiy, sun'iy va h.k.) ham o'rganish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari sotsial va kommunikativ omillarning kommunikatsiya tiplaridagi (Shaxsning ichki, shaxslararo, guruhli, tashkilot, ommaviy va sh.k.) o'zaro ta'sirlar tahlil qilib chiqiladi.

Shunday qilib, kommunikatsiya sotsiologiyasi sotsiologiyaning umumiy sotsial nazariyasi sifatidagi maxsus tarmog'i bo'lib, sotsial tadqiqotlar sohasida o'z o'rniga egadir.

Sotsial kommunikatsiyani anglashdan kelib chiqib, kommunikatsiya sotsiologiyasi sotsial kommunikatsiya nazariyasining tarkibiy qismlarini ajratib oladi va sotsiologik tahlildan o'tkazadi, deb xulosa qilishimiz mumkin.

Birinchi navbatda sotsial kommunikatsiyaga tegishli atamalarni ko'rib chiqamiz. «Kommunikatsiya sotsiologiyasi» va «sotsiokommunikatsiya» (sotsiologik kommunikatsiya) atamalarini tushunish, anglash o'rtasida muayyan farq bor. Kommunikatsiya sotsiologiyasida asosiy diqqat uning sotsiologik tadqiqotlar doirasida, ana shu toifalarda o'rganilishini nazarda tutib kommunikatsiyaning sotsial jihatiga qaratilsa, sotsiokommunikatsiyada diqqat kommunikatsiya, uning mexanizmi va qonuniyatlarining ko'plab omillar

qaratiladi. Ular orasida sotsial omillar bosh o'rin tutadigan muloqot jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi. O'zaro qo'shilib ketgan tadqiqot sohalari mazmunini interpretatsiya qilishda bir xillik va farqlanishlar bo'lishi muqarrar. Til sotsiologiyasi, lingvistika sotsiologiyasi va sotsiolingvistikani, psixologiya sotsiologiyasi va sotsiopsixologiya tipini qiyoslab qo'ramiz<sup>15</sup>.

Kommunikatsiya sotsiologiyasining o'ziga xosligi nimalardan iborat? Zamonaviy jamiyatda kommunikatsiya muammosini yagona o'zaro bog'liq tizim deb qarash lozim bo'lib, ularning asosiy terminologik komponentlari kommunikatsiya va sotsial kommunikatsiya hisoblanadilar.

Sotsial kommunikatsiyani o'rganar ekanmiz, «muloqot», «kommunikatsiya» va «nutq faoliyati» tushunchalarini qo'llashga to'g'ri keladi. Ular ba'zan bir-birining o'rniga ham qo'llanib, ularni ifodalab kelgan so'zlar esa ko'pincha sinonimlar sifatida ishlatiladi; masalan «muloqot» va «kommunikatsiya».

«Muloqot» so'zi ko'p hollarda sof terminologik ma'nosi qo'llanilmaydi. Balki fikr va axborot, hatto suhbatdoshlarning hissiy kechinmalari bilan almashinuv jarayonini belgilash maqsadida ishlatiladi. Sotsiologlar muloqotni, birinchi navbatda, odamlar faoliyatining sotsial Shartlashgan turi deb qarasarlar, til Shunoslar – til kommunikativ funksiyasining turli nutqiy vaziyatlarda dolzarblashuvini, psixologiyada esa muloqot odamlar orasidagi birgalikdagi faoliyat jarayonida axborot almashinuv maqsadidagi aloqalar o'rnatish va ularni taraqqiy ettirish jarayonini anglatadi.

«Kommunikatsiya» atamasi, yuqorida aytilgani kabi kamida uch xil izohga ega: a) axborot vositasi; b) axborot uzatish; v) axborot yordamida ta'sir o'tkazish.

Sotsiokommunikatsiya uchun atamaning har uch izohi ham muhim. Birinchisi mazmunni tabaqalashtirish (differentatsiya) va tizimlashtirishga oid tuzilishi, vazifalari va samaradorligiga ko'ra turlicha bo'lgan kommunikativ vositalar bo'lsa; ikkinchisi – Shaxslararo kommunikatsiya muammolariga bog'liq; uchinchisi – ommaviy kommunikatsiya muammolaridan kelib chiqadi. Kommunikatsiya individual va ijtimoiy jihatdan anglangan axborot o'rtasida vositachi bo'lib keladi. Uning eng katta muammosi axborot uzatish va idrok etishning individual jarayonini sotsial jihatdan ahamiyatli shaxsiy va ommaviy ta'sir ko'rsatish jarayoniga o'tkazish mexanizmidir. Bu mexanizm odamlarning nutq faoliyatidan joy olgan bo'lib, u orqali sotsial Shartlashilgan me'yorlar va muloqot qoidalari amalga oshiriladi.

Kommunikatsiya nazariyasining eng muhim funksiyalari qatoriga quyidagilar kiradilar:

Bilish funksiyasi – tabiat va jamiyatdagi kommunikatsiya jarayonlari va mexanizmlarini ishlab chiqish va izohlashga, shuningdek uning har bir o'ziga xos sohasining kommunikatsion jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu funktsiya quyidagi savollarga javob topadi: Kommunikativ reallikning o'zi nima? U yoki bu kommunikativ hodisalar nima sabablar tufayli ro'y beradi? Nima uchun ularga biror boshqa emas, balki aynan Shu xususiyatlar xos?

---

<sup>15</sup>Konetskaya V.P. Sotsiologiya kommunikatsii: Uchebnik. – M.: Mejdunarodniy universitet biznesa i upravleniya «Bratya Karig», 1997. – S. 6-7.

Metodologik funktsiya kommunikativ reallikni ilmiy bilish va o'rganishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu funktsiyani qo'llash tabiat va jamiyatdagi kommunikativ hodisalarning nazariy va empirik tahlili davomida qo'llanadigan umumiy ilmiy va xususiy ilmiy metod va uslublarga tayanadi.

Prognostik funktsiya – jamiyatda ularning ehtimoliy oqibat va natijalarini aniqlash maqsadida sotsial kommunikatsiyaning rivojlanishi, kommunikativ jarayonlarni modellashtirish istiqbollari belgilab olinishi, shuningdek ulardan kutilayotgan samara nuqtai nazaridan joriy qilinayotgan kommunikatsiyaning texnik tizimlarini ilmiy ekspertiza qilinishini ko'zlaydi.

Amaliy (instrumental) funktsiya – kommunikatsiya jarayonini optimallashtirish muammolarini hal qilish, kommunikatsiya jarayonining ob'ektiv va sub'ekti omillarini hisobga olish, sotsial jarayonlarni kommunikatsiya vositasida tashkil qilish va muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Sanab o'tilgan funktsiyalar kommunikatsiya nazariyasining ilmiy fan sifatidagi amaliy tusga ega ekanligini aks ettiradi.

**1. Kommunikatsiya ko'rinishlari** – bu umumiy ma'noda odamlar orasidagi o'zaro aloqa, hamkorlik jarayonlaridir. Kommunikatsiya mohiyati va uning turlari – inividlar o'rtasida turli g'oyalar, manfaatlar, tasavvurlar, his-tuyg'ular, ko'rsatmalar, verbal va noverbal yo'l bilan almashinishning ko'p qirrali jarayonidir.

Kommunikatsion harakat – kommunikatsiya ishtirokchilarini almashtirmay yuz beradigan, mazmun (ma'no) jihatidan o'zaro faoliyat yuritishga doir tugallangan operatsiya. Kommunikatsiyaga kirishgan sub'ektlar uch maqsadni ko'zlashlari mumkin: birinchidan, retsipient kommunikantdan o'zi uchun qaysidir jozibador mazmun(ma'no)lar olishni istaydi; ikkinchidan, kommunikant retsipientga uning axloqiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qandaydir mazmun(ma'no)lar bildirishni istaydi; uchinchidan, kommunikant ham retsipient ham biron-bir mazmun, ma'no almashinish maqsadidagi o'zaro hamkorlikdan manfaatdor.

Ommaviy kommunikatsiyada ayniqsa OAV alohida o'rin tutib, ular axborot uzatish va uni idrok etish usuliga ko'ra vizual (davriy nashrlar), auditiv (radio) va auditiv-vizual (televidenie) bo'lishi mumkin.

Jamiyatning har bir sohasida kommunikatsiya usullari o'xshash bo'lib, tegishli axborotni uzatish va olish Shakllari va metod xususiyatlariga ko'ra farqlanadilar, xolos.

Bugungi kunda, ko'pchilikning e'tirofiga ko'ra, har qanday tashkilot (muassasa, korxonalar, firma) faoliyati muvaffaqiyati ko'p jihatdan aynan kommunikatsiyaga bog'liq. U sotsial boshqarishning murakkab muammolaridan biridir. Aslini olganda bu jamiyatning yagona organizmi va uning har bir tashkiloti yoki institutining o'ziga xos «qon tomiridir».

Kommunikatsiyalar insoniyat boshqaruv faoliyatining axborot bilan bog'liq jarayonlarida bog'lab turuvchi bo'g'inlar sifatida boshqaruvning zarur Sharti bo'lib keladilar. Kommunikatsiya jarayonida asosiysi – ikki va undan ortiq kishi o'rtasida shunchaki axborot almashinuvi emas, balki axborot mazmuni, uning mohiyati bilan almashinishdir. Xabarlar ma'nosini to'g'ri uzatish uchun to'siqlarni ko'plab

topish mumkin. Hatto shaxsiy muloqotda ham ochiq-oydin kommunikatsiya uchun turli to'siqlar mavjud (idrok etish, e'tibordagi farq va h.k.). Shu sababli kommunikativ jarayonlarda insonning roli juda katta. R.Falmerning obrazli iborasiga ko'ra, yaxshi kommunikatsiya, toza havo kabi, odatda o'z-o'zicha mavjud narsa sifatida qabul qilinib, faqat u yo'qolganidan keyingina uning qadriga etamiz. Kommunikativ jarayonlar sifati, u xoh jamiyatda, xoh uning har bir sohasida bo'lsin atrofda indvidlarning kommunikativ madaniyatiga bog'liq.

Kommunikatsiya axborot bilan uzviy bog'liq. Axborot uzatish uch xil kommunikativ Shaklda amalga oshirilishi mumkin:

1. Monolog, unda muloqot tashkilotchisidan axborotni axborot oluvchiga bir tomonlama uzatish kabi kommunikativ harakatlar ustun bo'ladi.

2. Dialog, unda muloqot sub'ektlari o'zaro harakat qilib, har ikkisi ham faol bo'ladi. Kommunikatsiyaning bunday Shaklida axborot almashinuvi ro'y beradi. Dialog shaklidagi kommunikatsiyada o'zaro kelishilgan qarorlar ishlab chiqish muhim o'rin tutadi.

3. Polilog – ko'p tomonlama muloqotni tashkillashtirish. Bunday kommunikatsiya kommunikativ tashabbusga ega bo'lish uchun kurash ko'rinishiga ega bo'lib, uni maksimal darajada va samarali ro'yobga chiqarish bilan bog'liq.

Kommunikatsiya turlari kommunikantlar miqdoriga ko'ra farqlanadi. Bu professional kommunikator uchun jiddiy ahamiyatli farq bo'lib, Chunki har bir holdagi ish texnologiyasi o'z xususiyatiga ega (masalan, o'zi bilanbo'zi, bitta suhbatdosh yoki ko'plab kishilar guruhi bilan so'zlashishda hatto ovoz balandligi ham farq qiladi).

Intrapersonal kommunikatsiya – o'zi bilan o'zi so'zlashish bo'lib, inson o'z ichki tovushi, vijdoni, “alter ego” bilan suhbat, monologini ham dialog ko'rinishiga o'tkazadi.

Shaxslararo kommunikatsiya – odatda, kommunikatsiyaning ideal modeli bilan bog'liq bo'lib, ko'p jihatdan birlamchi, unda ikki nafar kommunikant ishtirok etadi (biroq kuzatuvchi, qo'shilgan kuzatuvchi va begona variantlari, mavjud guvohlar fonida kommunikatsiya, olomon ichidagi, restorandagi kabi variantlar ham mavjud).

Guruhlararo kommunikatsiya – turli aholi guruhlari yoki toifalariga oid kishilar bilan to'liq determinatsiyalangan, shaxslararo o'zaro aloqalari, hamkorligi va shaxsiy qarashlari, ustuvorliklariga bog'liq bo'lmagan kommunikatsiya (internetda “chatrooms” va “forums”, “messageboards”). Nisbatan kichik guruhda har bir ishtirokchi muloqotda ishtirok etish uchun tahminan teng imkoniyatga ega bo'ladi. Ishtirokchilari soni 10-12 kishi atrofida bo'lgan guruhlarda kishi muhokamaning barcha ishtirokchilari orasida to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqani amalga oshirish mumkin. Ana shuncha miqdorda talabasi bo'lgan o'quv auditoriyasida faol munozaralar, ma'ruza-suhbatlar o'tkazilsa ham bo'ladi. Bu erda bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) aloqa kanali shaxslararo kommunikatsiyaga nisbatan ko'proq tuzilmalangan, biroq teskari aloqa xuddi shunday imkoniyatlarga ega<sup>16</sup>.

Yalpi (ommaviy) kommunikatsiya, agar xabarni manfaatlari va kommunikativ tajribasi turlicha bo'lgan guruhlardan tashkil topgan ko'p sonli odamlar olgan yoki

<sup>16</sup> SHarkov F.I. Osnovi kommunikatsiy. [www.iub.at.ua](http://www.iub.at.ua). – S. 24.

ishlatgan taqdirda ro'y beradi. Ommaviy, qisman guruhli kommunikatsiya darajasida paradoksal, g'ayrioddiy hodisalar ro'y beradi. Jo'natuvchi alohida shaxs, oluvchi bo'lib esa – guruh, jamoa, omma, partiya, xalq bo'lishi mumkin. Xabar jo'natuvchi ham kollegial (ko'pchilik) bo'ladi: bir kishi bilan firma, partiya, xalq so'zlashadi.

**1-jadval. Ommaviy va shaxslararo kommunikatsiya tavsiflari<sup>17</sup>**

<b>Ommaviy kommunikatsiya</b>	<b>Shaxslararo kommunikatsiya</b>
<b>Muloqotning texnik vositalar orqali amalga oshishi</b>	Muloqotdagi bevosita aloqa (kontakt)
<b>Katta sotsial guruhlarining muloqoti</b>	Asosan alohida individlarning muloqoti
<b>Muloqotning yorqin ifodalangan sotsial yo'nalish olganligi</b>	Muloqotning ham sotsial ham individual-Shaxsga qaratilganligi
<b>Muloqotning tashkillashtirilgan, institutsional xarakteri</b>	Muloqotning ham uyu Shtirilgan, ham (ko'p jihatdan) o'z holicha, uyu Shtirilmagan ko'rinishga egaligi
<b>Kommunikator va auditoriya o'rtasidagi muloqot jarayonida bevosita aloqa yo'qligi</b>	Kommunikativ hodisada muloqot qilayotganlar orasida bevosita teskari aloqa (bog'liqlik) mavjudligi
<b>Qabul qilingan muloqot me'yorlariga rioya qilishga bo'lgan o'ta kuchli talab</b>	Qabul qilingan muloqot me'yorlariga rioya qilishga nisbatan ancha "erkin" munosabat
<b>Axborotning bir tomonlamaligi va kommunikativ rollarning belgilab qo'yilganligi</b>	Axborot yo'nalishi va kommunikativ rollarning navbatma-navbat o'zgarib turishi
<b>Kommunikatorning «jamoaviy» xarakteri va uning ommaviy individualligi</b>	Kommunikatorning «individual» xarakteri va uning "xususiy" individualligi
<b>Ommaviy, stixiyali, anonim, tarqoq auditoriya</b>	Retsipient – alohida olingan muayyan inson
<b>Xabarlar ommaviyligi, sotsial dolzarbligligi va davriyligi</b>	Yagonaligi, xususiyliigi, universalligi, sotsial va individual dolzarbligligi, davriyligi zaruriy emas
<b>Xabarni ikki pog'onali idrok etilishi ustuvorligi</b>	Xabarning bevosita idrok etilishi ustuvorligi

**Millatlararo kommunikatsiya** – bu: 1.Turli milliy jamoatlar vaqillari orasida axborot, ma'lumotlar uzatish, ham ikki tomonlama ham bir tomonlama ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. 2.Turli millat vakillarining bevosita hamkorligi va muloqoti davomida yuzaga keladigan sotsial-psixologik hodisalar va jarayonlar.

Millatlararo kommunikatsiyaning tarkibiy qismlari: Birinchisi –turli etnik jamoalar vakillari orasida axborot almashinuvi. U muloqot sub'ektlari faolligiga,

<sup>17</sup>Zosimenko I.A.Sotsiologiya massovix kommunikatsiy: uchebnik / I.A. Zosimenko. –Ulyanovsk: UIGTU, 2013. – S. 34.



ularning milliy qarashlariga, xalqlarning turmush tarziga bog'liq. Millatlararo kommunikatsiyaning ikkinchi qismi – turli millat odamlarining bir-birini tushunishi va qabul qilishi, bu ko'p jihatdan muloqot qonuniyatlariga va turli milliy-etnik guruh individlari o'zaro hamkorligining sotsial-psixologik xususiyatlariga bog'liq.

Shaxslararo kommunikatsiyaga quyidagilar xos.

1. Ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar nisbatan teng huquqli (sevishganlar, oila, kompaniya).

2. Muloqot qilayotganlar soni zamon va makonda cheklab qo'yilgan: 7-8 kishilik guruh birikishi, «boshini bir yoqadan chiqarishi» ham mumkin, ammo odamlar soni ko'proq bo'lsa, bu omma, kichik-kichik guruhchalarga bo'linib ketadi.

3. Muloqot jarayonining kuchli hisoblash-xayajonli jihatlari mavjudligi. Hisoblash-tuyg'ular almashinuvi ahamiyati shu qadar kattaki, u hatto semantika hisobiga yuz berishi hammumkin. Sevishganlardan biri: «Seni o'ldiraman!», «Yaramas mahluq!», - deganida, ikkinchi taraf uning so'zlarini mehr-muhabbatning namoyon bo'lishi, deb tushunadi va ko'pincha xato qilmaydi.

4. His-tuyg'ular, qadriyatlar adekvatligini muvofiqlashtirish, moslashtirish, kelishib olish. «Meni hurmat qilasanmi?» iborasi naqadar kulgili ekanligiga qaramay – munosabatlar ishonchliligining o'ziga xos timsolidir.

5. Shaxsiy tavsiflarning (iroda, temperament, nufuz) va etakchi shaxsiyatining his-tuyg'ular, fikrlar, baholarni kelishib olish jarayonidagi ahamiyatligi; nufuz, mavqening Shakllanishi («jamoqa qalbi», «o'zimizning yigit», «fikir etakchisi»).

6. Munosabatlar ishonarliligi va emotsionalligi, qadriyatli me'yorlarning o'zaro mosligi (bu ma'noda shaxslararo kommunikatsiya mish-mish va g'iybatlar tarqalishiga xizmat qiladigan qulay muhit bo'lib xizmat qiladi: axborot tek Shirilmay, unga so'zsiz ishoniladi)<sup>18</sup>.

Qo'llanadigan kommunikatsiya belgilar tizimlariga bog'liq ravishda verbal va noverbal turlarga bo'linadi.

Verbal kommunikatsiya (lot.verbalis – so'zga doir) – so'zli muloqot vositalari yoki suhbatdoshlar o'rtasidagi nutqiy muloqot jarayoni. Imo-ishoralar (imo-ishoralar tili), mimika, gavda (tana) harakatlari va nutqiy vositalardan holi muloqot. Verbal kommunikatsiya vositalariga nutq (og'zaki va yozma) kiradi. Muloqotning og'zaki shakli tashkilotda majlislar, ko'rsatma berish, yuzma-yuz muloqot, guruhdagi og'zaki taqdimot orqali ifodalanishi mumkin. Samarali verbal kommunikatsiya uchun chiqishni yaxshilab rejalashtirish, zarur bo'lsa, ko'rgazmali materiallardan foydalanish, nutqning monoton va uzoqligidan qochish, suhbatni imkon qadar dialog tarzida olib borish, suhbatdosh fikri va mulohazalarini diqqat bilan tinglash, uni qiziqtirgan savollarga javob berish talab etiladi.

Til tafakkur va axloqqa juda katta ta'sir ko'rsatadi. Verbal kommunikatsiya birliklari bo'lib bildirilgan fikr va diskurs keladi. Nutq akti qabul qilingan qoidalarga muvofiq muayyan maqsadga qaratilgan nutqiy axloq, harakat bo'lib

---

<sup>18</sup>Sotsiologiya massovoy kommunikatsii: Uchebnik dlya vuzov/L. N. Fedotova. – SPb.: Piter, 2003. – S.28.

hisoblanadi. Fikrning verballashgan natijasi, nutq harakatining hosilasi bu mulohaza, bildirilgan fikr hisoblanadi.

Diskurs –nutqda modellashtirilgan, o'zaro bog'liq yaxlit matn bo'lib, hodisalar nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Diskursda ham til, ham noverbal vositalar mavjud. Til omillari so'zlarning birikuvchanligini, iboralarning ko'p variantlilikini, intonatsion jihatlarni, nutqqa, savolga munosabat bildirish elementlari, hamsuhbatdan qaytib so'rash va gapini bo'lish kabilarni tarkibiga oladi. Diskursning noverbal omillari, xizmat etiketi vositalari nutqning hayotiy vaziyatlarni dolzarblashuvi, jonli ko'rinish olishiga ko'maklashadi<sup>19</sup>.

Noverbal kommunikatsiya – imo-ishoralar (imo-ishoralar tili), mimika (yuz ishoralari), tana harakatlari va nutq vositalaridan tashqari vositalar yordamidagi muloqot. Noverbal muloqot vositalari quyidagi turlarga ajraladilar:

- vizual;
- teri reaktsiyalari;
- masofani aks ettiradigan;
- ko'MakShi muloqot vositalari, shu jumladan gavda tuzilishi xususiyatlari (jinsiy, yoshga oid) va ularni o'zgatirish vositalari;
- akustik yoki tovush;
- ekstralingvistik – nutq bilan bog'liq bo'lmagan;
- taktil-kinestezik – hamkorlarning tashqi ko'rinishi (kiyimi, soch turmagi, aksessuarlari va h.k.). Noverbal signallar ko'pincha axborot qabul qiluvchining hamsuhbatini asl hissiy holati, uning hamsuhbatiga hamda suhbat mavzusiga nisbatan munosabatidan xabardor qiladi.

- olfaktor (hidlar). Hidlar (hamsuhbatlar ishlatadigan parfyumeriya; ongsiz darajada anglanadigan shaxsiy (individual) hidlar; inson his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhit hidlari);

Noverbal kommunikatsiya vositalariga quyidagilar oid:

- dastxat;
- paralingvistik (yunon. Para – yaqinida, qoshida, tashqari va lot. Lingua – til) vositalar – nutq atrofi: intonatsiya, tovush balandligi, nutq sur'ati, nutq ritmi, tovush tembri, diktsiya, alohida tovushlar, nutq bilan birga keladigan tovushlar – «e-e-e», «hm-m», yo'talib qo'yish va b.;

- harakat vositalari: yuz harakatlari (mimika), imo-ishoralar, tana holatlari, yurish xususiyatlari, hamsuhbatiga tegish va b. Tana holatlari va harakatlarini o'rganadigan fan pantomimika deb nomlanadi. Ma'noli imo-ishoralar, mimik va pantomimik harakatlar jamlanmasi, o'zgacha qilib aytganda – kinemalar, kinesika (yunon. Κύνησις - harakat) deb ataladi.

Makoni muhitni tashkillashtirish (hamkorlar orasidagi masofa va ularning bir-biriga nisbatan joylashishi). Muloqotning makon jihatidan tashkillashtirilishini o'rganadigan fan (bir-biriga yaqinlik va sh.k.) proksemika (yunon. Πρόξιμος - yaqin) deb ataladi.

Muloqot joyi (muloqot ro'y berayotgan hudud);

---

<sup>19</sup> SHarkov F.I. Osnovi kommunikatsiy. [www.iub.at.ua](http://www.iub.at.ua). – S. 27.

Noverbal vositalar an'anaviy ravishda turli asoslarga ko'ra guruhlarga birlashadilar. Misol uchun, muloqotga tayyorlik darajasidan odatda ochiq va yopiq noverbal vositalar dalolat beradilar.

Ochiq deb shunday kommunikativ ko'rinishlarga aytiladiki, ular hamsuhbat ochiq ko'ngil, xushmuomala, ochiq-oydin so'zlashga harakat qilayotganidan dalolat beradi. Ochiq kommunikativ ko'rinishlar hamkorlar, hamsuhbatlar o'rtasida na jismoniy na ruhiy to'siq hosil qilmaydilar. Samimiy jilmayish, ko'z-ko'zga tu Shishi – bular ochiq mimika namunalari; kaftlari ochiq holda tepaga qaratilgan qo'llar – ochiqlik ishorasi; boshni to'g'ri, ko'targan holda tutish va pastga tu Shgan elkalar ham ochiqlikdan dalolat beradi.

Yopiq deb hamsuhbatlar orasida jismoniy, ruhiy to'siq hosil qiladigan ko'rinishlarga aytiladi, masalan: chalishtirilgan qo'l yoki oyoqlar, qovog'i soliqlik, chimirilgan qoshlar, ko'zni qisib qarash yoki ko'zni olib qochish. To'siqni buyumlar yordamida ham yaratish mumkin: ko'zoynak, barcha tugmalari taqilgan kiyim, galstuk, bo'yinni yopib turgan sviter, shuningdek suhbatdoshlar o'rtasidagi stol, stul, sumka yordamida. Yopiq imo-ishoralar kontakt izdan chiqqanligini anglatadi. Bu hamsuhbatlardan biri zerikib qolgani, shoshilayotgani yoki boshqasining fikriga qo'shilmagani sababli ro'y berishi mumkin. Boshqa, ya'ni quyidagi kabi sabablar ham bo'lishi mumkin: hamkoriga nisbatan sovuq munosabat, unga bo'lgan ishonchsizlik ruhi, qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik, horg'inlik, og'riq, sovuq yoki boshqa noxush sezgilar, shuningdek «qobig'iga qamalib olish» istagi, ya'ni barchadan chetlashib, suhbat mavzusi ustida mulohaza qilish yoki esdaliklar og'ushiga cho'mish. Ko'rib turganingiz kabi, sabablar bir-biriga zid bo'lib, tashqi axloq, o'zini tutish esa o'xshash bo'lishi mumkin. Shu sababli, boshqalar axloqini izohlashda xato qilmaslik uchun noverbal vositalarning butun majmuini va ular bir-birining o'rnini egallashini hisobga olish talab etiladi.

Yo'naltirilganligiga ko'ra kommunikatsiya bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) yoki bilvosita bo'lishi mumkin.

Bevosita kommunikatsiya deb hamkorlar harakatlarini aniq bir-biriga qaratib, axborot «birinchi shaxsdan» qabul qilib oladigan kommunikatsiyaga aytiladi.

Bevosita kommunikatsiya ham to'g'ridan-to'g'ri ham biror vosita orqali bo'lishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri bevosita kommunikatsiya deganda verbal (nutqiy) va noverbal (nutqiy bo'lmagan) vositalar yordamidagi tabiiy «yuzma-yuz» aloqa bog'lash, so'zlashish tushuniladi. To'g'ridan-to'g'ri bevosita kommunikatsiya shaxslararo muloqot uchun xos bo'lib, xizmat axboroti bilan almashinuvidan to sof Shaxsiy ma'lumot almashinuvga qadar turli dolzarblashuv sohalariga ega.

To'g'ridan-to'g'ri vositali kommunikatsiya – bu «noto'liq» kontakt bo'lib, u muloqot ishtirokchilari orasidagi teskari aloqani og'irlashtiradigan yoki uni olish vaqtini uzoqlashtiradigan yozuv yoki texnika vositalari (telefon, telegraf, Internet tarmog'i vab.) yordamida amalga oshiriladi.

Bilvosita muloqot deb uning jarayonida axborot hamsuhbatga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri emas, balki atrof-muhitdagi narsalar yoki boshqa odamlarga yo'llangan harakatlar orqali etib boradi. Bu faoliyat izlari keyinchalik

boshqalardan ular haqida e Shitgan, bilgan, ko'rgan odamlar uchun axborot tashuvchi bo'lib xizmat qilishini anglatadi. Masalan, aholi o'rtasida kompaniya to'g'risida tarqatilgan fikr faqat bevosita mijozlarning firma rahbariyati bilan muloqoti hisobiga shakllantirilmaydi (bu kamdan-kam hollarda yuz beradi). Tashkilot to'g'risidagi taassurot asosan bilvosita yo'l bilan olingan axborot (boshqalarning hikoyasi, tovar va uning qadog'ini tashqi ko'rinishi, reklama mazmuni va samaradorligi va h.k.) hisobiga shakllantiriladi.

Xizmat kommunikatsiyasi shakllariga munozara, suhbat, kengash, majlis, muzokara, brifing, matbuot-konferentsiyalari, taqdimotlar, shaxsiy masalalar bo'yicha qabul, telefonda so'zlashuv, xizmat yozishuvlari kabilar kiradi.

Dialog – tor ma'noda odamlar o'rtasidagi ham oshkora, ham matbuot vositalari yordamidagi ikki tomonlama axborot almashinish. Nisbatan kengroq ma'noda esa – axborotni gorizontal yo'nalishda uzatish bo'lib, buning jarayonida kommunikator va retsipient teng huquqli ishtirok etadilar.

Munozara – so'z musobaqasi, mubohasa ko'rinishidagi bahs. Munozara qilish –bahsli masalani oshkora tarzda muhokama etishni bildiradi. Munozarada qatnashish –biron-bir masalaga bag'ishlangan bahsda, ommaviy muhokamada ishtirok etish. Bahs uyu Shtirish – biron-bir masala yuzasidan bahs, munozara uyushtirish. Shunday qilib, agar diskussiya – turli fikrlarni taqqoslash, qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan haqiqatni aniqlash maqsadidagi oshkora bahslashuv bo'lsa, u holda polemika (masala talashish) – o'z nuqtai nazarini himoya qilish va opponent fikrini rad etishga qaratilgan oshkora bahsdir<sup>20</sup>.

Suhbat – turli muammolarni muayyan maqsadda muhokama qilishning savol-javob tarzidagi jamoaviy Shakli.

Muzokaralar – tomonlarning nuqtai nazarini bilish va qaror qabul qilish maqsadidagi fikr almashinuvi.

Matbuot-konferentsiya – axborotni uni nashr etish huquqi bilan, manbaini bildirib, yo bildirmagan holda eksklyuziv tarzda bayon etish (yopiq matbuot-konferentsiyasi).

Brifing (briefing ot brief – qisqacha) – rahbar organlar (parlament, hukumat va b.) faoliyati, shuningdek hokimiyat organlari va aholi manfaatlariga oid tegishli hodisalar to'g'risida qisqacha xabar qilish uchun jurnalistlar bilan maxsus uyu Shtirilgan uchrashuv.

Taqdimot (lot. praesentatio – taqdim, namoyish etish) – yangi tashkil etilgan korxonalar, firma, loyiha, mahsulot, tovarni taklif etilgan Shaxslarga rasman taqdim etish, tanishtirish.

Telefon orqali so'zlashuvlar, faksimil apparatlari, elektron pochta, Internet va boshqa vositalarini qo'llagan holdagi xizmat yozishuvlari – bularning bari xizmat kommunikatsiyalari vositalari.

Kommunikatsiya sotsiologiyasida, shaxslararo kommunikatsiya bilan birga ommaviy kommunikatsiya ham har tomonlama o'rganilib, unda ommaviy kommunikatsiyaning jamoatchilik fikrini shakllantirishga ko'rsatadigan ta'sirini keltirib chiqaradigan sotsial omillar tadqiq etiladi.

---

<sup>20</sup>Nojin E. A. Masterstvo ustnogo vistupleniya. – M., 1989. – S. 240.

Sotsiologiyada ommaviy kommunikatsiya sotsial Shartlar tufayli kelib chiqqan, asosiy funksiyasi uzatilayotgan axborot mazmuni orqali auditoriyaga ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lgan hodisa deb tushuniladi. Kommunikatsiya sotsiologiyasi uchun bu ta'rifning o'zi etarli emas. Chunki unda ommaviy kommunikatsiyaning jarayon sifatidagi jiddiy omillaridan biri – axborotni kommunikativ vositalar yordamidagi dolzarblashtirish mexanizmi hisobga olinmagan. Muloqot turlaridan biri deb qaralayotgan ommaviy kommunikatsiya, sotsial hodisalar sababli kelib chiqqan, asosiy vazifasi ma'noli va baholovchi axborot orqali ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lgan hodisadir. Nutq faoliyatining bir turi deb ko'rib chiqiladigan ommaviy kommunikatsiya sotsial Shartlashilgan jarayon bo'lib, bunda ushbu funktsiya sababli kelib chiqib, turli kommunikativ vositalar va kanallar orqali dolzarblashadi.

Ommaviy kommunikatsiya – sotsial jihatdan ahamiyatli, maqsadga qaratilgan tarzda muvofiqtirishga moyil bo'lgan va rahbar qatlamlar tomonidan mazkur jamiyatning muayyan ruhiy qadriyatlarini joriy qilish hamda odamlarning bahosi, qarashlari va axloqiga mafkuraviy, siyosiy yoki tashkiliy ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan axborotni ochiq, tartiblashtirilgan uzatish jarayonlari yig'indisi hisoblanadi.

Ommaviy kommunikatsiya ta'sir qilishi, ishlashi uchun talab etilgan Shart-sharoitlarga quyidagilar kiradilar:

- ommaviy kommunikatsiya muntazamligi va keng ko'lamliligini ta'minlaydigan texnik vositalar mavjudligi;

- ommaviy kommunikatsiya muayyan maqsadga qaratilganligini oshiradigan axborotning *sotsial ahamiyatini oshirish*;

- uning tarqoq joylashganligi va anonimligini hisobga olib, sinchiklab o'ylab chiqilgan qadriyatlarga mo'ljal olishni ko'zda tutgan ommaviy *auditoriya*;

- kommunikativ vositalarning ko'p kanalligi va ularni tanlash imkoniyati, bu ommaviy kommunikatsiyaning variativligi, shu bilan birga normativligini ta'minlab beradi.

1948 yili amerikalik olim G.Lassuell tomonidan quyidagi uch omil ajratib ko'rsatildi:

1. Atrofdagi olam manzarasining obzori, buni axborot funksiyasi deb Sharhlash mumkin.

2. Jamiyatning sotsial tuzilmalari bilan korrelyatsiyalanganligi, ya'ni o'zaro bog'liqligi, buni jamiyatga ta'sir ko'rsatish va teskari bog'liqlik (aloqa) orqali uni bilish deb tushunish mumkin.

3. Madaniy merosni uzatish, bunga bilish-kulturologik funksiyasi, madaniyatlar izchilligi, uzviyligi funktsiyasi sifatida qarash mumkin.

1960 yili amerikalik tadqiqotchi K.Rayt bular qatoriga yana bir omil – ko'nychilocharlik funksiyasini qo'shib qo'ydi. XX asrning 80-yillar boshlarida Amsterdam universitetining ommaviy kommunikatsiya bo'yicha mutaxassislardan biri Mak-Kveyl ana shu funktsiyalarga izoh berib, ular safiga mobillovchi deb nom olgan yana bir funktsiyani qo'shishni taklif qildi. Bunda u ommaviy kommunikatsiya aksariyat siyosiy, ayrim holatlarda diniy kompaniyalar jarayonida

bajaradigan o'ziga xos vazifalarni nazarda tutgan edi<sup>21</sup>. Fikrimizcha, muvofiqlashtiruvchi yoki boshqaruvchi sifatida nomlash mumkin bo'lgan bu funktsiya bizning jamiyatimizda ham kuch yig'ib bormoqda.

Psixolingvistikada radio va televizion muloqot uchun xos bo'lgan to'rt funktsiya ajralib turadi:

1. jamoaviy (birgalikdagi) faoliyatni o'zgartirish imkonini beradigan sotsial muloqotga yo'naltirish hisobiga jamiyat faoliyatini optimallashtirish;
2. guruh ongini shakllantirishda o'rin tutadigan kontakt funktsiyasi;
3. sotsial me'yorlar, etik va estetik talablardan foydalanish orqali sotsial nazorat qilish funktsiyasi;
4. Shaxsni sotsiallashtirish funktsiyasi – shaxsga jamiyat uchun maqbul fazilatlarni berib tarbiyalash funktsiyasi<sup>22</sup>.

*Axborot funktsiyasi* yalpi, ommaviy kitobxon, tinglovchi va tomoshabinga turli-tuman faoliyat sohalari – ishbiarmonlik, ilmiy-texnik, siyosiy, yuridik va tibbiyot sohalari bo'yicha katta hajmdagi axborot olish, odamlar o'z bilish imkoniyatlarini kengaytirish bilan cheklanmay, balki o'z ijodiy salohiyatlarini ham kuchaytiradilar. Axborotni bilish o'z harakatlarini prognozlash, belgilash imkonini berib, vaqtni tejaydi. Bunda birgalikdagi harakat qilishga bo'lgan intilish (motivatsiya) sezilarli tarzda kuchayadi. Bu ma'noda ushbu funktsiya jamiyat va individning foydali faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiladi.

*Muvofiqlashtiruvchi funktsiyada* ommaviy kommunikatsiya guruh va shaxs ijtimoiy shakllanishiga, jamoatchilik ongi va sotsial stereotip, ya'ni o'ziga xos qoliqlar yaratilishiga ta'sir ko'rsatadi. Muayyan sharoitlarda bu funktsiya «miya (ong) ni tozalash» ga ham xizmat qiladi. Axborot oluvchi OAV tomonidan ijobiy yoki salbiy baho berib izohlanayotgan turli sotsial vaziyatlarni qiyoslash imkoniga ega bo'ladi.

Odamlar, odatda, OAV tomonidan ijobiy turmush tarzi sifatida ishonch bilan tashviq etilayotgan axloq me'yorlari, etika talablari, estetik printsiplar, kiyinish tarzini, muloqot qilish odobini qabul qiladilar. Individning jamiyat uchun ushbu tarixiy davrdagi ma'qul me'yorlarga muvofiq sotsiallasuvi ana shu tarzda ro'y beradi.

*Kulturologik funktsiya madaniyat va san'at yutuqlari bilan tanishtirish kabi asosiy vazifasidan tashqari jamiyatning madaniyat izchilligi, madaniyat an'analarni saqlab qolish zaruratini anglab etishiga xizmat qiladi. OAV yordamida odamlar turli xalq madaniyatlari bilan tanishib, bu ularning estetik didini o'stiradi, o'zaro bir-birini tushunishga, sotsial ziddiyatlar darajasini pasaytirishga, oxir-oqibatda jamiyatning o'zaro jipslashuviga yordam beradi.* Ushbu funktsiya bilan ommaviy madaniyat tushunchasi bog'liq bo'lib, uning sotsial qadriyatlarga nisbatan munosabatini har xil qabul qilish mumkin. Bir tomondan, keng ommani jahon san'ati yutuqlari, yangi yo'nalishlar va moyilliklar bilan tanishtirish, so'zsiz, OAV yutuqlaridan biri bo'lib keladi.

<sup>21</sup>Wright Ch. Mass Communication. A Sociological Perspective. N. Y., 1986.

<sup>22</sup> A.A. Leontev Psixolingvisticheskaya problematika massovoy kommunikatsii // Psixolingvisticheskie problemi massovoy kommunikatsii. – M., 1974. – S. 46-48.

Boshqa tarafdin, tomoshabop dasturlar badiiy saviyasining pastligi, ularni cheksiz ko'paytirish va tarqatish imkoniyatlari ommaviy madaniyat iste'molchilari didi, umumiy saviyasi pasayib ketishiga olib keladi.

Ommaviy kommunikatsiyaning yuqorida keltirilgan tavsiflari va asosiy funksiyalarini hisobga olgan holda uning sotsial mohiyati, jamiyat faoliyatini optimallashtirish, individ, shaxsni sotsiallashtirish va jamiyatga integratsiyalash maqsadida ta'sir ko'rsatuvchi qudratli vosita ekanligidan kelib chiqadi.

Ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishda kommunikatsiyalarning bir necha modellarini, xususan bir pog'onali va ko'p pog'onali turlarini ajratib ko'rsatisht mumkin.

1948 yili amerikalik olim G. Lassuell o'zining kommunikatsiya modelini taklif etdi. Ikkinchi jahon uru Shida qo'shin bo'linmalarida olib borilgan tashviqot tajribasi asosida ishlab chiqilgan bu modelni teng ravishda ommaviy kommunikatsiya va har qanday kommunikativ harakat tahlili maqsadida ham qo'llash mumkin bo'lib, u izchil ravishda quyidagi yuzaga keladigan savollarga javob berish jarayonida ochilib boradi: Kim? Nimani xabar qildi? Qaysi kanal orqali? Kimga? Samarasi qanday bo'ladi?

«Lassuell formulasi» kommunikatsiya jarayonining tuzilmasini aks ettiradigan modelga, shu bilan birga ana shu jarayonni, uning tuzilmasi va ayrim elementlarini tadqiq etish modeliga aylanib qoldi<sup>23</sup>.

## 2-jadval. Lassuell formulasi

<b>Kim?</b>	<b>Nimani xabar qildi?</b>	<b>Qaysi kanal bo'ylab?</b>	<b>Kimga?</b>	<b>Qanday samara bilan?</b>
<b>Kommunikator</b>	Xabar	Kanal	Xabar oluvchi	Samara
<b>Boshqaruv tahlili</b>	Mazmun tahlili	Vosita va kanallari tahlili	Auditoriya tahlili	Natijalar tahlili

Lassuellning «kommunikativ formulasi» bir vaqtning o'zida kommunikatsiya jarayonini o'rganish modeli, shu bilan birga kommunikativ keng ko'lamlil harakat rejasi ham bo'lib, uning ijobiy jihati ham ana shunda. Kommunikator va retsipient o'rtasidagi teskari bog'liqlik kanalini qo'llash unga qabul qilingan signal to'g'risida ortga qaytarib xabar yo'llash, bildirish imkonini beradi. Zarur hollarda axborot oluvchi o'z tashabbusiga ko'ra xabar uzatib, bu bilan kommunikatsiya ob'ektidan uning faol sub'ektiga aylanishi ham mumkin. Bu kabi vaziyatda harakat o'zaro birgalikdagi harakatga aylanib, bunday bir pog'onali kommunikatsiya birgalikdagi faoliyat deb qaraladi.

Bu model kommunikatsiyani uning doirasida jo'natuvchi g'oyalari va sezgilarini ma'lum xabar turi sifatida kodlashtiradigan va so'ng uni biron-bir kanal (nutq, xat orqali xabar va sh.k.) yordamida oluvchiga jo'natadigan harakat, deb

<sup>23</sup>Zosimenko, I.A. Sotsiologiya massovix kommunikatsiy. Uchebnik / I.A. Zosimenko. – Ulyanovsk: UIGTU, 2013. – S. 38-39.

qaraydi. Agar xabar turli-tuman “shovqin” yoki to’siqlarni engib o’tib, oluvchiga borib etgan bo’lsa, bu holda kommunikatsiya muvaffaqiyatli, deb topiladi.

Ushbu model kommunikatsiya jarayonidagi ba’zi muhim jihatlarga diqqatni tortadi. Bu xabar olingan kanalning xabar oluvchi reaksiyasiga ko’rsatadigan ta’siridir. Misol uchun, yuzma-yuz uchrashib qilingan muhabbat izhori xat orqali o’qilgan yoki telefondan bildirilgan sevgi e’tirofiga nisbatan butunlay boshqacha qabul qilinadi. Ushbu modelning kamchiliklaridan biri shuki, u kommunikatsiyani bir tomonlama yo’llangan ya’ni, jo’natuvchidan oluvchiga tomon boradigan jarayon deb qaraydi. Shu sababli model yozma kommunikatsiyani bayon etish, xabar oluvchi ta’sir ob’ekti sifatida ko’riladigan ommaviy axborot vositalari ta’sirini ko’rsatishda ish berishi mumkin.

Ommaviy kommunikatsiya vositalarining xabarlari barcha retsipientlar tomonidan bir xil qabul qilinib, ularda zudlik bilan ma’lum, kutilgan reaksiyani keltirib chiqaradi, degan ishonch Lassuell kontseptsiyasini «sehrli o’q nazariyasi» deb nomlanishiga sabab bo’ldi. Chunki, unga ko’ra kommunikatsiya kommunikator miyasidan retsipient miyasiga yo’llaydigan sehrli o’q singari kishining g’oyalari, sezgilari va muhimi keyingi harakatlari uchun asos bo’lib xizmat qiladigan motivatsiyasini tubdan o’zgartirib yuboradi. Ta’sir yo’llangan shaxs kommunikativ aktning passiv va himoyasiz ishtirokchisi bo’lib, uni «elektr chiroq kabi» yoqadilar<sup>24</sup>.

Shennon-Uiver modeli avvalgisining grafik tasviridan boshqa narsa emas. Uni telefon aloqasiga o’xshatish mumkin. Faraz qiling, turli mamlakatlarda yashaydigan, har xil tilda so’zlashadigan va o’z abonentining tilini yaxshi tushunmaydigan ikki kishi telefon orqali so’zlashishga majbur. Bunda suhbat vaqti cheklangan, telefon aloqasi esa barqaror emas. K.Shennon va U.Uiver o’zlari ishlab chiqqan aloqa (kommunikatsiya) ning matematik nazariyasida modellashtirishga harakat qilgan vaziyat ana shunday.

Ushbu modelda manbalar; qo’ng’iroq qilayotgan Shaxs (xabar uzatayapti); xabar – uzatilayotgan axborot; telefonli uzatgich – tovush to’lqinlarini elektr impulslariga aylantiradigan kodlashtiruvchi qurilma; telefon simi – kanal; telefon apparati (ikkinchi apparat) – elektr impulslarini qaytib tovush to’lqinlariga aylantiradigan dekoder; qabul qiluvchi – xabar yo’llangan odam. Bunda suhbat aloqa liniyasida yuzaga keladigan doimiy to’siqlar (shovqinlar) bilan birga kuzatilishi mumkin; kanalning chastotalar diapazoni cheklangan bo’lishi, abonentlar bir-birini yaxshi tushunmasligi ham mumkin. Bu vaziyatda ular aloqa liniyasidan uzatiladigan axborot hajmini ko’paytirishga intilishlari tayin. Telegraf va radiotizimlar orqali ham aloqa shu tarzda amalga oshiriladi. Ulardan foydalanishda ham Shuningdek texnik ma’noda buzilish yoki xalaqitlar deb qabul qilinadigan, uzatish uchun mo’ljallangan foydali signaldan farq qiladigan «Shovqinlar» paydo bo’ladilar. Kommunikatsiyaning matematik nazariyasi dastlab Shovqinlarni manba tomonidan uzatilayotgan foydali axborotni ajratib olish maqsadida ishlab chiqilgan edi.

---

<sup>24</sup>Zosimenko, I.A. Sotsiologiya massovix kommunikatsiy. Uchebnik / I.A. Zosimenko. –Ulyanovsk: UIGTU, 2013. – S. 40.



Shannon fikriga ko'ra, shovqinlarni engib o'tish, yo'qotish signallar ortiqchaliligidan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin. Ortiqchalilik tushunchasi kommunikativ omadsizlikning oldini olish maqsadida xabar elementlarini takrorlashdan iborat. Matndagi so'zlarning yarmini yopib qo'ysa yoki radio orqali chiqishda so'zlarning yarmini o'chirib tashlasa ham bu matni tushunish mumkin bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, yo'l qo'yiladigan Shovqin me'yori, chegarasi mavjud bo'lib, undan tashqarida tushunish imkoniyati keskin pasayib ketadi.

Ushbu modelning ijobiy jihati shu bilan bog'liqki, u paydo bo'lishi bilan uzatilayotgan axborot tezligi va miqdori to'g'risidagi tasavvur ham yuzaga keldi. Biroq Shannon-Uiver modeli qator cheklovlarga ham ega: u mexanistik – asosan kommunikatsiyaning texnik usullarini aks ettiradi; inson unga faqat axborot «manbai» yoki «qabul qiluvchisi» sifatida qo'shiladi; u uzatilayotgan axborot mohiyati, mazmunidan uzoqlashib, faqat uning miqdoriga e'tibor qaratadi; mazkur modelda kommunikativ jarayon chiziqli, bir tomonlama yo'llangan xarakterga ega bo'lib, teskari aloqa mavjud emas.

Ikki pog'onali kommunikatsiya modeli P. Lazersfeld, B. Berelson va G. Gode tomonidan ommaviy kommunikatsiyalarni tadqiq etishda ishlab chiqildi. Ular quyidagi anchagina qiziq qonuniyatga e'tibor qaratdilar: aholi e'tiboriga OAV orqali etkaziladigan axborot ta'siri ma'lum vaqt o'tishi bilan susaymay, aksincha, kuchayib borar ekan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, matbuot, televidenie va radio orqali uzatiladigan axborot ommaviy auditoriya tomonidan bevosita va zudlik bilan emas, balki ma'lum vaqt o'tganidan so'ng, «fikir etakchilari» ta'sirida o'zlashtirib olinar ekan. Aniqlangan bu hodisa ommaviy matbuot faoliyatini ancha engillashtirib, bir vaqtning o'zida ular ishi unumdorligini yuksaltirgan.

Shunday qilib, ommaviy kommunikatsiya jarayonlariga izoh berish uchun etarli emas deb topilgan axborot «in'ektsiyasi»ning bir pog'onali modeli o'rniga ikki pog'onali oqim modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelga muvofiq, ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilayotgan axborot maqsadli auditoriyaga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ikki bosqichda etib boradi. Birinchi bosqichda uzatiladigan axborot formal kommunikatsiya kanallari – ommaviy matbuot vositalari orqali mavqeli va faol alohida toifa shaxslari –«fikir etakchilariga» etib boradi. Ikkinchi pog'onada ana shu etakchilar xabarni o'z guruhi a'zolari bilan bevosita aloqa bog'lash, ya'ni shaxslararo muloqot vositasida uzatadilar.

Amaliyot ko'rsatishicha, hatto axborot guruhning bevosita oddiy a'zolariga kelib tushganida ham, ularning izohini, fikrini, bahosini bilish uchun o'z etakchilariga murojaat qiladilar. Shuningdek etakchilarning kommunikatsiya jarayoni davomida o'ziga xos «filtr» vazifasini o'tash vazifasi xususida ham so'z yuritish mumkin.

Bir pog'onali model ommaviy kommunikativ faoliyat aktining bosh daqiqalarini belgilab, aynan shu sababli u hozirga qadar ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi turli nazariy tadqiqotlar, tuzilmalar asosi bo'lib keladi. chunki unda istalgan sotsial harakat asosiy tarkibiy qismlari: sub'ekt, ob'ekt va faoliyati vositasi belgilab berilgan, deb xulosa chiqarish ham mumkin.

---

Ikki pog'onali model qisman bir pog'onali model asosida qurilgan. Biroq e'tibor, kommunikativ aktning asosiy momentlariga emas, balki «fikir etakchilari» orqali auditoriyaga samarali ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Bu model nisbatan murakkab bo'lib, chunki u ikki pog'ona yoki to'liqiniga ega. Unda guruhning nufuzli a'zolarini topish va ajratib olish muhim o'rin tutib, ular, o'z navbatida, axborotni kerakli auditoriya e'tiboriga etkazadi. Bundan tashqari, ushbu modelda odamlarning axborotni psixologik idrok etish xususiyatlari turlicha ekanligi hamda ularning barchasi ana shu idrok etishga ko'maklashadigan, u yoki bu darajada natijaga ta'sir ko'rsatadigan turlicha sharoitlarda ekanliklari hisobga olinadi<sup>25</sup>.

E.Rodjersning diffuz modeliga ko'ra, ommaviy kommunikatsiya tizimida bir yo'la barchaga ta'sir ko'rsatish zarurati yo'q. Birinchi navbatda, besh foiz aholini ishontirish muhim. Tashviq qilayotgan g'oya aholining beshdan bir qismi ongini egallab ulguridan so'ng bu yog'iga u hajmiy sotsialtuzilma darajalari bo'ylab o'z holicha «oqib tarqaladi» va uni to'xtatishning iloji bo'lmay qoladi. Har qanday yangi g'oya olti bosqichdan o'tadi: e'tibor, qiziqish, baholash, qabul qilish, tasdiqlash. E.Rodjers retsipientlarni innovatsiyalarni qabul qilish darajasiga ko'ra besh tipga ajratadi: innovatorlar; erta (dastlabki) qabul qiluvchilar; erta (dastlabki) ko'pchilik; kech ko'pchilik; kech qabul qiluvchilar.

Yangi g'oyalarni zudlik bilan olib olishga qodir bo'lgan «innovatorlar» 2,5 % ni tashkil etadilar. Aksariyat fikr etakchilari aholining 13,5% qismini tashkil etgan erta qabul qiluvchilardan Shakllanadilar. Biron-bir qaror qabul qilishda ko'pincha ana shu toifaga tegishli odamlar bilan maslahatlashadilar. Dastlabki ko'pchilik, aholining 34% ini o'z ichiga olgan bo'lib, yangi g'oyalarni o'rtacha statistik fuqarosiga nisbatan biroz ertaroq qabul qiladi. Faqat o'rtacha statistik fuqaro yangi g'oyani tan olib, qabul qilganidan so'ng, kech qabul qiluvchilarni tashkil etgan 34 % skeptiklar ham uni e'tirof etadilar. Nihoyat, aholining 16% (kech qabul qiluvchilar) yangi g'oyalarga shubha bilan qaraydilar<sup>26</sup>.

Ommaviy kommunikatsiya quyidagilar bilan tavsiflanadi: birinchidan, auditoriyasining tarqoqligi; ikkinchidan, keng ko'lamli, texnik vositalar yordamida amalga oshiriladigan kommunikativ jarayonlari mavjudligi; uchinchidan, axborotning bir vaqtning o'zida turli kanallar bo'ylab uzatilishi; to'rtinchidan, axborotning barcha istaganlar olishi mumkinligi.

Ommaviy kommunikatsiya alohida texnik kanallar vositasida ishlatilib, ular texnologik jihatdan murakkab, xabarlarini «qabul qiluvchilarga» (auditoriyaga) etkazib beradigan tizimlardan iborat bo'ladilar. Bu kanallar quyidagilardan iborat:

- matbuot (noshirlik matnlarini ko'paytirish va tarqatish tizimi);
- kinematograf (tasmaga tu Shirilgan audiovizual asarlar yaratish va ko'paytirish tizimi, proeksion qurilmalar va ommaviy tarqatish va jamoaviy iste'mol uchun mo'ljallangan kinozallar tarmog'i);
- radio va televidenie – audiovizual xabarlarini tarqatish uchun mo'ljallangan tarqatish stantsiyalari va qabul qiluvchi qurilmalar;

---

<sup>25</sup>V.P.Terin. Massovaya kommunikatsiya. – M., 2000. – S.24-25.

<sup>26</sup>SHarkov F.I. Osnovi kommunikatsiy. [www.iub.at.ua](http://www.iub.at.ua). – S. 32.

- Shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovush va videoyozuvlar sanoati (fizik tashuvchilardagi audiokontentni ishlab chiqarish va tarqatish tizimi (gramplastinkalar, magnit tasmalari/kassetalar, CD-disklar, DVD va sh.k.));
- Internet – butunjahon (global) kompyuter tarmog'i (multimedia).

---

### **Tayanch iboralar:**

kommunikant, kommunikatsiya, ommaviy kommunikatsiya, muloqot, ommaviy (oshkora) kommunikatsiyalar, sotsial kommunikatsiya, kommunikatsiya sotsiologiyasi, ommaviy kommunikatsiya vositalari, guruhlararo kommunikatsiya, shaxslararo kommunikatsiya, ko'p pog'onali kommunikatsiya, kommunikatsiya modellari, noverbal va verbal kommunikatsiya.

---

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Kuli Charlz. Obshestvennaya organizatsiya // Teksti po istorii sotsiologii XIX-XX vekov. Xrestomatiya. –M.: Nauka, 1994. – S. 379.
2. Terin V.P. Massovaya kommunikatsiya. – M., 2000. – S. 197.
3. CommunicationTheory.Wikibooks.org. 2013. – P. 5.
4. Sharkov F. I. Osnovi teorii kommunikatsii. – M., 2002. – S. 5.
5. Osnovi teorii kommunikatsii. Uchebno-metodicheskoe posobie. Sost. J.V.Nikolaeva. – Ulan-Ude: VSGTU, 2004.
6. Dridze T.M.Sotsialnaya kommunikatsiya kak tekstovaya deyatelnost v semiosotsiopsixologii / Obshestvennie nauki i sovremennost, 1996, №3, – S. 145.
7. Pocheptsov G.G. Teoriya kommunikatsii. – M., 2001. – S. 14.
8. Entsiklopedicheskiy sotsiologicheskiy slovar Obshaya redaktsiya Osipova G.V. – M.: In-t sotsialno-politicheskix issledovaniy RAN, 1995, –S. 286.
9. Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya: Slovar. – M.: Politizdat, 1990. – S. 131.
10. Sovremenniy slovar inostrannix slov. – M., 1993. – S. 294.
11. Entsiklopedicheskiy sotsiologicheskiy slovar. – M., 1995. – S. 286.
12. Vigotskiy L.S. Razvitie visshey psixicheskoy funktsii. – M., 1960.
13. Konetskaya V.P. Sotsiologiya kommunikatsii: Uchebnik. – M.: Mejdunarodniy universitet biznesa i upravleniya «Bratya Karig», 1997. – S. 6-7.
14. Sharkov F.I. Osnovi kommunikatsiy. [www.iub.at.ua](http://www.iub.at.ua). – S. 24.
15. Zosimenko I.A.Sotsiologiya massovix kommunikatsiy: uchebnik / I.A. Zosimenko. –Ulyanovsk: UIGTU, 2013. – S. 34.
16. Sotsiologiya massovoy kommunikatsii: Uchebnik dlya vuzov/L. N. Fedotova. – SPb.: Piter, 2003. – S.28.
17. Nojin E. A. Masterstvo ustnogo vistupleniya. – M., 1989. – S. 240.
18. Wright Ch. Mass Communication.A Sociological Perspective.N. Y., 1986.

## 28-mavzu. SOTSIAL O'ZGARISHLAR VA TARAQQIYOT

### REJA

1. Sotsial o'zgarish tushunchasi.
2. Fan tarixida sotsial taraqqiyot g'oyalarini ishlab chiqilishi.
3. Jamiyatni evolyutsion tarzidagi rivoji.
4. Sotsial revolyutsiyalar va ularning salbiy oqibatlari.

Kishilik jamiyati hayoti murakkab xususiyatga ega ekan, uning muammolari har doim ijtimoiy-siyosiy fanlar olimlarining diqqat markazida turadi. Ayniqsa, jamiyatning barqaror taraqqiy etish masalalari har zamon va har makonda o'z ahamiyatini saqlab kelgan. Jumladan, zamonaviy jamiyatlar ham bundan mustasno emas. Sotsial taraqqiyot esa o'ta murakkab, keng qamrovli jarayon bo'lib, u bir qator omillarning tizimli va determinatsiyalashtiruvchi (belgilovchi) faoliyati natijasida amalga oshiriladi.

Sotsial taraqqiyot muammolarining zamonaviy tahliliga kirishishdan ilgari sotsial o'zgarishlar masalasiga murojaat qilish lozim. Chunki sotsial o'zgarish tushunchasi ijtimoiy taraqqiyot tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga egadir. Agarda sotsial o'zgarishlar o'zida sotsial taraqqiyotni mujassamlashtirar ekan, sotsial o'zgarishlar aksariyat sotsiologlar tomonidan ijtimoiy tizimlar va ularni tashkil etuvchi moddiy va ma'naviy ob'ektlarni bir holatdan boshqasiga o'tishi, deb ta'riflanadi.

Mazkur ta'rifdan kelib chiqib, sotsial o'zgarishlarning quyidagi asosiy turlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

1. Progressiv
2. Regressiv
3. Evolyutsion
4. Revolyutsion

Sotsial o'zgarish tushunchasining konkret ko'rinishi bo'lib rivojlanish jarayoni namoyon bo'ladi. A.A.Radugin va K.A.Radugin fikricha, rivojlanish bu ijtimoiy tizimlar va jarayonlarning ortga qaytmaydigan harakati bo'lib, bu harakat oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga qarab yo'naltirilgan bo'ladi<sup>1</sup>.

Progressning sotsiologik ta'rifi o'zida shaxs va jamiyatning o'zaro munosabatlarini taqazo etadi. U yoki bu jamiyat progressivlik darajasini aniqlashda odatda ikki mezondan foydalaniladi:

1. Ishlab chiqarish unumdorligining darajasi
2. Jamiyatda shaxs erkinligining saviyasi

Agarda biror-bir jamiyatda bu ikki omil natijalari yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa, demak, bu jamiyat progressiv holatda, degan fikrni ilgari surish mumkin bo'ladi. Lekin hozirgi sharoitlarda bu omillar progressni ta'minlash uchun etarli hisoblanmayapti. Chunki zamonaviy jamiyatning progressiv holati nafaqat ishlab chiqarish sermaxsulligi bilan, balki endi sog'liqni saqlash, fan, ta'lim, madaniyat, san'at, sport kabi sohalardagi ijobiy o'zgarishlar bilan ham o'lchanmoqda. Ammo,

---

<sup>1</sup> Radugin A.A., Radugin K.A. Sotsiologiya.-Moskva.: «TSentr».1999. S.53

bu jarayonda baribir ishlab chiqarish unumdorligini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'lishi davom etmoqda.

Shuningdek, shaxs erkinlik darajasi uzoq vaqt davomida ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning holatini aks ettiradigan omil sifatida ta'riflanib kelinmoqda. Lekin hozirgi kunda inson nafaqat erkinlikka, balki yana boshqalar uchun ma'suliyatga chuqur ehtiyojni sezmoqda. Shuning uchun jamiyat a'zolarining erkinliklari va ma'suliyatlarini o'zaro uyg'unlikda ta'minlanganlik holati ijtimoiy progressning omillaridan bo'lib xizmat qilmoqda.

Biroq, bu omilni to'laqonli ta'sirini ta'minlash uchun yana bir sohaga e'tibor qaratish zaruriyati paydo bo'ladi. Bu erda fikr ma'naviy soha haqida ketayapti. Kishini moddiy jihatdan etarlicha ta'minlanligi, uning erkinliklari to'liq darajadali jamiyatning progressiv holatini to'liq aks ettirmaydi. Endilikda sotsial taraqqiyotni ta'minlashda ma'naviy omilning roli kun sayin oshib borayotgani yaqqol ko'zga chalinmoqda.

Kishilar iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faolligining qadriyatli-axloqiy motivlari tahlili jamiyat taraqqiyoti jarayonining butun bir holatini tasvirlashning ajralmas qismi sifatida yuzaga chiqmoqda. Xalqaro Nobel mukofoti sovrindori, rossiyalik fizik olim A.D.Saxarov «Kishilar ma'naviy ichki hayoti, ayniqsa ular faolligining ichki sabablarini bashorat qilish juda mu Shkul vazifadir, biroq, pirovard natijasida tsivilizatsiyaning halokati ham, uni saqlab qolish ham aynan ularga bog'liqdir, men aminmanki, nafaqat barcha tug'ilgan insonlarni ortiqcha azob-uqubati bevaqt o'limdan, balki odamlarda odamiylikni saqlab qolishda ham progressning ustuvor masalasi namoyon bo'ladi», deb ta'kidlaganida mutlaqo haq edi.

Shunday qilib, sotsiologiyada u yoki bu jamiyatning taraqqiy etish darajasini aniqlovchi uchinchi muhim mezon bo'lib jamiyatda odob-axloqning darajasini belgilash mexanizmi xizmat qiladi. Nazarimizda, aynan progressning Shakllangan va rivojlangan ushbu mezoni taraqqiyot muammosiga oid barcha turli-tuman yondashuvlarni birlashtiradigan integral mezon sifatida faoliyat ko'rsatishi muqarrardir.

«Regress» kategoriyasi yordamida esa jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni progressga qarama-qarshi holatdagi harakati tushuniladi. Uni vujudga kelishi ham ma'lum bir omillarga tayanadi. Avvalambor quyidagilarga asosiy e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlash joiz:

- davlat va jamiyat qurilishida volyuntaristik tamoyilning ta'siri kuchayib borishi tufayli sotsial taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari inkor etila boshlanadi;
- iqtisodda intensiv rivojlanish o'rnini ekstensiv usul egallay boshlashi avj oladi;
- ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda moddiy resurslarga ustuvor e'tibor qaratilib, ma'naviy omillar ahamiyati asta-sekinlik bilan inkor etila boshlanadi;
- jamiyatda mehnatning ijtimoiy taqsimotini ilg'or tizimi shakllanishiga jiddiy g'ovlar paydo bo'la boshlaydi;
- ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan stratifikatsion jarayonlarning xolislik asosida kechishi ta'minlanmaydi;
- ishlab chiqarish sohasida malakali mutaxassislar orasida qo'nimsizlik holati kuchayib boradi;

- militarizatsiya siyosatining kuchayishi sababli harbiy sohaga ehtiyojdan ortiq mablag'larning sarflanishi, yuqori malakali mutaxassislarni ushbu sohaga ko'proq jalb etilishi avj oladi;

- murakkab geosiyosiy vaziyat tufayli konkret davlatlar va harbiy bloklarning a'zo-mamlakatlari tomonidan biror-bir davlatga nisbatan agressiya harakatlar sodir etiladi.

Albatta, regressni keltirib chiqaradigan sabablar ro'yxatini yanada kengaytirish mumkin. Lekin bir holatdan kelib chiqib, regress hodisasining o'ta jiddiyligini e'tiborga oladigan bo'lsak, shunga amin bo'lishimiz mumkinki, hech qaysi jamiyat a'zolari hamisha faqat olg'a ketamiz, deb ortiqcha hotirjamlikka berilishi zinhor mumkin emas. XX asr Sharoitlarida dunyoning ayrim mamlakatlarini achchiq qismati ushbu fikrlarimizga amaliy misol bo'lishi mumkin.

Sotsial o'zgarishlar kontseptsiyasining tahliliga tayanib, cotsiologiyada jamiyat sotsial taraqqiyotini ta'minlovchi omillar haqida turli-tuman nazariyalar ishlab chiqilgan, degan fikrni dadil ilgari surish mumkin bo'ladi. Dastlab bu masalada antik davr mutafakkirlari qarashlariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki sotsial taraqqiyot nazariyasining ildizlari uzoq o'tmishga borib taqalishi tabiiy holdir.

Jumladan, yunon faylasufi Platon o'zining «Davlat» nomli asarida ijtimoiy rivojlanish masalalarini o'rgana ekan, bunda u jamiyat hayotini ikki bir-biriga zid bo'lgan: mukammal – ijobiy va nomukmmal – salbiy Shakllarda ifodalashga jazm etadi. Fikrimizcha, zamonaviy Sharoitlarda bunday yondashuv demokratik va nodemokratik jamiyatlarning mohiyatiga mos keladi. Uning ta'kidlashicha, u yashab turgan davrdagi barcha jamiyatlar aynan salbiy sifatga ega bo'lib, ulardan ilg'or jamiyat qurishga o'tish uchun insoniyat salbiy Shakldagi quyidagi to'rtta turdagi davlat tuzumi: timokratiya, oligarxiya, demokratiya va tiraniyani bosib o'tishi lozimligini alohida ajratib ko'rsatdi.<sup>2</sup>

YUqoridagi xulosalaridan kelib chiqib, Platon ideal jamiyatida jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan turli xil vazifa va funktsiyalar fuqarolar o'rtasida taqsimlanganligini e'tirof etadi. Mehnatning bunday taqsimlanishini Platon o'ziga zamondosh bo'lgan jamiyat va davlat qurilishining fundamenti (asosi), deb hisoblaydi. Platon fikricha, har bir buyumni oson, yaxshi va ko'p miqdorda ishlab chiqarish uchun fuqarolar faqat o'zlarining qobiliyatlariga mos bo'lgan birgina ishni qilishlari va boshqa ishlarga qo'l urmasliklari kerak.

Platonning davlat haqidagi asarining asosiy muammosi – bu jamiyat, uning a'zolarini farovon va to'kin-sochinlik hayoti masalalaridir. Uning fikricha mukammal, to'la-to'kis Shakllangan, taraqqiy etgan davlat quyidagi to'rtta asosiy sifatga ega bo'ladi:

1. Donishmandlik
2. Jasorat
3. Sabr-kanoat
4. Adolat

---

<sup>2</sup> Platon. Sochineniya v chetirex tomax. Tom 3. CHast1. //Gosudarstvo. -Cankt-Peterburg. Izd-vo S.-Peterb. un-ta; Izd-vo Olega Abishko. 2007. –S.387

Donishmandlik bu – jamiyatning ma'lum bir toifasiga xos bo'lgan hislatdir, ya'ni bu hislatga faqat hokimlar sazovordir. Shuning uchun Platon jamiyatni faqat faylasuf-hokimlar boshqarishlari kerak, degan fikrni olg'a suradi, Chunki faqat faylasuf-hokimlar rahbarligi tufayli davlat taraqqiyot va farovonlikka erishadi. Farovonlikka erishish uchun hokimlar sohta emas, balki haqiqiy faylasuflar bo'lmoqlari darkor.

Keyingi zarur bo'lgan hislatlardan biri bu – jasoratdir. U ham jamiyatning hamma a'zolari ega bo'lgan hislat emas, lekin donishmandlikka nisbatan u ko'proq fuqarolarga xosdir. Platonning fikricha, huddi donishmandlik kabi (davlat donishmand bo'lishi uchun jamiyatning hamma a'zolari donishmand bo'lishlari shart emas) jasorat ma'lum bir fuqarolarga xos bo'lib, shuning o'zi jamiyat uchun nima dax Shatli, nima dax Shatli emas ekanligini bilish uchun etarlidir.

«Donishmandlik» va «jasorat»dan farqi o'laroq sabr-qanoat alohida, maxsus sinf, tabaqaning emas, balki jamiyatning barcha a'zolariga xos bo'lgan sifatdir. Bu sifat mavjud bo'lgan Sharoitda jamiyatning hamma a'zolari mukammal davlatda qabul qilingan qonunlar va mavjud hukumatni tan oladilar. Buning natijasida esa aholi axmoqona harakatlardan tiyilib turiladi.

To'rtinchi sifat bu – adolatdir. Davlatda uning mavjudligi «tiyilib turish» vositasi tufayli ta'minlanadi. Adolat orqali jamiyatning har bir a'zosi o'zidagi ma'lum bir qobiliyat sababli o'zining alohida ishini amalga oshira oladi. Platon ushbu mantiqdan kelib chiqib, «Bizningcha, shahardagi har bir fuqaro o'zining tabiiy qobiliyatidan kelib chiqqan holda faqat birgina ish bilan Shug'ullanishi zarur. Bir vaqtning o'zida bir necha mashg'ulotga intilish emas, faqat o'zining ishi bilan mashg'ul bo'lish – bu adolatdir», degan munosabatni bildiradi.

Platonning bu hayotiy xulosalari uning iqtidorli shogirdi – Aristotel tomonidan ham mantiqiy tarzda yanada rivojlantirildi. U jamiyat taraqqiyoti omillari sifatida mulkka egalik qilish holatini Chuqur tahlil qilib bergan. Platondan farqi o'laroq, u xususiy mulkchilikning yorqin himoyasi sifatida gavdalanadi. Uning fikricha, kishining ma'lum bir mulkka egaligi uning ongida tasavvur qilib bo'lmaydigan ko'tarinki kayfiyatni tashkil topishiga turtki beradi. Do'stlar, tanishlarga xizmat va yordam ko'rsatish qanchalik yoqimli bo'lmasin, ularni amalga oshirish faqat xususiy mulkka egalik imkoniyatlari sharoitlarida sodir bo'ladi.<sup>3</sup>

Uning bu fikrlari huddi bizning davrimiz uchun mo'ljallab aytilgandek tuyuladi.

Tabiatdan kishilarda o'zini-o'zi sevish xususiyatlari mavjud ekan, ular o'z tafakkurlarida umumiy va xususiy mulkdan foydalanish hisini uyg'unlashtira olishlari zarur. Uning alohida ta'kidlashicha, umumiy mulk nisbiy, xususiysi esa mutloq darajada bo'lishi lozim.<sup>4</sup>

Fikrimizcha, bu erda so'z mulkchilikning turli shakllari va ularni jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqida ketayapti. Bu g'oyalar ham zamonaviy rivojlangan mamlakatlardagi mulkchilikka bo'lgan mavjud munosabatlar mazmuniga mos keladi, deyish mumkin.

<sup>3</sup> Aristotel. Sochineniya v chetirex tomax. Tom 3. CHast2. //Politika. –Moskva.: «Misl».1983.–S.410.

<sup>4</sup> O'sha erda. –S.410.

YUqoridagi fikrlarining mantiqiy davomi sifatida, u davlat ikki xil shaklda, ya'ni, demokratiya va oligarxiya ko'rinishida boshqarilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Demokratiyada oliy hokimiyat ko'pchilikning qo'lida bo'lsa, oligarxiyada esa hokimiyat kamchilikka tegishlidir.<sup>5</sup>

Aristotelning tushuntirishicha, o'ziga to'q, boy odamlar har erda ham kamchilikni, kambag'allar esa ko'pchilikni tashkil etadilar. Shuning uchun ko'pchilikka yoki kamchilikka munosiblik formal ko'rinishga egadir. Provardida, oligarxiya va demokratiyaga tegishliklikni ajratib beradigan haqiqiy ko'rinish bo'lib boylik va kambag'allik xizmat qiladi. Qaerda hokimiyat boylar qo'lida bo'lsa, o' Sha erda oligarxiya, qaerda kambag'allar hukmronlik qilsalar o' Sha erda demokratiya mavjud bo'ladi. Biroq, eng yaxshi tuzum, deb Aristotel boylarning ko'pligi, kamligi yoki bo'lmasa kambag'allar salmog'ining ko'pligi, kamligiga qarab belgilamaydi.

Uning fikricha, qaysi jamiyatda «o'rta element» salmoqlik bo'lsa. o' Sha davlat eng farovon, yaxshi tuzum hisoblanadi.<sup>6</sup> «O'rta element», deb albatta Aristotel quldorlar va qullar o'rtasidagi sinfni tushungani yo'q. Chunki uningcha jamiyat qullar va erkin fuqarolardan iboratdir, ularning o'rtasida boshqa hech qanday sinflar bo'lishi mumkin emas.

Lekin bu «o'rta element»ni u quldorlarning o'rtasidan qidiradi. «O'rta element»ni Aristotel quldorlar orasidagi mulkka egalik qilish salmog'i bilan, ya'ni bu sinf orasidan o'rta hol fuqarolarni ajratib olish uchun ishlatadi. Faqatgina o'rta hollik davlat maqsadlariga moyil munosabatda bo'lishi mumkin. «O'rta element»ni Aristotel erkin fuqarolar orasidan qidiradi va ular Aristotel izlayotgan farovon va taraqqiy etgan davlatni tashkil etadilar.

«Har bir davlatda biz uch turdagi fuqarolarni: juda ham boy, juda ham kambag'al va bu ikkisini o'rtasida turganlarni uchratamiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'rta hollik hamma farovonliklardan afzaldir».<sup>7</sup>

Aristotel Shunday ajoyib xulosaga keladiki, o'rta hol fuqarolardan tashkil topgan davlat eng yaxshi tuzumdur, uning fuqarolari esa ko'proq behavotirlikda bo'ladilar. Ular kambag'allarga o'xshab boshqalarning mol-mulkiga ko'z olaytirmaydilar, boshqalar esa o'rta holga tegishli bo'lgan mulkka tajovuz qilmaydilar.<sup>8</sup>

Aristotelning ushbu masala bo'yicha bu qimmatli fikrlari hozirgi davr uchun ham juda dolzarb muammodir. Chunki qaysi davlatda o'rta hol fuqarolar jamiyatda aholining asosiy qismini tashkil etsalar, o' Sha davlat farovon davlatdir. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham o'rta hol fuqarolarning sonini keskin tarzda ko'tarish davlat oldida turgan strategik vazifa hisoblanadi.

Sotsial taraqqiyot muammolarini o'rganar ekan, Abu Nasr Forobiy inson faqat sotsial guruhda, boshqa odamlar bilan o'zaro aloqa yordamida mavjud bo'lishi, yashashi va axloqiy kamolatga erishishi mumkinligi e'tirof etadi. Jamiyatni Forobiy buyuk, o'rta va kichik turlarga ajratadi.<sup>9</sup>

<sup>5</sup> O'sha erda. –S.492.

<sup>6</sup> O'sha erda.–S.508.

<sup>7</sup> O'sha erda.–507.

<sup>8</sup> O'sha erda.–508.

<sup>9</sup> Abu Nasr Farabi. Grajdanskaya politika.// Sotsialno-eticheskie traktati. - Alma-Ata.: «Nauka», 1973. –S. 108-109.



Buyuk jamiyat bu – er yuzida istiqomat qilayotgan barcha xalqlar, insonlarning birlashuvi, o’rta jamiyat bu – ma’lum bir alohida xalq yoki millatning uyushmasi, kichik jamiyat esa faqat Shahar ko’rinishida namoyon bo’lishi mumkin. Shahar mukammal jamiyatning ilk bosqichi sifatida mavjud bo’lib, u yoki bu xalq joylashgan makonda paydo bo’ladi.

Forobiyning fikricha, jug’rofiy joylashuv va tabiiy muhit jamiyatning shakllanishi va rivoji uchun muhim bir omil bo’lib xizmat qiladi. Ammo, Forobiy jamiyat qurilishi va taraqqiyotida tabiiy omillarga hal qiluvchi xususiyatini bermaydi. Tabiiy Sharoitni u xalqning psixologiyasini shakllanishiga ta’sir ko’rsatadigan vosita sifatida tan oladi va uni jamiyat rivojining bosh omili, deb hisoblamaydi.

Forobiy ta’limotida mukammal jamiyatning ilk Shakli bo’lib Shahar mavjud bo’ladi. Forobiy yashagan davrda savdo, madaniyat va davlat boshqaruvining markazi sifatida shaharlarning ahamiyati ancha oshdi. Forobiy yaxshi fazilatlarga ega bo’lgan Shahar-davlat, ya’ni ideal Shaharni “al-madina al fozila” va nodon, johil, qoloq, omi, bilimsiz sifatlarga ega bo’lgan Shaharni al-madina al’-djohila, deb nomladi. Qaysi shaharda zulm, zo’ravonlik hukmron bo’lsa, o’ Sha shahar johil (nodon) Shahardir. Bir-birlariga ezgulik va yaxshilik qilish uchun birlashganlikka asoslangan Shahar fozil xisoblanadi, unda hamma insonlar baxtu-saodatga erishadilar.

A’zolari bir-birlariga baxt-iqbolga erishuvi uchun yordam beradigan jamiyat fozil va taraqqiy etgan jamiyat xisoblanadi. Hamma shaharlari baxt-saodatga erishish, bir-birlariga yordam beradigan xalq ham fozil xalq hisoblanadi. Shunday qilib, agarda hamma xalqlar baxt-saodatga erishishlari uchun bir-birlariga yordam bersalargina butun er zamini fozil va rivojlangan bo’ladi. Mazkur tarixiy meros sotsiologiya fanining muhim muammolaridan bo’lgan – ijtimoiy taraqqiyot va uning omillari masalalari tadqiqoti uchun nazariy asos bo’lib xizmat qilmoqda.

YUqoridagi xulosalarga tayanib, shunday fikrga kelish mumkinki, ijtimoiy taraqqiyot masalalari insoniyat tarixining keyingi davrlarida ham o’z dolzarbligini saqlab qoldi.

Sotsial o’zgarishlarning barqaror shakli sifatida evolyutsion o’zgarishlarni e’tirof etish mumkin. Ma’lumki, evolyutsiya ob’ektlarni bosqichma-bosqich, o’z ichki qonuniyatlari asosida harakatlanishini taqazo etadi. Bu xususiyat sotsiologiyaga tabiiy fanlardan o’tdi. Ayniqsa, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridan tabiiy fanlarda sodir bo’lgan olam Shumul o’zgarishlar tabiat Shunoslik taraqqiyotini jamiyatshunoslik xususiyatiga tatbiq etish mumkin, degan fikrlarni yuzaga keltirdi.

Shunday Sharoitlarda zamonaviy sotsiologiyaning asoschilardan hisoblanuvchilar: frantsuz olimi Ogyust Kont, ingliz mutafakkiri Gerbert spenser va boshqalar tomonidan ishlab sotsiologik evolyutsion nazariya ijtimoiy taraqqiyot muammolarini tahlil qilishda ahamiyatli rolni bajardi.

Rossiyalik olimlar: Gromov I.A., Mztskevich A.YU., V. A.Semenovning ta’kidlashlaricha, insoniyat tarixiy taraqqiyotining qonuniyatlari haqidagi o’z tasavvurlarini asoslashda Kont vatandoshlari: Monteske va Kondorse asarlariga tayanadi. Ularning birinchisidan qonuniyatlar, ikkinchisidan esa inson aql-zakovati

taraqqiyoti muqarrarligi haqidagi g'oyalarini olib, ularni sintezlashtiradi. Buning natijasida u ijtimoiy hodisalar, jamiyatdagi o'zgarishlar inson tafakkurining taraqqiyoti faol bosimi ostida sodir bo'lishiga bog'liqdir degan xulosaga keladi.

Asosiy asari bo'lmish «Pozitiv falsafa kursi»da Kont, «g'oyalar olamni boshqaradi va uni butunlay o'zgartirib yuboradi», yoki «ijtimoiy mexanizm to'laligicha fikrlarga tayanadi», deb yozadi.

Demak, u barcha hodisalarni aqlning holatiga bog'laydi. Unda tabiiy savol paydo bo'ladi, agarda insoniyat aqli va tarixi umumiylikka ega bo'lsa, unda xalqlarning tarixiy xilma-xilligi nimalar bilan izohlanadi? Kont bu savolga uchta omilni javob tariqasida ilgari suradi: irq, klimat va siyosiy faoliyat. Irlarni ular ega bo'lgan moyillik bilan izohlaydi. Masalan, qora irq o'ta emotsionallik holati bilan boshqalaridan farq qiladi. Lekin turli halqlar bir xil darajada rivojlangan emaslar. Bu erda klimat katta rol o'ynashi ta'kidlanadi.

Jumladan, u Yevropa mamlakatlari rivojiga O'rta Er dengizining ijobiy ta'sirini alohida ko'rsatib o'tadi. Klimat tushunchasi orqali Kont insonlarni o'rab turgan tabiiy muhitni tushunadi. Uning bu xulosalari keyinchalik sotsiologiyada ijtimoiy taraqqiyot manbaalarini aniqlashga harakat qilgan «Bir omil pozitivistik-naturalistik maktablar»ning Shakllanishiga g'oyaviy asos bo'lib xizmat qildi. Albatta, bu fikrlarni mutloq to'g'ri deyishimiz qiyin, sababi O'rta Er dengizi atrofida joylashgan boshqa mamlakatlar: Misr, Jazoir, Liviya, Tunis kabilar Yevropaliklar erishgan natijalarga hali yaqinlashmadilar. Demak, taraqqiyot omili masalasida Kont yana bir omil – siyosiy faoliyatga bejiz e'tibor qaratmagan hisoblanadi.

Siyosiy faoliyat rolini muhokama qilishda Kont avvlambor siyosatdonlar va ijtimoiy islohotchilarni tarixning ortga qaytmadigan harakatlarini o'zgartirishga qodir ekanliklari haqidagi xato tasavvurlaridan holi qilishga intildi. Ushbu fikrlarining dalili sifatida u Napoleonning siyosiy faoliyatini tanqid qiladi. Uning fikricha, Napoleon imperator Yulian yoki Ispaniya qiroli Filipp II kabi o'z davrining ruhini his qila olmadi, ya'ni tarixiy qonuniyatlar mazmunini tushunmadi. U dunyoni o'zi hohlagan Shaklda qayta qurmoqchi bo'ldi-yu, lekin tarixiy jarayonlar unga bunday imkoniyatni bermadi.<sup>10</sup> Chunki tarixiy jarayonlarning qayta o'zgarishi siyosiy arboblarning hoxish-irodasi va faoliyatiga bog'liq emasdir. Shuning uchun Kont Napoleonga nisbatan juda tanqidiy munosabatda bo'lib, va xatto uni qoloq tsivilizatsiyaning vakili sifatida Frantsiya uchun begona, deb hisoblagan.

Kontning kishilarni tarixiy voqealar harakatini ortga qaytarishga qodir emasligi haqidagi nazariyasi ijtimoiy islohotchilar, utopistlar va turli turdagi inqilobchilarga, ya'ni tarixiy jarayonlarni yangi jamiyat qurishni rejalashtirish orqali, yoki zo'ravonlik va zulm yordamida amalga oshirishni maqsad qilganlarga qarshi qaratilgan edi.

Insoniyatning ijtimoiy taraqqiyot holatini almashish qonuniga rioya qilib, Kontning fikricha, teologik tafakkur bilan birgalikda feodal struktura va monariya instituti ham barham topadi. Ularning o'rnini olimlar va sanoatchilardan tashkil topgan yangi zamonaviy jamiyat egallaydi. Bunday turdagi jamiyatni u sen-

---

<sup>10</sup> Raymon Aron. Etapi razvitiya sotsiologicheskoy misli. Perevod s frants. Pod red.P.S.Gurevicha. –Moskva.: «Progress» 1993. -S.109

Simondan keyin «sanoatlashgan», deb nomlaydi. Aslini olganda, XVIII asr oxiri va XIX asr boshi ishlab chiqarishning rivojlanishi va sanoatlashgan kapitalistik jamiyatning Shakllanish davridir. Bu davr ilgarilaridan bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlarni bilmasdan, o' Sha davr tarixi, shuningdek, Kontning industrial jamiyat kontseptsiyasini tushunish mumkin emas. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Sanoat mehnatni ilmiy tashkil qilishga asoslanib, an'anaviy ishlab chiqarishdan farqli o'laroq maksimal natijaga erishish uchun yo'naltiriladi;

2. Mehnatni tashkil etishga fanning tadbqiq etilishi sharofati bilan insoniyat o'zining juda katta imkoniyatlariga ega bo'ladi;

3. Sanoat ishlab chiqarish ishchilarni bir joyga to'playdi va buning natijasida yangi ijtimoiy fenomen – ishchilar sinfi yuzaga keladi;

4. Ishchilarning bir joyga to'planishi, sonini oshishi, ularni tadbirkorlar bilan ziddiyatlarini kuchaytiradi;

5. Mehnatning ilmiy xususiyati tufayli nafaqat boylik oshib boradi, balki ortiqcha tovarlarning ishlab chiqarishi sababli ijtimoiy-iqtisodiy krizislar ham ko'payadi;

6. Sanoatlashish va mehnatni ilmiy asosda tashkil etilishiga asoslangan iqtisodiy tizim erkin tovar almashishi va tadbirkorlarni foydaning ketidan quvishi bilan sifatlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan dastlabki uch bandga: mehnatni ilmiy tashkil qilish, boyliklarni to'xtovsiz o'sishi va ishchilarni fabrikalarda to'planishiga Kont hal qiluvchi ahamiyatni beradi. To'rtinchi xususiyat, ya'ni ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ziddiyatlarni u industrial jamiyat hayotini yaxshi tashkillashtirilmaganlik oqibati, deb hisoblaydi va bu muammoni islohotlar yordamida bartaraf qilish mumkin, degan xulosasini beradi. Krizislar, uning fikricha, vaqtinchalik va yuzaki ko'rinishga ega bo'lgan ijtimoiy hodisalardir.

O'zining islohotlar dasturida Kont xususiy mulkchilikni saqlab qolishni himoya qilib chiqdi. Uning fikricha, xalq uchun sarmoyalar kimning qo'lida bo'lishi muhim emas, faqat sarmoyalar tasarruf etilishi unga manfaat keltirsa etarlidir. Uning ijtimoiy tuzumi tamoyili qisqa va lo'nda shaklda bayon etilgan: «muhabbat tamoyil, tartib asos, taraqqiyot esa maqsaddir». Kont uchun namunaviy ijtimoiy tuzum bu – jamiyatda barcha sinf va qatlamlarining o'zaro uyg'unligi va birdamligini o'rnatilganidir.

Kont ta'limotida sotsial statika va sotsial dinamika asosiy tushunchalar hisoblanadi. Ular sotsiologiyaga biologiya fanidan kirib keldi. Uning fikricha, biologiyada anotomik va fiziologik xususiyat mavjud. Sotsiologiyada ham shunday o'xshashlik asosida bo'linish zarur, ya'ni sotsial statika va dinamika bu – ijtimoiy organizmning anatomiyasi va fiziologiyasidir.<sup>11</sup> Zero, ulardan birinchisi ijtimoiy tuzilish hodisalarini, ikkinchisi esa ijtimoiy hayot jarayonlari va ularning rivojini o'rganadi. Jamiyatning statik va dinamik holatiga Kont ta'biricha, «tartib» va «taraqqiyot» tushunchalari muvofiq keladi.

Kont statik sotsiologiyaning vazifasi sifatida ijtimoiy tizimning turli qismlari o'rtasida kechadigan o'zaro harakatlarini o'rganishni e'tirof etadi. Uningcha, ayrim

---

<sup>11</sup> O'sha erda.-S.111.

sotsial elementlar mutloq va mustaqil tarzda mavjud bo'lishmaydi, shuning uchun ular bir-birlariga bog'liqdirlar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy hodisalarning birdamligi va muvofiqligi tamoyili sotsial statikaning asosiy qonunini tashkil qiladi.

Sotsial dinamika ustida Kont ancha vaqt ishladi va uning asosiy mazmuni, deb insoniyatning asta-sekin rivojlanish evolyutsiyasini tasavvur qildi. Uning sotsial dinamikasidan ma'lum bo'layaptiki, «aqliy rivojlanish insoniyat taraqqiyotining belgilovchi tamoyili bo'lib xizmat qiladi».

Ingliz mutafakkiri Gerbert spenser ham o'z sotsiologik ta'limotida ijtimoiy taraqqiyot masalalariga katta e'tibor qaratgan. G.Spenser Kontning sotsiologiya biologiyaga tutashib, jamiyatni organizm tarzida o'rganadi, degan fikrlarini ma'qullaydi. Jamiyatni o'rganishda, ko'pgina sotsial institutlarni kelib chiqish sabablarini tushunishda evolyutsiya nazariyasini ijtimoiy hayot Sharoitlariga tatbiq etilishi katta sermaxsullik keltirdi. Evolyutsion yondashuv yana shunisi bilan muhimki, uning yordamida har bir hodisa o'zining taraqqiy etishi jarayonida o'rganiladi. Ch.Darvinning evolyutsiya nazariyasi tufayli biologiyada sodir etilgan keskin burilish ko'pgina sotsiologlar tomonidan ijtimoiy soha tahlili uchun namuna sifatida qabul qilindi va bu hodisa jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayoti shakllarini tahlil qilishda tarixiy-qiyosiy metodning rolini keskin ravishda oshirdi.

Spenser dunyoqarashi kontseptsiyasining markaziy tushunchasi bu – evolyutsionizmdir. Uning ta'biricha, evolyutsiya materiyaning integratsiyasi bo'lib, aynan evolyutsiya materiyaning noaniq, aloqasiz bir xillikdan aniq aloqalarga ega bo'lgan bir xillikka o'tkazadi, ya'ni sotsial yaxlitlik: aniqrog'i jamiyatga. Bu yaxlit jamiyat alohida shaxsni o'z domiga tortib ketishi mumkin emas.

Bundan kelib chiqib, spenser sotsial taraqqiyot hodisasini jiddiy o'lchashda shaxsni sotsial yaxlitlikka to'liq bo'ysingan jamiyatdan Shunday holatga o'tishi kerakki, unda sotsial organizm, ya'ni jamiyat uni tashkil etadigan kishilarga xizmat qilishi darkor, deb hisoblaydi. U Shunday deb yozadi: «...Biz namuna sifatida intilayotgan jamiyatda: boshqaruv minimal Chegaralarda amalga oshiriladi, erkinlikka esa imkoniyatga qarab eng yuqori darajada erishadi».

Albatta, u biologik organizm va ijtimoiy hayot jarayonlari o'rtasidagi farqlarni ham ko'rsatib o'tishga harakat qilgan. Bunday farqning asosiy ma'nosini u tirik organizm elementlari yaxlitlik uchun mavjud bo'lsa, jamiyatda esa uning aksidir, deb tushunadi. Uning ta'kidlashicha, a'zolar jamiyat farovonligi uchun emas, balki jamiyat o'zining a'zolari farovonligi uchun mavjud bo'lishi kerak.

G.Spenser sotsiologik kontseptsiyasini ijtimoiy hayot evolyutsiyasining qonuniyatlari g'oyasini tasavvur qilmasdan tushunishning sira iloji yo'q. Mazkur g'oyaga muvofiq, sotsial o'zgarishlar jarayonlari insonlar hohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshadi. Shunga muvofiq uning fikricha, evolyutsiya o'z-o'zidan amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zining tabiiy natijalariga erishishi uchun inson tomonidan hech qanday aralashish talab qilinmaydi.

Evolutsiyaning tabiiy, ohista xususiyatini ta'kidlab, spenser ijtimoiy hayot barqaror muvozanatga intiladi, deb hisoblaydi. O'zining ijtimoiy hayot va uning xususiyatlari haqidagi ta'limotiga muvofiq u avvalambor individualistdir. Agarda Kont sotsial yaxlitlik individdan oldin va individ xatto jamiyatdan mustaqil

bo'lmashligini asoslashga harakat qilsa, spenserda esa buning batamom aksidir, ya'ni jamiyat bu individlar agregatidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, spenser individni sotsial organizmga qorishib ketishini tasavvur qila olmagan.<sup>12</sup>

Spenser evolyutsiya jarayoning realligiga sira shubha qilmagan. Mazkur jarayonning ob'ektiv mezonni sifatida u yoki bu hodisaning differentsiyalashgan va integratsiyalashgan holatini e'tirof etadi. Uning ta'limotida quyidan yuqoriga o'tishning ob'ektiv mezonini ajratib olish g'oyasi haqiqatan ijobiy ma'noga egadir. Chunki har qanday tizim taraqqiyoti uning elementlarini differentsiyalashuvi va o'z navbatida ularni ma'lum bir strukturaga integratsiyalashishini taqazo etadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning bosh omili bo'lib, uning fikricha mehnat taqsimoti namoyon bo'ladi. Bu holat esa ijtimoiy tuzumning yuqori turiga – «industrial jamiyat»ga olib keladi. Bu erda biz uni sen-Simon va O.Kont tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy rivojlanish sxemasini takrorlashiga duch kelmoqdamiz. Biroq, spenserning jamiyat taraqqiyoti yo'nalishlari va davrlari haqidagi tasavvurlari Kontning «sotsial dinamik»ida bayon etilgan xulosalaridan ancha boy holatdadir.

Chunki spenserning mulohazalari katta hajmdagi sotsioetnografik materiallarni tahlil qilish natijasida shakllangan. U konkret ijtimoiy-tabiiy Sharoitlar: aynan, irqiy xususiyat, tarixiy Shart-sharoitlar, o'ziga xos urf-odatlar va hokazolar ta'sirida alohida jamiyatlar va ularning sotsial strukturasi shakllari turli-tumanlik kasb etadi, deb ta'kidlaydi.

Spenser oddiy jamiyatlarni murakkab Shakllariga o'tish evolyutsiyasini o'ta sinchkovlik bilan kuzata boradi. Har qanday rivojlangan jamiyat uning fikricha, organlarning uchta tizimiga ega bo'ladi: ishlab chiqaruvchi, taqsimlovchi va tartiblovchi. Tartiblovchi tizim davlat timsolida tarkibiy qismlarni yaxlitlikka bo'ysinishini ta'minlaydi. Jamiyatning maxsus qismlari sifatida spenser sotsial institutlar: oila, urf-odat, siyosiy, diniy, kasbiy, sanoat va hokazolarni ajratib ko'rsatadi. Ularning barchasi asta-sekinlik bilan kechadigan evolyutsiyaning hosilidir.

U jamiyatni ikkita asosiy Shaklga ajratadi: harbiy va sanoatlashgan (industrial).<sup>13</sup> «Harbiy» turdagi jamiyat markazlashgan kuchli nazorati va hokimiyatining ierarxik tartibi bilan izohlanadi. Bu erda hayot to'laligicha qat'iy tartibga bo'ysindirilgan bo'ladi, bunda cherkov harbiy tashkilotga o'xshab ketadi. Individ bunday jamiyatda sotsial yaxlitlikka majburan bo'ysindiriladi.

Industrial jamiyatda sanoat va savdo ustunlik qiladi. Bunday jamiyatda siyosiy erkinlik paydo bo'lib, ijtimoiy tashkilotlar o'zgaruvchan xususiyat kasb etadi. Eng muhimi – hokimiyat individlarning hohish-irodasini namoyon etadigan institut sifatida gavdalanadi. Ularning birlashmasi esa ko'nglilik asosida kechadi. Spenser Shu bilan birgalikda bu jamiyatda harbiy jamiyatga xos sifatlar, masalan, o'ziga zamondosh Frantsiyada matbuot ustidan qat'iy nazorat, yig'inlarni ta'qiqlanishi, tarbiyaning yagonaligi va hokazolar ham uchrashini misol sifatida keltiradi. Spenserning muammoga bunday yondoshuvi ijtimoiy taraqqiyot masalasi

<sup>12</sup> Farfiyev B.A., Nurullaeva U.N. Sotsiologiya tarixi. –Toshkent.: «Universitet».2009.-B.30

<sup>13</sup> Sotsiologiya (O'quv qo'llanma). Ubaydullaeva R.A., V.M.Karimova taxriri ostida. –Toshkent.: «O'AJBNT».2002, B.61

tahlilining keyingi holatiga, masalan, E.Dyurkgeymning mexanik va organik birdamlik nazariyasiga o'z ta'sirini o'tkazishga muvaffaq bo'ldi.

Spenserni liberalizmning etakchi mafkurachisi sifatida e'tirof etish mumkin. Ma'lumki, sotsiologik adabiyotlarda liberalizm lotincha (liberalis) so'zidan olingan bo'lib, erkin fikrlovchi kishiga xos ijtimoiy xususiyatni aks ettiradi<sup>14</sup>. Liberalizm inson huquqlarining ustivorligi, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud Shakllariga bo'linishi, kasb tanlovi va raqobatchilikning erkinligiga asoslangan ijtimoiy tuzumning mafkurasi hisoblanadi.

Sotsial taraqqiyot omillarini aks ettiruvchi nazariyasida spenser davlat haqidagi fikrlarga asosiy e'tiborini qaratadi. Masalan, davlat va shaxs munosabatlari uchun eng muhim tamoyil bu – adolat g'oyasidir va bunda ikkita element asosiy rolni o'ynaydi:

1. Har qanday kishining erkin faoliyat olib borishi va bu faoliyat natijalaridan foydalanish huquqini tan olinishi.

2. Shunday huquqlarga ega bo'lgan boshqa kishilarning bunday faoliyatlari uchun zarur bo'ladigan erkinliklarni ma'lum bir darajada cheklanishini e'tirof etilishi.

Kelib chiqishi rus, amerikalik taniqli sotsiolog P.A.Sorokin o'zining «Tsiklik nazariya» asarida jamiyat ijtimoiy tarqqiyotini tahlil qilishda, asosiy e'tiborni ma'naviy hayot evolyutsiyasiga qaratib, moddiy ishlab chiqarish jarayonini sezilarli darajada keyingi pozitsiyaga qo'yadi. U amerikalik sotsiologlar orasida birinchilardan bo'lib qadriyatlar muammolariga jiddiy e'tibor qaratdi. Bunda qadriyat tushunchasi uning ta'limotida tsivilizatsiyaning uchta oliy turi: ideatsional, sensitiv va idealistik tasavvurlar bilan bevosita bog'liqdir. Bu erda fikr aynan shu vaqt ichida jamiyat a'zolarining ongida etakchilik qilayotgan dunyoqarash turi haqida ketayapti. Dunyoqarash esa qadriyatlarning muayyan tizimini ifodalaydi. Sorokin ular quyidagi supertizimlarga mos kelishiga asosiy e'tiborni qaratadi:

- Ideatsional supertizim. Diniy dunyoqarash unga xosdir. Sorokin ta'biricha, bu Shunday dunyoqarash turiki, u mafkuraning boshqa shakllari orasida etakchilik qilayotib, insoniyat tarixi rivojini aks ettiradigan o'ziga xos davrni ifodalaydi. Diqqatga sazovor bo'lgan empirik materiallarga tayanib, sorokin bu supertizimni avvalambor, o'rta asrlar sharoitlarida tahlil qiladi. Bu davrda katolik cherkovi haqiqatan ham jamiyat mafkurasi ustidan yakkahokimlik qilar edi. Uning jamiyat ma'naviy va moddiy hayotiga ta'siri fan, falsafa, san'at, axloq kabi sotsial institutlar ta'siridan ancha yuqori bo'lgan. Sorokin bu holatning sabablarini izlashga harakat qilmadi, u faqat o'rta asrlarda cherkovning qudrati diniy ongning hukmronligi bilan bog'liqligi faktlarini qayd qiladi holos;

- sensitiv supertizim, aksincha, materialistik dunyoqarash ustunligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun u ideatsional supertizimga zid sifatida namoyon bo'ladi. Bu davr diniy dunyoqarash o'zining hukmron pozitsiyasini materialistik dunyoqarashga bo' shatib berishi natijasida vujudga keladi. Bunday holat sorokin fikricha, ijtimoiy hayot barcha tartiblarini muqarrar ravishda o'zgarishiga olib keladi. Ideatsional va sensitiv supertizimlar o'rtasidagi asosiy farq bu –

<sup>14</sup> Karl-Heinz Hillman. Wörterbuch der Soziologie. – Stuttgart.: «Kröner», 1994. S.490

g'oyalarning xilma-xilligidadir. Ideatsional supertizim kishilari o'zlarining barcha manfaatlarini abadiy, o'tkinchi bo'lmagan qadriyatlar, avvalambor din asosiga quradilar.

Sensitiv supertizim vakillari esa o'zlarining butun e'tiborlarini vaqtinchalik, o'tkinchi qadriyatlarga yo'naltiradilar, moddiy manfaatlar ularda g'oyaviy, diniy manfaatlardan ustunlik qiladi. Sorokinning ta'kidlashicha, sensitiv supertizim antik tsivilizatsiyada eramizdan ilgari III dan I asrlargacha etakchilik qildi. Zamonaviy G'arb jamiyatida esa u XVI asrdagina boshlandi va hozirda umrining oxirigi damlarini boshidan kechirmoqda;

- idealistik ijtimoiy taraqqiyotning navbatdagi bosqichi bo'lib, uning hukmronligi biror-bir dunyoqarash turi ( diniy yoki materialistik) bilan bog'liq emas. U birini ikkinchisiga o'tishini aks ettiradi. Bu omuxta madaniyat sifatida namoyon bo'ladi va uning rivojlanish yo'nalishi sensitiv supertizimdan ideatsional supertizimga o'tish yo'nalishiga bog'liq holda yoki aksi ko'rinishida yuzaga chiqadi. Hozirda, deb hisoblaydi sorokin, insoniyat yana yangi ideatsional supertizimning vujudga kelishi arfasida turibdi, zero sensitiv supertizimning hukmronligi o'z nihoyasiga etmoqda.

Taniqli frantsuz sotsiologi Emil Dyurkgeym o'zining asarlarida ijtimoiy taraqqiyot masalalariga bag'ishlangan qarashlarini mehnatning ijtimoiy taqsimotiga bog'lab, asoslashga intiladi. Shu masalaga bag'ishlab, u 1893 yilda «Mehnatning ijtimoiy taqsimoti haqida» maxsus asarini nashr etiradi. Dyurkgeym faoliyatining barcha qirralari uning ijtimoiy birdamlik g'oyasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki odamlarni bir-birlari bog'lab turgan aloqalar qanday xususiyatga ega, degan savol uning sotsiologik nazariyasini yadrosini tashkil etadi. Bu mavzuni tahlil qilishda Dyurkgeym jamiyatni tirik organizmga taqqoslagan sotsiologlar an'anasiga tayanadi va ular kabi mehnat taqsimotini umumbiologik xususiyatga bog'laydi.

U mehnat taqsimotini tabiat qonuni sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birgalikda bu ijtimoiy jarayon kishilar manfaatiga mos kelarmikin? degan savolga javob izlashga intiladi. Eng muhimi, kishilar orasidagi birdamlikka uning ta'siri qay darajada degan savol uni diqqat markazida turadi.

Dyurkgeym birdamlik kategoriyasining ikki turini alohida ajratib ko'rsatadi: mexanik va organik birdamliklar. Mexanik birdamlik an'anaviy, eskirgan jamiyatlarga xos bo'lib, u yaxshi rivojlanmagan va jamiyatdagi o'xshash kishilarga taalluqlidir. Bunday jamiyatda individ o'ziga o'zi mansub bo'lmasdan, jamoa ongi individuallikni to'liq qamrab olgan edi. Bu erda ijtimoiy majburiyatlar qat'iy repressiv qonunlarda namoyon bo'ldi va kishilarni jamoaviy hulq-atvorni me'yorlaridan sezilmas darajada chetga chiqishi ham ayovsiz jazolanar edi.

Organik birdamlik mehnatning ijtimoiy taqsimoti tufayli vujudga keladi va individlar o'xshashligiga emas, balki ular o'rtasidagi farqga tayanadi. Agarda mexanik birdamlik individni jamoa tomonidan singdirilib yuborilishini nazarda tutsa, organik birdamlik esa aksincha, shaxs rivojini e'tiborda tutadi. Aynan mehnat taqsimoti sababli kishi o'zining jamiyatga bog'liqligini his qiladi, ilgari bu bog'liqlik repressiv amallar bilan ta'minlanardi.

E.Dyurkgeymning ta'kidlashicha, «agarda mehnat taqsimoti ijtimoiy birdamlikning muhim manbaasi ekan, demak, mehnat taqsimoti axloqiy tartibning

asosi bo'lib ham xizmat qiladi». Shu nuqtai nazardan qaraganda, u mexanik birdamlikdan organik birdamlikka o'tishni faqat tarixiy qonuniyat emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lishi, deb hisoblaydi.

Sotsial o'zgarishlarning radikal, ya'ni murosasiz ko'rinishi bo'lib sotsial revolyutsiyalar namoyon bo'lishadi. Bu o'zgarish turi ob'ektlarni keskin va tubdan o'zgarishini ifodalaydi. Aksariyat hollarda u jamiyatdagi turli sotsial guruhlar, jamoalar va qatlamlar o'rtasidagi ziddiyatlardan foydalanib, behuda qon to'kilishi va zo'ravonlik siyosatini amalga oshirish evaziga siyosiy hokimiyatga erishish yo'lida harakatlanadi.<sup>15</sup>

Aynan shunday xususiyati tufayli ko'pgina sotsiologlar sotsial o'zgarishlarning bunday turini yoqlamaydilar. Jumladan, Gerbert spenser sotsial revolyutsiyalarni «jamiyat xastaligi», deb e'tirof etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, spenser revolyutsiyalar orqali vujudga keladigan sotsializm tuzumiga murosasiz, qarshi faoliyat olib borgan kishi bo'lib namoyon bo'ldi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, u sotsialistik tuzumni ham adolat, ham foydalilik sifatlaridan uzoqligi nuqtai nazaridan inkor etib keldi. Spenser 1891 yilda nashr etilgan «Erkinlikdan qullik sari» nomli asarida: «meni sotsializmni inkor etishim sababi uni yuqori saviyada rivojlangan davlatning rivojini to'xtatishi va o'rta rivojlanganlarni esa ortga qarab ketishiga asos bo'lishi bilan bog'liq ishonchga asoslanadi», deb yozadi.

Spenser yana bir muhim xulosani ilgari suradi: sotsializm har qanday shaklda qullikni nazarda tutadi. Buning yaqqol dalili bo'lib majburiy xizmatning mavjudligi namoyon bo'ladi. Spenser XIX asr oxiridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahlil qila turib, sotsializmning amalga oshishi dunyoning shu kungacha kechirgan eng ayanchli baxtsizlik kunlaridan hisoblanishi, bu esa o'ta shavqatsiz ijtimoiy tuzumni vujudga kelishiga sabab bo'lishini bashorat qila olishi tufayli XX asr Sharoitlarida uning sotsiologiyasiga jamiyatshunoslar qiziqishni yanada kuchaytirib yubordi.

Rossiya imperiyasida 1917 yilda sodir etilgan revolyutsiya umumjahon miqyosida geosiyosiy vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi. Ushbu sotsial o'zgarish Spenserning yuqorida ilgari surgan ilmiy bashoratlarini asosli ekanligini to'liq holda isbotladi. Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan Turkiston o'lkasi xalqlari ham bu jarayonlarning salbiy oqibatlarini o'z boshlaridan kechirdilar. Jumladan, zamonaviy O'zbekiston tarixidagi ko'pgina «qora dog'lar» aynan ushbu revolyutsiya ta'siri bilan bevosita bog'liqdir.

Uzoq yillar davomida sobiq Ittifoqning boshqa respublikalariga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lib kelishimiz, iqtisodimiz deyarli to'liq holda arozon hom-ashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilgani, bugungi kunda yuzaga kelgan jiddiy ekologik muammolarining yuzaga kelishini o' Sha davrning salbiy hodisalari bilan chambarchas bog'liqlikda, deb izohlashimiz mantiqan to'g'ridir. Buning asosiy sabablaridan biri, mamlakatimiz o'z taraqqiyot yo'lida kapitalistik davrni bosib o'tishga ulgurmadi.

---

<sup>15</sup> Frolov S.S. Obshaya sotsiologiya:uchebnik. -Moskva.: «Prospekt». 2011.-S.317.



Kapitalizm bu sanoatlashish, ilm-fan taraqqiyoti, urbanizatsiya kabi muhim jarayonlar shiddat bilan kechayotgan jamiyat turi hisoblanar ekan, bizning jamiyat hayoti rus imperiyasining bir qoloq o'lkasi sifatida revolyutsion o'zgarishlar tomon, xalqimizning hohish-irodasiga zid tarzda, majburan burib yuborildi.

Demak, biz o'z tarixiy rivojlanishimiz davrida evolyutsion yo'ldan chetga surib chiqarildik. Bu holat esa xalqimiz taqdiriga jiddiy, ayanchli ta'sirlarini ko'rsatdi.

1991 yilning 31 avgustida butun dunyoga o'z mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston davlati, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini belgilab, erkin, obod va farovon jamiyat qurish maqsadida mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida evolyutsion o'zgarishlar asosidagi «o'zbek milliy rivojlanish modeli»ning strategiyasini ishlab chiqildi:

«O'zbekistonning Chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi. Avvalo u aholining milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi».<sup>16</sup>

Ushbu rivojlanish modeli xalqimizning ko'p asrlik tarixiy xususiyatlarini to'liq ifodalay olgani tufayli bugun O'zbekiston Respublikasi rivojlanayotgan mamlakatlar safidan o'zining munosib o'rnini egalayotganiga barqaror asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ajdodlarimiz asrlar davomida orzu qilgan ezgu-niyatlari bugungi kunda amalga oshayotganiga ijtimoiy hayotning turli sohalarida erishayotgan yutuqlarimiz amaliy misol bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Tayanch atamalar**

Sotsial o'zgarishlar, sotsial dinamika, ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy o'sish, progress, regress, sotsial evolyutsiya, sotsial revolyutsiya, islohot.

### **ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li //O'zbekiston: Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. -Toshkent.: «O'zbekiston».1996
2. Abu Nasr Farabi. Grajdanskaya politika.// Sotsialno-eticheskie traktati. - Alma-Ata.: «Nauka», 1973
3. Aristotel. Sochineniya v Chetirex tomax. Tom 3. Chast2. //Politika. – Moskva.: «Misl».1983
4. Platon. Sochineniya v Chetirex tomax. Tom 3. Chast1. //Gosudarstvo. - Cankt-Peterburg. Izd-vo s.-Peterb. un-ta; Izd-vo Olega Abi Shko. 2007
5. Sotsiologiya (O'quv qo'llanma). Ubaydullaeva R.A.,V.M.Karimova taxriri ostida. –Toshkent.: «O'AJBNT».2002
6. Radugin A.A., Radugin K.A. Sotsiologiya.-Moskva.: «TSentr».1999
7. Farfiev B.A., Nurullaeva U.N. Sotsiologiya tarixi. –Toshkent.: «Universitet». 2009
8. Frolov S.S. Obshaya sotsiologiya: uchebnik. -Moskva.: «Prospekt». 2011

---

<sup>16</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li //O'zbekiston: Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. -Toshkent.: «O'zbekiston», 1996. B.41

9. Raymon Aron. Etapi razvitiya sotsiologicheskoy misli. Perevod s frants. Pod red.P.S.Gurevicha. –Moskva.: «Progress» 1993
- 10.Karl-Heinz Hillman. Wörterbuch der soziologie.–Stuttgart.: «Kröner».1994

## 29-mavzu. SOTSIAL TARAQQIYOT VA SOTSIAL DINAMIKA

**Amaliyot** - (kundalik tajriba, praktika) - insonlarining o'ziga xos amaliy faoliyati bo'lib, faqat unga tegishlidir. Falsafa tarixida amaliyot bilan nazariy faoliyat nisbati masalasida turlicha. karashlar mavjud.

Antik va o'rta asrlar davrida amaliyot deyilganda inson faoliyatining biror bir aniq Shaklini tasavvur qilganlar. (Dehqonchilik, hunarmandchilik, axloqiy-siyosiy faoliyot va bosh.)

Amaliyot - bu aniq Shaxs, jamoa yoki butun jamiyatning muayyan ehtiyojidan kelib chiqib, tabiiy unsur yoki hodisalarning hammaga ma'lum qonuniyatlaridan foydalanib, ularni maqsadga bo'ysundirish, ya'ni hayotga tadbiiq qilish yo'lida qilinadigan tartibli xarakatdir.

Amaliyot bilan nazariya; so'z bilan ish birligi buyuk bobokolonlarimiz (al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn sino va boshqa) asarlari amaliy ishlar bilin bog'langan. Bu g'oya tasavuf ta'limotida ham asosiy o'rinda turadi.

**XVII – XVIII asrlarga** - kelib amaliyot masalasi bilgan Shug'ullanish kuchaydi, Inson tabiyatni o'rgana boshladi. Natijada insonning tabiatni o'rganish, o'zgaritishga qaratilgan faoliyati kuchaygan bir davrda amaliyot mohiyatini tushunish, amaliyot bilan nazariya nisbatini aniqlash alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Frantsuz mutafakkirlari ilmiy bilishning amaliy ehtiyojlariga xizmat qilishini ta'kidlaganlar. Gegelda amaliyot nazariyadan ustun turgan. Marksizm-lenenizm ta'limotida esa amaliyot sub'ektiv tarzda talqin qilinadi. Kundalik - turmushdan cheklandi. Amaliyot kishilar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Demak:

**Amaliyot** - tashqi olamdagi ob'yektiv mavjud bo'lgan narsa o'zgarish bo'lib, bu o'zgarish umri tugagan eski ijtimoiy tuzumning hodisalarga faol ta'sir etish, ularni o'zlashtirish va qayta kurish yo'li bilan insonning uni o'rab turgan tabiiy ijtimoiy muhitga kirib borish jarayonidir. Amaliyotda 2 ta tizim. Sotsial revolyutsiyaning asosiy masalasi - siyosiy hokimiyat ob'yekt va sub'yekt bir-biri bilan dialektik bog'liqda bo'ladi.

Amaliyot ob'yekti – ob'yektiv reallikning sub'ekt tomondan qayta qurilayotgan jamiyatdir. Unga kishilardan tashqari, mehnat qurollari, vositalari, texnika ham kiradi. Demak, amaliyot ham ob'ekt-sub'ekt", ham "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

### **Amaliyotning asosiy Shakllari quydagilardan iborat:**

- 1) Ishlab chiqarish faoliyati shakli (tabiyatni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat - bu eng muhim Shakli)
- 2) Ijtimoiy munosabatlar Shakli (jamiyatni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat ham deyiladi)
- 3) Ijtimoiy mexanizmni boshqarish faoliyati.
- 4) O'zbekiston Respublikasida mustaqillikni ta'minlash va mustahkamlash uchun olib borilayotgan faoliyat Shakli (Hozirgi davrdagi shakli).
- 5) Ilmiy ekperiment (tajriba) Shakli.

6) Insonning texnik faoliyat Shakli. Texnika so'zi lug'aviy ma'nosi "malaka", "uddalay olish" degan so'zlarga to'g'ri keladi. (texnika va texnologiyadan amaliyotda foydalanish masalasi asosiy evalyutsion ta'limotga ko'ra (biologiyada) organik dunyo tarixiy masalalardan)

**Amaliyotning roli:**

- a) inson faoliyatida amaliyot integrativ (birlashtiruvchi) rolga ega.
- b) amaliyot ijtimoiy xarakterga ega (intilishlarni o'z ichiga oladi).
- v) amaliyot bilish mahsulidir (bir-biri bilan bog'liq).
- g) inson amaliyoti gumanistik qadriyatlarga suyanadi.
- d) amaliyot ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega (o'zgarib, rivojlanib boradi)

**Amaliyotning o'ziga xos asosiy bedgilari:**

- faqat insonga xos
- u moddiy-hissiy
- u o'zgartiruvchi, qayta quruvchi
- muayan maqsadga qaratilgan faoliyatdir.

**Ijtimoiy taraqqiyotidagi sotsial inqiloblar:**

**Ijtimoiyinqilob** - (lot. O'zgarish) - jamiyat hayotida tub o'zgarish bo'lib, bu o'zgarish umri tugagan eski ijtimoiy tuzumnin ag'darib tashlanishi va yangi progressiv ijtimoiy tuzumning o'rnatilishini bildiradi.

Sotsial revolyutsiyaning asosiy masalasi - siyosiy hokimiyat masalasidir. Inqilob sinflar kurashining oliy tipi sotsialistik revolyutsiyadir.

**Sotsial islohat(reforma):** (fran. qayta o'zgartirish) mavjud sotsial tuzumni saqlab qolgan holda ijtimoiy taraqqiyotning biron tomonini qayta tuzish, o'zgartirish, qayta qurishdir.

**Taraqqiyot yo'li dunyo mamlakatlarida:**

1. **Tadrijiy (evolyutsion)** - (eng ishonchli yo'l, lekin uzoq): AQSH, Angliya
2. **Inqilobiy (revolyutsion) yo'l** (Pol Sha, Rum, Chexiya, sSSR va boshqa sotsialistik , mamlakatlar.)
3. **" Shok terapiya" -yo'li** (hozir: Pol Sha, Chexiya , Bolgariya,va boshqa sotsialistik , mamlakatlar.)
4. **Islohot yo'li** - (Germaniya, Jan. Koreya, Gonkong, Tailand, singapur, Turkiya).

O'zbekiston ham islohat yo'lini tanladi.

(Jan.Koreyada islohotlar 4 bosqichda: amalga oshgan: 1) 1946-1961, 2) 1962-1975, 3) 1976-1981, 4) 1982-1991 yy.)

Demak;

1. **Evolyutsiya - (lot. kengayib borish)** - asta-sekinlik bilan bo'ladigan miqdor vazifa o'zgarishi. Bunda har bir ob'yektning yangi holati ilgarigi holatiga nisbatan yuqoridarajada bo'ladi. Evolyutsion ta'limotga ko'ra (biologiyada) organik dunyo tarixiy taraqqiyoti umumiy qonuniyatlari haqida bilim beradi. Uning asosini Darvinizm evolyutsiyasi-nazariyasi tashkil etadi. Bugungi kunda Evolyutsion yo'li bilan rivojlangan mamlakat qurgan: AQSH, Angliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqa.

2. **Inqilobiy - (lot. inqilob, revolyutsiya)** – jamiyatning butun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzulmasida kuch ishlatish yo'li bilan yuz beradigan keskin

o'zgarish. Bu yo'l bilan borgan mamlakatlarning aksariyati iqtisodiy buxronga uchradi. Lekin Shu yo'l bilan borgan mamlakatlarga: Pol Sha, Rum Shiya, Chexoslovakiya, Bo'lgariya Xitoy, sSSR va boshqa sots. mamlakatlar, ular orasida Xitoy va Kuba rivojlanishning aralash Shaklini qo'lladi.

**3. Ilohiyat** – mavjud jamiyat doirasida u yoki bu ijtimoiy institutlar faoliyatida qilinadigan o'zgartish. Islohat odatda yangi qonunchilik hujatlari yordamida amalga oshiriladi.

4. "**Shokterapiya**" (**fran. zarba**) yo'li bilan borayotgan mamlakatlar bor. Bu yo'lda davlatmulkini birdaniga chiqarib, xususiyashtirish ko'zda tutiladi.

### **Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'llari**

Klassik yoki an'anaviy (uzoq muddatli)

Inqilobiy (Shok terapiyasi) yoki sakrab o'tish

Tadrijiy (evolyutsion) yoki bosqishma-bosqish o'tish

### **"O'tish davri" tushunchasi va uning asosiy yo'llari.**

"O'tish davri" keng va o'ta murakkab jarayon bo'lib, davlatlar taraqqiyotining bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tib borishi bilan bog'liq davr hisoblanadi.

Uning kengligi shundaki, o'tish davri boshlanishida yuzaga keladigan muammolarning ko'lami g'oyatda keng bo'lib, uni yechishda aniq andozalarni ya'ni bir mamlakat tajribalarini ikkinchisida aynan qo'llab bo'lmasligi bilan bog'liq. Shuning bilan birga demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan, siyosiy tizimni isloh qilish, bozor munosabatlarini shakllantirish, insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun Shart– Sharoitlarni vujudga keltirish, jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash va boshqa bir qator qonuniyatlar barcha mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi.

Bir ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan "o'tish davri" yoki oraliq bosqichning muhlati ana shu yangi yuzaga kelgan ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tuzum o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarib barqaror taraqqiy qilish jarayoni yuzagakelishi bilan tugaydi.

**«Klassik» yo'lining** xususiyati shundaki, u uzoq tarixiy davr davomida amalga oshiriladi va u siyosiy sohada qancha bo'xronlar bo'lishiga qaramay, asosiy islohotlar iqtisodiy sohada amalga oshiriladi va bunda xususiy mulkchilik yetakchi o'ringa ko'tarilishiga erishiladi Ushbu tadbirlarning muvaffoqiyatli amalga oshirilishi ijtimoiy - siyosiy va ma'naviy sohalarda islohotlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Bu tanlagan yo'l asosan Yevropa mamlakatlari va AQSHga xos bo'lib, dastlab aholining ko'pchiligini noro'ziligiga, so'ngra esa qarshilik ko'rsatishiga sabab bo'lgan va bunday kayfiyat aholi farovonligining o'sib borishi bilan so'nib, o'zining samarasini bera boshlagan va bu 2 - 2,5 asr Chamasi davom etgan.

**Bu yo'ning klassik (an'anaviy) deb atalishiga sabab Shuki,** mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'ldi va bugun yuksak taraqqiyotga erishgan aksariyat mamlakatlar ana shu yo'ldan bordilar.

**Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi «Inhilobiy» yo'l bo'lib**, uning xarakterli xususiyati shundaki, unda tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni batamom sindirishni talab etiladi. Bunisi «Falaj bilan davolash usuli» (« Shokoterapiya») deb ataladi. XX asrning 80 – 90 yillarida g'arbiy Yevropaning ba'zi davlatlari shunday yo'l orqali yangi tuzimga o'tganlar. Bu davlatlarda vujudga keltirilgan kata iqtisodiy salohiyat va ko'pchilik aholining turmush tarsi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib, dastlab siyosiy sohada keskin o'zgarishlarni amalga oshirish, so'ngi iqtisodiy sohada islohotlarni o'tkazish orqali demokratik jarayonlarni rivojlantirishga qaratildi. Shunday yo'l orqali mamlakat siyosiy hayoti bir tizimdan ikkinchisiga o'tdi. Bu o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarining o'zgarishiga olib keldi. O'tishning bu yo'lini sobiq jahon sotsializmi tizimiga kirgan ayrim mamlakatlar o'z boshlaridan o'tkazdilar. Ularning ayrimlarida masalan, Pol Shada bu jarayon murakkab kechdi.

Uchinchi yo'l bosqichma –bosqich, ya'ni “Evolyutsion” yo'l. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma – bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor munosabatlarini shikastsiz vujudga keltirish. Bunga O'zbekiston, Markaziy Osiyo davlatlari va MDHning ba'zi birlari kiradi.

**Bosqichma – bosqich o'tish bu:**

- ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy o'zgarishlari;
- jamiyat taraqqiyotining bir davridan ikkinchisiga o'tish Shakllaridan biri;
- jamiyat hayotining turli sohalarida islohotlar olib borish usuli.

Bosqichma – bosqich o'tish eskilik o'rniga yangiliklarni uzluksiz, izchil Shakllantirish va yangi sifatni yuzaga keltirishni anglatadi. U jamiyat o'zgarishining inqilobiy yo'lini rad etadi.

Unga xos bo'lgan xususiyatni aniqlashtirib quyidagicha izohlash mumkin. Mamlakatda amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, o'rniga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan eski tizim bir zarb bilan tugatilmasdan bosqichma–bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto, ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalanib boriladi. Xuddi ana shu jarayonda iqtisodiy islohotlarni olib borishda va boshqa yo'nalishlarda yangi munosabatlar Shakllantiriladi.

4. O'zbekistonda tadrijiy islohot yo'lining hayotga tatbiqi va uning natijalari.

**Mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishda:** Birinchidan, aholining tafakkur va milliy–tarixiy turmush tarzini, xalq an'analari va urf – odatlarini har tomonlama e'tiborga olish, ijtimoiy jihatdan uyu Shib yashashning jamoa shakli O'zbekiston xalqiga tarixan xos bo'lib, uning an'anaviy turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq.

**Ikkinchidan,** Respublika qulay jug'rofiy– siyosiy mavqega ega. O'zbekiston hududi tarixan eng qadimgi savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar va madaniyatlarning bir – birini o'zaro boyitish jarayoni avj olgan joy bo'lib kelgan.

**Uchinchidan,** o'ziga xos demografik vaziyatga ega ekanligi. O'zbekiston tug'ilish darajasi va aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lgan mamlakatlar jumlasiga kiradi.

**To'rtinchidan,** Respublika milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Shubilan bir vaqtda respublika hududida o'z

madaniyati va an'analariga ega bo'lgan 136 dan ziyod millat vakillari yashab kelmoqda.

**Beshinchidan**, tabiiy – iqlim Sharoitlarining o'ziga xosligi. O'zbekistonda quyoshning yil davomida 250-270 kun zenitda bo'lishi, dehqonchilik tarmog'ini rivojlantirish, alohida qimmatli texnik ekinlarni va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish imkoniyatini beradi.

**Oltinchidan**, O'zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish, uning qudratli mamlakatlar safiga tezroq kirib boorish imkonini beradigan yetarli salohiyatga ega.

**Ettinchidan**, o'tgan yillar davomida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligini ham e'tiborga olish kerak.

**«Sotsial dinamika» tushunchasini ham sotsiologiya fani nomini kashf qilgan Frantsuz mutaffakiri Ogyust Kont ishlab chiqqan.** To'g'ri, hamma sotsiologiya tizimlarda «sotsial dinamika» atamasini bevosita qo'llaniladi deb aytish qiyin. Shunday bo'lsada, Kont ta'riflagan bu sotsiologik yondashuv turli xil ijtimoiy tadqiqotlarda nazariy yo'llanma sifatida ishtirok etmoqda. Jumladan, rus-amerika sotsiologi P.Sorokin o'z sotsiologik tizimidagi sotsial genetika yoki genetik sotsiologiya O.Kontning sotsial dinamikasiga mos kelishini qayd qilgan edi. Ko'p sotsial dinamika nima?

O.Kont sotsiologiyasida sotsial dinamika jamiyat hodisalarini o'rganishdagi muayyan yovdashuvni bildiradi. Aslida, dinamika mexanikaning jismlar harakatini va harakat bilan uni yuzaga keltiruvchi kuch o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan bo'limidir. Umumiy ma'noda dinamika harakat holatini, narsa-hodisalarning o'sish, o'zgarish, rivojlanish jarayonini anglatadi. Sotsiologiyani fiziologiyaning bevosita davomi yoki «sotsial fizika» deb hisoblagan Kont ijtimoiy voqelikni tabiiy qonunlarini topishga harakat qilgan edi. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun ijtimoiy voqelik ikki yo'nalishda — sotsial statika yo'nalishida va sotsial dinamika yo'nalishida ko'rilishi lo'zim. Sotsial statika ijtimoiy elementlarning o'zaro muvozanatini, mavjudlik qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy elementlarining o'zaro uyg'unligini, ularning o'zaro muvozanatlashgan tarzda mavjudligini jamiyatni yaxlit butunlik deb qarashga imkon beradi. Shuning uchun ham jamiyat alohida o'ziga xos tizim bo'lib, bunda eng muhimi elementlarning o'zaroaloqasidir. Sotsial statika har qanday jamiyat barqarorlik, muvozanat holatini, asosiy tartibotni o'rgansa, sotsial dinamika jamiyatdagi o'zgarish, rivojlanishning izchilligi, birin-ketinligini ochib beradi. Shunday qilib, sotsial dinamika jamiyatning o'zgarish va rivojlanish holatlarini, ijtimoiy o'zgarishlarning ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarini ifodalovchi sotsiologik kategoriya deb qaralishi mumkin. Jamiyatni tashkil etuvchi sotsial guruhlar, individlar, tabaqalar, qatlamlarning xarakatlarini sotsial dinamikaning sotsial mobillik (lotincha mobilis-xarakatchan, o'zgaruvchan) va sotsial o'zgarishlar deb ataladigan ko'rinishlarni ifodalaydi. Sotsial mobillik tushunchasini sotsiologik tadqiqotlar doirasiga P.Sorokin kiritgan edi. Sotsial mobillik kishilarning muayyan ijtimoiy guruh va tabaqalardan boshqalariga o'tishlarini (sotsial o'zgarishlar), shuningdek, ayni bir sotsial tabaqa doirasida mashg'ulotlarning almashtirishini anglatadi. Sotsial mobillik tushunchasi guruhlar va bir butun jamiyatlar «ochiqligi» yoki

«yopiqdigi»ni tavsiflash uchun ishlatiladi. Intergeneratsion (avlodlar orasidagi) va integeneratsion (avlod ichidagi) sotsial mobillik ajratiladi. Sotsial holatning otadan o'g'liga (kamdan-kam hollarda onadan qiziga) o'tishi generatsion sotsial mobillikka, sotsial ko'tarilish yoki sotsial pasayish bilan bog'liq, individual belgilar esa intrageneratsion sotsial mobilikka misol bo'ladi. O'zgarishlar yo'nalishiga qarab vertikal (ko'tarilish va pasayish) va gorizonta sotsial mobillik farqlanadi. Sotsial mobillikning empirik ko'rsatkichi bo'lib o'zgaruvchanlik-mobillik barqarorlik-stabillik indeksi xizmat qiladi. Bu indeks tek Shiralayotgan guruhdagi mobil va stabil Shaxslar nisbatidan olinadi. Bundan tashqari, mobil (o'zgaruvchan) Shaxslarning jinsi, ma'lumot darajasi, «aqli rasolik koeffitsienti», millati, irqi, turar joyi, sog'-salomatligiga qarab ham sotsial mobil Shaxslarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'rtasidagi korelyatsiya (mos keluvchi) koeffitsientlar hisoblanishi mumkin. Sotsial mobillikni o'lchashda turli xil imkoniyatlarning mavjudligi miqdoriy analiz qo'llanishidan kelib chiqadi. Sotsial mobillik darajasini aniqlash yordamida u yoki bu jamiyatni «an'anaviy», «zamonaviy», «industrial», «postindustrial» va hokozolarga bo'lish mumkin.

**Sotsial differentsiatsiya va sotsial integratsiyani sotsial mobillik va o'zgartirishlar oqibati deb qarash mumkin.** Sotsial differentsiatsiya tushunchasi birinchi bo'lib G.Spenser tomonidan qo'llanilgan. Uning fikricha, ijtimoiy evolyutsiya bir vaqtning o'zida differentsiatsiya (bir xillikdan ko'p xillikka o'tish: mehnat taqsimoti, maxsus sotsial institutlar paydo bo'lishi) va integratsiya (organlarning bir-birlariga tobora muvofiqlashib borishi, oddiydan murakkabga o'tishi, umumiy aloqadorlik takomillashuvi), ijtimoiy tartibot mukammalashuvidan iboratdir. E. Dyurkgeym sotsiologik tizimida ham jamiyatdagi differentsiatsiya va integratsiya jarayonlariga e'tibor bergan. U differentsiatsiyani aholi zichligining oshishi va shaxslararo va guruhlararo muloqatlar sur'atiga bog'lab tushuntirgan. Odatda differentsiatsiya tushunchasi «tafovut» so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu holda u rollar, statuslar (maqomlar), institut va tashkilotlarni turli mezonlar yordamida klassifikatsiya qilishga yordam beradi. Strukturaviy funksionalizm va sistemali yondashuv tarafdorlari (Parsons, Ettsoni va b.) sotsial differentsiatsiya bilan sotsial sistemani o'z-o'zini saqlashning Sharti deb qaraydilar. Bunda sotsial differentsiatsiyaning yaxlit jamiyat, uning ostki tizimlari, guruhlari darajasida ko'rinishlari qat'iy farqlanadi. Ularning fikricha, quyidagi hayotiy muhim vazifalar - muhitga moslashish, maqsadlarini qo'ya bilish, ichki ixtiloflarni bartaraf etish (integratsiya) va hokozolar bajarilgandagina muayyan tizim mavjud bo'la olishi mumkin. Bu vazifalar esa faqat ozmi-ko'pmi maxsuslashgan institutlar tomonidagina bajarilishi mumkin. Demak, bunga muvofiq sotsial tizimlar ozmi-ko'pmi differentsiatsiyalashgan (tabaqalashgan) bo'ladi. Sotsial differentsiatsiya o'sishi bilan faoliyatlar ko'p maxsuslashib boradi, shaxsiy va oilaviy aloqalar o'z o'rnini borgan sari odamlar o'rtasidagi shaxsiy narsaviy munosabatlarga bo' Shatib beradi. Bu munosabatlar ko'proq ramziy vositalar bilan boshqariladi (masalan, iqtisodiy munosabatlar uchun bunday vositachi-pul). Sotsial integratsiya (lot. integratio — to'ldirilish, tiklanish; integer yaxlit, butun) sotsial differentsiatsiya nisbatdosh tushunchadir. Ho'zirgi zamon sotsiologiyasi tizimlar nazariyasidagi integratsiya tushunchasidan foydalaniladi. Unga ko'ra,



integratsiyada alohida differentsiyalashgan qismlarning bir butun qilib turuvchi aloqa va shu holatda olib keluvchi jarayon tushuniladi. Integratsiya turli xil sotsial sub`ektlar—individlar, tashkilotlar, davlatlar va hokozolar o`rtasida ixtilofsiz munosabatlar bo`lishini ko`zda tutadi. Sotsial tizimlar integratsiyasining darajasi va mexanizm to`g`risidagi qarashlar tarixan o`zgarib kelgan.

Ho`zirgi jamiyatda integratsiya muammolari bir qator mexanizmlar yordamida hal qilinmoqda. Umumiy huquqiy tizimlar, ko`ngilli assotsiatsiyalar, hamjamiyat azolari huquq va imtiyozlarini kengaytirish, ramziy vositalar umumiylik darajasini oshirish va hokozolar ana shulardan iborat. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa hamjamiyati, qolaversa, Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi va boshqalar bunga misol bo`la oladi.

Funksional bo`lmagan sotsiologik yo`nalishlar tarafdorlari (Bendiks, Gouldner) funksionalchi sotsiologlar sotsial integratsiya ahamiyatini mutloqlashtirishdan ogohlantiradilar. Ularning fikricha, haddan tashqari, batamom sotsial integratsiya amaliy nuqtai nazardan xatto zararlidir, Chunki u sotsial tizimni harakatsiz va mo`rt qilib qo`yadi.

**Bajaradigan vazifalari, sohalariga qarab sotsial dinamikaning quyidagi turlarini ajratib ko`rsatish mumkin:**

**1. Reproduktiv dinamika.** Sotsial dinamikaning bu turi tug`ilish, ishlab chiqarish, ekologiyaning sotsial jihatlarini o`z ichiga oladi. Aholi sonining o`sishi, tug`ilish miqdori, ularni belgilovchi omillar reproduktiv sotsial dinamika sohasiga kiradi. Ishlab chiqarish, ekologiya va sotsial sub`ektlar reproduktiv o`rnashmalarga aloqador bo`ladi.

**2. Maqom (status) sotsial dinamikasi.** U o`z ichiga xizmat lavo`zimlarida ko`tarilishi yoki pasayishni, turmush darajasi va sifatini qamrab oladi.

**3. Hududiy sotsial dinamika.** Aholi ko`chishlari sur`ati va miqdorlarining sotsial jihatlarini, katta shaxar vujudga kelishi bilan paydo bo`lgan sotsial muammolar, ishlab chiqarishning joylashtirilishi uning sotsial oqibatlarini hududiy(territorial) sotsial dinamika ob`ektlaridir.

**4. Ma`naviy hayot dinamikasi** manfaatlar, qadriyatlar, fikrlar, normalar harakati, o`zgarishi va rivojlanishi bu soha doirasida bo`ladi.

**5.Siyosiy dinamika** jamiyat sotsial-sinfiiy tarkibi, hokimiyat Shakllari o`zgarishini tushuntirib beradi.

**6. Fan-texnika dinamikasi.** Fan-texnika taraqqiyotining sotsial jihatlarini, ishlab chiqarish vositalari o`zgarishlarining ijtimoiy sub`ektlari hayotiga ta`siri, axborot va kommunikatsiya bilan bog`liq sotsiodinamik o`zgarishlar fan-texnika dinamikasiga kiradi.

Sotsial dinamika abstrakt, mavhum qonuniyat ifodasi emas. Har bir mintaqada, ijtimoiy tuzumda o`ziga xos sotsiodinamikani ko`rishimiz mumkin. Bundan Shunday xulosa kelib chiqadiki, o`tkazilajak sotsiologiya tadqiqot albatta mintaqaviy, maxalliy Sharoitlarga mos «tuzatish koeffitsientini ham o`z ichiga olishi lo`zim.

**«Sotsial rivojlanish» sotsiologiyaning muhim tushunchalaridan hisoblanadi.** Ho`zirgi zamon sotsiologiyasining etmishdoshlari deb aytsa bo`ladigan qadimgi va o`rta asr Sharq va G`arb ijtimoiy falsafasi vakillari

Konfutsiy, Aflotun, suqrot, Arastu, Forobiy, Beruniy, Foma Akvinskiy, Ibn Xaldunlar jamiyat rivojlanishi omillari, xarakalantiruvchi kuchlari, kelgusi jamiyat «loyihasi» va unga erishish yo'llari haqidagi masalalar o'z tarixiy davrlari Chegarasida qo'ya bilishgan edi. Ayniqsa, ularning ijtimoiy rivojlanishni abstrakt, mavhum tarzda emas, balki hayotiy muammo sifatida tahlil qilishgani diqqatga sazovordir. Jumladan, Abu Nasr Forobiy Shunday yozgan edi: «Insoniy vujuddan maqsad — eng oliy baxt — saodatga erishuvdir, avvalo u baxt — saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin bu baxt saodatga olib boradigan ish-amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxt saodatga ergashtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lo'zim bo'ladi.

**YAngi davr ma'rifatchilari (Volter, Kondorse, Tyurgo, Gerder)ning sotsial taraqqiyot haqidagi g'oyalari bilan tanish bo'lgan.** Sen-Simonning Shogirdi. **O.Kont sotsial rivojlanishni «sotsial dinamika» nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qilgan.** Uningcha sotsial dinamika insoniyat jamiyati rivojlanishini ketma-ketligi, bosqichma-bosqichligini qonunlarini o'rganish bilan Shug'ullanadi. Kontning «Po'zitiv falsafa kursi» (1830—1842) kitobida ko'rsatilishicha, «uch bosqich qonuni» mavjud bo'lib, unga ko'ra insoniyat o'zining ilgarilanma xarakatida uch bosqichni: toelogik, metafizik va po'zitiv bosqichlarni o'tadi. Bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish xos evolyutsiya bo'lib, unda jamiyatning rivojlanishi ifodalanadi. O.Kontga ohangdosh bo'lgan evolyutsiya haqidagi g'oyalar G.Spenserda ham bor. Evolyutsiya, spenser fikricha, tajribaning eng umumiy elementi bo'lib, tabiatning ham, jamiyatning ham barcha hodisalari tushuntirish imkoniyatini beradi. Uning «Sotsiologiya asoslari» deb nomlangan kitobining asosiy biologik va ijtimoiy organizm o'rtasidagi o'xshashlikdir. Lekin bu o'xshashlik mutloq emas. **Sotsial taraqqiyotning muhim mezoni, G.Spenser fikricha, shaxsni butunlay o'ziga bo'ysundirib olgan jamiyatdan, ijtimoiy organizm, uni tashkil o'ziga buysundirib olgan jamiyatdan, ijtimoiy organizm, uni tashkil etuvchi individlarga «xizmat» qiluvchi holatga o'tishdir.** Jamiyat taraqqiyotining quyi bosqichiga (garchi, uni hali to'la o'tib bo'lgan deb aytish bo'lmasada) birinchisi, ya'ni majburiy hamkorlikka asoslangan «harbiylashgan jamiyat», yuqori bosqichiga esa — ikkinchisi, ya'ni ixtiyoriy hamkorlikka asoslangan «sanoatlashgan jamiyat» mos keladi.

**Frantsuz sotsiologi Emil Dyurkgeymda sotsial taraqqiyot haqidagi g'oyasi mehnat taqsimotiga bog'lab tushuntiriladi.** Ijtimoiy rivojlanish, uningcha mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatda mehnat taqsimotiga asoslangan organik birdamlik, hamkorlik jamiyatiga o'tishdir. Dyurkgeym sotsial taraqqiyotni ta'minlovchi omil deb mehnat taqsimoti deb qaraydi. Mehnat taqsimoti segmentar jamiyatning bardam topishiga va organik birdamlikka asoslangan jamiyatga o'tilishiga imkon beradi. YAgona evolyutsiya zanjirining dastlabki xalqasi bo'lgan mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatda sotsial struktura bir xil segmentlar sifatida bo'ladi. Segmentlar (qismlar — A.X.) iqtisodiy nuqtai nazardan deyarli mustaqil, avtonomdir; ularning ijtimoiy tashkilotlarida

qarindoshlik ustun bo'ladi. Ularda ijtimoiy mehnat taqsimoti uchun ham extiyoj, va imkoniyat mavjuddir. Mexanik birdamlik rivojlanmagan, primitiv jamiyatlarga xosdir. Birdamlikning bu ko'rinishi individni jamiyat bilan «hech qanday vositachiliksiz» bog'laydi. Mexanik birdamlik — birdamlikning «jamoaviy» tipi bo'lib, uni tashkil etuvchi individlar bir birlariga o'xshash, ular bajaradigan ijtimoiy vazifalar ham bir xil, ularning Shaxsiy xususiyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Bunday jamiyatda individ o'ziga o'zi ega emas, u «jamiyatga tegishli narsadir», Dyurkgeym bo'yicha, bu jamiyat individning ongi jamoa ongining oddiy mahsulidir, zotan, umumiy, jamoaviy ong bo'lishi mexanik birdamlik bo'lgan jamiyatning asosiy belgisidir.

Jamiyat asta-sekin o'zgarib boradi. Loqal segmentlar Chegarasi buzila boshlaydi, Chunki, turli xil ijtimoiy aloqalar vujudga kela boshlaydi. Aloqa yo'llari va vositalari rivojlanadi, aholi tobora ko'payadi, shaharlar o'sa boshlaydi, aholi moddiy va ma'naviy zichligi oshadi va mehnat taqsimoti keng tarqala boshlaydi. Kishilarning ongi tobora tabaqalashayotgan mehnat taqsimotiga va murakkablashayotgan ijtimoiy tashkilotga mos kela boshlaydi. har bir individ tirik organizmni eslatadi va shuning uchun ham unda vujudga keladigan birdamlikni yangi ko'rinishini Dyurkgeym organik birdamlik deb atagan edi.

**Dyurkgeym sotsial taraqqiyotning etakchi omili mehnat taqsimoti deb qaragan bo'lsa-da**, bu jarayonni avtomatizm tarzida ifodalashdan yiroq edi. Jumladan, haddan tashqari ixtisoslashuv olib kelgan salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun ijtimoiy birdamlik, hamkorlik organlari — professional uyushmalar tashkil etish g'oyasi Dyurkgeym sotsial taraqqiyot kontseptsiyasida muhim o'rin tutadi.

**P.Sorokin «sotsial genetika»sida** uning ijtimoiy taraqqiyot g'oyasi ilgari surilgan. Uningcha, «genetik sotsiologiya» yoki «sotsial genetika» sotsial evolyutsiya nazariyasi bo'lib, u butun jamiyatning yoki uning muayyan tomonlari, institutlari rivojlanish Chizig'ini yoki tarixiy tendensiyalarini, shuningdek, bu tendensiyalardan og'ish va chekinishlarni tushuntirib beradi. Sorokin birinchilardan bo'lib sotsiomadaniy o'zgarishlar dinamikasi nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariya bo'yicha, ijtimoiy voqelik o'zgarishi qonunli jarayondir. Muayyan ijtimoiy — madaniy ulkan tizimlar (supersistemalar) bir-birlari bilan dialektik ravishda almashinadi. Muayyan jamiyat hukmron bo'lib turgan dunyoqarashning «o'tmaslashib qolishi» uning boshqa dunyoqarashga o'rnini bo' Shatib berishga olib keladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy muassasalar va normalarning o'zgarishiga, jamiyatning tubdan o'zgarishiga olib keladi. Jamiyatni bog'lab, birlashtirib turuvchi bir asos emirilishni va boshqa muqobil madaniy tarzning (etosning) hukmronlikka intilishi ijtimoiy, madaniy inqiroz, uru Sh va boshqa ijtimoiy to'fonlarga olib kelishi mumkin. Masalan, sorokin fikricha, birinchi jahon uru Shi va 1917 inqilobi G'arbiy Yevropa ijtimoiy-madaniy tizimidagi to'ntarishlar natija bo'lib, ularning o'zi keyingi ijtimoiy larzalarga olib keladi.

**Sotsiolog adabiyotda, shuningdek, qator ijtimoiy fanlar doirasida «sotsial rivojlanish», «sotsial bosqich», «sotsial taraqqiyot» tushunchalari ko'p xollarda sinonim sifatida ishlatiladi.** O'quv va ilmiy ish manfaatlari bu tushunchalarni aniqlashtirishni, ularning o'z o'rnida ishlatilishini talab etadi.

Sobiq, sho'ro jamiyatshunosligi aqidalariga muvofiq sotsial rivojlanish sifati o'zgarishlar(revolyutsiya) va miqdoriy o'zgarishlar (evolyutsiyaning) dialektik birligi harakatlantiruvchi kuchlari ijtimoiy ziddiyat, sinflar kurashib bo'lgan jarayondir. Sotsial taraqqiyot (progress) esa ijtimoiy – iqtisodiy formatsiyalarning qonuniy, tabiiy-tarixiy tarzda almashinishi deb ta'riflangan edi. Sotsial rivojlanish tabiatga nisbatan nisbiy mustaqillikka olingan jamiyatning umumiy yo'nalishidagi xarakatini ifodalovchi tushuncha deb olinishi mumkin. **«Sotsial evolyutsiya» va «Sotsial revolyutsiya»** sotsial rivojlanishning Shakllari sifatida qaralishi mumkin. Albatta, bunda islohot(reforma) o'zgarishlarini yo'lidagi inqilob (revolyutsiya) o'zgarishlari yo'lidagi, ularga bo'sunadigan rivojlanish Shakli deb qarash mumkin emas. Tabiatda ham, jamiyatda ham miqdoriy o'zgarishlar bilan aloqada bo'lmagan sifatiy o'zgarishlar, (bizning misolimizda inqiloblar), bo'lishi mumkin emas. Sakrashlar, inqiloblar emas, balki evolyutsiya sotsial rivojlanishning Shakli bo'lishi mumkin. Bu sotsial evolyutsiyaning sur'ati tashqi va ichki sharoitlar, jamiyatdagi ob'ektiv va sub'ektiv jarayonlar nisbatiga ko'ra tez yoki sekin bo'lishi mumkin. Ijtimoiy rivojlanishda inqiloblar mavjud, lekin, ular ijtimoiy to'ntarish emas, «tez sur'atdagi evolyutsiya», deb qaralishi mumkin. **Jamiyat rivojlanishining asosiy, normal yo'li esa — reforma, islohatdir.**

Jamiyat va uning qismlari, har bir elementi va hodisalaridagi o'zgarish va rivojlanish ob'ektiv va sub'ekti tomonlarni o'ziga oladigan qonuniyatli jarayondir. Ijtimoiy hayotning har bir sohasida — iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ma'naviy sohalarida o'zlarining ob'ektiv jarayoni deyilganda, kishilar ijtimoiy faoliyat ko'rsatayotgan, ularning hohish, irodalaridan tashqarida bo'lgan Sharoit va munosabatlar tushuniladi. Ijtimoiy rivojlanishning sub'ektiv jarayoni deyilganda odamlarning mafkuraviy, ahloqiy, siyosiy va emotsial-ruxiy sabablar bilan harakatga keladigan faoliyatlarni ifodalovchi tushuncha anglanadi.

Ijtimoiy rivojlanish sub'ektlarning maqsadga muvofiq faoliyati orqali ro'y beradi. Anglangan ehtiyojlar — manfaatlar bu faoliyatni xarakatlantiruvchi kuchlardir. Ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarni qondirilishi uchun sotsial jarayonlar boshqarilishi talab etiladi. Umumiy ma'noda boshqarish takomillashgan (biologik, texnik, sotsial) tizimlarning faoliyati ta'minlash uchun, ularning dastur va maqsadlarini amalga oshirishga xizmatqiladigan funktsiyadir (vazifadir). Sotsial boshqarish esa jamiyat muayyan tizimining tartiblanishi saqlanishi, mukammallashuvi va rivojlanishini ta'minlaydi. Sotsial boshqarish jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir: axborotni yig'ish va uni qayta ishlash; uni analiz etish; taqsimlash; maqsadga erishishga qaratilgan qarorning ishlab chiqilishi; rejalashtirish, dasturlashtirish; loyihalashtirish ko'rinishda umumiy qarorni bajarish uchun faoliyatni tashkil etadi; bu faoliyatni nazorat etish, kadrlarni tanlash va joy – joyiga qo'yish bilan birgalikda; faoliyat natijalari haqidagi axborotni to'plash va qayta ishlash.

Sotsial boshqarish ijtimoiy jarayonlarni bashorat qil Shi, oldindan ko'ra bilishga asoslanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, bashorat kategoriyasi ikki ma'noda aniqlashadi: oldindan aytib berish (deskriptiv, ya'ni tavsiflash manosida) va oldindan ko'rsatma berish (preskriptiv, undov, amr, buyruq. Ma'nosida). «Oldindan aytib berish» kelajak to'g'risidagi axborotni olish, kelajak

muammolarining mumkin bo'lgan yoki kutilayotgan, hohlayotgan istiqbo'llari, holatlari, echimlarining tavsifidir. «Oldindan ko'rsatib berish» I.S. Bestujev-Lada iborasi) — o' Sha muammolarni echish, kelajak haqidagi axborotdan foydalanish, axborotni shaxs va jamiyatning maqsadiga muvofiq faoliyatiga aylantirishdir. Zotan, sotsial boshqarishning asosiy vazifasi kishilar sub'ektiv faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlar talablariga muvofiq kelishiga erishish, bu qonuniyatlardan samarali foydalanishdir. Sotsial boshqarish bu ma'noda ham nazariy, ham amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi.

XX asr bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan boshqarish xususiyatidagi faoliyat menejment paydo bo'ldi. **Menejment (inglizcha-management)** — bir necha ma'noni bildiradi. **Birinchi**dan, menejment ishbilarmonlik faoliyatiga, turmush tarzi va siyosat sohasiga ta'sir ko'rsatuvchi sotsial va iqtisodiy institut deb tushuniladi. **Ikkinchi**dan, menejment xususiy va ijtimoiy bazis sohasida boshqarish mehnati bilan Shug'ullanuvchi shaxslar majmuini bildiradi. Uchinchidan, menejment, ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishning texnikaviy tashkiliy, huquqiy, ruxiy va sotsial jihatlarni o'rganadigan fandır. Oxirgi ma'noda u industrial sotsiologiya va boshqarish sotsiologiyasi bilan mos keladi. Ma'lumki, industrial sotsiologiya va boshqarish sotsiologiyasi boshqarish tizimini, shaxslararo munosabatlar tizimi va mexanizmini, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiyasini, tashkiliy faoliyatini o'rganadi. Menejmentning maqsadi — har qanday ijtimoiy tuzumga mos keladigan boshqarishning umumiy tamoyillarini shakllantirish va ularni amalda qo'llashdir. Bularga boshqarishning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularni bajarish uchun aniq tadbirlarni ishlab chiqish, vazifalarni bajarishdagi ketma-ketlikni belgilash, ishni taqsimlash, tashkilot ichidagi turli bo'linmalar o'zaro xarajatini mutanosiblash, rasmiy ierarxal (yuqori-past) strukturani optimlashtirish (ixchamlashtirish, qulaylashtirish), shuningdek rahbarlikning samarali uslubini, sotsial mas'uliyatni aniqlash kiradi.

**Sotsial rejalashtirish, loyihalashtirish va prognozlashtirish sotsial boshqarishning Shakllari sifatida qaralishi mumkin.** Sotsial rejalashtirish — sotsial boshqarishning dastlabki bosqichlariga xosdir. Rejalashtirish — o'ziga xos sotsial boshqarish bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy jarayonlar maqsadini, uning ustivor tomonlarini, ularga erishishning vosita va maqsadlarini aniqlash, rejalarni ishlab chiqish va ularni bajaruvchilarga etkazish, rejalar bajarilishi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Odatda, direktiv va indikativ rivojlantirishni farqlashadi. Direktiv rejalashtirish yuqori organlar tasdiqlagan ko'rsatkichlar majburiy bajarilishini taqozo etadi. Indikativ rejalashtirishda reja ko'rsatkichlari yo'naltiruvchi, axborot tarzida bo'ladi. Sobiq sotsialistik mamlakatlar rejalashtirishni mutloqlashtirganlari uchun, u jamiyat rivojlanishi yo'lidagi to'siqqa aylangan edi. Bozor iqtisodi amal qilayotgan ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda indikativ rejalashtirish keng qo'llaniladi. Ayniqsa, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreyada rejalashtirish yaxshi samara bermoqda. 1962 yildan beri «rejali» rivojlanayotgan Janubiy Koreya jahonda etakchi o'rinlardan biriga chiqdi. Ho'zirgi vaqtda bu mamlakatda 1990—1994 yillarda fanda eng ko'p qo'llanilayotgan sohalarni rivojlantirish bo'yicha reja qabul qilingan va bajarilmoqda.

Sotsial boshqarishni yana bir Shakli sotsial loyihalashtirish tushunchasi hali mavjud bo'lmagan, lekin yaratilishi lo'zim bo'lgan, shuningdek, tubdan o'zgarish lo'zim bo'lgan ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi. Sotsial loyihalashtirishni sotsial rejalashtirishning ko'rinishi deb ham aytish mumkin. U ijtimoiy munosabatlar, sotsial jarayonlar va aholi yashash Sharoitlarni yaxshilash vositasidir. Sotsial rejalashtirish mavjud bo'lmagan yoki tubdan o'zgarish lo'zim bo'lgan ob'ektlarga nisbatan «rivojlanish» iborasini qo'llash qiyin. Ular yaratilgandan so'nggina rivojlanishi mumkin. Sotsial loyihalashtirish sotsial rivojlantirishni emas, balki yangi ob'ektlarning dastlabki sotsial holatini loyihalashtirishdir. Undan tashqari, agar sotsial rejalashtirishda sotsial jarayonlarning hamma boshlang'ich sifatii va miqdoriy ko'rsatkichlarni aniq ko'rsatilgan ob'ekt bilan ish ko'rilsa, sotsial loyihada esa bu boshlang'ich tavsiflar mavjud bo'lib turgan sotsial institutdagidek bo'lmaydi.

Sotsial boshqarish Shakllari orasida sotsial prognozlashtirish alohida o'rin tutadi. Inson va jamiyat faoliyatining bevositagina emas, balki ancha keyin ro'y beradigan natijalarni ko'ra bilish va shunga yarasha sotsial rivojlanishni boshqarish zaruriyati sotsial prognozlashtirishni keltirib chiqardi. Turli xil mezonlar — maqsadi, vazifalari, vaqti, usuli, prognozni tashkil etishi va hokazolarga asoslanib har xil prognozlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Vaqt mezoniga ko'ra quyidagi prognozlarni qayd qilsa bo'ladi:

- joriy prognozlar - soatlar, kunlar, hafta va oylar;
- qisqa muddatli prognozlar- 1-5 yil oralig'ida;
- O'rta muddatli prognozlar - 5-10 yil oralig'ida;
- Uzoq, muddatli prognozlar - odatda, keyingi ikki-uch o'n yilliknio'z ichiga oladi;
- O'ta uzoq, muddatli prognozlar — uzoq muddatliidan keyingi davr;

Sotsial prognozlashtirish usullari g'oyat ko'p.Ularning eng asosiylari quyidagilardir: ekstrapolyatsiya tarixiy analogiya, kompyuterda modellashtirish, kelajak senariysi, ekspert baholar. Ekstrapolyatsiya ho'zirgi ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini kelajakka ko'chirish demakdir. Mazmuni va bajaradigan vazifasiga ko'ra prognozlarning quyidagi to'rtta asosiy turini ko'rsatish mumkin:

1. Qidiruv prognozlari. Bu prognozlar «rivojlanish qaysi yo'nalishda ketmoqda ho'zirgi tendensiyalar saqlanib qolganda nima ro'y beradi?» degan savolga javob beradi;

2. Normativ prognozlar. Bunda oldindan aniqlangan normalar, maqsadlar,ideallar asosida ijtimoiy xodisalarning kerakli holatiga erishish prognoz qilinadi, buning uchun maxsus takliflar — rekomendatsiyalar tavsiya etiladi;

3. Analitik prognozlar. Kelajakni tadqiqot etish metodlarning ilmiy — bilish ahamiyatini aniqlash amalga oshiriladi.

4. Prognoz ogohlantirishlar. Taxmin qilinayotgan noxu Sh kelajakni oldini olish, odamlar ongiga ta'sir etish uchun ishlab chiqiladi.

Prognozlashtirishning usullari va turlari o'rtasidagi tafovut qo'llanish ob'ektiga qarab nisbiy bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklar bir vaqtning o'zida boshqalari qo'llanilishi bilan bartaraf qilinishi mumkin.

### 30-mavzu. ZAMONAVIY SOTSILOGIYA VA UNING TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI

**Frantsuz sotsiologi Emil Dyurkgeymda sotsial taraqqiyot haqidagi g'oyasi mehnat taqsimotiga bog'lab tushuntiriladi.** Ijtimoiy rivojlanish, uningcha mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatda mehnat taqsimotiga asoslangan organik birdamlik, hamkorlik jamiyatiga o'tishdir. Dyurkgeym sotsial taraqqiyotni ta'minlovchi omil deb mehnat taqsimoti deb qaraydi. Mehnat taqsimoti segmentar jamiyatning bardam topishiga va organik birdamlikka asoslangan jamiyatga o'tilishiga imkon beradi. Yagona evolyutsiya zanjirining dastlabki xalqasi bo'lgan mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatda sotsial struktura bir xil segmentlar sifatida bo'ladi. Segmentlar (qismlar — A.X.) iqtisodiy nuqtai nazardan deyarli mustaqil, avtonomdir; ularning ijtimoiy tashkilotlarida qarindoshlik ustun bo'ladi. Ularda ijtimoiy mehnat taqsimoti uchun ham extiyoj, va imkoniyat mavjuddir. Mexanik birdamlik rivojlanmagan, primitiv jamiyatlarga xosdir. Birdamlikning bu ko'rinishi individni jamiyat bilan «hech qanday vositachiliksiz» bog'laydi. Mexanik birdamlik — birdamlikning «jamoaviy» tipi bo'lib, uni tashkil etuvchi individlar bir birlariga o'xshash, ular bajaradigan ijtimoiy vazifalar ham bir xil, ularning Shaxsiy xususiyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Bunday jamiyatda individ o'ziga o'zi ega emas, u «jamiyatga tegishli narsadir», Dyurkgeym bo'yicha, bu jamiyat individning ongi jamoa ongining oddiy mahsulidir, zotan, umumiy, jamoaviy ong bo'lishi mexanik birdamlik bo'lgan jamiyatning asosiy belgisidir.

Jamiyat asta-sekin o'zgarib boradi. Lokal segmentlar chegarasi buzila boshlaydi, chunki, turli xil ijtimoiy aloqalar vujudga kela boshlaydi. Aloqa yo'llari va vositalari rivojlanadi, aholi tobora ko'payadi, shaharlar o'sa boshlaydi, aholi moddiy va ma'naviy zichligi oshadi va mehnat taqsimoti keng tarqala boshlaydi. Kishilarning ongi tobora tabaqalashayotgan mehnat taqsimotiga va murakkablashayotgan ijtimoiy tashkilotga mos kela boshlaydi. har bir individ tirik organizmni eslatadi va shuning uchun ham unda vujudga keladigan birdamlikni yangi ko'rinishini Dyurkgeym organik birdamlik deb atagan edi.

**Dyurkgeym sotsial taraqqiyotning etakchi omili mehnat taqsimoti deb qaragan bo'lsa-da,** bu jarayonni avtomatizm tarzida ifodalashdan yiroq edi. Jumladan, haddan tashqari ixtisoslashuv olib kelgan salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun ijtimoiy birdamlik, hamkorlik organlari — professional uyushmalar tashkil etish g'oyasi Dyurkgeym sotsial taraqqiyot kontseptsiyasida muhim o'rin tutadi.

**P.Sorokin «sotsial genetika»sida** uning ijtimoiy taraqqiyot g'oyasi ilgari surilgan. Uningcha, «genetik sotsiologiya» yoki «sotsial genetika» sotsial evolyutsiya nazariyasi bo'lib, u butun jamiyatning yoki uning muayyan tomonlari, institutlari rivojlanish chizig'ini yoki tarixiy tendensiyalarini, shuningdek, bu tendensiyalardan og'ish va chekinishlarni tushuntirib beradi. Sorokin birinchilardan bo'lib sotsiomadaniy o'zgarishlar dinamikasi nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariya bo'yicha, ijtimoiy voqelik o'zgarishi qonunli jarayondir.

Muayyan ijtimoiy — madaniy ulkan tizimlar (supersistemalar) bir-birlari bilan dialektik ravishda almashinadi. Muayyan jamiyat hukmron bo'lib turgan dunyoqarashning «o'tmaslashib qolishi» uning boshqa dunyoqarashga o'rnini bo' Shatib berishga olib keladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy muassasalar va normalarning o'zgarishiga, jamiyatning tubdan o'zgarishiga olib keladi. Jamiyatni bog'lab, birlashtirib turuvchi bir asos emirilishni va boshqa muqobil madaniy tarzning (etosning) hukmronlikka intilishi ijtimoiy, madaniy inqiroz, urush va boshqa ijtimoiy to'fonlarga olib kelishi mumkin. Masalan, sorokin fikricha, birinchi jahon uru Shi va 1917 inqilobi G'arbiy Yevropa ijtimoiy-madaniy tizimidagi to'ntarishlar natija bo'lib, ularning o'zi keyingi ijtimoiy larzalarga olib keladi.

**Sotsiolog adabiyotda, shuningdek, qator ijtimoiy fanlar doirasida «sotsial rivojlanish», «sotsial bosqich», «sotsial taraqqiyot» tushunchalari ko'p xollarda sinonim sifatida ishlatiladi.** O'quv va ilmiy ish manfaatlari bu tushunchalarni aniqlashtirishni, ularning o'z o'rnida ishlatilishini talab etadi. Sobiq, sho'ro jamiyatshunosligi aqidalariga muvofiq sotsial rivojlanish sifati o'zgarishlar(revolyutsiya) va miqdoriy o'zgarishlar (evolyutsiyaning) dialektik birligi harakatlantiruvchi kuchlari ijtimoiy ziddiyat, sinflar kurashib bo'lgan jarayondir. Sotsial taraqqiyot (progress)esa ijtimoiy – iqtisodiy formatsiyalarning qonuniy, tabiiy-tarixiy tarzda almashinishi deb ta'riflangan edi. Sotsial rivojlanish tabiatga nisbatan nisbiy mustaqillikka olingan jamiyatning umumiy yo'nalishidagi xarakatini ifodolovchi tushuncha deb olinishi mumkin. **«Sotsial evolyutsiya» va «Sotsial revolyutsiya»** sotsial rivojlanishning Shakllari sifatida qaralishi mumkin. Albatta,bunda islohot(reforma) o'zgarishlarini yo'lidagi inqilob (revolyutsiya) o'zgarishlari yo'lidagi, ularga bo'ysunadigan rivojlanish Shakli deb qarash mumkin emas. Tabiatda ham, jamiyatda ham miqdoriy o'zgarishlar bilan aloqada bo'lmagan sifatiy o'zgarishlar, (bizning misolimizda inqiloblar), bo'lishi mumkin emas. Sakrashlar, inqiloblar emas, balki evolyutsiya sotsial rivojlanishning Shakli bo'lishi mumkin. Bu sotsial evolyutsiyaning sur'ati tashqi va ichki sharoitlar, jamiyatdagi ob'ektiv va sub'ektiv jarayonlar nisbatiga ko'ra tez yoki sekin bo'lishi mumkin. Ijtimoiy rivojlanishda inqiloblar mavjud, lekin, ular ijtimoiy to'ntarish emas, «tez sur'atdagi evolyutsiya», deb qaralishi mumkin. **Jamiyat rivojlanishining asosiy, normal yo'li esa — reforma, islohatdir.**

Jamiyat va uning qismlari, har bir elementi va hodisalaridagi o'zgarish va rivojlanish ob'ektiv va sub'ekti tomonlarni o'ziga oladigan qonuniyatli jarayondir. Ijtimoiy hayotning har bir sohasida — iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ma'naviy sohalarida o'zlarining ob'ektiv jarayoni deyilganda, kishilar ijtimoiy faoliyat ko'rsatayotgan, ularning hohish, irodalaridan tashqarida bo'lgan sharoit va munosabatlar tushuniladi. Ijtimoiy rivojlanishning sub'ektiv jarayoni deyilganda odamlarning mafkuraviy, ahloqiy, siyosiy va emotsial-ruxiy sabablar bilan harakatga keladigan faoliyatlarni ifodalovchi tushuncha anglanadi.

Ijtimoiy rivojlanish sub'ektlarning maqsadga muvofiq faoliyati orqali ro'y beradi. Anglangan ehtiyojlar — manfaatlar bu faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlardir. Ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarni qondirilishi uchun sotsial jarayonlar boshqarilishi talab etiladi. Umumiy ma'noda boshqarish takomillashgan (biologik, texnik, sotsial) tizimlarning faoliyati ta'minlash uchun, ularning dastur va



maqsadlarini amalga oshirishga xizmatqiladigan funktsiyadir (vazifadir). Sotsial boshqarish esa jamiyat muayyan tizimining tartiblanishi saqlanishi, mukammallashuvi va rivojlanishini ta'minlaydi. Sotsial boshqarish jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir: axborotni yig'ish va uni qayta ishlash; uni analiz etish; taqsimlash; maqsadga erishishga qaratilgan qarorning ishlab chiqilishi; rejalashtirish, dasturlashtirish; loyihalashtirish ko'rinishda umumiy qarorni bajarish uchun faoliyatni tashkil etadi; bu faoliyatni nazorat etish, kadrlarni tanlash va joy – joyiga qo'yish bilan birgalikda; faoliyat natijalari haqidagi axborotni to'plash va qayta ishlash.

Sotsial boshqarish ijtimoiy jarayonlarni bashorat qil Shi, oldindan ko'ra bilishga asoslanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, bashorat kategoriyasi ikki ma'noda aniqlashadi: oldindan aytib berish (deskriptiv, ya'ni tavsiflash manosida) va oldindan ko'rsatma berish (preskriptiv, undov, amr, buyruq. Ma'nosida). «Oldindan aytib berish» kelajak to'g'risidagi axborotni olish, kelajak muammolarining mumkin bo'lgan yoki kutilayotgan, hohlayotgan istiqbo'llari, holatlari, echimlarining tavsifidir. «Oldindan ko'rsatib berish» I.S. Bestujev-Lada iborasi) — o' Sha muammolarni echish, kelajak haqidagi axborotdan foydalanish, axborotni shaxs va jamiyatning maqsadiga muvofiq faoliyatiga aylantirishdir. Zotan, sotsial boshqarishning asosiy vazifasi kishilar sub'ektiv faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlar talablariga muvofiq kelishiga erishish, bu qonuniyatlardan samarali foydalanishdir. Sotsial boshqarish bu ma'noda ham nazariy, ham amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi.

XX asr bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan boshqarish xususiyatidagi faoliyat menejment paydo bo'ldi. **Menejment (inglizcha-management)** — bir necha ma'noni bildiradi. **Birinchidan**, menejment ishbilarmonlik faoliyatiga, turmush tarzi va siyosat sohasiga ta'sir ko'rsatuvchi sotsial va iqtisodiy institut deb tushuniladi. **Ikkinchidan**, menejment xususiy va ijtimoiy bazis sohasida boshqarish mehnati bilan Shug'ullanuvchi shaxslar majmuini bildiradi. Uchinchidan, menejment, ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishning texnikaviy tashkiliy, huquqiy, ruxiy va sotsial jihatlarni o'rganadigan fandir. Oxirgi ma'noda u industrial sotsiologiya va boshqarish sotsiologiyasi bilan mos keladi. Ma'lumki, industrial sotsiologiya va boshqarish sotsiologiyasi boshqarish tizimini, shaxslararo munosabatlar tizimi va mexanizmini, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiyasini, tashkiliy faoliyatini o'rganadi. Menejmentning maqsadi — har qanday ijtimoiy tuzumga mos keladigan boshqarishning umumiy tamoyillarini shakllantirish va ularni amalga qo'llashdir. Bularga boshqarishning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularni bajarish uchun aniq tadbirlarni ishlab chiqish, vazifalarni bajarishdagi ketma-ketlikni belgilash, ishni taqsimlash, tashkilot ichidagi turli bo'linmalar o'zaro xarajatini mutanosiblash, rasmiy ierarxal (yuqori-past) strukturani optimlashtirish (ixchamlashtirish, qulaylashtirish), shuningdek rahbarlikning samarali uslubini, sotsial mas'uliyatni aniqlash kiradi.

**Sotsial rejalashtirish, loyihalashtirish va prognozlashtirish sotsial boshqarishning Shakllari sifatida qaralishi mumkin.** Sotsial rejalashtirish — sotsial boshqarishning dastlabki bosqichlariga xosdir. Rejalashtirish — o'ziga xos sotsial boshqarish bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy jarayonlar maqsadini, uning

ustivor tomonlarini, ularga erishishning vosita va maqsadlarini aniqlash, rejalarni ishlab chiqish va ularni bajaruvchilarga etkazish, rejalar bajarilishi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Odatda, direktiv va indikativ rivojlantirini farqlashadi. Direktiv rejalashtirish yuqori organlar tasdiqlagan ko'rsatkichlar majburiy bajarilishini taqozo etadi. Indikativ rejalashtirishda reja ko'rsatkichlari yo'naltiruvchi, axborot tarzida bo'ladi. Sobiq sotsialistik mamlakatlar rejalashtirishni mutloqlashtirganlari uchun, u jamiyat rivojlanishi yo'lidagi to'siqqa aylangan edi. Bozor iqtisodi amal qilayotgan ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda indikativ rejalashtirish keng qo'llaniladi. Ayniqsa, Fransiya, YAponiya, Janubiy Koreyada rejalashtirish yaxshi samara bermoqda. 1962 yildan beri «rejali» rivojlanayotgan Janubiy Koreya jahonda etakchi o'rinlardan biriga chiqdi. Ho'zirgi vaqtda bu mamlakatda 1990—1994 yillarda fanda eng ko'p qo'llanilayotgan sohalarini rivojlantirish bo'yicha reja qabul qilingan va bajarilmoqda.

Sotsial boshqarishni yana bir Shakli sotsial loyihalashtirish tushunchasi hali mavjud bo'lmagan, lekin yaratilishi lo'zim bo'lgan, shuningdek, tubdan o'zgarish lo'zim bo'lgan ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi. Sotsial loyihalashtirishni sotsial rejalashtirishning ko'rinishi deb ham aytish mumkin. U ijtimoiy munosabatlar, sotsial jarayonlar va aholi yashash Sharoitlarni yaxshilash vositasidir. Sotsial rejalashtirish mavjud bo'lmagan yoki tubdan o'zgarish lo'zim bo'lgan ob'ektlarga nisbatan «rivojlanish» iborasini qo'llash qiyin. Ular yaratilgandan so'nggina rivojlanishi mumkin. Sotsial loyihalashtirish sotsial rivojlantirishni emas, balki yangi ob'ektlarning dastlabki sotsial holatini loyihalashtirishdir. Undan tashqari, agar sotsial rejalashtirishda sotsial jarayonlarning hamma boshlang'ich sifatiy va miqdoriy ko'rsatkichlarni aniq ko'rsatilgan ob'ekt bilan ish ko'rilsa, sotsial loyihada esa bu boshlang'ich tavsiflar mavjud bo'lib turgan sotsial institutdagidek bo'lmaydi.

Sotsial boshqarish shakllari orasida sotsial prognozlashtirish alohida o'rin tutadi. Inson va jamiyat faoliyatining bevositagina emas, balki ancha keyin ro'y beradigan natijalarni ko'ra bilish va shunga yarasha sotsial rivojlanishni boshqarish zaruriyati sotsial prognozlashtirishni keltirib chiqardi. Turli xil mezonlar — maqsadi, vazifalari, vaqti, usuli, prognozni tashkil etishi va hokazolarga asoslanib har xil prognozlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Vaqt mezoniga ko'ra quyidagi prognozlarni qayd qilsa bo'ladi:

- joriy prognozlar - soatlar, kunlar, hafta va oylar;
- qisqa muddatli prognozlar- 1-5 yil oralig'ida;
- O'rta muddatli prognozlar - 5-10 yil oralig'ida;
- Uzoq, muddatli prognozlar - odatda, keyingi ikki-uch o'n yilliknio'z ichiga oladi;
- O'ta uzoq, muddatli prognozlar — uzoq muddatlidan keyingi davr;

Sotsial prognozlashtirish usullari g'oyat ko'p.Ularning eng asosiylari quyidagilardir: ekstrapolyatsiya tarixiy analogiya, kompyuterda modellashtirish, kelajak senariysi, ekspert baholar. Ekstrapolyatsiya ho'zirgi ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini kelajakka ko'chirish demakdir. Mazmuni va bajaradigan vazifasiga ko'ra prognozlarning quyidagi to'rtta asosiy turini ko'rsatish mumkin:

1. Qidiruv prognozlari. Bu prognozlar «rivojlanish qaysi yo'nalishda ketmoqda ho'zirgi tendensiyalar saqlanib qolganda nima ro'y beradi?» degan savolga javob beradi;

2. Normativ prognozlar. Bunda oldindan aniqlangan normalar, maqsadlar,ideallar asosida ijtimoiy xodisalarning kerakli holatiga erishish prognoz qilinadi, buning uchun maxsus takliflar — rekomendatsiyalar tavsiya etiladi;

3. Analitik prognozlar. Kelajakni tadqiqot etish metodlarning ilmiy — bilish ahamiyatini aniqlash amalga oshiriladi.

4. Prognoz ogohlantirishlar. Taxmin qilinayotgan noxush kelajakni oldini olish, odamlar ongiga ta'sir etish uchun ishlab chiqiladi.

Prognozlashirishning usullari va turlari o'rtasidagi tafovut qo'llanish ob'ektiga qarab nisbiy bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklar bir vaqtning o'zida boshqalari qo'llanilishi bilan bartaraf qilinishi mumkin.

### **3.O'zbekistonning ho'zirgi sotsial taraqqiyoti va o'sish holati**

Istiqbolimizning mashaqqatli, fidokorona mehnati bilan 20 yili ortda qoldi. Bu yillar boy imkoniyatlarga ega bo'lgan, respublika va uning aholisini tang holatdan, moddiy va ma'naviy inqirozdan chiqarish, milliy davlatimiz poydevorini qurish, iqtisodiyotimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish yillari bo'ldi.

O'zbekistonni jahonga nomoyon qilish, axborot va iqtisodiy jihatdan chetlashtirish hollariga barham berish, jahon hamjamiyatining boshqa mamlakatlari qatorida teng bo'lib olish sari intilish yillari bo'ldi.

Hayotning, jamiyatning asosiy tamoyillarini va davlatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy tuzilmalarini hal qiluvchi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, erkin demokratik kelajakni aniq belgilab bargan asosiy qonun, Konstitutsiya qabul qilindi.

O'zbekiston tanlab olgan yo'l — respublika va uning xalqining manfaatlariga nihoyatda mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir.

Chuqur o'zgarishlar bizning hayotimizga shiddat bilan kirib bormoqda. Sodir bo'layotgan tub siljishlar dunyoning haqqoniy qiyofasini o'zgartirib yubormoqda.

Mustaqillik biz uchun eng ulug', eng aziz qadriyat bo'lib, milliy o'zligimiz, or-nomusimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli, ezgu orzu — intilishlarimiz, yutuq va marralarimizning hayotbaxsh manbai sifatida shu muqaddas zaminda yashayotgan barcha vatandoshlarimiz qalbidan tobora mustahkam o'rin egallamoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti ta'kidlab o'tilgandek, «mustaqillik biz uchun — o'zligimizni anglash, yurt tinchligi va barqarorligining, inson manfaati, erkinligi va farovonligining garovidir» degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan.<sup>1</sup>Tarixan bu qisqa 22 yillik davr — yosh davlatimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiy va ma'naviyat, ijtimoiy hayot, sud-huquq tizimi, tashqi siyosat va xavfsizlikni

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 19 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'n sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarori.//«Xalq so'zi ». 2009 yil 20 iyun.

ta'minlash borasida har tomonlama rivojlanish va yuksalish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash davri bo'ldi, deyish mumkin.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini amalda namoyon qiladigan va ro'yobga chiqaradigan tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish jarayoni davom etmoqda. Bank tizimi qayta tashkil qilinmoqda. Mustaqil milliy aviakompaniya, axborot agentligi, kinokompaniya va boshqa umumdavlat xizmatlari ishlab turibdi.

O'zbek xalqining mustaqillikka bo'lgan intilishini jahon hamjamiyati, xalqaro jamoatchilik qo'llab-quvvatladi. Dunyodagi 180 dan ortiq mamlakat O'zbekistonning Davlat mustaqilligini tan oldi. 130 ga yaqin xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlari o'rnatildi. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot, 13 ta nohukumat tashkilotlari ishlab turibdi. Chet ellarda mamlakatimizning 48 ta diplomatik vakolatxonasi mavjud.

Tarixda ilk bor, 1992 yilning 2 martida O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo qilib qabul qilindi. Jahonning 140 mamlakati bilan savdo – iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 50 dan ortiq mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Respublikani haqiqatan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi.

Ho'zir O'zbekiston tarixiy chorraxada turibdi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov Respublikani milliy davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqdi. Respublikada ho'zir yashab turganlarning taqdirigina emas, balki ularning farzandlari, nabiralarning ham taqdiri, kelajak avlodlarning taqdiri ham Shunga bog'liq bo'ladi. Respublika tang holatlarni ayni darajada tezroq bartaraf etish, yakkahokimlik tizimining illatlarini batamom tugatish, rivojlangan madaniyatli mamlakatlar darajasiga chiqib olish Shu narsa bilan hambelgilanmoqda.

Barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolmoqda. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyatning qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin.

Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha umuminsoniy va milliy qadriyatlarni tajribalarni rad etmagan holda, o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishi respublikaning qat'iy po'zitsiyasidir.

O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishidan iborat o'z yo'li aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi, Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoatchilik, mahalla asoslari O'zbekistonga xosdir.

Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgaralar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning asoslari va yo'nalishlari xususida so'z ketar ekan, bugungi kunda avvalo huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy negizlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi<sup>2</sup> (42-modda).

O'zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan etarli salohiyatga ega. Er bag'rining g'oyat qimmatli mineral xom-ashyo'larga boyligi chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini bermoqda.

**O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li 4 ta asosiy negizga asoslanmoqda. Bu negizlar:**

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin nomoyon qilishi;
- vatanparvarlik<sup>3</sup>.

Davlat ramzlari – bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir.

**Islohotlar strategiyasini amalga oshirishda biz uchun quyidagilar uzluksiz ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi:**

- ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish;
- aqliy va ma'naviy salohiyatni mustahkamlash;
- aholini ijtimoiy himoya qilish.

Chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, birinchi navbatda, kadrlar potentsialiga, ularning kasb jihatdan tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi.

Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar – o'z yo'liga, – degan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov. – Ularni hal etish mumkin, xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qaddini baland tutish, ota-bobo'larimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan Sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda! Shu boisdan «hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'nalarimizning saqlanishi va madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan bog'liqdir»<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2009, 10-bet.

<sup>3</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliyistiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: «O'zbekiston», 1996, 76-bet.

<sup>4</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 381-bet.

O'tgan mustaqillikning 22 yili davomida «O'zbek modeli» o'zini oqladi. Bu modelga milliy manfaatlar nuqtai nazaridan qaralib, «Shok terapiyasi» usullaridan tamomila farq qiladi. O'tish davrida davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Natijada O'zbekiston moliyaviy - iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, iqtisodiyotning real sektori korxonalar va tarmoqlarning uzluksiz ishlashi ta'min etildi. Davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 13,3 foizini tashkil etdi. Chet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshdi. O'zbekiston jahon bozoriga eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlar chiqarmoqda. 2008 yil yakunlari bo'yicha respublika YAIM hajmi 9 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 12,7 foizga, qishloq xo'jalik mahsuloti etishtirish hajmi 4,5 foizga, qurilish ishlari hajmi 8,3 foizga, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi 10,2 foizga, savdo sohasi 7,2 foizga, xizmatlar hajmi 21,3 foizga oshdi<sup>5</sup>.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga baqishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisi kun tartibiga qo'yilgan asosiy masala – bu O'zbekistonning 2012-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlarini muhokama etish va 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlab olishdan iborat.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor Shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozorida o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi. Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, Buning natijasida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. 2013-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning jami tashqi qarzlari miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,0 foizdan oshmagani, bu ko'rsatkich esa xalqaro mezonlar bo'yicha “o'rtachadan ham kam” darajada baholangani buni isbotlab bermoqda. (O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

**O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi (2010 yil 12 noyabrda) “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtir Sh va**

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009. -56 - b.

**fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi” yuzasidan ma’ruza qilib,** uning oltinchi yo’nalishi sifatida “Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish” masalasini qo’ydi. Unda mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida qo’lga kiritilgan yutuqlarga to’xtalgan holda, yana qanday vazifalar oldimizda turganligiga izoh berib o’tdi. Ya’ni, 1991-2000 yillarda ulkan o’zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e’tibor markazlashtirilgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratilganligi, bular Fuqarolik, Er, Soliq va Bojxona kodekslari, “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida”, “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”, “Chet el investitsiyalari to’g’risida”, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish Choralari to’g’risidagi” qonunlar qabul qilindi. Islohotlarning keyingi bosqichida “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida”, “Xususiy korxonalar to’g’risida”, “Valyutani tartibga soliy to’g’risida”, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida”, “Fermer xo’jaligi to’g’risida” gi qonunlar, yangi taxrirdagi soliq kodeksi va boshqa iqtisodiyotni isloh qilish bo’yicha umumiy hisobda 400 dan ziyod qonun xujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va xayotga tadbiiq etildi.

Navbatdagi vazifa sifatida, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida bir qator ustuvor vazifalar belgilanib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish yuzasidan takliflar o’rtaga tashlandi. Ya’ni, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to’g’risidagi” Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish, “Tadbirkorlik faoliyati sohasida berish tartib-qoidalari to’g’risida” gi Qonunni ishlab-chiqish va qabul qilish, kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish maqsadida biznesning yangi tashkiliy-huquqiy Shakli sifatida oilaviy-biznesni qonuniy belgilab qo’yish, bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish, “Raqobat to’g’risida” gi yangi qonunni ishlab-chiqish va qabul qilish zarurligi qayd etildi.

“Hozirgi kunda mamlakatimizda ichki mahsulotning 80 foizdan ortig’ini nodavlat sektor ta’minlamoqda. 1991 yilda qabul qilingan “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida” gi Qonun, o’tgan davr mobaynida 80 tadan ortiq qonunosti xujjati unga uyg’unlashtirilganiga qaramasdan, bugun qayta ko’rib chiqishni va yangi taxrirda qabul qilishni talab etmoqda”.

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur’ati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan “Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to’g’risida”, “Garov reestri to’g’risida”, “Rieltorlik faoliyati to’g’risida”, “Investitsiya va pay fondlari to’g’risida”, “Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to’g’risida” gi va boshqa bir qator yangi qonunlar qabul qilishni hayot taqozo etmoqda.

## **Tayanch iboralar**

Amaliyot, taraqqiyot yo'li, ijtimoiy inqilob, reforma, o'tish davri, tadrijiy (evalyutsion), shok terapiya yo'li.